



Chingiz  
Aytmatov

# Oq kema





Chingiz Aytmatov

# Oq kema



YANGI ASR AVLODI  
TOSHKENT  
2017

**UO'K: 821.512.154-3**

**KBK: 84(5Kir)**

**A - 39**

**Aytmatov, Chingiz**

Oq kema: qissalar. Chingiz Aytmatov / Tarjimon Asil Rashidov.

- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. - 432 b.

ISBN 978-9943-20-239-9

«Kamolot kutubxonasi» ruknida navbatda taqdim etilayotgan Chingiz Aytmatovning eng sara qissalaridan jamlangan «Birinchi muallim» to‘plami bizning kitobxon do‘stilarimizga navbatdagi tuhfamizdir.

Kitobdan o‘rin olgan «Oq kema», «Birinchi muallim», «Sarv-qomat dilbarim», «Bo‘tako‘z» kabi qissalar bilan qisman tanish bo‘lsangiz-da, har gal intiqlik bilan qayta mutolaaga chog‘lanasiz, to‘g‘rimi?!

Atrofimizda turfa fe'l, turfa xarakterga ega odamlar bor. Chingiz Aytmatov kashf qilgan Insonlar ham bizga begona emas, balki ular hozir ham biz bilan yonma-yon, birga yashayotgandirlar... Oq kemani kutayotgan bolakay, bepusht farzandi uchun kuyovining oldida hamisha mung‘ayib turadigan Mo‘min chol, toptalgan nomus uchun o‘zini gunohkor deb bilguvchi Duyshen muallim, muhabbatida sobit turolmagan Ilyosning qalb to‘la iztiroblari, insoniylik qiyofasini tamoman unutgan, odamlarga yomonlikdan boshqasini sog‘inmaydigan Abubakr – bu qahramonlarni va ularning dardlarini adabiyotga olib kirgan buyuk ijodkor Aytmatov iste’dodi oldida bosh egsa arziydi.

Demak, kitob orqali dardlar bilan, iztiroblar bilan, ushalmay qolgan orzular bilan yashagan qahramonlar ila qayta yuzlashamiz, ularga hamdard bo‘lamiz.

Tarjimon  
**ASIL RASHIDOV**

ISBN 978-9943-20-239-9

© Chingiz Aytmatov, «Oq kema». «Yangi asr avlodi», 2017.

## **OQ KEMA**

*(Ertakdan so'ng)*

### **BIRINCHI BOB**

Uning ikki ertagi bo'lardi. Biri o'ziniki bo'lib, uni hech kim bilmasdi. Ikkinchisini esa bobosi so'zlab bergandi. Keyin birontasi ham qolmadi. Gap shu xususda.

O'sha yili u yetti yoshga to'lib, sakkizga qadam qo'ygandi.

Avval portfel sotib olindi. Qop-qora dermantin portfelsi ochib-yopganda shiqillaydigan qulfi yaltirab turardi. Yonida mayda-chuyda soladigan kisisasi ham bor. Qisqasi, g'aroyib, ayni paytda oddiy maktab portfeli edi. Hamma narsa, ehtimol, shundan boshlandi.

Bobosi uni ko'chma do'kondan sotib oldi. Ko'chma do'kon tog'dagi chorvadorlarga mol sotib, aylanib yurganda, ularga ham, San-Toshdagi o'rmonchilik qorovulxonasiga ham birrov burilgandi.

U bu yerdan, dara va nishab yo'llar bo'y lab tog'dagi qatag'on o'rmonga ko'tarildi. Qorovulxonada boryo'g'i uch oila yashaydi. Lekin shunday bo'lsa-da, vaqtı-vaqtı bilan ko'chma do'kon o'rmonchilarni ham yo'qlab turardi.

Uch hovlida yolg'iz bitta bola bo'lib, u har safar ko'chma do'konni birinchi bo'lib ko'rар edi.

– Kelyapti! – deb qichqirdi u eshik va derazaga qarab chonib. – Mashina-magazin kelyapti!

Issiqko'l bo'ylaridan bu tarafga cho'zilgan aylanma yo'l kela-kelguncha dara, daryo sohili bo'y lab, toshloq

va o'nqir-cho'nqirlardan o'tib kelardi. Bu yo'llardan yurish hazilakam ish emas. Qorovultoqqa yetguncha yo'l pastdan yuqoriga torayib, qiyalab borardi-da, keyin tikka taqir nishablik bo'ylab o'rmonchilar hovlisiga tushadi. Qorovultog' shundoq yonginalarida – yozda bola durbindan ko'lni tomosha qilgani deyarli har kuni o'sha yoqqa chopardi. U yerdan esa yo'lda kelayotgan piyoda-yu otliq, albatta, mashina ham, hamma narsa kaftdagidek ko'rinib tu rardi.

O'sha safar – issiq yoz kunlaridan birida bola o'z ko'lobia cho'milib turgan edi, shunda qiya yo'lni changitib kelayotgan mashinani ko'rib qoldi. Ko'lob daryoning chetroq sayoz joyida, qumloq yerda bo'lib, bobosi tosh qalab to'sib bergen edi. Agar shu to'siq bo'limganda, kim biladi, balki bola ham allaqachonlar tirik qolmagan bo'larmidi? Buvisining aytishicha, daryo allaqachon uning suyaklarigacha yuvib, to'g'ri Issiqko'lga eltib tashlarmidi va u yerda baliqlar hamda suvdagi har xil ballyoi battarlarga yem bo'larmidi? Hech kim uni qidirib jon koyitmas, dardida kuyib, ado bo'lmas edi, rost-da, sunda pishirib qo'yibdimi? Sirasini aytganda, u kimga ham kerak. Hali hozircha bu falokat bo'lganicha yo'q. Sodir bo'lsa, kim biladi, buvisi balki chindan ham uni qutqargani urinib ko'rmas, kampir tug'ishgan buvisi bo'lganda boshqa gap edi, axir, uning o'zi, o'gaysan, deb yuradi-ku. O'gay esa qancha yedirib, qancha ichirma, baribir o'gayligiga boradi. O'gay... Agar u o'gay bo'lishni istama-sa-chi? Xo'sh, nega endi u o'gay bo'lishi kerak? Balki u emas, buvisining o'zi o'gaydir?

Lekin bu to'g'rida ham, bobosi yasagan to'siq haqida ham keyinroq gap bo'ladi.

Shunday qilib, u o'shanda ko'chma do'konni uzoqdan ko'rib qoldi, mashina ketidan to'zon ko'tarib, tog'dan tushib kelayotgan edi. Shunda u quvonib ketdi, o'ziga portfel olinishini bilgandek quvonib

ketdi. Shu zahotiyoq suvdan sakrab chiqdi, chillakdek oyoqlarini ishtonining pochalariga tiqdi-yu, suvning sovuqligidan ko'karib ketgan badanining ho'li bilan ko'chma do'konning kelayotganini birinchi bo'lib yetkazish uchun so'qmoqdan uylar tomon chonib ketdi.

Bola butalar ustidan hatlab, sakrab o'tish qiyin bo'lgan xarsang toshlarni yonlab o'tib, na o'siq o'tlar, na xarsang toshlar oldida, bular shunchaki narsalar emasligini bilsa-da, bir daqqa ham to'xtamay chonib borardi. Ular ranjib qolishi, hatto chalib yiqitishi ham mumkin edi. «Mashina-magazin keldi. Men keyin kelaman», – yo'l-yo'lakay u «cho'kib yotgan tuya»ga gap qotdi. U bag'rini yerga berib yotgan sarg'ish bukri toshni shunday deb atardi. Odatda bola o'z «tuya»sining yonidan uning o'rkachini silamasdan o'tmasdi. Xuddi bobosi dumi cho'ltoq axta otini shapatilagan kabi, u ham ishning ko'zini biladigan kishilar singari o'z «tuya»sining yonidan o'tib borayotib naridan beri, sen sabr qilib turasan endi, mening ishim chiqib qoldi, deb uni shapatilab qo'yardi. Uning xarsang toshida «egar» ham tayyor edi. Yarmi oq, yarmi qora bu chavkar toshdag'i egarchada xuddi otda o'tirgandek o'tirgan bo'lardi. Yana «bo'ri» degan tosh bor – bo'riga juda o'xshash qo'ng'ir, oq oralagan, yoldor va cho'ng peshanali. Bola uning oldiga pisib emaklab borardi-da, mo'ljalga olardi. Lekin eng sevimli tosh, bu suv yuvib ketgan qirg'oqdagi kattakon xarsang «tank» edi. Qarab tursang «tank» qirg'oqdan otilib chiqadi-yu, daryoni shovqin-suronga solib, to'lqinlantirib, ko'piklantirib, yurib ketadigandek. Tanklar kinolarda axir shunday yuradi-ku, qirg'oqdan suvg'a otiladi: ketdi! Bola kinolarni kam ko'rgan, shuning uchun ham ko'rganlari yodida qattiq o'rnashib qolgan. Bobosi ba'zan uni kino ko'rsatgani tog' ortidagi – qo'shni

daradagi sovxoz naslchilik fermasiga olib borardi. Shu sababli ham qirg'oqda daryoni har qachon kesib o'tishga shay turgan «tank» paydo bo'ldi. Yana boshqa – «yaxshi» va «yomon» toshlar, hatto «ayyor» va «ovsar»lari ham bor.

O'tlar orasida ham – «sevimli», «botir», «hurkak» va «yovuz» hamda boshqa xillari mavjud edi. Chaqirtikan, masalan, eng birinchi dushman. Bola u bilan kuniga o'n martalab jang qilgan, chonib tashlagan. Lekin bu jangning oxiri ko'rmasdi – chaqirtikan hadeb o'saverar va ko'payaverardi. Mana, daladagi pechak gullar, to'g'ri, ular ham yovvoyi, shunga qaramay bular eng aqlii va quvnoq gullardir. Ular ertalab quyoshni hammadan ortiq yayrab qarshi oladi. Boshqa o'tlarga – tong nima, tun nima, baribir. Pechakgullar esa kun ilishi bilanoq ko'z ochadi, kulib boqadi. Oldin bir ko'zini, keyin ikkinchisini ochadi, shundan so'ng bag'ridagi barcha gullar birin-ketin ochila boshlaydi. Oq, och ko'k, binafsha va yana har xil rangda... Agar ularning oldida sukul saqlab o'tirsang, go'yo bu gullar uyqudan uyg'onib, allanimalar haqida shivirlashayotgandek tuyildi. Chumolilar ham buni sezadi. Ular ertalabdan pechakgullar huzuriga chonib, quyosh nurlaridan ko'zlarini qisib, gullarning o'zaro nimalar haqidadir shivirlashayotganiga qulq soladi. Balki, ko'rgan tushlarini so'ylashayotgandir?!

Kunduzlari, odatda tush vaqtiga borib bola serpoya shiroljinlar g'uj bo'lib o'sgan tomonga borishni yaxshi ko'rardi. Shiroljin baland bo'yli, gulsiz, lekin xushbo'y hidli bo'ladi. Ular yon-veriga boshqa o'simlikni yo'latmay to'da-to'da bo'lib, alohida o'sadi. Shiroljin – sadoqatli do'stdir. ayniqsa, biror ko'ngilsizlik yuz berib, pinhona yig'laging kelganda shiroljin ostidan yaxshi panoh topish mumkin. Ular o'rmon

yoqasidagi qarag‘ayzorlar singari yoqimli hid taratib turadi. Shiroljinlar quchog‘i qaynoq va sokin. Eng muhimi – ular osmonni to‘sib qo‘ymaydi. Chalqancha yot-da, osmonni tomosha qilaver. Avval ko‘z yoshlari orasidan hech nimani ajrata olmaysan. Keyinchalik esa bulutlar suzib ketadi va sen o‘ylayotgan narsalar osmonda, ko‘z oldingda aniq namoyon bo‘la boshlaydi. Bulutlar yaxshi biladi: ko‘ngling ancha noxush, qayoqlargadir jo‘nab qolging yoki uchib ketging keladi, toki seni topolmay, oh-voh qilishsin: «Eh bolagina, bedarak ketdi-ya, endi uni qayerdan topamiz», deb kuyib yurishsin. Bunday bo‘lmasligi uchun sen yo‘qolib qolmasliging va jimgina yotib, bulutlardan zavqlanishing kerak. O‘shandagina sen nimani istasang bulutlar o‘shanga aylanib qoladi. O‘sha birgina bulutning o‘zidan turli-tuman shakllar yuzaga kela boshlaydi. Faqat bulutlar qanday shaklga kirayotganini ko‘rib bilsang bas.

Shiroljinlar tagi jimjit, ular osmonni to‘smaydi. Shiroljinlar mana shunaqa, iliq qarag‘ayzor hidini ufuradi.

U o‘tlar to‘g‘risida ko‘p narsa bilardi. Suv bosaligan pichanzordagi kumushrang supurgi o‘tlarga rahmi kelardi, juda g‘alati-da bu supurgi o‘tlar, havoyi juda. Ularning ipakdek mayin popuklari shamolsiz yasholmaydi. Shamolni kutgani-kutgan, shamol qayoqqa essa, o‘sha yoqqa egilib, xuddi buyruqqa bo‘ysungandek, yoppasiga salom beradi. Agar yomg‘ir quyib bersa yoki momaqaldiroq boshlanib qolsa bormi, giyohlar qayerga bosh suqishni bilmay qoladi: to‘lg‘anadi, tiz cho‘kadi, yer bag‘irlab qoladi. Oyoqlari bo‘lganda-yu, ehtimol, ko‘z yetgan joygacha qochib qolisharmidi... Yo‘q, ular o‘zlarini mug‘ambirlikka solyapti. Momaqaldiroq tinsin-a, havoyi supurgi o‘tlar yana shamolning hukmida –

shamol qayoqqa essa, ular ham o'sha yoqqa egila boshlaydi.

Bola yolg'iz, jo'ralarsiz mana shu sodda-bayov narsalar qurshovida yashardi, avtolavkagina hamma narsani unutishga, ko'ringanda chopishga majbur qila olardi. Shuning uchun ko'chma do'konni ko'rgan zahoti hamma narsani unutib, o'zini o'sha tomonga otardi. Nimasini aytasan, ko'chma do'kon – bu senga allaqanday tosh yoki o'tlar emas. Unda kishining jonidan bo'lak hamma narsa bor!

Bola uyiga yetib kelganida ko'chma do'kon ham orqa tomondan hovliga yaqinlashib qolgan edi. O'rmon xo'jaligi qorovulxonasiqa qarashli bu uylar daryoga qaratib solingan. Hovlilar qiyalab qirg'oqqa tutashar, daryoning narigi qirg'og'ida esa o'rmon suv yuvgan jar chetidan boshlanib, tog'ga qarab ko'tarilib ketar edi. Shuning uchun ham o'rmon xo'jaligiga qarashli qorovulxonaga yo'l uylarning orqa tomonidan aylanib kelardi. Bola o'z vaqtida yetib kelmaganida ko'chma do'kon kelganini hech kim bilmay qolardi.

Bu payt erkaklardan hech kim yo'q, hammalari ertalaboq tarqab ketishgan, ayollar uy ishlari bilan mashg'ul edi. Bola ochiq turgan eshiklarning oldidan quloqni qomatga keltirib qichqirib o'tdi:

– Keldi! Mashina-magazin keldi!

Ayollar tipirchilab qolishdi. Yashirib qo'ygan pullarini topish uchun yugurib qolishdi, uylaridan otilib chiqqanlaricha bir-birlaridan o'zib ketishdi. Mashina oldiga chopishdi, hatto buvisi uni maqtab qo'ydi:

– Ko'zi o'tkir-da, bizning bolaning!

Bola ko'chma do'konni o'zi boshlab kelganday boshi osmonga yetgan edi. Bu xushxabarni ularga u yetkazgani, birga hovlidan chonib chiqqani, eshigi ochiq turgan avtofurg'on oldida ular bilan tiqilishib turganidan xursand edi. Lekin ayollar bu yerda uni tez unutib

qo'yishdi. Unga qarashga vaqt bormidi? Ming xil mol – ko'z qamashadi. Ayollar bor-yo'gi uch kishi: buvisi, bu yerning eng kattakon kishisi – o'rmon qorovuli O'razqulning xotini Bekey (Bekey – onasining opasi, unga xola) va yordamchi ishchi Seydahmadning xotini yoshgina Guljamol qizchasini ko'tarib olgandi. Bor-yo'gi uch ayol. Lekin ular hovliqib, mollarni shunday titib tashlashdiki, oxiri sotuvchi ularning navbat kutishini va hammalari baravariga javramasliklarini talab qilishga majbur bo'ldi.

Ammo uning so'zi ayollarga unchalik ta'sir qilmadi: avval boshida ular bor narsani bir chekkadan tortqilay boshlashdi, keyin tanlashga tushishdi, oxi-ri tanlaganlarini ham qaytarishdi.

Bir chetga olib qo'yishadi, o'lchashadi, bahslashishi-shadi, shubhalanib, bir so'ragan narsalarini o'n qaytalab so'rashadi. Biri yoqmaydi, ikkinchisi qimmat, uchinchingining rangi unchamas... Bola bir chetda turardi. U zerikdi. Zero, u kutgan g'aroyib narsa yo'qqa chiqqan, tog' yo'lida ko'chma do'konni birinchi bor ko'rgandagi quvonchi g'oyib bo'lgandi. Ko'chma do'kon kutilmaganda har xil lash-lushlar tiqilgan oddiy mashinaga aylanib qoldi.

Sotuvchining qovog'i solina boshladи: bu xotin-xalaj biron narsa sotib olish uchun to'planishganga o'xshamaydi. Tog' oshib, buncha uzoq manzilga nima uchun ham keldi-a?

Shunday bo'ldi ham. Ayollar shaxtlaridan qaytib shalvirab qolishdi. Biroz charchaganday ham bo'lishdi. Negadir bir-birlarining oldidami yoki sotuvchi oldidami, o'zlarini oqlashga tushishdi. Buvi birinchi bo'lib, puli yo'qligidan shikoyat qildi. Puli yo'qning – xaridi yo'q, Bekey xola eri yo'qligi sababli kattaroq xarid qilishga botina olmadi. Bekey xola olamdagи hamma ayollar ichra eng baxtsizi – saba-

bi, farzandi yo'q. Shuning uchun eri O'razqul mast bo'lganida uni do'pposlaydi, bundan bobo ham jabr tortadi: axir Bekey uning qizi-da, Bekey xola mayda-chuyda va ikki shisha araq oldi. Bekorga oldi, o'ziga jabr. Buvi o'zini tutib turolmadi. Sotuvchi eshitmasin deb pichirlab so'radi.

– Nega o'z boshingga o'zing baloni sotib olyapsan?

– O'zim bilaman, – qisqa javob qildi Bekey xola.

– Ahmoq, – yana ham sekinroq, lekin badxohlik bilan shivirladi buvi. Sotuvchi bo'lmanidanami, Bekey xolaning boplاب adabini berardi. Eh-e, ularning qarg'ashganini bir ko'rsangiz...

Ularning joniga yosh juvon Guljamol ora kirdi. U o'zining Seydahmadi shaharga tushishga tayyorlana-yotganini, pulsiz shaharga borib bo'lmasligini, shu sababdan pul sarf qilolmasligini sotuvchiga tushuntira ketdi.

Shu tariqa ular ko'chma do'kon oldida ivirsib turishdi-turishdi-da, sotuvchi aytgandek, «uch pul»ga narsa xarid qilib, uylariga tarqalib ketishdi. Shu ham savdo bo'ldimi axir? Sotuvchi jo'nab ketgan ayollarning orqasidan tupurib qolarkan, tezroq rulga o'tirib jo'nab ketish uchun qo'qitib, tashlangan mollarni yig'ishtira boshladi. Shu payt bolaga ko'zi tushdi.

– Nimaga turibsan, shalpanq quloq? – so'radi u. Bolaning quloqlari osilgan, bo'yni ingichka, boshi katta va yum-yumaloq edi. – Biron nima olasanmi? Olsang, tezroq kel, bo'lmasa hozir yopaman. Puling bormi?

Sotuvchi shunchaki o'zi, bekorchilikdan so'radi, lekin bola uzrli javob qildi.

– Yo'q, amaki, pulim yo'q, – deb bosh chayqab qo'ydi.

– Men bo'lsam puling bormi, deb o'ylabman, – soxta ishonchsizlik bilan gap qotdi. – Siz bu yerda-gilar hammangiz boysizlar, lekin o'zlariningni kam-

bag'alsa solib yurasizlar... Cho'ntagingdag'i nima u, pul emasmi, axir?

– Yo'q, amaki, – dedi bola oldingidek samimiy va jiddiylik bilan yirtiq cho'ntagini ag'darib ko'rsatarkan (ikkinchisi tikib tashlangandi).

– Demak, pullaring tushib qolibdi-da. Chopgan joylaringni qidir. Topasan.

Ular jim qolishdi.

– Kimning bolasigan? – yana so'roqqa tuta boshladi sotuvchi. – Mo'min cholnimi, a?

Bola bosh irg'ab javob qildi.

– Nabirasi bo'lasanmi?

– Ha, – bola yana bosh silkidi.

– Onang qayoqda?

Bola hech nima demadi. Uning bu haqda gapirgisi kelmasdi.

– Onang o'zi haqida hech xabar bermaydim? O'zing bilmaysanmi?

– Bilmayman.

– Otangni-chi? Uni ham bilmaysanmi?

Bola jim qoldi.

– E, og'ayni, qanaqasan o'zing, hech nimani bilmaysan, – hazilomuz o'pka qildi sotuvchi. – Ha, mayli, agar shunday bolsa... Ushla. – U bir siqim konfet uzatdi. – Sog' bo'l.

Bola iymanib turardi.

– Ol, ol. Meni yo'ldan qo'yma. Ketishim kerak.

Bola konfetlarni cho'ntakka solib, ko'chma do'konni yo'lga kuzatib qo'yish uchun mashina orqasidan chopishga shaylandi. U o'ta baroq, tanbal ko'ppagi Baltekni yoniga chaqirib oldi.

O'razqul hamisha uni otib tashlayman, deb do'q qilib yuradi: bunday ko'ppakni boqishning nima keragi bor. Bobosi har doim avval biron ta ovcharka topish kerak, Baltekni esa biror joyga eltib tash-

lash lozim, deb sabr qilishni so'raydi. Baltekning qornidan bo'lak tashvishi yo'q. To'ysa – uxlar, och bo'lsa, o'zinikimi, begonami, farq qilmay, duch kelgan kishiga tama bilan suykalanar edi.

Mana shunaqa ko'ppak edi Baltek. Ba'zida zerikanidan mashina orqasidan chonib qolardi. To'g'ri, uzoqqa bormasdi. Jinday chopgach, orqasiga qaytardi. Dardisar it. Lekin baribir, it bilan chopish yolg'iz chopishdan yuz marta ma'qul. Har nima bo'lmasin, it-da.

Bola, sotuvchi ko'rmasin deb, sekingina Baltekka bitta konfet tashladi. «Bilib qo'y, – ko'ppakni ogohlantirib qo'ydi u, – uzoq chopamiz». Baltek unga osilib, dumini likillatardi: yana umidvor edi. Lekin bolaning boshqa konfet tashlagisi yo'q edi: axir sotuvchini xafa qilib qo'yishi mumkin, u bir siqim konfetni itga bergani yo'q-ku.

Xuddi shu mahal lop etib bobo kelib qoldi. Chol asalari qutilari tomonga ketgandi. U yerdan uylar orqasida nimalar bo'layotgani ko'rinsmasdi. Ish o'ngidan keldi, bobo ayni mahalda ko'chma do'kon ketmay turib yetib keldi. Omad. Aks holda nabiraga portfel nasib qilmagan bo'lardi. Shu kuni bolaga baxt kulib boqdi.

Ko'pni ko'rgan kishilar keksa Mo'minni – Mo'min chaqqon deb atashardi. Bu atrofda uni hamma tanirdi, u ham hammani bilardi. U ochiq ko'ngilligi, hatto sal-pal biladigan odamiga ham biron yaxshilik qilishga tayyorligi, har kimning xizmatiga hozir-u nozirligi, hammaga sadoqati va xushmuomalaligi tufayli shunday laqab olgandi. Ammo tillani tekin tarqatishganda hech kim uchun qadri qolmaganidek, uning jonbozligining qadriga ham hech kim yetmasdi. Uning yoshida-gi kishilarga qanday hurmat va izzatda bo'lishmasin, Mo'minga hech kim bunday munosabatda bo'lmas-

di. U bilan betakalluf muomala qilishardi. Bug‘u avlodining mashhur oqsoqollaridan birortasining ulug‘ma‘rakalarida Mo‘min bug‘u avlodidan bo‘lib, bu bilan g‘oyatda faxrlanar va o‘z qabiladoshlaridan birontasining ma‘rakasidan qolmasdi, unga mol so‘ydirishar, martabali mehmonlarni qarshi olib, otdan tushirish, choy uzatish-u o‘tin yorib, suv keltirishgacha hamma ishni unga topshiraverishardi. Turli tarafdan son-sanoqsiz mehmonlarni kutib olish lozim bo‘lgan bunday katta ma‘rakalarda oz muncha tashvish bo‘ladimi? Mo‘minga nima xizmat buyurilmasin, u ana-mana deguncha barini saranjom-sarishta qilar, eng muhimi – boshqalardek bo‘yin tovlayvermasdi. Bu tumonat mehmonlarni kutib va ovqatlantirib jo‘natishi lozim bo‘lgan ovul yoshlari Mo‘minning bu ishlarni qanday qilib joyiga qo‘yayotganini ko‘rib qoyil qolishardi:

– Mo‘min chaqqon bo‘lmasa, biz nima qilardik-a?

Ba’zida esa o‘z nabirasi bilan uzoqdan kelgan chol choyxonachi yigitga qarashib ketardi. Mo‘minning o‘rnida boshqa odam bo‘lganda bu ishni haqorat deb bilardi, lekin Mo‘min parvo ham qilmaydi.

Keksa Mo‘min chaqqonning mehmonlarga yelib-yugurib xizmat qilishi hech kimni ajablantirmas, shuning uchun ham o‘z nomi bilan Mo‘min chaqqon-da. Mo‘min chaqqon bo‘lishiga o‘zi sababchi. Agar chet odamlardan birontasi ajablanib, – hey qariya, nega xotinlarga dastyorlik qilib yuribsan, bu ovulda yosh yigitlar qurib ketganmi, – deb qolguday bo‘lsa, Mo‘min shunday javob qilardi:

– Marhum mening og‘am edi (u bug‘u avlodining hammasini o‘z og‘asi sanardi, lekin boshqa mehmonlar uchun ham ular yot emas, «og‘a» edi). Ularning ma‘rakasida men xizmat qilmasam kim xizmat qiladi? Biz, bug‘u avlod, bosh onamiz – Shoxdor ona bug‘udan tarqalganimizdan buyon ana shundaymiz.

Karomatli Shoxdor ona bug'u esa bizga tirikda ham, o'likda ham do'stlikni vasiyat qilib qoldirgan.

Mo'min chaqqon mana shunaqa odam edi!

Keksa ham, yosh ham uni «san»lab gapirar, qaltis hazil ham qilaverishardi – chol beozor edi, u bilan hisoblashmasa ham bo'laverardi – chol bezabon edi. O'z hurmatini talab qilishning uddasidan chiqmagan kishini odamlar oyoqosti qilaveradi, deb bekorga aytishmagan-da. U shuning uddasidan chiqmasdi.

Uning qo'lli gul edi. Duradgorlik, egarchilik qildi, yoshligidanoq pichan g'aramlashning ustasi edi, kolxoz uchun shunday g'aramlar yasardiki, qishda ularni buzishga ko'z qiymasdi: yomg'ir uning ustidan xuddi g'ozning patida sirg'angandek silliq tushar, qor esa tomoning ikki nishabiga tushgandek tushib ketardi. Urushda mehnat frontida Magnitogorskda zavodlarning g'ishtini terdi, staxanovchi bo'lib shuhrat qozondi. Qaytib kelgach, qorovulkxonada yog'och uy qurdi, o'rmonchilik bilan mashg'ul bo'ldi. Yordamchi ishchi bo'lib hisoblansa ham, aslida, o'rmonga ko'z-quloq edi, uning kuyovi O'razqulning esa umri ko'pincha mehmondorchilik bilan o'tardi. Boshliqlar bostirib keldimi, bas, O'razqul ularni darhol o'rmonga boshlar, ov uyushtirar, xullas, hamma narsaga mutasaddilik qilardi... Mollarga ham Mo'min qarar, asalarilar ham uning bo'ynida edi. Mo'minning butun umri erta tongdan qora kechgacha ishda, tashvishda o'tdi, lekin hurmat talab qilishni o'rganolmadi.

Mo'minning tashqi ko'rinishi ham mo'ysafid keksalarga o'xshamasdi. Sipogarchiligi ham, jiddiyligi, badjahlligi ham yo'q. Oq ko'ngil edi u. Uning qadr topmaydigan bu insoniy xususiyatini bir qarashdayoq payqab olsa bo'lardi. Bunday qismat hamisha unga: «Oq ko'ngil bo'lma, yovuz bo'l! Mana, senga oqibat! Yovuz bo'l!» deb ta'kidlab kelsa ham, u o'z

xushfe'lligini tashlamaydi. Uning yuzlari kulimsirab turar, ajinlari qat-qat edi. Ko'zları esa har doim: «Nima istaysan? Biror og'iringni yengil qilaymi? Men tayyorman, faqat aytsang bas, nimaga muhtojsan?» – degandek mo'litarab turardi.

Burni ham yumshoq, o'daknikiday yalpoq, bamisoli kemirchagi yo'qday. Bo'yı ham ko'p baland emas, o'smirlarday chaqqongina chol. Soqol nima degan gap – shu ham nasib qilmagandi. Qip-qizil ko'sa. Yaydoq iyagida ikki-uchtagina sariq tuk bor, xolos. Bor-yo'q soqol shu.

Bot-bot yo'lda basavlat cholga duch kelasan-u soqoli ko'ksiga tushgan, keng-mo'l po'stinining yoqasiga serbar barra qoplangan, boshida qimmatbaho telpak, bir qarasang donishmand, bir qarasang payg'ambar, bunday kishiga ta'zim qilgani hech tortinmaysan, bunday kishi hamma joyda izzatda! Mo'min esa faqat Mo'min chaqqon bo'lib tug'ilgan. Ehtimol, uning yolg'iz ustunligi shunda ediki, u qanday o'tirdim, bilib gapirdimmi, qanday javob qildim, qanday kulimsiradim, deb tashvishlanmas, birovlarning oldida obro'si to'kili shidan cho'chimasdi. Mo'min mana shu ma'noda, o'zi sezmagan holda, kamdan-kam uchraydigan baxtli odam edi. Ko'p odamlarni kasallik emas, o'z nazdida o'zligidan kattaroq qo'yishdek xudbinlik, alamzadalik balosi kemirib ado qiladi. (Dono, baobro', xushro'y, buning ustiga qattiqqo'l,adolatli va jasur degan nom chiqarishni kim istamaydi?..) Mo'min esa bunday emasdi. U afandife'l edi va unga afandiga muomala qilgandek muomala qilishardi.

Faqat bir narsa Mo'minni qattiq xafa qilishi mumkin edi: birontasining ma'rakasini o'tkazish uchun qarindoshlar to'planadigan kengashga uni chaqirishni unutib qo'yishsa... U qattiq ranjir va buni unutolmay azob chekardi, gap – uni chetlab

o'tganlarida emas, u kengashda baribir hech nimani hal qilmas, faqat qatnashardi, xolos. Buning boisi qadimiy urf-odatning poymol bo'lgani edi.

Mo'minning o'z tashvishlari bor, u bularning azobini tortardi, oqshomlarni ko'z yoshi bilan o'tkazardi. Begonalar bundan deyarli xabarsiz. Yaqin kishilari esa bilishardi.

Mo'min nabirasini ko'chma do'kon oldida ko'rgandayoq uning nimadandir xafa ekanligini darhol fahmladi. Sotuvchi musofir bo'lgani uchun chol dastlab u bilan so'rashdi. Egardan tezgina sakrab tushib, darhol ikki qo'lini sotuvchiga uzatdi:

– Assalomu alaykum, katta savdogar! – dedi u yarim hazil, yarim chin. – Karvoning omon-eson yetib keldimi, savdo-sotig'ing yaxshi bo'lyaptimi? – Mo'min ochiq ko'ngillik bilan sotuvchining qo'llarini silkitdi. – Qancha suvlar oqib o'tdi ko'rishmaganimizdan beri. Xush ko'rdik!

Sotuvchi uning so'zlari va ko'rimsiz kiyim-boshi ustidan takabburona kulib qo'ydi – o'sha-o'sha beso'naqay kirza etik, kampir tikkan bo'z ishton, titilib ketgan kamzul, yomg'ir va oftobda sarg'ayib ketgan kigiz qalpoq. Sotuvchi Mo'minga javob qildi:

– Karvon but. Faqat shunisi chatoqki, savdogar bu yoqqa kelganda, dumingizni tutqazmaysiz, o'rmonga, qirga qochasiz. Xotinlaringizga bir tiyinni o'n joyidan tutib saqlab qo'yishni tayinlaysiz. Bu yerda molni uyub tashlasang ham biron kishi bir tiyin chiqargisi kelmaydi.

– Aybga qo'shma, qadrdon, – xijolatomuz uzr so'radi Mo'min. – Sening kelishingni bilganimizda ketmasdik. Pulni aytadigan bo'lsang, yo'qni yo'ndirib bo'lmaydi. Mana, kuzda kartoshkalarni sotamiz...

– Gapir-a, – uning so'zini bo'ldi sotuvchi. – Siz qurumsoq boylarni yaxshi bilaman. Tog'da ya-

shaysiz, yer, pichan istaganingcha. Chor atrofin-giz o'rmon – uch kunda aylanib chiqolmaysiz. Mol bormi? Asalari bormi? Hammasi bor. Bir tiyin ustida esa azon aytasiz. Mana, xarid qiling, shoyi ko'rpa, tikuv mashinasidan bitta qoldi...

– Xudo haqi, bunaqa pul yo'q menda, – o'zini oqladi Mo'min.

– Shu gaplarimga ishonadi, deb o'ylaysizmi? Qurum-soq chol, pul yig'asiz. Xo'sh, qayerga olib ketasiz?

– Xudo haqi, yo'q. Shoxdor ona bug'u haqiga qasam ichaman!

– Hay, mayli, chiy baxmal oling, yangi shim tik-tirib olasiz.

– Olgan bo'lardim, Shoxdor ona bug'u haqi!

– E-ye, siz bilan tortishib o'tirishdan foyda yo'q,  
– sotuvchi qo'l siltadi. – Bekor kelibman. O'razqul qayoqda?

– Ertalab barvaqt Oqsoyga ketgandi. Cho'ponlarda ishi bor...

– Mehmondorchilikda yurgan chiqar, – o'zicha tushungan bo'ldi sotuvchi.

Noqulay jimlik cho'kdi.

– Sen xafa bo'limagin, chirog'im, – yana gap bosh-ladi Mo'min. – Kuzda, Xudo xohlasa, kartoshkani sotamiz...

– Kuzgacha uzoq.

– Bunday bo'lsa, kechirgin. Xudo xayringni ber-sin, uyga kir, choy ichib ketasan.

– Choy ichgani kelganim yo'q, – rad etdi sotuv-chi. U furgonning eshikchasini yonib turib, cholning yonida ko'ppagining qulog'idan ushlab mashina orqasidan chopishga shay bo'lib turgan bolaga ko'zi tushdi-da, dedi:

– Hech bo'lmasa portfel oling. Bola hademay maktabga borar, albatta? Yoshi nechada?

Mo'minga bu maslahat ma'qul tushdi: hafsalasi pir bo'lgan sotuvchidan nimadir xarid qilishi shart edi, qolaversa, nabirasiga chindan ham portfel kerak, bu yil kuzda maktabga boradi.

– To'g'ri aytasan, – bezovtalanib qoldi Mo'min, – mening xayolimda ham yo'q edi. Bo'lmasa-chi, yetti-sakkizga chiqdi. Qani, bu yoqqa kel, – nabirasini chaqirdi u.

Bobo cho'ntagini kavlashtirib, yashirib yurgan besh so'mlikni chiqardi. Ko'pdan beri yonida yurgan bo'lsa kerak, g'ijimlanib ketibdi.

– Ushla, shal pang qul oq, – sotuvchi bolaga ayyorona ko'z qisib portfeli uzatdi. – Endi o'qishni qotirgin. Xat-savodingni chiqarmasang, bobong bilan mana shu tog'larda abadiy qolib ketasan.

– O'qiydi! Uning zehni o'tkir, – qaytimni sanarkan, javob qildi Mo'min. Keyin yangi portfeli avaylab ushlab turgan nabirasiga ko'z yugurtirdi-da, uni bag'riga bosdi. – Mana, yaxshi bo'ldi. Kuzda maktabga borasan, – deb qo'ydi sekkingina.

Bobosi qadoq qo'llini bolaning boshiga mayingina qo'ydi. Shu dam bolaning tomog'iga nimadir tiqliganday bo'ldi va qotma bobosi kiyimlarining o'ziga tanish hidi dimog'iga urildi. Undan quruq pichan va mehnatkash kishining ter hidi kelardi. Sadoqatli, ishonchli, mo'tabar kishi u. Ehtimol, yer yuzida bolani jon-dilidan yaxshi ko'r radigan, aqlililik balosi uchragan kishi – Mo'min chaqqon deb atalgan bu chol shunday sodda, afandife'l edi... Xo'p, nimasi yomon buni? Har nima bo'lmasin, o'z bobong bo'lgani yaxshi.

Bola quvonchlari bir dunyo bo'lishini xayoliga ham keltirmagandi. Shu paytgacha maktab haqida o'ylab ko'rmagandi. Shu paytgacha faqat bobosi bilan bug'u avlodidan mashhur keksalarning ma'rakasiga borgandi – tog'lar ortidagi Issiqko'lda qishloqlaridan maktabga qatnagan bolalarni ko'rgandi.

Bola shu ondan boshlab portfeldan ayrılmay qoldi. Shodligidan terisiga sig‘may maqtanib qorovulxonaning butun hovlisini aylanib chiqdi. Avval buvisiga ko‘rsatdi.

– Mana, bobom olib berdi!

Keyin Bekey xolasiga ko‘rsatdi. U ham portfelsni ko‘rib xursand bo‘ldi va bolani maqtab qo‘ydi.

Bekey xolaning xushnud damlari kamdan-kam bo‘lardi. Ko‘pincha g‘amgin va tajang yurar, jiyaniga e’tibor ham qilmasdi. Bunga vaqtı ham bo‘lmasdi. Uning o‘z dardi bor. Buvisi, farzandi bo‘lganda butunlay o‘zgacha yurardi, derdi. Eri, O‘razqul ham, Mo‘min bobo ham hozirgiday emas, balki boshqa-chacha odam qiyofasida yurgan bo‘lardi. Uning ikkita qizi – Bekey xola va bolaning onasi bo‘lsa-da, bari-bir, cholga og‘ir edi; o‘z bolang bo‘lmasa – bir balo, bolangda bola bo‘lmasa – ming balo. Buvisi shunday deb zorlanadi. Kim bilsin...

Bola Bekey xolasidan so‘ng olgan narsasini ko‘rsatish uchun yoshgina Guljamol bilan uning qiz-chasi oldiga yugurdi. Bu yerdan esa pichan o‘rayotgan Seydahmad oldiga yugurib ketdi. Jigarrang «tuya» oldidan chonib o‘tarkan, uning o‘rkachlariga urib qo‘yishga ham vaqtı bo‘lmadi, «egar» yonidan, «bo‘ri» va «tank» yonidan o‘tib, keyin qirg‘oq bo‘ylab yugurib borardi. Yopishqoq butazor orasidagi so‘qmoq yo‘ldan chonib o‘tdi. So‘ngra esa o‘tloqdagi uzun yo‘lakdan Seydahmadning oldigacha chopqillab keldi.

Bugun bu yerda Seydahmadning yolg‘iz o‘zi edi. Bobo allaqachon o‘zining tegishini, bir yo‘la O‘razquning ham tegishini o‘rib qo‘ygandi. Pichanni ham allaqachon tashib bo‘lishdi – buvisi bilan Bekey xola tashib turdi, bobosi bosaverdi, u esa bobosiga yordamlashdi. Molxonaning oldiga ikkita g‘aram uyishi-di. Bobosi ularni shunday ixcham bosdiki, bir tom-

chi yomg'ir ham o'tmasdi. G'aramlar xuddi taroq bilan tarab qo'yilgandek silliq edi. Har yili shu. O'razqul pichanga qo'lini urmaydi, hammasi qaynotasining bo'ynida – har holda u amaldor. – Istanasam, – deydi u, – senlarni bir zumda ishdan haydab yuboraman. – U bobo bilan Seydahmadga shunday do'q qilardi. Bu ham mastlikning kasofati. Boboni haydab bo'pti. Unda kim ishlaydi? Bobosiz ishlab ko'rsin-chi! O'rmonda ish oshib-toshib yotibdi, ayniqsa, kuzda. Bobom aytadi-ki, o'rmon qo'y suruvi emas, tarqalib ketmaydi, lekin tashvish undan oz emas. Shunga ko'ra o't tushsa yoki tog'dan sel quyilsa bormi – daraxt bir yoqqa sakray olmaydi, joyidan qo'zg'almaydi, turgan joyida nobud bo'laveradi. Kimki daraxtlarni asrab qololsa, o'sha haqiqiy o'rmonchi bo'la oladi. O'razqul Seydahmadni haydab bo'pti, unday yuvosh odam bormi? Hech nima ga aralashmaydi, talashib-tortishmaydi. Biroq Seydahmad har qancha yuvosh, baquvvat yigit bo'lmasin, yalqov, uyquni yaxshi ko'radi. O'rmonchilikka ham shu vajdan kelib qolgan. Bobo, bunday yigitlar sovxozda mashina quvib, traktorda yer ag'darib yurishibdi, deb kuyinadi... Seydahmad esa tomorqasidagi kartoshkani sho'raga bostirib yubordi. Guljamolning bir o'zi qo'lda bolasi bilan tomorqada ishlashiga to'g'ri keldi.

Seydahmad pichan o'rimini ham kechiktirib yubordi. Bobo hatto o'tgan kuni uni koyib berdi. «O'tgan qishda, – dedi u, – senga emas, mollarga ichim achidi. Shuning uchun pichan berdim. Agar yana men keksa cholning pichaniga ko'z tikadigan bo'lsang, hoziroq ayta qol, sen uchun ham o'rishga tayyorman».

Gap ta'sir qildi. Seydahmad bugun ertalabdan o'rimga tushib ketdi.

Orqadan kelayotgan qadam tovushini eshitib, Seydahmad qayrildi, ko'ylagining yengi bilan yuzini artdi.

– Nimaga kelyapsan? Meni chaqirishyaptimi?

– Yo'q. Portfel oldim. Mana. Bobom olib berdi. Men mактабга boraman.

– Shunga shunchalik chonib keldingmi? – Seydahmad xaxolab kului. – Mo'min boboning esi kirarli-chiqarli bo'lib qolgan, – u barmog'ini chakkasiga bosib aylantirdi, – sen ham shunaqa chog'i! Qani, qanaqa portfel?

U qulfchasini shiqillatib, portfeli u qo'lidan bu qo'liga oldi-da, kallasini liqillatgancha kulimsirab qaytarib berdi.

– To'xta, – xitob qildi u, – sen qaysi mактабга ham borarding? Qayerda senga mактаб tayyor turibdi?

– Qayerda bo'lardi? Fermadagi-da.

– Jilisoyga qatnamoqchimisan? – hayratlandi Seydahmad. – Axir u yoqqa tog' osha besh kilometrcha yurish kerak, bundan kam emas.

– Bobom, otda olib borib kelaman, dedi.

– Har kuni u yoqqa borib, bu yoqqa kelarkanmi? Esini yebdi chol. Uning o'zini ham o'qitish kerak. Sen bilan bir partaga o'tiradi, dars tugadimi – qaytaveradi.

– Seydahmad Mo'min boboni nabirasi bilan bir partada o'tirishini ko'z oldiga keltirib qotib-qotib kului.

Bola o'yga tolib jim qoldi.

– Ha, men buni shunchaki kulgi uchun aytyapman-da! – tushuntirdi Seydahmad.

U bolaning burniga og'ritmaygina chertib, boshida-gi bobosining furajkasini tortib, qoshi ustiga bostirib qo'ydi. Mo'min o'rmon mahkamasining odatdag'i furajkasini kiyishga or qilardi. («Nima, men biron-bir boshliqmanmi? Men o'zimning qirg'iz qalpog'imni boshqa hech qanaqasiga almashmayman».) Yozda ham Mo'minning boshida qora sidirg'a satin bilan hoshiyalangan yo'l-yo'l oq qalpoq – almisoqdan qolgan eski kigiz qalpoq, qishda ham shunday daqqiyunusdan qolgan teri taqiya bo'lardi. O'rmon ishchilarining odatdag'i yashil furajkasini u nabirasiga berardi.

Seydahmadning yangilikni masxaraomuz qarshi olishi bolaga yoqmadi. U xo'mrayib furajkasining soyabonini manglayi ustiga ko'tardi va Seydahmad yana burniga chertmoqchi bo'lganda boshini burib g'ijindi:

– Tegishma!

– Obbo sen-ey, jahling tez ekan-ku! – miyig'ida kului Seydahmad. – Ha, sen xafa bo'lmay qo'ya qol. Portfeling ajoyib. – Keyin uning yelkasiga qoqib qo'ydi. – Endi tuyog'ingni shiqillat. Hali men ancha-muncha o'rishim kerak...

Seydahmad kaftiga tufladi-da, yana o'rishga tushib ketdi.

Bola esa yana chopganicha o'sha so'qmoqdan, yana o'sha toshlar yonidan uyga qaytdi. Toshlar bilan ovunishga hali-beri vaqt yo'q edi. Portfel – jiddiy narsa.

Bola o'z-o'zi bilan so'zlashishni yaxshi ko'rardi. Lekin bu safar o'ziga emas, portfelia so'z qotdi: «Sen uning gapiga ishonma, bobom unaqa emas. Uning sira shumligi yo'q, shuning uchun ham undan kulishgani-kulishgan. Chunki quvlik-shumlikni bilmaydi. U biz ikkalamizni maktabga olib borib yuradi. Sen hali mакtab qayerdaligini bilmaysan-a? U unchalik uzoq emas. Men senga uning qayerda ekanligini ko'rsataman. Biz unga Qorovultog'dan durbinda qaraymiz. Men yana, senga oq kemani ko'rsataman. Faqat biz avval molxonaga kirib chiqamiz. U yerda durbinimni yashirib qo'yanman. Men unda buzoqchamni kuzatib turishim kerak, lekin men, har kuni oq kemani ko'rishga chopaman. Buzog'imiz katta bo'lib qoldi, tortib ketsa to'xtatmaysan, sigirni emib qo'yadigan odat chiqardi. Sigir uning onasi, sutini undan ayarmidi. Tushundingmi? Onalar hech qachon, hech nimani ayashmaydi. Mana, Guljamol shunday deydi, uning qizchasi bor... Tezda sigirni sog'ib bo'lishadi, keyin biz buzoq-

ni yaylovga haydaymiz. O'shanda biz Qorovultoqqa chiqamiz-da, tog'dan turib oq kemani ko'ramiz. Men axir durbin bilan ham xuddi ana shunday gaplashaman. Endi biz uchtamiz – men, sen va durbin...»

U shu zaylda uyg'a qaytdi. Portfel bilan gaplashish unga juda yoqib qoldi. U bu suhbatni davom ettirib, hali portfelig'a noma'lum bo'lgan o'zi haqidagi voqealardan so'zlab bergisi kelib turganda, unga xalaqit berishdi. Yon tomonda otning dupur-dupuri eshitilib qoldi. Qishloq tarafdan bo'z otliq kelardi. Bu – O'razqul. U ham uyg'a qaytayotibdi. Uning o'zidan boshqa hech kimga minishga ruxsat etmaydigan Olabosh bo'z otiga to'y-hashamlarda uriladigan mis uzangili egar urgan, ko'krak qayishlari tortilib, qo'ng'iroqli popukchalar osilgandi.

O'razqulning qalpog'i ensasiga surilib tushib, soch qoplagan bir enli qizil past manglayi ochilib qolgan. Is-siq elitgan uni. Rayon rahbarlari kiyadigan nusxadagi uncha kelishtirib tikilmagan chiy baxmal kitelining tugmalari boshdan oxirigacha yechilib ketgandi. Oq ko'y lagi kamari tagidan chiqib yotardi. Qorni to'q, kayfi baland. Bundan sal oldin mehmonda o'tirib, qimizga to'yan, burnidan chiqquncha go'sht yegan edi.

Yon-atrofidagi cho'ponlar va yilqichilar yozda yaylovga kelishlari bilanoq O'razqulni tez-tez mehmonga chaqirishardi. Uning eski oshna-og'aynilari bor edi. Lekin bu takliflar tama bilan qilinardi. O'razqul kerakli odam. Ayniqsa, tog'da yashab uy qurmoqchi bo'lganlar uchun u judayam kerak: molni tashlab biron yerga ketolmaysan, qurilish materiallarini qayerdan qidirasan, birinchi navbatda o'rmonga kelishga majbursan. O'razqulning ko'nglini topsang, qarabsangi, daraxt kesish taqiqlangan o'rmonдан ikkita-uchta yog'ochni tanlab olib ketasan-da. Aks holda tog'da bir umr molning orqasidan sarson-sargardon bo'lib yuraverasan, uy qurishing ham bir umr cho'ziladi...

Lohas bo'lgan karaxt O'razqul xrom etigining uchini uzangiga ehtiyotsiz tirab, egarda mudrab borardi. Bola qo'lidagi portfelini silkitib ro'parasidan chopqillab chiqib qolganda, bu tasodifdan uning ot-dan uchib ketishiga sal qoldi.

- O'razqul amaki, portfelimni ko'ring! Men maktabga boraman. Mana mening portfelim!
- Obbo palakat-ye! – O'razqul seskanib jilovni tortarkan, koyiy boshladi.

U bolaga uyqu aralash qizargan, shishgan, shirakayf ko'zlarini tikdi:

- Nima qilib yuribsan, qayoqdan kelyapsan?
- Uyga ketyapman. Portfelimga qarang, uni Seyd-ahmadga ko'rsatib ketyapman, – dedi bola ming'irlab.
- Mayli, o'ynayver, – to'ng'illadi O'razqul va egarda omonatgina tebranib yo'lida davom etdi. U o'z taqdiridan ranjib yurgan, Xudo uni farzand dog'ida kuydirib, boshqalarga saxiylik bilan besh-o'ntalab bola berib qo'ygan bir paytda, bu ahmoqona portfel-u, ota-onasi tashlab ketgan, xotiniga jiyan bo'l-mish bu bola bilan qanchalik ishi bor...

O'razqul pishillab, xo'rsinib qo'ydi. Afsus-nadomat va qahr-u g'azabdan u bo'g'ilib borardi. U ich-ichidan ezilardi, negaki umri zoye o'tyapti, shularni o'ylaganda, befarzand xotiniga nisbatan g'azabi qaynab-toshardi. Buning bariga o'sha la'nati xotini aybdor, mana bir necha yildirki tug'mayapti...

«Shoshmay tur hali!» – O'razqul go'shtdor mushtalarini siqib, xayolan do'q urdi va ho'ngrab yig'lab yuborishdan o'zini arang tutib qoldi. U uyga yetishi bilan xotinini tutib urishni bilardi. O'razqul mast bo'lganda hamisha shunday qilardi; bu ho'kiztabiat erkak g'am va jahldan aqlini yo'qotib qo'yardi...

Bola so'qmoqdan izma-iz bora turib, oldinda birdan O'razqulning g'oyib bo'lganiga hayron qoldi. O'razqul

esa daryo tomon burilib, otdan tushdi-da, jilovni tashlab, o'siq o'tlarni bosib-yanchgancha pastga tushib ketdi. U chayqalib va bukilib, yuzlarini qo'llari bilan siqqanicha boshini yelkalari ichiga tortib borardi. O'razqul qirg'oq bo'yida cho'nqayib o'tirib oldi. Daryo-dan hovuchlab suv olib yuziga sepa boshladи.

«Balki, issiqliqdan boshi og'rigandir», – O'razqulning qilayotgan harakatidan shunday xulosaga keldi bola. O'razqulning yig'layotganini va hech o'pkasini bosib ololmayotganini u bilmasdi. U shuning uchun yig'ladiki, unga peshvoz chiqqan bola uning o'g'li emas, shuning uchun yig'ladiki, u portfelli bu bolaga hech bo'limganda bir og'iz shirin so'z aytish uchun o'zida kuch topolmadi.

### **IKKINCHI BOB**

Qorovultog' cho'qqisidan hamma yoq yaqqol ko'rinish turardi. Bola qorni bilan yotib olib durbinni ko'ziga to'g'riladi. Bu o'tkir dasht durbini edi. Qachonlardir boboga qorovulkxonadan uzoq yillik xizmatlari uchun mukofotga berishgandi. Chol durbinni olib yurishni yoqtirmasdi. O'zimning ko'zlarim undan qolishmaydi, derdi. Biroq durbin nabirasiga yoqib qoldi.

Bu safar u tog'ga durbin va portfel bilan birga keldi. Boshda hamma narsa yumaloq oynachada sakrab aralashib ketaverdi, keyin birdan tiniqlik va turg'unlik kasb etdi. Mana shunisi hammasidan zavqli edi. Bola topilgan fokusni buzib qo'ymaslik uchun nafasini ichiga yutar, manzaralarni go'yo o'zi yaratayotgandek mahliyo boqardi. Keyin u nigohini boshqa nuqtaga tikdi, yana hamma narsa aralashib ketdi, tiniqlik yo'qoldi. Bola yana okulyarni aylantirishga tushdi.

Bu yerdan atrofdagi hamma narsa, hatto osmon-o'par yuksak qorli cho'qqilar ham ko'rinish turardi.

Ular hamma tog'larning ortida, hamma tog'lardan baland, butun yer uzra yuksaklikka bo'y cho'zgandi. Qorli cho'qqilar poyidagi o'rmonzor tog'lar, pastroqdagi serbang butazorlar, yuqorida qalin qarag'ayzorlar bilan burkangan tog'lar ham ko'rinib turadi. Kunga qaragan Kungay tog'i ham shunday edi; Kungayning pastki tomonlarida o'tdan bo'lak hech nima o'smasdi. Tog'ning ko'nga qaragan tomonidan yanada pastroq tushilganda nuqul mayda toshlar ko'chmasiga duch kelinardi. Bu ko'chmalar vodiyga quyilib tushgan, vodiy esa ko'l bilan tutashib ketgandi. Bu tarafda dalalar, bog'lar, qishloqlar yastanib yotardi... Yam-yashil ekinzorlarining u yer bu yeri sarg'ish tus olgan, o'rim payti ya-qinlashyapti. Yo'llarda zig'irday ko'rinyotgan mashinalar xuddi sichqonlardek g'izillar, ular orqasidan uzun dum – chang-to'zon ko'tarilardi. Dalaning arang ko'z ilg'ab oladigan uzoq chekkasida, qumloqdan, tasma tortgan qirg'oq ortida ulkan ko'l to'q samoviy rangda tovlanardi. Bu – Issiqko'l. U yerda suv bilan osmon bir-biriga tutashib turardi. Undan narida hech nima yo'q. Ko'l harakatsiz, shu'lador, kimsasiz. Faqat qirg'oqqa urilayotgan to'lqinlarning oppoq ko'pigini arang ilg'ab olish mumkin.

Bola o'sha tomonga uzoq qarab turdi. «Oq kema hali ko'rinxayapti, – dedi u portfelga. – Kel, yana bir marta maktabimizga qaraylik».

Bu yerdan tog'ning ortidagi qo'shni pasttekislik ravshan ko'rinxardi. Hatto durbinda uy oldidagi de-raza ostida o'tirib olib, qo'lda kalava yigirayotgan kampirgacha kuzatsa bo'lardi.

Jilisoy bag'ri daraxtsiz, faqat onda-sonda qirqilmay qolgan, yakkam-dukkam qarag'aylar o'sib yotardi. Qachonlardir bu yerlar o'rmonzor bo'lgan. Endi usti shifer bilan yopilgan qator molxonalar turar, katta qoramtil go'ng va somon uyumlari ko'zga

tashlanardi. Bu yerda sut fermasining zotdor buzoqlarini saqlashar va boqishardi. Molxonalardan uncha uzoq bo'limgan joyda bir parchagina qishloq – chorvadorlar posyolkasi joylashgan. Qishloqcha tepalikdan pastga tomon cho'zilib tushgan edi. Qishloqning eng chekkasida, ko'rinishdan turar joyni eslatmaydigan kichkinagina uy turardi. To'rt yillik maktab mana shu edi. Yuqori sinf o'quvchilari sovxozag, mакtab-internatga qatnashardi. Bu yerda esa kichkintoylar o'qishardi.

Bola tomog'i og'riganda bobosi bilan shu posyol-kadagi feldsher huzuriga kelgandi. Endi u kulrang cherepitsa bilan yopilgan, yolg'iz trubasi qiyshayib turgan, qo'lda yasalgan taxta-lavhada: «Mektep» deb yozib qo'yilgan kichkinagina mакtabga durbin-dan uzoq tikilib turdi. U o'qiy olmasa-da, xuddi shu so'z yozilganini faraz qildi. Durbindan hamma mayda-chuyda narsalar aniq-tiniq ko'rinish turardi. Devor suvog'iga tirnab yozilgan allaqanday so'zlar va deraza romlariga yelimlab yopishtirilgan oynalar, ayvonning g'adir-budur taxtalari ko'zga chalinardi. U qo'lda portfeli bilan bu yerga kelishni va hozir kat-takon qulf osig'lik turgan anavi eshik ostonasidan qanday hatlab o'tishini tasavvur qilib ko'rdi. O'sha eshik orqasida nima bor, nima bo'ladi?

Bola mакtabni tomosha qilib bo'lgach, durbinni yana ko'lga to'g'rildi. Lekin u yerda hamma nar-sa ilgarigidek edi. Oq kema hali ko'ringancha yo'q. Bola teskari o'girildi-da, durbinni bir chetga qo'yib, pastga, tog' tubiga qaray boshladi. Pastda, shundoq tog'ning tagida cho'zinchoq pastqamlik bo'ylab jo'shqin serostoni daryo kumushdek tovlanib oqardi. Qирг'oqdan daryo bo'ylab yo'l ketgan va u daryo bilan birga qoya burilishida ko'zdan g'oyib bo'ladi. Ro'paradagi qирг'oq jarlik va o'rmonzor edi. Naq

tog'lar tepasidagi qorlargacha cho'zilib ketuvchi noyob San-Tosh o'rmonzori mana shu yerdan boshlanardi. Eng tepada qarag'aylar o'sardi. Ular toshlar va qorlar orasida tog' tizmalarining qirrasidagi qoramtir taroqlardek dikkayib turardi.

Bola uylarga, bostirmalarga, qorovulkxona hovlisi-dagi qurilishlarga masxaraomuz qarab chiqdi. Ular yuqorida kichkina va omonat ko'rinaridi. Qorovulkxonadan nariroqda, qirg'oq bo'yida u o'zining tanish toshlarini topdi. «Tuya», «bo'ri», egar», «tank» – hammasi joyida, ularning hammasini birinchi marta durbinda mana shu yerdan – Qorovultog'dan turib kuzatgan, o'shanda ularga ot qo'ygandi-da.

Bola miyig'ida kulib o'nidan turdi va uylar tomonga tosh yumalatdi. Tosh shu yerning o'zida, tog'ning ustidayoq qola qoldi. Bola yana joyiga o'tirdi-da, durbin dan qorovulkxonaga qaray boshladi. Avval linzalar ning kattasidan kichigi tomonga tutib qaray boshladi – uylar uzoq-uzoqlarga siljib, o'yinchoq qutichalarga aylanib qoldi. Xarsanglar kichkina toshchalar holiga keldi. Daryoning qirg'oqqa yaqin yerdagi sayoz joyida bobosi qilgan ko'lob esa kulgili, chumchuqning inicha kelardi. Bola bosh chayqab kulimsiradi-da, durbin ni tez aylantirib, okulyarni to'g'rilay boshladi. Uning ulkan shaklga kengaygan suyukli xarsang toshlari durbinning oynalariga manglayini tirab turganday tuyildi. «Tuya», «bo'ri», «egar», «tank» kemtik-yoriqlari, yon-veridagi sarg'aygan otquloqlari bilan juda haybatli va eng muhimi, ular haqiqatan ham bola atagan narsalarga juda o'xshardi. «Eh, sen qanday zo'r «bo'ri»san! «Tank»ni qara, dahshatli!..»

Xarsang toshlar ortidagi sayozlikdan bobo ko'lob qilgandi. Durbindan qirg'oqdagi mana shu joy yaq-qol ko'rinish turardi. Shitob bilan oqqan suv bu yerdan, keng toshloq sayozlikdan qiyalab o'tar va tosh-

lar ustidan ko'pirib o'tardi-da, yana shiddatli oqimga kelib qo'shilib ketardi. Sayozlikdagi suv tizzadan kelar, lekin oqimi shunchalik kuchli ediki, bolalarni daryoga oqizib ketishi hech gap emasdi. Oqim surib ketmasligi uchun bola qirg'oq bo'yidagi tolning shoxini ushlab olardi. Tol butalari ayni qirg'oqning chekkasida o'sib chiqqan bo'lib, bir shoxi yerda, bir shoxi suvda, naq suvga botib turardi. Buning nimasi cho'milish? Bog'lab qo'yilgan otdan farqi yo'q. Buning ustiga yana qancha dilsiyohlik, so'kish eshitishlar! Buvisi bobosiga uqtirardi:

«Daryoga oqib ketsa o'zidan ko'rsin – qo'limni cho'zmayman. Endi shunisi yetmay turgan edi. O'z ota-onasi tashlab ketdi. Menga boshqa tashvishlar ham yetib ortadi, majolim yo'q».

Unga nima deb bo'ladi? Kampir bu hisobda to'g'ri gapirayotir. Lekin bolaga ham rahming keladi-da: daryo yonginasida, naq eshigining ostida. Kampir qancha qo'rqtmasin, bola baribir suvga tushaverdi. Mana shundan keyin Mo'min chol bola bexatar cho'milsin, deb, sayozlikda toshlardan ko'lob qilishga qaror qildi.

Mo'min chol oqim yumalatib ketmasligi uchun qanchadan-qancha katta toshlarni tanlab ko'tarib keldi. Ularni qorniga qo'yib tashidi, toshlar orasidan suvning bemalol o'tib turishini hisobga olgan holda ularni suvning ichida tik turib, shunday taxlab terdiki, suv haqiqatan ham bemalol oqadigan bo'ldi. Siyrak soqolli qotma chol ho'l ishtonlari badaniga yopishgan, kulgili holda kun bo'yi shu to'siq bilan ovora bo'ldi. Kechqurun esa zo'riqib yo'taldi, belini ololmay qoldi. Shunda buvisi javrab berdi:

– Kichkina ahmoq-ku o'z oti bilan kichkina, katta ahmoqqa kim qo'yibdi bu ishlarni? Namuncha jon kuydirmasang? Yedirasan, ichirasan, yana nima

kerak? Buncha erkalatmasang. Eh, bu yaxshilikka olib bormaydi...

Nima bo'lmasin, sayozlikda ajoyib ko'lob paydo boldi. Endi bola hech qo'rmasdan cho'milardi. Shoxchadan ushlaganicha qirg'oqdan pastga tushar va oqimga o'zini otardi, otganda ham hamisha suvga ko'zini ochgan bo'yи tushardi. Shuning uchun ko'zini ochiq tutardiki, baliqlar ochiq ko'z bilan suzib yuradi-da. Uning g'alati orzusi bor: u baliqqa aylanib qolishni va uzoq-uzoqlarga suzib ketishni xayol qilardi.

Bola hozir durbindan ko'lobga qarab turib, ko'ylak-ishtonini yechib, qip-yalang'och junjikib suvga tushishini tasavvur qildi. Tog' daryolarining suvi hamisha sovuq, entiktiradi, lekin keyin ko'nikib qolasan. Tolning shoxchasini ushlab, oqimga yuzi bilan otilishini ko'z oldiga keltirdi. Boshi uzra suv shovul-lagancha qo'shilib ketadi, qorni ostidan, yelkalari, oyoqlari ustidan suv qaynab oqib o'tadi. Suv ostida tashqaridagi hamma tovushlar tinib, qulqlarda faqat suvning shildirashi qoladi. U ko'zlarini katta-katta ochib, suv ostida nimayiki ko'rinsa, bariga jon-jahdi bilan tikiladi. Ko'zlar sanchib ketadi, og'riydi, lekin u mag'rur jilmayadi, hatto suvda turib tilini ko'rsatadi. Buni u buvisiga ko'rsatmoqchi. Bilib qo'ysin, u hech qayerda ham cho'kmaydi va hech qayerda hech nimadan qo'rqlaydi. Keyin u qo'lidagi shoxchalarni qo'yib yuboradi, toki u oyoqlari bilan to'siqdagi toshlarga tiralib qolmagunga qadar suv uni surib ketaveradi. Shu yerda nafasi ham qaytadi. U suvdan sap-chib turadi, qirg'oqqa chiqadi va yana tol shoxchasi tomon chopqillab ketadi. Bu takrorlanaveradi. U bobosi yasagan ko'lobda kuniga yuz marta cho'milishga ham tayyor. Xullas, baliqqa aylanmaguncha cho'milaveradi. Qanday bo'lmasin, uning baliqqa aylanishi shart...

Bola daryo qirg'og'ini tomosha qila turib, durbin ni o'zlarining hovlisiga to'g'riladi. Tovuqlar, kurka

tovuqlar jo'jalari bilan to'nkaga suyab qo'yilgan bolta, tutab yotgan samovar, hovlidagi turli-tuman narsalar aql bovar qilmaydigan darajada kattalashib, shunday yaqinga kelib qoldiki, bola beixtiyor ularga qo'lini cho'zdi. Shu payt, falokat bosib arqonga yoyilgan kirni bamaylixotir yamlayotgan qo'ng'ir buzoqcha durbinda filday ko'rinish qoldi-yu, jon-poni chiqib ketdi. Buzoqcha huzur qilganidan ko'zlarini qisib olgan, lablari dan so'lak oqib turardi – u kampirning ko'ylagini og'iz to'ldirib chaynashda maza qilayotgandi.

– Eh, sen jinni! – Bola durbinni ushlagancha o'rni dan turdi va qo'lini silkiy boshladı. – Qani yo'qol, eshit yapsanmi, yo'qol naryoqqa! Baltek, Baltek! (Kuchuk obyektivda uyning tagida pinagini buzmay yotardi.) Tishla, tishla uni! – jon achchig'ida itga buyruq qilar di u, lekin Baltek parvo ham qilmay, go'yo hech nima bo'limgandek soyada cho'zilib yotardi.

Xuddi shu mahal uydan buvisi chiqib qoldi. Nima bo'layotganini ko'rib qolgan kampir qars urdi. Supurgi ni qo'liga oldi-da, buzoqqa tashlandi. Buzoq qochdi, kampir orqasidan quvdi. Bola durbindan ularga tikil gan bo'yicha tog'dan ko'zga tashlanib qolmaslik uchun o'tirib oldi. Buzoqni quvgan kampir alamdan va yugur shidan bo'g'ilib javragancha uyga jo'nadi. Bola uni xuddi yonma-yon turgandek, hatto yonma-yon turganidan ham yaqinroq ko'rdi. Bola buvisini xuddi obyektivda biror kishini katta qilib ko'rsatgandek ravshan ko'rib turdi. Bola uning jahldan qisilgan sarg'ish ko'zlarini, qat-qat burishgan ajinli yuzining qizarib ketganini ko'rdi. Xuddi birdan ovozi yo'qolib qolgan kinodagidek, durbinda kampirning yakkam-dukkam tishlari ko'rinib, lablari ovozsiz tez-tez qimirladi. Kampirning nima deb qichqirayotganini uzoqdan eshitib bo'imasdi, lekin bola uning so'zlarini xuddi qulog'i ostida jaranglayot gandek aniq va baralla eshitardi. Uh, kampir uni rosa

koyirdi! Bola nima deb qarg‘ayotganini yoddan bilardi: «Qani, qarab tur. Qaytib kelarsan-ku. Dodingni bera-man. Bobongga ham qaramayman. Necha marta ayt-dim-a, shu jinnilarning o‘yinchog‘ini yo‘qotgin deb. Yana tog‘ga qochib ketgan. Xudo ko‘tarsin o‘sha ke-mangni, o‘t tushsin, cho‘kib ketsin».

Bola tog‘ tepasida og‘ir xo‘rsindi. Portfel olgan, maktabga qanday otlanishni orzu qilib turgan shun-day bir kunda buzoqni ko‘zdan qochirsa-ya...

Kampir javrashni qo‘ymasdi. U koyib turib, chay-nab tashlangan ko‘ylagiga tikilib qaradi. Uning oldi-ga Guljamol qizchasini olib chiqdi. Buvi unga shi-koyat qila turib, tutaqib ketdi.

Mushtini tugib tog‘ tomonga do‘laytirdi. Uning qoq suyak bo‘lgan johil mushti okulyar oldida uzoqdan dag‘dag‘a solib turardi. «Ermak topding o‘zingga. Xudo ko‘tarsin kemangni. O‘t tushsin, cho‘kib ketsin...»

Hovlidagi samovar qaynadi. Qopqoq ostidan burq-sib ko‘tarilayotgan bug‘ durbinda ko‘rinib turardi.

Bekey xola samovarni olib ketgani chiqdi. Buvisi-ning yana jazavasi tutdi. Ma, jiyanchangning qilmi-shini ko‘rib qo‘y degandek, chaynab tashlangan ko‘ylagini uning burniga tiqdi.

Bekey xola uni tinchitmoqchi, yupatmoqchi bo‘ldi. Bola uning nimalar deb taskin berayotgani-ni bilib turardi. Har qachongidek, bu safar ham shunday deyotgandir: «Xafa bo‘lmang, enajon. Esi yo‘q, go‘dak hali – nimasidan xafa bo‘lasiz. Bu yer-da biron ta jo‘rasi yo‘q, bir o‘zi. Qichqirish, go‘dak ni qo‘rqtishdan nima foyda». Bunga buvining ham javobi shubhasiz, aniq: «Sen menga o‘rgatma. Sen oldin o‘zing tug‘ib ko‘r, bolalarni tergashni o‘shanda bilasan. U nima qilib tog‘da sanqib yuribdi? Buzoqni arqonlab qo‘yishga vaqt yo‘q. Tog‘da u nimaga bun-cha tikilgani-tikilgan? Sayoq ota-onasining yo‘liga-

mi? Uni tuqqanlar turli tarafga qochib ketishdi. Senga yaxshi-da, bepusht...»

Bola hatto shunday uzoq masofadan turib durbin-da Bekey xolaning ich-ichiga botgan yuzlarining qanday oqarib-bo'zarib ketganini, butun vujudi bilan titrab-qaqshab o'gay onaning yuziga – bola xolasi-ning qanday javob qilishini aniq bilardi – to'rsillatib gapirib tashlaganlarini bilib turdi: «Sen o'zing jodu-gar kampir, qancha o'g'il-qiz o'stirib qo'yding? O'zing kim bo'libsan?»

G'ala-g'ovur boshlandi! Buvi jahldan uvvos sola boshladi. Guljamol ayollarni yarashtirishga urinib, buvini quchoqlab, yupatgani uyga olib kirmoqchi bo'lar, u esa, battar tutaqib, hovlida jinnilardek u yoq-dan bu yoqqa zir yugurardi. Bekey xola qaynab yot-gan samovarni ko'targancha dog' suvni to'kib-sochib, chopgan ko'yi uyga olib kirib ketdi. Buvi esa toliqib, mollarga suv quyiladigan nov tomonga tushib ket-di. U ho'nragancha yig'lab o'z taqdiridan qattiq ku-yinardi. Bolani unutdi, endi yaratgan Parvardigorning o'ziga, bu foni yunyoning beparvoligiga yopishib ketdi. «Hali menga osilyapsanmi? Sen mening kim-ligimni so'rayapsanmi? – buvi o'gay qizning orqasi-dan g'azablanardi. – Agar meni Xudo jazolamaganda, agar u mening besh go'dagimni bag'rimdan yulib ol-maganda, yolg'iz o'g'lim o'n sakkiz yoshida urushda o'qqa uchmaganda, cholginam, mehribonginam Tay-gar suruv bilan bo'ronda qotib qolmaganda, men siz, o'rmon odamlarining orasida yurarmidim? Men sen-ga o'xshaymanmi, senga-ya, tug'mas? Men qarigan chog'imda sening jinnisifat otang Mo'min bilan ya-shab yurarmidim? Qaysi aybim – gunohlarim uchun sen meni buncha qiynading, ey Xudo?»

Bola ko'zdan durbinni olib, g'amgin bosh egdi. «Biz endi uyga qanday qaytamiz? – Sekingina port-

felga so'z qotdi u. – Buning hammasiga men sababchi, jinni buzoq sababchi. Yana sen ham sababchisan, durbin. Oq kemaga qaragani har safar meni sen chaqirasan. Sen ham aybdorsan».

Bola atrofga razm soldi. Chor atrof tog‘ – qoya, o‘rmon. Tepalikdan, muzlar qo‘ynidan boshlangan irmoqlar yarqirab jilvalanganicha ohista pastga oqib tushar va faqat shu yerga, pastga tushgandan keyingina daryo bo‘lib tinimsiz hayqirib yotish uchun ovoz paydo qilgandek bolardi. Tog‘lar esa ulkan va nihoyasiz, ko‘krak kerib turardi. Bola o‘zini shu daqiqalarda bag‘oyat kichik, bag‘oyat yolg‘iz, butunlay unutilgan his qilardi. Faqat tog‘lar bor uning yonida, tog‘lar, chor atrofda baland tog‘lar.

Quyosh ko‘l tomonga og‘a boshladidi. Havo unchilik issiq emasdi. Sharq tarafdagagi qiyaliklarga birinchi, kalta soyalar tushdi. Quyosh endi tobora pastga yo‘nalaveradi, soyalar esa pastga, tog‘lar poyiga cho‘zilaveradi. Odatda, kunning ayni shu mahalida Issiqko‘lda oq kema ko‘rinardi.

Bola durbinni ko‘zga tashlanib turgan o‘sha eng uzoqdagi joyga burdi va nafasini yutib kutib turdi. Ana u! Hamma narsa birdan unutildi: u yerda, oldinda. Issiqko‘ning ko‘m-ko‘k sathida oppoq kema paydo bo‘ldi. Mana, qalqib chiqdi. Ana u! Trubalari qator tizilgan, o‘zi kuchli va chiroyli. U xuddi ip tortib qo‘ygandek to‘g‘ri va bir tekis suzib borardi. Bola shosha-pisha durbin oynalarini ko‘ylagini etaklari bilan artdi-da, yana okulyarni to‘g‘rilay boshladidi. Kemaning ko‘rinishi yanada tiniqroq bo‘la boshladidi. Endi uning to‘lqinlararo qanday chayqalib, quyrug‘i ortidan qanday oppoq ko‘pikli iz qoldirib ketayotganligini ilg‘asa bolardi. Bola oq kemadan ko‘z uzmay unga zavq bilan tikilardi. Bolaning ixtiyorida bo‘lganda edi, u suzayotgan odamlarni ko‘rmoq mumkin bo‘lishi uchun oq kemani yaqinroq suzib

kelishga yolvorib ko'ndirgan bo'lardi. Lekin kema bulardan bexabar edi. U o'z yo'lidan, kim biladi, allaqayoqdan chiqib, allaqayoqqa, ohista va ulug'vor suzib borardi.

Kemaning suzib borishi uzoq vaqt ko'riniib turdi, bola ham uzoq vaqt baliqqa aylanib, daryo bo'ylab unga, oq kemaga qarab suzib ketishi haqida xayol surib qoldi...

Bola bir kuni Qorovultog'dan turib ko'm-ko'k Issiqko'lda oq kemani birinchi marta ko'rib qolganida uning go'zalligidan yuragi gupirib, darhol otasini – issiqko'llik matrosni – xuddi shu oq kemada suzayotir, degan qarorga kelgandi. Bola o'zi bunga ishonar, chunki u shunday bo'lishini juda-juda istardi.

U na otasini, na onasini eslay olardi. Bola ularni biron marta ham ko'rmagan. Ularning hech qaysi biri uni biron marta yo'qlab kelmagan. Lekin bola bilardi: otasi Issiqko'lda matros, onasi esa otasidan ajrashganidan so'ng, o'g'lini boboda qoldirib, o'zi shaharga ketgan. Ketgan-u, shu bo'yi g'oyib bo'lgan. Tog' ortidagi, ko'l ortidagi, yana tag'in tog' ortidagi uzoq shaharga ketgan.

Mo'min bobo kunlardan birida o'sha shaharga kartoshka sotgani borgandi. Rosa bir hafta yo'q bo'lib ketib, qaytgach, choy ustida Bekey xola bilan buviga qizini, ya'ni bolaning onasini ko'rganini gapirib bergen. U allaqanday katta fabrikada to'quvchi bo'lib ishlar ekan. Uning yangi oilasi – ikki qizi bo'lib, ularni bolalar bog'chasiga topshirar va haftada bir martagina ko'rар ekan. Katta turar joyda, lekin katalakdek xonada yashashar ekan. Hovlisi-da esa xuddi bozordagiday birov-birovni tanimas-mish. Hamma uyiga kirdi deguncha eshigini qulflab olarmish. Xuddi turmadagiday, hamisha qamalib o'tirisharmish. Eri haydovchi bo'lsa kerak, avtobusda odamlarni ko'chama-ko'cha tashib yurarkan. Er-

talab soat to'rtda ketib, kech qaytarkan. Ishi og'ir ekan, deb hikoya qilardi chol. Zor yig'lab, kechirim so'radi. Ular yangi kvartira olish uchun navbatda turishibdi. Qachon olishadi – noma'lum. Lekin qachon olishsa, eri ko'nsa, o'g'lini olib ketmoqchi. Mendan picha kutib turishni iltimos qildi. Mo'min bobo unga, g'am yemagin, debdi. Eng muhimi – er bilan murosa qilib yashash, boshqasi bitib ketaveradi. O'g'lining ham ko'p g'amini tortmasin. «Toki men tirik ekanman, bolani hech kimga bermayman, agar o'lsam – Xudo uni o'zi bir yo'lga solar, tirik odam o'z taqdirini tonib ketar...»

Cholning gaplarini eshitgan Bekey xola bilan buvi darhol xo'rsinib va hatto barobariga jinday ko'z yoshi qilib olishdi.

Xuddi shu o'tirishda gap aylanib kelib, bolaning otasi haqida ham so'z ochib qolishdi. Boboning aytishicha, uning avvalgi kuyovi, bolaning otasi, hali ham allaqaysi kemada matros bo'lib xizmat qilarmish, uning ham yangi oilasi, ikkitami, uchtami bolasi bor emish. Pristan yaqinida yasharmish. U chamasi ichishni tashlaganmish. Yangi xotini har safar bolalari bilan uni qarshi olgani pristanga chiqarmish. «Bundan chiqdi, – o'yladi bola, – ular mana shu kemani – uning kemasini qarshi olishar ekan-da...»

Kema sekin uzoqlashib borardi. Trubasidan tutun burqsitib, ko'lning ko'm-ko'k silliq sathida suzib borayotgan bu oppoq va uzun kema, baliqqa aylangan bolaning o'zi tomon suzib kelayotganini bilmasdi.

U shunday baliqqa aylanib qolishni orzu qilardiki, baliqning hamma joyi – tanasi, dumi, suzgich qanotlari, tangachalari unga o'tsa-yu, faqat ingichka bo'yinli, shal pang quloqli, tirlalgan burunli boshi o'zida qolsa bas. Ko'zlari ham o'zicha qolsin. Lekin xuddi hozirgiday emas, chin baliqlarday ko'radigan bo'lishsin.

Bolaning kipriklari xuddi buzoqnikiga o'xshash uzun-uzun bo'lib, hamisha o'zidan-o'zi nimagadir pirpirab turardi. Guljamol, qizimning ham kipriklari shunday bo'lgandami, qanday chiroyli bo'lardi! – deydi. Chiroyli bo'lishning nima keragi bor? Shaxsan unga chiroyli ko'zlarning keragi yo'q, unga suv ostida ko'ra oladigan ko'zlar kerak.

Bobo yasagan ko'lobga kelganda u baliqqa aylana-di. Qarabsizki – u baliq-da. So'ngra ko'lobdan daryoga, naq pishqirib shiddat bilan oqayotgan daryoga sakrab o'tardi va oqim bo'ylab suv ostiga sho'ng'ib ketardi. Keyin ham shu tarzda sakrab-sakrab atrof-ga nazar tashlab boradi, qizig'i yo'q joylarda faqat suv ostida suzardi. U jo'shqin daryo oqimida qizil tuproqli katta jarlik bo'yidan, daryo ostonalari va to'lqinlari-dan, tog'lar va o'rmonlar yonidan oqib o'tadi. U o'zi-ning suyukli xarsang toshlari bilan xayrlashadi: Xayr, «cho'kib yotgan tuya», xayr, «bo'ri», xayr, «egar», xayr, «tank». Qorovulkxona yonidan suzib o'tayotganda esa suvdan sakrab chiqib, suzgich qanotlarini bobosiga silkitadi: «Xayr, bobo, men tezda qaytaman». Bobo shunda hayratdan dovdirab, nima qilishini bilmay qotib qolarmidi? Buvi, Bekey xola, Guljamol qizchasi bilan – hammasi og'zini ochib qolarmidi? Qayerda kim ko'ribdi – kallasi odam-u, tanasi baliqni?

Bola esa ularga suzgich qanotlarini silkib qo'yar-di: «Xayr, men Issiqko'lga, oq kemaga suzib bora-man. U yerda mening matros dadam bor». Baltek, ehtimol, qirg'oq bo'ylab chopsa kerak. It umrida bunaqa hodisani ko'rmagan-da, axir. Agar Baltek u tomonga suvg'a o'zini tashlaguday bo'lsa, u qich-qiradi: «Qayt, Baltek, qayt. Cho'kib ketasan!» – o'zi esa suzib ketaveradi. Osma ko'priknинг sim arqoni ostidan, keyin to'qaylar yonidan, so'ng gumburlab turgan daradan o'tib, to'g'ri Issiqko'lga suzib boradi.

Issiqko'l deganlari – bu butun bir dengiz. U Issiqko'l to'lqinlarida suzib yuradi, to'lqindan-to'lqingga ko'chadi va shunda oq kemaning qarshisidan chiqib qoladi. «Salom, oq kema, bu menman! – deydi u paroxodga. – Durbindan har doim senga qaragan menman». Kemadagi odamlar hayratdan yoqa ushlab, mo'jizani ko'rgani yugurishadi. Shunda u o'zining matros otasiga so'z qotadi. «Salom, dada, men sizning o'g'lingizman. Men sizning oldingizga suzib keldim». «Sen qanaqa o'g'ilsan? Sen yarim baliq, yarim odamsan-ku!» «Siz meni o'z oldingizga, kemaga chiqarib oling, men shunda sizning o'g'lingiz bo'lib qolaman». «Voy, tavba. Qani, ko'raylik-chi». Otasi to'r tashlab uni suvdan palubaga tortib oladi. Shunda u o'z asliga qaytadi. Keyin-chi, keyin...

Keyin oq paroxod o'z yo'lida suzib ketaveradi. Bola otasiga hamma narsa haqida, butun hayoti davomida nimayiki bilgan bo'lsa hikoya qilib beradi. O'zi yashab turgan tog'lar haqida, o'sha xarsang toshlar haqida, daryo va noyob o'rmon haqida, baliqlarday ko'zi ochiq suzishni o'rgangan yeri – bobosining ko'lobi haqida so'zlaydi.

Mo'min bobosinikida qanday yashayotganligini ham aytib beradi, albatta. Bu odamni Mo'min chaqqon deb atashsa ham, uning yomon odam emasligini otasi bilib qo'ysin. Bunaqa bobo hech joyda yo'q, bobolarning eng yaxshisi. Uning hech shumligi yo'q, shuning uchun hamma undan kulib yuradi. Birovga hech yomonlikni ravo ko'rmaydi, O'razqul amaki esa cholga hadeb tirlilaveradi! Ba'zan odamlarning oldida ham boboga qichqiraveradi. Bobo esa gapiga boplab javob qilish o'rniغا, O'razqul amakini kechirgani-kechirgan va hatto uning o'rniغا o'rmon xo'jaligi ishlarini ham o'zi boshqaradi. Faqat shugina deysizmi? O'razqul mast-alast bo'lib kelganda, uning hayosiz ko'zlariga tupurish o'rniغا, unga peshvoz

chiqib, otdan tushirib qo'yadi, uyga suyab kiradi, karavotga yotqizib qo'yadi, sovuq yemasin, boshi og'rimasin, deb ustiga po'stin tashlaydi, otining esa egarini oladi, yuvib taraydi, yem beradi. Hammasiga sabab – Bekey xolaning tug'masligi. Nega shunday, dada? Istanasang tuqqin, istamasang keragi yo'q, deb qo'ya qolsa bo'lmaydimi? O'razqul amaki Bekey xolani urganda boboga rahming keladi. Boboning o'zini ursa yengil bo'lardi. Bekey xola qichqirganda u biram qiynaladiki. Qo'lidan nima ham kelardi? Qizining orasiga tushgisi keladi-yu, lekin buvi bunga yo'l qo'ymaydi. «Aralashma, – deydi u, – o'zlar murosaga keladi. Sen cholga kim qo'yibdi. Xotin seniki emas, joyingda o'tir». «Axir, u mening qizim-ku!» – desa, buvi: «Xo'sh, uying uyiga tutash bo'lmay, uzoqda yashaganingda nima qilarding? Har safar ot choptirib borib ajratib kelarmiding? Shundan keyin kim sening qizingni xotin qilardi?» – deydi.

Men aytayotgan buvi – bu ilgarigisi emas. Siz uni, dada, balki bilmassiz ham. Bu boshqa buvi. O'z tug'ishgan buvim yoshligimda vafot etgan. Bu buvi bo'lsa keyin kelgan. Bizning havolarga sira tushunib bo'lmaydi – bir qarasang ochiq, bir qarasang bulutli, bir qarasang yomg'ir aralash do'l. Buvi ham xuddi shunday, tushunib bo'lmaydi. Bir qarasang mehribon, bir qarasang berahm, hech tushunolmaysan. jahli chiqqanda – naq yeb qo'yadi. Biz bobom bilan jim bo'lamiz. Buvi: «Begonani qancha yedirma, qancha ichirma, undan yaxshilik ko'rmaysan», – deydi. Men, axir bu yerda o'gay emasman-ku, dada. Men hamisha bobom bilan birga yashab keldim. Uning o'zi o'gay bu yerda, u bizga keyin kelib qo'shildi. Endi esa meni o'gay deydi.

Qishda biz tomonda qor meni ko'may deydi. Eh, qor uyulib ketadi! Agar o'rmonga borish kerak bo'lsa, faqat bo'z ot Olaboshdagina borib bo'ladi, u

ko'kragi bilan qor uyumini surib ketadi. Shamollar ham shunday zo'rayadiki, oyog'ingda turolmaysan. Ko'lda to'lqinlar ko'tarilib qolsa, kemani yong'oq po'chog'idek o'ynatsa, bilingki, bizning San-Tosh shamoli ko'lni chayqaltiryapti. Bobom hikoya qilgandilar, juda qadim zamonda dushman lashkarlari bizning o'sha yerlarimizni bosib olgani yurish qilibdi. Ana shunda bizning San-Toshdan shunday shamol turibdiki, dushmanlar egarda o'tirolmay qolishibdi. Otlardan tushishibdi, lekin piyoda ham yurishholmabdi. Shamol ularning yuzini qonga belabdi. Shunda ular shamolga orqa o'girishibdi, shamol esa ularning yelkalariga urilib, qayrilib qarashiga imkon bermabdi, to'xtagani qo'yamabdi va ularni bitta qo'ymay Issiqko'lidan haydabdi. Mana qanday bo'lgan. Biz ana shu shamolda yashayapmiz! U bizdan boshlanadi. Butun qish bo'yi o'rmon daryo ortida shamoldan g'ichirlab, ingrab chiqadi. Hatto vahimali bo'ladi.

Qishda o'rmonda ish unchalik ko'p emas. Qishtida biz tomonlar odamsiz huvillab qoladi – yozda ko'chmanchilar keladigan mahallarga sira o'xshamaydi. Yozda katta yaylovda oqshomlari suruv yoki yilqi uyurlari bilan odamlarning ko'chishini juda yaxshi ko'raman. To'g'ri, ular ertalab tog'ga jo'nab ketishadi, lekin baribir ularning kelishi yaxshi. Ularning bolalari va xotinlari yuk mashinalarida kelishadi. Yuk mashinalarida o'tovlarni va boshqa turli-tuman narsalarni olib yurishadi. Ular sal-pal joylashib olishgach, biz bobom bilan so'rashgani boramiz. Hammalari bilan qo'l berib ko'rishamiz. Men ham. Bobom, kichiklar o'zlaridan kattalarga doim birinchi bo'lib qo'l uzatishlari kerak, deydi. Kimki qo'l uzatmasa, u odamlarni hurmat qilmagan bo'ladи. Keyin, bobom yettingin biri avliyo bo'lib chiqi-

shi ham mumkin, deydi. Avliyo – bu juda xushfe'l va aqli odam. Kimki u bilan qo'l berib ko'rishishga muyassar bo'lsa, bir umr baxtiyor bo'ladi. Men, shunday ekan, nega u o'zining avliyo ekanligini ayta qolmaydi, biz hammamiz u bilan qo'l berib ko'rishgan bo'lardik, desam, bobom kuladi: hamma gap shunda-da, deydi u, avliyo o'zining avliyoligini bilmaydi – u oddiy odam. Faqat qaroqchigina o'zining qaroqchiligin biladi. Bular menga uncha tushunarli emas, lekin biroz uyalinqirasam ham, men hamisha odamlar bilan qo'l berib ko'rishaveraman.

Bobom bilan birga yaylovga kelganimda esa uyalmayman.

«Ota-bobolaringizning yozgi qo'nog'iga xush keLIBSIZLAR! Mol-u jon sog'-salomatmi, bola-chaqa omon-esonmi?» – bobom ana shunday so'rashadi. Men esa faqat qo'l cho'zib ko'rishib qo'ya qolaman. Bobomni hamma biladi, bobom ham hammani biladi. Unga yaxshi. Uning o'z suhbat mavzusi bor, u ko'chmanchilarning hol-ahvolini so'raydi va o'zi biz qanday yashayotganligimizni gapirib beradi. Men esa bolalar bilan nimani gaplashishni bilmayman. Keyinchalik biz bekinmachoq, urush-urush o'ynab ketamiz va o'yinga shunday berilib ketamizki, ket-gim kelmay qoladi. Qani endi hamisha yoz bo'lsa, hamisha bolalar bilan o'tloqda o'ynab yursang!

Biz o'yinga kirishib ketguncha gulxanlar bo'y cho'zadi. Gulxanlardan yaylov toza yorishib ketadi, deb o'ylaysizmi, dada? Hamma joy emas. Olovning atrofi yorug', undan nari esa avvalgidek qop-qorong'i. Biz esa urush-urush o'ynaymiz, shu qorong'i-lik qo'ynida yashirinamiz va hujum qilamiz, xuddi kinodagidek. Agar sen komandir bo'lsang, hamma senga itoat qiladi. Komandirlik komandirning o'ziga ham yoqsa kerak.

Keyin tog'lar ustiga oy suzib chiqadi. Oy chiqqanda o'yin yana gashtli bo'ladi, lekin bobom meni olib qaytadi. Biz uuga yaylovdan, butazordan qaytamiz. Qo'ylar jimgina yotishadi. Yilqilar atrofda o'tlab yuradi. Biz ketayotib kimningdir qo'shiq aytayotganini eshitamiz. Yosh cho'pondir, balki keksadir. Bobom meni to'xtatadi: «Quloq sol. Bunday qo'shiqlarni hamisha eshitaver-maysan». Biz to'xtaymiz, qo'shiqn ni tinglaymiz. Bobom kuya mahliyo bo'lgancha bosh chayqaydi.

Bobo hikoya qiladi: eski zamonda bir xon boshqa bir xonning qo'liga asir tushibdi. Xon asir tushgan xonga debdi: «Agar istasang – mening qulim bo'lib tirik qolasan, bo'lmasa, eng so'nggi tilagingni bajo keltiraman-da, keyin o'ldiraman». Xon o'ylab turib javob qilibdi: «Qul bo'lib yashashni istamayman. Yaxshisi, meni o'ldirgin, lekin avval mening vatanim-dan birinchi duch kelgan cho'ponni chaqirtirib ber». «Uni senga nima keragi bor?» «O'lim oldidan uning qanday kuylashini tinglamoqchiman». Bobom aytdi: ona yurt qo'shig'i uchun odamlar jonini beradi. Qanday odamlar ekan-a, bir ko'rsang ularni. Ehtimol, katta shaharlarda yashashar?

Eshitish yoqimli. Bobom: bular eski qo'shiq, deydi. «Qanday odamlar bo'lgan-a! – shivirlaydi u. – Qanday qo'shiqlar kuylashgan-a, ey Xudoyim-ey...» Negaligini bilmayman-u, bobomga shunday rahmim keladi va uni shunchalik yaxshi ko'rib ketamanki, oxiri yig'lagim keladi...

Tong sahardayoq yaylovd a hech kim qolmaydi. Qo'y va yilqilarni yoz bo'y i boqqani nariga, tog'ga haydab ketishgan. Ular ortidan izma-iz boshqa kolxozlardan boshqa ko'chmanchilar kelishadi. Kunduzlari to'xtashmaydi, yonimizdan o'tib ketishadi. Tunda esa yaylovga qo'nishadi. Biz yana bobom ikkovimiz odamlar bilan uchrashgani boramiz. Bobom odam-

lar bilan ko'rishishni juda yaxshi ko'radi. Bu odatni men undan o'rgandim. Ehtimol, vaqt kelib bir kun yaylovdha haqiqiy avliyo bilan uchrashib qolarman...

Qishda O'razqul amaki bilan Bekey xolam shaharga shifokorga qaratgani ketishadi. Balki shifokor yordam qilar, bir dori bersa-yu, bola tug'ilib qolsa, deb umid qilishadi. Lekin buvim hamisha, aziz joylarga borgan ma'qul, deydi. Bu qayerdadir, tog'ning ortida, dalalarida paxta o'sadigan joyda emish. Tep-tekis yerda, tog' bo'lishi mumkin bo'lмаган текисликда азиз бир тог' – Sulaymon tog'i bor emish. Ana shu tog' poyiga bir qora qo'chqor so'yib, Xudoga iltijo qilsa, tog'ga chiqib har qadamda Xudoga sig'inib, yolvorsa hamda chin ko'ngildan so'rasa, Xudoning rahmi kelib, farzand ato etarmish. Bekey xolam o'sha yoqqa, Sulaymon tog'iga borishga juda intizor. O'razqul amaki esa unchalik istamaydi. Uzoq. Ko'p pul kerak, deydi. Ü yoqqa faqat samolyot bilan tog'dan oshib borish kerak, axir. Samolyotgacha ham qancha yurish kerak, bu ham pul...

Ular shaharga ketishsa biz shumshayib qolamiz. Axir ko'pchilik emasmiz-da, bor qo'shnilarimiz – Seydahmad, uning xotini Guljamol va ularning kichkinagina qizchasi, xolos.

Kechqurunlari, ishdan qo'l bo'shanganda, bobom menga ertaklar aytib beradi. Bilaman, uydan tash-qarida zimziyo, sovuq tun. Izg'irin izillab turibdi. Eng ulkan tog'lar ham bunday tunlarda vahimaga tushib bir to'p bo'lib to'planishib, uyimiz oldiga – deraza ostidagi yoruqqa yaqinroq kelib olishadi. Menga bu ham qo'rqinchli, ham sevinchli tuyiladi. Pahlavon bo'lganimdami, katta po'stin kiyardim-da, tashqari-ga chiqardim. Men u tog'larga bor ovoz bilan derdim: «Qo'rqmang, tog'lar! Men shu yerdaman. Mayli, izg'irin, qorong'i zulmat, dovul bo'ssin, men hech nimadan

qo'rqmayman, sizlar ham qo'rqmanglar. Bir yerga g'uj bo'lib to'planishmasdan joylaringda turaveringlar».

Men keyin qor uyumlaridan yurib, daryodan hatlab o'tib – o'rmonda paydo bo'lardim. Tunda o'rmon daraxtlar uchun juda vahimali, axir. Ular yolg'iz, bir so'z aytadigan jonzoti ham yo'q. Sovuqda yalang'och daraxtlar muzlaydi, ularga bosh suqadigan joy qayda. Men esa o'rmonga borib, ularga aytarli vahimali bo'lmaslik uchun har bir daraxtning tanasiga qo'lim bilan urib-urib qo'yardim. Ko'klam ko'karmay qoladigan daraxtlar – bu o'sha, qo'rqinchdan qotib qolgan daraxtlar bo'lsa kerak. Keyin biz bu qurib qolgan daraxtlarni o'tinga kesamiz.

Bobom menga ertak aytayotganda men mana shularning hammasi haqida o'ylayman. U uzoq hikoya qiladi. Ular har xil – kulgililar ham bor, ayniqsa, ochko'z bo'ri sho'ri qurib yutib yuborgan Chipalak otli jimjiloqday bola haqidagisi kulgili. Yo'q, avval uni tuya yutib yuboradi. Chipalak barg-xazonlarning ostida uqlab qoladi, tuya esa shu atrofda tentirab yurgan bo'ladi, «hap» etkizib barg-marglarga qo'shib yutib yuboradi. Shuning uchun ham aytishadi-da: tuya nima yutganini bilmaydi deb. Chipalak chin-qirib, odamlarni yordamga chaqiradi. Keksalar o'zlarining Chipalaklariga yordam berish uchun tuyani so'yishga majbur bo'lishadi. Bo'ri bilan ham shunga o'xshagan voqeа sodir bo'ladi. U ham o'zining ovsarligi tufayli Chipalakni yutib yuboradi. Oxirida bo'zlab yig'laydi. Bo'ri Chipalakka duch kelib qoladi. «Oyog'im ostida o'ralashgan qanaqa pashsha? Seni bir yamlab yutib yuboraman». Chipalak esa deydi:

– Tega ko'rma menga, bo'ri, aks holda, kuchukka aylantirib qo'yaman.

– Ha-ha, – xaxolaydi bo'ri, – bo'rining kuchuk bo'lib qolganini kim ko'ribdi. Shu dag'alliging uchun

men seni yeypman. – Shunday debdi-da, uni yutib yuboribdi. Yutibdi-yu, esidan ham chiqarib yuboribdi. Lekin shu kundan boshlab bo'rilik rizq-ro'zidan ayrilibdi. Bo'ri pisib qo'ylarga endi yetdim deganda, Chipalak uning qornida turib qichqirarkan: «Ey, cho'ponlar, uxlamanglar! Bu men, qo'ng'ir bo'riman, qo'ylaringni bo'g'izlagani pusib kelyapman!» Bo'ri nima qilarini bilmaydi. O'zining biqinini tishlaydi, yerga dumalaydi. Chipalak esa hech jim bo'lmaabdi. «Ey, cho'ponlar, choppinglar bu yoqqa, uringlar meni, do'pposlanglar». Cho'ponlar tayoq ko'tarib bo'riga tashlanishibdi, bo'ri qochibdi. Cho'ponlar hayratga tushib quvisharmish. Bo'ri aqldan ozibdi, o'zi qochadi-da, tag'in o'zi qichqiradi, deb hayron bo'lisharmish. Bo'ri esa qichqirarmish: «Meni quvib yetinglar, og'alar, uringlar, rahmingiz kelmasin!» Cho'ponlar kulgidan yiqilib qolisharmish, bo'ri esa arang qochib qutularmish. Lekin bu bilan uning holi yengillashmabdi. Qayoqqa tumshuq suqmasin, Chipalak unga pand beraveribdi. Hamma joyda uni quvishaveribdi, hamma joyda undan kulishaveribdi. Bo'ri ochlikdan ozib ketibdi, terisi bilan suyagina qolibdi. Tishlarini shaqirlatib ulibdi: «Bu qanaqa jazo bo'ldi menga? Nega men o'z boshimga o'zim baloni sotib oldim? Qariganda jinni bo'ldim, esimni yeb qo'ydim». Chipalak esa uning qulog'iga shivirlabdi: «Toshmatga chop, uning qo'ylari semiz! Boymatga chop, uning itlari kar. Ermatga chop, uning cho'ponlari uxbab yotibdi». Bo'ri esa o'tirib olib hiqlarmish: «Hech qayoqqa bormayman, yaxshisi, bitta-yarimtaga kuchuk bo'lib yollanaman...»

Kulgili ertak-a, dada, to'g'rimi? Bobomning boshqa ertaklari ham bor – mungli, dahshatli, qayg'uli. Lekin mening eng sevimli ertagim Shoxdor ona bug'u haqidagi ertak. Bobom, Issiqko'lda yashagan

har bir kishi bu ertakni bilishi kerak, deydi. Bilmalik gunoh. Balki, siz bilarsiz buni, dada? Bobomning aytishicha, buning hammasi rost, bo'lgan ish, deydi. Qachonlardir shunday bo'lgan ekan. Biz hammamiz Shoxdor ona bug'uning bolalari ekanmiz. Men ham, siz ham, boshqalar ham...

Qishda biz mana shunday yashaymiz. Qish uzoq cho'ziladi. Bobomning ertaklari bo'lmasa, qishda men juda zerikib qolardim.

Bahorda biz tomonlar yaxshi bo'ladi. Kunlar isib ketgach, yana tog'ga cho'ponlar kelishadi. O'shanda biz tog'da yana ko'payishib qolamiz. Faqat daryoning u tomonida – bizdan narida hech kim yo'q. U yoqda faqat o'rmon va o'rmondagi narsalar bor, xolos. U yoqqa hech kim oyoq bosmasin, hech kim biron ta nov-daga tegmasin, deb biz qorovulxonada yashaymiz-da. Biz tomonga hatto olimlar kelishgandi. Shim kiygan ikkita ayol, chol va bir yoshgina yigit. Bu yigit ularning shogirdi. Rosa bir oy yashashdi. O't, yaproq va novda yig'ishdi. Ular aytishdiki, bizning San-Toshdagiga o'xshagan o'rmonlar yer yuzida juda oz qolibdi. Deyarli yo'q emish. Shuning uchun ham o'rmonimizdagи har bitta daraxtni asrash kerak.

Men esa bobom har bitta daraxtni shunchaki ehtiyyot qiladi, deb o'ylardim. Bobom, O'razqul amaki qarag'aylarni yog'och ornida birovga bersa juda yomon ko'rardi...

### **UCHINCHI BOB**

Oq kema uzoqlashib ketdi. Uning trubasini durbinda ham ko'rish mumkin bo'lmay qoldi. Hademay u ko'zdan yo'qoladi. Endi bolaga otasining kemada suzishi haqidagi xayollariga nuqta qo'yish payti keldi. Hammasi yaxshi boshlangan edi, mana,

oxiri uncha xush kelmadı. U baliqqa aylanib, daryo-  
dan ko'rga suzishni, oq kemaning unga qanday duch  
kelishini, otasi bilan qanday uchrashishini osongi-  
na tasavvur qilardi. Otasiga nimalar haqida so'zlab  
berishni ham bilardi. Biroq ishning oxiri yurishma-  
di. Chunki qirg'oq ham deyarli ko'rinish qoldi. Kema  
pristan tomon yo'l oldi. Matroslar qirg'oqqa tushish-  
ga hozirlana boshlashdi. Ular uy-uyiga ketishadi.  
Otasi ham uyiga jo'nashi kerak. Pristanda uni xotini  
va ikki bolasi kutmoqda. Endi nima qilsin? Otasi  
bilan boraversinmi? U o'zi bilan birga olib ketarmi-  
kan? Mabodo olib ketadigan bo'lsa, xotini: «Kim bu,  
qayerdan kelgan, nima keragi bor?» deb qolsa-chi.  
Yo'q, yaxshisi bormagani ma'qul...

Oq kema ko'zga elas-elas ilashuvchi bir nuqtaga  
aylanib, tobora uzoqlashib boradi. Quyosh suvgaga bosh  
qo'ydi. Ko'l yuzasidagi ko'zni qamashtiruvchi olovli  
binafsha rang yog'du durbindan ko'rinish turardi.

Kema ko'zdan g'oyib bo'ldi. Shunday qilib, oq kema  
haqidagi ertak ham tugadi. Uyga jo'nash kerak.

Bola portfelini yerdan oldi, durbinni qo'ltig'iga  
qisdi. Qirdan tezgina, ilon izi so'qmoqdan qiyalab  
chonib tushib ketdi. Uyga yaqinlashgan sari yura-  
gi po'killay boshladi. Buzoq yamlab qo'ygan ko'ylak  
uchun endi javob berish kerak. Jazodan bo'lak hech  
nima xayoliga kelmasdi. Ruhan butunlay tushib  
ketmaslik uchun bola portfelga murojaat qildi: «Sen  
qo'rhma. Xo'sh, bizni koyishadi. Axir men atay qil-  
ganim yo'q-ku. Men, to'g'risi, buzoqcha bo'shalib  
ketganini bilmabman. Xo'sh, meni savashar ham.  
Chidayman. Agar seni polga qarab uloqtirishsa,  
cho'chima. Axir sen portfelsan-ku, sinib qolmaysan.  
Agar kampirning qo'liga durbin tushsa bormi, omon  
qolmaydi. Biz avval durbinni molxonaga berkitib  
qo'yamiz-da, keyin uyga boramiz...»

U shunday qildi ham. Lekin ostonadan hatlab o'tishga yuragi dov bermasdi.

Ammo uyda vahimali sukunat hukmron edi. Hovli shunday jimjit, kimsasiz ediki, egasi ko'chib ketgandek huvillab yotardi. Ma'lum bo'lishicha, Bekey xolani eri yana do'pposlabdi. Mo'min bobo yana qizining kaltaklanganligi, sochlari to'zg'ib faryod chekayotganligi ustidan chiqibdi va yana bu sharmandagarchilikning oldini olish uchun jinniligi tutgan kuyovini tinchitishga, uning mushtiga yopishib, yalinib-yolvorishga kirishibdi. Buning ustiga otasi turibdi demay, uning ko'zi oldida qizini eng tuban so'zlar bilan haqorat qilibdi. Uni bepusht mochag'ar, yaramas qisir eshak va yana maza-bemaza so'zlar bilan so'kibdi. Qizining yovvoyi va telbalarga xos ovoz bilan: «Xudo meni befarzand qilib yaratgan bo'lsa, mening gunohim nima? Bu dunyoda qo'yday tug'ib yotgan ayollar ozmi, faqat meni Xudoyim farzanddan qisgan. Nega? Nima uchun mening taqdirim shunday? Bundan ko'ra o'ldir meni, yirtqich. Mana, ur, ur...», – degan hayqirig'ini ham eshitgan.

Mo'min chol burchakda g'ujanak bo'lib o'tirgancha, hamon entikib-entikib nafas olar, tizzasi ustiga tashlangan qo'llari iztirob va alamdan titrardi. Yuzlari dokaday oqarib ketgan edi.

Mo'min nabirasiga qaradi-yu, so'z qotmadi, yana horg'in ko'zlarini yumdi. Buvisi uyda yo'q edi. U Bekey xolani eri bilan yarashtirib qo'ygani, ularnikida tinchlik o'rnatgani, singan idish-tovoqlarni yig'ishtirgani ketgandi. Buvisining shunaqa fe'lli bor: O'razqul xotinini savalayotganda oraga tushmaydi, cholni ham qaytaradi. Janjaldan keyin esa yarashtirgani boradi. Shunisiga ham rahmat.

Hammadan ko'ra bolaning cholga rahmi kelardi. Har safar shunday damlarda cholning joni halqumi-

ga kelardi. Burchakka tiqilgancha karaxt o'tirar, hech kimning ko'ziga ko'ringisi kelmasdi. Hech kimga, hech bir zotga qalbida nimalar kechayotganini bildirmasdi. Aslida bunday paytlarda Mo'min juda qartayib qolgani, yakka-yu yolg'iz o'g'li urushda halok bo'lgani haqida xayol surardi. O'g'limni hozir hech kim bilmaydi, es-lamaydi ham. O'g'li yonida bo'lganida balki bunchalik xo'rланмасмиди. Mo'min umr bo'yi bir yostiqqa bosh qo'yib yashagan xotinini ham qo'msardi. Lekin eng katta baxtsizligi – uning qizlariga baxt kulib boqmadidi. Kenjatoyi nabirasini unga qoldirib shaharga ketdi, endi u yerda katta oilasi bilan bir xonaga tiqilib o'tiribdi. Ikkinchisi bunda – O'razqulning jabrini tortyapti. U keksayib qolgan bo'lsa ham, farzandi huzurida bo'lib, qizi uchun hamma xo'rliklarga bardosh beradi, alam qiladigan joyi shundaki, qiziga ona bo'lishdek baxt nasib qilmayapti. O'razqul bilan turmush qurbaniga ham mana qancha yillar bo'ldi. Bu turmush qizining joninga tegdi, lekin qochib qayoqqa ham borardi? O'zi ham qarib qoldi, kuni bitib bir kun o'lib-netib qolsa, unda nima bo'ladi, baxti qaro qizining holi nima kechadi?

Bola birpasda kosadagi qatiqni bo'shatdi-da, bir burda nonni kavshab, deraza ostiga jimgina cho'kdi. Chiroqni yoqmadi, bobosini bezovta qilgisi kelmadi. Qo'y, o'zicha o'tirib xayol sursin.

Bola ham o'z o'ylariga berildi. U hech tushunolmasdi. Bekey xola nega eriga araq tutgani-tutgan. Eri bo'lsa uning evaziga do'pposlagani-do'pposlagan, xola bo'lsa yana yarimta tonib kelaverardi.

Eh, Bekey xola, Bekey xola! Necha marta eri chalajon qilib ursa ham, baribir kechiraveradi. Mo'min bobo ham uni hamisha kechiraveradi. Nega kechirishadi? Bunaqa odamlarni kechirmaslik kerak. U yaramas, sayoq odam. Bizga uning keragi yo'q. Usiz ham klinik o'tadi.

Shiddatli bolalik tasavvurlari uning xayolida adolatli jazo hukmini jonlantirardi. Bu hukmning hammasi O'razqulga qaratilgan bo'lib, bular uni, yo'g'on, beso'naqay, iflos odamni daryoga sudrardi. Keyin esa havoda silkitib-silkitib daryoning naq o'rtasiga itqitadi. U esa Bekey xola va Mo'min bobodan kechirim so'raydi. Axir u baliqqa aylanib qololmaydi-da...

Bola ancha yengil tortdi. U o'z tasavvurida O'razqulning daryoda qanday g'arq bo'lib borayotganini va yonginasida kigiz qalpog'i suzib ketayotganini ko'z oldiga keltirganda o'zini kulgidan tiyolmadi.

Ammo kattalar, ming afsuski, bola o'ylagandek odil ish tutishmadi. Ular hammasini aksincha qilishdi. O'razqul uyga yana mast bo'lib qaytdi. Uni hech nima bo'limganday qarshi olishdi. Bobo oti ni ushladi, xotini samovarga yugurdi. Hamma yoq faqat uni kutayotgandek. U esa jinnilik qila boshlaydi. Oldiniga ma'yuslanib yig'laydi. Nega yig'lamasin, axir bu qanaqasi, qo'l berib so'rashishga arzimaydigan eng jo'n odamning ham istaganicha bolasi bor. Beshta, hatto o'nta. O'razqulni-chi? Uning nimasi kam boshqalardan? Nimasi yetmaydi uning? Yoki martabasi pastmi? Xudoga ming qatla shukr, noyob o'rmonning katta qorovuli! Yoki u qandaydir daydi zotmi? Axir lo'lining ham lo'livachchasi bor. Yoki u betayinmi, obro'si yo'qmi? Hammasi bor. Hammasinga yetishgan. Egarlangan oti bor, qo'lidan qamchi tushmagan, har yerda uni hurmat bilan kutib olishadi. Xo'sh, uning tengdoshlari o'z farzandiga to'y qilishadi, u-chi? O'g'ilsiz, urug'siz, kim u?

Bekey xola ham yig'laydi jonini hovuchlab, erining ko'nglini topishga tirishadi. Yashirib qo'ygan «yarimta»sini oladi. Alamidan o'zi ham ichadi. Borgan sari ichish ortadi, keyin oxiri O'razqul hayvonga aylanib, o'zining butun alamini ana shu ayoldan, o'zining xotinidan oladi. U esa uning hamma gunohini kechira-

di. Bobo ham kechiraveradi. Hech kim O'razqulga bas kelolmaydi. Hushiga kelib qarasaki, momataloq bo'lib ketgan xotini erta turib samovar qo'ygan bo'ladi. Chol esa otini to'yg'azib, egarlab qo'yibdi. O'razqul choyni ichib, otga mingach, yana boshliq, San-Toshdag'i barcha o'rmonning xo'jayini. Lekin O'razquldaka odamni allaqachon daryoga uloqtirish kerakligi hech kimning xayoliga ham kelmaydi.

Qosh qoraydi. Hali zamon qorong'i tushadi.

Bolaga birinchi portfel olib berilgan kuni ana shunday o'tdi.

U uqlash oldidan portfelini qo'ygani joy topmasdi. Oxiri bosh tomoniga qo'ysi. Xuddi shunday portfeldan sinflarning yarmisida bo'lishini bola hali bilmasdi. Lekin bu ham baribir uning ko'nglini buzolmaydi, uning portfeli go'yo boshqacha, alohida portfelday tuyilardi. Xuddi shunday, uning jajji hayotida katta voqealar yuz berishi, bir kun kelib, yorug' jahonda yolg'iz o'zi, faqat mana shu portfel bilan qolishini hali bilmasdi. Buning hammasiga uning o'zi sevgan Shoxdor ona bug'u haqidagi ertak sabab bo'lishidan bexabar edi...

Bu oqshom ham o'sha ertakni yana bir bor eshitgisi keldi. Mo'min cholning o'zi bu afsonani sevar, go'yo hammasini o'z ko'zi bilan ko'rganday, xo'rsinib, yig'lamsirab, jim qolib va o'yga tolib hikoya qilardi.

Biroq bola bobosini bezovta qilishga botinmadni. U bobosining ertak aytishga holi yo'qligini sezardi. «Biz undan boshqa safar iltimos qilamiz, – dedi bola portfeliga. – Hozir esa senga Shoxdor ona bug'u haqidagi ertakni xuddi bobomdan eshitganimdek so'zma-so'z o'zim aytib beraman. Shunday sekin so'zlaymanki, boshqa hech kim eshitmaydi, sen esa eshitgin. Men hamma narsani kinodagiday so'zlashni va ko'rishni sevaman. Mana shunday. Bobom buning hammasi bo'lgan voqea, deydi. Shunday bo'lgan ekan...»

Bu juda qadimda o'tgan. Zamonlarning zamonda, yer yuzida maysalardan ko'ra dov-daraxtlar ko'p bo'lgan, qurg'oq yerkardan ko'ra o'lkamizda obi hayot mo'l bo'lgan davrlarda bir qirg'iz qabilasi ulkan va muzday daryo bo'yida yashardi. Bu daryoni Enasoy deb atashardi. U bu yerkardan uzoqda, Sibirdan boshlanadi. U yerkarga otda uch yil-u uch oyda yetib borish mumkin. Bu daryoni hozir Yenisey deyishadi, ilgarilari Enasoy deb yuritishgan. U haqda shunday qo'shiq ham to'qilgan:

*Sendan ulkan daryo bormi, Enasoy,  
Sendan aziz tuproq bormi, Enasoy.  
Sendan chuqur dard ham bormi, Enasoy,  
Sendan ozod quchoq bormi, Enasoy.  
Sendan ulkan daryo yo'qdir, Enasoy,  
Sendan aziz tuproq yo'qdir, Enasoy.  
Sendan chuqur dard ham yo'qdir, Enasoy,  
Sendan ozod quchoq yo'qdir, Enasoy.  
Mana shunaqa edi, bu Enasoy daryosi.*

Enasoy bo'yida turli xil elat yashardi. Ular g'oyat og'ir hayot kechirardi, chunki ular bir-birlariga doimo adovat ko'zi bilan qarar edilar. Qirg'iz qabilasini dushmanlar turli tomondan qurshab olgandi. Goh ular, goh bular hujum qilishar, goho qirg'izlarning o'zi ham boshqalarga chovut solib, mollarni haydab ketishar, uylariga o't qo'yishar, odamlarni o'ldirishardi. Qulay kelib qolganda bir tomon ikkinchi tomon odamlarini o'ldirib yuborar edi. Zamon shunaqa edi. Odamning odamga ichi achimasdi. Odam odamni g'ajirdi. Shu darajaga borildiki, hech kimning dehqonchilik qilgisi, mol boqqisi, ov qilgisi kelmay qoldi.

Qaroqchilik bilan kun kechirish oson tuyilardi; qo'qqisdan bosasan, o'dirasan, olasan-ketasan. Bir qotillikka qasdma-qasd o'n qotillik bilan javob berishga harakat qilishardi. Shu zaylda kun o'tgan sayin ko'proq qon to'kilardi. Odamlarda aql o'tmaslashib borardi. Dushmanlarni yarashtiradigan, insofga keltiradigan odam yo'q edi. Dushmanga qiron keltirib, o'zga qabilaning so'nggi odamigacha qonini oqizgan, mol-u mulkini qo'lga kiritgan odam eng aqli va uddaburon sanalardi.

O'rmonda bir g'aroyib qush paydo bo'lib qoldi. Inson ovoziga o'xhash ayanchli ovoz bilan tundan tonggacha sayrar va yig'lar, shoxdan-shoxga sakrab so'yaldi: «Katta baxtsizlik bo'ladi! Katta baxtsizlik bo'ladi.» Shunday bo'ldi ham, o'sha qora kun keldi.

O'sha kuni qirg'iz qabilasi Enasoy bo'yida o'zining buyuk oqsoqolidan judo bo'ldi. Botir Qulchi ko'p yillar yo'lboshchilik qildi, ko'pgina yurishlarda, jang-jadallarda qatnashdi. Janglarda omon qoldi, lekin ajali yetdi. Qabiladoshlar ikki kun katta g'am-alamda o'rtandilar, uchinchi kuni esa botirning jasadini yerga topshirgani yig'ildilar. Eski odatga ko'ra, buyuk oqsoqolni Enasoyning o'nqir-cho'nqirli qirg'og'i bo'ylab so'nggi yo'lga kuzatish lozim edi, toki marhumning ruhi Enasoy daryosi bilan yusklikda judolashsin, axir «Ena» – bu ona demak, «soy» esa – bu daryoning o'zani-ku. Uning qalbi Enasoy haqidagi qo'shiqni so'nggi bor kuylasin.

*Sendan ulkan daryo bormi, Enasoy,  
Sendan aziz tuproq bormi, Enasoy.  
Sendan chuqur dard ham bormi, Enasoy,  
Sendan ozod quchoq bormi, Enasoy.  
Sendan ulkan daryo yo'qdir, Enasoy,  
Sendan aziz tuproq yo'qdir, Enasoy.  
Sendan chuqur dard ham yo'qdir, Enasoy,  
Sendan ozod quchoq yo'qdir, Enasoy.*

Dafn etish lozim bo'lgan tepalikda yorug' jahoning to'rt tomonini ko'rsatmoq uchun botirning qabri bosh uzra ko'tarildi: «Mana sening daryong. Mana sening osmoning. Mana sening yering. Sen biz bilan, hammamiz bir urug' odamlarimiz. Osuda uxla. Biz hammamiz seni kuzatgani keldik». Kelajak avlod xotirasi uchun botirning qabri ustiga marmar tosh qo'yildi.

Botirning jasadini dafn etishga olib o'tishganda har bir oila o'z ostonasi oldida u bilan vidolashi-shadi, oq motam yalovini egib, uv tortib yig'lashadi, keyin boshqalar bilan birga qo'shilib yana oq motam yalovlarini egiltirgan holda, aytib yig'lashayotgan kelgusi o'tov tomon ilgarilab borishadi va shu zaylda so'nggi manzilga, to qabristongacha yetib borish uchun motam kunlarida barcha qabiladoshlar o'tovlarini daryo yoqasiga qator tikishdi.

O'sha kuni hamma tayyorgarlik ko'rib bo'lin-ganda quyosh uyqudan bosh ko'targandi, uchiga otning dumi bog'langan tug' va botirning urush aslahalari – nayza va qalqoni olib chiqildi. Uning oti dafn etish yopiqlari bilan burkalgan edi. Karnaychilar jangovar kuy chalishga, barabanchilar barabanga tayoqni jon-jahdlari bilan urishga shay edilarki, toki o'rmon larzaga kelsin, qushlar bulut yanglig' osmonga ko'tarilib, shovqin-suron va nola solsinlar. Yirtqich hayvonlar bo'kirib-hayqirib chakalakzorlarga chonib qolsin, maysalar yerga qapishib ketsin, sadolar jaranglab, tog'larni larzaga keltirsin. Motamsaro ayollar sochlarini yoyib, botir Qulchiga aza ochishga shay turishardi. Yigitlar zabardast yelkalarida botirning katta, og'ir jasadini bezovta qilmay ko'tarish uchun tiz cho'kkan edilar. Hamma narsa botirni oxirgi yo'lga kuzatib qo'yishga tayyor edi. O'rmon etagida esa to'qqizta biya, to'qqiz-

ta ho'kiz, to'qqizta to'qqizlik qo'y qurbanlik uchun hozirlab qo'yilgandi. Shunda kutilmagan hodisa ro'y berdi. Enasoyliklar bir-biriga har qancha dushman bo'lmasin, oqsoqollarning dafn marosimi kunlari-da bir-biri bilan urush qilishni rasm qilmagandi. Mana hozir esa bir to'da dushman g'am-anduhga botgan qirg'oqdagilarni tong chog'i to'rt tomondan sezdirmay o'rab kelib, pistirmalardan barobariga otilib chiqib, hamlaga o'tdilarki, oqibatda hech kim otga ham minolmadi, qo'liga qurol ham ola olmadi. Shu tariqa ko'z ko'rmagan qirg'in urush boshlandi. Hammani bir chekkadan o'ldira boshlashdi. Yengimas qirg'iz qabilasini bir hamla bilan qirib tashlash – dushman rejasi ana shunday edi. Hammani bir boshdan qilich damidan o'tkazishdi, toki bu yovuzlikni eslab hech kim yodga olmasin, qasoskor qolmasin, vaqt esa o'tmisht izlarini qumlar bilan ko'mib yuborsin. Tuya ko'rdingmi – yo'q.

Insonni tug'ish va o'stirish qanchalar qiyin, o'ldirish esa – hammasidan oson. Ba'zi birovlar o'zi qoniga botib qiymalanib yotishar, birovlar esa qilich va nayzadan qutulib qolmoq uchun o'zini daryoga otar, Enasoy to'lqinlari orasida cho'kib ketardi. Daryo yoqalab jarliklar-u tikka kesib tushgan qirg'oqlar bo'ylab butun bir chaqirim yo'lda olovga qoplangan qirg'iz o'tovlari lovullab yonardi. Hech kim qochib qutula olmadi, hech kim omon qolmadi. Hammasi o'ldirildi va kuydirildi. Olib yotganlarning jasadini qirg'oqdan Enasoyga uloqtirdilar. Dushmanlar: «Endi bu yerlar bizniki! Endi bu o'rmonlar bizniki! Endi bu mollar bizniki!» – deb quvonishardi.

Ular boy o'lja bilan qaytishar ekan, o'rmonдан ikki bola – bir o'g'il va bir qizning qanday chiqib kelganini payqashmadidi. Bu o'zboshimcha va sho'x bolalar ota-onalaridan yashirinchalab ertalabiq yaqin

o'rmonga qo'l savat uchun po'stloq shilgani ketish-gandi. Ular o'ynab yurishib, o'rmonning ancha ich-karisiga kirib ketishganini sezmay qolishdi. Jang suronini eshitib orqaga qaytgan go'daklar na otasini, na onasini, na akasini, na opasini tirik topa oldilar. Go'daklar ota-onasidan va elatidan judo bo'lib qoldi. Ular bo'zlab kultepadan kultepaga chopishar, lekin bironta tirik jonni tonib bo'lmasdi. Bir zum ichida yetim bo'lib qolishdi. Yorug' jahonda yakka-yu yolg'iz qoldilar. Uzoqlarda esa jang to'zoni ko'kka urilardi, dushmanlar qonli kurash natijasida qo'lga kiritgan mol va qo'yalarini haydab ketishardi.

Bolalar tuyoqlar ostidan ko'tarilgan changni ko'rib, o'sha tomonga yugurishdi. Ular qonxo'r dushman izidan yig'lab, qichqirib chopishardi. Faqt bolaning qalbigina shunday soddadil bo'ladi. Jallodlardan yashirinish o'rniga ularga yetib olishga shoshilishardi. Har nima bo'lsa ham yolg'iz qolishmasa, bu vayronadan, la'natি joydan nari ketishsa bas. Bir-birining qo'lidan ushlab olishgan bola va qizcha ketayotganlar orqasidan quvib jindakkina kutishni, o'zlari bilan birga olib ketishlarini yolvorib so'rashardi. Biroq qiy-chuv va tuyoqlarning dupur-dupuri-yu, haydovchilarning hayqirig'ida bu ojiz ovozlarni kim eshitardi.

Bolalar jon-jahdi bilan uzoq chopishdi. Lekin baribir, yetib olishholmadi. Keyin esa yiqilib qolishdi. Atrofga boqishga, qimirlashga qo'rqishardi. Hamma yoq vahimali edi. Shu zaylda bir-birining pinjiga kirib ko'zlari yumilganini bilmay qolishdi.

Yetimcha yetti ko'cha, deb bekorga aytmaganlar. Tun bexatar o'tdi. Hayvon ularga tegmadi, o'rmon maxluqlari ko'tarib ketmadi. Ular uyg'onishganda tong otgandi. Quyosh nur sochib, qushlar sayrardi. Bolalar o'rinlaridan turib yana mol haydovchilarning izidan yo'lga tushishdi.

Yo'lma-yo'l meva va ildiz yeb jon saqlashdi. Yo'l yura-yura uchinchi kuni bir tog' tepasida to'xtashdi. Pastga qarashsa – keng, yam-yashil maysazor-da katta tantana bo'layotibdi. Bu yerda tikilgan o'tovlarning, gurillab yonayotgan gulxanlarning, gulxan atrofida o'tirgan odamlarning son-sanog'i yo'q. Qizlar halinchak uchib xirgoyi qilishmoqda. Davra tortgan odamlar o'rtasida polvonlar xuddi burgutday gir aylanib, bir-birini itqitib otishyapti. Dushmanlar o'zlarining g'alabasini nishonlashardi.

Bola bilan qiz yaqin borishni ham, bormaslikni ham bilmay tog' tepasida turishardi. Lekin go'sht qo-vurdoq, non, sarimsoqning yoqimli hidi ufurib tur-gan gulxan atrofida paydo bo'lib qolishni istashardi.

Bolalar chidab turisholmadi, tog'dan tusha bosh-lashdi. Tantana egalari hayron bo'lishdi, ularni to'da bo'lib o'rav olishdi.

– Kimsanlar? Qayoqdan keldilaring?

– Biz ochmiz, – javob berdi bola bilan qizcha, – bizga yeydigan bir nima bersangiz.

Ular bolalarning tilidan kim ekanligini darrov payqab qolishdi. Baqirib-chaqirib, shovqin solish-di. Tugatilmagan dushman oilasining omon qolgan a'zolarini hozir o'ldirish kerakmi yoki xonning oldiga olib borish kerakmi? – deb bahsga tushib ketish-di. Ular bahslashib turganda rahmdilgina bir ayol bolalarga jindek pishgan ot go'shti uzatdi. Bolalarni xon huzuriga sudrab borishar ekan, ular qo'llari-dagi ovqatni yutoqib yeyaverishdi. Ularni ostonada oybolta ushlab turgan yasovullar xonning baland qizil o'toviga olib kelishdi. Butun qarorgoh bo'y lab esa allaqayoqdan paydo bo'lib qolgan qirg'iz zotlari haqidagi tashvishli xabar tarqaldi. Bu nimadan darak berishi mumkin? Hamma o'z o'yini va tantanani tark etib, ur-to'polon bilan xonning o'tovi tomon chonib ketdi. Bu payt xon mashhur lashkarlari bilan

qorday oppoq namat to'rida savlat to'kib o'tirardi. U asal qo'shilgan qimizni simirib, maqtov qo'shiqlarini sel bo'lib tinglab o'tirardi. Xon odamlar nima uchun to'planishganini bilgach, g'azabdan quturib ketdi:

– Meni bezovta qilishga qanday jur'at etdilaring? Biz axir qirg'iz zotini butunlay qirib tashlamagan edikmi? Men senlarni Enasoyning abadiy hukmroni qilib qo'ymadimmi? Namuncha o'pkalariningni qo'ltiqlab yugurib kelmasalaring, qo'rqaqlar? Qaranglar, oldilaringda kim turibdi! Ey, cho'tir yuzli Baymoq kampir, – qichqirdi xon. U olomon orasidan ajralib chiqqanda esa unga dedi: – Mana bularni o'rmonga oborib shunday qilginki, shu bilan qirg'iz zoti tugasin, xayolda ham qolmasin, nomi abadiy o'chsin. Boshla, Cho'tir Baymoq kampir, aytganimni darhol bajo keltir...

Cho'tir Baymoq kampir jimgina itoat qilib, bola bilan qizni qo'lidan ushladi-da, olib ketdi. Ular o'rmon oralab uzoq yurgach, Enasoy qirg'og'idagi baland jarlikka yetib kelishdi. Cho'tir Baymoq kampir bolalarni shu yerda to'xtatib, ularni jar yoqasiga olib keldi. So'ng, ularni jarlikka itarib yuborish oldidan shunday dedi:

– O, muazzam Enasoy daryosi! Sening qa'ringga tog'ni qulatsa, u bir xarsangday jo bo'ladi. Agar yuz yillik qarag'ayni tashlassa, uni cho'pday oqizib ketasan. Kel endi, ikki qum zarrasini – ikki inson bolasini o'z bag'ringga olgin. Ularga yer yuzida joy yo'q. Senga men aytib o'tirishim kerakmi, Enasoy? Agar yulduzlar odamga aylanib qolsa bormi, osmon ularga torlik qilib qoladi. Agar baliqlar odamga aylanib qolsa bormi, ularga daryo va dengizlar torlik qilib qoladi. Senga men aytib o'tirishim kerakmi, Enasoy? Ol, bu bolalar ni, uloqtirib ket. Qo'y, ular bu manfur dunyomizni go'daklikda, toza qalb bilan, bolalik hayosi bilan, yovuz niyat va yovuz ishlar bilan o'z nomiga isnod keltirishga

ulgurmasdanoq tark etishsin, toki, inson azob-uqubatini ko'rish va boshqalarning ham g'am-alamiga sababchi bo'lish ularga nasib qilmasin. Ol bularni, ola qol bularni, qudratli Enasoy...

Bolalar zor qaqlash, ho'ngrab yig'lardi. Tik qirg'oqdan pastga qarash qanchalik dahshatli ekani ni ko'rib turgan bolalarning qulog'iga kampirning so'zi kirmasdi. Pastda esa quturgan to'lqinlar sapchiydi.

– Quchoqlashinglar, bolalar, oxirgi marta xayrlashib olinglar, – dedi Cho'tir Baymoq kampir. O'zi esa ularni jarga irg'itish qulay bo'lsin uchun yenglarni shimardi. Keyin shunday dedi: – Endi meni kechiringlar, bolalar. Peshanangizga yozgani shu ekan. Bu ishimni hozir o'z ixtiyorim bilan qilmayotgan bo'lsam ham, lekin sizlarning baxtingizga...

U gapini tugatmagan ham ediki, yonginasidan bir ovoz keldi:

– To'xta, dono, oqila kampir, gunohsiz bolalarni juvonmarg qilma.

Cho'tir Baymoq kampir qayrilib qaradi-yu, hayratta qoldi: qarshisida g'aroyib ona bug'u turardi. Uning yirik-yirik ko'zlari ta'nali va g'amgin boqardi. U sutdek oq, qorni bo'taloqning yungidek qo'ng'ir yung bilan qoplangan. Shoxlari bo'lsa go'zallik timsoli: serbutoq, go'yo kuzgi daraxtning bir bo'lak shoxi. Yelini emizikli ayolning ko'kragidek top-toza va silliq.

– Kimsan? Nega odamga o'xshab gapiryapsan? – so'radi Cho'tir Baymoq kampir.

– Men ona bug'uman, – javob berdi u. – Shuning uchun odamga o'xshab gapirdimki, bo'lmasa sen tushunmaysan, qulqoq ham solmaysan.

– Nima istaysan, ona bug'u?

– Qo'yib yubor bolalarni, donolarning donosi. Sendan iltimos qilaman, ularni menga ber.

– Nima qilasan ularni?

– Odamlar mening ikki egizimni, ikki bug‘u bolasini o‘ldirishdi. Men o‘zimga bola izlab yuribman.

– Sen bularni boqmoqchimisan?

– Ha, donolarning dono ayoli.

– Sen yaxshilab o‘ylab ko‘rdingmi, ona bug‘u? – masxaraomuz kului Cho‘tir Baymoq kampir. – Bular axir odam bolasi-ku. Bular katta bo‘lishadi, keyin sening bolalarining o‘ldirishadi.

– Ular katta bo‘lishsa, mening bolalarimni o‘ldirishmaydi, – javob qildi unga bug‘ular onasi. – Men ularga ona bo‘laman, ular esa mening bolalarim. Axir ular o‘z aka-ukalarini o‘ldirishadimi?

– Eh, nimasini aytasan, ona bug‘u, sen odamlarni bilmaysan, – bosh tebratdi Cho‘tir Baymoq kampir, – ular o‘rmon hayvonlarigagina emas, hatto o‘z-o‘zlari-ga ham rahm-shafqat qilishmaydi. Bu yetimchalarni senga berardim, shunda mening so‘zlarim qanchalik rostligiga o‘zing guvoh bo‘larding, lekin odamlar baribir qo‘lingdan tortib olib bu bolalarni o‘ldirisha-di. Buncha g‘amning senga nima keragi bor?

– Men bolalarni uzoq o‘lkalarga olib ketaman, u yerdan bolalarni hech kim qidirib topolmaydi. Bolalarga rahm qil, donolarning donosi, ozod qil ularni. Men ularga sadoqatli ona bo‘layin. Yelinlarim to‘lib turibdi. Sutim bolalarni orziqib kutyapti. U bolalarga intizor.

– Ha, mayli, shunday bo‘ladigan bo‘lsa, – dedi oxi-ri Cho‘tir Baymoq kampir o‘ylab turib, – bularni tez-roq olib jo‘na. Yetimlarni o‘zingning uzoq yurtingga olib ket. Agar ular uzoq yo‘l yurib toliqib halok bo‘lsa yoki duch kelgan qaroqchilar o‘ldirib ketsa, yoki bo‘lmasa bu odam bolalari sening yaxshililingga yomonlik bilan javob qaytarishsa – o‘zingdan ko‘r.

Ona bug‘u Cho‘tir Baymoq kampirga minnat-dorchilik bildirdi. Bola bilan qizga esa:

– Endi, men sizlarning onalaringman, sizlar esa mening bolalarimsizlar, – dedi. – Senlarni uzoq yurt-

ga, qorli tog' va daraxtzorlar qo'ynida joylashgan iliq dengiz – Issiqko'lga olib ketaman.

Bola va qizcha shodlanib, Shoxdor ona bug'u ortidan chopqillab ketishdi. Lekin asta-sekin charchab, holdan toyishdi, yo'l esa olis – dunyoning bu chetidan u chetiga cho'zilgan. Ona bug'u bolalarni o'z suti bilan boqib, kechalarini bag'riga bosib isitmaga ular hech qayerga ham yetisholmas edi. Ular uzoq yurishi. Ona yurt bo'lmish Enasoy tobora ortga chekinib borar, lekin yangi vatan bo'lmish Issiqko'lga hali juda uzoq edi. Yo'l yurishi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishi. Yoz-u qish, ko'klam-u yoz va kuz, yana yoz-u qish, yana bahor-u, yana yoz va quz qalin o'rmonlardan, jazirama cho'llardan, ko'chma qum sahrolardan, baland tog'lardan va hayqirib oqqan daryolardan ne mashaqqat bilan o'tishdi. Ularning izidan bo'rilar galasi quvdi, Shoxdor ona bug'u esa bolalarni ustiga mindirib yovuz yirtqichlardan qutqarib ketdi. Ularning izidan tushgan otliq ovchilar o'q uzib, qichqirishardi: «Bug'u odam bolasini o'g'irlab ketyapti! Ushla! Tut!» va ketma-ket o'q uzishardi. Shoxdor ona bug'u bolalarni opichib, g'izillab uchayotgan o'qlarga, chaqirilmagan qutqaruvchilarga yetkazmay borardi. U o'qdan ko'ra tezroq chopar va shivirlardi:

– Mahkamroq ushlanglar, bolalarim, bosqinchilar!

Oxiri Shoxdor ona bug'u o'z bolalarini Issiqko'lga yetkazib keldi. Ular tog' tepasida turib, hayratlanshardi. Chor atrof qorli tog'lar bilan qoplangan, tog'lar o'rtasida ko'm-ko'k o'rmon, ko'z ilg'agan hamma joyda dengiz chayqalib shovullab turardi. Ko'm-ko'k suv yuzida oppoq to'lqinlar yugurar, shamol ularni uzoqlardan haydab kelib, yana yiroqlarga haydab ketardi. Issiqko'l qaydan boshlanib, qayda tugaydi – bilib bo'lmasdi. Bir chekkasida qu-yosh bosh ko'tarsa, ikkinchisida hali tun pardasini yig'ishtirolmasdi. Issiqko'lning chor atrofini qancha

tog‘ qurshab olgan – sanab bo‘lmasdi, u tog‘lar ortida yana shunga o‘xhash qanchadan-qancha qorli tog‘lar bo‘y cho‘zib turibdi.

– Mana shu yangi vataningiz bo‘ladi, – dedi Shoxdor ona bug‘u. – Mana shu yerda yashaysizlar, yer haydaysizlar, baliq tutasizlar, mol-hol qilasizlar. Ming yillar tinch-totuv yashanglar. Ha, sizlarning avlodining yashaydi, ko‘payadi. Sizlar keltirgan tilni avlodlar unutishmaydi. Ularga o‘z ona tillarida so‘zlash va kuylash yoqimli bo‘ladi. Insonlarga qanday yashash lozim bo‘lsa shunday yashanglar. Men esa sizlar va sizlarning bolalaringizning bolalari bilan hamisha birga bo‘lay...

Mana shunday qilib, bola va qizcha qirg‘iz avlodining ajdodlari sifatida mangu jannatmakon Issiqko‘lda o‘zlariga yangi makon topdilar.

Vaqt tez o‘tib boraverdi. Bola baquvvat yigit bo‘ldi, qiz bo‘yga yetdi. Shunda ular qovushib, er-xotin bo‘ldilar. Shoxdor ona bug‘u esa Issiqko‘lni tark etmasdan, yaqin o‘rtadagi o‘rmonda yashay boshladи.

Bir kun tong mahali Issiqko‘l qo‘qqisidan notinchylanib, shovullay boshladи. Qizni to‘lg‘oq tutib, azoblanmoqda edi. Er esa cho‘chib ketdi. Qoya ustiga chonib chiqdi-da, ovozining boricha chaqira boshladи:

– Qayerdasan, Shoxdor ona bug‘u? Issiqko‘l qanday shovqin solyapti, eshityapsanmi? Qizing tug‘yapti. Tezroq kel, Shoxdor ona bug‘u, bizga yordam qil...

Shunda uzoqdan xuddi karvonlarning qo‘ng‘irog‘iday jarangdor tovush eshitildi. Bu tovush tobora yaqinlashib kelaverdi. Shoxdor ona bug‘u yetib keldi.

U shoxlarida beshik keltirdi. Beshik oppoq qayindan yasalgan bo‘lib, bandida kumush qo‘ng‘iroqcha jaranglab turardi. Bu qo‘ng‘iroq Issiqko‘l beshiklarida hozirgacha ham yangrab turibdi. Onalar beshiklarni tebratar, kumush qo‘ng‘iroq jaranglar, go‘yo Shoxdor

ona bug'u uzoqlardan chonib, shoshib, shoxlarida qayin beshik ko'tarib kelayotganday tuyiladi...

Shoxdor ona bug'u yetib keldi-yu, shu payt qizning ham ko'zi yoridi.

– Bu beshik sizlarning to'ng'ichlaringiz uchun, – dedi Shoxdor ona bug'u. – Hali ko'p farzand ko'rasizlar. Yetti o'g'il, yetti qiz!

Ota-onas xursand bo'lishdi. To'ng'ich farzandlarini Shoxdor ona bug'u sharafiga – Bug'uboy deb atashdi. Bug'uboy o'sib-ulg'aydi, qipchoqlar avlodidan bo'lgan go'zal qizga uylandi, shu bilan Bug'uboy avlodi – Shoxdor ona bug'u avlodi ko'paya boshladi. Bug'uboy avlodlari Issiqko'lda ko'p va qudratli bo'lib qoldi. Bu avlod Shoxdor ona bug'uni muqaddas deb bilishardi. Bug'uboy avlodlarining o'tovida eshik tepasiga bug'u shoxi osib qo'yilar, bu esa uzoq-uzoqlardan ham o'tovning Bug'uboylar avlodiga mansub ekanligidan darak berib turardi. Bosqinchi dushmanlarni daf etganda yoki poyga musobaqalarida Bug'uboy avlodlarini «Bug'u» degan bitta laqabning o'zidanoq anglab olishar, ular esa har doim g'olib chiqishardi. O'sha kezlar Issiqko'l o'rmonlarida oppoq shoxdor bug'ular bo'ldi, go'zallikda hatto ko'kdagi yulduzlar ham ularga rashk qilardi. Ular Shoxdor ona bug'uning bolalari edi. Ularga hech kim tegmasdi, hech kim hurkitmas edi. Bug'uboy avlodlari bug'uga duch kelgan joyda otdan tushib, unga yo'l berardi. Oshiqlar suygan qizlarini suluvlilikda go'zal oq bug'uga qiyos qilishardi...

Bug'uboy avlodining oshib-toshib ketgan mashhur bir boyi to o'lguniga qadar shu odat saqlanib qoldi. Uning ming-minglab qo'ylari, ming-minglab yilqilari bo'lib, mollariga qaraydigan qancha-qancha cho'ponlar ham uning izmida edi. O'g'llari unga katta ma'raka qilishdi. Ular bu ma'rakaga yer yuzining hamma ma'lum va mashhur kishilarini chaqirish-

di. Mehmonlar uchun Issiqko'l qirg'og'iga bir ming bir yuzta o'tov tikdilar. Qancha mol so'yildi, qancha qimiz ichildi, qanchalab qashqarcha noz-ne'matlar berildi, sanog'iga yetib bo'lmasdi. Boyning o'g'illari gerdayib yurishardi: Axir otadan bitmas-tugan mas meros qolganligini, farzandlar otani hurmatlab, uning xotirasini qanday e'zozlashlarini odamlar ko'rib qo'ysin-da... («E bo'tam, odamlar aql o'rniqa boyligini ko'z-ko'z qilishsa, bu qanday yaramaslik».)

Marsiya aytuvchilar esa marhumning o'g'illari taqdim etgan arg'umoqlarda yelib, sovg'aga berilgan suvsar telpak va shoyi to'nlargacha o'ralib, marhumni va uning merosxo'rclarini ko'klarga ko'tarib maqtashardi.

– Bu olamda bunday baxtli hayot va shukuhli ma'rakani ko'rgan bormi? – deb kuylardi biri.

– Dunyo bino bo'lgandan beri bunaqasi hali bo'limgan! – derdi ikkinchisi.

– Hech qayerda bo'limgan! Faqat bizdagina ota-onalarni shunday hurmatlashadi, ota-ona shon-sharafini yuksak tutishadi, ularning muqaddas nomini ulug'lashadi, – kuylardi uchinchisi.

– Ey, qaqildoq marsiyachilar, nima deb valdirayapsiz! Olamda bu hotamtoylikning ta'rifiga loyiq so'z, marhumning shon-shuhratiga teng keladigan shuhrat bor ekanmi? – kuylardi to'rtinchisi...

Ular shu zaylda kecha-kunduz kim o'zarga bahslashardi. («E-e, bo'tam, hofizlar hamd-u sano o'qishda bahslashsa, qanday yaramaslik, ular qo'shiqchidan qo'shiq kushandasiga aylanishadi».)

Dovruq solgan ma'raka ko'p kunlik bayramday o'tdi. Boyning maqtanchoq o'g'illari boshqalarni lol qoldirishni, shuhratlari olamga yoyilishini orzu qilishdi. Yana buning ustiga mangu uyquga ketgan shavkatli otalari Shoxdor ona bug'u avlodidan ekanligini hamma bilish uchun uning qabriga bug'u

shoxini o'rnatishni o'ylab topishdi. («E bo'tam, qadimgi odamlardan qolgan gap bor: boylik – takabburlikni, takabburlik esa telbalikni tug'diradi».)

Boyning o'g'illari ota xotirasiga ko'z ko'rib, qulqoq eshitmagan yodgorlik o'rnatishni istashgani uchun ham hech nima ularga to'sqinlik qila olmadi. Aytig'an so'z – otilgan o'q. Ovchilarni yo'llashdi. Ovchilar bug'u otib, shoxini tanasidan ayirishdi. Bug'u shoxlarining tepaga taralib turishi ko'kda parvoz qilayotgan burgutning qanotlariga o'xshardi. Bug'u shoxlari o'g'illarga yoqib tushdi: ularning har biri o'n sakkiz butoqqa bo'lingan – demak, o'n sakkiz yosha ekan. Yaxshi! Ular shoxni qabr ustiga o'rnatish uchun ustalarga farmon berishdi.

Qariyalar hayratda qolishdi:

– Bug'uni o'ldirishga qanday haddingiz sig'di? Shoxdor ona bug'u avlodiga qo'l ko'tarishga kim jur'at etdi?

Boyning merosxo'rlari ularga javoban:

– Biz o'z yerimizdag'i bug'uni o'ldirdik. Bizning sultanatimiz ostidagi yerlarda nimayiki qimirlagan, uchgan tirik jonzot bo'lsa, pashshadan tortib tuyagacha – hammasi bizniki. O'zimizga qarashli jamiyi narsalarni nima qilish-qilmaslikni o'zimiz yaxshi bilamiz. Yo'qolinglar! – deyishdi.

Xizmatkorlar qariyalarni qamchi bilan savalab, otga teskari mindirishdi-da, sazoyi qilib haydashdi.

Hamma balo shundan boshlandi. Shoxdor ona bug'u avlodlarining boshiga katta baxtsizlik tushdi. Deyarli har bir kishi o'rmonlarda oq bug'ularni ovlashga tushib ketdi. Bug'uboy avlodidan bo'lgan har bir kishi o'z ajdodlari qabriga bug'ushox o'rnatishni burch deb bilar edi. Bu ish endi marhumlar xotirasiga bo'lgan muqaddas vazifa, alohida hurmatga aylandi. Kimki bug'u shoxlarini topolmas ekan, endi uni odam

o'rnila sanamay qo'yishdi. Bug'u shoxlari bilan sado qilish, ularni oldindan g'amlab qo'yish odat tusiga kirib qoldi. Shoxdor ona bug'u avlodlari orasida shunday kishilar paydo bo'ldiki, ular bug'u shoxlari dan o'lja yig'ishni va pullashni hunar qilib oldilar. («E bo'tam, pul hukmron bo'lgan joyda ezgu so'zga o'rin yo'q, go'zallikka o'rin yo'q».)

Issiqko'l o'rmonlarida bug'ularga qirg'in keldi. Ularga shafqatsiz bo'lishdi. Bug'ular qadam yetmagan joylarga qochdi, lekin u yerda ham omon qo'yishmadi. Ovchilar tozilarni qo'yib pistirma tomon haydashar, o'zlari esa pistirmalarda berkinib yotib, yaqinlashgan bug'ularni bexato otib olishardi. Bug'ularni to'da-to'dasi bilan qirishdi, shox butoqlari eng ko'p bo'lgan bug'uni kim otarga garovga bog'lashardi.

Bug'ular g'oyib bo'ldi. Tog'larni tark etdi. Na tunda, na tongda bug'u ovozi eshitilardi. Na o'rmonda, na yaylovda uning qanday irg'ishlab, qanday sapchishlarini, shoxlarini yelkasi ustiga tashlab, parvozdagi qushday jarliklardan qanday sakrab o'tishlarini endi hech kim ko'rmasdi. Butun umri bo'yi bug'u nima ekanligini ko'rмаган yangi insonlar tug'ildi. Faqat u haqidagi ertaklarni eshitib, qabrlar ustidagi shoxlarni ko'rishdi, xolos.

Shoxdor ona bug'uga nima bo'ldi?

U odamlardan ranjidi, juda qattiq ranjidi. Aytishlaricha, son-sanoqsiz o'qlar va tozilar dastidan bug'ularga kun qolmagan, ularning eng so'nggi avlodni barmoq bilan sanarli darajada oz qolgan chog'da Shoxdor ona bug'u eng baland cho'qqiga ko'tarilib, Issiqko'l bilan vidolashibdi va so'nggi bolalarini ulkan dovon ortiga, boshqa yurtlarga, boshqa tog'lar ga boshlab ketibdi.

Mana, olamda qanday ishlar bo'ladi. Mana, ertak ham tugadi. Xoh ishon, xoh ishonma.

Shoxdor ona bug'u esa ketishi oldidan bundan buyon bu yerkarda aslo qadam bosmayman, debdi...

## **BESHINCHI BOB**

Yana tog'lar qo'yniga kuz kirib keldi. Yana shovqin-suronli yozdan so'ng hamma narsa kuzgi sokinlikka moslasha boshladidi. Mol kamaydigan qo'ralar atrofidagi changlar bosildi, gulxanlar o'chdi. Mollar qishlovga ko'chdi. Odamlar jo'nab ketishdi. Tog'lar huvillab qoldi.

Burgutlar bazo'r qur-qurlab, yolg'iz ucha boshladidi. Yoz bo'yisi o'z o'rnidan shovullab oqqan daryo sayozlanib, ovozi pastlashib qoldi. O'tlar o'sishdan to'xtadi, ildizlardan jon ketdi. Barglarning shoxlarda osilib turishga ortiq madori qolmay, uzilib tusha boshladidi.

Eng baland cho'qqilarga esa kechalari kumush rang yupqa qor yog'ib chiqardi. Ertalab g'ira-shira tog' tizmalari qoraburun tulkinining yoliday oppoq tusga kirardi.

Sovuq tushib, daralarda izg'irin shamol esa boshladidi. Lekin hamon kunlar charog'on va quruq edi.

Daryo ortida, qorovulkxona ro'parasidagi o'rmon tezda kuz og'ushiga kirdi. Daryodan to yuqoriga, Qora qarag'ayzor chegarasigacha cho'zilib ketgan chakalakzorlarni dudsiz olov yanglig' kuzgi xazonrezgi bosgandi. Eng chidamli daraxtlar – to'q sariq rangli tog' teragi va qayin o'rmonlari, ayniqsa, ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Ular ulkan o'rmonning qor bosgan baland cho'qqilarigacha – qayrag'och va archalalar qorayib turgan yergacha cho'zilib ketgan edi.

Qarag'ayzor qo'yni hamma vaqt top-toza va qasrlardagidek salobatli. Qayoqqa qaramang, faqat qattiq daraxtlarning jigarrang tanasi, smolali quruq hid, butun o'rmon poyiga to'kilgan qoramtiligna yaproqlar. Keksa qarag'aylarning uchida g'ir-g'ir shamol esadi.

Lekin bugun erta tongdanoq tog'lar boshida chag'illab, bezovtalangan zag'chalar aylanib qoldi. Jon-jahdi bilan chag'illagan zag'chalarining kattakon galasi qarag'ayzor o'rmon tepasida betinim aylanaverdi. Ular bolta ovozini eshitgan zahotiyoy bezovtalangan bo'lsa, so'ng xuddi birov ozor bergandek bir-birlariga gal bermay chag'illab, qirqilgan qarag'aylarni tog'dan olib tushayotgan ikki kishining izidan ta'qib etardi.

Yog'ochlarni otlarga bog'lab sudratib kelishardi. O'razqul otning jilovini tutib oldinda borardi. Uturtinib, plashining bari butalarga ilinib, qo'shga qo'shilgan ho'kizday hansirardi. Uning ortidan, yog'och orqasidan Mo'min bobo yelib kelardi. Bunday balandlikda unga ham osonmasdi, cholning nafasi qisilib qolgandi. Uning qo'lida qarag'ay pishang bo'lib, bu bilan u yo'l-yo'lakay yog'ochlarni o'nglab borardi. Yog'ochlar goh to'nkalarga, goh toshlarga hadeb qadalib qolaverar, qiyalikka kelganda esa nishabga ko'ndalang burilar va pastga yumalab ketguday bolardi. Unda falokatdan qochib qutulib bo'psan – naq majaqlab o'ldiradi.

Pishang bilan yog'ochlarni to'g'rilib borayotgan kishiga, ayniqsa, xavfli, har balo yuz berishi mumkin. Qo'rquvdan bir necha bor yuganni tashlab qochgan O'razqul har safar chol o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, yog'ochni qiyalikda tutib, uning ot yoniga qaytishini va yugandan tutishini kutayotganini ko'rib uyalib ketardi. Lekin o'z aybingni yashirmoq uchun uni birovga to'nkamoq kerak, deb bekorga aytishmagan-da.

– Sen nima, meni narigi dunyoga jo'natmoqchimisan? – O'razqul qaynotasiga qichqirdi.

Atrofda O'razqulning ovozini eshitadigan va unga dakki beradigan hech kim yo'q edi.

Keksalarga shunday muomala qilishni kim ko'rgan? Qaynotasi, buni men ataylab qilibmani, axir o'zim ham yog'och tagida qolib ketishim mumkin-ku, xuddi u buni qasddan qilayotgandek, unga buncha qichqirishning nima keragi bor, deb qo'rqa-pissa pichirladi.

Bu hol O'razqulning yana battar jahlini chiqardi.

– Eh, seni qara-ya! – g'azablandi u. – Seni bosib qolsa, axir sen yoshingni yashagansan. Senga nima? Men mayib bo'ssam, qizing kimga qoladi, uni kim oladi? Shaytonning qamchisiday bu bepusht kimga kerak...

– Tushunib bo'lmaydigan odamsan, o'g'lim. Senda odamlarga hurmat degan narsa yo'q, – dedi bunga javoban Mo'min.

O'razqul hatto to'xtab, cholga razm soldi:

– Bunday chollar allaqachon o'choq oldida yonboshlab, o'zini olovga toblab yotibdi. Senga esa maosh oqib kelib turibdi. Qayoqdan kelyapti bu maosh? Mening sharofatim bilan kelyapti. Senga yana qanaqa hurmat kerak?

– Kel, qo'y endi, aytdim-qo'ydim-da, – muloyim-lashdi Mo'min.

Shunday qilib, ular yurishda davom etdi. Yana bir dovon oshib, qiyalikda tin olgani to'xtashdi. Ot butunlay terga tushib, ko'pikka qoplandi.

Son-sanoqsiz zag'chalar esa hamon tinchimas, charx urib aylangani-aylangan. Go'yo butun kun bo'yi chag'illashga qasd qilganday zo'r berib chag'illardি.

– Qishning erta tushishini sezyapti, – dedi Mo'min ohista gapni boshqa yoqqa burib va bu bilan O'razqulni jahldan tushirmoqchi bo'lib. – Uchib ketishning payida bo'lyapti. Xalaqit berganni yoqtirmaydi, – deb qo'shib qo'ydi, xuddi aqlsiz qushlar uchun uzr so'ragandek.

– Kim ularga xalaqit beryapti? – keskin burilib qaradi O'razqul. Birdan qizarib ketdi. – Allanimalar deb aljiysan, chol, – dedi sekin do'q urgan ohangda.

«Eh, – xayolga keltirdi u, – nimaga ishora qilyapti! Bu nimasi, uning zag'chalari dastidan qarag'ayga tegmaslik, bir shoxini ham sindirmaslik kerak ekan-da? Yo'q, bekor aytibsan? Hozircha bu yerga men xo'jayinman». U g'azab bilan uymalashayotgan zag'chalar galasiga qaradi:

– Eh, pulemyot bo'lgandami! – dedi va burilib uyatsiz so'z bilan so'kindi.

Mo'min jim qoldi. U kuyovining so'kishini ko'p eshitgandi.

«Yana ayniyapti, – ich-ichidan xo'rsindi chol. – Ich-di – hayvonga aylanadi. Nahorda bosh og'rigiga tortsa ham – bir so'z qotma. Odamlar nega bunday bo'lib qolishar ekan-a? – o'yga toldi Mo'min. – Sen unga yaxshilik qilasan, u senga yomonlik qaytaradi. Uyalmaydi ham, uyalishni xayoliga keltirmaydi ham. Xuddi shunday bo'lishi lozimdek. Hamisha o'zinikini to'g'ri deb biladi. Faqat unga yaxshi bo'lsa bo'lgani. Hamma uning atrofida girdikapalak bo'lishi kerak. Agar istamasang majbur qiladi. Yaxshiyamki, mana bunday tog'da, o'rmonlar orasida o'tiradi, uning qo'lli ostida bitta, ikkita odami bor. Kattaroq amalgalisa bormi? Xudo ko'rsatmasin... Bundaylarni joyidan siljitib ham bo'lmaydi. Hamisha o'z ulushini changallab qoladi. Sen bunaqalardan hech joyga qochib qutulolmaysan ham. Hamma joyda u seni kutib turadi, izlab topadi. O'zining dorilamon yashashi uchun sening joningni sug'urib oladi. Hamisha haq bo'lib chiqadi. Ha, bundaylarni siljitib bo'psan...»

– Xo'sh, yetar qaqqayib turish, – O'razqul cholning xayollarini tarqatib yubordi. – Ketdik! – buyruq qildi u. Ular yo'lda davom etishdi.

Bugun ertalabdanoq O'razqulning kayfiyati joyida emassi. Ertalab, asbob-uskunalari bilan nariqi qirg'oqqa, o'rmon tarafga o'tish kerak bo'lgan chog'da, Mo'min nabirasini maktabga olib borishga shoshardi. Bugun aqlidan ozib bo'ldi! Har kun ertalab otni egarlaydi, bolani maktabga eltib qo'yadi, keyin uni yana olib kelgani boradi. Bu tashlandiq daydi bilan ovora. Qarang-a, maktabga kechikish mumkin emasmish. Bu yerdagi ish shundayki, Xudo biladi oxiri nima bo'larkin, bundan chiqdi – bu ishni keyinga qoldirib tursa bo'larkan-da? Shunday emasmi? «Men, deydi, bir zumda qaytib kelaman, bola maktabga kechiksa muallimaning oldida uyalaman». Uyaladigan odamingni tonibsan! Ahmoqsan-da! Bu muallimang o'zi kim bo'libdi? Besh yildan beri ustidan bitta palto tushmaydi. Faqat daftar bilan, sumka bilan ko'rasan... Doimo yo'lda qo'l ko'tarib mashina kutgani-kutgan – hadeb rayonga tushadi, hamisha unga nimadir yetishmaydi, goh maktabga ko'mir deydi, goh oyna, goh bo'r, hatto lattagacha so'raydi. He, nomusli muallima bunday maktabga kelarmidi? Qanaqa ot topishibdi-ya – «mitti maktab». U chindan ham mitti-da. Undan nima naf keldi. Haqiqiy o'qituvchilar shaharda. Maktablari oynadan. O'qituvchilar galstuk taqib olgan. Lekin shaharda shunday-da... Boshliqlar u yerda hashamatli mashinalarda ko'chalardan qanday o'tishadi. Mashinalarni aytmaysanmi?! Qop-qora, yaltiroq, bu mashinalarni «lip» etib o'tib ketguncha to'xtab tomosha qilging keladi. Shahar odamlari esa xuddi bu mashinalarni ko'rmayotgandek parvo ham qilishmaydi. Vaqtlari yo'q – shoshilishadi, qayoqqadir chopishadi. Ana u yerda, shaharda, hayotni – hayot desa bo'ladi. Qani endi o'sha yoqqa yetishsang, biron joyga o'rnashib olsang ekan. U yerda odamlarni

amaliga qarab hurmat qilishni bilishadi. Lozimmi – demak, hurmat qilishing shart. Katta amalga – katta hurmat. Madaniyatli odamlar. Shuning uchun ham u yerda mehmonma-mehmon yurish yoki u-bu sovg'a qilish, yog'och tashish yoki shunga o'xshash allaqanday ishlarni qilishga to'g'ri kelmaydi. Bu yerdagiga o'xshab – ellik so'm, ko'pi bilan yuz so'm berib, yog'och olib, ustingdan shikoyat yozib yurmaydi: O'razqul poraxo'r, falon-piston... Nodonlik!

Ha, shaharda bo'lgandami... Eh, tog'iga ham, o'rmoniga ham, mana bu dardisar yog'ochlarga ham, pushtsiz xotiniga ham, manavi valakisalang, beaql cholga ham qo'l siltab yuborgan bo'lardim. Eh, suli-ga to'ygan otdek jo'sh urib ketardim-da! O'zimni hurmat qilishga majbur etardim. «O'razqul Balajanovich, kabinetningizga kirishga ruxsat eting». U yerda shahlikka uylanib olardim. Nega mumkin emas ekan? Aytaylik, biron ta qo'lida mikrofoni bilan o'ynab ashula aytadigan go'zal qo'shiqchiga: aytishadiki, ular uchun eng muhimi odamning amaldor bo'lismish. Mana shunaqasini qo'ltig'idan olib galstuk taqib yursang. Kinoga borsang. U bo'lsa tuflisini tiqillatib, atir taratib yursa. O'tgan-ketgan burnini cho'zib qolaveradi. Qarabsan-ki, bolalar tug'iladi... O'g'limni yuristlikka o'qitardim, qizim esa royal chalsin. Shaharlik bolalar darrov ko'zga tashlanadi – aqli bo'lismish. Uyda faqat ruscha gaplashishadi: ular kallalaridan eski qishloq so'zlarini chiqarib tashlashadi. U o'z farzandlarini shunday tarbiyalagan bo'lardi: «Papochka, mamochka, uni olib ber, buni olib ber...» o'z jigarbandingdan biron narsani ayab o'tirarmiding? U ko'plarni boplardi-da, kim ekanini ko'rsatib qo'yardi. Boshqalardan nimasi kam uning? Nima, yuqoridagilarning undan biron joyi ortiqmi? Ular ham o'ziga o'xshagan odamlar-da. Ularning omadi kelgan faqat. Uning esa omadi

kelmagan. Baxt kulib boqmagan. O'zida ham ayb bor. O'rmonchilar kursini bitirgach, shaharga ketishi kerak edi, texnikumga kirishi kerak edi yoki bo'lmasa institutga. Shoshdi – amalga uchdi-da. Kichkina bo'lsa ham, har holda amal-da. Mana endi tog'ma-tog' yur, eshakka o'xshab yog'och tashi... Buning ustiga mana bu qarg'alar ortiqcha. Nimaga buncha qag'illashadi, nimaga aylanib qolishdi? Eh, pulemyot bo'lgandami...

O'razqulning avzoyi buzilishiga arzigulik sabablar bor edi. Yozni yallo qilib o'tkazdi. Kuz yetib keldi, yoz bilan birga cho'ponlar va yilqiboqarlar davrasidagi mehmondorchilik davrlari ham o'tib ketdi. Xuddi qo'shiqda aytiganday: «Yaylovdagi chechaklar ochilib bo'ldi, etagingni yig'ishtirib qol...»

Kuz keldi. O'razqulga ko'rsatilgan hurmatlar uchun, ziyofatlar uchun, qarzlar uchun, va'dalar uchun hisoblashadigan payt keldi. Buning ustiga maqtanib katta ketganlari-chi: «Senga nima kerak? Xari bo'ladigan ikkita qarag'ay yog'ochmi, faqat shumi? Shuning nimasini gapirib o'tiribsani. Mashina olib kelasan-da, olib ketaverasan».

Og'zidan gullab, hadyalar olib, araqni ichaverdi, mana endi bo'g'ilib, terga botib, yer yuzidagi hamma narsaga la'nat o'qib, tog'ma-tog' yog'och sudrab yuribdi. Bu yog'ochlarning daxmaza bo'lganini aytmaysizmi? Umuman, butun hayotida ro'shnolik ko'rmadi. Bexosdan kallasiga lop etib bir fikr keldi: «Hammasinga tupuraman-da, boshim oqqan tomon-ga ketaman». Lekin u shu zahotiyoy hech qayoqqa ketolmasligini tushundi. Hech kimga hech qayerda keraklik joyi yo'q va ko'ngli tilayotgandek hayotni hech qayerdan izlab topolmaydi.

Bu yerdan ketib yoki va'dangdan tonib ko'r-chi! Uni o'z oshna-og'aynilari tutib berishadi. Odamlar yaramas bo'lib ketgan. O'tgan yili o'zining bug'u avlodni q-

rindoshiga hadya qilingan qo'zichoq uchun qarag'ay yog'och va'da qilgandi, kuzda esa qarag'ay uchun yuqoriga chiqqisi kelmadi. Bu aytmoqqa oson, qani u yoqqa bir chiqib boq, yog'ochlarni arralab, yumalatib ko'r, keyin bilasan qanaqa ekanligini. Yana buning ustiga qarag'aylar besh yil-o'n yillik bo'lsa qani, ularni eplab ko'r-chi! Oltin bersa ham bu ishga qo'l urging kelmaydi! Aksincha, o'sha kunlari Mo'min cholning tobi qochib, ko'rpa-to'shak qilib yotib oldi. Bir kishi uddasidan chiqolmaydi bunday ishni. Ha, biron kim-sa umrida yolg'iz o'zi tog'dan yog'och olib tushishning uddasidan chiqqan emas. Yiqitish-ku mumkin, lekin yiqitgan bilan qarag'ayni pastga olib tushib bo'lmaydi... Nima bo'lishini oldindan bilganda, Seydahmadni yoniga olib chiqqan bolardi. Lekin O'razqul tog'ga tirmashib chiqib yurishga erindi-da, birinchi duch kelgan qarag'ay bilan qarindoshidan qutulib qo'ya qolmoqchi bo'ldi. Lekin u uncha-munchasiga ko'nma-di: unga haqiqiy qarag'ay kerak emish, vassalom. «Qo'zichoqni olishni bilasan, gapingning uddasidan chiqishni bilmaysanmi?» O'razqul jahli chiqib, hovlidan uni haydab chiqardi: olmaysanmi – jo'nab qol. U yigit ham bo'sh kelmadi. San-Tosh o'rmonchilik zapovednigining qorovuli O'razqul Balajanov ustidan darhol shikoyat xati yozib, unga shunday to'g'ri va noto'g'ri gaplarni qo'shdiki, oqibat-natijada O'razqulni «sotsialistik o'rmon kushandası» sifatida otish lozim edi. Keyin rayonning va o'rmonchilik ministrligining turli xil tekshiruv komissiyalari O'razqulni uzoq vaqt sarson qilishdi. Zo'rg'a qutuldi. Mana senga qarindosh! Yana: «Biz hammamiz Shoxdor ona bug'u bolalarimishmiz. Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun!» emish. Hammasi bekor gap, qachonki bir tiyin uchun bir-birimizning yoqamizdan olib, turmaga tiqishga tayyor bo'sak, qanaqasiga bug'u avlodidan

bo'laylik, bug'u ilgari vaqtida bo'lgan, odamlar bug'uga ishonishgan. Naqadar befahm va sodda bo'lishgan-a o'sha zamonning odamlari, kulgili! Endi esa hamma madaniyatli, hamma savodli. Kimga keragi bor buni, bu ertakni yosh bolalarga aytса boshqa gap.

Shu voqeadan keyin O'razqul boshqa hech kimga, hech qanaqa tanishga, hech qanday qabiladoshga, hatto Shoxdor ona bug'uning ming tuqqani bo'lsa hamki, bironta novdani, bironta cho'pni bermaslikka ont ichdi.

Yana yoz keldi. Ko'm-ko'k tog'li yaylovlarda o'tovlar oqarib, yer-ko'kni podalarning shovqin-suroni tutib, ariqlarda va daryoda suv tortilib qoldi. Quyosh porlagan, sarxush qimiz hidi kelar, gul bo'yi ufurardi. Ochiq havoda o'tovlarning oldida, ko'm-ko'k maysalar ustida, oshna-og'aynilar davrasida o'tirib qimiz ichib, qo'zi go'shtiga to'yib kayf qilishga nima yetsin. Keyin esa boshni aylantirish uchun bir stakan araqni simirib, shunday kayfga kelasanki, o'zingni go'yo daraxtlarni ildizi bilan qo'porib tashlagudek yoki bo'lmasa anavi tog'ning boshini uzib olgudek his qilasan...

Bunday kunlarda O'razqul ichgan ontini unutardi.

Katta o'rmonning katta xo'jayini deb atashlari unga naqadar xush kelardi. Yana va'dalar berdi, yana hadyalar qabul qildi. Yana qadimiy qarag'aylar qaysi birlarining kuni bitib, kuz kelganda umri tugashini sezmasdi.

Kuz esa hosili o'rib olingan dalalardan sezdirmay kelib, tog' sari pinhona siljidi-da, butun atrofni qoplab oldi. U bosib o'tgan yo'lda maysalar sarg'aydi, o'rmonni xazonrezgi bosdi.

Mevalar pishdi. Qo'zilar to'qli bo'ldi. Ularni alohida otarlarga – to'qlilarni alohida, qo'ylarni alohida to'daga ayirishdi. Ayollar yig'ilgan sariyog'ni meshga joylab olishdi. Erkaklar vodiya kim birinchi bo'lib qaytishi

haqida gurung qilishardi. Ketish oldidan esa yozda O'razqul bilan gaplashganlar falon kuni, falon soatda va'da qilingan yog'ochga mashina olib o'rmonga kelishlari haqida uni ogohlantirib qo'ydilar.

Mana shu bugun kechqurun ikkita qarag'ay yog'och olib ketgani pritsepli mashina keladi. Qarag'ayning bittasi pastda tayyor turibdi, mashina keladigan joyga daryodan o'tkazib qo'yilgan. Ikkinchisini mana, pastga olib tushishyapti. Agar O'razqul hozir ushbu yog'och ustidan yeb-ichgalarini quşish imkonini topgandami, hozir chidashga majbur bo'layotgan bu azob-uqubatlardan qutulish uchun shu zahotiyoy qusib tashlagan bo'lardi.

Afsuski, o'zining tog'dagi la'nati bu taqdirini o'zgartirishga qodir emas: mashina tunda yog'och olib ketish uchun shu bugun kechqurun pritsepi bilan keladi.

Hamma ish o'ngidan kelsa yaxshiku-ya: yo'l sovxozi o'rtasidan, to'g'ri idoraning oldidan o'tadi, boshqa yo'l yo'q, sovxoza esa militsiya, gosinspeksiya kelib turadi. U yerda yana rayondan kelganlar ham bordir? Ularning ko'ziga yog'och ortgan mashina duch kelib qolsami: «Xo'sh, yog'ochni qayoqdan olib kelyapsiz va qayoqqa?» – deb surishtira boshlashadi.

Bu xayoldan O'razqulni sovuq ter bosib ketdi. Hamma-hamma narsaga – boshi ustida aylanayotgan zag'chalarga, baxtsiz Mo'min cholga, bundan uch kun burun shaharga kartoshka sotgani ketgan dangasa Seydahmadga g'azabi jo'sh urib ketdi. U tog'dan yog'och olib tushilishini bilardi-ku axir! Demak, sezdirmay jo'nab qolgan... Endi faqat bozordagi ishlarini bitirgandan keyingina qaytadi. Bo'lmasa O'razqul, chol bilan ikkalasini yog'och sudrab kelishga jo'natib, o'zi bu azobdan qutulgan bo'lardi.

Lekin Seydahmad uzoqda, zag'chalarga ham qo'l yetmaydi. Hammasingning alamini xotinidan olishi mumkin – lekin uyga yetish amri mahol. Birgina

Mo'min chol bor. Tog'dan nafasi bo'g'ilib, qahr-g'azabi ortib, har qadamda og'zidan oq it kirib, qora it chiqib kelayotgan O'razqul otga ham, uning orqasidan kelayotgan cholga ham rahm qilmay, changallar orasidan yo'l soldi. Bu ot harom o'lsa mayli, bu chol o'lsa ham mayli, yuragi yorilib o'zi o'lsa ham mayli. O'razqulning sha'ni va amaliga yarashmagan, uning ko'nglidagidek bo'limgan bu dunyoga o't tushsin.

O'razqul o'zini tutolmay, otni qiyalikdan tikka changallar orasiga haydab ketdi. Mayli, Mo'min chaqqon yog'ochlar atrofida girdikapalak bo'lib qolsin. Qani, u yog'ochni eplamay ko'rsin-chi! «Majaqlab tashlayman, ahmoq cholni, vassalom», ko'nglidan o'tkazdi O'razqul. Boshqa vaqtida u hech qachon yog'och bilan bunday xavfli nishablikka o'zini urishga yuragi betlamagan bolardi. Bu safar shayton yo'ldan ozdirdi. Mo'min ham uni to'xtatib qolishga ulgurmadi, faqat qichqirib qololdi, xolos: «Qayoqqa ketyapsan? Qayoqqa? To'xta!» – yog'och chirpirak bo'lib aylanib, butalarni yanchib pastga yumalab ketdi. Yog'och ho'l va og'ir edi. Mo'min yog'ochni ushlab qolish uchun pishang solmoqchi bo'ldi. Lekin zarb shunday kuchli ediki, pishang cholning qo'lidan otilib chiqib ketdi.

Hamma ish ko'z ochib yunguncha bo'lib o'tdi. Ot yiqildi va yoni bilan pastga surilib ketdi. Ot surilayotib O'razqulni ham urib yiqitdi. U titrab-qaqshab butalarga tirmashib, ilinib, yumalab ketdi. Shu payt qalin xazon ustidagi allaqanday shoxli jonivorlar hurkib qochib qoldi. Ular talvasaga tushib, jon-jahdi bilan sakray-sakray qayinazorlar ichida g'oyib bo'ldi.

– Bug'ular! Bug'ular! – qo'rquv va shodligidan o'zida yo'q xursand bo'lib qichqirdi Mo'min. Keyin go'yo o'z ko'zlariga ishonmagandek jim bo'lib qoldi.

Nogoh tog' qo'yniga sukunat cho'kdi. Zag'chalar birdan g'oyib bo'ldi. Yumalab ketayotgan yog'och

yoshgina baquvvat qayinni bosib, ezib qiyalikda ilinib qoldi. Ot egar-abzali og'ib, oyoqqa turdi.

Hamma yog'i yirtilib ketgan O'razqul emaklab bir tomonga chiqib oldi. Mo'min kuyoviga yordamlashgani tashlandi:

– O, muqaddas Shoxdor ona bug'u! Bizni hozir u qutqazdi! Ko'rding-ku. Bu Shoxdor ona bug'uning bolalari. Bizning onamiz qaytib kelibdi! Qara-ya!

O'razqul yuz bergan voqeaga hali ham ishonqiramay joyidan g'amgin holda xijolat chekib turdi-da, qoqina boshladi:

– Ko'p vaysama, chol. yetar endi, otning abzalini chiqar.

Mo'min itoatkorona shoshilinch ravishda otning abzalini ola boshladi.

– O, qudratingdan o'rgilay, Shoxdor ona bug'u! – u xursandligidan g'o'ldirashini qo'ymasdi. – Bug'ular bizning o'rmonimizga qaytibdi. Shoxdor onamiz bini unutmabdi! Bizning gunohimizdan o'tibdi...

– Hali ham g'o'ldirayapsanmi? – do'q qildi O'razqul. U endi qo'rquvni unutgan va yana eski g'azabi bo'g'ziga kelgandi. – Ertagingni aptyapsanmi? O'zing jinni bo'la turib, boshqalar ham ahmoqona ertagimga ishonaveradi, deb o'ylaysanmi!

– Men o'z ko'zim bilan ko'rdim. Bular bug'ular edi, – bo'sh kelmasdi Mo'min bobo. – Nahot sen ko'rma-gan bo'lsang, o'g'lim? Sen o'zing ko'rding-ku.

– Xo'sh, ko'rdim. Uchtasi chopqillab ketdi, shekilli.

– Rost, uchta. Menga ham shunday tuyildi.

– Nima qipti shunga? Bug'u bo'lsa bug'u-da. Mana bu yerda odam o'z jonidan judo bo'lishiga sal qoldi. Nimasiga quvonish kerak ekan. Bular agar bug'ular bo'lsa, demak, dovon ortidan kelgan. U yoqda – Qozog'istonida, tog'ning narigi tomonida, o'rmonlarda hali bug'ular bor, deyishadi. U yer ham zapovednik.

Zapovednikning bug'ulari bo'lsa ehtimol. Kelsa kelibdi-da. Bizning nima ishimiz bor. Qozog'istonning bizga daxli yo'q.

– Balki, bizda yashab qolar ular? – orzu qilib gapirdi Mo'min bobo. – Qani endi qolsa...

– Bas endi, – uning so'zini bo'ldi O'razqul. – Ketdik!..

Yog'ochni hali ancha pastga sudrab tushish, keyin esa yana otta daryodan sudrab olib o'tish kerak edi. Bu ham og'ir ish. Agar yog'och daryodan omon-eson olib o'tilsa, so'ngra yana mashinaga ortiladigan tog' yon bag'rigacha yetkazish darkor.

Eh, qancha mehnat.

O'razqul o'zini butunlay baxtsiz his qildi. Butun borliq unga nohaq yaratilganday tuyildi. Tog'lar bo'lsa, hech nima sezmaydi, hech nima istamaydi, hech nimadan zorlanmaydi, bir joyda turgani-turgan, o'rmonlar esa avval kuzga, undan keyin qisiga o'tadi, buning hech qanday mashaqqatli joyi yo'q. Zag'chalar ham o'z erkicha uchib yuradi. Istagancha chag'illaydi. Bug'ular, agar ular haqiqatan ham bug'ular bo'lsa, dovonning narigi yog'idan keladi-da, o'rmonda daydib yuraveradi, qanday yuradi, qanaqa yuradi, o'zining ishi. Shaharda odamlar asfalt ko'chalarda beparvo qadam tashlashadi, taksilarda yurishiadi, restoranlarda o'tirishadi, vaqtichog'lik qilishadi. Uning peshanasiga mana shu tog'larda yurish bitilgan, u bebaxt... Hatto uning mana shu hech nima ga yaramaydigan qaynotasi Mo'min chaqqon ham undan baxtliroq, chunki u ertakka ishonadi. Ovsar odam. Ovsarlar hamisha o'z hayotidan mamnun.

O'razqul o'z hayotini ko'rarga ko'zi yo'q. Hayoti o'zi istagancha emas. Bu hayot Mo'min chaqqonga o'xshaganlarga xos. Unga esa nima ham kerak? Umri mehnatda o'tyapti, bir kun dam olish yo'q. Umrida esa biron inson unga qaram bo'lgan emas,

u esa hammaga qaram bo'lib kelgan, hatto o'zining kampiriga ham – chol hatto unga bir so'z qaytarmaydi. Shunday sho'rpeshana erkak bilan ham baxtiyor bo'laveradi. O'rmonda bug'ularni ko'rib, xuddi yuz yil dunyoda izlagan aka-ukalarini uchratgandek, ko'z yoshi qilib yuribdi-ya.

Eh nimasini gapirasan...

Ular axiri so'nggi manzilga chiqishdi, u yerdan uzun tik yo'l daryoga tushib boradi. Tin olgani to'xtashdi.

Daryoning narigi betida, qorovulkxona yonidan O'razqulning uyi oldida qandaydir bug' ko'tarilardi. Bug'ga qarab samovar qaynab turganini bilsa bo'lardi. Demak, uni xotini kutayotibdi. Lekin bundan O'razqul yengil tortmadi. U og'zi bilan entikib nafas olar, havo yetishmasdi. Ko'kragi, boshi og'rir, yuragi gupillab urardi. Peshanasidan ter quyilardi. Oldinda esa hali uzoq va tik nishab turibdi. Uyda esa pushtsiz xotin kutib o'tiribdi, samovar qo'yib o'tirganlariga kuyaymi, ko'nglimni topmoqchi... Birdan chonib borib, bu qorindor samovarni bir tenib, uchirib yuborgisi kelib ketdi. Keyin esa xotiniga tashlanib, o'lguday ursa. U xayolan xotinining dod-faryodini eshitib, uning baxtsiz qismatini tasavvur qilib, huzur qildi.

«Yaxshi bo'pti, – o'ylardi u. – Ajab bo'pti. Men qiy-nalganimda nega u rohat qilib o'tirishi kerak?»

Uning xayollarini Mo'min bo'ldi.

– Men esimdan chiqarayozibman, o'g'lim, – shosha-pisha xatosini tuzatmoqqa urinib O'razqulning oldiga keldi. – Men bolani olgani maktabga borishim kerak, axir. Darslari tugadi-ku.

– Xo'sh, nima bo'pti? – atayin vazmin ohangda so'z qotdi O'razqul. – Nima qil deysan?

– Jahling chiqmasin, bolam. Yog'ochni shu yerda qoldiramiz. O'zimiz pastga tushamiz. Sen uyingga borib ovqatlanasan. Men shu paytda otda chonib

maktabga borib kelaman. Bolani olib qaytaman. Keyin kelib yog'ochni olib ketamiz.

– Shuni o'ylab topguncha ancha bosh qotirdingmi chol? – zaharxandalik bilan gap qotdi O'razqul.

– Bola axir yig'laydi-da.

– Nima bo'pti shunga? – qizishdi O'razqul. Nihoyat cholni xumordan chiqquncha so'kishga bahona topildi. Kun bo'yi O'razqul janjalga bahona axtardi, mana endi Mo'minning o'zi unga bahona tonib berdi. – U yig'lar ekan deb biz ishimizni tashlab ketaylikmi? Ertalab, maktabga olib boraman, deb boshni qotirding. Olib boarding, yaxshi. Endi maktabdan olib kelaman, deysan. Men nima senga? Yo biz maynabozchilik o'ynayapmizmi bu yerda?

– Keragi yo'q, o'g'lim, – zorlandi Mo'min. – Shunday kunda. Menga-ku mayli-ya, bola kutadi-da, shunday kunda yig'laydi-da...

– Nima, shunday kunda? Bu qanaqa xosiyatli kun o'zi?

– Bug'ular qaytdi. Nima keragi bor edi shunday kunda...

O'razqul dovdirab, hatto hayratidan jim bo'lib qoldi. U tikanli butalar orasida yumalab, qo'rquvdan yuragi yorilayozganda sakragan soyalari lip etib o'tganday ko'zga tashlangan bu bug'ularni allaqa-chon unutgan edi. Yog'och bilan pastga yumalagan-da birgina daqiqada taqdiri hal bo'lib ketardi. Uning bug'ularga qarashga ham, cholning vaysashiga qu-loq solishga ham holi kelmay qolgandi.

– Sen meni nima deb o'ylayapsan? – dedi u sekin va jahl bilan cholning yuziga pishqirib. – Afsus, so-qoling yo'q, bo'lmasa boshqalarni o'zingdan ko'ra ah-moqroq deb o'ylamasliging uchun yulib tashlardim. Sening bug'ularingni boshimga uramanmi? Nimasiga yana men ularni o'ylashim kerak ekan. Sen meni

gap bilan chalg'itma. Qani tur, yog'ochni ushla, to daryodan olib o'tmagunimizcha, biron nima haqida g'ing dema. U yoqda kim mакtabga boryapti, kim yig'layapti – mening ishim yo'q. Bas, endi ketdik...

Mo'min har safargidek bo'ysundi. U toki yog'och joyiga bormaguncha O'razqulning qo'lidan qutulib ketolmasligini bilib, suкут saqlagancha jon-jah-di bilan ishlardi. Qalbi tug'yon urib yotsa ham, u boshqa biron so'z qotmadi. Nabirasi uni maktab oldida kutib turibdi; hamma bolalar uy-uyiga tarqab ketishgan, faqat yolg'iz uning yetim nabirasigina yo'l poylab, bobosini kutmoqda.

Chol barcha sinfning bolalari maktabdan qanday yer tepinib otilib chiqishini, qanday uy-uyiga chopqillab ketishini ko'z oldiga keltirdi. Och qolishgan. Ular yo'ldayoq o'zlariga tayyorlangan ovqatning hidini sezishadi va quvonchga to'lib, hayajonlanib uylarning derazasi ostidan chonib o'tishadi. Onalari allaqachon kutib o'tirishibdi. Har birining chehrasida odamni quvontiradigan tabassum. Ona o'ziga og'irmi, yengilmi, bolasi uchun tabassum qilishga har qachon o'zida kuch topa oladi. Hatto ona: «Qo'llaring-chi? Qo'llaringni kim yuvadi?» – deb o'shqirib turganda ham baribir uning ko'zlarida o'sha tabassum yashiringan bo'ladi.

Mo'minning nabirasi o'qishga tutingan kundan beri qo'li siyohdan arimay qoldi. Bu bobosiga hatto yoqib tushardi: demak, yigitcha ish bilan mashg'ul. Ana, hozir uning nabirasi siyohli qo'llarida shu yil yozda sotib olingan portfelini ushlab yo'lda turibdi. U, ehtimol, kutaverib charchagan va endi ko'zini uzmay, otda yo'rtib kelayotgan bobom do'nglikda ko'rinish qolmasmikan, deb bezovtalanib turgandir. Axir u hamisha o'z vaqtida kelardi-ku. Bola har safar maktabdan chiqqanida bobosi sal narida uni toqatsizlik bilan

kutib turardi. Hamma uy-uyiga tarqab ketar, u esa bobosi tomonga chopardi. «Ana bobom turibdi, choppik!» derdi bola portfeliga. Chonib borayotib hayajonga to'lgancha to'xtab qolardi. Agar yon-verida hech kim bo'lmasa, u bobosiga tashlanib, eski ust-boshlarining va yozgi quruq pichanning o'zi ko'nikib ketgan hididan nafas olib, yuzlarini uning qorniga ishqab quchoqlab olardi. O'sha kunlari bobosi narigi qirg'oqdan pichan tashirdi, qishda qalin qorda u yerga yetib bo'ladimi. Yaxshisi kuzda tashib keltirgan ma'qul-da. Keyin ancha paytgacha Mo'mindan to'zg'igan pichanning ach-qimtil hidi kelib yurdi.

Bobo bolani o'zining orqasiga, otning sag'risiga mingashtirib olar, shu bilan u yoqdan bu yoqdan gaplashib yetib kelib qolganlarini sezishmasdi. Tog' tepaligining ikki cho'qqisi orasidagi pastqamlikdan oshib, to'g'ri San-Toshga kelishardi.

Bolaning maktabga qattiq berilgani buvisining achchig'ini keltirardi. Bola ko'zini ochgan zahoti, apil-tapil kiyinib, portfeliga kitob-daftarlarni solar-di. Kechasi ham portfelini yoniga qo'yib yotishidan buvisining jahli chiqardi:

– Bu yaramas portfelga buncha yopishib qolding? Shu senga xotin bo'lib qolgandami, qaliniga bizni sotib yer ekansan-da...

Buvisining gapi bolaning u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketar, qolaversa, gap nima haqda borayotganini ham uncha tushunib yetmasdi. Uning uchun eng muhimi maktabga kechikmaslik edi. U hovliga otilib chiqib bobosini shoshirardi. Faqat mакtab ko'zga tashlangandagina tinchlanardi.

Bir safar ular baribir kechikib qolishdi. O'tgan haftada tong xiyol yorishganda Mo'min otda narigi qirg'oqqa yo'l oldi. Ertalab barvaqt pichanga bir qat-nov qilishga qaror qilgandi. Hammasi joyida bo'layot-

gandi, lekin yo'lda pichan sochilib ketdi. Yana hamma pichanni qayta bog'lab, yana otga ortish kerak edi. Shoshib bog'langan pichan qirg'oqning o'zida yana sochilib ketdi.

Nabirasi esa narigi tomonda kutib turardi. U g'adir-budur toshning ustiga chiqib, portfelini silkir va qichqirib allakimni chaqirardi. Chol shoshar – arqon chalkashib ketgan, yechib bo'lmas, ko'r tugun tushib qoigandi. Bola esa hamon qichqirardi, shunda chol uning yig'layotganini angladi. Pichanni ham, arqonni ham tashladi-da, tezroq nabirasingning oldiga yetib borish uchun otga minib, uni kechuvdan haydab ketdi. Daryodan o'tguncha ham ancha vaqt o'tdi: kechuvdan o'tish osonmas, suv ko'p, oqim tez. Kuzda hali uncha qo'rqinchli emas, yozda otni chappa ag'daradi. Mo'min nihoyat daryodan o'tib nabirasining oldiga borganida u ho'ngrab yig'lardi. Bobosiga qaramas, faqat yig'lar va so'ylanardi: «Kechikdim, mактабга kechikdim». Chol otdan engashib, bolani egarga ko'tarib oldi-da, yo'rtib ketdi. Bu maktab qurg'ur yaqin orada bo'lgandami, bolaning o'zi g'iz etib borib kelaverardi. Shuning uchun butun yo'l bo'yи to'xtamay yig'ladi, chol uni hech nima bilan ovutolmadi. Maktabga ham ho'ngrab yig'lagan holida olib keldi. Dars boshlanib ketgan edi. To'g'ri sinfga olib kirdi.

Mo'min muallima oldida qayta-qayta uzr so'rab, buning boshqa takrorlanmasligini aytib so'z berdi. Lekin hammasidan ham chol kechikkani uchun nabirasining kuyib-pishganini va zorlanib yig'laganini ko'rib iztirob chekdi. «Ilohim maktabni hamisha shunday sevsin-da», – xayoliga keltirdi u. Har holda bolapaqir nimaga bunchalik yig'ladi. Demak, yuragida bir armon bor-da...

Hozir ham yog'ochning atrofida charx urib, goh u tomoniga, goh bu tomoniga chonib o'tar, tog'dan

tezroq pastlikka sirg‘alib tushsin, hech qayerga ilinib qolmasin deb, yog‘ochning ostiga pishang solib, itarib borarkan, Mo‘minning xayolidan nabirasi ketmasdi – nima bo‘ldi ekan-a?

O‘razqul esa shoshmasdi. U otni yetaklab borrhadi. Bu yerda ko‘p shoshib bo‘lmaydi – uzun, tik nishablikdan qiyalab yurishga to‘g‘ri keladi. Lekin uning gapini inobatga olib, yog‘ochni shu yerda qoldirib, keyin kelib olib ketish mumkin emasmi? Eh, kuch-quvvati bo‘lgandami, yog‘ochni shartta yelkasiga qo‘yib, daryodan o‘tgan va mashinaga ortiladigan joyga eltib tashlagan bo‘lardi. Mana-ye, olinglar yog‘ochlaringni va yo‘qolinglar. Mo‘minning o‘zi bo‘lsa nabirasining oldiga otilgan bo‘lardi.

Qayoqda deysiz, bular xom xayol. Hali toshlar va shag‘alliklardan yurib qirg‘oqqa yetish, so‘ng kechuvdan yog‘ochni ot bilan sudrab narigi tomonga olib o‘tish kerak. Otning sillasi quridi – u tog‘da qancha past-balandliklarga chiqib tushmadi... Ishqilib, oxiri baxayr bo‘lsin, agar yog‘och daryo o‘rtasida toshlarga ilinib yoki ot qoqilib yiqilib tushsa ish chatoq!

Ular suvdan kechib kelishayotganda Mo‘min bobo duo qilib turdi: «O‘zing qo‘lla, Shoxdor ona bug‘u, ilohim yog‘och ilinmasin, ilohim ot yiqilmasin». Etiklarini yelkasiga tashlab, ishtonining pochasini tizzasidan yuqori shimarib olgan yalangoyoq Mo‘min bobo qo‘lda pishang bilan suvda suzib borayotgan yog‘och ortidan arang yetib ulgurardi. Yog‘ochni oqimga qiya qilib sudrashardi. Daryo suvi qancha toza va tiniq bo‘lsa, shuncha sovuq ham edi. Kuzning suvi-da.

Chol bunga bardosh berardi: mayli, oyoq uzilib tushmaydi. Ishqilib, yog‘och tezroq olib o‘tilsa bo‘lgani. Baribir yog‘och ilinib qoldi, aksiga olgандай, toshli yerga kelganda taqqa to‘xtadi. Bunday hollarda otga jinday dam berib, keyin yaxshilab bir «chu» deyilsa – kuchli siltov bilan yog‘ochni toshlar

panjasidan tortib olsa bo'ladi. Lekin otga minib olgan O'razqul toliqib kuchdan ketgan jonivorni qamchi bilan ayamay savaladi. Ot orqa oyoqlari bilan cho'qqayib, sirg'alib, qoqinib ketar, lekin yog'och joyidan qo'zg'almasdi. Cholning oyoqlari muzlab qoldi, ko'zi tina boshladi. Boshi aylandi. Jarlik, jarlik ustidagi o'rmon, osmondagи bulutlar pastga tusha boshladi, daryoga sho'ng'ib, sho'x oqimda suzib, yana joyiga qaytdi. Mo'minning mazasi qocha boshladi. La'natи yog'och! U qurib yotganda edi, boshqa gap edi, suvda o'zi suzib ketardi. Buni esa hozirgina qirqishdi-yu, darrov daryoga sudrab tushishdi. Kim axir shunday qiladi! Oqibati shu bo'ladi-da. O'ylanmay qilingan ishning oxiri voy. Qayrag'ochni qurisin deb tashlab kelishga O'razqulning ra'yи yo'q. Inspeksiyaning ko'zi tushib qolsa, taqiqlangan o'rmondan qimmatli daraxtlarni o'g'irlikcha qirqqan, deb akt tuzadi. Shuning uchun ham qirqilgan yog'ochni shu zahotiyoq gumdon qilishi kerak.

O'razqul o'qchasi bilan otni niqtar, qamchi bilan boshiga urar, so'kinar, xuddi hammasi uchun go'yo u, Mo'min aybdordek, cholga baqirardi, yog'och esa joyidan jilmasdi, u battar toshga ornashib borardi. Cholning sabr-toqati tugadi. U butun umrida birinchi marta g'azab bilan ovozini balandlatdi.

– Tush otdan! – u O'razqulning yoniga jiddiy borib, uni egardan tortdi. – Otning tortolmayotganligini ko'rmayapsanmi? Hoziroq tush!

Hayron qolgan O'razqul jimgina bo'ysundi. Egardan etigi bilan to'g'ri suvgaga sakradi. Xuddi shu daqiqadan boshlab, u garang va qulog'i bitib qolgандай, o'zini yo'qotgan edi.

– Qani kel. Ko'tardik! Qani ol! – Mo'minning buyrug'i bilan ular yog'ochni joyidan biroz ko'tarib, uni toshlarning siquvidan bo'shatib, pishangning ustiga mindirdilar.

Ot naqadar aqlii jonivor! U ayni shu paytda tosh-larga qoqinib, toyinib pastromkani torday tarang tortib oldinga silkindi. Lekin yog'och o'rnidan bir qo'zg'aldi-yu, toyib yana botib qoldi. Ot yana bir sil-kindi va o'zini tutib qololmay suvga yiqlib tushib, tipirchilagancha egar-jabdug'iga o'ralashib qoldi.

– Otni! Otni ko'tar! – Mo'min O'razqulni turtdi. Ular birgalikda otni bazo'r oyoqqa turg'azib qo'yish-di. Ot sovuqdan titrar, arang suvda turardi.

– Yech otni!

– Nimaga?

– Yech deyapman senga. Boshqatdan bog'laymiz. Pastromkani ol.

Yana O'razqul jimgina bo'ysuna qoldi. Otni yechib bo'lgach, Mo'min uning yukanini qo'lga oldi.

– Endi ketdik, – dedi u. – Keyin kelamiz. Ot damini olsin.

Qani, to'xta-chi! – O'razqul cholning qo'lidan yukanini tortib oldi. U xuddi uyqudan ko'z ochgandek bo'ldi. Birdan yana asl holiga qaytdi. – Sen kimning boshini qotiryapsan. Hech qayoqqa bormaysan. Yog'ochni hozir chiqaramiz. Kechqurun yog'ochga odamlar keli-shadi. Gap-so'zsiz otni egarla, eshityapsanmi?

Mo'min jimgina burildi-da, sovuq qotgan oyog'i bilan oqsagancha sayozdan qirg'oq tomon yurdi.

– Qayoqqa ketyapsan, chol? qayoqqa deyapman?

– Qayoqqa! Qayoqqa! Maktabga. Nabiram u yerda rosa tushdan beri kutyapti.

– Qani, qayt-chi! Qayt!

Chol quloq solmadi. O'razqul otni dalada qoldirib, salkam qirg'oqda, toshloq ustida Mo'minga yetib oldi, yelkasidan ushlab o'ziga tortdi.

Ular yuzma-yuz turib qolishdi.

O'razqul epchillik bilan cholning bo'yniga osilgan eski kirza etikni yulib oldi-da, qaynotasining boshiga, yuz-ko'ziga ikki marta qulochkashlab urdi.

– Qani yur! – xirilladi O'razqul etiklarni bir chek-kaga uloqtirarkan.

Chol etik oldiga borib, uni ho'l qumdan ko'tarib, qaddini rostlaganda lablaridan qon tirqirab oqardi.

– Yaramas! – dedi Mo'min qonni tupurarkan, etikni yana yelkasiga ilib.

Bu hech kimning so'zini qaytarmagan Mo'min chaqqonning so'zi edi. Bu sovuqdan ko'kargan, eski etiklarini yelkasiga ilgan, lablari qonab ketgan bechora cholning so'zi edi.

– Yur!

O'razqul uni sudradi. Lekin Mo'min kuch bilan uning qo'lidan siltanib chiqdi-da, orqasiga qaramay jimgina nariga ketdi.

– Xap sanimi, qari ahmoq! Endi kuningni ko'rsataman! – O'razqul uning orqasidan mushtini do'laytirib dag'dag'a qildi.

Chol qayrilib qaramadi. U «yotoq tuya»ning oldidagi supachaga borib o'tirdi, etigini kiydi va uyiga tez yurib ketdi. Hech yerda to'xtamay, to'g'ri otxonga kirdi. U yerdan O'razqulning daxlsiz, mehmonga miniladigan, poygada chopadigan, birov egarlashga botinolmaydigan bo'z oti – Olaboshni yetaklab chiqdi. Xuddi yong'in chiqqandek Mo'min uni hovlidan egarsiz, uzangisiz minib chiqib ketdi. U derazalar yonidan, hali ham shaqillab qaynab yotgan samovar yonidan ot choptirib o'tganida tashqariga otilib chiqqanlar – Mo'minning xotini, qizi Bekey va yosh Guljamol cholga bir gap bo'lganini darrov fahmashdi. U hech qachon Olaboshga minmas va hech qachon hovlidan bunchalik shoshilib chiqmagandi. Bu Mo'min chaqqonning isyoni ekanligini ular hali bilishmasdi. Keksaygan chog'idagi bu isyon uni nimalarga giriftor qilishini ham bilishmasdi.

Qirg'oq tomondan esa otni yetaklab O'razqul uyga qaytardi. Ot oldingi oyog'ini oqsab bosardi.

Ayollar jim turib, uning hovliga yaqinlashib kelishi-ga ko'z tikib turishardi. O'razqulning ko'nglidan ni-malar kechayotganini, u o'sha kuni ularga qanday g'am-alamlar keltirayotganini hali ayollar xayoliga ham keltirishmasdi...

U ho'l, shaloplagan etikda, ho'l ishtonda vazmin va og'ir qadamlar bilan ular oldiga yaqinlashib, ayollarga g'amgin nazarda xo'mrayib qaradi. Xotini Bekey bezovtalaniб qoldi:

– Nima qildi, O'razqul? Nima bo'ldi? Hamma yog'ingiz ho'l bo'lib ketibdi-ku. Yog'och oqib ketdimi?

– Yo'q, – qo'l siltadi O'razqul. – Ma. – U yuganni Guljamolga uzatdi. – Otni otxonaga olib bor. – Shunday deb o'zi eshik tomonga yurdi. – Yur uyga, – dedi u xotiniga. Kampir ham ular bilan birga bormoqchi edi, O'razqul uni ostonaga yo'latmadi.

– Sen nari tur, kampir. Senga hech qanday ish yo'q bu yerda. Uyingga bor-u, xap o'tir.

– Nima bo'ldi senga? – xafa bo'ldi kampir. – Bu nimasi? Cholimga nima bo'ldi? Nima gap?

– Uning o'zidan so'ra, – javob qildi O'razqul. Uyda Bekey erining ho'l ust-boshlarini yechib, unga po'stin berdi, samovarni olib kirib, choy qo'yishga tutindi.

– Choyni qo'y, – qat'iy rad qildi O'razqul, – araq ber.

Xotini ochilmagan yarimtalikni olib, stakanga quydi.

– To'ldirib quy, – buyruq qildi O'razqul. Bir stakan araqni suvdek ichib yuborgach, po'stinga o'ral-di-da, kigizga cho'zilib, xotiniga dedi: – Qo'ydim, sen mening xotinim emassan, men sening ering emasman. Jo'na, bu uyda sening izing qolmasin. Qorangi ham ko'rsatma. Vaqt g'animatida jo'nab qol!

Bekey uh tortdi, karavotga o'tirdi va har galgidek ko'z yosHLarini ichiga yutib, sekin gapirdi:

– Yanami?

– Nima, yanami? – bo'kirib yubordi O'razqul. – Yo'qol!

Bekey uydan otilib chiqdi va har doimgidek qo'llarini bukib, hovlini boshiga ko'tarib ho'ngrab yig'lay boshladi:

– Men, baxti qaro, bu dunyoga nega kelgan ekanman-a...

Bu choq Mo'min chol Olaboshda nabirasi oldiga yo'rtib borardi. Olabosh – chopqir ot. Lekin baribir Mo'min ikki soatdan ziyodroq kechikdi. U nabirasini yo'lida uchratdi. Bolani muallimaning o'zi uyiga olib kelayotgandi. O'sha muallima beshinchi yil kiyayotgan, shamol yalab ketgan, yenglari qo'pol, hech o'zgarmas paltosida. Horigan ayolning qovog'i soliq ko'rinaridi. Anchadan beri yig'layverib ko'zlar shishgan bola qo'lida portfeli bilan bechora va xo'rangan qiyofada uning yonida kelardi. Muallima Mo'min cholni qattiq so'roqqa oldi. Chol esa ayolning oldida otdan tushib, boshini quyi solib turardi.

– Agar vaqtida kelib olib ketmaydigan bo'sangiz, – dedi muallima, – bolangizni maktabga olib kelmang. Menga ishonmang, o'zimda ham to'rttasi bor.

Mo'min yana uzr so'radi, bunday hol boshqa takrorlanmaydi, deb, yana so'z berdi.

Muallima Jilisoya qaytib ketdi, bobo bilan nabi-ra esa uyga yo'l olishdi.

Bola otta bobosining oldiga o'tirib jimgina borardi. Chol ham unga nima deyishini bilmasdi.

– Juda och qoldingmi? – so'radi u.

– Yo'q, muallimamiz non berdi, – javob berdi nabira.

– Nega bo'lmasa miq etmay kelyapsan?

Bola shunda ham gapirmadi.

Mo'min gunohkorona jilmaydi:

– Oh, arazgo'y bolaginam. – U bolaning furajkasini olib, boshidan o'pdi va yana furajkasini boshiga kiygizib qo'ysi.

Bola qiyo ham boqmadi.

Ikkalasi ham shunday ma'yus va jim ketishdi. Mo'min jilovni mahkam tutib, salt otda bola urinib qolmasin deb, Olaboshning boshini bo'shatmay borardi. Endi shoshishning ham keragi yo'qday edi.

Ot tezda undan nima talab qilinayotganini payqadi-da, yarim yo'rg'alab yurib ketdi. U yerga nag'alini taqillatib urib, pishqirib borardi. Shunaqa otda qani endi yolg'iz o'zing xirgoyi qilib ketsang. Odamning yolg'izlikda kuylaydigan qo'shig'i ozmi? Ro'yobga chiqmay qolgan orzular haqida, o'tgan umr haqida, sevgan chog'laring, boshdan kechirgan voqealaring haqida...

Inson ko'nglida armon bo'lib qolgan narsalarni eslashni xush ko'radi. Aslini olganda insonning o'zi ham nimadan armon qilayotganini unchalik tushunib yetmaydi. Lekin har zamon har zamon shu haqda o'ylab qo'ygisi, uning tagiga yetgisi keladi.

Yaxshi ot – mehribon hamroh...

Mo'min chol nabirasining sochi taqir olingan ensasiga, ingichka bo'yni-yu, shalpanq qulqlari-gacha qarab o'ngmagan hayotida butkul ishi-yu, mehnatidan, chekkan barcha tashvish va g'amlaridan endi faqatgina yolg'iz mana shu hozircha nochor bola qolganini o'ylardi. Bobosi uni oyoqqa turg'izishga ulgursa yaxshiku-ya. Lekin u yolg'iz qolsami – og'ir bo'ladi. O'zi mushtdek-ku, ammo fe'lli-ho'yli. Uning oddiygina, mo'mingina bo'lgani yaxshi edi...

Axir O'razqulga o'xshaganlar uni o'lguday yomon ko'rib, bo'rining ta'qibiga tushgan bug'uchaday burda-burda qilib tashlaydi-ku...

Shunda Mo'min boyagina lip etib shitobli soya solib o'tgan va ko'ksidan hayrat va shodlik xitoblari otilib chiqishiga sababchi bo'lgan o'sha bug'ularni esladi.

– Bilasanmi, o'g'lim, nima? Bug'ular yurtimizga qaytib keldi, – dedi Mo'min bobo.

Bola yelkasi ustidan yalt etib qaradi:

– Rostmi?

– Rost. O'zim ko'rdim. Uch bosh.

– Qayoqdan kelganikin ular?

– Menimcha, dovon orqasidan. U yerda ham o'rmon bor. Hozirgi kuz xuddi yozdagiday-da, dovon ochiq. Shuning uchun bizga mehmon bo'lib kelgan.

– Ular biz tomonda qoladimi?

– Yoqsa qoladi. Hech kim tegmasa, yashab yuraveradi. Ozuqa serob bizda. Bu yerda xohla mingta bug'u boq. Ilgarigi vaqtarda, Shoxdor ona bug'u davrida, bu yerda ularning son-sanog'i bo'lмаган...

Bu xabarni eshitib bolaning muzlagan ko'ngli erib, xafaligi tarqalganini sezgan chol yana o'tgan zamonlar haqida, Shoxdor ona bug'u haqida hikoya qilishga tushib ketdi. O'zining ertagiga o'zi ham berilib ketib, qani endi birdan shunday baxtli bo'lib qolsang-da, boshqaga ham baxtingni ulash-sang! – deb qoldi. Butun umr shunday yashasang. Mana shunday, xuddi hozirgiday, xuddi hozirgi soatdagiday. Lekin hayot bunday qurilmagan, baxt bilan yonma-yon, izingdan izma-iz yuradigan, hech mahal arimaydigan baxtsizlik qalbingga, hayotingga bemavrid daxl qilib turadi. Hatto hozirgi damda u nabirasi bilan baxtiyor borayotgan chog'ida ham, cholning qalbida shodlik bilan tashvish yonma-yon turardi: u yoqda O'razqul nima qildi ekan? U yana nima shumlikni tayyorlab turgan ekan, qanaqa zulm? Unga, itoatsizlik qilishga jur'at etgan cholga qanaqa jazo o'ylab qo'ydi ekan? Axir O'razqul buni shunday qoldirmaydi-ku. Bo'lmasa uni O'razqul deyishmasdi-da.

Qizini va uning o'zini kutayotgan baxtsizlik to'g'risida o'yamaslik uchun Mo'min nabirasiga bug'ular, bu jonivorlarning karomati, marhamati, go'zalligi va uch-

qurligi, xuddi shularning sharofati bilan har qanday baloni daf qilishlari haqida hikoya qilardi.

Bolaga yaxshi edi. U uyda nima kutayotganini bilmasdi. Uning ko'zi va qulqlari yonardi. Nahotki, bug'ular qaytib kelgan bo'lsa? Demak, hammasi to'g'ri ekan-da! Bobosining aytishicha, Shoxdor ona bug'u odamlarning yovuzligini kechirgan emish va o'z bolalariga Issiqko'l tog'lariga qaytishga ruxsat etgan mish. Bobosi aytadiki, bu yer qandayligini bilish uchun hozircha uchta bug'u kelgan, agar ularga yoqsa, unda hamma bug'ular yana vataniga qaytadi.

– Bobo, – deb bobosining so'zini bo'ldi bola, – balki, Shoxdor ona bug'uning o'zi ham kelgandir? Balki, bu yer qandayligini uning o'zi ko'rib, keyin bolalarini chaqirmoqchidir?

– Ehtimol, – dedi Mo'min ishonchsizgina. U tutilib qoldi, o'zini noxush seza boshladi: ortiqcha berilib ketgani yo'qmi, bola uning so'zlariga ortiqcha ishonib yuborgani yo'qmi? Lekin Mo'min chol nabirasi ni ishonchdan qaytarishga urinmadidi. Bu endi juda kech edi. – Kim biladi, – yelkalarini qisdi Mo'min, – balki, balki, Shoxdor ona bug'uning o'zi ham kelgandir. Kim biladi...

– Hozir bilamiz-da. Yuring, buva, siz bug'ularni ko'rgan joyga boramiz, – dedi bola. – Men ham bir ko'ray.

– Ular axir bir joyda turmaydi-da.

– Biz izidan boramiz. Ularning izidan uzoq uzoqlarga izlab boraveramiz. Ularga ko'zimizning qiri tushdi deguncha, qaytamiz. Shunda ular odamlar tegmasligini bilib oladi.

– Go'daksan-da, – kulimsiradi bobo. – Uyga boraylik, o'sha yerda ma'lum bo'ladi.

Ular qorovulxonaga yaqinlashib, uylar ortida gi so'qmoqdan borishardi. Uylar orqa tomondan

– xuddi yelkasini o'girib turgan odamga o'xshardi. Uchala uy ham ichida nima bo'layotganidan hech bir nishon bermay turardi. Hovli ham bo'm-bo'sh va jimjit. Mo'minning yuragini noxush vahm bosdi. «Nima yuz bergen bo'lishi mumkin? O'razqul uning baxtsiz qizi Bekeyni urdimikin? Yoki mast bo'lguna-cha ichganmikin? Yana qanday falokat yuz berishi mumkin? Nega buncha jimjitlik, nega shu mahalda hovlida hech kim yo'q? Agar hamma narsa joyida bo'lsa bu mash'um yog'ochni daryodan sudrab chi-qish kerak, – o'yladi Mo'min. – Qo'y, shu O'razqulni, yaxshisi u bilan aloqani uzish kerak. Bilganini qilib, qolgan hammasiga tupurish darkor. Eshakka uning eshak ekanligini isbotlab berolmaysan-ku».

Mo'min otxonaning oldiga keldi.

– Tusha qol. Mana, yetib ham keldik, – u nabirasiga hayajonlanganini bildirmaslik uchun xotirjam gapirdi. Bola qo'lida portfeli bilan uyga chopmoqchi bo'lganida Mo'min bobo uni to'xtatdi: – To'xta, birga boramiz.

U Olaboshni otxonaga bog'lab chiqdi-da, bolani qo'lidan ushlab, uyga qarab yurdi.

– Menga qara, – dedi bobo nabirasiga, – agar meni so'kishsa, sen qo'rqmagin va u yerdagi har xil gaplarga ahamiyat qilmagin. Buning senga daxli yo'q. Sening ishing mакtabga qatnash.

Biroq aytadigan hech nima sodir bo'lindi. Ular uyga kelishganda, faqat kampir Mo'minga xushlamaygina tikildi-da, labini tishlab, yana o'zining ti-kayotgan ishiga berildi. Mo'min chol ham unga hech nima demadi. U xona o'rtasida qovog'ini solgan holda sergak turib, keyin qozondan katta kosadagi un oshini olib, non va qoshiq keltirdi-yu, nabirasi ikkaliasi kechikkan tushlikka o'tirishdi.

Jimgina ovqatlanishdi, buvisi esa hatto ular to-monga qayrilib ham qaramadi. Uning jigarrang

so'lg'in yuzida g'azab to'ng'ib qolgandi. Bola qandaydir mudhish hodisa sodir bo'lganini payqadi. Chol-kampir esa jim edi.

Bolaga shunday vahimali, shunday tashvishli tuyildiki, tomog'idan ovqat ham o'tmay qoldi. Ovqat ustida odamlarning jim qolib, o'zlarining allaqanday yomon va shubhali xayollariga berilishidan yomoni yo'q. «Balki, bunga biz sababchidirmiz?» – dedi bola xayolida portfeliga. Portfel deraza tokchasida turardi. Bola xayolan portfeli bilan shivirlasha boshladи:

«Sen hech nima bilmaysanmi? Bobom nega bunga g'amgin? Uning gunohi nima? Bugun nega u kechikdi, nega Olaboshni egarsiz minib bordi? Axir hech qachon bunday bo'lmagandi-yu. Balki u o'rmonda bug'ularni ko'rib qolib, ushlanib qolgandir?.. Ehtimol, hech qanday bug'u yo'qdir. Bu yolg'ondir? Unda nima? Nega bo'lmasa gapiradi? Agar u bizni aldag'an bo'lsa, Shoxdor ona bug'u qat-tiq ranjiydi-ku...»

Mo'min ovqatlanib bo'lgach, bolaga sekingina dedi:

– Sen hovliga chiqaverdin, bir ish bor. Menga yordamlashasan. Men hozir chiqaman.

Bola itoatkorona chiqib ketdi. U eshikni yopgan zamon, buvisining ovozi keldi:

– Qayoqqa?

– Yog'ochni keltirgani boraman. Boya daryoda tiqilib qolgandi, – javob qildi Mo'min.

– Ha, payqab qoldingmi! – qichqirdi kampir. – Esingga tushdi! Sen borib qizingning holini ko'r. Uni Guljamol uyiga olib ketdi. Sening tug'mas telba qizing kimga kerak endi. Bor, kimga o'xshab qolganini endi o'zi aytsin. Eri uni uyidan quturgan itday haydadi.

– Xo'sh, nima bo'pti, haydasa haydapti-da, – dedi qiziq ustida Mo'min.

– Eh, seni qara! Kimsan o'zing? Qizlaringni bari sayoq, nabirangni o'qitib amaldor qilmoqchi bo'la-

sanmi? Kutaver. O'zingni baloga giriftor qilganingga arzisa edi. Tag'in Olaboshni minib chonibdi. Seni qara-yu! Ko'rpaningga qarab oyoq uzatganiningda edi, kim bilan o'ynashayotganiningni bilarding... U sening bo'yningni sapchaday uzib tashlaydi. Sen qachondan beri odamlarga gap qaytaradigan bo'p qolding? Qachondan beri botir bo'lib qolding? Qizingni biznigiga yetaklab kelishni xayolingga ham keltirma. Ostonaga yo'latmayman...

Bola ma'yus bosh egib hovlida sekin-sekin yurardi. Uydan kampirning qichqirig'i kelardi, keyin eshik taraqladi va Mo'min uydan otilib chiqdi. Chol Seydahmadning uyiga yo'l oldi, yo'lda esa unga Guljamol duch keldi.

Yaxshisi hozir emas, keyin, – dedi u cholga. Mo'min bo'shashib to'xtab qoldi. – Yig'layapti. Urdu uni, – pichirladi Guljamol. – Aytadiki, ular endi birga yashamasmish. U sizni qarg'ayapti. Hammasiga otam aybdor, dedi.

Mo'min churq etmadi. Nima desin? Endi uni hatto o'z qizi ham ko'rishni istamaydi.

– O'razqul o'zinikida ichib yotibdi. Hayvon hayvonligini qiladi-da, – pichirlab gapirdi Guljamol.

Ular o'y surib qolishdi. Guljamol achinib xo'rsindi.

– Hech bo'lmasa, bizning Seydahmad tezroq kela qolsa edi. Bugun qaytishi kerak. Birgalashib shu yog'ochni olib chiqsalaring bir balodan qutulardilaring.

– Gap yog'ochdami? – boshini chayqadi Mo'min. U o'ylab qoldi va yoniga kelib turgan nabirasini ko'rib, unga: – Bor, sen o'yna, – dedi.

Bola nariga ketdi. U molxonaga kirib, yashirgan durbinini oldi. Uni artdi. «Ishlarimiz yomon, – u durbinka g'amgin so'zlay boshladi. – Bunga biz portfel ikkalamiz aybdorga o'xshaymiz. Biron-bir

joyda boshqa mактаб bo'lganda edi. Biz portfelim bilan o'sha yoqqa o'qishga ketardik. Hech kimga bildirmasdiк. Faqat, bobomga qiyin bo'ladi, qidiradi. Sen-chi, durbin, kim bilan oq kemaga qaraysan? O'ylaysanki, men baliq bo'lolmaymanmi? Mana ko'rasan. Oq kemaga suzib boraman...»

Bola pichan g'aramining orqasiga berkinib, durbinda atrofga qaray boshladi. Uzoq qarash ko'ngliga sig'madi. Boshqa vaqtida bo'lsa, qarab ko'zing to'y maydi: kuz o'rmonlariga qoplangan tog'lar ko'rindi, yuqori oppoq qor, past yal-yal yonadi, qip-qizil cho'g'.

Bola durbinni joyiga qo'yib, saroydan chiqarkan, bobosining egar-jabduqli otni hovlidan olib o'tib ketayotganini ko'rib qoldi.

Bola bobosining oldiga chopaman deb turgandi, uni O'razqulning qichqirig'i to'xtatdi. O'razqul ichki ko'ylakda, yelkasiga po'stin tashlagan, basharasi si-girning shishgan yeliniday qip-qizil edi.

– Ey! – dag'dag'a bilan qichqirdi u Mo'minga. – Otni qayoqqa olib ketyapsan? Qani, joyiga kiritib qo'y. Sensiz olib chiqamiz. Qo'lingni tegiza ko'rma. Endi sen bu yerda hech kim emassan. Men seni ishdan bo'shataman. Xohlagan tomoningga jo'na.

Bobo alamlı kulimsirab otni qaytarib otxonaga olib kirdi. Mo'min qo'qqisdan behad keksayib va cho'kib qolgandek bo'ldi. U chorig'ini shapillatib, atrofga boqmay borardi.

Bola bobosi tortgan jabrdan bo'g'ilib, yig'lagani ni hech kimga ko'rsatmaslik uchun daryo qirg'og'i bo'ylab chonib ketdi. Oldidagi so'qmoqni tuman bosganidan goh ko'z ilg'amash, goh yana oyog'i ostida ko'riniq qolardi. Bola ko'z yoshlarini oqizib chonib borardi. Mana uning suyukli xarsanglari: «tank», «bo'ri», «egar», «yotoq tuya». Bola ularga hech nima

demadi: ular hech nima tushunmaydi, joyida qotib turgani-turgan. Bola faqat «yotoq tuya»ning o'rka-chini quchoqladi va sarg'ish toshga engashib, ilojsiz dard-u hasrat o'tida o'rtanib ho'ngrab yig'ladi. U yig'lay-yig'lay yuragini bo'shatdi va tinchlandi.

Oxiri boshini ko'tarib, ko'zini artdi-da, oldinga qarab dong qotib qoldi.

Naq uning ro'parasida, narigi qirg'oqda, suvda uchta bug'u turardi. Haqiqiy bug'ular. Tirik. Ular suv ichgani kelgan, endi tashnalikni qondirganga o'xshardi. Bittasi – eng katta shoxlisi yana suvga boshini egib suv simirar ekan, suvga go'yo shoxlari ni oynada ko'rmoqchi bo'lib tikilayotgandek tuyilar-di. U qo'ng'ir tusli, ko'krakdor va kuchli edi. Boshini silkitganda yungli, oqish labidan tomchilar sachrab tushdi. Erkak bug'u qulqolarini qimirlatib bolaga diqqat bilan razm soldi.

Lekin hammasidan ham ko'ra mayda shoxli, ikki biqini do'ppaygan oq bug'u bolaga ko'proq tikildi. Uning shoxlari kaltaroq, lekin juda chiroyli, xuddi Shoxdor ona bug'uning o'zginasi edi. Ko'zlari shahlo, tip-tiniq. O'zi esa har yili bittadan qulunlaydigan qomatdor biyaga o'xshaydi. Shoxdor ona bug'u bu xum kalla, shal pang qulq bolani qayerda ko'rgani ni eslayotganday, unga ko'z uzmay qarab turdi. Uning ko'zlari namli yaltirab, uzoqdan yonib turardi. Burnidan yengil hovur ko'tarilardi. Uning yonginasida shoxsiz bug'ucha orqasini o'girib tolning novdasini kemirardi. Uning hech nima bilan ishi yo'q. Semiz, g'ayratli, quvnoq. U birdan novda kemirishni qo'ydi-da, dikirlab yelkasi bilan ona bug'uga turtinib ketdi va uning atrofida o'ynoqlab, erkalana boshla-di. O'zining shoxsiz boshini Shoxdor ona bug'uning biqiniga ishqaladi. Shoxdor ona bug'u bo'lsa hamon bolaga tikilib turardi.

Bola nafasini ichiga yutib, toshlar panasidan chiqdi va xuddi tushdagiday, qo'llarini oldinga cho'zib qirg'oqqa, suvning o'ziga yaqin keldi. Bug'ular hech bir hurkmadi, narigi qirg'oqdan unga bamaylixotir qarab turaverdi.

O'rtada, suv ostidagi toshlar ustidan irg'ishlab, tezoqar, ko'm-ko'k tiniq daryo qaynab oqib yotardi. Agar ularni ayirib turgan shu daryo bo'limganda go'yo bug'ularning oldiga borib ularga qo'l tekkizish mumkinday edi. Bug'ular tekis, toza shag'al ustida turishardi. Ularning orqasida, shag'al tugagan joyda zich o'rmonning kuzgi xazonrezgisi alvon tusda tovlanardi. Undan yuqorida – jar tepasida qarag'ay va tog' teragi yal-yal yonadi. Undan ham yuqoriroqda cheksiz o'rmon-u tog' tizmasidagi oppoq qor ko'zga tashlanadi.

Bola ko'zlarini yumdi va yana ochdi. Ko'z oldida hamon o'sha manzara, oltin yaproqli daraxtzordan sal beriroqda, top-toza shag'al ustida hamon o'sha ertaklardagi bug'ular turardi.

Mana, ular burildi-da, tizilgancha shag'aldan o'rmon tomonga yurib ketdi. Oldinda – katta bug'u, o'rtada shoxsiz bug'ucha, ular ortida Shoxdor ona bug'u. U qayrilib, bolaga yana bir bor qarab qo'ydi. Bug'ular daraxtzorga kirib, butalar oralab ketdi. Ular tepasida qizil novdalar chayqalar va oltin yaproqlar ularning tarang va silliq yelkasiga to'kilardi.

Keyin ular so'qmoqdan jar tomon yuqoriga ko'tarildi va shu yerda to'xtadi. Bolaga go'yo bug'ular yana qarab turgandek tuyildi. Katta bug'u bo'ynini cho'zib va shoxlarini orqasiga tashlab xuddi karnayday sado soldi: «Ba-ba!» Uning ovozi jar va daryo ustida uzoq aks sado berib taraldi: «A-a!»

Shundagina bolaning hushi joyiga keldi. U oyog'ini qo'lga olib tanish so'qmoqdan uyga chonib ketdi. U

jonining boricha chopardi. Hovlidan g'izillab o'tib, eshikni lang ochib, entikkancha, ostonadan turib qichqirdi:

– Bobo! Bug'ular keldi! Bug'ular! Ular shu yerda!

Bir burchakda g'amgin va jimgina o'tirgan Mo'min bobo unga bir qarab qo'ydi-yu, hech nima demadi, gap nima haqda ekanligini aniq tushunmadı.

– O'chir, ovozingni! – do'q qildi kampir. – Kelsa kelibdi-da, hozir ulardan ham boshqa tashvish ko'p.

Bola jimgina chiqib ketdi. Hovli kimsasiz edi. Kuz quyoshi g'ira-shira yalang'och tog' tizmalari – Qorovultog' ortiga botdi. Quyosh haroratsiz quyuq shafag'i bilan tog'larni lola rangiga burkardi. Muz qotgan shafaq bu yerdan kuzgi tog' cho'qqilariga beqaror shu'la sochib turardi. O'rmonga g'ira-shira qorong'ilik cho'kdi.

Izg'irin turdi. Bola eti uvushib qaltiray boshladı.

### **OLTINCHI BOB**

To'shakka kirganida ham eti uvushishi qolmadı. Anchagacha uxlay olmadı. Hovliga allaqachon qorong'ilik cho'kkani. Boshi zirqirardi. Lekin u miq etmasdan yotardi. Uning og'rib qolganini hech kim bilməsdi. Unutgandilar.

Bu yerdə uni unutməy ham nima qilishsin!

Bobo butunlay tinchini yo'qotib qo'ydi. O'zini qo'yarga joy topolmasdi. Goh tashqari chiqar, goh ichkari kirar, goho achinish bilan chuqur nafas olib o'tirib olar, goho turardi-da, qayergadir ketardi. Kampir bo'lsa cholga dakki berar va ayni paytda u ham tinmay goh u yoqqa, goh bu yoqqa yurar, hovliga chiqar va yana zum o'tmay qaytib kirardi. Hovlida qandaydir noaniq, uzuq-yuluq ovoz eshitildi, kimningdir shoshilinch oyoq sharpasi, kimningdir so'kinishi quloqqa chali-

nardi, aftidan, O'razqul yana so'kina boshlagandi, al-lakim entikib-entikib yig'lardi...

Bola o'rinda jimgina yotar, barcha ovoz va oyoq sharpalaridan, uyda va hovlida yuz berayotgan butun voqealardan charchog'i ortar edi.

U ko'zini yumib oldi. O'zining yolg'izligini, unutilganini sezdirmay, bugun ko'pdan beri orzu qilib yurgan narsasini ko'rganini eslay boshladı. U katta daryo qirg'og'ida turardi. Suv shunchalik tez oqardiki, unga uzoq tikilib turish mumkin emasdi, ko'z tinib, bosh aylanib ketardi. Daryoning narigi qirg'og'ida esa unga bug'ular qarab turardi. U kechga yaqin ko'rgan o'sha uchala bug'u hozir ham o'sha joyida edi. Hamma-hammasi uning ko'z oldida qayta takrorlana boshladı. Shoxlari katta erkak bug'u boshini suvdan ko'targanda uning namli lablaridan yana o'sha suv tomchilari oqib tushdi. Shoxdor ona bug'u esa xuddi avval ko'rgani singari mehribonlik bilan tikilib turardi. Uning ko'zlar katta-katta, qop-qora va namli edi. Bola hayratda qoldi, Shoxdor ona bug'u xuddi odamlarga o'xshab, xuddi bobosi singari g'amgin va ayanchli xo'rsinar edi. Keyin ular butalar orqali daraxtzorlarga kirib ketdi. Bug'ular ustida qizil novda chayqalar va oltin yaproqlar ularning tarang, silliq yelkasiga uchib tushardi. Ular jar bo'yiga ko'tarilib, shu yerda to'xtadi. Katta bug'u bo'ynini cho'zib, shoxlarini yelkasi osha orqasiga tashlab «Ba-ba!» deya karnayday sado soldi. Bola uning ovozi daryo ustida uzoq yangrab turganini eslab, o'zicha jilmayib qo'ydi. Shundan keyin bug'ular o'rmonga kirib, g'oyib bo'ldi. Lekin bola ulardan ajralishni istamasdi. U o'zi istagan narsalarni yana ko'rish uchun xayol sura boshladı.

Yana tezoqar ulkan daryo ko'zi oldidan shiddat bilan oqib o'ta boshladı. Oqim tezligidan uning boshi

aylandi. U bir sakradi va daryo ustidan uchib o'tdi. Hamon qumloqda yotgan bug'ular yaqiniga yengil va ohista qo'ndi. Shoxdor ona bug'u uni yoniga chaqirdi:

– Sen kimning bolasisan?

Bola indamadi. U kimning bolasi ekanligini aytishga uyalardi.

– Biz bobom bilan seni juda yaxshi ko'ramiz, Shoxdor ona bug'u. Biz seni anchadan beri kutayotgan edik, – dedi.

– Men ham seni bilaman. Sening bobongni ham. U yaxshi odam, – dedi Shoxdor ona bug'u.

Bola sevinib ketdi. Lekin o'z minnatdorchiligini qanday bayon etishni bilmasdi.

– Istanasang, baliqqa aylanaman-u, daryo bo'ylab suzib Issiqko'lga, oq kemaga yetib boraman, – dedi bola to'satdan.

U buning uddasidan chiqa olardi. Biroq Shoxdor ona bug'u unga hech nima demadi. Shunda bola yechina boshladi va xuddi yozdagidek, daryo yoqasida tolning shohidan ushlab, suvga tushdi. Suv issiq va dimiqqan edi. U ko'zi ochiq holda suv tagidan suzib ketdi. Son-sanoqsiz oltin qum donachalari mayda suv osti o'tlari bilan qo'shilib girdob hosil qilardi. Uning nafasi bo'g'ila boshladi. Issiq oqim esa uni hamon olib ketardi.

– Yordam ber, Shoxdor ona bug'u, yordam ber menga, men ham sening farzandingman, Shoxdor ona bug'u! – deya baqirdi u.

Shoxdor ona bug'u uning ortidan qirg'oq bo'ylab yugurdi. U shunday tez yugurdiki, havo vizillab ketdi.

Bola ustidagi ko'rpani otib tashladi va darhol yengil tortdi. U terlab-pishgan edi. Lekin bunday paytlarda bobosi uni yana yaxshiroq o'rab qo'yishini eslab, ko'rpara o'ralib oldi. Uyda hech kim yo'q edi. Chiroq piligi yonib tugagan, shuning uchun ham u xonani

xiragina yoritib turardi. Bola o'rnidan turmoqchi, suv ichmoqchi bo'ldi, lekin tashqaridan qandaydir keskin ovoz eshitildi. Kimdir birovga baqirdi, allakim yig'ladi, kimdir uni yana yupantirdi. G'ala-g'ovur, oyoq shar-pasi eshitildi. Keyin naq deraza tagidan uh tortib ikki kishi o'tdi. Ular bir-birini yetaklab borayotgandek edi. Eshik taraqlab ochildi, kampir jahl bilan harsillagani-cha Mo'min boboni uy ichiga itarib yubordi. Bola bobosining bunchalik qattiq qo'rqqanligini hech qachon ko'rмаган edi. Aftidan, u hech narsani anglamasdi. Cholning ko'zlari besaranjom javdirardi. Kampir uni ko'kragidan itarib, o'tirishga majbur qildi:

— O'tir, o'tir, ahmoq chol, so'ramasa aralashib nima qilasan. Birinchi marta shunday bo'lyapti-mi ularda. Hammasi yaxshi bo'lsin desang, tum-shug'ingni suqmay tek o'tir. Nima desam, shuni qil. Eshityapsanmi? U biz bilan do'stlashmoqchi emas, balki dunyodan bezdirmoqchi, tushunyapsanmi? Keksayganda qayerga ham boramiz? Qayerga? — Kampir shunday dedi-yu, eshikni taraqlatib yonib, shoshganicha chiqib ketdi.

Uy yana jimib qoldi. Faqat cholning xirillagan, uzuq-yuluq nafas olishi eshitilib turardi. U o'choq yonida cho'nqaygancha boshini qaltirayotgan qo'llari orasiga olib o'tirardi. Birdan chol tiz cho'kdi va qo'llarini cho'zib, kimgadir zorlangancha iltijo qila boshladi:

— Ol meni, olib ket, bu toleyi pastni! Unga farzand ato qil! Unga qarasam yurak-bag'rim qon bo'ladi. Hech bo'lmasa bittagina tirnoq ato et, rahming kel-sin bizga...

Chol yig'lagancha gandiraklab o'rnidan turdi-da, devorni ushlab borib, eshikni ochdi. U tashqari chiq-di, eshikni yopdi va eshik ortida kafti bilan og'zini berkitib ich-ichidan o'ksinib yig'ladi.

Bola nochor ahvolda qoldi. U yana qaltiray boshla-di. O'zini goh issiqqa, goh sovuqqa otardi. U turmoq-chi, bobosi yoniga bormoqchi bo'ldi. Lekin qo'l-oyoqlari unga itoat qilmas, boshi zirqirab og'rirdi. Chol eshik orqasida yum-yum yig'lar, hovlida esa yana badmast O'razqul to'polon ko'tarardi, Bekey xola dod-faryod solib yig'lardi. Ikki tomonni ham Gul-jamol bilan buvi yalinib-yolvorib tinchitishdi.

Bola o'z xayol daryosiga cho'mgan edi.

U yana o'sha tezoqar daryo yoqasida. Ikkinci sohilda, shag'al ustida esa xuddi o'sha bug'ular turibdi. Shunda bola iltijo qildi: «Shoxdor ona bug'u, Bekey xolaga shoxingda beshik olib kel. Sendan o'tinib so'rayman, ularga beshik olib kel. Ularda ham farzand bo'lsin». O'zi bo'lsa suv yuzasidan Shoxdor ona bug'u tomon yugurgilab ketdi. U suv yuzasidan chonib borar ekan, qulab tushmasdi, shu bilan birga, sohilga ham yaqinlasholmasdi, xuddi bir joyda depsinib turib qolgandek edi. U hamma vaqt Shoxdor ona bug'uga yalinib-yolvorardi. «Sen shoxingda beshik olib kel. Shunday qilginki, bobomiz yig'lamasin, shunday qilginki, O'razqul amaki Bekey xolani urmasin, shunday qilginki, ularda farzand tug'ilсин. Men hammalarini sevaman, O'razqul amakini ham sevaman, sen unga faqat farzand ber. Ularga shoxingda beshik olib kel...»

Bolaga uzoqdan qo'ng'iroqcha jaranglagan-day eshitildi. U tobora kuchliroq jaranglardi. Ona bug'u tog' bo'ylab yugurardi, u beshikni – qayindan yasalgan qo'ng'iroqchali bola beshagini bandidan shoxlarida ko'targancha keltirayotgan edi. Beshik qo'ng'iroqchasining jarangi hamma yoqqa tarala boshladni. Shoxdor ona bug'u juda shoshilayotgan edi. Qo'ng'iroqcha ovozi tobora yaqinlasha boshladni.

Bu nimaning ovozi? Qo'ng'iroqcha jarangiga motorning uzoqdan gurillagan ovozi jo'r bo'ldi. Qayer-

dadir yuk mashinasi kelardi. Mashinaning gurillashi tobora kuchayib, aniqroq eshitilardi, qo'ng'iroq-chaning jarangi esa xuddi undan cho'chiganday uzuq-yuluq eshitila boshladi, ko'p o'tmay esa uni motorning gurillashi butunlay bosib ketdi.

Bola temirlarni sharaqlatib, hamma yoqni larzaga solib hovliga og'ir mashina kelib to'xtaganini eshitdi. It hurigancha tashqariga otildi. Deraza oynasiga bir zum chiroq yorug'ining aksi tushib turdi-yu, shu zahotiyoy o'chdi. Ayni chog'da motorning ovozi ham jimb qoldi. Kabina eshigi taraqlab yopildi. Kelgan kishilar, aftidan, uchovlon bo'lsa kerak, o'zaro gaplashib, bola yotgan deraza yonidan o'tib ketishdi.

– Seydahmad keldi, – birdan Guljamolning quvonchli ovozi yangradi, uning eri tomon shoshilayotgani eshitilib turardi. – Biz bo'sak kutaverib, toqatimiz toq bo'ldi!

– Assalomu alaykum, – javob qilishdi unga notanish kishilar.

– Xo'sh, tinch o'tiribsizlarmi? – so'radi Seydahmad.

– Shukr. Nega muncha kech?

– Shunisiga ham shukr. Sovxozgacha yetib keldim, yo'lovchi mashinalarni kutaman-kutaman, qani kela qolsa. Hech bo'lmasa Jilisoygacha yetib olsam, deyman. Bir mahal mana bular yog'och olib ketgani bizning tomonimizga kelishayotibdi, – deya hikoya qilardi Seydahmad. – tog' oralig'i qorong'i. Yo'lni o'zing bilasan...

– O'razqul qani? Uydami? – qiziqib so'radi kelgallardan biri.

– Uyda, – ikkilanib dedi Guljamol. – Sal tobi qochibdi. Tashvishlanmanglar. Bizda tunab qolasiz, joy bo'lsa bor. Yuringlar.

Ular rozi bo'lishdi. Lekin bir necha qadam bosgach, to'xtab qolishdi.

– Assalom, oqsoqol. Assalomu alaykum, boybicha.

Kelganlar Mo'min bobo va kampir bilan salomlashishdi. Chol bilan kampir ham uyatga qolmaslik uchun ularni hovlida kutib olishdi. Balki O'razqul ham uyalar? Ishqilib, o'zini va boshqalarni uyatga qo'ymasin-da.

Bola biroz tinchlandi. Umuman, u o'zini yengil his eta boshladi. Boshi ham unchalik og'rimayotgan edi. Hatto o'rnidan turib, mashinani ko'zdan kechirmoqchi bo'ldi: u qanaqa, to'rt g'ildiraklimi yoki olti g'ildiraklimi? Yangimi, eskimi? Pritsepi qanaqa? O'tgan yozda ularning uyiga hatto harbiy yuk mashinasi ham kelgandi – g'ildiraklari baland, xuddi tumshug'i kesib olingandek edi. Yosh soldat haydovchi bolani kabinaga o'tirg'izgan edi. Qanday yaxshi! Oltin rang pogonli harbiy kishi esa O'razqul bilan birga o'rmonga tushib ketishdi. Qanaqasi bu? Hech bunaqasi bo'limgandi-ku.

- Sizlar josusni izlayapsizmi? – so'radi bola soldatdan. U jilmayib qo'ydi.
- Ha, josusni izlayapmiz.
- Biznikiga hali bironta ham josus kelgani yo'q, – dedi bola g'amgin.

Soldat kulib yubordi.

- Nimaga kerak u senga?
- Men uni izidan quvlab, tutib olardim.
- Obbo izquvar-e, hali yoshlik qilasan.

Oltin rangli pogonli harbiy kishi O'razqul bilan o'rmonni aylanib yurishganda, bola haydovchi bilan gaplashib oldi.

- Men hamma mashinalarni, hamma haydovchilarni yaxshi ko'raman, – dedi bola.
- Nima uchun? – qiziqib so'radi haydovchi.
- Mashinalar – yaxshi, kuchli va tez yuradi. Ular dan yoqimli benzin hidi keladi. Haydovchilar bo'lsa yosh, ularning hammasi ham Shoxdor ona bug'uning bolalari.

- Nima? Nima? – tushunmadi soldat. – Qanday Shoxdor ona?
  - Sen hali bilmaysanmi?
  - Yo‘q. Bunaqa g‘aroyibotni hech qachon eshit-maganman.
  - Sen o‘zing kimsan?
  - Men qarag‘andalik qozoqman. Shaxtyorlar mak-tabida o‘qiganman.
  - Buni so‘rayotganim yo‘q, sen kimning farzan-disan?
  - Ota-onamni.
  - Ular kimniki?
  - Ular ham ota-onasining farzandlari.
  - Ular-chi?
  - Ey, og‘ayni, shu zaylda to‘xtovsiz savol berib, surishtiraverish mumkinmi, axir.
  - Men bo‘lsam Shoxdor ona bug‘u farzandlarining farzandiman.
  - Buni kim aytdi senga?
  - Bobom.
  - Harqalay, to‘g‘ri emas, – soldat ikkilanib, bosh chayqadi.
- Bu katta boshli, shal pangquloq bolaning Shoxdor ona bug‘u avlodi ekanligi uni qiziqtirib qo‘ydi. Soldat o‘z avlodi qayerdan tarqalganini bilmasligi ma’lum bo‘lib qolganligidangina emas, hatto yetti pushtini bilmaslididan biroz xijolat ham tortdi. Soldat faqat o‘z otasini, bobosini va bobokalonini bilardi, xolos. Boshqalari-chi?
- Senga yetti ota-bobolarning nomlarini esda tutishni o‘rgatishmaganmi? – deb so‘radi bola.
  - O‘rgatishmagan. Nimaga kerak bu? Men ular haqida hech nimani bilmasam ham, hamma qatori binoyidek yashayapman.
  - Bobom, agar odamlar o‘z ota-bobolarini bilmasa-lar, ular aynib ketadi, deydi.

- Kim ayniydi? Odamlarmi?
  - Ha.
  - Nima uchun?
  - Bobom aytadiki, unda hech kim yomon ishlardan hazar qilmaydi, chunki bolalar va bolalarning bolalari ham uni eslamaydi. Shuningdek, hech kim yaxshi ish ham qilmaydi. Chunki, baribir, bolalar uning yaxshi ishlari haqida eslamaydi-da.
  - Bobong qiziq ekan-ku! – Soldat chinakam hayratda qoldi. – G'aroyib. Ammo u sening boshingni bo'lmag'ur narsalar bilan gangitib qo'yayotgani bilmasa kerak. Axir, sening boshing katta-ku... Quloqlaring ham shunchalik kattaki, xuddi bizning poligonimizdagi lokatorlarga o'xshaydi. Sen uning gaplarini tinglama. Kommunizmga boryapmiz, kosmosga uchyapmiz, u bo'lsa seni nimaga o'rgatyapti? Uni bizga, siyosiy mashg'ulotga olib borishsa bormi, bir zumda ma'lumotli qilib qo'yardik. Sen o'sib, o'qib-o'rganib olganingdan so'ng bobongdan voz kechib qo'ya qol. U nodon, madaniyatsiz kishi.
  - Yo'q, men hech qachon bobomni tashlab ketmayman, – e'tiroz bildirdi bola. – U yaxshi.
  - Hozircha shunday. Keyinroq tushunib olasan.
- Hozir ovozlarga qulq solib turar ekan, bola o'sha harbiy mashinalarni esladi. U o'shanda soldatga nima uchun bu yerdagi haydovchilar, ayniqsa, u bilgan haydovchilar Shoxdor ona bug'uning farzandlari ekanligini yaxshilab tushuntirib berolmagan edi.
- Bola unga to'g'risini aytdi. Uning so'zlarida hech qanday uydirma yo'q edi. O'tgan yili xuddi shunday kuz pallasida, ehtimol, sal kechroqmidi, pichan olib ketish uchun tog'ga sovxozi mashinalari kelgan edi. Ular qorovulkxonaning yonidan emas, balki unga biroz yetmasdan Archadaraga olib boradigan yo'lg'a burilishdi, so'ng yuqorilab borib, yozda o'rib qo'yilgan pichanlar tomon ketishdi. Qorovultog'dagi motorlar-

ning mislsiz gurillashini eshitgan bola yo'lning ayrılıshiga qarab chonib ketdi. Birdaniga shuncha mashina! Birining ketidan biri tizilishib ketgan. Butun bir kolonna. U mashinalardan o'n beshtachasini sanadi.

Havo aynib turibdi. Bugun-erta qor yog'ib qolish siyoqi bor. Unda «xayr, xashaklar, kelgusi yilgacha» deyaverish mumkin. Bu joylarda pichanni o'z vaqtida tashib olmasang, keyin dog'da qolasan. O'tib kelolmaysan bu yerga. Aftidan, sovxoza turli xil ishlar ko'payib, vaqt ziq kelib qolganligi uchun o'rib tayyorlab qo'yilgan pichanni bir yo'la tashib keltirishga qaror qilingan edi.

Biroq bola buni bilmasdi. To'g'risini aytganda, uning nima ishi ham bor? U hovliqib, quvonganidan har bir mashinaning qarshisiga chiqdi, biroz kim o'zarga chopdi, so'ng boshqasini qarshi ola boshladi. Yengil yurib borayotgan yuk mashinalarining hammasi yap-yangi, kabinalari chiroyli, oynalari esa keng edi. Kabinada yosh yigitlar o'tirishibdi. Ularning hammasi bir xilda murttsiz, ayrim kabinalarda esa ikkitadan o'tirishibdi. Bu sherik bo'lib o'tirganlar pichanni yig'ish va bog'lash uchun borishayotgan edi. Ularning hammasi bolaga chiroyli, quvnoq, jasur bo'lib tuyildi.

Umuman-ku, bola yanglishmagandi. Haqiqatda ham shunday edi. Mashinalar soz edi, ular Qoro-vultog'dagi shag'alli, zarang yo'ldan o'tgach, yelday uchib borardi. Bolalarning vaqtı chog' edi – havo ham yomon emasdi, bu yerda yana qayoqdandir paydo bo'lib qolgan shalpang qulqoq, katta boshli tirmizak bola yoshlik sho'xliklarini ichiga sig'dirolmay quvonganidan har bir mashina qarshisida girdikapalak bo'lardi! Bola yana ko'proq sevinsin va sho'xlik qilsin uchun uning xatti-harakatlariga kulmasdan, hazil aralash qo'l silkib, po'pisa qilmasdan bo'larmidi...

Eng oxirida kelayotgan yuk mashinasi hatto to'xtadi ham, kabinadan pogonsiz, harbiy furajkasiz, ammo kepka kiyib olgan soldat kiyimidagi yosh haydovchi yigit boshini chiqarib qaradi.

– Yaxshimisan, nima qilib yuribsan bu yerda, a? – ochiq yuz bilan bolaga ko'z qisib qo'ydi u.

– O'zim, shunday, – bamaylixotir javob berdi bola.

– Sen Mo'min boboning nabirasi emasmisan? O'zim ham shunday deb o'ylagan edim. Men ham bug'uboy avlodidanman. Bu borayotgan bolalarning hammasi Bug'uboy avlodidan. Pichanga boryapmiz. Endigi Bug'uboy avlodlari bir-birini bilishmaydi ham, tarqalishib ketgan... Bobongga salom ayt. Qulibekni, Cho'tboyning o'g'li Qulibekni ko'rdim, deb aytgin. Qulibek armiyadan qaytib kelib, sovxozda haydovchi bo'lib ishlayapti ekan, degin. Xayr, omon bo'l, – xayrlashish oldidan u bolaga qandaydir harbiy znachok sovg'a qildi. Juda g'alati. Ordenga o'xshab ketadi.

Mashina qoplon kabi bo'kirib sheriklari ortidan shamolday uchib ketdi. Nogahon bolada Bug'uboy avlodidan bo'lgan akasi – bu oq ko'ngil, mard yigit bilan birga ketish ishtiyoqi tug'ilib qoldi. Ammo yo'l huvillab qolgan bo'lib, u uyga qaytishga majbur bo'ldi. Qaytar-kan, bobosiga uchrashuv haqidagi taassurotlarini gapirib berdi. Znachokni bo'lsa ko'kragiga taqib oldi.

O'sha kuni kechqurun osmon gumbazi ostidagi tizma tog'lardan qattiq shamol – San-Tosh shamoli tura boshladidi. U bo'ronga aylandi. O'rmon yaproqlari quyundek osmonga uchib chiqib tobora ko'kka o'rlar, guvillagancha tog' cho'qqisida o'ynardi. Zum o'tmay havo shunday buzildiki, ko'z ochib bo'lmay qoldi. Birdan qor uchqunlay boshladidi. Ana-mana deguncha yer yuzi oq choyshabga burkandi, o'rmonlar chayqaldi, daryo jo'sh urdi. Qor tushdi, u buralib-buralib yog'ardi.

Bir amallab mollarni haydashga, hovlidagi u-bu narsalarni yig'ishtirishga, iloji boricha uyga mo'l o'tin olib kelishga zo'rg'a ulgurishdi. Keyin esa uydan chiqmay qamalib olishdi. Bunday erta tushgan izg'irin sovuqda kim ham eshikka chiqadi, deysiz.

Buning kimga keragi bor? – hayratlanib tashvishlanardi Mo'min bobo o'choqqa o'tin qalarkan. U shamolning hushtak chalishiga hamon qulqoq tutar, deraza oldiga borib tashqarini kuzatardi. Darcha ortida gir aylanib yog'ayotgan qor hash-pash deguncha uyulib qolgan edi.

– O'tir o'rningga! – ming'illadi buvi. – Birinchi marta shunday bo'lyaptimi? «Buning kimga keragi bor?» emish, – taqlid qilib masxaraladi kampir. – Qish qishligini qilishi kerak-da.

– Bir kunda-ya...

– Bo'lmasa-chi? Sendan so'rab o'tirarmidi? Vaqtsoati kelibdi, yog'adi-da.

O'choq mo'risi uvillay boshladi. Bola oldin bobosiga xo'jalik ishlarida yordam berib, sovuqqa qotdi, biroq o'tin tezda qizishib yonib ketgandan so'ng uyichi isib qoldi. Hamma yoqni dud aralash qarag'ay smolasining hidi qopladi. Isinib olgach, bolaning ham ko'ngli joyiga tushdi.

Keyin ovqatlanishdi. So'ng uqlash uchun o'ringa kirishdi. Hovlida esa qor bo'ralar, shamol uvillardi.

«O'rmonda balki juda qo'rqinchlidir», – o'yladi bola oyna ortidagi guvillashta qulqoq solib, u banogoh qandaydir anglab olish qiyin bo'lgan ovozlarni, shovqin-suronlarni eshitib, o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Kimdir birovni chaqirdi, kimdir unga javob qaytardi. Dastlab bolaga shunday tuyilayotganday bo'ldi. Shunday paytda qorovulxonaga kim ham kelardi? Biroq Mo'min bobo va kampir hushyor tortishdi.

– Odamlar, – dedi kampir.

– Ha, – ishonqiramay dedi chol. Keyin bezovtala boshladi: – Bemahalda kim bo'ldi? – u tezgina kiyina boshladi.

Kampir ham shoshib qoldi. Turib, lampa chiroqni yoqdi. Bola ham nimadandir cho'chib, turib kiyindi. Bu orada odamlar uyga yaqinlashib kelishdi. G'ovur-g'uvur, oyoq tovushlari. Noma'lum odamlar qorni g'archillatib bosib, ayvonga kelganlarida oyoqlarini qoqib, taqillata boshladilar.

– Oqsoqol, eshikni oching! Sovqotdik!

– Kimsizlar?

– O'zingizniki.

Mo'min eshikni ochdi. Qorda, izg'irin shamolda sovqotgan kishilar uyga bostirib kirib kelishdi. Bular kunduzi Archadara tomonga pichan ortishga ketgan o'sha yosh haydovchilar edi. Bola ularni darhol tani-di. Unga harbiy znachok taqdim qilgan Qulibek ham bor edi. Ular birovni qo'lltig'idan ushlab olib kirishi-di. U ingrardi, oyog'ini sudrab bosardi. Uyda birdan qiy-chuv ko'tarildi.

– Astag'firullo! Nima bo'ldi sizlarga? – Mo'min bobo bilan kampir baravar tashvishlanib so'rashdi.

– Keyin gapirib beramiz! U yoqda yana bizdan yetti kishi kelyapti. Yoldan adashishmasa bo'lgani. Qani, bu yerga o'tir-chi. Oyog'i qayrilib ketdi, – oqsoq yigitni pechka yoniga o'tqizarkan, tez gapirdi Qulibek.

– Qolgan odamlaringiz qayerda? – Shoshib qoldi Mo'min bobo. – Men hozir borib, ularni boshlab kelaman. Sen esa yugur, – dedi u bolaga. – Seydahmadga ayt, tezlik bilan elektr fonarini olib kelsin.

Bola uydan otilib chiqdi va hovliqqanidan nafasi bo'g'ziga tiqilib qoldi. Umrining oxirigacha u bu dahshatli daqiqani esdan chiqarmadi. Qandaydir hur-paygan, basharasini sovuq, chinqirib dahshat soluvchi bahaybat maxluq uning tomog'idan bo'g'ib olib siltay boshladi. Lekin bola o'zini yo'qotmadi. U dahshatlidi.

changaldan sitilib chiqdi va qo'li bilan boshini to'sib himoya qilgancha Seydahmadning uyiga yugurdi. Hammasi bo'lib yigirma-o'ttiz qadamlik yo'l unga xuddi uzoqdek bo'lib tuyildi. Go'yo jangchilarga ko'maklashmoq uchun olis yerga shamoldek yelib borayotgandek edi. Uning qalbi mardlik va jasurlik ko'rsatish ishtiy-oqi bilan to'lib-toshgan edi. U nazarida o'zini qudratli va yengilmas kuchga ega ekandek his etdi, hatto Seydahmadning uyiga yetib borguncha ham shunday qahramonona ishlar qilishga ulgurdiki, qoyil qolmay iloj yo'q. U tubsiz jarliklar orqali tog'dan tog'ga sakrab o'tdi, qilich bilan dushman to'dasini yakson qildi, daryoda cho'kayotganni, o'tda kuyayotganni xalos etdi, qizil bayrog'i hilpirab turgan reaktiv qiruvchi samolyotda dara va qoyalar sari undan qochib borayotgan dahshatli qora maxluqni quvdi. Uning reaktiv qiruvchi samolyoti maxluq ortidan o'qdek uchib o'tardi. Bola pulemyotdan o'q uzib, «fashistlarni qir!» deb qichqirardi. Hamma joyda Shoxdor ona bug'u uni qo'llab-quvvatladi. Bug'u o'z farzandi bilan faxrlanardi. Bola Seydahmadning uy eshigiga kelib yetganda, ona bug'u unga: «Endi mening bolalarimni, yosh haydovchilarni qutqarib qol!» – dedi. «Men ularni qutqaraman, Shoxdor ona bug'u, azbaroyi Xudo, qasam ichaman!» – dedi bola ovoz chiqarib va eshikni qoqa boshladи.

– Tezroq, Seydahmad amaki, biznikilarni qutqarib qolaylik, yuring! – U bu so'zlarni shunday ta'sirli qilib aytdiki, Seydahmad va Guljamol qo'rquvdan joyida turgancha turib qolishdi.

– Kimni qutqarish kerak? Nima bo'ldi?

– Bobom elektr fonari bilan tezda chonib kelsin, sovxozdan kelgan haydovchilar yo'lda adashib qolishibdi deb aytgin, dedilar.

– Ahmoq, – so'kib berdi uni Seydahmad. – Shunday desang bo'lmaydimi? – U otlanish uchun yugurib ketdi.

Lekin bu holat bolani hech qancha ranjitmadi. Seydahmad uning bu yerga kelguncha qanchalik jasorat ko'rsatganini, qasam ichganini qayerdan bilsin. Bola haydovchilarning yettalovi ham Mo'min bobo bilan Seydahmad tomonidan qorovulxonaning yonidan tezda topilib uyga olib kelinganda ham unchalik ajablanmadi. Shunday uchrashuv sodir bo'lmasligi ham mumkin edi-ku! Xatarning oldi olinsa u yengil ko'chiishi mumkin... Umuman olganda, bu adashgan kishilar ham topildi. Seydahmad ularni uyiga olib ketdi. Hatto O'razqulnikida tunash uchun ham besh kishi yuborildi. – Uni ham uyg'otishga to'g'ri keldi. Boshqlari esa Mo'min boboning uyiga tiqilib qolishdi.

Qor bo'roni tog'da hali ham to'xtamagandi. Bola ayvonga yugurib chiqdi va daqiqa o'tmay o'ng va so'li qaysi, baland va pasti qaysi, tushuna olmay qoldi. Havoning qovog'i soliq, go'yo doira shaklida aylanyotgandek edi. Qor esa tizza bo'yi bo'lib qolgandi.

Mo'min bobo sovxoz haydovchilarining hammasi topilib, isinib olgach va sovuqdan, xavf-xatar dan qutulib ko'ngillari tinchigach, voqeа tushunarli bo'lsa ham yo'lda, qor bo'ronida qanday hodisa yuz bergenini sekin-asta surishtira boshladи. Yigitlar hikoya qilib berishdi, chol-kampir esa xo'rsinib-xo'rsinib qo'yishardi.

– Bay, bay-ey, – deya sodir bo'lgan hodisadan hayratda qolishar va qo'llarini ko'ksiga qo'yib Xudo ga shukronalar aytishardi.

– Bunchalik yengil kiyinmasalaring-a bolalar, – o'pkaladi kampir issiq choydan quyarkan. – Tog'ga shunday kiyim bilan kelish mumkinmi, axir. Bolasizlar-da, bola. O'zingizga zeb berasiz, shaharliklardek bo'lay, deysiz. Agar yo'l topa olmay ertalabgacha qolib ketganlaringizda bormi, Xudo ko'rsatmasin... Naq muzlab qolardilaringiz.

– Kim bilsin bunday bo'lishini, – deb javob berdi Qulibek. – Issiq kiyinish nega kerak? Biron narsa bo'lsa ichkarida mashina isitib qo'yadi. Xuddi uyingdagidek o'tirib, barankani aylantiraver. Samolyotdachi, mana bu tog'lar u yerdan tepachalardek ko'ri-nadi – bort tashqarisida qirq daraja sovuq bo'lsa ichkarida odamlar ko'ylakchan yurishaveradi.

Bola po'stinga o'ralib haydovchilar o'rtasida yotardi. U Qulibekning yoniga tiqilib olib kattalarning suhbatini butun vujudi bilan tinglardi. Bir-dan bo'ron ko'tarilib, bu yigitlar ularning uyidan boshpana izlashga majbur qilganidan hatto u xur-sand bo'lganini hech kim xayoliga ham keltirma-di. U bo'ron uzoq kunlar, hech bo'lmaganda uch kun davom etishini ich-ichidan juda istardi. May-li, ular shu yerda yashayversinlar. Ular bilan vaqt o'tkazish qanday yaxshi. Qiziqarli. Bobosi, aftidan, hammasini tanirkан. O'zlarinigina emas, otalari va onalarini ham bilarkan.

– Mana, ko'rdingmi, – bobo nabirasiga hatto biroz g'ururlangandek dedi, – o'z akalariningi, Bug'uboy avlodlarini ko'rding. Ularning kimligini bilib olasan. Qara, qanday ular! Ey, hozirgi yigitlar bo'ychan bo'lib o'sishyapti-da. Xudoyim sizlarni o'z panohida asras-in. Qirq ikkinchi yili qishda bizni Magnitogorskka qurilishga olib kelishgani esimda...

Bobo nabirasiga yaxshi tanish bo'lgan tarixni hikoya qilishga tutinib, ularni mamlakatning turli burchaklaridan chaqirilgan mehnat armiyasi ni bo'yga qarab uzayib ketgan safga tortishganida qirg'izlarning deyarli hammasi past bo'yli bo'lganligi va safning oxiriga tushib qolganligi haqida so'zlab berdi. Yo'qlama o'qib bo'linganidan so'ng papirosh chekishga ruxsat berildi. Sarg'ishdan kelgan davan-girdek bir yigit kelib, baland ovozda:

– Bular qayerdan? Manjurlarmi yo? – dedi. Ular ning orasida keksa o'qituvchi ham bor edi. U shunday javob berdi:

– Biz qirg'izlarmiz. Biz bu yerdan uncha uzoq bo'limgan joyda manjurlar bilan jang qilganimizda Magnitogorskdan nom-nishon ham yo'q edi. Bo'yimiz esa xuddi senikidek edi. Urushni tamomlaganimizdan so'ng yana o'samiz...

Bobo o'sha o'tmish voqeani esga oldi. Jilmayib, qoniqish bilan yana bir bor o'zining tungi mehmonlariga ko'z tashladi.

O'sha o'qituvchi to'g'ri aytgan ekan. Shaharda bo'lGANIMDA yoki ko'chada kelayotib nazar tashlayman: hozirgi avlod ilgarigisiga o'xshamay, bo'ychan va ko'rakam bo'lib yetishmoqda.

Tushungan yigitlar sekin kulib qo'yishdi – chol chaqchaqlashishni yaxshi ko'radi.

– Ha, bo'ychanmiz, bo'ychan, – dedi ulardan biri.  
– Mashinani bo'lsa pastlikka ag'darib yubordik. Shuncha kishi bo'la turib kuchimiz yetmadi...

Xashak yuklangan bo'lsa, buning ustiga yana shunday qor bo'ronida uddasidan chiqib bo'larmidi, – ularni oqlay boshladi Mo'min bobo. – Shunaqasi ham bo'ladi. Xudo xohlasa, ertaga hammasi joyida bo'ladi. Eng muhimi, shamol tinsin.

Yigitlar boboga yuqoridagi, Archayassi tog'idagi pichanlarga mashinada qanday yetib borganlarini gapirib berishdi. U yerda uchta katta pichan g'arami turardi. Uchala g'aramni ham bir yo'la yuklashga kirishdilar. Yuklaganda ham baland qilib, hatto tomdan ham baland qilib yuklashdi. Keyin yuqoridan arqonga osilib tushishga to'g'ri keldi. Shunday qilib, birin-ketin hamma mashinalarga pichan yuklandi. Kabina ko'rinas, faqat old oynalar, kapot va g'ildiraklar ko'rinish turardi. Kelarga kelindimi, yana

ovora bo'lib yurmasdan, hammasini birato'la olib ketishmoqchi bo'lishgandi. Ular hozir olib ketishmassa bu pichanlar kelgusi yilgacha qolib ketishini bilardilar. G'ayrat bilan ishladilar. Kimning mashinasi tayyor bo'lsa, chetga chiqarib qo'yib boshqasiga yuklashga yordamlashar edilar. Ular qariyb hamma xashakni yuklashdi, biroq ikki aravachasi qoldi, xolos. Chekib olishdi, kim kimning ortidan haydashini kelishib olishdi va hammalari tizilib yo'lga tushishdi. Mashinani sekin-asta haydashdi. Qorong'ida tog'dan sirg'anib ketishlariga oz qoldi. Pichan yengil yuk bo'lsa ham olib borish qiyin, ayniqsa, tor joylarda, burum yo'llarda xavfli.

Ular borisharkan, oldinda nima kutayotganini xayollariga ham keltirishmasdi.

Ular Archa tepaligidan tushib, dara bo'ylab ketishardi. Daradan chiqishda esa kechga yaqin bo'ronga duch kelishdi. Qor ura boshlagan edi.

– Shundan boshlab birpasda yelkalar uvib qoldi, – deya hikoya qila boshladi Qulibek. – Birdan qorong'ilik bosib, shunaqangi shamol urib berdiki, naq bo'lmasa qo'lingdan barankani tortib olgudek edi. Ana-mana deguncha mashinani ag'darib yuborayotgandek odamni vahima bosadi. Yana buning ustiga yo'l shunaqa yomon-ki, hatto kunduz kuni ham yurish xavfli.

Bola nafasini ichiga yutib, chaqnoq ko'zlarini Qulibekdan uzmay jimgina tinglardi. Hikoya qilinayotgan o'sha shamol, o'sha qor oyna ortida avjiga chiqmoqda edi. Ko'pchilik haydovchilar va yuk tashuvchilar etiklarini ham yechmay polda yotib uxlashmoqda. Ular nimani boshidan kechirgan bo'lsalar, buni qiltiriq bo'yinli, katta boshli, shal pangqu-loq bu bola ham qayta boshidan kechirdi.

Bir necha daqiqadan so'ng yo'l ko'rinxmay qoldi. Mashinalar chetga chiqib ketmaslik uchun bir-biri-

ning izidan qolmay nuqul signal berardi. Mashina derazalarini va faralarini qor bosdi. «Tozalagichlar» esa oynadagi qorni tozalab ulgura olmasdi. Kabinadan bosh chiqarib haydashga to'g'ri keldi. Biroq bu ahvolda qancha ham yo'l bosish mumkin? Qor bo'lsa zabitiga olib yog'ardi! G'ildiraklar og'irlashib, deyarli joyidan jilmasdi. Kolonna tikka tepalikka yetganda to'xtadi. Motorlar o'kirardi – lekin foydasiz edi... Mashinalar tog'ga chiqqa olmay taqqa to'xtab qoldi. Kabinadan sakrab tushishib, bir-birlari-ga ovoz qilganlaricha bir mashinadan ikkinchisiga chonib o'tishib, kolonna boshida to'planishdi. Nima qilish kerak? Gulxan yoqish mumkin emas. Kabinda o'tirilaversa, qolgan yonilg'i ham yoqib bitiriladi. Usiz ham sovxozgacha arang yetib borish mumkin. Kabina isitilmasa muzlab qolish hech gap emas. Yigitlar nima qilishlarini bilmay dovdirab qolishdi. Hamma narsaga qodir bo'lgan texnika hozir ojiz. Nima qilish kerak? Kimdir mashinalardan biringning xashagini ag'darib, ichiga kirib yotishni taklif qildi. Biroq arqonni bo'shatish bilanoq xashakdan bir tutam ham qolmasligi aniq edi: ko'z ochib-yumguncha bo'ron uchirib ketardi. Bu orada mashinalar qor uyumiga tobora chuqurroq kirib borar, g'ildiraklar ostidagi qor ancha ko'tarilib qolgan edi. Yigitlar o'zlarini butunlay yo'qotib qo'yishdi, izg'irin suyak-suyaklaridan o'tib ketdi.

– Bir mahal esimga tushib qoldi, oqsoqol, – deb hikoya qilardi Qulibek Mo'min boboga. – Biz yo'lda Archadaraga ketayotib mana bu bug'uboy avlodidan bo'lgan ukamizni uchratdik. – U bolani ko'rsatdi va erkalab uning boshini siladi. – Yo'lda chonib yurgan ekan. Men uni to'xtatib salomlashdim. Gaplashdik. To'g'rimi? Nima, hali uxlaganing yo'qmi? Obbo, azamat-e!

Bola jilmayib bosh irg'adi. Uning qalbi quvонч va iftixordan gursillab urayotganini birov bilganda edi. Buni yigitlar ichida eng kuchlisi, eng botiri va eng chiroylisi – Qulibekning o'zi gapirib berdi. Mana shunaqa bolsa kishi.

Bobo ham o'choqqa o'tin tashlarkan, uni maqtab qo'ydi:

– U shunaqa. Gap tinglashni yaxshi ko'radi. Ang-rayib qulq solishini ko'ryapsanmi?

– O'sha daqiqada u qanday esimga tushib qoldi, o'zim ham bilmayman, – davom etdi Qulibek. – Bolalarga deyarli baqirib gapiraman, ovozimni bolsa shamol olib qochadi. Kelinglar, qorovulkxonaga yetib olaylik. Bo'lmasa, nobud bo'lamiz, deyman. Bolalar bolsa qanday yetib boramiz, deb shundoqqina yuzimga kelib qichqirishadi. Piyoda borib bo'lmaydi. Mashinani ham tashlab ketish mumkin emas. Men bo'lsam kelinglar, mashinani itarib dovondan olib o'tamiz, u yog'i qiyalik, deyman. San-Toshgacha yetib borsak bo'lgani, u yog'iga piyoda borish ham mumkin, o'rmonchilarimizning uyi yaqin qoladi, deyman. Bolalar buni ma'qul ko'rishdi. Qani, boshla, deyishdi. Ish shunday bo'lgach... Birinchi mashinadan boshladik: «Usmonali, kabinaga chiq!» Boshqa hammamiz mashina ortidan yelka tirab itara boshladik. Dastlab ish yurishgandek bo'ldi. Keyin darmonsizlanib qoldik. Orqaga chekinish ham mumkin emas. Biz mashinani emas, butun tog'ni yuqoriga ko'tarayotgandek sezardik o'zimizni. Ortigan yuk ham qanaqa deng – pichan g'arami! Faqat kuchimning boricha: «Qani! Qani!» deb baqirorganimni bilaman, lekin ovozimni o'zim ham eshitmayman. Shamol, qor – hech narsani ko'rib bo'lmaydi. Mashina xuddi joni bordek ingrab nola qiladi. Mashina ham, o'zimiz ham so'nggi kuchni sarfladik. Go'yo

yurak yorilib parcha-parcha bo'lib uchib ketadiga-  
ga o'xshaydi. Bosh aylanadi.

– Bay, bay, bay, – achindi Mo'min bobo. – Rosa qiyinalibsiz-da. Shoxdor ona bug'u o'z farzandlarini panohida asrabdi. Falokatdan qutqaribdi. Bo'lmasa, kim bilsin... Eshityapsanmi? – tashqarida hamon bo'ron quturadi, bo'ralab qor yog'yapti.

Bolani uyqu bosa boshladi. U uxlamaslikka harakat qilsa ham, baribir ko'zları yumilib ketaverdi. Uyqu aralash ora-sira chol bilan Qulibekning suhabatini tinglar ekan, bola sodir bo'lgan voqeа bilan tasavvuridagi manzarani aralashtirib yubordi. Go'yo o'zini ham tog'dagi bo'ronga kelgan bu yosh yigitlarning orasida his qildi.

Uning ko'z oldida oppoq qor bilan qoplangan tog' tomon yuqorilab ketgan yo'l gavdalarnardi. Qor bo'roni yuzni achishtiradi, ko'zga qadaladi. Ular tom bo'yи pichan ortilgan ulkan avtomashinani yuqoriga qarab itarishardi. Ular dovon tomon arang ko'tarilishadi. Mashina endi butunlay jilmay qoldi, tisarila boshladi, shunday qo'rqinchli, shunday qorong'i. Shamol etni junjiktiradi. Bola qo'rqqanidan g'ujanak bo'lib oldi, u mashinaning orqaga surilib, yanchib ketishidan cho'chirdi. Biroq shu payt qayoqdandir Shoxdor ona bug'u paydo bo'ldi. U shoxini mashinaga tirab, uni yuqoriga olib chiqishga yordam qildi. «Qani, qani, qani!» – deb qichqira boshladi bola. Mashina sekin-asta siljiy boshladi. Ular dovonga chiqib olishdi, so'ng pastga qarab mashinaning o'zi yurib keta boshladi. Ular shu zaylda ikkinchi mashinani, keyin uchinchisini, xullas, ko'pgina mashinalarni yuqoriga itarib chiqishdi. Har gal ham ularga Shoxdor ona bug'u yordam qildi. Uni hech kim ko'rmasdi. Hech kim u bilan yonma-yon turganini bilmasdi. Bola esa ko'rib, bilib turardi. U har gal ilojsiz qolgan paytda, kuch yetmasdan qo'rqinchli

bo'lib qolgan chog'da Shoxdor ona bug'u chonib kelib shoxi bilan mashinani yuqoriga surib chiqarishga yordam bergenini ko'rdi. «Qani, qani, qani!» – madad berardi bola. Har gal ham u Qulibekning yonida turdi. Keyin Qulibek unga: «Rulga o'tir», – dedi. Bola kabinaga chiqdi. Mashina silkinib guvillardi. Rul bo'lsa uning qo'lida yengilgina, o'z-o'zidan xuddi u yoshligida mashina qilib o'ynagan bochka halqachasi singari aylanardi. Bola xijolatdan aziyat chekardi, rul unga o'yinchoqdek tuyilgandi. Bir mahal mashina yonboshga qarab og'a boshladi. U gumburlab yiqildi va parchalanib ketdi. Bola qattiq yig'lab yubordi. Juda mulzam bo'ldi. Qulibekning ko'ziga qarashga uyalardi.

– Nima bo'ldi, a, senga nima bo'ldi? – Qulibek uni uyg'otdi.

Bola ko'zini ochdi. Ko'rganlarining hammasi tushida ekanligini anglab, quvonib ketdi. Qulibek bo'lsa uni qo'lida ko'tarib, bag'rige bosdi.

– Tush ko'rdingmi? Qo'rqedingmi! Seni qara-yu, yana qahramon emish! – u bolaning shamolda qotib yorilib ketgan lablaridan o'pdi. – Kel, men seni o'rningga yotqizib qo'yay, uplash kerak.

U bolani kigiz solingan polga, uxbab yotishgan haydovchilar o'rtasiga yotqizdi va o'zi ham uning yoniga yotdi. Qulibek bolani o'ziga yaqinroq tortib, po'stinining bari bilan o'rabi qo'ydi.

Ertalab bolani bobo uyg'otdi.

– Tura qol, – sekingina gapirdi chol. – Issiqroq kiyin. Menga yordamlashasan. Tura qol.

Deraza ortida hali tong pardasi ko'tarilganicha yo'q. Uydagilar hali ag'anashib, uxbab yotishardi.

– Ma, kigiz etikni kiyib ol, – dedi Mo'min bobo. Bobodan yangi xashak hidi kelib turardi. Demak, u otlarga xashak solib kelgan. Bola kigiz etikni kiyidi va ular tashqari chiqishdi. Qor binoyigina yoqqan

edi. Shamol ham tinchigandi. Faqat ahyon-ahyonda achchiq yel esib turardi.

- Sovuq! – seskanib tushardi bola.
- Hechqisi yo'q. Havo ochilayotganga o'xshaydi,
- ming'irladi chol. – Buni qara-ya! Birinchisidayoq shunchalik qahriga olmasa. Ha, mayli, falokat yuz bermadi...

Ular qo'yxonaga kirishdi. U yerda Mo'min boboning beshta qo'yи bor edi. Chol qorong'ida ustunni paypaslab tonib chiroqni ildi va yoqdi. Qo'ylar burilib qaradi-da, bir burchakka borib qisildi.

– Buni ushla, meni yoritib turasan, – dedi chol bolaga chiroqni tutqazarkan. – Qora to'qlini so'ymiz. Uy to'la mehmon. Ular turguncha go'sht tayyor bo'lishi kerak.

Bola bobosiga chiroqni tutib turdi. Shamol hali ham tirqishlardan hushtak chalar, havo sovuq, tund edi. Chol avvalo eshik oldiga bir quchoq toza pichan olib kelib tashladi. Bu joyga qora to'qlini yetaklab keldi va uni yiqitib, oyoqlarini bog'lashdan oldin cho'qqayib o'tirgancha xayol surib qoldi.

– Chiroqni qo'y. Sen ham o'tir, – dedi bolaga u. O'zi bo'lsa kaftlarini ochib shivirlay boshladi: – O, avlodning katta onasi, Shoxdor ona bug'u, qora qo'yni sen uchun qurbanlikka, senga so'yayotirman. Xatarli damlarda bolalarimizning omon bo'lishi, avlodimizni oq sut berib boqqaning, saxiy qalbing, onalik mehring uchun bu. Bizni dovonlarda, tosh-qin daryolarda, toyg'oq so'qmoqlarda yolg'iz qo'yma. Bizni o'z yerimizda hech vaqt tashlab ketma, biz sening farzandlaringmiz. Omin!

U fotiha o'qib, qo'lini yuziga tortdi. Bola ham xuddi shunday qildi. So'ng bobo to'qlini yerga ag'darib, uning oyoqlarini bog'ladi va o'zining qadimgi osiyo-cha pichog'ini qinidan chiqardi. Bola esa uni chiroq bilan yoritib turardi.

Nihoyat havo tinchidi. Quyosh chok-chokidan sitilib suzib borayotgan bulutlar orasidan bir-ikki marta cho‘chigandek nigoh tashladi. Tevarak-atrofda bo‘ronli tundan qolgan qing‘ir-qiyshiq qor uyumlari, yanchilgan butalar, qor bosib yoy shakliga kelgan yosh daraxtchalar, qulab yotgan eski daraxtlar. Daryo ortidagi o‘rmon sukut saqlab, jimgina, ma'yuslanib turardi.

Daryoning o‘zi ham pasayib ketganday sohillari qor bilan ko‘pchib, unchalik shovqin solmay g‘amgin oqardi.

Quyosh ham beqaror bo‘lib qolgan edi – goh ko‘rinadi, goh yashirinadi. Biroq hech nima bolani qayg‘uga solib tashvishlantirmasdi. O‘tgan tundagi tashvishlar unutilgan edi. Bo‘ron ham esdan chiqarilgan edi, qor bo‘lsa unga xalal bermas, hatto zavqli edi. U yoqdan bu yoqqa yugurib yurdi, oyoq ostidan qor parchalari otolib chiqardi. Bola shuning uchun ham xursand ediki, uyi to‘la odam edi. Shuning uchun ham quvnoq ediki, yigitlar uyqudan turib, baland ovoz bilan gapirishar, hazillashib kulishardi. U yana shundan xursand ediki, o‘zлari uchun pishirilgan qo‘y go‘shtini ishtaha bilan yeishardi.

Bu orada quyosh ham olislarga musaffo nur tarata boshlagandi. Bulutlar asta-sekin tarqalib, havo ham iliy boshladi. Bemahal yoqqan qor, ayniqsa, yo‘l va so‘qmoqlardagisi tezda erib keta boshladi.

To‘g‘ri, haydovchilar va yuk tashuvchilar ketish uchun hozirlik ko‘rayotganlarida bola biroz haya-jonlandi. Hammalari hovliga chiqishdi, mezbonlar bilan xayrlasharkanlar, uy-joy va non-tuz uchun minnatdorchilik bildirishdi. Ularni Mo‘min bobo bilan Seydahmad otda kuzatib qo‘yishdi. Muzlab qolgan motorlarni isitish uchun chol otga bir bog‘lam o‘tin, Seydahmad esa katta bakda suv ortib olgandi.

Hammalari hovlidan chiqa boshlashdi.

- Ota, men ham boraman, meni ham olib keting,
- deya bola bobosi yoniga chopqillab bordi.

- Ko'ryapsan-ku, men o'tin ortib olganman, Seydahmad bo'lsa bak ortib olgan. Qaysi birimiz olamiz seni. Nima bor senga u yerda? Qorda yurib charchaysan.

Bola xafa bo'ldi. Qovog'i osildi. Shunda Qulibek unga:

- Yur, biz bilan, - dedi va bolani qo'lidan ushlab, oldi, - qaytishda bobong bilan birga kelasan.

Ular Archadaradan qiyalab o'tadigan yo'l tomon ketdilar. Hali xiylagina qor bor edi. Bu baquvvat yigitlar bilan birga-bir qadam tashlab borish oson emasdi. Bola toliqa boshladi.

- Qani, yelkamga o'tir-chi, - taklif qildi Qulibek.

U bolani qo'lida azot ko'tarib, epchillik bilan yelkasiga mindirib oldi va uni xuddi har kuni ko'tarib odatlangandek yurib ketdi.

- Juda evini keltiribsan-ku, Qulibek, - dedi u bilan yonma-yon borayotgan haydovchi.

- Umrim uka va singillarimni ko'tarib o'tgan, - maqtanib qo'ydi Qulibek. - To'ng'ichi edim-da. Biz oilada olti kishi bo'lib, onam ham, otam ham da-lada bo'lishardi. Endi bo'lsa singlim bolalik bo'ldi. Armiyadan qaytdim, uylanmagan edim, ishga ham hali joylashganimcha yo'q edi. Singlim biznikiga kel, sen bolaga yaxshi qaraysan, deydi. Qo'ysang-chi, deyman, bo'ldi, endi o'zimnikini ko'tarib yuraman...

Ular shu zaylda turli-tuman narsalar to'g'risida gapirishib borishdi. Bola Qulibekning baquvvat yelkasida rohat qilib xotirjamgina borardi.

«Mening ham shunday akam bo'saydi, - orzu qilardi bola, - hech kimdan qo'rmasdim. O'razqul Qulibekning oldida bobomga baqirib yoki qo'l tek-

kizib ko'rsin-chi. U O'razqulni darhol tinchitib qo'ygan bolardi».

Pichan ortilgan mashinalar yo'l ayrilishidan ikki kilometr yuqorida turardi. Qor bilan qoplangan bu mashinalar daladagi qishki g'aramlarga o'xshab ko'rinardi. Aftidan, ularni hech kim, hech qayerga qo'zg'ata olmaydigandek.

Mana, gulxanni ham yoqishdi. Suvni isitishdi. Motorni o't oldiruvchi ruchka bilan aylantira boshladilar, motorga jon kirdi, aksirib ishlab ketdi. Shundan keyin ish tezlashib ketdi. Navbatdagi har bir mashina shatakka olib yurgizildi. O't olib qizdirilgan mashina kolonna ortidan borib tizila boshladi.

Hamma yuk mashinalari yurgizilgach, qo'shaloq shatakka olingancha kechasi xandaqqa tushib ketgan mashinani tortib chiqarishdi. Bor odamlarning hammasi uni yo'nga chiqarib olish uchun ko'maklashdi. Bola ham yordamlashdi. U kimnidir: «Sen nega oyoq ostida ivirsib yuribsan, qani qochib qolchi, bu yerdan», deyishini kutib, xavfsirab turdi. Lekin hech kim bunday demadi, uni hech kim quvlamadi. Balki Qilibek unga yordam berishga ruxsat etgani uchun shunday bo'lgandir. U bu yerda hammadan kuchlisi, uni hamma hurmat qiladi.

Haydovchilar yana bir bor xayrlashishdi. Mashinalar qo'zg'aldi. Dastlab asta-sekinlik bilan, keyin tezlashib ketdi. Qorga burkangan tog'lar orasidagi yo'ldan ular karvon bo'lib, tizilishib borardi. Shoxdor ona bug'u farzandlarining farzandlari ketishdi. Ular oldilarida, yo'lda ko'rinmasdan Shoxdor ona bug'u chonib borayotganini bilishmasdi. Bolaning tasavvurida xuddi shunday edi. U shiddat bilan uzun-uzun sakrab, kolonnani olg'a boshlab borardi. Ularni og'ir yo'ldan falokat va baxtsizliklardan qo'riqlardi. Har qanday qulashlardan, har qanday ko'chmalardan,

bo'ron-u tumanlardan va qirg'iz xalqi o'zining ko'ch-manchilik hayotida uzoq asrlar mobaynida boshidan kechirib kelgan har qanday boshqa falokatlardan qo'riqlardi. Mo'min bobo erta tongda qora to'qlini olib kelib unga qurban qilganida Shoxdor ona bug'udan shularni so'ramaganmidi, axir?

Ketishdi. Bola ham xayolan ular bilan birga ketdi. U kabinada Qilibek bilan yonma-yon o'tirib borardi. «Qilibek aka, – dedi bola, – oldinda Shoxdor ona bug'u yugurib boryapti». «Yo'g'-e?» «Rostim. Ana u!»

– Nimani o'ylab qolding, nega serrayib turibsan? – Mo'min bobo uni o'ziga kelishga majbur etdi. – Mingash, uyga ketish kerak. – U otdan engashib, bolaga cho'zildi va uni egarga ko'tarib oldi. – Sovqotding-mi? – dedi chol va po'stini bilan nabirasini yaxshiroq o'rabi qo'ydi.

Bola o'sha kezlarda maktabga qatnamasdi.

Endi esa og'ir uyqudan asta-sekin uyg'onib, tashvish tortib o'ylardi: «Ertaga maktabga qanday boraman? Axir mening tobim qochdi-ku, mazam yo'q...» Keyin u unutdi. Go'yo unga muallima dos-kaga yozgan: «Ot. Ota. Taqa» so'zlarini o'z daftariga ko'chirib yozganday tuyildi. «Ot. Ota. Taqa. Ot. Ota. Taqa». Birinchi sinf o'quvchisi shu so'zlarni yozib butun bir daftarni to'ldirdi. U nihoyat charchadi, ko'zları jimirlashib, juda ham isib ketdi. Ustini ochib tashladi va usti ochiq holda yotib sovqotdi, yana ko'z o'ngida turli narsalar namoyon bo'ldi. Goh u baliq bo'lib muzdek suvda suzardi. Oq kema sari borardi. Lekin unga hech yetolmasdi. Goho qor bo'roniga duch kelardi. Tog' yo'lining tikka tepaligiga kelib pichan ortgan avtomashinalar izg'irinli qor quynida taqqa to'xtab qolardi. Mashinalar xuddi odam ingragani singari ingrashardi. Lekin ular joyidan qo'zg'alishmasdi. Parraklar haddan tashqari tezlik

bilan aylanaver ganidan laxcha cho'g'dek bo'lib ketgan edi. Shoxdor ona bug'u shoxlarini kuzovga tirab pichan ortilgan mashinalarni yuqoriga g'ildiratib chiqarardi. Bola butun kuch-quvvati bilan unga yordamlashardi. Issiq terga botib ketdi. Bir payt beda g'arami bolalar beshigiga aylanib qoldi. Shoxdor ona bug'u bolaga: «Tezroq yuguraylik, beshikni Bekey xola bilan O'razqul amakiga eltib beraylik», – derdi. Ular yugura boshladilar. Bola orqada qolib ketdi. Biroq oldinda – qorong'ilikda beshik qo'ng'iroqchasi tinimsiz jaranglardi. Bola uning ohanrabo jarangi sari chonib borardi.

U ayvonda oyoq sharpasi eshitilib, eshik ochilganda uyg'ondi. Mo'min bobo va kampir biroz tinchlangandek bo'lib qaytib kirishdi. Chet kishilarning qorovulkxonaga kelishi, aftidan, O'razqul bilan Bekey xolaning tinchlanishiga majbur etdi. Balki O'razqul mast-alastlikdan charchab oxiri uxbab qolgandir. Hovlida shovqin-suron, so'kish ovozlari eshitilmasdi.

Yarim tunga borib tog' tepasida oy ko'rindi. U eng baland muzli cho'qqilar tepasida xiragina gardish yasab muallaq turardi. Abadiy muzliklar bilan qoplangan tog' tun qorong'isida notekis qirralari bilan g'amgin yuksalib turardi. Atrofida esa pastki tog' tizmalari, qoyalar, qop-qora va jimjit o'rmonzor osoyishtalik saqlab turardi. Eng quyida esa toshdan-toshga urilib, shovullagancha daryo oqardi.

Derazadan oyning nursiz shu'lasi qiya tushib turardi. U bolaga xalal berayotgandi. Bola ag'darilib, ko'zini qisib oldi. Buvisidan pardani tushirib qo'yishni so'ramoqchi bo'ldi. Lekin aytgisi kelmadi: buvisining bobosidan jahli chiqib turgan edi.

– Ahmoq, – pichirladi u to'shakka kirarkan. – Odamlar bilan yashashni bilmaganingdan so'ng jim tursang bo'lmaydimi. Boshqalarni tinglasang bo'lardi. Sen

uning qo'lidasan-ku. Mayda pul bo'lsa hamki, maosh o'shandan oqib kelib turibdi-ku! Yana har bir oyda. Moyanasiz – sen kimsan? Qarib quyilmagan chol...

Chol javob bermadi. Buvi jim bo'lib qoldi. Keyin kutilmaganda baland ovozda dedi:

– Agar kishini oylikdan mahrum qilishsa, u odam emas, hech kim emas.

Chol yana hech nima demadi.

Bola esa uxlay olmasdi. Boshi og'rir, o'ylari chalkashib ketgandi. Maktab haqida o'ylab tashvishlanardi. U hali biron kun ham o'qishni qoldirma-gan edi, endi ertaga maktabiga – Jilisoyga borolma-sa qanday bo'llishini tasavvur qila olmasdi. Bola, bordi-yu, O'razqul ishdan bobosini haydab yuborsa, u holda buvisi tinchlik bermasligi haqida o'ylardi. Unda ularning ahvoli nima kechadi?

Odamlar nega shunday yashashadi? Nega birovlar qahr-g'azabli, birovlar mo'min-muloyim! Nega baxtli va baxtsizlar bor? Nega shundaylar borki, ulardan hamma cho'chiydi, yana shundaylar borki, ulardan hech kim hayiqmaydi. Nega birovlarning bola-chaqasi bor, birovlar yo'q? Nega ayrim kishilar boshqalarga maosh bermaslikka haddi sig'adi? Ehtimol, eng katta moyana oluvchilar eng yaxshi kishilardir. Mana, bobosi oz oladi, shuning uchun uni hamma ranjitadi. E, boboga ham ko'proq moyana berishlari uchun nima qilish kerak ekan-a? Balki o'shanda O'razqul cholni hurmat qila boshlarmidi.

Bu o'y-xayollardan bolaning boshi battar sirqirab og'ridi. U yana kechga yaqin daryo sohilida ko'rgan bug'ularni esladi. Tunda ularning holi ne kechdiykin? Ular nuqul sovuqda, tog'-toshlarda, qop-qorong'i o'rmonlarda yashaydi. Bu nihoyatda qo'rqinchli-ku. Bo'rilar hujum qilib qolsa nima bo'ladi? Bekey xolaga sehrli beshikni shohida kim olib keladi keyin?

U tashvish aralash uyquga ketdi va uxlayotib Shoxdor ona bug'udan O'razqul va Bekey xolaga qayindan yasalgan beshik olib kelishni yolvorib so'radi: «Ular ham farzand ko'rishsin, ular ham farzand ko'rishsin», deb iltijo qildi. U uzoqdan beshik qo'ng'iroqchasingning ovozini eshitdi. Shoxdor ona bug'u shohida sehrli beshikni ko'tarib olgancha shoshib kelardi...

### **YETTINCHI BOB**

Saharda bola qo'l sharpasidan uyg'ondi. Bobosining qo'llari sovuq, daladan kelgandi. Bola beixtiyor junjikdi.

– Yot, yotaver. – Bobo kuflab qo'llarini isitdi, uning peshanasini siladi, keyin kaftini uning ko'kragiga, qorniga qo'ydi. – Tobing qochgan shekilli, – achindi bobo. – Issig'ing bor. Men, shunchaki yotibsan, deb o'ylabman. Maktab vaqtি ham bo'ldi.

– Men hozir, hozir turaman, – bola boshini ko'tardi, shu payt hamma narsa ko'z o'ngida gir aylanib ketdi va quloqlari guvulladi.

– Turishni xayolingga ham keltirma. – Bobo bolani yotqizdi. – Sen kasalni maktabga kim olib boradi? Qani, tilingni ko'rsat-chi.

Bola o'zinikini ma'qullahsga urinib ko'rdi:

– Muallima urishadi. Darsni qoldirganni juda yomon ko'radi u...

– Urishmaydi. Men o'zim aytaman. Qani bo'l, tilingni ko'rsat.

Bobo diqqat bilan bolaning tili va tomog'ini ko'rdi. Tomir urishini uzoq kuzatdi: bobosining qora mehnatda qotib ketgan qattiq qo'llari bolaning issiq, terga botgan qo'llaridan tomir urishini arang tutib oldi. Chol nimagadir ishonch hosil qildi-da, tinch-lantirgan ohangda dedi:

– Xudo mehribon. Ozgina shamollabsan, xolos. Sovuq o'tgan. Bugun to'shakda yotib tur, uyqung-dan oldin men sening tovoning bilan ko'kragingga issiq dumba yog'i surtib qo'yaman. Terlaysan, Xudo xohlasa ertalabgacha otdek bo'lib ketasan.

Kechagi voqealarni va yana o'zini nimalar kutayotganini eslab, cholni g'am bosdi, nabirasining to'shagida o'tirib xo'rsindi va o'ylab qoldi.

– Xudo podsho, – shivirladi xo'rsinib turib. – Qachon tegdi senga bu kasal? Nega aytmay yurding? Kechqurun chog'i?

– Kechga yaqin. Daryoning sohilida bug'u ko'rganimda. Men siz tomonga chopdim. Shundan keyinsovqotib ketdim.

Chol nima uchundir aybdor ohangda dedi:

– Ha, mayli... Sen yot, men esa boray.

U o'rnidan turdi, lekin bola uni to'xtatib:

– Bobo, o'sha Shoxdor ona bug'uning o'zi-a? Xuddi sutday oppoq ko'zlari mana bunday, xuddi odamga o'xshab qaraydi...

– Tentakkina, – jilmaydi Mo'min chol. – Ha, sen aytgandek bo'la qolsin. Balki u o'sha karomatli ona bug'udir, – dedi u past ovoz bilan, – kim bilsin? Men o'ylaymanki...

Chol gapini tugata olmadi. Eshik oldida kampir paydo bo'ldi. U hovlidan shoshilib kirdi, nimanidir payqagan edi.

– Huv anuv yoqqa bor, chol, – ostonadan turib gapirdi kampir. Mo'min bobo shu zahoti birdan qalbi cho'kib, biron yeri lat yegandek, achinarli bir holga tushib qoldi.

– U yoqda odamlar yog'ochni daryodan mashina bilan chiqarmoqchi bo'lisyapti, – dedi kampir. – Sen albatta bor, nima buyurishsa qil... Voh, esim qursin, sut hali pishirilgani yo'q-ku, – kampir xa-

tosini payqadi-da, plitaga o't yoqib, idish-tovoqni taraqlatishga tutindi.

Cholning qovog'i osildi. Unga qandaydir e'tiroz bildirgisi, nimanidir aytgisi kelardi. Lekin kampir og'iz ochirgani qo'ymadni.

– Nimaga turib qolding? – g'azabga mindi kampir.  
– Nimaga o'jarlik qilyapsan? Sen bilan menga kim qo'yibdi o'jarlikni, boshimga bitgan balo bo'lding-ku. Ularga qarshi turishga qanday holing bor? Ana, O'razqulning oldiga qanaqa odamlar kelishdi. Mashinalariyam antiqa. Ortsanglar bo'ldi, o'nta yog'ochni tog'ma-tog' olib keta oladi. O'razqul esa bizga qijo boqmay qo'ydi. Men uni ko'ndirish uchun qanchalik harakat qilmadim, qanchalik o'zimni yerga urmadim. Qizingni ostonaga yo'latmadi. Pushtsiz qizing Seydahmadnikida o'tiribdi. Ko'zlar shishib ketgan. U ham seni miyasi achigan chol deb qarg'ayapti...

– Yetar endi, – chol chiday olmadi va eshikka yo'l olarkan, dedi: – qaynoq sut ber, bolagina kasal bo'lib qolibdi.

– Beraman, qaynoq sut beraman, bor, bora qol, Xudo xayringni bersin. – U cholni kuzatgandan keyin ham hamon javrardi: – Nimaga bunday qiliq chiqarib qoldi? Hech qachon, hech kimga gap qaytarmasdi, mo'min-qobil, xokisor edi, mana endi bo'lsa... Tag'in O'razqulning otiga minibdi-ya, yana chopganiga kuyaymi. Buning hammasi sening kassinga, – u bola tomonga o'qrayib qaradi. – Kim uchun baloga giriftor bo'lyapti o'zi...

Keyin bolaga u jizg'irilgan yog' bilan qaynoq sut olib keldi. Sut bolaning labini kuydirdi. Kampir esa uni zo'rlar, majbur qilardi:

– Ich, issiqroq ich, qo'rhma. Shamollashni faqat issiq bilan haydaysan.

Bola kuyib borar, ko'zlariga yosh qalqib chiqqandi. Kampir ham birdan shafqatliroq bo'lib qoldi:

– Xo‘p, sovut, ozroq sovutgin... Menga endi shu yetmay turgan edi, kasalingni shunday paytga to‘g‘ri kelganini qara! – xo‘rsindi u.

Bolaning qachondan beri siygisi qistardi. U o‘rnidan turib butun badanida allaqanday g‘ayritabiyy, shirin horg‘inlik sezdi. Biroq kampir buni payqagan edi:

- Nima, yozilmoqchimisan?
- Ha, – tan oldi bola.
- To‘xtab tur, hozir.

Kampir uyga tog‘ora olib keldi.

Bola o‘ng‘aysizlanib teskari o‘girilib jomga choppirdi, siydigining bunday sariq va qaynoqligiga ajablanardi.

Endi u o‘zini ancha yaxshi his qildi. Boshining og‘rig‘i ham kamaydi. Bola to‘sakda tinchgina yotar, buvisining xizmatidan minnatdor bo‘lib turib, xayoldan o‘tkazdi: ertaga ertalab sog‘ayib, al-batta, maktabga borishi kerak. U yana maktabida yaqinda o‘zlarining o‘rmonida paydo bo‘lgan uch bug‘u haqida qanday qilib hikoya qilib berishigacha o‘ylab qo‘ydi, ya’ni bug‘ularning oq urg‘ochisi – bu o‘sha Shoxdor ona bug‘u, uning kattagina va baquvvat bolasi ham bor, ular bilan ulkan shoxli bahaybat qo‘ng‘ir bug‘u ham birga, u juda kuchli bo‘lib, Shoxdor ona bug‘u va uning bolalarini bo‘rilardan qo‘riqlaydi. U yana shular bilan birga, agar bug‘ular shu yerda qolib, hech qayoqqa ketib qolmasa, unda Shoxdor ona bug‘u tezda O‘razqul amaki bilan Bekey xolaga sehrli beshik keltirib berishini ham hikoya qilishni ko‘ngliga tugib qo‘ygan edi.

Bug'ular esa ertalab suv ichgani tushdi. Qisqa kuz quyoshi tog' tizmalarining yarmiga ko'tarilganda ular yuqoridagi o'rmongan chiqib keldi. Quyosh ko'tarilgan sari, pastda tog'lar orasi shuncha yorug' va iliq bo'lib borardi. Tungi g'avg'odan so'ng o'rmon jonlangan, nur va bo'yoqlar jilva qilar edi.

Bug'ular daraxtlar orasidan o'tib, oftobro'y yalangliklarda isinib, shabnamli barglarni butog'i bilan chimdib shoshmay kelardi. Ular o'sha tartibda – oldinda erkak bug'u, o'rtada bug'ucha va oxirida – ikki biqini do'ppaygan Shoxdor ona bug'u. Bug'ular kecha O'razqul Mo'min bobo bilan la'nati qarag'ay yog'ochni daryoga olib tushgan o'sha so'qmoqdan kelishardi. Sudrash natijasida chimzor yuzasida qoldirgan bir tekisdagi taram-taram izlar tog'li qora tuproqda hali ham boyagi-boyagidek turardi. Bu so'qmoq kechuvga, yog'och tashlab ketilgan joyga olib borardi.

Bug'ular bu yer suv ichishga o'ng'ay bo'lgani uchun shu joyga yo'l soldi. O'razqul, Seydahmad va yog'ochga kelgan ikki kishi tros bilan daryodan yog'ochni sudrab chiqish uchun mashinani qulayroq joyga haydab kelishni ko'zdan kechirish uchun shu tomonga kelishardi. Mo'min bobo boshini quyi solib, imirsilab orqaroqda kelardi. U kechagi janjaldan so'ng nima bo'lishini, o'zini qanday tutishini, nima qilishini bilmasdi. O'razqul uni ishga qo'yadimi? Kechagidek haydab solmasmikin? Agar: «Senga nima bor bu yerda? Aytdim-ku, sen ishdan bo'shatilgansan!» desa-chi. Odamlar oldida so'kib, uyga jo'natib yuborsa-chi? Shuhbalar cholni izardobga solar, u azobda, arang jon hovuchlab borardi. Orqadan kampir kuzatib kelardi. U go'yo shunchaki qiziqsinayotgandek edi. Biroq aslida u cholga soqchilik qilib

borardi. Mo'min chaqqonni O'razqul bilan yarashtirishga, O'razqulning kechirishiga muyassar bo'lishi kerak edi.

O'razqul xo'jayinchasiga gerdayib odimlardi. Hansirab, pishillab atrofga o'qrayib nazar tashlardi. Ko'p ichganidan boshi zirqirab og'rib tursa ham, u o'zida qasoskorona qoniqish sezardi. U qayrilib qaraganida Mo'min boboning g'izillab kelayotganini ko'rди, xuddi egasidan kaltak yegan sadoqatli itning o'zginasi. «Hechqisi yo'q, hali mening sovunimga kir yuvmabsan. Endi senga qiyo ham boqmayman. Sen men uchun yo'qsan. Sen hali o'zing oyog'imga bosh urib kelasan, – ichi qoralik bilan quvondi O'razqul. O'tgan kecha xotinini tenib ostonadan haydab chiqarganida xotini oyog'i ostida qanday dahshatli ovoz bilan chinqirganini eslarkan. – Mayli. Mana bularni yog'och bilan jo'natay, men hali ularning kunini ko'rsataman, mayli, menga desa bir-biri bilan g'ajishib o'lishsin. Endi qizi otasining ko'zini o'yadi. Vahshiylashib ketgan naq bo'ri-ya», – O'razqul kelgan kishi bilan oraliq masofada gaplasha bora turib, yo'l-yo'lakay shularni xayoldan o'tkazdi.

Bu odamni Ko'katoy deb atashardi. U qop-qora, baquvvat kishi bo'lib, ko'l bo'yidan edi, kolxozda hisobchilik qilardi. O'razqulning eski qadrdoni edi. Bundan o'n ikki yil avval Ko'katoy o'ziga uy qurgandi. O'razqul yog'ochdan yordam qildi. Taxta tildirishi uchun yo'g'on yog'ochlarni arzonga sotdi. Keyin bu odam katta o'g'lini uylantirdi, yoshlarga ham uy qurdi. Yana O'razqul uni yog'och bilan ta'minladi. Endi Ko'katoy kichik o'g'lini ayirgandi va yana qurilish uchun yog'ochga muhtoj bo'lib qoldi. Yana eski oshna – O'razqul kuniga yaradi. Hayot qanchalik og'ir-a. Birini qilasan – shu bilan, ha, endi tinch yashayman, deb o'ylaysan. Hayot esa yana nimanidir o'ylab chiqaradi. Shuning uchun ham

O'razqulga o'xshagan odamlarsiz qo'ling hech qayoqqa yetmaydi.

– Xudo xohlasa, tezda uy to'yiga taklif qilamiz. Boring, xursandchilik qilamiz, – dedi Ko'katoy O'razqulga.

U o'z-o'zidan mag'rurlanib, pishillagancha, papirosochi burqsitardi.

– Rahmat. Aytilgan joydan qolmaymiz, aytmagan joyga bormaymiz. Chaqirsang, boraman-da. Senikida birinchi mehmon bo'lishim emas. Men hozir sen kech bo'lishini kutsang qalay bo'larkin, deb o'layapman, qorong'ida jo'nasang deyman-da! Eng muhimi, sovxozi ichidan bilintirmay o'tib ketish. Agar sezib qolishsa, ish chatoq...

– Bu-ku to'g'ri-ya, – ikkilandi Ko'katoy. – Biroq kechgacha ancha kutish kerak-da. Sekin ketaveramiz. Yo'l yoqasida postlar yo'q-ku, bizni tekshirib ko'rsa?.. Favqulodda militsiyaga duch kelib qolinsa yoki yana boshqa birortasiga...

– Ha-ha, bunisi ham bor, – to'ng'illadi O'razqul, jig'ildon qaynashidan va bosh og'rig'idan aftini bujmaytirib. – Yuz yil ish bilan qatnaysan, yo'lda bitta ham itga duch kelmaysan, agar yuz yilda bir marta yog'och ortib o'tsang bas, qo'lga tushasan. Hamisha shunday bo'ladi...

Har kim o'zicha o'ylab, jim qoldi. Kecha yog'ochni daryoga tashlab ketishga to'g'ri kelgani O'razqulga qattiq alam qildi. Agar yog'och tayyor bo'lganidami, tundayoq ortib bo'lishardi-da, tong saharda mashinnani jo'natib yuborardi... Eh, kecha falokatni soitib oldi-ya. Buning hammasi qari jinni Mo'minning kasriga bo'ldi, g'alayon ko'tarmoqqa qaror qildi. Qaramlikdan, bo'ysunishdan qutulmoqchi bo'ldi. Xo'p, ko'ramiz! Hammasi ham mayli-ya, ammo bu niyattinga osonlikcha erisha olmaysan...

Odamlar daryoning qarama-qarshi qirg'og'iga kelishganda bug'ular suv ichardi. G'alati zot bu odamlar – hovliqma, g'ala-g'ovurli. O'z ishlari va suhbatlari bilan band bo'lib, qarshilarida – daryoning nariqi yog'ida turgan jonivorlarni sezishmadi.

Bug'ular daryo bo'yidagi ertalabki shafaq rangli butalar orasida, top-toza mayda shag'alli qirg'oqda to'piqqacha suvgaga botib turardi. Ular shoshmasdan, to'xtab-to'xtab qultum-qultum suv ichardi. Suv muzdek edi. Quyosh esa tepadan tobora yoqimli qizitardi. Tashnalikni qondirib, bug'ular oftobdan huzur qilardi. Yo'lda shox-butoqlardan to'kilgan quyuq shabnam yelkalarida qurirdi. Bug'ular yelkasida yengil hovur ko'tariladi. Osoyishta va saxyi edi shu kun ertasi.

Odamlar esa shunda ham bug'ularni sezishmadi. Ulardan biri mashinaga qaytdi, boshqalari esa qirg'oqda qolishdi. Bug'ular qulqlarini qimirlatib, ahyon-ahyon ulargacha yetib kelgan ovozlarni hushyor tinglab turdi va qirg'oqning u yuzida pritsepli avtomashina paydo bo'lganida etlari junjikib, qotib qolishdi. Mashina guvillab hayqirardi. Bug'ular bezovtalanib ketishga chog'landi. Lekin mashina birdan to'xtab qoldi, guvullash ham bosildi. Jonivorlar sekinladi. Har holda ular sekin-sekin joylaridan qo'zg'alaverdi – odamlar narigi qirg'oqda baqirishib gaplashishar va shoshilinch ravishda harakat qilishardi.

Bug'ular mayda toshloqdagi so'qmoqchadan sekingina jo'nashdi, ularning yelkalari, shoxlari va harakatlari ham butalar orasidan ko'rinish turardi. Odamlar shunda ham ularni payqashmadi. Faqatgina bug'ular ochiq yalanglikdagi sel yuvib ketgan quruq qumni kesib o'tayotganida, binafsha rang qum ustida, oftobning ravshan nurida, odamlar ularni ko'rib turli holatda og'iz ochgancha angrayib qolishdi.

- Qara, qara, nima u! – birinchi bo'lib qichqirdi Seydahmad. – Bug'ular! Qayoqdan kelib qoldi bu yerga?
- Nega qichqirasan, nega to'polon ko'tarasan? Qanaqasiga senga bug'u bo'ladi, kiyik-ku ular. Biz ularni kecha ham ko'rgan edik, – beparvo gapirdi O'razqul. – Qayoqdan keldi emish. Keldi-da, keladigan bo'lib qoldi.
- Bay, bay, bay! – zavqlanib ketdi Ko'katoy va zavqidan tomog'ini bo'g'ib turgan ko'ylak yoqasining tugmalarini bo'shatdi. – Silliqligini qarang-a, – dedi u maftun bo'lib, – semiribdi...
- Urg'ochisini qarang, qanaqa! Qadam tashlashini ko'ring, – dedi haydovchi ko'zlarini chaqchaytirib. – Voh Xudo, ikki yoshli urg'ochi bolasi. Birinchi marta ko'rishim.
- Erkagi-chi! Shoxlarini ko'r! Qanday ko'tarib yurganikin? Ular hech nimadan qo'rqishmaydi. Qayoqdan kelib qoldi bular, O'razqul? – To'ng'iz ko'zlarini chaqnatib, nafs balosida surishtirishga tushdi Ko'katoy.
- O'rmondan chog'i, – javob qildi O'razqul viqor bilan, egalik obro'sini his qilgan holda. – Dovonning orqasidan kelgan, narigi tomondan. Cho'chimaydi. Chunki hurkitilmagan.
- Eh, miltiq bo'lgandami hozir! – og'ziga kelganini gapirdi Seydahmad. – O'n pud go'sht qilarmidi, a?
- Shu damgacha qo'rqib-pisib bir chekkada turgan Mo'minning sabri chidamadi:
- Nima deyapsan, Seydahmad? Ularni ovlash taqiqlangan, – dedi sekkingina.
- O'razqul qosh-qovog'ini uyib, cholga ko'z qirini tashlab qo'ydi. «Mening oldimda ovozingni chiqaryapsanmi!» – nafrat bilan xayoldan o'tkazdi u. Uni so'kkisi va bir urib o'dirib qo'ya qolgisi keldi, lekin c'zini tiydi. Har holda begona odamlar bor.

– Befoyda o'rgatishning keragi yo'q, – jahl bilan so'z qotdi u Mo'minga qaramay. – Ular yashaydigan joyda ovlash taqiqlangan. Bizda esa ular yashamaydi. Biz bo'lsak ular uchun javob bermaymiz. Tushunarlimi? – U o'zini yo'qotib qo'ygan cholga vajohat bilan qaradi.

– Tushunarli, – itoatkorona javob qildi Mo'min va bosh eggancha chetga chiqdi. Kampir yana yashirinchcha uning qo'liga turtdi.

– Jim bo'sang-chi, – ta'na bilan shivirladi u. Hamma qandaydir xijolatda qolganday yerga qarab turardi.

Yana so'qmoq orqali jo'nab ketayotgan jonivorlar orqasidan kuzatishga tushishdi. Bug'ular qoyaga ketma-ket ko'tarilib borardi. Oldinda qo'ng'ir erkak bug'u o'zining qudratli shoxlarini mag'rur tutib borar, uning orqasidan shoxsiz bug'ucha va bu namoyishga ergashib Shoxdor ona bug'u borardi. Qirdan siljib tushgan tuproqning tiniq qo'ynida bug'ular ravshan va latif ko'zga tashlanardi. Ularning har bir harakati, har bir qadami yaqqol ko'rinish turardi.

– Eh, qanday go'zallik! – shodligini ichiga sig'dira olmadi haydovchi. Bu soqqako'z yosh yigit ko'rinishdan juda yosh edi. – Afsus, fotoapparatni olvolganimda zo'r ish bo'lardi-ya.

– Xo'p, mayli, go'zalligini qo'ya tur, – uning so'zini bo'ldi norozilik bilan O'razqul. – Hech narsaga arzimaydi. Go'zallikka qorning to'yarmidi. Qani, bo'l, mashinnani orqasi bilan qirg'oqqa hayda, to'g'ri suvga, yoni bilan albatta. Sen esa Seydahmad, oyog'ingni yech, – o'z hukmidan ichida lazzatlanardi u. – Sen ham, – haydovchiga buyruq qildi u. – Bo'linglar, yog'ochni trosga bog'langlar. Qani, ildamroq. Hali ish ko'p.

Seydahmad etikni yechishga tutindi. Etigi unga kichikroq edi.

– Nimaga qarab turibsan, yordamlash unga, – cholni sekingina turtib qo‘ydi kampir. – O‘zing ham yech eticingni, suvga tush, – g‘azabli pichirladi u.

Mo‘min bobo Seydahmadning etigini tortdi, o‘zinikini ham bir zumda yechib bo‘ldi. Shu paytda O‘razqul bilan Ko‘katoy mashinaga buyruq berishardi:

- Bu yoqqa hayda, u yoqqa hayda.
- Chapga, ozroq chapga. Mana shunday.
- Yana ozgina.

Mashinaning ko‘nikilmagan hayqirig‘ini eshitib, bug‘ular so‘qmoqda qadamini tezlatdi. Olazarak nazar tashlab, jarlikdan sakrab o‘tdi va qarag‘aylar orasiga yashirindi.

– O, g‘oyib bo‘ldi! – xatosini birdan anglab qoldi Ko‘katoy. U shunday afsus bilan entikardiki, xuddi qo‘lidagi o‘ljasidan ayrilganday edi.

– Hechqisi yo‘q, hech qayoqqa ketmaydi ular! – uning xayolidagini tonib va bundan xursand bo‘lib O‘razqul kerilib qo‘ydi. – Bugun kechgacha jo‘namaysan, mening mehmonim bo‘lasan. Xudoning o‘zi kam qilmasin. Izzat-hurmat bilan men seni mehmon qila man. – U xaxolab turib oshnasining yelkasiga urib qo‘ydi. O‘razqul xushchaqchaq ham bo‘la olardi.

– Xo‘p, sen aytgancha bo‘la qolsin, sen mezbon, men mehmon, – ko‘na qoldi azamat Ko‘katoy, iljarkan yo‘g‘on sariq tishlarini ko‘rsatib.

Mashina allaqachon orqa g‘ildiraklarining yarmigacha suvga botib qirg‘oqda turardi. Chuqurroq kirib borishga haydovchining yuragi dov berma di. Endi trosni yog‘ochga olib borish qolgan edi. Agar tros kaltalik qilmasa, yog‘ochni suv ostidagi toshlarning asirligidan tortib olish unchalik qiyinchilik tug‘dirmasdi.

Tros po‘latdan – uzun va og‘ir. Uni suv ichidan yog‘ochga tortib borish kerak. Haydovchi istamay-

gina etigini yechash boshladidi, cho'chinqirab suvga qarab qo'ydi. U hali qat'iy qarorga kelolganicha yo'q: suvga etik bilan tushishga arzirmikin yoki yaxshisi yechsamikin. «Yalangoyoq bo'lganim ma'qul shekilli, – o'yladi u. – Baribir suv qo'njimdan oshib keta-di. Chuqurligi salkam songa keladi. Keyin kun bo'yi ho'l etikda yurish osonmi». Lekin u shu bilan birga hozir daryoda suv qanchalik sovuq bo'lishini ham o'zicha tasavvur qildi. Bu holdan Mo'min bobo foy-dalanib qoldi.

- Sen yechinma, o'g'lim, – otilib keldi uning oldi-ga.
- Biz Seydahmad bilan o'zimiz tushamiz.
- E, qo'yavering, arzimaydi, oqsoqol, – qarshilik qildi uyalib ketgan haydovchi.
- Sen mehmongan, biz shu yerning odamimiz, sen rulga o'tir, – ko'ndirdi Mo'min bobo uni.

Seydahmad bilan ikki kishi po'lat trosni o'ram-dan bo'shatib suvning ichiga ko'tarib kirishganda Seydahmad dodlab, boloxonali qilib so'kindi:

- Uh, uh, suv emas, muz!

O'razqul bilan Ko'katoy muruvvatli kulishib, uni g'ayratlantirishdi:

- Chida, chida! Seni isitadigan narsa topamiz!

Mo'min bobo esa churq etmasdi. U hatto muzday sovuqni sezmadidi. Ko'zga ko'p tashlanmaslik uchun boshini yelkalari ichiga tortib, sirg'an-chiq suv osti toshlari ustidan yalangoyoq borarkan, Xudodan yolg'iz bir nimani so'rardi – ishqilib, O'razqul uni qaytarmasin, ishqilib, quvib yubormasin, ishqilib, odamlar oldida haqorat qilmasin, bu ahmoq baxti qaro cholni kechirsin.

O'razqul hech nima demadi. U Mo'minni odam o'rnida ko'rmaganidan go'yo uning g'ayratiga ham e'tibor qilmaganday edi. Qalbida esa tantanavor his sezar, axir qanday bo'lmasin isyonkor cholni

bo'ysundirdi-ku. Qandaydir ichi qoralik bilan kuldil O'razqul o'zicha. – Emaklab, oyog'imga yiqilding-ku, eh, kattaroq amaldor bo'lganimdami, bundan ham kattaroqlarning shoxini qayirib qo'yardim. Shunaqalarni tiz cho'ktirib, tuproqda emaklattirib qo'ymasmidim. Menga hech bo'lmasa kolxoznimi yoki sovxoznimi berishsa ekan. Tartibga solib qo'ygan bo'lardim. Odamlarni izdan chiqarib yuborishdi. Endi esa o'zlari voh, raisni hurmat qilishmayotir, direktorni hurmat qilishmayotir, deb shikoyat qili-shadi. Qandaydir cho'pon ham boshliq bilan xuddi tengdek gaplashadi. Sadqayi amal ket, ahmoqlar! Ular bilan shunaqa muomala qilib o'tirish kerakmi? Zamonlar bo'lgan-ku, axir, boshlar uchib ketgan, hech kim churq etmagan. Aksincha, ko'proq yaxshi ko'rishgan, ko'proq kuylashgan. Mana bu xo'p zamon bo'lgan-da! Endi-chi? Yaramaslarning eng yaramasi hisoblangan mana shu chol ham dabdu-rustdan gap qaytarishni o'ylab topdi. «Xo'sh, xo'sh, emakla oyog'im ostida, emakla», – badxohlik bilan kuldil O'razqul, har zamon har zamonda Mo'min chol tomonga qarab qo'yarkan.

U esa muzday suvda xayolga cho'mib, tomirlari tortishib, Seydahmad bilan birga trosni ko'tarib borarkan, O'razqul meni kechirgan ko'rindi, deb mamnun bo'lardi. «Sen endi men qari cholni kechir, shunday bo'lib chiqqani uchun, – xayolan O'razqulga murojaat qilardi u. – Kecha chiday olmadim. Maktabga nabiram oldiga ot choptirib ketdim. Axir u yolg'iz, mana shuning uchun ham iching achiydi-da. Mana bugun esa u maktabga ham bormadi. Tobi qo-chibdi nimagadir. Esingdan chiqar, kechirgin. Axir sen ham menga begona emassan-ku. O'ylaysanki, men senga va qizimga baxtni ravo ko'rmaymanmi? Xudo bersa qani, nabiramning ingalaganini eshit-

sam – Xudo ursin, baxtimdan ko'zimga yosh kelardi. Faqat sen xafa qilma qizimni, kechir meni. Agar ishlash bo'lsa, toki tanimda jonim bor ekan, ishlaganim bo'lsin. Hamma ishni qilaman. Sen faqat buyursang, bas...»

Kampir qirg'oqning bir burchida tikka turib, o'zining imo-ishoralari va butun harakatlari bilan cholga: «Harakat qilgin, chol! Ko'rdingmi, u seni kechirdi. Mening aytganimni qilaver, hammasi joyiga tushadi», – derdi.

\* \* \*

Bola uxlardi. U bir martagina allaqayerdanadir otilgan miltiq ovozidan uyg'onib ketdi va yana uyquga cho'mdi. Kechagi mashaqqatli uyqusizlik va bemorlikdan so'ng bugun u birmuncha tinch va miriqib uxladi. U uyquda ekan, isitma aralash badan qaqshog'i azobini tortmay, oyoqlarini erkin uzatib to'shakda yotib dam olishning naqadar rohat ekanligini his etdi. Agar buvisi bilan Bekey xola bo'limganda u shu uxlagancha uxbab yotaverardi. Ular ovoz chiqarmay gaplashishga harakat qilissa-da idish-tovoqlarning shaqir-shuquridan bola uyg'onib ketdi.

– Mana bu katta kosani ushlagin-da, ovqat olgin, – deb jonlanib gapirdi kampir narigi xonada. – Men esa chelak bilan elakni olib kelay. Voy belim, madorim qurib ketyapti. Oz muncha ish qildikmi? Xudoga shukr, juda xursandman.

– Eh, buvijon, nimasini aytasiz, men ham shunchalik xursandmanki, kecha shundayam jonimdan to'yib ketgandim. Agar Guljamol bo'limganda o'zimi o'zim o'ldirardim, – dedi Bekey.

– U haqda uni-buni deb yurasan yana, – tinchitib qo'ydi kampir. – Qalampirni oldingmi? Ketdik. Se-

ning tinchishing uchun Xudoning o'zi yordam qo'lini cho'zdi. Ketdik, ketdik.

Uydan chiqayotib bo'sag'ada Bekey xola kampir-dan bola to'g'risida so'radi:

– U hamon uxlayaptimi?

– Mayli, uxbab tura qolsin, – javob berdi kampir.

Sho'rv'a tayyor bo'lganda issiqliqna keltirib beramiz.

Bola ortiq uxlay olmadi. Hovlidan oyoq tovushlari va odamlarning gaplashgani eshitilib turardi. Bekey xola kulib yubordi, Guljamol va kampir ham unga qo'shilib kuldi. Qandaydir notanish ovozlar qulogqa chalindi. «Ha, bular, hoynahoy kecha oqshom kel-gan odamlar, – deb o'yładi bola. – Demak, ular hali ketishmabdi-da». Faqat bobosi Mo'mingina ko'rinnamasdi, ovozi ham eshitilmasdi. U qayoqda ekan? Nima qilyapti ekan?

Bola tashqaridagi ovozlarga qulog solib, bobosini kutib yotdi. U bobosi bilan kechagi ko'rgan bug'u haqida juda gaplashgisi kelardi. Hademay qish kiradi. Ular uchun ham o'rmonda ko'proq yem-xa-shak hozirlash kerak. Yeb yayrasin. Ularni shunday o'rgatish kerakki, odamlardan hech qo'rqligining, to'ppa-to'g'ri daryodan o'tib hovliga kelaveradi-gan bo'lsin. Bu yerda ham ularga shunday xo'rak berish kerakki, ular uchun bu juda tansiq bo'lsin. Qiziq, ular hammadan ko'ra nimani yaxshi ko'rishar ekan-a? Urg'ochi bug'u bolasini o'rgatib olsang-da, u doim orqangdan qolmay ergashib yursa. Qanday ajoyib bo'lardi. Sen bilan maktabga ham birga borib kelgan bo'larmidi?..

Bola bobosini kutardi, lekin undan darak yo'q. Bir vaqt Seydahmad kelib qoldi. U nimadandir juda mammun. Og'zi qulog'ida edi. Seydahmad kallasini chayqab o'z-o'zicha iljayardi. U yaqinroq kelganda dimog'idan spirt hidi anqib ketdi. Bola O'razqul-

ning o'zboshimchaliklarini, bobosi va Bekey xolanning azob chekishlarini eslatuvchi bu badbo'y hidni juda yomon ko'rardi. Lekin Seydahmad ichganda aqliy jihatdan uncha hushyor bo'lmasa ham, juda saxiy, muloyim va kishi qalbiga ozor bermaydigan hazil-mutoyibalari bilan O'razquldan farq qilardi. Bunday vaqtarda u bilan bobosi Mo'min o'tasida taxminan shunday suhbat ketardi.

– Nega buncha tentaklarga o'xshab kulasan, Seydahmad? Kayfing taraqmi deyman?

– Oqsoqol, men sizni shunday sevamanki. Rostini aytsam, xuddi o'z otamdek.

– E-ye, seni qara-yu, sening yoshingda... Boshqalar mashina haydar yuribdi. Sen bo'sang gapingni uddalab gapira olmaysan. Agar men sening yoshingda bo'lganimdam, hech bo'limganda traktor haydag'an bolardim.

– Oqsoqol, menga armiyada komandirimiz bu ishga layoqatsizligimni aytgan edi. Biroq piyodalar safida xizmat qildim. Piyoda askarsiz ish bitmaydi-ku, axir...

– Piyoda askar emish! Piyoda askar emas, ishyoqmassan. Xotining bo'lsa... Xudo ham tengiga qo'shmas ekan. Senga o'xshaganning yuztasi bitta Guljamolga arzimaydi.

– Shuning uchun ham biz er va xotin bu yerda yuribmiz-da, oqsoqol.

– Ha seni gapga qo'ysa... Ho'kizday kuching bor, aql esa... – Umidsiz qo'l siltab qo'ydi Mo'min bobo.

– Mu-u-u, – deb ma'raganday kulib qo'ydi Seydahmad.

Shundan keyin u hovlining o'tasida turib olib o'zining allaqanday eshitib olgan g'alati ashulasini kuylay boshladidi:

*Sariq-sariq tog'lardan  
Sariq otda men keldim.*

*Och eshiging, ey sariq savdogar,  
Biz ichamiz sariq vinodan.  
Qo'ng'ir-qo'ng'ir tog'lardan.  
Qo'ng'ir otda men keldim.  
Och eshiging ey qo'ng'ir savdogar,  
Biz ichamiz qo'ng'ir vinodan...*

Shu tarzda davom etib ketaverardi, chunki u ba'zan tog'dan tuyada kelgan bo'lsa, ba'zan xo'rozda sichqonda, toshbaqada, xullas, nimayiki jonivor bo'lsa, o'shalarda kelaverardi. Mast Seydahmad bolaga hushyorligiga qaraganda yoqimliroq ko'ri-nayotgandek edi. Shuning uchun ham Seydahmad shirakayf bo'lib kelganda bola ochiq ko'ngillik bilan iljayib qo'yardi.

– E-ha! – xitob qildi Seydahmad ajablanib. – Seni kasal deyishgan edi-ku. Ha, sen umuman kasal bo'lmayсан. Sen hovlida nega o'ynamay qolding? Bunaqasi ketmaydi. – Seydahmad bolaning to'shagi-ga ag'anab yotdi. Uning qo'llaridan va ust-boshidan spirt va yangi so'yilgan xom go'shtning hidi anqib turardi. U bolani quchoqlab o'pa boshladi. Uning o'sib ketgan dag'al soqoli bolaning yuzlarini timdalab achitardi.

Bo'ldi endi, Seydahmad amaki. – Iltimos qildi bola. – Bobom qani, ko'rmadingizmi?

– Bobong anavi yoqda, – Seydahmad qo'lini havoda noaniq aylantirdi. – Biz mana shu... Yog'ochni suvdan olib chiqdik. Va biroz isib olish uchun ichdik. Hozir esa u go'sht pishirayotir. Tur o'rningdan. Kiyimlaringni kiy, birga ketamiz. Bu nimasi! Yaxshi emas. Biz hammamiz u yerda bo'lsag-u, sen bu yerda yolg'iz yotsang.

– Bobom turmagin, degan, – dedi bola.  
– Qo'ysang-chi bo'lмаган gapni. Yur, tomosha qilamiz. Bu har doim bo'lavermaydi-ku. Butun kat-

ta ziyofat. Qozon ham moy, cho'mich ham moy! Tura qol, – Seydahmad mastlarga xos qo'pollik bilan boli ni kiyinishga majbur etdi.

– Men o'zim, – deb e'tiroz bildirdi boshi aylana-yotganini his etayotgan bola. Biroq shirakayf Seydahmad uning so'ziga quloq solmadi. Modomiki, bola yolg'iz uyga tashlab qo'yilgan ekan, Seydahmad o'zining unga qilayotgan yaxshiligidan juda mam-nun edi, ayniqsa, bugun shunday kunki, tovoq ham moy, qoshiq ham...

Gandiraklab bola ham Seydahmad bilan birga uydan chiqdi. Tashqari shamol, havo bulut. Bulutlar osmonda tez-tez bir-biriga qo'shilishib ketdi. Bola ayvondan chiqquncha havo ikki bor keskin o'zgar di. Charaqlab turgan quyoshli havoni ko'ngilni g'ash qiluvchi qorong'ilik bosdi. Bola bundan boshi og'ri-yotganini sezdi. Shamol yuziga gulkanning tutunini olib kelib urardi. Ko'zları achishdi. «Bugun kir yuvishayotgan bo'lsa kerak», – o'yladi bola, chunki kir yuvish kunlarida odatda shunday gulxan yoqilib, uchala uydagi katta qora qozonlarda suv isitilardi. Bunday qozonlarni bir kishi ko'tara olmaydi. Bekey xola bilan Guljamol ikkovlashib ko'tarishardi bu qozonlarni.

Bola bunday kir yuviladigan kunni yaxshi ko'rard i. Birinchidan, bunday kunlarda gulxan uydagi singari o'choqlarda emas, balki ochiq o'choqlarda yoqilib, uning atrofida o'ynash mumkin edi. Ikkinchidan, yuvilgan kiyimlarni ilish juda gashtli bo'lardi. Oq, ko'k, qizil matolarning arqonda osilib turishi hovliga zeb berib turardi. Bola arqonda osilib yotgan kiyimlarga bildirmasdan sekingina kelib yuzlarini tekkizib o'tishni yaxshi ko'rardi.

Bu gal hovlida hech qanday yuvilgan buyumlar ko'rinnadi. Ammo katta go'sht bo'laklari bilan liq

to'ldirilgan qozon ostiga kuchli o't yoqilgan bo'lib, qaynayotgan qozondan quyuq bug' ko'tarilardi. Go'sht pishib qolgan edi: go'shtning dami va gulxanning isi birga qo'shilib, ishtahani qitiqlardi. Bekey xola bo'lsa, yangi qizil ko'ylak, yangi xrom etikda gulli shol ro'molni yelkasiga tashlab olgancha qozonga engashib, cho'mich bilan ko'piklarni olib tashlayotgan edi, Mo'min bobo esa uning yonida cho'kka tushgan holda o'choqdagi yonayotgan tarashalarni ag'darib qo'yardi.

– Ana, bobong, – dedi Seydahmad bolaga. – Ketdik. O'zi bo'lsa:

*Sariq-sariq tog'lardan  
Sariq otda men keldim, –*

deb endigina xirgoysi qila boshlagan edi, sochi ustara da taqir olingan, yenglari shimarilgan va qo'li-da bolta ushlagancha saroydan chiqib ketayotgan O'razqulga ko'zi tushdi.

– Sen qayoqda tentirab yuribsan? – dahshatli qichqirdi u Seydahmadga qarab. – Mehmon bu yerda o'tin yorsin, – u bosh irg'ab o'tin yorayotgan haydovchini ko'rsatdi, – sen bo'lsang qo'shiq aytib yur.

– E, hozir ana-mana deguncha, boplaymiz, – tinchlantirdi uni Seydahmad, haydovchiga qarab yo'nalar ekan. – Qani, uka, men o'zim.

Bola esa o'choq boshida cho'kka tushib o'tirgan bobosi tomon yaqinlashdi. U orqa tomondan kelgan edi.

– Bobo, – dedi u. Bobosi uni eshitmadi.

– Bobo, – deb takrorladi bola va bobosining yelkasiga qo'lini teggizdi. Chol o'girilib qaradi, bola bobosi mast ekanligini sezmad. U bobosining loa-qal biron marta shirakayf bo'lganini ko'rmagan edi. To'g'ri, issiqko'llik biror cholning ma'rakasida ham-

masi – hatto ayollarga ham ichirishardi. Biroq bobosida bunday odat hali sodir bo'lмаган edi.

Chol bolaga qandaydir begonaday, g'ayritabiiy va yovvoyi qarash qildi. Uning yuzlari qizarib ketgandi, u nabirasini ko'rib yana ham qizarib ketdi. Qizillik nim pushti rangga kirdi va shu zahotiyooq boboning yuzlari oqara boshladi. Chol shoshilib o'rnidan turdi.

– Iye, senmi? – dedi u bo'g'iq ovoz bilan nabirasini bag'riga bosib. – Iye, senmi, – bundan boshqa biron so'z ayta olmadi. Undagi to'lqinlanish bolaga o'tgan edi.

– Tobingiz qochdimi, bobo? – tashvishlanib so'radi bola.

– Yo'q-yo'q. O'zim shunday, – ming'illadi Mo'min. – Sen bor, o'ynab kel. Men bu yerda o't yoqayapman, bu hammadan...

U nabirasini deyarli itarib yuborib, go'yo butun olamdan yuz o'girganday, yana o'choqqa qarab o'girilib oldi. U tiz cho'kkancha, go'yo faqat o't bilan bandday biron yoqqa burilib qaramasdi. Chol nabirasining tarvizi qo'lltig'idan tushgancha, hovli-da o'tin yorayotgan Seydahmad tomon yo'l olganini ham ko'rmadi.

Bola bobosiga nima bo'lganini, umuman, hovlida nima bo'layotganini tushunmasdi. U saroyga yaqinlashgandagina yungi yerga qaratib yoyilgan teri ustida yangi so'yilgan molning uyib qo'yilgan go'shtiga ko'zi tushdi. Terining chekkalaridan hamon xira qon tomchilari sizib tushayotgan edi. Sal nariqoda it ichak-chavoqlarni irillagancha silkilab tortardi. Uyulgan go'sht yonida allaqanday qoradan kelgan, barvasta notanish kishi to'nkaga o'xshab do'ppayib o'tirardi. U Ko'katoy edi. U bilan O'razqul ikkalasi pichoqni olvolib, go'sht maydalashardi. Ular qism-larga ajratilgan yog' va go'shtlarni yozib qo'yilgan

terining turli joylariga xotirjamlik bilan, shoshmasdan irg'itib tashlamoqda edilar.

– Maza! Hidini aytmaysanmi! – dedi yo‘g‘on ovoz bilan haligi barvasta kishi, go‘sht hidlab ko‘rarkan.

– Ol, ol, o‘z ulushingga tashla, – saxiylarcha taklif etdi O‘razqul. – Buni sening kelishing sharafiga Xudo yetkazdi. Bu har doim bo‘lavermaydi. – O‘razqul bu orada pishillab, ishdan boshini ko‘tarib, taranglashgan qornini silab qo‘ydi, uning ko‘p yeb, ko‘p ichganligi bilinib turardi. Uning nafasi qisilib xirillab qoldi, erkin nafas olish uchun boshini birdan yuqori ko‘tardi. Uning sergo‘sht, sigirning yelinidek yaltiroq yuzidan o‘ziga bino qo‘yganligi va to‘qlik alomati sezilib turardi.

Bola devor tagidagi shoxli bug‘u kallasini ko‘rib esankirab qoldi, badani muzlab ketdi. Kesilgan kalla qop-qora qon tomchilarini oqizib, changda yumalab yotardi. Bu – yo‘lda yotgan egri-bugri daraxtni eslatardi. Kalla yonida tizzadan qirqilgan to‘rtta tuyog yotardi. Bola bu dahshatli manzarani ko‘rib cho‘chib ketdi. U o‘z ko‘zlariga ishonmasdi. Uning oldida Shoxdor ona bug‘uning kallasi yotardi. U bu yerdan qochib ketishni istardi, lekin oyoqlari unga itoat etmasdi. U kalla-pocha qilingan oq bug‘uning qarshisida turardi. Kechagina Shoxdor ona bug‘u bo‘lib yurgan, unga oq ko‘ngillik bilan suqlanib qaragan, xayolan gapishtigan va shohida qo‘ng‘iroqcha taqilgan sehrli beshik keltirishni iltijo qilib so‘ragani o‘sha bug‘u edi. Nahotki, bularning hammasi nogoh shaklsiz bir uyum go‘shtga, shilingan teriga, kesilgan oyoqqa va uloqtirib tashlangan kallaga aylanib qolsa. Bolaning ketishi kerak edi, lekin u toshdek qotib, bu voqeanning qanday va nega sodir bo‘lganini tushuna olmay turardi. Haligi go‘sht bo‘layotgan qora barvasta kishi uyulib turgan go‘shtning ichidan buyrak oldi-da, uni pichoqning uchiga sanchib bolaga uzatdi.

- Ma, bola, kabob qil, lazzatli bo'ladi, - dedi u.

Bola qimirlamay turardi.

- Ol! - buyruq qildi O'razqul.

Bola beixtiyor qo'lini cho'zdi, so'ng muzdek qo'li-da Shoxdor ona bug'uning hali ham issig'i ketmagan yumshoq buyragini g'ijimlagancha ushlab turdi. Shu payt O'razqul oq bug'uning kallasini shohidan ushlab ko'tarib ko'rdi.

- Eh, og'irligini qarang-a, - u kallani tebratib, og'irligini salmoqlab ko'rdi, - bitta shoxining o'zi qan-chaga keladi-ya. - U kallani g'o'лага ko'ndalang qilib qo'ydi va boltani olib shoxini ajratishga kirishdi.

- Mana, shox! - ishlab turib gapirardi u o'tkir boltani shoxlarining tubiga qadab. - Bu sening bobong-ga, - u bolaga qarab ko'z qisib qo'ydi. - O'lishi bilan bu shoxni uning qabriga qo'yamiz. Qani endi kim bizga u kishini hurmat qilmaysizlar, deb ayta olar ekan. Yana nima kerak? Bunday shox uchun hat-to bugunoq o'sang arziydi! - deya boltani mo'ljalga olarkan, O'razqul xaxolab kulardi.

Shoxni osonlikcha olib bo'lmaydi. Uni olish juda qiyin edi. Mast O'razqulning boltasi nishonga borib tegmasdi, bu esa battar jahlini chiqarardi. Kalla g'o'la ustidan dumalab tushdi. Shunda O'razqul uni yerdayoq chopcha boshladi. Kalla sirg'alib chiqib ketaverdi. O'razqul bolta ko'targancha uning orqasi-dan chonib yurdi.

Bola seskanib ketdi, har gal ketmoqchi bo'lib beix-tiyor tisarilsa-da, bu yerdan ketishga o'zini majbur etolmasdi. Juda yomon tush ko'rib, uni allaqanday dahshatli bir kuch tutib turganday edi, u o'z joyida turganicha shu narsaga ajablanar ediki, kiprik qoq-may baqrayib turgan Shoxdor ona bug'uning ko'zlari boltadan o'zini olib qochmasdi. Qo'rquvdan qisilib yumilmasdi. Kalla allaqachon loy va tuproqqa belan-

gan bo'lsa ham, ko'z qorachig'i musaffoligicha boqib turardi, aftidan, u o'zini o'limga mahkum etgan shu yorug' jahonga tilsiz, unsiz hayratda qolib, hamon boqib turgandek edi. Bola mast-alast O'razqul bilan ko'zi ko'ziga tushib qolishdan cho'chirdi.

Shox hamon bo'sh kelmasdi. O'razqul esa borgan sari tutaqib, boltaning goh tig'i bilan, goh orqasi bilan kallaning duch kelgan joyiga urardi.

– Bunaqada shoxni sindirib qo'yasan. Bu yoqqa ber, – yaqinlashdi Seydahmad.

– Nari tur! O'zim! Qo'lingdan kelmaydi, sindirib qo'yasan! – xirillab nafas olardi O'razqul boltani qu-lochkashlab urarkan.

– Xo'p, xo'p, o'zing bilasan, – Seydahmad tupur-gancha uyi tomon odimlab ketdi. Uning orqasidan haligi qoradan kelgan barvasta kishi borardi. U qop-da o'z ulushini olib ketayotgan edi.

O'razqul molxona orqasida mast-alast holda, qaysarlik bilan Shoxdor ona bug'uning kallasini tilka-lashda davom etardi. Uning bu holati uzoq kutilgan qasosini endi bajo keltirgandek tuyilardi.

– Eh, yaramas! La'nati!.. – deb xuddi jonsiz kalla eshitayotganday etigining tovoni bilan uni tenib jahl ustida og'iz ko'pirtirgancha so'kinardi. – Kimni ah-moq qilmoqchisan! – U boltani ushlagancha kalla-ning tepasiga qayta-qayta xezlanib kelardi. – Dabda-la qilmasam otimni boshqa qo'yaman. Mana senga! Mana senga! – Shunday deb bolta bilan kallani urdi. Kalla chirsillab yorilib, mayda suyaklar har tomon-ga uchib ketardi.

Boltaning tig'i ko'zga ko'ndalang kelib tekkan-da bola qichqirib yubordi. Ochilib qolgan ko'z chanog'idan qop-qora quyuq suyuqlik oqib tushdi. Ko'z so'ndi, barbod etildi...

– Men bundan zo'rroq kallalarni ham maydalay olaman! Bundan boshqa shoxlarni ham sug'urib

ola bilaman! – deb jazavasi tutib bo'kirardi O'razqul gunohsiz kalladan nafratlangancha.

Nihoyat, bu kallaning peshana suyaklarini ham maydalashga muvaffaq bo'ldi. U endi boltani tashlab kallani oyog'i ostiga olib, shoxdan ikki qo'llab ushlagancha vahshiyona kuch bilan buray boshladi va shoxlarni yulib oldi. Ular sug'urib olingan ildiz singari qarsillardi. Bu shoxlar – bolaning iltimosiga ko'ra, O'razqul bilan Bekey xolaga sehrli beshik keltirishi lozim bo'lgan o'sha Shoxdor ona bug'uning shoxlari edi...

Bolaning ko'ngli behuzur bo'ldi. U burildi va qo'llidagi buyrakni tushirib yuborib, sekingina nari ketdi. U qulab tushayotgandek yoki bo'lmasa odamlar ko'zi oldida qayt qilib yuborayotgandek juda qo'rqi di. U oqarib-gezarib manglaylari yopishqoq terga botgancha o'choq yonidan o'tib borardi. O'choqda lovullab o't yonib, qozondan burqirab qaynoq bug'ko'tarilardi. Baxtsiz Mo'min bobo bo'lsa hamon avvalgidek yuzini o'tga tutib, hammasiga chap berib o'tirardi. Bola bobosini bezovta qilgisi kelmadi. U tezroq o'ringa yetib borishni va to'shakka boshi bilan burkanib yotishni istardi. Qani endi hech narsani ko'rmasa, eshitmasa, unutsa.

Qarshisidan Bekey xola chiqib qoldi. U o'ziga oro berib yasangan, biroq yuzida O'razqulning kaltaklashi natijasida hosil bo'lgan ko'm-ko'k qontalash izlar ko'zga tashlanib turardi. Bemavrid quvonib, jonsaraklik bilan «katta go'shtga» yugurib kelayotgan edi.

- Senga nima bo'ldi? – U bolani to'xtatdi.
- Boshim og'riyapti.
- Boshginangdan aylanay, – dedi mehri toshib va ustma-ust o'pa boshladi.

U ham mast edi. Undan ham la'nati araq hidi anqib kelardi.

– Boshginasi og'ribdi-da, – ming'irladi u rahmdilik qilib. – Jigargo'sham mening. Balki ovqatlanging kelayotgandir.

– Yo'q, hech narsa yemayman. Yotgim kelyapti.

– Ketdik bo'lmasa, o'zim yotqizib qo'yaman. Nima, sen yakka-yu yolg'iz yotaverar ekansanmi. Axir hamma odam biznikida. Mehmonlar ham. Go'sht ham tayyor bo'lay deb qoldi, – dedi u va bolani o'zi bilan birga olib ketdi. Bular yana o'choq boshidan o'tib ketayotganlarida yelin singari qizarib to'lishib ketgan holda molxonadan chiqib kelayotgan O'razqulga ko'zlari tushdi. U Mo'min bobo yoniga o'zi kesgan bug'u shoxlarini kekkaygancha uyib qo'ydi. Chol sapchib tushdi.

O'razqul unga qaramasdan suv to'la paqirni boshi uzra ko'tardi va orqaga egilgancha egniga to'kib-sochib icha boshladi.

– Endi o'lsang ham bo'laveradi, – dedi u boshini paqirdan ko'tarib, yana paqirga tiqarkan. Bola cholning g'o'ldirab gapirayotganini eshitdi:

– Rahmat, o'g'lim, rahmat. Endi o'lsam ham armonim yo'q. Men uchun shunchalik izzat-hurmat...

– Men uyga ketaman, – dedi o'zini uncha yaxshi sezmayotgan bola.

Bekey xola ko'nmadni.

– Bir o'zing nima qilasan u yerda. – Bolani holi-joniga qo'ymasdan uyiga olib ketdi va burchakdagi karavotga yotqizdi.

O'razqulning uyida dasturxon muntazir edi. Har xil taomlar muhayyo edi. Bularning hammasi bilan kampir va Guljamol band edi. Uy bilan hovlidagi o'choq orasida Bekey xola qatnagani-qatnagan. O'razqul bilan barzangi Ko'katoy go'shtni kutib, gulli ko'rpa chada yostiqqa yonboshlagancha choydan mayda-mayda ichishib o'tirishardi. Ular to'sat-

dan o'zlariga bino qo'yib, o'zlarini to'ra his etishardi. Seydahmad ularga piyolaning tagida choy quyib o'tirardi.

Bola bo'lsa bir burchakda ipsiz bog'langanday, betoblik zarbiga bardosh berib jimgina yotardi. Uni yana qaltiroq bosdi. U turib ketishni istardi. Biroq karavotdan tushishi bilanoq qayt qilib yuborishdan qo'rqardi, shuning uchun ham u titrab-qaqshagancha tishini-tishiga qo'yib, qimir etmay yotardi. Orтиqcha qimirlashdan qo'rqardi.

Shu orada xotinlar Seydahmadni hovlidan chiqirishdi. Katta sirlangan tovoqda tog' singari uyulib, bug'lanib turgan go'shtni ko'targancha Seydahmad paydo bo'ldi. U uzoq kutilgan bu taomni zo'rg'a ko'tarib kelib, O'razqul bilan Ko'katoyning oldiga qo'ydi. Xotinlar uning orqasidan yana turli xil ovqatlarni keltirishdi.

Hamma joy-joyiga o'tirdi, pichoq va likopchalar tayyorlandi. Shu orada Seydahmad stakanlarga araq quydi.

– Araqning raisi men bo'laman, – deya shaqillay boshladi u burchakdagи shishalarga ishora qilib.

Hammadan keyin Mo'min bobo keldi. Chol bugun har qachongidan ko'ra g'alati va ayanchli qiyofada ko'rinaridi. U biror chetroq joyga borib omonatgina o'tirmoqchi edi, lekin qora, barvasta Ko'katoy himmat qilib uni o'z yoniga taklif qildi.

– Bu yoqqa kelng, oqsoqol.

– Rahmat. Biz mana bu yerga, o'zimizniki-ku, axir, – e'tiroz bildirmoqchi bo'ldi Mo'min bobo.

– Harqalay siz oqsoqolimizsiz, – qattiq turib oldi Ko'katoy va o'zi bilan Seydahmadning o'rtasiga o'tqazdi. – Qani, ichamiz, oqsoqol, sizning shunday muvaffaqiyatlaringiz uchun. Birinchi so'z sizga.

Mo'min bobo yo'talib qo'ydi.

– Mana shu uylarda tinchlik bo'lsin, – dedi u qiyalib. – Qayerda tinchlik bolsa, baxt ham o'sha yerdan, bolalarim.

– To'g'ri, to'g'ri! – deb hamma o'z qadahini ko'tardi.

– A, siz-chi! Yo'q, bunaqasi ketmaydi! Kuyovingiz va qizingizga baxt tilasangiz-u, yana o'zingiz ichmasangiz, – deb Ko'katoy xijolat tortib o'tirgan Mo'min bobodan o'pkaladi.

– Shularning baxti uchun bo'ladigan bo'lsa, – chol shoshib qoldi va hammani hayratda qoldirgancha salkam to'la stakanni oxirigacha ko'tarib yubordi va garang bo'lib qolganday boshini chayqay boshladi.

– Obbo, shovvoz-yey!

– Bizning bobo unaqalardan emas.

– Qoyil, qoyilmiz cholingizga!

Hamma shodlanib kulardi, cholni maqtardi.

Uy isib, dimiqib ketgan edi. Bola iztirob chekib yotardi, boshi aylanardi. U ko'zini yumib yotgancha mast-alast kishilarning Shoxdor ona bug'uning go'shtini chapillab, pishillashib ovoz chiqarib yayayotganliklarini, bir-birovlariga mazali go'sht qismlarini uzatishib siylashayotganlarini, kir stakanlarning urishtirilayotganini, kemirib tozalan-gan suyaklarning tovoqqa qanday terib qo'yilayotganini eshitib turardi.

– Bay-bay-bay, munchayam mazali-ya! – maqtardi Ko'katoy labini chapillatib.

– Nima, biz ahmoqmizmi tog'da yashab shunday go'sht yeya olmasak, – dedi O'razqul.

– To'g'ri-da, nega bo'lmasa bu yerda yashayapmiz, – ma'qulladi Seydahmad.

Hamma Shoxdor ona bug'uning go'shtini maqtay ketdi. Kampir-u Bekey xoladan tortib, Guljamol-u Mo'min bobogacha – hamma-hammasi maqtashardi. Bolaga ham likopchada go'sht va boshqa taomlardan

kiritib berishdi. Lekin u rad etdi. Mast odamlar uning tobi qochganligini hisobga olib bezovta qilmadilar.

Bola tishini tishiga qo'yib yotardi. U shunday yotganda ko'ngil behudligidan biroz qutulganday bo'ladi. Biroq Shoxdor ona bug'uni o'ldirgan bu odamlar bilan biron ish qilishga qodir emasligi uni hammadan ko'ra qiynayotgan edi. U bolalarga xos haqgo'ylik g'azabi va dilxastaligi bilan ulardan o'ch olishning turli yo'llarini – qanday bo'lmasin ularni jazolash, gunohini tushunishga majbur etish, qanday yovuz ishga qo'l urganliklarini ko'rsatib qo'yish yo'llarini o'ylardi. Biroq xayolan Qulibekni yordamga chaqirishdan bo'lak biror durustroq yo'l topolmadidi. Ha, o'sha bo'ronli tunda soldatcha kamzul kiyib, yosh haydovchilar bilan birga pichan ortishga kelgan o'sha yigitni chaqirmoq kerak. U bolaning ko'rib yurgan odamlari ichida O'razqulga bas kela olishi va butun haqiqatni aytib solishi mumkin bo'lgan bir-dan-bir kishi edi.

Bolaning chorlashi bo'yicha Qulibek mashinada g'izillab yetib keldi va avtomatni oldinga qarata qiya ushlagancha kabinadan sakrab tushdi: «Qani ular?» – Ular mana bu yoqda! Ular ikkalasi O'razqullarning uyi tomon yugurib ketishdi. Eshikni zarb bilan ochishdi. «Qo'zg'ala ko'rma! Qo'lingni ko'tar!» – bo'sag'adan turib dahshat bilan buyruq berdi Qulibek, avtomatni to'g'rilaqancha. Hammaning kapalagi uchib ketdi. Hamma o'tirgan joyida dong qotib, og'izdag'i go'shtlar bo'g'izlarida qoldi. Ko'p yeb qo'llari, yuzlari, og'izlari moyga botib, bo'kib qolgan mast-alast kishilarning esa umuman qimir etishga majollari qolmagan edi.

«Qani, o'rningdan tur-chi, murdor!» – Qulibek avtomatini O'razqulning chakkasiga tiradi. Qaltiroq bosgan O'razqul duduqlanganicha Qulibekning

oyog'iga yiqildi. «Rahm qil, o'ldirmagin». Lekin Qilibek rahm qilmadi. «Chiq bu yoqqa, murdor! Endi tamom bo'lding!» U O'razqulning chotiga zarb bilan tenib yubordi va o'rnidan turg'izib uydan chiqishga majbur etdi. Kayfi uchib sarosimaga tushib qolgan jamiki kishilar jimgina hovliga chiqishdi...

«Devorga borib tur! – buyruq berdi Qilibek O'razqulga. – Shoxdor ona bug'uni o'ldirganing uchun va uning beshik ko'tarib kelgan shoxlarini kesib olganing uchun senga o'lim!» O'razqul tuproqqa yiqilib tushdi. Emaklab ingragancha zorlana boshladi: «O'ldirma meni, mening hech kimim yo'q-ku, axir. Olamda tanhoman. Na o'g'lim bor, na qizim...»

Undagi manmanlik, kibr-havo qayoqqa ketdi.

– Ojiz, yaramas, qo'rkoq. Bundaylarni o'ldirging ham kelmaydi.

«Mayli, o'ldirmaylik, – dedi bola Qilibekka. – Lekin bu yerdan abadiy ketsin, qorasi o'chsin. Bu yerda uning keragi yo'q. Yo'qolsin».

O'razqul o'rnidan turib shimini ko'tarib oldi va o'girilib qarashga yuragi dov bermay lo'killagancha qochib qoldi. Uning xomsemiz yuzlari lorsillab, etigidan galife shimi osilib qolgan edi. Biroq Qilibek uni to'xtatdi: «To'xta! Senga aytadigan oxirgi so'zimiz bor. Sen da hech qachon bola bo'lmaydi. Sen yovuz va yaramas odamsan. Seni bu yerda hech kim yoqtirmaydi. O'rmon ham, birorta daraxt ham, hatto bir dona giyoh ham seni sevmaydi. Sen fashistsan. Sen bu yerdan umrbod ket. Qani, tezroq bo'll!» O'razqul oldi-ketiga qaramay yugurardi. Qilibek uning orqasidan: «Shnel! Shnel», – deya xaxolab kular va yana vahima solish uchun avtomatidan havoga qarab o'q uzardi.

Bola o'zida yo'q shod edi. O'razqul ko'zdan g'oyib bo'lgach, Qilibek eshik oldida gunohkorlarcha turgan boshqa kishilarga qarab: «Shunday odam bilan qanday yashab keldilaring? Uyat emasmi sizlarga!» – dedi.

Bola o'zini yengil his qildi. Adolatli sud bajo keltirildi. U o'z xayollariga shunchalik berilib ketgan ediki, hatto qayerda yotganini ham, O'razqulning uyida nima munosabat bilan ichkilikbozlik qilayotganliklarini ham unutgan edi. Qah-qahlab kulishlar uni bu orombaxsh holatdan yana o'ziga keltirdi. Bola ko'zini ochib yana qulqoq sola boshladi. Xonada Mo'min bobosi yo'q edi.

Qayoqqadir chiqib ketgan bo'lsa kerak. Xotinlar idish-tovoqlarni yig'ishtirishib, choy keltirishga hozirlik ko'rayotgan edilar. Seydahmad nimanidir baland ovoz bilan hikoya qilib berardi, o'tirganlar uning so'zlarini eshitib kulishardi.

– U yog'i nima bo'ldi?

– Davom et!

– Sen shoshilma, bu yoqqa qara, qani yana bir qaytarib ayt, – kulgidan ichagi uzilgan O'razqul yana so'ray boshladi, – sen unga javoban nima deding? Uni qanday qo'rqtidng. Voy ichagim! Xa-xa-xa! – U hamon qornini ushlagancha qotib-qotib kulardi.

– Shunday qilib, – deya Seydahmad hikoyasini yana boshidan boshlashga jon deb rozi bo'ldi, – biz bug'ularga yaqinlashib borsak, o'rmon yoqasida uchtasi turgan ekan. Otlarni endigina daraxtga bog'lagan ham edik, chol hamrohim qo'lindan ushlab: «Biz bug'ularni otishimiz mumkin emas. Biz bug'uboy avlodidanmiz. Shoxdor ona bug'uning farzandlarimiz!» dedi. O'zi bo'lsa bolalardek termilib turardi menga. Ko'zları yalinib-yolvorib iltijo qilayotgandek boqardi. Mening esa o'lgiday kulgim qistardi. Lekin kulib yubormadim. Ha, kulmadim. Aksincha, bu haqiqatan ham shunday-ku: «Sen nima, turmaga tushging kelyaptimi?» – deyman. «Yo'q», – deydi u. «Bilasanmi, boylar zamonidagi hikoyalar kambag'al xalqni qo'rqtish uchun to'qilgan», – dedim. Shunda

u tilga kirib: «Sen nima deyapsan o'zi», – dedi. Men bo'sam: «Shuni aytyapmanki, sen bunaqa gaplaringni qo'y, aks holda qarilicingga ham qaramay, tegishli joyga yozib yuboraman», – dedim.

– Xa-xa-xa, – deb o'tirganlarning hammasi kulib yuborishdi. Ayniqsa, O'razqul ularning ichida rohatlanib kulardi.

– Keyin biz sezdirmasdan ularga yaqin bordik. Agar ularning o'rnida boshqa hayvonlar bo'lgandamni, allaqachon xabar tonib ko'zdan g'oyib bo'lgan bolardi. Bu anqov bug'ular esa bizdan cho'chimayotganday qochmasdi. Cho'chimagani yana ham yaxshi deb o'ylayman, – hikoya qilardi Seydahmad. – Men miltiq bilan oldinda, chol keyinda boryapmiz. Shu ondayoq, menda shubha tug'ilди. Umrimda chumchuq ham otgan emassdim. Hozir shunday bir holat yuzaga keldiki, agar tekkiza olmasam, o'rmonga qochadi-ketadi, keyin uning orqasidan yetib bo'psan, dovonning narigi yog'iga o'tib ketadi. Bunday tayyor o'ljani kim qo'ldan boy berishni istardi?

Bizning chol ovchi bo'lgan, vaqtida ayiqni ham qulatgan. Men unga miltiqni berib, mana chol, oting, dedim. U bo'sa yo'q, otmayman, o'zing ot, deydi. Men bo'sam unga: men axir mastman-ku, dedim. O'zim esa oyoqda turolmayotgandek tebranardim. U o'rmondan yog'och olib chiqqanimizda siz bilan ichganimizni ko'rgan edi. Shuning uchun ham men o'zimni ayyorlikka soldim.

– Xa-xa-xa.

– Men tekkizolmayman dedim, bug'ular ketib qoladi, keyin qaytib kelmaydi. Bizning esa quruq qaytib borishimiz yaxshi emas. O'zing bilasan. O'ylab ko'rgin. Nega bizni bu yoqqa yuborishdi? Indamaydi. Miltiqni ham olmaydi. Mayli, o'zingiz bila-siz, dedim-da, miltiqni tashlab ketmoqchi bo'ldim. U

orqamdan ergashdi. Baribir, O'razqul meni haydaydi – sovxoza borib ishlayveraman, deydi. Qariganda qayoqqa borasan, dedim? Yana lom-lim demadi. Men sekin xirgoyi qildim:

*Sariq-sariq tog'lardan,  
Sariq otda men keldim.  
Och eshiging ey sariq savdogar...*

– Xa-xa-xa...

– Meni haqiqatan ham mast deb o'yladi. Miltiqni qo'nga olib jo'nab qoldi. Men qaytdim. Biz bir-birimiz bilan tortishib yotar ekanmiz, bug'ular bu orada biroz nariroqqa yurdi. Ko'ryapsanmi, deyman unga, ketib qoldi, keyin ularga yetib bo'lmaydi. Ular hali hurkib qochmaguncha otib olish kerak. Chol qo'lliga miltiqni oldi va ularning orqasidan pusib bora boshladi. U hamon: «Kechir meni, Shoxdor ona bug'u, kechir...», – deb o'z-o'zicha shivirlardi. Men esa o'z-o'zimcha: «Ehtiyot bo'l, tekkiza olmasang, sen ham o'sha bug'ular bilan birga boshing oqqan yoqqa qarab ket, boshqa qorangni ko'rsatma», – dedim.

– Xa-xa-xa...

Ichimlik hidi bilan dud hidining birga qo'shilib anqishi, uning ustiga qahqaha urib kulishlar bolaning isitmasini oshirib, yanada dimiqtirib yubordi. Og'riqning zo'ridan uning boshi tars yorilib ketayozdi. Nazarida kimdir uni tepayotganga, kimdir bolta bilan miyasini yorayotganga o'xshardi. Go'yo birov uning ko'zini mo'ljalga olayotganday chap berib boshini olib qochishga intilardi. Isitma natijasida holdan ketgan bola muzdek daryoda paydo bo'lib, baliqqa aylanib qoldi. Quyrug'-u tanasi, suzgich qanotlari – hamma-hammasi baliqniki-yu, faqat og'riyotgan boshigina o'zicha qolgan edi. U qop-qorong'i muzdek suv ostida suzib borardi.

Xayolida umrbod shunday baliq bo'lib qolishni va tog'ga hech qachon qaytmaslikni o'ylardi. «Qaytmayman endi, – deyardi u o'zicha. – Yaxshisi, baliq bo'laman, baliq bo'lib yashayman...»

Bola karavotdan tushib, sekin uydan chiqib ketganini hech kim payqamay qoldi. U zo'rg'a burchakka yetib borgan ham edi, birdan qayt qilib yubordi. U devorga suyangancha ingrab yig'lardi. O'pkasi to'lib yig'laganidan nafasi qisilib g'o'ldirardi:

– Yo'q, men, yaxshisi, baliq bo'laman. Bu yerdan suzib ketaman. Yaxshisi, baliq bo'laman.

O'razqulning uyi derazasidan esa mast kishilarning qah-qahlab kulishlari-yu, qiyqiriq ovozlari eshitilardi. Bu yovvoyi qahqaha bolani garang qildi, uning qalbida chidab bo'lmas dard-alamlarni qo'zg'adi. Bu dahshatli qahqahani eshitish ko'nglini behuzur qilayotgandek tuyildi. U biroz o'ziga kelish uchun hovliga chiqdi. Hovlida hech kim yo'q, huvillab yotardi... O'ti o'chib qolgan o'choq yonida ichkilikning zo'ridan o'lar holatda yotgan Mo'min boboga ko'zi tushdi. Chol tuproqda, o'sha Shoxdor ona bug'uning kesib tashlangan shoxlari yonida hushsiz yotardi. Bug'uning maydalangan kallasini it g'ajib yotgan edi. Bulardan boshqa biron kimsa yo'q.

Bola bobosining ustiga engashgancha uning yelkasidan tortqiladi.

– Bobo, yuring, uyga ketamiz, uyga, – dedi u. Chol javob bermadi, u hech nimani eshitmadi, boshini ham ko'tara olmadi. Ha, u nima ham deya olardi?

– Qani, turing, bobo, uyga ketamiz, – dedi bola. Kim bilsin, u o'zining bolalik aqli bilan bobosining Shoxdor ona bug'u haqidagi ertagi uchun bu yerda ta'zirini yeb yotganini, o'z erki bilan unga qasd qilmaganligini, uning o'zi bu haqda bolaga hamma vaqt nasihat qilib kelganligini, ota-bobolar udumiga, o'z vijdoni va vasiyatlariga zid borganligini, baxti qaro

qizini deb, nabirasini deb shu ishga qo'l urganligini fahmlay oldimikin yoki anglab yetmadimikin?..

Chol og'ir ahvolga tushib, g'am-alam o'tida yonib, bolaning ovoziga javob qilmasdan, go'yo o'lik singari yuzini yerga qilib yotardi.

Bola bobosining yoniga cho'kkalab o'tirgancha uni qo'zg'atishga harakat qildi.

– Bobo, boshingizni ko'tarsangiz-chi, – dedi u. Bolaning yuzlari oqarib, bo'shashib ketgan edi, qollar, lablari qaltirardi. – Bobo, bu menman. Eshityapsizmi?

– derdi u. – O'zimni juda yomon sezyapman, – deya yig'lardi u. – Boshim og'riyapti, juda qattiq og'riyapti.

Chol ingrab, qimirlay boshladı, biroq hamon o'ziga kelolmagan edi.

– Bobo, Qulibek keladimi? – so'radi bola birdan ko'z yoshi aralash. – Ayting, mashinasida Qulibek keladimi? – gap bilan alahsitmoqchi bo'ldi u cholni.

Bola bobosini yonbosh bilan ag'darilib yotishga majbur etdi va nogahon mast holda soqollariga-cha loy va tuproqqa belanib, ayanchli holda yotgan cholning yuziga ko'zi tushib, seskanib ketdi. Bola shu daqiqada haligina O'razqul bolta bilan maydalab tashlagan oq bug'uning kallasini xayolidan o'tkazdi va qo'rquvdan o'zini chetga tortdi. Bobosidan nari ketar ekan, dedi:

– Men baliqqa aylanaman, eshityapsizmi, bobo, suzib ketyapman. Qulibek kelganda baliqqa aylanib qolganimni ayting.

Chol hech qanday javob qaytarmadi.

Bola yurishda davom etdi. Daryoga tushib, suv kecha boshladı.

Bolaning suvda baliq bo'lib suzib yurganidan hali hech kimning xabari yo'q edi. Hovlida mast kishilarning kuylagan qo'shiqlari eshitilardi:

*O'rkach-o'rkach totardan  
O'rkach tuyada men keldim.  
Och eshiging bukri savdogar  
Biz ichamiz o'tkir vinodan...*

– Sen suzib ketding. Qulibekning kelishini kutib turmading. Afsus, ming afsuski, Qulibekning kelishini kutib turmading. Nega sen yo'ldan chonib bora qolmading. Agar yo'ldan uzoq muddat chonib bor-ganingdami, albatta, uni uchratarding. Qulibekning mashinasini uzoqdan tanigan bo'larding. Qo'lingni ko'targaningda u shu zahotiyoy mashinasini to'xtat-gan bo'lardi.

– Sen qayoqqa ketyapsan? – deb so'rardi.  
– Men sizni izlab ketayotgan edim! – deb javob bergen bo'larding.

U shunda seni mashinasi kabinasiga olgan bo'lar-di. Ikkaloving birga ketgan bo'lardilaring. Oldinda, yo'lda esa hech kimga ko'rinxmasdan Shoxdor ona bug'u yelday uchib borardi. Biroq sen uni ko'ra ol-gan bo'larding.

Ammo sen suvda suzib ketding.

\* \* \*

Sen bu qo'shiqni eshitmading. Sen o'z ertaging-dagi baliq kabi suzarding, bo'talog'im. Bilasanmi, sen hech qachon baliqqa aylanib qololmaysan va Issiqko'lgacha suzib borolmaysan, oq kemani ham ko'rolmaysan va unga: «Salom, oq kema, bu men!» – deb aytolmaysan.

Sen oqib ketding.

Endi shuni aytishim kerakki, sening go'dak qal-bing nimani noxush ko'rgan bo'lsa, hammasini rad etding. Mening ovunchim ham, quvonchim ham

shunda-da. Sen bir chaqnab so'ngan yashin kabi hayot kechirding. Chaqmoqlarni samo chaqadi. Samo esa abadiydir. Mening ovunchim ham, quvонchim ham shunda-da. Insondag'i go'daklik vijdoni xuddi urug'dagi ilk kurtakning o'zginasi, kurtaksiz urug' unib chiqmaydi. Biz olamga kelmasdan ilgariyoq, toki tug'ilish va o'lish bor ekan, haqiqat tantana qilib kelmoqda.

Bo'talog'im, sen bilan vidolashar ekanman, sening so'zingni yana bir bor takrorlayman: «Salom, oq kema, bu men!»

1970-yil

## BIRINCHI MUALLIM

Derazalarni lang ochaman. Xonaga sof havo oqimi kirib keladi. G'ira-shira tong ota boshlagan. Odatim bo'yicha xomaki etyudlarimni ko'zdan kechiraman. Ular talaygina. Men ularni bir necha bor qaytadan ishlaganman. Biroq surat haqida to'liq hukm chiqarishga hali erta. Nimalar bo'lyapti o'zi? Hali kalavaning uchini topganimcha yo'q. Tonggi yoz yog'dusini tutib bo'lmasdi. Tong sukunatida yurib o'ylayman, o'ylayman, o'ylayman. Har safar shu takror bo'ladi. Har safar mening chizgilarim hali shunchaki ko'ngilga tugib qo'yilgan bir orzu-niyat ekanligiga ishonch hosil qilaman.

Hali tugallanmagan narsa haqida hatto yaqin do'stlarimga ham eldan burun so'z ochishni xush ko'rmayman. Bu mening o'z ishimga o'ta kuyunchaklik bilan yondashayotganim belgisi emas, beshikdagi go'dakning kim bo'lib voyaga yetishini oldindan aytish mushkul bir ish bo'lganidek, yozib tugallanmagan asar haqida ham bir narsa deyish qiyin. Ammo bu safar doimiy odatimni tark etib, to'g'risini aytganda, poyoniga yetmagan suratim haqida gap ochib, odamlar bilan fikr almashsam, degan umiddaman.

Bu, tilga olib o'tilganidek, injiqlik yoki bo'lmasa o'ta talabchanlik alomati emas, albatta, bundan boshqacha yo'l ham tuta olmasdim. Nega deganda, ko'pdan beri yuragimga g'ulg'ula solib, erta-yu kech tinchlik bermay, qo'llimga qalam olishga undab kehayotgan bu voqeа menga shunchalik ulug'vor tu-

yular ediki, yolg'iz o'zim uning uddasidan chiqolmasligimga ko'zim yetib, to'lib turgan qadahni chay-qatib to'kib yubormasam, deb qo'rqardim. Shu vajdan odamlar xuddi rassomlarning dastgohi yonida turib masalani hamjihatlik bilan hal etganlaridek, sizlar ham mening yonimda turib, garchi xayolan bo'lса-da, maslahat berib, ko'maklashib, quvonch-u hayajonlarimni baham ko'rishlaringizni istardim.

Qalb qo'ringizni darig' tutmang, yaqinroq keling, bu voqeani sizlarga hikoya qilib berishga majburman...

\* \* \*

Ovulimiz yassi tog' daralari oralab sharqirab oqib kelayotgan Gurkurov daryochasi sohillarida joy-lashgan. Ovulimizning pastki qismida esa to Qora-tog' tizmalarigacha qora tasmadek cho'zilib ketgan temir yo'lning ikkala tomonida Sariqcho'l – bepoyon qozoq dashtligi yastanib yotardi.

Ovulimiz tepasidagi adirda ikkita ulkan terak bo'lardi. Men ularni esimni taniganimdan beri bila-man. Ular hali-hamon savlat to'kib turibdi. Qachon qaramang, ovulimizga qaysi tomonidan kelmang, av-valo, ko'zingiz ana shu qo'sh terakka tushadi. Ular xuddi tog'lardagi mash'alalar yanglig' ko'z o'ngin-gizda namoyon bo'ladi. Yoshlikdagi taassurotlarimi yoki rassom bo'lganimdanmi, qanday tushunti-rishni ham bilmayman, harqalay, poyezddan tushib dasht bo'ylab ovulimiz tomon borar ekanman, birin-chi galda, men uchun qadrondan bo'lib qolgan o'sha teraklar tomon sabrsizlik bilan ko'z tashlayman.

Teraklar qanchalik baland, qanchalik ulug'vor bo'lmasin, ular olisdan xiralashib ko'rinsa-da, bari-bir ko'z o'ngimda yorqin gavdalanayotganday bo'lardi. Necha bor uzoq o'lkalardan ovulimiz Gurkurovga

qaytib kelar ekanman, har safar cheksiz sog'inch bilan: «Ovulimizga barvaqt yetib borib, tepalikka chiqib, qo'sh terakni tezroq ko'rsam, so'ng ularning ostida uzoq turib, yaproqparining shovullashini zavqlanib tinglasam», deb oshiqardim.

Ovulimizda nima ko'p – daraxt ko'p. Biroq bu qo'sh terak boshqacha – ular qachon qaramang, kun-u tun shoxlari chayqalib, yaproqlari titrab, turfa ohang taratadi. Gohida ular kimnidir qo'msab, sog'inch o'tida yonib, sukut saqlab, bir zumda jimb qolganday, gohida to'satdan butun tanasi bilan chayqalib, bir-biridan madad olayotganday guvullashadi. Shitob bilan bostirib kelayotgan bulut va yomg'ir aralash kuchli shamol esa shoxlarini egib, yaproqlarini uzib tashlaganda teraklar o'chakishganday tebranib, battar guvullaydi.

Keyinchalik, oradan yillar o'tib, yoshim ulg'aygandan so'ng qo'sh teraklarning sir-sinoatlarini anglab yetdim. Chor-atrofi yaydoq tepalikda turgani uchun ham ularning yaproqlari qilt etgan shamolga darhol javob qaytarar ekan.

Lekin bu oddiy haqiqat meni hozirgacha xotiramda muhrlanib qolgan bolalik tasavvurlarimdan mahrum etib, ko'nglimni sovuta olmadi. Shuning uchun tepalikdagi bu qo'sh terak hanuzga qadar ko'z o'ngimda jonli, allaqanday sirli, sehrli mavjudotlarday gavdalananadi. Mana shu teraklar yonida o'tgan bolaligimning oltin fasli lahzalarini hamon qayta-qayta tuyganday bo'laman.

O'qishimiz tugab, ta'tilga chiqishimiz bilanoq qush bolasi – palaponlarni olamiz deb chuvullashgancha o'sha tomon yugurishib qolardik. Hushtak chalib, shitob bilan tepalikka ko'tarilganimizda ulkan teraklar, har galgidek, u tomondan bu tomonga tebranib, turfa ohangda shovullagancha mehribon-

lik bilan salqin soyasiga chorlayotganday tuyular-di. Biz oyoqyalang shumtakalar esa, o'sha kezlarda, birin-ketin teraklarning shox-butoqlariga tirmashib, qiy-chuv aralash, jon-jahdimiz bilan qushlar ola-miga oshiqardik. Bezovtalangan qushlar galasi chirqillashgancha shoxdan-shoxga uchib-qo'nib, tepamizda charx urishardi. Biz sinfdoshlar esa bun-ga parvo qilmasdan, tirishib-tirmashganimizcha to-bora yuqoriga ko'tarilardik. Shunda, nogahon, ko'z o'ngimizda qush uchadigan balandlikdan hamma yoq kaftdagidek ko'rinish, ajib bir yangi olam na-moyon bolardi.

Olamning ulug'vorligi bizni shu qadar o'ziga maftun etardiki, hatto shoxdan-shoxga ko'tarilayot-ganimizda nafasimizni ichimizga yutib, yuragimizni hovuchlab, chumchuq bolalarini olmoqchi bo'lgani-mizni ham yodimizdan chiqarib yuborar edik. Katta-kon bino deb yurganimiz kolxozi oshxonasi osmon-u falakdan shunchaki oddiy saroychadek ko'rinaldi. Ovulning narigi yog'ida esa qo'riq yerlar elas-elas yastanib yotardi. Ko'z ilg'agancha borliqqa suqlan-nib nazar tashlar ekanmiz, telegramizda ovulimizdan tashqari, hali biz ko'rmagan hadsiz-hududsiz bir olam, kumushdek tovlanib oqayotgan daryolar ayon ko'rinish turardi. Biz butoqlar orasida berkinib olib, dunyoning narigi chekkasi shumi yoki undan na-rida ham shunga o'xshash yer-u ko'k, dashtlig-u daryolar mavjudmi, deb xayol og'ushiga cho'mardik. Shunda shamol esib, yaproqlar unga jo'r bo'lismashib, hali odam qadami yetmagan manzillarda o'ziga maftun etuvchi qanchadan-qancha ajoyib va g'aroy-ib sirli-sehrli o'lklalar ham bor, deb javob qaytarayot-ganday shivirlashardi.

Teraklarning guvullashi-yu yaproqlarning tinim-siz shovullashiga qulqoq solar ekanman, o'zimni

dunyoning narigi burchida qolib ketayotganday, qo'rquv va quvonchdan yuragim duk-duk urib, qinidan chiqib ketguday sezardim. Lekin bir narsa – «Bu teraklarni tepalikka kim o'tqazgan va qanday orzu-niyatlar bilan o'stirgan?» – o'sha kezlarda bu haqda o'ylab ko'rmagan ekanman.

Qo'sh teraklar qad ko'targan bu tepalikni, negadir, «Duyshenning maktabi» deb aytishardi. Agar biror kimsa ot-ulovini yo'qotib qo'yib, yo'lda kelayotgan odamdan: «Hoy birodar, to'rig'imni ko'rmadingmi?» – deb so'rab qolguday bo'lsa, ko'pincha, «Huv ana, tepalikda, Duyshenning maktabi yonida yilqlilar o'tlab yurishibdi. Ehtimol, o'sha yerdan toparsan», – deb javob qaytarishardi. Biz bolakaylor ham kattalarga taqlid qilib, «Qani ketdik, Duyshenning maktabiga, chumchuq palaponlarini olamiz!» – deb chug'urlashardik.

Aytishlaricha, qachonlardir bu tepalikda maktab bo'lgan ekan. Endilikda esa undan asar ham qolmagan. Bolalik xotiralarimga suyanib, so'rab-surishtirib, hech bo'limganda, uning xarobalarini topishga necha bor harakat qilib ko'rganman. Lekin biror narsa topmaganman. Yaydoq tepalikni nega «Duyshenning maktabi» deyishlari menga g'alati tuyaldi va keyinchalik qariyalardan «Duyshenning o'zi kim?» deb surishtirsam, ulardan biri sovuqqonlik bilan, qo'l siltagancha:

– Duyshenning o'zi kim, deysanmi? Kim bo'lardi. Hozir ovulumizda yashab yurgan Oqsoq qo'y<sup>1</sup> Duyshen bo'ladi-da, deb javob qaytarardi. – Bunga ancha bo'ldi. Tepalikda kimningdir tashlandiq saroyi bo'lib, Duyshen u yerda maktab ochib, bolalarni o'qita boshlaydi. Maktab qayoqda deysiz, shunchaki nomi bor edi. Eh, ajib zamonlar edil! O'shanda otning yolini tutamlab, oyog'i uzangiga yetganlar o'zlarini

<sup>1</sup> Oqsoq qo'y – urug'ning nomi

boshliq hisoblardilar. Duyshen ham xuddi shunday bilganini qildi. Hozir o'sha saroychadan nishona ham yo'q, quruq nomi qolgan, xolos...

Men Duyshen ismli bu kishini uncha yaxshi bilmas edim. U keksayib qolgan, baland bo'yli, sersavlat, burgut qovoqli odam edi. Uning hovlisi anhorning narigi tomonida, ikkinchi brigadaga qarashli ko'chada edi. Men ovulda yurgan kezlarimda Duyshen kolxzoda miroblik qilib, kunini dalada o'tkazardi. Mehnatdan qorayib ketgan bu zahmatkash zot gohida katta ketmonini egarning qoshiga tang'ib olib, o'ziga o'xhash qoq suyak, ingichka oyoqli otida ko'chamizdan o'tib qolardi. Keyin keksayib qolgach, aytishlaricha, pochta-chi (xat tashuvchi) bo'lib ishlayotgan emish. Biroq gap boshqa yoqda. Bu sersoqol, beozor kishining qachonlardir yosh yigit bo'lganini, yana hayratli tomoni, yetarli xat-savodi bo'lmasdan, bolalarni qanday o'qitganini hecham tasavvur qila olmasdim. Yo'q, bunga aqlim bovar qilmasdi! Ochig'ini aytganda, men buni ovulda tarqalgan son-sanoqsiz ertaklardan biri bo'lsa kerak, deb o'ylardim. Biroq, keyin bilsam, gap unday emas ekan...

O'tgan yil kuzda men ovulimizdan telegraphma oldim. Vatandoshlarim jamoa o'z kuchi bilan qurgan yangi mактабning tantanali ochilish marosimiga taklif qilishibdi. Ovulimiz uchun bunday quvonchli kunlarda uyda o'tiravermasdan darhol taraddudga tushib, hatto bir necha kun oldin manzil sari yo'l oлган edim. Shu bahona atrofni miriqib tomosha qilib yurib, yangi rasmlar chizaman, deb o'ylardim. Ma'lum bo'lishicha, marosimiga taklif qilinganlar akademik Sulaymonovani kutishayotgan ekan. Aytishlaricha, bu yerda u bir-ikki kun bo'lib, so'ng Moskvaga ketar ekan.

Endilikda dong taratgan bu ayol bolaligidan ovulimizdan chiqib shaharga ketganligidan xabar-

dorman. Shaharda turganimda men u bilan tanishib olgan edim. To'ladan kelgan, o'qimishli, xushmuomala bu ayol ancha yoshlarga borib qolgan, oq tushib qolgan qalin sochlari silliq taralgan edi. Mashhur ovuldoshimiz universitetda kafedrani boshqarib, falsafa bo'yicha ma'ruzalar o'qib, akademiyadagi ishlardan tashqari chet ellarga ham bot-bot borib turardi. Gapning qisqasi, opa ish bilan o'ta band bo'lganligi sababli, u bilan yaqindan tanishish menga nasib qilmadi. Biroq har gal biz, qayerda bo'lmasin, uchrashib qolganimizda, opa ovuldagilarning hayoti bilan yaqindan qiziqar va juda qisqa bo'lsa-da, mening ishim haqida ham o'z fikrlarini aytardi. Nihoyat, kunlarning birida unga shuni aytishga jazm qildim:

– Oltinoy Sulaymonovna, ovulga borib, yurtdoshlar bilan uchrashsangiz yaxshi bolardi. U yerda hamma sizni biladi, siz bilan faxrlanishadi, biroq bilishganda ham orqavoratdan bilishadi, agar ular bilan tasodifan uchrashib qolsangiz, mashhur olimamiz bizdan o'zini chetga oladi, qadrdon ovuli Gurkurovga kelishni ham unutib qo'yan, deydiganlar ham topiladi.

– Albatta, borib turish kerak, – dedi Oltinoy Sulaymonovna miyig'ida kulib. – O'zim ham ko'pdan beri Gurkurovda bo'lishni orzu qilaman, qishlog'imizga bormaganimga ham ancha bo'lib qoldi. To'g'ri, ovulda qavm-qarindoshlarim yo'q. Biroq gap unda emas, albatta boraman. Ona yurtim sog'inchi yurak-bag'rimni o'rtaydi.

\* \* \*

Oltinoy Sulaymonovna mакtabning tantanali majlisi ochilishi oldidan yetib keldi. Derazadan

uning mashinasini ko'rib turgan majlis ahli yopirilgancha ko'chaga chiqib, hurmatli mehmonni shodiyona kutib oldi. Tanish-u notanish, keksa-yu yosh – hamma u bilan qo'l berib ko'rishishga oshiqardi. Oltinoy Sulaymonovna jamoa ahlining bunchalik iliq kutib olishini, ehtimol, o'ylamagan bo'lsa kerak, hatto u menga o'zini yo'qotib qo'yganday tuyuldi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib, odamlarga ta'zim qilgancha prezidiumga arang chiqib oldi.

Oltinoy Sulaymonovna o'z hayotida qanchalab tantanali yig'ilishlarda bo'lgan, uni hamisha shod-xurramlik va izzat-ikrom bilan kutib olishganlari turgan gap. Biroq bu yerda, oddiy qishloq mакtabida ovuldoshlarining bunchalik samimiy kutib olishidan behad hayajonlangan olima beixtiyor ko'z yoshlarini yashirishga harakat qilardi.

Tantanali yig'ilishda o'quvchilar aziz mehmonga gullar taqdim etishib, yangi mакtabning faxriy kitobini uning nomi bilan ochdilar. Keyin mакtab havaskorlari tomonidan qiziqarli konsert berildi. Nihoyat, barcha mehmonlar – o'qituvchi-yu xo'jalik faollari mакtab ma'muriyati tomonidan tashkil qilingan ziyofatga taklif etildi.

Mehmondorchilikda ham Oltinoy Sulaymonova ning ovulga tashrif buyurishi xususida qanchalar iliq gaplar aytildi. Uni gilamlar bilan bezatilgan eng faxrli o'ringa o'tqazib, qo'llaridan kelguncha, izzat-hurmatini bajo keltirishga harakat qilishdi. Bunday paytlarda mehmonlar, odatdagidek, ola-g'ovur ichida Oltinoy opaning salomatligi sha'niga qadah ko'tarishib, xushvaqtlik qilishib, shukuhli o'tirishga o'zgacha ruh va fayz bag'ishlar edilar. Shunda xonaga o'spirin yigitcha kirib kelib, mezbonga bir dasta telegrammalarni uzatdi: mакtabning ochilishi munosabati bilan sobiq o'quvchilar yo'llagan tabrik telegrammalari qo'lma-qo'l bo'lib ketdi.

– Hoy yigit, bu telegrammalarni Duyshen chol keltirdimi? – so'radi direktor.

– Ha, – javob berdi yigit. – Yig'ilishga yetib borib, telegrammalarni xaloyiq oldida o'qib berishlari uchun butun yo'l bo'yи otni qamchilab kelgan bo'sam-da, andak kechikib qoldim, deb xijolat bo'lib turibdi, oqsoqolimiz.

– Borib ayt, otdan tushib darhol bu yoqqa kelsin.

Yigit Duyshenni chaqirish uchun eshik tomon yo'naldi.

Yonimda o'tirgan Oltinoy opa kutilmaganda, nimadir esiga tushib qolganday allanechuk bo'lib ketdi-da, qaysi Duyshen haqida gap borayotganligini mendan so'rab qoldi.

– Kolxoz pochtachisi haqida, Oltinoy Sulaymonova, siz Duyshen cholni taniysizmi? – deb so'radim.

U dudmal bosh irg'ab qo'ydi va o'rnidan turishga taraddudlanayotgan ham ediki, shu payt deraza yonidan allakim otini yeldirib o'tib ketdi. Ortga qaytgan yigit xo'jayinga dedi:

– Og'ay, u kishiga yo'qlaganingizni aytdim, biroq tushmadi. Boshqa maktublarni ham joy-joyiga yetkazishi kerak-da.

– Mayli, yetkazsa yetkazaqolsin, uni ushlab turmaslik kerak. Qariyaning ham suhbatlashadigan o'z tengqurlari bordir, – dedi kimdir ko'ngli to'limgandan bo'lib.

– E! Bizning Duyshenni bilmas ekansizlar! U qonun-qoidadan chiqmaydigan kishi, xizmatini qoyillatmaguncha biron yoqqa jilmaydi, – qo'shib qo'ydi ikkinchi bir kimsa.

– Rostdanam, g'alati odam. Urush tugab, Ukrainada gospitaldan chiqqandan so'ng o'sha yerda yashagan. O'z yurtingda o'lganingga nima yetsin, – deb ovulga qaytganiga ham nari-berisi besh yil bo'ldi.

Boyaqish shu zaylda dunyodan so'qqabosh o'tib ketyapti.

– Har holda, bir kirib o'tganda yaxshi bo'lardi... Ha, mayli, – xo'jayin qo'l siltab qo'ya qoldi.

Ovulning faxrli kishilaridan biri qadah ko'tararkan:

– O'rtoqlar, agar eslaringda bo'lsa, bir vaqtlar Duyshenning maktabida o'qib yurgan kezlarimizda, uning o'zi ham alifbo harflarini to'liq bilmasdi, albatta, – so'zlovchi bu gaplarni aytishga aytdi-yu, hayratga tushganday, boshini sarak-sarak qilib, andishasizlarcha ko'zlarini qisib kulib qo'ydi.

– Xuddi shunday, u to'g'ri aytyapti, – mazax qilib kulishdi boshqalar.

– Nimasini aytasan! Ozmuncha nayranglar ko'rsatmadi deysanmi o'shanda bu Duyshen deganing. Biz bo'lsak, uni haqiqiy o'qituvchi, deb yurgan ekanmiz.

Xaxolab kulishlar pasaygandan so'ng qadah ko'targan odam so'zini davom ettirdi:

– Mana, endilikda odamlarimiz ko'z o'ngimizda o'sib ulg'ayishdi. Akademik Oltinoy Sulaymonovani butun mamlakat biladi. Deyarli barchamiz o'rta ma'lumotli, ko'pchiligidan esa oliy ma'lumotli bo'ldik. Birgina shuning o'ziyoq endilikda hayotimiz qanchalik o'zgarib borayotganligidan dalolat berib turibdi. Shunday ekan, qani, vatandoshlar, keling, Gurkurov ovulimiz o'g'il-qizlari bundan buyon ham o'z zamonasining ilg'or kishilar bo'lib qolishlari uchun qadah ko'taraylik!

Yig'ilish ahli yana shovqin ko'tarib, bu taklifni quvvatladilar. Ammo faqat Oltinoy Sulaymonova g'oyatda xijolat bo'lib, qizarib ketgancha qadahni labiga teggizib qo'ydi, xolos. O'shanda xushchaqchaq kayfiyatda o'tirganlar g'ala-g'ovur ichida uning qay holatga tushganini payqaganlari ham yo'q.

Oltinoy Sulaymonova bir necha marta soatiga qarab qo'ydi. So'ng mehmonlar sayr qilish uchun tash-qariga chiqqanlarida u odamlardan narida, tepalik-dagi ariq bo'yida, kuz shamolidan sarg'ish tusga kirgan qo'sh teraklardan ko'z uzmay, ko'ngli g'ash tortib, xayol surib turardi. Quyosh g'ira-shira och binafsharang dashtlik chizig'idan ufq sari enib borardi. Men Oltinoy Sulaymonovaga yaqin kelib:

– Hozir ular yaproqlarini to'kishyapti. Siz ularni bahor faslida ko'rganingizdami, – dedim.

– Ha, men ham shuni o'ylab turgan edim, – opa chuqur xo'rsindi-da, xuddi o'ziga o'zi gapirayotgan-dek bir lahza jimlikdan so'ng yana qo'shib qo'ydi:  
– Ha, shunday, olamda har bir mavjudotning o'z baphori-yu kuzi bor, – dedi ma'yuslanib.

Shu asnoda uning ajin bosgan so'lg'in yuzko'zlariga g'am-anduh ko'lankasi yugurgan esa-da, xotin-qizlarga xos nazokatli bir achinish bilan teraklardan ko'z uzmay turardi. Nogahon yonimda akademik Sulaymonova emas, quvlik-shumlikni bilmaydigan, quvonch-u tashvishlari oddiygina qirg'iz ayoli turganini ko'rdim. Bu olima ayol, chamasi, yoshlik chog'larida aytib kelingan ashulalarini endilikda eng baland tog' cho'qqilariga chiqib, bor ovoz bilan aytish mumkin emasligini eslayotganday edi. U teraklarga nazar solar ekan, yana nimadir demoq-chi bo'ldi-yu, fikridan qaytdi va qo'lida ushlab tur-gan ko'zoynagini darhol taqib oldi:

– Moskva poyezdi shu yerdan soat o'n birda o'tadi, shekilli?

– Ha, kechasi o'n birda o'tadi.

– Demak, yo'l hozirligini ko'rishim kerak.

– Nega endi muncha tez? Bir necha kun turishga va'da bergen edingiz-ku, Oltinoy Sulaymonova? Odamlarimiz hali ruxsat ham berishmas.

– Yo‘q, hoziroq jo‘nab ketishim kerak, zarur ishlarim bor.

Yurtdoshlari xafa bo‘lishlarini aytib, uni ko‘ndirishga qanchalik harakat qilishmasin, Oltinoy Sulaymonova o‘z qaroridan qaytmadi.

Quyosh botib, qorong‘ilashgan payt. Ovuldoshlar mehmondan ko‘ngillari to‘maganday, keyingi kelganda ko‘proq turish va’dasini olishdi. Men Oltinoy Sulaymonovani stansiyagacha kuzatib bordim.

Nega u bunchalik ketishga oshiqyapti? Ayniqsa, shunday quvonchli damlarda elatdoshlarini bunalik ranjitib ketishi haqiqatan ham menga g‘alati emasmi? Yo‘lda borayotib men undan bu haqda necha bor so‘ramoqchi bo‘ldim-u, ammo yuragim dov bermadi. Andishasizlik qilib qo‘yishimdan tashqari, baribir uning biron so‘z aytishiga ko‘zim yetmasdi. U butun yo‘l bo‘yi churq etmadi.

Stansiyaga yetib kelgach, nihoyat, men undan so‘radim:

– Oltinoy Sulaymonovna, nimadandir ko‘nglingiz g‘ash ko‘rinadi, balki sizni biron narsada ranjitib qo‘ygandirmiz?

– Yo‘q! Aslo unday fikrga bormang! Kimdan ham xafa bo‘lardim? Xafa bo‘lganda ham o‘zimdan xafa bo‘lishim kerak.

Shu bilan Oltinoy Sulaymonova yo‘lga ravona bo‘ldi. Men shaharga qaytib kelganimdan so‘ng, oradan bir necha kun o‘tib, kutilmaganda undan maktub oldim. U maktubda ilmiy ishlari bilan band bo‘lib, Moskvada uzoq muddat turib qolganligi haqidagi shunday yozibdi:

«Ishlarim qanchalik ko‘p va shoshilinch bo‘lmasin, ularning barchasini bir chetga qo‘yib, sizga ushbu maktubni yozishga qaror qildim... Agar maktubda yozganlarim sizni qiziqtirsa, unda aytganla-

rimni xaloyiqqa yetkazish haqida o'ylab ko'rishingizni o'tinib so'rayman. Bu nafaqat ovuldoshlarimiz, balki hamma uchun, ayniqsa, yoshlarimiz uchun zarur, deb hisoblayman. Men uzoq o'ylab shu fikrga keldim, bu mening odamlar oldidagi dil izhorim, men uni ado etishim kerak. Bundan qanchalik ko'p odam xabardor bolsa, mening vijdon azoblarim shunchalik kamayadi. Siz meni noqulay ahvolga solib qo'yaman, deb tortinib o'tirmang. Bor gapni yashirmang...»

Bir necha kun ushbu maktub ta'sirida yurdim va, nihoyat, barchasini, eng yaxshisi, Oltinoy Sulaymonovaning o'z tilidan hikoya qilishga jazm etdim.

\* \* \*

Bu voqeа 1924-yilda sodir bo'lgan edi. Ha, ayni shu yili...

Hozirgi xo'jaligimiz joylashgan yerda o'sha vaqtlar kichik bir ovul bo'lib, unda bir qism o'troq kambag'al «yotoqchi»lar<sup>2</sup> yashardi. Men o'sha kezlarda o'n to'rt yoshimda ota-onamdan yetim qolib, amakimning qaramog'ida kun kechirardim.

O'sha yili, kuzda o'ziga to'q chorvadorlar qishlov uchun tog'ga ko'chib ketganlaridan so'ng, oradan ko'p o'tmay, ovulimizda men ilgari ko'rmagan askar shinelli notanish yigit paydo bo'lib qoldi. Uning shinelini, negadir, qora movutdan tikilganligi uchun ham eslab qolgan edim. El-u xalqdan, markazdan uzoqda, tog'lar yon bag'ridagi ovloq joydan makon topgan ovulchamizda harbiy kiyimdagi bu kishining paydo bo'lishi kutilmagan voqeа edi.

Avval uni armiyada komandir bo'lib yurib, so'ng ovulga boshliq bo'lib kelibdi, deyishdi. Keyin bilishsa, u mutlaqo komandir emas, balki ocharchilik

<sup>2</sup> Qirg'izlar qashshoqlikdan o'troq bo'lib qolgan oilalarni yotoqchi deyishardi. (*Tarj.*)

yillari ovuldan ketib bir muddat temir yo'lda ishlab yurib, nihoyat, dom-daraksiz bo'lib ketgan o'sha Toshtanbekning o'g'li Duyshen ekan. Hukumat uni ovulda maktab ochib, bolalarni o'qitish uchun yuborganmish, deyishdi.

O'sha zamonlarda «maktab», «o'qish» degan so'zlar yangilik bo'lib, ko'pchilik hali ularning ma'nosini yaxshi anglab yetmasdi. Bu mish-mishlar rostmi, yolg'onmi, endi nima bo'lar ekan, deb turganlarida, ittifoqo, xaloyiq ovul o'rtasidagi tepalikka yig'ilish-sin, degan xabar tarqaldi.

Amakim bo'lsa, uzoq vaqt: «Bunisi yana qanaqa majlis ekan? Qachon qarama, odamlarni chalg'itib, ishdan qoldirishgani qoldirishgan», – deb to'ng'il-lashni qo'ymasa-da, baribir qirchang'l otini egarlab mingancha yig'inga jo'nadi. Uning ortidan qo'shni bolalarga qo'shilib men ham yugurib qoldim.

Biz halloslagancha odatdagidek, har gal yig'ilish o'tkaziladigan tepalikka yetib kelganimizda bir to'da piyoda va otliqlar orasida o'sha qora shinelli, rang-par yigit nutq so'zlayotgan ekan. Biz uning so'zlari yaxshi eshitilmaganligi bois yaqinroq keldik. Ammo shu payt juldur po'stinli bir qariya, xuddi uyqudan cho'chib turganday, birdan uning gapini bo'ldi:

– Ey, bolam, – dedi u labi-labiga tegmay duduqlangancha, – ilgarilari bolalarni mullalar o'qitishardi, biz otangning kim ekanligini bilamiz: u ham bizga o'xshagan kambag'al-bechora kimsalardan edi. Qani, ayt-chi, sen qachondan beri mulla bo'lib qolding? – dedi.

– Men mulla emasman, oqsoqol, – deya zudlik bilan javob qaytardi Duyshen. – Bolalarni endi mul-lalar emas, balki o'qituvchilar o'qitishadi. Men armiyada yurib xat-savodimni chiqarib keldim, ungacha ham biroz o'qigan edim. Mana, qanaqa mullaman.

- Ha, bu boshqa gap...
- Barakalla! – degan ovozlar yangradi.
- Shunaqa gaplar, meni bolalarni o'qitsin deb, muallimlikka yuborishdi. Buning uchun esa, qanaqa bo'lsa ham, bino topishimiz kerak. Ana u tepalikdagi eski otxonani tartibga solishda sizlar al-batta yordamlashasizlar, degan umiddaman. Xo'sh, shunga nima deysizlar?

Odamlar, bu kelgindi nima deb valdirayapti, deganday biroz kalovlanib turishardi. Shunda anchan dan beri egarning qoshiga tirsagi bilan suyanib, gapni tinglab turgan Satimqul chatoq ora-sira tish orasidan tupurgancha:

– E, qo'ysang-chi, bu safsatalaringni, – deya so'z qotdi ko'zlarini qisib, xuddi uni nishonga olganday. – Qani, ayt-chi, bizga mакtabning nima keragi bor o'zi?

– Nima keragi bor emish, – talmovsiradi Duyshen.

– To'g'ri, haq gapni aytdil! – ilib ketdi kimdir.

Hamma birdan harakatga kelib, shovqin ko'tara boshladи:

– Biz azal-azaldan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelganmiz. Bizni ketmon boqqan. Endi bola-chaqalarimiz o'qib amaldor bo'lisharmidi? Xat-savodli bo'lish boshliqlarga kerak, biz bo'lsak oddiy xalqmiz. Boshimizni qotirma, yigit!

Oraga jimlik cho'kdi.

– Nahotki, bolalarning o'qishiga qarshi bo'lsalaring? – taajjublanib so'radi Duyshen, atrofdagi tikilib turgan odamlarga nazar tashlar ekan.

– Agar qarshi bo'lsak, majbur qilarmiding? U zamonlar o'tib ketgan. Endi biz ozod, emin-erkin xalqmiz, qanday istasak, shunday yashaymiz! – dedi bir kimsa.

Bu gaplarni eshitgan Duyshenni chaqmoq urgандай bo'lib, rang-ro'yi bo'zday oqarib ketdi. Qaltiragan

barmoqlari bilan shineli ilgaklarini yechib, gimnast-yorkasi kissasidan shosha-pisha to'rt buklangan qog'ozni olib ochib, boshi uzra ko'targancha dedi:

– Demak, sizlar hukumatning bolalarni o'qitish kerak, deb muhr bosilgan ushbu hujjatiga qarshisizlar, shundoqmi? Unday bo'lsa, sizlarga yer-u suvni, erk-u ozodlikni kim berdi? Qani, hukumatning qonunlariga kim qarshi? Javob bersin!

«Javob bersin» so'zini u shu qadar zarda bilan hayqirib aytdiki, go'yo iliq kuz sokinligini buzib otilgan o'q tog' qoyalariga urilganday aks sado berdi. Bu gal biron kimsa og'iz 'ochishga jur'at etmadi, hammaning boshi quyi solindi.

– Biz, axir, kambag'allarmiz-ku, – dedi Duyshen, hovuridan tushib, so'zini davom ettirar ekan, – hukumat bizni yorug'likka chiqsin, o'qib xat-savodli bo'lsin, deyapti. Buning uchun esa bolalarimizni o'qitmog'imiz darkor...

Duyshen o'zining aytgan so'zlariga javob kutowtayotgandek sukut saqlab turgan edi, shunda sen qachondan beri mulla bo'lib qolding, deb so'ragan o'sha juldur po'stinli qariya, murosaga kelganday ming'illab dedi:

– Ha, mayli, ko'ngling shuni juda istab qolgan bo'lsa, o'qitaver, bizga nima? Biz qonunga qarshi emasmiz.

– Ammo menga yordam berishlaringizni so'rayman. Biz anavi tepalikdagi boydan qolgan otxonani ta'mirdan chiqarib, jarariqqa ko'prik solishimiz, maktabga o'tin tayyorlashimiz kerak.

– Shoshmay tur, yigit, juda chaqqon chiqib qolding-ku, – Duyshenning so'zini bo'ldi o'jar Satimqul.

U odadtagidek tishlari orasidan chirt etkazib tupurib, ko'zlarini qisgancha, yana Duyshenni ni-shonga olganday dedi:

– Sen, yigit, «maktab ochaman» deb butun ovulga jar solyapsan. Bunday qaraganda, na ustingda to‘ning, na ostingda oting, na haydashga bir parcha yering, na qo‘rada boqib qo‘ygan moling bor! Bu ahvolda qanday yashashingni bir o‘ylab ko‘rdingmi o‘zi, azizim? Nima, ot o‘g‘irlab kun ko‘rmoqchimisan? Ammo bizda unday otlar yo‘q. Ular tog‘liklarda bo‘ladi.

Duyshen bir nima deb keskin javob qaytarmoqchi bo‘ldi-yu, yana bir zum jim qolib, vazminlik bilan dedi:

– Bir navi hayot kechiraman. Hukumat menga maosh to‘laydi.

– E-e, boyadan beri shuni aytmaysanmi! – Satimqul ham qanoat hosil qilganday, istehzoli jilmayib, egar ustida g‘olibona qaddini rostlab o‘tirdi. – Endi bilsak, gap bu yoqda ekan. Sen yigit, o‘z bilganiningni qilib, hukumat bergen o‘sha imtiyoz maoshing bilan bolalarni o‘qitaver. Hukumat xazinasida pul yetarli. Bizni esa tinch qo‘y, xudoga shukur, tashvishimiz o‘zimizga yetib ortadi...

Shu so‘zlarni ayta turib Satimqul otining boshini shartta burgancha jo‘nab qoldi. Uning ortidan bosh-qalar ham asta-sekin tarqala boshlashdi. Duyshen bo‘lsa, qo‘lida qog‘ozini ushlagancha turib qoldi. Boyoqish uni nima qilishini bilmasdi...

Bechoraga rahmim kelib ketdi. Undan ko‘z uzmay turarkanman, yonimdan o‘tib ketayotgan amakim:

– Ha, paxmoq soch, sen bu yerda nima qilib ang-rayib turibsan, qani, tuyog‘ingni shiqillatib, uyga jo‘nab qol-chi! – men ham bolalarning ortidan yugurib qoldim. – Buni qara-ya, sen tirranchalar ham yig‘ilishga juda serqatnov bo‘lib qoldilaring!

Ertasi kuni qizlar bilan suvga borayotgan edik, yo‘lda Duyshenni uchratib qoldik. U belkurak, ketmon, bolta va yana qo‘lida qandaydir eski paqir ko‘targancha anhorning narigi qirg‘og‘iga o‘tib keta-yotgan ekan.

Shu-shu, qora shinel kiyib olgan bu so'qqabosh kimsa har kuni saharlab turib so'qmoq yo'l orqali tepalikdagi tashlandiq otxona sari yo'l olar va har kuni allanimalar bilan mashg'ul bo'lib, yarim tunda ovulga qaytib tushardi. Biz uni ko'pincha kattakon bir bog'lam quvray<sup>3</sup> yoki poxol orqalab ketayotgan holda ko'rardik. Uni uzoqdan ko'rganlar uzangiga oyoq tirab, qo'zg'alib, kaftlarini soyabon qilganlaricha, bu kim bo'ldi ekan, deganday ajablanib so'z yurita boshlardilar:

- Ana u, o'tin ko'tarib ketayotgan Duyshen muallim emasmi?
- Xuddi o'zi.
- Eh, sho'ring qurg'ur, bechora. O'qituvchilik ham oson ish emas ekan-da.
- Bo'lmasam-chi! Nima deb o'yloving? Ko'targan yukiga qara, boyning batragi ham buncha yuk ko'tarmaydi.
- Uning so'zlarini eshitdingmi, gapga juda chechan ko'rinati!
- Chunki qo'lida muhr bosilgan qog'ozi bor-da: mana gap qayoqda!

Kunlardan birida, odatdagidek, adirdan tezak terib kelayotib, maktab tomon burildik: muallimning nima qilayotgani bizni qiziqtirardi. Loydan qurilgan bu saroy bir vaqlar boyning otxonasi bo'lgan. Qish kunlari qulunlagan biyalarni toyлari bilan shu yerda boqishardi. Sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng, boy qayoqqadir ko'chib ketib, otxonadan faqat vayrona qolgan edi. Shu-shu bu yerga biron ta kimsa yo'lmay qo'ygani bois uning atrofini ayqash-uyqash o't-o'lalar, chakamug'-u tikanaklar bosib ketgan edi. Endi bo'lsa, ular ildizi bilan sug'urib olinib, bir chekkaga uyib qo'yilgan, qo'ra tozalanib, tartibga solingan; yomg'irdan nurab, qulab tushgan

<sup>3</sup> Quvray – bir xil xashaki o't.

devorlari loy bilan shuvalib, qovjirab, tob tashlab qiyshayib ketgan va turfa ohangda ochilib-yopiladi-gan eshik tavaqalari epaqaga keltirilib, hamma yoq saranjom-sarishta qilib qo'yilgan edi. Xullas, otxona yangi qiyofa kasb etgan edi.

Biroz dam olaylik, deb, tezak to'la qoplarimizni yerga qo'yib turganimizda eshikdan ust-boshi loyga belangan Duyshen chiqib qoldi. U bizni ko'rishi bilan yuzlaridagi terlarini artib, kulimsirab qo'ydi:

– E, kelinglar, qizlar. Tezak terib yuribsizlarmi?

Biz qoplar yoniga cho'kka tushgancha tizilishib o'tirib, uyalganimizdan, ha, deganday bosh irg'ab, bir-birimizga qarab qo'ydik. Duyshen tortinib turganimizni darhol sezdi-da, bizga dalda berganday ko'z qisib qo'ydi:

– Qoplaringiz o'zlariningizdan ham katta-ku. Birrov bo'lsa-da, kirib o'tganlaringiz ayni muddao bo'ldi, qizlarim, axir, shu yerda o'qishlaring kerak-ku, maktablaring ham tayyor bo'lay deb qoldi. Ana, ko'ryapsizlarmi, hozirgina burchakka pechkani eslatuvchi o'choqboshi qurib, hatto tomidan mo'ri ham chiqarib qo'ydim! Endi qishga yoqilg'i tayyorlashimiz kerak. Ha, bundan g'am yemasak ham bo'ladi – atrofimiz to'la quvray. Qarabsizki, yerga poxolni qalinroq to'shaymiz-da, o'qishni boshlab yuboramiz. Qalay, o'qishni xohlaysizlarmi, maktabga kelasizlarmi?

Dugonalarim ichida kattarog'i men edim. Shuning uchun ham, bir entikdim-da, javob berishga jur'at etdim:

– Agar yangam ruxsat bersa, qatnab turaman.  
– Nega ruxsat bermas ekan, albatta, ruxsat bera-di. Isming nima?

– Oltinoy, – javob berdim men, yirtiq tizzamni kaf-tim bilan yoparkanman.  
– Oltinoy – chiroyli ism ekan. – Uning erkalayot-ganday muloyim kulib boqishidan mening ham

dilim yorishib ketganday bo'ldi. – Sen kimning qizi bo'lasan?

Nafasim ichimga tushib, sukul saqlab turdim: rahmdillik qilganlarni yoqtirmasdim.

– Yetim qolgan, hech kimi yo'q, amakisinkida yashaydi, – shipshitishdi dugonalarim.

– Bo'lmasa, gap bunday, – dedi Duyshen yana kulimsiragancha razm solib turar ekan, – sen boshqa bolalarni ham birga o'qiyimiz, deb mакtabga boshlab kel. Ma'qulmi? Qizlar, sizlar ham eshitdilaring-a?

– Ma'qul, amaki.

– Meni muallim, deb atayveringlar. Maktabni kirib ko'rasizlarmi? Tortin manglar.

– Yo'q, borishimiz kerak, – dedik uyalganimizdan.

– Mayli, uylaringga bora qolingga. Maktabni esa bir yo'la o'qishga kelganlaringda ko'rasizlar. Men bo'sam, shom tushguncha yana birrov quvrayga borib kelayin.

Duyshen o'roq, arqonlarini olib, dalaga chiqib ketdi. Bizlar ham qoplarimizni orqalagancha ovul sari pildirab ketdik. Shunda nogahon xayolimga bir fikr kelib qoldi:

– Hoy, qizlar, to'xtanglar! – deya qichqirdim. Kelinglar, tezaklarni maktabda qoldirib ketamiz, qishga o'tin kerak-ku.

– Uyga quppa-quruq boramizmi? Seni qara-yu!

– Ha, borib yana qayta terib kelamiz.

– Yo'q, kech bo'lib qoldi, uydagilar nima deydi?

Shu yo'sinda dugonalarim meni kutib o'tirmasdan, qoplarini ko'targancha uylariga jo'nab qolishdi.

\* \* \*

O'sha kuni meni bu ishga nima majbur etganini hanuzgacha tushunib yetganim yo'q. Dugonalarim

gapimga kirmaganlari uchun ranjiganimdanmi yoki bo'lmasa bolalik chog'larimdan oq erk-u xohishim poymol etilib, nobop kimsalarning do'q-po'pisasi ostida yashab kelganimdanmi yoki ilgari ko'rmagan, bilmagan bir odamning kutilmaganda menga shunchaki bir-ikki og'iz iliq so'z bilan iltifot qilib ko'nglimni ko'targanligi uchunmi, harqalay minnatdorchilik bildirsam, degan edim. Chinakam taqdirim, hayotimning butun quvonch-u sarson-sargardonliklari xuddi o'sha kundan, o'sha bir qop tezak hangomasidan boshlanganini yaxshi anglab yetgan edim. Bunday deyishimga sabab ayni o'sha kuni hayotimda birinchi bor o'ylamay-netmay tanbeh berishlaridan cho'chimay, ichki bir sezgi bilan ko'ngil da'vatini ado etishga jur'at qilgan edim. Dugonalarim meni tashlab ketganlarida men Duyshenning mакtabiga buri-la qolib, qopdag'i tezakni darhol binoning devori ostiga to'kdim-da, yana shu zahotiyoy qayta terib kelish uchun jarlig-u dashti-adirlar sari jadallab ketdim.

Go'yo biron ishni qoyillatib qo'yganday, quvonganidan yuragim junbishga kelib, hovliqqancha qayoqqa chonib ketayotganimni o'zim ham bilmasdim. Bunchalik baxtiyor ekanligimdan oftob ham ogohdek edi. Ha, mening qushday emin-erkin uchib borayotganidan uning ham xabardor va mamnun ekaniga ishonch hosil qilgan edim. Chunki men, andak bo'lsa-da, xayrli ishga qo'l urgan edim.

Quyosh so'nggi zarrin nurlarini sochib, allaqachon tepaliklar uzra yonboshlagan bo'lsa-da, nazarimda, toki nigohimga to'yib olmaguncha bota-diganga o'xshamasdi. U oyoqlarim ostiga poyandoz solganday xira tortgan kuzgi yerkarni to'q qizil, binafsha va pushti ranglarga bezab, kiyilaverib uvadasi chiqib ketgan kamzulimning kumushrang tugmalarida olovday yolqinlanib, izg'irindan quv-

ragan chiylarning<sup>4</sup> popuklariga zeb berib turardi. Men bo'lsam, hamon chopqillab borar ekanman, sevinchim ichimga sig'may, xayolan yer-u ko'kka, shamolga yuzlanib: «Ko'ryapsizlarmi! Men naqadar baxtiyorman! Men endi so'zsiz maktabga boraman! O'zimgina emas, boshqa tengqurlarimni ham birga olib boraman!» – deb faxrlanardim.

Shu ko'yи qancha chopganimni bilmayman, nogahon, tezak terishim kerak-ku, degan o'y esimga tushib qoldi. Qizig'i shundaki, butun yoz bo'yи bu yerlarda qanchalab mollar boqilib, har qadamda tezaklar uchrardi, endi esa ularni xuddi yer yutib yuborganday, nishona yo'q. Balki, men ularni ilg'amayotgandirman? U yoqdan bu yoqqa qanchalik yugurib yurmayin, tezaklar shunchalik kam uchrardi. O'shanda qosh qoraymasdan qopimni tezroq to'ldira qolsam, deb yuragimni hovuchlab, shoshilganimdan chiy butalari orasida adashib qolibman. Harqalay, naridan-beri qopimni qappaytirganimda quyosh botib, kimsasiz, sukunatli borliqni qorong'iilik chulg'ab olgan edi. Bunaqa bemahalda biyday dalada, hali hech qachon yolg'iz o'zim qolib ketmagandim. Dahshatga tushganidan, o'zimni yo'qotib, qopimni yelkamga tashlagancha ovul sari yugurib ketdim. Xudo haqi, ho'ngrab yig'lab yuborishimga oz qolgan edi. Duyshenning haligi tasalli berib aytgan nasihatomuz so'zlarini eslar ekanman, uning ojizligimni ko'rib ensasi qotmasin, degan xayolga borib, xuddi u sirtdan kuzatib turganday or-nomus kuchlilik qilib, yonverimga qaramasdan, o'zimni dadil tutgancha boraverdim.

Hamma yog'im terga, changga botib, halloslagancha uyga yetib keldim. Og'ir nafas olib, ostona hatlab o'tgan ham edim, o'choq boshida o't yoqib o'tirgan yangam o'rnidan tura solib, xo'mraygancha

<sup>4</sup> Chiy – cho'l-adirlarda o'sadigan baland, boshqoli o'simlik.

men tomon xezlandi. U o'ta badjahl va qo'rs muomallali ayol bo'lib, vajohatidan ot hurkardi.

– Yer yutgur, qaysi go'rda izg'ib yuribsan? – deya o'shqirdi u men tomon yaqinlashar ekan, og'iz ochishga ulgurganimcha yo'q ham ediki, qo'limgagi qopni tortib olib, chetga itqitib yubordi. – Bor-yo'g'i shumi, kun bo'y়i sang'ib yurib, tergan tezaging shumi?

Chamamda, dugonalarim allaqachon og'izlaridan gullab qo'yishgan ko'rindi.

– E-e-e, isqirt, hayvon! Maktabda o'ynash topganimisan, maktabing bilan qo'shmozor bo'lgur! – yangam jazavasi tutgancha qulog'imni burab, boshim, ko'zim aralash savalay ketdi. – Yaramas, yetimcha – yetti kulcha! Bo'ri bolasi it bo'lmas, deydilar. Odamlarning bolasi uyga tashisa, sen bo'lsang, uydan chetga tashiysan. Yana maktab haqida so'z ocha ko'r-chi, oyog'ingni sindirib, maktab qanaqaligini senga ko'rsatib qo'yaman...

Men baqirib yuborishdan o'zimni tiyib, azbaroyi qo'rqqanimdan miq etmasdan turaverdim. Keyin o'choqqa o'tin tashlab, kulrang mushugimizni silab, unsiz yig'lagancha, shumshayib o'tiraverdim. Mushugim esa, har gal yig'laganimni sezib turganday, darhol tizzamga kelib o'tirib olardi. Men yangamning do'q-po'pisalari-yu do'pposlashlaridan emas (ularga allaqachon ko'nikib qolgan edim), balki u endi meni hecham maktabga yubormay qo'yadi, degan xayolda yig'lardim...

\* \* \*

Oradan, chamasi, ikki kunlar o'tib, erta tongda ovulda itlar hurib, uzuq-yuluq ovozlar eshitila boshladi. Ma'lum bo'lishicha, Duyshen ovuldagi uylarga birma-bir kirib, maktabga bolalarni to'playotgan ekan. O'sha kezlarda ovulimizda har kim o'z bilgani-

cha, ko'ngli xushlagan joyda paxsa devorli uylar qu-rib yashayverishgan, xuddi shuningdek, ko'chalari-mizning ham tayini bo'lмаган. Duyshen yoniga o'n nafar bolakaylarni olib, ana shu pastqam kulbalar oralab u hovlidan bu hovliga o'tib yurgan ekan.

Bizning uyimiz eng chetdagisi edi. Ayni shu ma-hal biz yangam ikkimiz o'g'irda tariq yanchayot-gan edik, amakim esa omborxona yonidagi o'rada saqlanayotgan donni qazib olib bozorga eltib sotmoq uchun hozirlik ko'rib turgan payt edi. Biz bosqon-chilar singari zilday o'g'ir dastasini navbat bilan birimiz qo'yib, birimiz urar ekanmiz, Duyshenlar yaqinlashib qolgandir, degan ilinjda yer ostidan ora-sira ko'z qirimni tashlab qo'yishga ulgurardim. Yangam meni olsa ham mактабга yubormasligiga ko'zim yetib turgan bo'lsa-da, yaxshi niyat – yorti mol deganlaridek, Duyshenning bu yerga kelishini va hech bo'lмаганда meni ko'rib, qayerda, qanday yashayotganidan xabardor bo'lishini istab, ilohim hovlimizga birrov kirib o'tishsin-da, deya Xudodan iltijo qilib, uning kelishini sabrsizlik bilan kutardim.

– Assalomu alaykum, kelinoyi, hormanglar! Mana, bir gala bo'lishib sizlarnikiga mehmonga kelyapmiz, ko'ryapsizmi, biz qanchamiz! – deya hazil-huzul aralash sidqidildan salomlashdi Duyshen yangam bilan, bir to'da bo'lajak shogirdlarni ergashtirgan-cha hovliga kirib kelarkan.

Yangam, shunchaki javob tariqasida, allanima deganday to'ng'llab qo'ydi, amakim bo'lsa, o'ra qa-ziyotgan joyidan hatto boshini ko'tarib ham qara-gani yo'q. Duyshen bunga parvo ham qilmadi. U, aksincha, ishbilarmon kishilardek, hovli sahnidagi g'o'lalar ustiga borib cho'qqayib o'tirdi-da, qo'liga qalam va qog'oz olib:

– Bugun biz maktabda o'qishni boshlaymiz. Qizingiz necha yoshda? – deb so'radi. Ensasi qotgan

yangam javob berish o‘rniga zarda bilan o‘g‘ir das-tasini gurs etkizib urib qo‘ydi. Men bo‘sam, endi bu yog‘i nima bo‘lar ekan, deb jon hovuchlab turardim. Duyshen menga qarab kulimsirab qo‘yar ekan, yana oldingidek qalbimga iliqlik yugurdi.

– Oltinoy, necha yoshga kirding? – so‘radi u. Men javob berishga jur‘at etolmadim.

– Buning senga nima keragi bor, nazoratchimisan? – dedi g‘azabga to‘lgan yangam, o‘ta andishasizlik bilan bobillab berdi. – Bunga o‘qishni kim qo‘yibdi! Bunga o‘xshagan qanchadan-qancha ota-onasiz yetim bolalar ham o‘qimasdan yurishibdi-ku! Sen ana ularning bir guruhini yig‘ib olibsan, ana o‘shalarni maktabingga olib borib o‘qitaver, bu yerda sening keraging yo‘q.

Duyshen sapchib o‘rnidan turib ketdi.

– Nima deyapsiz o‘zi? Yetimlik uning peshanasiga yozib qo‘yilmagan-ku yoki yetim bolalar o‘qimasin, degan qonun bormi?

– Sening qonun-ponuning bilan ishim yo‘q. Mening o‘z qonunim bor. Sen menga aql o‘rgatma!

– Qonun hammamiz uchun bitta. Agar bu qizaloq sizlarga kerak bo‘lmasa, bizlarga kerak, hukumatga kerak. Agar monelik qilsalaringiz, qonunimizni ham ishga solishimiz mumkin!

– Sen, o‘zboshimcha boshliq qayerdan paydo bo‘lib qolding? – dedi yangam ikki qo‘lini beliga qo‘yib gerdaygancha. – O‘zing ayt-chi, yedirib-ichirib katta qilgan bu qiz mening ixtiyorimda bo‘lishi kerakmi yoki senga o‘xshagan betayin, kelgindilarning izmida bo‘lishi kerakmi, takror aytaman, unga kim javob berishi kerak?

Agar shu payt beligacha yarim yalang‘och bo‘lib olgan amakim o‘radan ko‘rinish bermaganda, bu hangoma nima bilan tugashini kim bilardi, deysiz? U xotinining har bir ishga suqilaverishini zin-

hor yoqtirmasdi. Bu gal ham zardasi qaynab ket-di, shekilli:

– Ey, manjalaqi! – qichqirdi u o‘radan chiqar ekan.  
– Sen qachondan beri ro‘zg‘orni kattasi bo‘lib qolding? Ko‘pam valdirayvermasdan ishingni qilsang bo‘lmaydimi? A, sen, Toshtanbekning o‘g‘li, gapni ko‘paytirmasdan qizni olib ketaver, xohlasang o‘qit, xohlasang pishirib ye. Qani, endi bu yerdan tezroq tuyog‘ingni shiqillatib qol!

– Bu arzanda maktabda sanqib yursa, uy ishlarini kim qiladi? Baloga balogardon bo‘lib, yana ro‘zg‘or ishlariga ko‘milar ekanman-da? – deya yan-gam yig‘lashga tushgan edi, amakim:

– Chakagingni o‘chir! Gap bitta, aytganim aytgan, deganim degan! – dedi.

Yomonlik bor joyda yaxshilik ham bor, deganlari-dek, birinchi bor maktabga borishim ana shunaqa g‘alva bilan boshlangan edi.

Shu kundan e’tiboran Duyshen har kuni ertalab, hovlima-hovli yurib, bizlarni maktabga boshlab borardi.

Maktabga borgan birinchi kuminizda o‘qituvchi yerga to‘shalgan poxol ustiga o‘tqazib, har birimizga bittadan daftar, qalam va yupqa taxtacha berdi-da:

– Taxtachani yozishga o‘ng‘ay bo‘lsin uchun tiz-zalaringizga qo‘yib olinglar, – deb tushuntirdi. Keyin davom etdi. – Bolalar, men sizlarga harflarni, so‘zlar-ni va sonlarni qanday yozishni, o‘qishni o‘rgataman, o‘zim nimani bilsam, sizlarga ham shuni o‘rgataman.

Darvoqe, u bilganlarini hayratomuz bir tarzda, sabr-toqat bilan bizga ham yuqtira boshlagandi. Har bir o‘quvchining yoniga kelib qalamni qanday tutishni, so‘ng esa tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlarni ishtiyoq bilan tushuntirib berardi.

Hozir o‘ylab qarasam, haqiqatan ham, so‘zlar-ni hijjalab o‘qiydigan, qo‘lida biron ta darslik, hatto

alifbe kitobi ham bo'lмаган бу чаласавод ўигитнинг bunday buyuk ishga jur'at etganligidan hayratda qolaman. Ota-bobolari yetti pushtigacha savodsiz o'tgan bolalarni o'qitish hazilakam ish emasdi. Duyshenning bolsa o'qitish dasturi va usullari haqida zarracha ham tasavvurga ega emasdi, albatta. Shu bilan birga, to'g'risini aytganda, u bunaqa narsalar borligiga shubha ham qilmasdi.

U bizni o'zi bilgan, ma'qul ko'рган yo'l-yo'riqlar asosida o'qitaverdi. Men bo'sam, uning chin dildan jonbozlik ko'rsatib ishlaganiga ishonch hosil qilgan edim. Harqalay, uning boshlagan xayrli ishlari, menimcha, zoye ketmadi. Duyshen qahramonlik ko'rsatgan bolsa-da, hali buni o'zi ham bilmasdi. Ha, bu chinakam qahramonlik edi, chunki o'sha kezlarda ovul va mакtab оstonasidan nariga o'tmagان qирғиз боласи учун тешик тирқишларидан hamisha olisdagi qorli tog' cho'qqilar ko'rинib turadigan shu paxsa devorli maktabda, – agar uni maktab deb atash mumkin bolsa, – misli ko'rilmagan va quloq eshitmagan shu maktabda, nogahon, yangi bir olam namoyon bo'lgan edi.

Avliyootadan ham, Toshkentdek azim shahardan ham necha bor katta shaharlar borligini va olamda Talas vodiysi eslatuvchi ulkan dengizlar borligini va ularda tog'larday ulkan kemalar suzib yurganini o'shanda bilgan edik, shuningdek, bozorda sotiladigan lampa moyining (kerosin) yer ostidan qazib olinishini ham o'shanda bilgan edik. Hayot izga tushib, saodatli kunlar kelishi bilan tang-u tor maktabimiz o'quvchilarining keng va yorug' binolarda o'qishlariga ham ayni shu kezlardayoq qat'iy ishonch hosil qilgan edik.

Har oyning adog'ida Duyshen ish bilan bo'lisga borib, u yoqda ikki-uch kun qolib ketardi. Shunda biz uni mushtoqlik bilan kutardik. Agar jonajon tug'ish-

gan akam bo'lgan taqdirda ham, men uni, ehtimol, Duyshenning qaytishini kutganday sabrsizlik bilan kutmagan bo'lar edim. Yangam sezib qolmasin deb, tashqariga yugurib chiqqanimcha dasht yo'lliga zim-dan uzoq muddat intizorlik bilan ko'z tikaman; xurjun ko'targan muallimimiz ko'rinish qolarmikin, uning jozi-bali tabassumi-yu ma'rifatga undovchi so'zlariga yana oshno bo'larmikanman, deya oshiqardim.

Duyshen o'qitgan o'n chog'li bola orasida eng kattasi men edim. Ehtimol, shuning uchun hamdir, sinfdoshlarimizga nisbatan yaxshi o'qir edim. Bugina emas, muallimning har bir aytgan so'zi-yu ko'rsatgan har bir harfini o'zim uchun muqaddas tutardim. Va men uchun uning bergan saboqlarini ong-u shuurimga singdirib olishdan ham ko'ra ulkanroq va oljanob-roq yumush yo'qdek edi bu olamda.

Qayoqqa bormay, muallim bergan daftarni asrab-avaylardim. O'zimcha o'roq uchida yer chizib, devorlarning sirti-yu qorlarning ustiga harflarni va so'zlarni yozib, o'qib yurardim. Duyshendan ko'ra uddaburron va bilimdon kishi yo'q edi, mening nazarimda.

\* \* \*

Bu orada, ana-mana deguncha qishli-qirovli kunlar ham kirib keldi. Birinchi qor tushguncha biz tepalik ostidagi shovullab oqayotgan soydan qo'l tutishib ke-chib o'tib yurdik. Keyinchalik bolalarning oyoqlariga so'zak kirib, toqatlari toq bo'ldi, ayniqsa, kichkintoy bolakylarning ayozga dosh berolmaganidan hat-to ko'zları jiqla yoshga to'lar edi. Shunda Duyshen ularni navbatma-navbat, birini yelkasiga, ikkinchisini qo'lida ko'targancha soydan o'tkazib qo'yardi.

Endi o'ylab qarasam, bularning bari xuddi cho'pchakka o'xshardi. O'sha kezlarda odamlar no-

donligidanmi yoki bo'lmasa tushunib yetmaganidanmi, haytovur, ular Duyshenning ustidan kulisshardi. Ayniqsa, qishlovni tog'larda o'tkazib, gohida tegirmonga g'alla oqlash (yanchish)ga kelib turadigan boy-boyvachchalarni aytmaysizmi. Boshlariga tulki telpag-u egnilariga qo'y terisidan po'stin kiyib olgan bu kimsalar sarkash otlarini o'ynatib, necha bor kechuvda bizga duch kelib, yonimizdan o'tayotganlarida ko'zlarini baqraytirgancha Duyshenni masxaralashardi. Ulardan biri:

– Ko'ryapsanmi, birini orqalab, ikkinchisini qo'lda ko'tarib olibdi, – deya qamchisi bilan qo'shnisini turrib, piqillab kulib yubordi, boshqasi esa:

– Eh, bunaqa mehnatkashligini oldinroq bilganim-dami, yer yutgan taqdirda ham, ikkinchi xotinlikka olgan bo'lardim! – deya qo'shib qo'ydi.

Ular har gal, shu zaylda pishqirgan otlarini qam-chilab, hamma yog'imizga shag'al aralash loy sachrabit, qah-qah urib kulishgancha o'tib ketishardi.

O'shanda Duyshenga ichim achib, rahmim ke-lib, bu fahm-farosatsiz kimsalarga yetib olsam-da, otlari tizginidan ushlab olib, badbashara yuzlariga tik qarab: «Muallimimiz haqida bunday beandisha so'zlarni aytishga qanday jur'at etyapsizlar! Sadqayi odam ketinglar! Sizlar odam emas, balki odam qiyofasidagi iblissizlar!» deya qichqirgim kelardi.

Ammo javobsiz qolgan qiz bolaning nidosiga, shu asioda, kim ham iltifot qilardi deysiz? Mening esa alamli ko'z yoshlarimni yutishdan boshqa ilojim qolmagan edi, xolos. Haqoratlangan muallimimizga kelsak, go'yo u hech nimani ko'rмагандай, eshitmagандай, pinagini buzmasdan, aksincha, bu qo'lansa gaplardan bizlarni alahsitishga va hazil-huzul qilib kuldirishga urinardi.

Soyga ko'prik qurish uchun Duyshen qanchalik harakat qilmasin, yog'och topolmadi. Bir kuni mak-

tabdan qaytayotib, bolalarni suvdan o'tkazib qo'ydi-  
da, ikkalamiz sohilda qolib, tosh va chimlar yordami-  
da hatlab o'tadigan joy tayyorlashga qaror qildik. Agar  
adolat yuzasidan aytadigan bo'sak, ovulimiz ahli  
bir yoqadan bosh chiqarib, bamaslahat ish tutib, ik-  
ki-uchta yog'och-taxta keltirib tashlaganlarida olam  
guliston bo'lib, ko'prik ham bitib qolgan bo'lardi. Gap  
shundaki, o'sha kezlarda o'qishning ma'nisiga yetma-  
gan avom xalq bunga deyarli ahamiyat ham bermasdi.  
Duyshenni esa bekorchilikdan bolalar bilan shuncha-  
ki umrguzaronlik qilib yurgan bir telba-da, deb hisob-  
lashardi. Ko'prik qurish ot ustida suv kechib yurgan  
bu kimsalarning yetti uxbab tushlariga kirganmikin?  
«Uddasidan chiqsang o'qit, yo'qsa, taxta-o'qlowingni  
yig'ishtirib, ularni uy-uylariga tarqatib yubor», emish.  
Shu ham gap bo'ldi-yu. Biroq, nima bo'lganda ham,  
el-ulus bu esli-hushli yigitning qanchadan-qancha qi-  
yinchiliklarga, tahqir-u kansitishlarga bardosh berib,  
sabr-toqat, qunt-matonat bilan saboq berib kelayot-  
ganligining boisi nimada ekanligini tanlariga bir o'ylab  
ko'rsalar bo'lardi.

\* \* \*

O'sha kuni sakrab o'tish uchun toshlarni soy usti-  
ga mahkamlayotganimizda birinchi qor tushib, haf-  
salamizni pir qildi. Suyakni qaqshatuvchi muzdek  
suvda oyoqyalang bo'lib tinimsiz ishlayotgan Duy-  
shenning sabr-bardoshi meni hamon hayratga sola-  
di. Bir amallab soyning o'rtasidan tovonimga toshlar  
cho'g'day botib o'tayotgan edim, suv oyog'imni kesib  
ketgudek bo'lib, birdan tomirim tortishib, bukcha-  
yib qoldim. Boshim aylanib qichqirishimni ham bil-  
may, qad-bastimni rostlay olmay, suvgaga yiqlayozay  
deganimda Duyshenning ko'zi tushib qoldi. U qo'li-

dagi toshni irg'itib tashladi-yu, yugurib kelib, meni dast ko'targancha jar yoqasiga olib chiqib, shineliga o'tqazib qo'ydi. U goh ko'karib, goh uvushib qolgan oyoqlarimni uqalar, goh muzlab qolgan qo'llarimni kaftlari orasiga olib silab-siypalar, goh og'ziga yaqin keltirib, nafasi bilan ilitardi.

– Yetar, Oltinoy, sen endi isinib ol, o'zim bir amal-layman, – dedi Duyshen. Nihoyat, kechuv tayyor bo'lgandan so'ng u etigini kiya turib, meni sovuqdan hurpaygan holda ko'rар ekan: – Qalay, isinib olding-mi, yordamchi qiz? Shinelni mana mundoq yopinib ol, – deb jilmayib qo'ydi va yana bir zum o'tmay: – O'tgan safar maktabga tezakni qoldirib ketgan sen-miding? – deya so'rab qoldi.

– Ha, – deb javob qaytardim.

– O'zim ham shunday deb o'ylagan edim! – dedi Duyshen xuddi o'zi bilan o'zi gaplashayotganday mi-yig'ida kulib.

Demak, muallimimiz o'sha arzimagan narsadan xabardor ekan, hali ham uni unutmay yurganidan boshim osmonga yetdi, quvonchim ichimga sig'may, yuzlarim olovday yonayotganini hamon eslay-man. O'shanda Duyshen ham quvonchimga sherik bo'lgan edi.

– Chaqnagan ko'zlariningdan aylanay, chirog'im, – dedi u meni erkalab. – O'qishga ishtiyooqing zo'r... Qani endi qo'llimdan kelsa-yu, seni katta shaharga yuborib o'qitsam! Kim bo'lib yetisharding, qarog'im! – dedi-da, birdan ariq tomon burilib ketdi.

Uning shovullab oqayotgan toshloq suv bo'yiga kelib qo'llarini orqasiga chalishtirgancha, olis tog'lar tepasida viqor bilan suzib borayotgan pag'a-pag'a bulutlarga porlagan ko'zlar bilan boqib turgani hali-hali ko'z o'ngimda.

Nimani o'ylab turgan ekan muallimimiz o'shanda? Balki, haqiqatan ham, meni katta shaharga

olib borib o'qitish orzusi xayolidan kechgandir. Men esa o'sha daqiqalarda Duyshenning shineliga o'rallib olib: «E, xudo, o'qituvchim koshkiydi mening tug'ishgan akam bo'laqolsa-yu, bo'yniga osilib, qat-tiq quchsam-da, ko'zlarimni chirt yumib, bisotim-dagi eng yaxshi so'zlarni uning qulog'iga shivirlab aytsam», – deya iltijo qilardim.

Biz o'shanda, garchi hali murg'ak bolalar bo'lsakda, o'ylaymanki, muallimimizning odamgarchiligi va bizning istiqbolimiz haqida qayg'urib jonbozlik ko'rsatayotganligini qalban his etib, unga mehr qo'ygan bo'lsak kerak. Bo'lmasa, har'kuni nafasii bo'g'ib, joni achituvchi izg'irinda qor kechib, olis yo'l bosib, ne mashhaqqatlar bilan tepalikka qatnayverishga bizni kim ham majbur etardi, deysiz? Maktabga o'z xohishimiz bilan borardik, hech kim bizni majbur qilmasdi. Yuz-ko'zlarimiz-u ust-boshimizni qirov bosib ketgan bo'lsa-da, muzdek xonada sabr-toqat qilib, mavridi kelganda galma-gal pechka yoniga borib isinib olardik, qolganlarimiz esa o'z o'rnimizda Duyshenning aytganlarini zavq bilan jimgina tinglab o'tirardik.

\* \* \*

Qorong'i tushib qolgan, muallimimizning kelgan-kelmaganidan hamon xabarsiz edim. O'shanda u bo'lisga jo'nab ketgan, uch kunda qaytib kelaman, deb va'da bergandi bizga. Shu boisdan o'zimni qo'yarga joy topolmasdim. Duyshenning hali biron marta va'da qilgan kuniga yetib kelolmay qolganini eslay olmayman. Balki, daf'atan tobi qochib qolgan bo'lsa, holdan toyib sekin-asta kelayotgandir yoki bo'ronda qolib, tunda dashtlikda adashib ketgan bo'lsa-chi, deya turli xayollarga borib, o'zimga-o'zim dalda berardim. Ishim qovushmasdi, ipni yigirmoqchi bo'lardim-u, qo'lim

qaltirab, u qayta-qayta uzilib ketaverardi. Buni ko'rib turgan yangamning esa jazavasi qo'zirdi.

- Senga nima bo'ldi, jin urgur? Qo'ling singanmi?
- deya yeb qo'ygudek o'qraydi. So'ng toqati toq bo'lib:
- O'h, og'zingdan qoning kelgur, yomonga o'lim yo'q deydilar! Tur o'rningdan, undan ko'ra Sayqal kampirning qopini eltid ber, - dedi yana dag'dag'a bilan.

Bu men uchun ayni muddao edi. Quvonganidandan o'rnimdan sakrab turib ketishimga oz qoldi. Axir, Duyshen o'sha Sayqal kampirning uyida yashardi-da. Sayqal kampir bilan Qartanboy otaning ona tomondan menga uzoq qarindoshligi bor edi. Oldinlari ularnikiga tez-tez borib turardim, gohida hatto tunab ham qolardim. Yangamning esiga shu narsa tushib qoldimi yoki Xudo yorlaqadimi, harqalay, qo'limga qopni tutqazgancha yana qo'shib qo'ydi:

- Sen bugun jonimni halqumimga keltirding, kasofat. Qani, jo'nab qol, ko'zimga ko'rinxma, ruxsat etishsa, o'sha yoqda tunab qolaver...

Men sakragancha hovliga chiqib ketdim. Zabtiga olgan shamol nola tortib o'kirardi. So'ng esa qor uchqunlari qo'qqisidan hamla qilib, nafasii bo'g'ib, qizib turgan yuzlarimga tikanak sanchilayotganday tuyulardi. Qopni qo'ltig'imga qisib oldim-da, endigina otlar iz qoldirib ketgan yo'ldan ovulning narigi tomoniga yugurib ketdim. Xayolimda esa «O'qituvchimiz qaytib kelganmikin?» degan o'y g'imirlardi. Chopgancha yetib bordim, qarasam - u yo'q. Nafasim bo'g'zimga tiqilib, ostonada dong qotib turganimni ko'rgan Sayqal cho'chib ketdi.

- Senga nima bo'ldi. Muncha yugurmasang, biron ko'ngilsizlik yuz berdimi?

- Yo'q, shunchaki o'zim. Mana, qopingizni olib keldim. Bugun sizlarnikida qolsam, maylimi?

- Voy, qoqindiq, sen yotib qolay deysan-u, men yo'q dermidim. Sal bo'lmasa, yuragimni qinidan

chiqarayozding. Kuz tushibdiki, qorangni ko'rsatmaysan. Qani, o'tir, isinib ol.

— Hoy, kampir, sen qozonga go'sht tashla, qizimizni mehmon qil. Ungacha Duyshen ham yetib keladi, — dedi deraza yonida eski kigiz etikni tikib o'tirgan Qartanboy. — Allaqaqachon kelishi kerak edi, ha, mayli, qorong'i tushguncha kelib qolar. Toy-chog'imiz uyga qaytarda ildam yuradi.

Asta-sekin derazalar qorong'ilashib, tun ham kirib keldi. Yuragimni hovuchlab, butun diqqat-e'tiborimni berib, eshikka ko'z tikib turar ekanman, ovulda itlarning vovillashi yoki odamlarning ovozi eshitilib qolganda bexosdan seskanib tushardim. Duyshendan esa hamon darak yo'q. Yaxshiyamki, Sayqal buvi undan-bundan gapirib, vaqt o'tganini ham sezmay qolibmiz.

Yarim tunga borib holdan toygan Qartanboy ota:

— Qani, kampir, o'rinni sol. Kech bo'lib qoldi, endi kelmaydi. Boshliqlarning ishi boshidan oshib yotibdi. Biron ish bilan tutilib qolgandir, bo'lmasa, allaqaqachon yetib kelgan bo'lardi, — dedi-da, yotishga hozirlandi.

Menga to'shakni pechkaning narigi tomoniga, burchakka solib berishdi. Biroq u xlabel olmadim. Chol dam-badam yo'talib, u yoqdan bu yoqqa ag'darilib, kalima keltirganday allanimalarni pichirlab yotdi, so'ng esa bezovtalanganday:

— Otginamning holi ne kechdi ekan? Shaharda pulga ham yem-xashak topish amri mahol, — deya po'ng'illab qo'ydi.

Qartanboy otaning ko'zi endi ilinay deganda, kuchli shamol turib, uning tinchini buzzdi. Telbalangan dovul dag'al panjalari bilan tom bo'g'otlariyu oynaklarni timirskilab-timdalab, hamma yoqni ostin-ustin qilib yuborganday bo'lardi.

Qartanboy cholning so'zlarini beorom ko'nglimga taskin bermadi. Go'yo o'qituvchimiz bugun albatta ye-

tib keladiganday, qor bosgan kimsasiz dashtlikda holi ne kechdi ekan, degan xayol butun vujudimni qamrab olgan edi. Qay mahal ko'zim uyquga ketgan ekan, bilmadim, daf'atan nimadir yostiqdan bosh ko'tarishimga majbur etdi. Atrofda yoqimsiz uvlagan tovushlar taralib, havoning qay bir yerida muzlab qolganday edi.

Bo'rilarning ovozi-ku! Ular ko'pchilikka o'xshaydi. Qashqirlar dashtlikning turli tomonidan bir-birlarini ogoh etib, jo'r bo'lishib, goh olisdan, goh yaqindan shamol aralash g'azabnok uvlashib, tobora ovulga yaqinlashib kelayotganday eshitilib turardi.

- Oting o'chgurlar, yovuz bo'ronni chaqirishyapti,
- pichirlab qo'ydi kampir.

Chol bir fursat sukut saqlab turdi-da, so'ng o'rnidan irg'ib turib ketdi:

- Yo'q, kampir, qashqirlar bekorga uvlashmayapti! Ular, chamasi, otnimi, odamnimi, nimanidir quvlab, qurshab olishyapti. Eshityapsanmi? Yana bizning Duyshen bo'lib chiqmasin. Uni o'z pano-hingda saqla, Xudoyim. Axir, u uncha-muncha narsalardan tap tortmaydigan tentak-ku! – Qartanboy sarosimaga tushib, qorong'ida po'stinini axtarardi.

- Chiroq, chiroqni yoq kampir. Xudo haqi, tezroq bo'l!

Qo'rquvdan qaltiroq bosib, biz ham o'rnimizdan turib ketdik. Bu orada Sayqal chiroqni tonib, uyni yoritganda bo'rilarning darg'azab uvashi tuyqusdan jimdi-qoldi.

- Quvlab yetishdi, la'natilar! – deya Qartanboy ota baqirib yubordi-da, qo'liga hassasini olib, eshik sari xezlangan ham ediki, itlarning vovillagan ovozi eshitilib qoldi. Allakim deraza yonidan g'arch-g'urch qor bosib chopgancha o'tib ketdi-da, sabrsizlik bilan eshikni qattiq qoqa boshladi.

Xonaga qor to'zoni aralash izg'irin yopirilib kir-di. U tarqalib ketishi bilan ko'z-o'ngimizda Duyshen

paydo bo'ldi. Uning rang-ro'y়ি o'chib ketgan, og'ir hansirab ostona hatlab o'tdi-da, gandiraklagancha devorga suyanib qoldi.

– Miltiq! – dedi sarosimaga tushgan Duyshen arang nafas olar ekan. Biz uning nima deyayotgani ni anglayolmay hayron bo'lib turardik. Ko'z o'ngim qorong'ilashib, chol-kampirning:

– Qora qo'y, oq qo'y boshingdan sadaqa raddi balo! Muqaddas Bahovuddinning ruhi seni qo'llab-quvvatlabdi, bolam, – degan marsiyanamo so'zlari qu-log'imga chalinardi, xolos.

– Miltiq, miltiqni bering! – takrorlardi Duyshen, yana eshik tomon yulqinib.

– Miltiq yo'q, qayoqqa bormoqchisan, shashting-dan qayt, – deya qariyalar Duyshenning bo'yniga osilib olishdi.

– So'yilni beringlar!

– Nima qilmoqchisan, ko'zimiz tirik ekan, hech qayoqqa bormaysan. Undan ko'ra bizni o'ldirib qo'ya-qol! – deya qariyalar yana yalinib-yolborishardi.

Banogoh a'zoyi badanim bo'shashib, un chiqar-may arang to'shakka kirib yotdim.

– Ulgurolmadim, uyga endi yetib kelay deganimda, ular o'rab olishdi, – deya Duyshen entikib hansiragan-cha qamchisini burchakka uloqtirib tashladi. – Ot yo'lda kelayotgandayoq majoli qurigan edi, so'ng ustiga-ustak bo'rilar quvlab qolgandan so'ng ovulga arang yetib keldi-yu gup etib qulab tushdi. Shu zahotiyon hammalari quzg'unlardek unga yopirilishdi.

– Ot bo'lsa, sadqayı sar. Muhimi, o'zing omon qolibsan. Agar ot yiqilmaganda, ular seni ham omon qo'ymasdi! Yaxshiyamki, seni Bahovuddin pirim o'z panohida saqlabdi. Qani endi yechin, olovda isinib ol. Kel, etgingni tortib qo'yay, – deya bechora Qartanboy suyunganidan girdikapalak bo'lardi. – Qani, kampir, biron narsang bo'lsa isit.

Ular olovga yaqinroq o'tirisharkan, Qartanboy bir xo'rsinib qo'ydi-da, bamaylixotir:

– Bo'lar ish bo'ldi, taqdirda bitilganidan qochib qutulib bo'larmidi? O'zing ham yo'lga munchalik kech chiqmasang? – dedi.

– Bo'liskomda majlis cho'zilib ketdi, Qarake.

– Xo'p, shunday ekan, bugun tunab qolib, ertasiga ertalab yetib kelganingda hech kim yoqangdan tutmas edi-ku.

– Bolalarga bugun yetib kelaman, deb va'da bergen edim, ertaga ertalab darsni boshlaymiz, – javob qaytardi Duyshen.

– Eh, nodon-ye! – deya hatto o'rnidan sapchib turib ketdi Qartanboy va g'azablanganidan boshini sarak-sarak qilgancha: – Eshityapsanmi, kampir, u bolalarga, shu mishiqi tirranchalarga va'da bergen emish! Agar biron falokat yuz berganda nima bo'lar edi? Nima deyayotganiningni tushunyapsanmi o'zi?!

– Bu mening muqaddas burchim, jonajon ishim, Qarake. Bu ham o'z yo'liga. Har gal bo'lisga piyoda borib, piyoda kelar edim, bu gal nima bo'ldi-yu, shayton yo'ldan urib, otingizni so'rab oldim-u qash-qirlarga yem qilib kelganimni aytmaysizmi...

– Ha, qo'ysang-chi, o'sha ramaqijon ot bo'lib qayerga borardi. Aziz boshing omon bo'lsin, sadaqayi radi balo! – dedi jahli chiqib Qartanboy. – Umrim bino bo'lib otga yolchimadim, bu yog'i ham bir gap bo'lar...

– Haq gapni aytding, chol, – hamdardlik bildirdi Sayqal momo o'pkasi to'lib yuzi ko'pchib yig'lamsiragan ovozda. – Alhamdulillo, boshing omon bo'lsa ot topilar, sovimasdan ovqatingni ich, bolam...

Oraga jimlik cho'kdi. Birozdan so'ng tezak cho'g'ini titkilab o'tirgan Qartanboy xayol aralash so'z qotdi:

– Bilaman, esli-hushli, aqli yigitsan, maktabni deb, shu go'daklarni deb joningni jabborga berayotganingga hayronman. Yoki boshqa ish topilmay qoldimi

senga? Undan ko'ra birorta cho'ponga yollanganingda ust-boshing but, qorning to'q bo'larmidi...

– Menga achinib gapiroayotganiningizni tushunib turibman, Qarake. Faraz qilaylik, agar shu norasida bolalar ham mактабни, o'qishni nima keragi bor, o'qib kim bo'lardik, deb turishsa, unda hukumatimiz ishi, kelajagimiz nima bo'ladi? Men uchun o'qituvchilik ko'rgilik emas, Qarake, qaniydi qo'lim-dan kelsa, bolalarga yaxshiroq bilim bersam, asosiy orzu-niyatimga erishgan bo'lardim.

Shu yo'sinda ularning suhbatini tinglab yotib, asta-sekin hushimga kelganday bo'ldim. Boshda hammasi tushda ko'rilmaganda tuyulgandi. Ancha vaqtgacha Duyshenning shikastlanmay, omon-eson qaytib kelganiga o'zimni ishontirolmay yotdim. So'ng esa tasalli topgan qalbimga ilqlik yugurib, quvonchim ichimga sig'may, ko'z yoshi to'kib, nafasim bo'g'zimga tiqilib, ho'ngrab yig'lab yubordim. Ehtimol, hali hech kim menchalik quvonchga to'lмаган bo'lsa kerak! Ushbu lahzalarda men uchun qariyalarning paxsa devorli kulbasi ham, tashqarida o'kirayotgan bo'ronli tun ham, izg'ishib yurgan bo'ri galalari ham, ovul chekkasida tilkalanib yotgan Qartanboyning yolg'iz oti ham ko'zimga ko'rilmay qoldi! Butun qalbim, vujudim, fahm-farosatim bilan nur kabi tengi yo'q baxt-saodatga musharrraf bo'lganimni his etgan holda yig'i ovozi eshitilmasligi uchun og'zimni yumib, ko'rpgaga burkanib oldim. Biroq Duyshen daf'atan so'rab qoldi:

- Hoy, pechka yonida hiqillab yig'layotgan kim?
- Ha, bu Oltinoy, haligi voqeadan qattiq cho'chib ketgan edi, o'shangang yig'layapti, – dedi Sayqal kampir.
- Oltinoy? U bu yerga qanday kelib qoldi? – Duyshen o'rnidan irg'ib turib, yonimga kelib tiz cho'kib o'tirdi-da, sekin yelkamga turtib: – I-ye, Oltinoy, senga nima bo'ldi? Nega yig'layapsan? – deb so'radi.

Men bo'lsam, devor tomon o'girildim-da, yana battarroq ho'ngrab yig'lab yubordim.

- Ha, yoqimtoy qiz, kap-katta bo'lib munchalik qo'rqmasang. Qani, menga bir qara-chi...

Duyshenning bo'ynidan qattiq quchib oldim, ko'z yoshtalarim bilan yuvilib lang'illab turgan yuzlarimni uning ko'ksiga bosib, o'zimni tutolmay, hiqillab yig'layverdim. Suyunganimdan qaltiroq bosib, o'zimni tinchlantirishga ojizlik qildim.

- Ha, yuragi qinidan chiqqanmi, deyman! – xavotirlana boshladи Qartanboy va u ham o'tirgan o'rnidan turib ketdi. – Qani, kampir, bir duo o'qib yubor, tezroq bo'la qol...

Banogoh ularning hammasi besaranjom bo'lib qolishdi. Sayqal momo pichirlagancha kuf-suf qilib duo o'qib, yuzimga goh sovuq, goh issiq suv purkab, dam-badam yelkalarimni qoqib, o'zi ham men-ga qo'shilishib yig'lay boshladи.

Eh, qaniydi ular o'shanda ichki kechinmalarim tug'yon urib, yuragim buyuk oliy baxtdan bahra olib «o'z o'rnidan qo'zg'alganini» bilishsa edi, holbuki, buni hikoya qilib berishdan ojizman, bu qo'lindan ham kelmaydi. Tinib-tinchib uyquga ketmagunimcha Duyshen yonimdan jilmay, qizib turgan peshanamni sovuq qo'llari bilan ohista-sekin silab o'tirdi.

\* \* \*

Qish oyoqlab qoldi. Borliq uzra bahor nafasi keza boshladи, adirlarga maysa gilamlarini yoyib eruv-garchilikdan nam tortib ko'pchigan tekisliklarni iliq havo oqimiga chulg'ab, o'zi bilan birga go'yo ko'pirgan yangi sut hidini olib kelardi. U tog'lardagi yastanib yotgan qor uyumlari-yu muzliklarni eritib, siljitib, surib o'ziga yo'l ochib, jilg'alar sari sharillab

oqib tushar, so'ngra esa yo'l-yo'lakay yanada qudratli kuch kasb etib, jarlik qirg'oqlarini o'pirib shiddat bilan sharqirab oqardi.

\* \* \*

Bu, ehtimol, mening ilk yoshlik bahorim darakhisidir. Harqalay, nima bo'lganda ham, u nazarimda har bahorga nisbatan ham ko'r kamroq tuyulardi. Maktabimiz o'r nashgan tepalikdan tabiat nurga yo'g'rilgandek yanada nash'ali, yanada go'zallik kashf etgandek ko'zga tashlanardi. Allaqayerlarda moviy ko'l mavjlanib yotgan, allaqayerlarda pag'a-pag'a bulutlar uzra saf tortgan turnalar taronasi olis safarga chorlayotganday kishiga o'zgacha huzur bag'ishlardi. Bahor kelishi bilan biz bolakaylar ham quvonchimiz ichimizga sig'may g'imirlashib qolar-dik. Turli-tuman o'yinlarni o'ynab, sevinchimizdan xandon urib kulishardik, darsdan so'ng esa maktabdan to ovulga qadar bir-birimizni quvlashib, sho'x-shodon qiyqirishib borardik. Buni ko'rgan yangamning har gal jini qo'zib, zahrini sochmaguncha ko'ngli taskin topmasdi:

— Hoy, esi past, muncha irg'ishlamasang. Qiladigan ishing yo'qmi, qari qiz bo'lib qolmoqchimisan? Sen tengi qizlar allaqachon turmush qurib, qarindosh-urug' bo'lib yashamoqda, sen-chi... Maktab bahona, tarallabedod qilib, vaqt ni bekorga o'tka-zib yuribsan, maktabing boshingdan qolsin. Hali shoshmay tur, ta'ziringni berib qo'ymasam seni...

Ochig'ini aytganda, yangamning do'q-po'pisalarini o'zimga unchalik qattiq olmasdim: uning dom-u dashnomlariga ko'nikib ketgan edim. O'zim haqimda esa, aytish kerakki, qari qiz bo'lib qoldi, deyish mutlaqo adolatsizlik edi. To'g'ri, bu ko'klamda biroz bo'yga tortganimni aytmaganda, o'sha-o'sha qizaloqman...

– Sen sochi paxmoq malla qizsan, – deb kulardi Duyshen.

Uning so'zlaridan hech qachon ranjimasdim. Garchi sochlarim paxmoq bo'lsa-da, harqalay o'zimni u darajada malla deb aytishga tilim bormasdi. Bo'yga yetganimda shunday ko'hlik qiz bo'layki, ana o'shanda go'zalligimni ko'rib yangam hayratda qolsin. Duyshen, sening ko'zlarining yulduz kabi chaqnab, yuzlaringdan nur yog'iladi, deb aytib yuradi-ku!

Bir mahal maktabdan yugurib kelsam, hovlimizda ikkita begona ot bog'log'liq turibdi. Ularning egalari tog'dan kelgan ko'rindi. Oldinlari ham ular bozordan yoki tegirmondan qaytayotganlarida, yo'l-yo'lakay kirib o'tishardi.

Ostonaga yaqinlashar ekanman, yangamning al-lanechuk g'ayritabiiy xaxolab kulgan ovozi eshitildi:

– Ey, jiyancha, ko'pam qayg'urma, kamib qolmay-san. Hali jazmaningga yetishganda, to'g'ri aytgan ekan, deb eslarsan, meni. Hi-hi-hi!

Unga javoban boshqalarning ham yayrab kulishlari eshitilardi. Eshikdan kirib kelishim bilan esa hammalari suv sepgandek jimib qolishdi. Namat ustiga yozilgan dasturxon yonida yuzlari qizarib bo'rtib ketgan, go'yo to'nkani eslatuvchi beso'naqay odam o'tirardi. U ter bosgan peshanasigacha bostirib kiyib olgan qozonday tulki telpagi ostidan menga ko'z qirini tashlab, yana tomoq qoqqancha yerga boqib o'tirdi.

– E-e, keldingmi, kela qol, jon qizim! – yangam meni shu zaylda dabdurustdan erkalab, tilyog'lama-lik qilib miyig'ida kulgancha kutib oldi.

Namatning bir chekkasida o'tirgan amakim men-ga notanish bir kishi bilan qarta o'ynab, araq ichi-shib, beshbarmoq yeb o'tirishardi. Ikkalasi ham har gal qarta itqitganlarida allaqanday g'alati harakatlar qilib, bosh irg'ab qo'yishardi.

Kulrang mushugimiz dasturxonga yaqin kelgan edi, haligi qizil yuzli kimsa uni mushti bilan bir urgan edi, bechora mushuk jon talvasasida miyovlagancha lip etib o'zini chetga otdi-da, burchakka borib biqinib turdi. Boyoqish sho'rlikkinamning rosa joni og'riqandir! Bu yerdan qanday qilib chiqib ketishimni bilmay turgan edim, yangam mushkulimni oson qildi:

– Qizim, – dedi u, – qozonda ovqating turibdi, sovimasdan olib yeya qol.

Men ostona hatlab chiqdim. Biroq yangamning bunday til uchidagi munofiqona muomalasi menga mutlaqo yoqmadi, g'ashim kelib, ko'nglim beixtiyor hushyor torta boshladi.

Oradan ikki soatlar chamasi o'tib, kelgan kishilar otlariga minishib tog'ga jo'nab ketishdi. Yangam bo'lsa, xuddi shu zahotiyoy, odatdagidek, yana haqoratli qarg'lshlarini yog'dira boshladi. Men bo'sam, haligi so'zları «Demak, mastlik ustida aytigan gaplar ekan-da», degan xayolda ko'nglim taskin topganday bo'ldi. Shundan so'ng sal o'tib, bizniga qandaydir bir yumush bilan Sayqal kampir kelib qoldi. Men hovlida u-bu ishlar bilan mashg'ul bo'lib yurgan edim, uning aytgan so'zlarini eshitib qoldim:

– Qo'y, bolam, Xudo xayringni bersin, uni juvomarg qilma, uvoliga qolasan!

Yangam bilan Sayqal nima haqdadir bir-birlari ga so'z bermay bobillashgancha bahslashib qolishi di, so'ngra kampir uydan g'azablangan holda chiqib, menga zarda qilganday, ayni chog'da achinganday bir o'grayib qaradi-da, hech narsa demay chiqib ketdi. «U menga nega bunday qaradi, yana qaysi qilig'im unga yoqmay qoldi?» – deya ko'nglim g'ash tortib yurdi.

Ertasi kuni maktabda Duyshenning ruhi tushib, nimadandir tashvishlanayotganini, ammo bizlarga sir boy bermaslikka harakat qilayotganini, ayni

chog'da u negadir men tomonga qaramayotgani-ni ham darhol sezib qoldim. Darsdan so'ng biz galalahib mактабдан чиққанимизда, Duyshen meni chaqirib qoldi:

– To'xta, Oltinoy, – muallim yonimga yaqin kelib, diqqat bilan ko'zimga tikildi-da, yelkamga qo'lini qo'yib, – sen uyga bormagin. Tushundingmi? – dedi.

Qo'rquvdan dong qotib qoldim. Faqat shundan keyingina yangam mening ustimdan nimalar qilmoqchi ekanini fahmladim.

– Sening uchun men o'zim javob beraman, – dedi Duyshen. – Hozircha esa biznikida yashab turasan. Mendan uzoqlashmagan, xo'pmi?

Rangim o'chib ketgan bo'lsa kerak, Duyshen iyagimni ko'tarib, o'ziga qaratdi-da, ko'zimga tik boqib, mehribonlik bilan jilmayib qo'ydi.

– Qo'rqma, Oltinoy, – dedi u, odatdagidek, jaydari kulib qo'ydi. – Men yoningda ekanman, hech nimani xayolingga keltirmay avvalgidek emin-erkin o'qishingni o'qib yuraver. Axir, sening qo'rqoq ekanligingni o'zim ham bilar edim-ku... Ha, aytgancha, ko'pdan beri senga bir narsani aytmoqchi bo'lib yurgan edim. – Aftidan, allaqanday g'alati bir narsani eslab yana qah-qah urib kulib yubordi. – Yodingdami, anavi kuni Qartanboy aka erta saharlab turib, qayergadir g'oyib bo'lgan edi. Bir mahal qarasam, bilasanmi kimni senga dam solib qo'ysin deb, Jaynoqning haligi jodugar emchi kampirini boshlab kelyapti. «Nega», deb so'rasam, labini qimtigancha, «Oltinoyning yuragi qo'rquv sabab qinid dan chiqqan ko'rindi, bir emlab qo'ysin», deydi. Men bo'ssam: «U jodugarni bu yerdan tezroq yo'qoting, aks holda, u bitta qo'ydan kamiga rozi bo'lmaydi. Bizning esa unga beradigan qo'yimiz yo'q, nochor yashaymiz, bиргина отимиз ham bo'rilarga yem bo'lgan», deb uni haydab yubordim. Sen bu mahal hali uyquda eding.

Qarake bo'lsa, «Sen meni keksaygan chog'imda uyatga qoldirding», deb bir haftagacha gaplashmay xafa bo'lib yurdi. Harqalay, nima bo'lganda ham, ular mehr-oqbati, ajoyib qariyalar-ku. Qani, endi ketdik, – deya Duyshen meni o'zi bilan birga uyiga boshlab ketdi...

Muallimning dilini bekorga ranjitmayin deb, o'zimni qo'lga olishga har qancha harakat qilmayin, baribir, tashvishli fikrlar menga tinchlik bermasdi. Axir, istagan mahalda yangam bu yerga bostirib kelib, meni kuch bilan olib ketishi mumkin edi. U yerda esa yovuz niyatli kimsalar mening ustimdan xohlaganlarini qilishardi. Ovulda esa ularni hech kim tergay olmasdi, men bo'ssam, musibatni kutib, tun bo'yiji mijja qoqmay chiqdim.

Duyshen qay ahvolda ekanligimni yaxshi tushunardi, albatta. Shuning uchun ham bo'lsa kerak, uertasi kuni ko'nglimni ko'tarmoq uchun mактабга ikkita nihol ko'chat olib keldi. O'qish tugashi bilan u mening qo'limdan yetaklab nariga eltdi-da:

– Hozir, ikkalamiz bir ish qilamiz, Oltinoy, – dedi u o'zicha sevinganday menga kulib qarab. – Mana bu ko'chatlarni senga atab olib keldim. Ikkalamiz bularni ekamiz. Ular o'sib, kuchga to'lib voyaga yetguncha, sen ham havas qilsa arziydigan ajoyib qiz bo'lib yetishasan. Sen qalbi pok, zehni o'tkir qizsan. Sen hali, nazarimda, o'qib, kamol tonib, katta olima bo'lib tanilasan. Ha, bunga ishonchim komil. Hali aytdi dersan, bu menga xuddi peshanangga bitib qo'yilgandek ko'nglimdan o'tib turibdi. Sen hozir yoshgina qizsan, xuddi mana shu ko'chatlar singari navniholsan. Qani, kel, Oltinoy, bu ko'chatlarni yaxshi niyatda o'z qo'limiz bilan o'tqazaylik. Ilohim, o'qishdan baxting ochilsin, chaqnagan yulduzcham.

Bo'yim barobar nihollar ko'kimtir terakchalar edi. Maktabimiz yaqiniga tepalikka ekib qo'yilgan bu terak-

chalarning ilk bor marjondek tizilishib o'sib kelayotgan yaproqchalariga qirdan esayotgan yengil shabada go'yo birinchi bor jon ato etayotganday tuyulardi. Terakchalar tebranib, yaproqchalar shivirlashardi...

– Ko'ryapsanmi ularning ko'r kamligini! – dedi Duyshen, – ortga tissarilgancha ularga razm solar ekan. – Endi bu yerga ana u buloqdan ariq qazib, suv keltiramiz. Ular tepalikdan xuddi ikki aka-ukalardek salobatli ko'r inib turishadi va ularni ko'rgan kishilarning bahri dili ochilib, ko'zları yashnaydi. Ana unda hayot ham o'zgaradi, Oltinoy. Hamma ezgu niyatlar hali oldinda...

Duyshenning olihimmatligidan behad ta'sirlanganimdan es-hushimni yo'qotib, unga tikilganimcha turaveribman. Buni hozir ham so'z bilan ifodalashga ojizman. Men uning yuz-ko'zidan yog'ilib turgan rahmdillig-u mehribonligini, qalblarga huzur baxsh etuvchi beg'ubor, jozibali tabassumi-yu kuchli va chapdast qo'llarini go'yo birinchi bor ko'rib turganday hisqilardim. Allaqanday yangi, notanish, ehtirosli histuyg'ular to'lqini qalbimni qamrab olib g'ujg'on urardi va men: «Muallim, siz shunday odam bo'lib yaratilganingiz uchun rahmat... Sizni quchib o'pgim kelyapti!» demoqchi bo'ldim-u, uyalganimdan bu so'zlarni aytishga yuragim betlay olmadi. Balki, aytish kerakmidi... O'shanda esa biz tepalikda, ochiq osmon ostida yashil rangga chulg'angan bahorgi qir-adirlar qo'ynda har birimiz o'z orzu-niyatlarimiz bilan band edik va o'sha daqiqalarda ko'nglimni g'ash qilib turgan xavf-xatarni butunlay unutib, ertangi kun meni nimalar kutayotganini ham, negadir, ikki kundan beri yangam meni izlab kelmayotganini ham butunlay o'ylamay qo'ygan edim. Ular meni unutishdimi yoki o'z ixtiyoriga qo'yib turaylik degan fikrga kelishdimi, bilmadim. Ammo Duyshen bu haqda o'zicha o'ylayotgan ekan.

– Sen ko‘pam qayg‘uraverma, Oltinoy, ilojini topamiz, – dedi u ovulga qaytayotganimizda. – Ertadan keyin bo‘lisga borib, sen haqingda ham gaplashib kelaman. Seni shaharga yuborib o‘qitish niyatidaman, balki buning imkoniyatini toparman. Sen buni istaysanmi?

– Siz nima desangiz, shu bo‘ladi, muallim, – dedim.

Garchi, shahar qanday bo‘lishi haqida tasavvurga ega bo‘lmasam-da, Duyshenning so‘zlaridan keyin menga u yoqqa borib o‘qish orzusi tinchlik bermadidi. Goh men uchun begona bo‘lgan yurtda holim ne kechar ekan, goh yana yo‘lga hozirlik ko‘rsammi-kan, degan vahimali o‘y-xayollar butun vujudimni chulg‘ab olgan edi.

Ertasiga maktabda ham nuqlu shu haqda o‘ylab yurdim: shaharda kimnikida turib, qanday yashayman? Agar birorta oila boshpana bersa, buyurganini qilaman – o‘tin yoraman, suv tashiyman, kir-chirini yuvaman, nimani amr etsa, hammasini uddalayman. Darsda o‘tirib shular haqida o‘ylar ekanman, omonatgina turgan maktabimizning devorlari ortidan ot tuyoqlarining dupur-dupuri eshitilib qoldi. Bu to‘satdan yuz berib, otlar yeldek uchib kelardiki, mana hozir maktabimizni yakson qiladigandek tuyulardi. Biz hammamiz qo‘rquvdan qotib qoldik.

– Chalg‘imasdan, darsingizni davom ettiravering,  
– dedi Duyshen shoshilinch ravishda.

Ammo shu payt eshik sharaqlab ochildi-yu ostonada yangam paydo bo‘ldi. U ichi qoralik bilan surbetlarcha tirjayib turardi. Duyshen eshik tomon yaqin keldi-da, sekin ovozda:

– Xo‘sh, siz nima yumush bilan keldingiz? – dedi.

– Nima yumush bilan kelganimning senga daxli yo‘q. Qizimni uzatmoqchiman. Hoy, so‘qqabosh! – yangam jon-jahdi bilan menga tashlandi, biroq Duyshen uning yo‘lini to‘sib qoldi.

- Bu yerdagilar o'quvchi qizlar, turmushga uzatiladigan qizimiz yo'q, - dedi Duyshen qat'iy va bamaylixotirlik bilan.

- Nima deyapsan, hali uning bor-yo'qligini senga ko'rsatib qo'yamiz. Qani, yigitlar, ushlanglar u qanjiqni, qo'l-oyog'idan tortib sudranglar!

Yangam otliqlardan birini imlab chaqirdi. Bu o'sha tulki telpakli qizil yuzli kishi edi. Undan so'ng qo'llarida so'yil ushlagan yana ikki kishi otdan tushib kelishdi.

Duyshen eshik oldida qo'zg'almay turaverdi.

- Nima, sen daydi it, birovning qizini o'z xotining-dek tasarrufingga olmoqchimisan, yo'qol, bu yerdan!

Qizil yuzli kishi ayiq singari Duyshen tomon va johatli yo'naldi.

- Bu yoqqa kirishga haqingiz yo'q, bu mакtab! - dedi Duyshen eshik kesakisiga mahkam yopishib olgancha.

- Aytmovdimmi! Jazmani bu qanjiqni ko'pdan beri yo'ldan urib tuzog'iga ilintirib yuribdi deb, - jazavasi tutib chinqirdi yangam.

- Maktabing bilan qo'shmozor bo'l! - qizil yuzli odam qamchisini ko'tarib bo'kirib yubordi. Ammo Duyshen uning qorniga chapdastlik bilan tepgan edi, u oh degancha qulab tushdi. Shu zahotiyon so'yil ushlab turgan ikki kishi muallimga tashlandi. Bolalar qiy-chuv ko'tarishib oldimga yugurib kelishdi. Mushtlashish zarbidan yog'och eshikning tit-piti chiqib ketdi. Qo'rquvdan menga yopishib olishgan bolalarni ham o'zim bilan birga boshlab mushtashayotganlar tomon yugurib bordik.

- Muallimni qo'yib yuboringlar! Uni urmanglar! Mana, meni uringlar. Muallimni tinch qo'yinglar!

Duyshen menga o'girilib qaradi. Uning hamma yog'i qonga belanib, yuzlari dahshat va g'azabga

to'lgan edi. Yerda yotgan taxta parchasini olib qattiq qulochkashlab silkitib qichqirardi:

– Bolalar, qochinglar! Ovulga qochinglar! Qoch, Oltinoy!

U shunchalik baqirib gapirganidan ovozi bo'g'ilib qolgandi. Shu asioda Duyshen singan qo'lini ko'ksiga bosgancha ortga chekinishga majbur bo'ldi. Raqiblar bo'lsa, quturgan buqalardek himoyasiz o'ljasiga tashlanib, uni yana do'pposlay ketdilar:

– **Ur! Ur** uni! Boshiga sol! O'ldir!

Quturib ketgan yangam qizil yuzli kishi bilan sap-chigancha yonimga kelib, sochimni bo'ynimga o'rab, eshikka sudrab chiqishdi. Men bo'sam, jon-jahdim bilan sirg'alib chiqishga urinar ekanman, qo'rquvdan dong qotib qolgan bolalarning dod-faryodi aralash devor yonida qonga belanib yotgan Duyshenga ko'zim tushib qoldi.

– Muallim!

Biroq Duyshen menga yordam beradigan holatda emas edi. U mushtumzo'rlarning kaltagi zarbidan xuddi mast odamday kalovlanib arang oyoqda turishga harakat qilar, ular bo'lsa, hadeb uni do'pposlashardi. Meni esa yerga yiqitib, ikki qo'llimi chilvir bilan orqamga bog'layotganlarida Duyshen yerda yuztuban ag'anab yotardi.

– Muallim! – deb qichqirganimni bilaman, ular og'zimni yonib, otga o'ngarishdi. Otda o'tirgan qizil yuzli kishi meni zilday qo'llari-yu beso'naqay gavdasi bilan bosib turardi. Duyshenni do'pposlagan haligi ikki kishi ham otlariga sakrab mingancha birgalikda juftakni rostlab qolishdi. Yangam ham meni savalaganca otliqlar bilan yonma-yon yugurib borarkan:

– Qalay, muddaongga yetdingmi! Itdek haydab chiqarayotirman sen yaramasii. Qilmish-qidirmish deydilar, qilmishingga yarasha bo'ldi. Ishongan mualliming ham sob bo'ldi...

Biroq... To'satdan orqa tomondan:

- Oltin-oy! - deb baqirgan faryod eshitildi. Otda osilib qolgan boshimni arang ko'tarib qarasam, ortidan chalajon qilib qonga belangan Duyshen qo'lida kattakon tosh ushlagancha yugurib kelyapti. Uning orqasidan esa dod-faryod ko'targancha sinfimiz bolalari chopishardi. «To'xtanglar, hayvonlar! To'xtanglar! Qo'yib yuboringlar uni! Oltinoy!» - deb baqirardi ujon talvasasida, bizga yaqinlashib kelar ekan.

Zo'ravonlar to'xtab qolishdi, u ikkalasi esa Duyshenning atrofida otda gir aylanishardi. Duyshen singan qo'li xalal bermasin uchun yengini tishlab olib, yovuzlarni ko'zlab tosh otdi, lekin tosh mo'ljalga borib tegmadi. Shu payt haligi ikki kishi Duyshenni so'yil bilan urib ko'lobga yiqitishgan edi, ko'z o'ngim xiralashib ketdi, faqat bolalarimizning yerda yotgan muallimning tepasiga yugurib kelishib, dong qotgancha turib qolganlarini arang ko'rishga ulgurdim.

\* \* \*

Ular meni qayoqqa va qanday olib kelganlarini eslay olmayman. Hushimga kelib, mundoq qarasam, o'tovda yotibman. O'tovning ochiq turgan tuynugidan esa yuz bergen voqeadan bexabar, osoyishta tonggi yulduzlar mo'ralab turishardi. Allaqayerda, yonginamizda daryoning shovullab oqishi-yu qo'ychi-vonlarning g'udullahsgan ovozlari eshitilib turardi. Olovi o'chib qolgan o'choq boshida badqovoq, qora yuzi unniqib, cho'p-ustixon bo'lib ketgan bir keksa ayol o'tiribdi. Men boshimni o'girib boshqa tomonga qaradim... O, qani endi, qo'limdan kelsa-yu, bir nigoj bilan uni asfalasofilinga jo'natsam!

- Hoy, qoracho'ri, uni o'rnidan turg'iz, - deb buyurdi qizil yuzli kishi.

Qora xotin yonimga keldi-da, dag'äl, tayoqdek qo'llari bilan yelkamdan silkip tortdi.

- Egachingni nima bo'lsa-da, ko'ndir. Aks holda, baribir, holi voy bo'ladi!..

U o'tovdan chiqib ketdi. Qora xotin bo'lsa, hatto o'rnidan ham qo'zg'almadı, lom-mim deb og'iz ham ochmadı. Balki, u soqovdir? Uning sovib qolgan kulni eslatuvchi nursiz ko'zlari, kaltak yegan itning dumiga qisiq keladi, deganlaridek, hali kichkinligidanoq nokas kishilarning hadeb urib-haydayverganlaridan bezib qolgan va bunga asta-sekin ko'nikib qolgan itning temilib turishini eslatardi. Men bo'lsam, xuddi qorong'i go'r tubiga tushib ketganday o'lik yoki tirik ekanligimi bilmay, o'tirgan joyimda so'ppayib turaverdim. Bi-roq uning o'ta sovuq va zulmatni eslatuvchi qayg'uli qarashlaridan dahshatli manzarani uqib olish mumkin edi. Qora xotining so'niq ko'zlariga yana nazar tashlar ekanman, men o'zimni hayotdan ko'z yumib, qabrda yotgan kishidek his etdim. Agar soydan oqqan suvning shovullagan ovozini eshitmaganimda, bunga ishongan bolardim. Suv shovullab, qiyalikdan aks sado bergancha erkin oqib kelardi...

Ming la'nat, senday toshbag'ir yangaga! Ilohim, umr bo'yli oqqan ko'zyoshlarim-u to'kilgan qonlarimning uvoli tutsin seni!.. Bu kecha o'n besh yoshimda meni zo'rlab, badnom qildilar. Bu baloga giriftor etgan yirtqichning bolalaridan ham yosh ekanman...

Oradan ikki kun o'tib, uchinchi tunga o'tar kechasi es-hushimni yig'ib olib, yo'l-u cho'lda adashib ketsam, orqamdan quvlab borib ushlab olsalar ham, baribir, nima bo'lganda ham, qochib ketib, muallimim Duyshen singari so'nggi nafasim qolguncha kurashib o'lganim yaxshi, degan qarorga keldim.

Qorong'ida asta-sekin eshik sari borib paypaslab ko'rsam, qil arqon bilan mustahkam bog'lab

qo'yishibdi. Ustomonlik bilan tang'ib qo'yilgan arqon tugunlarini esa qorong'ida yechishning iloji yo'q edi. Shu bois o'tov devori ostidan bir amallab sirg'a-lib chiqib ketishga urinib ko'rdim. Biroq qanchalik urinmayin, harakatlarim zoye ketdi – o'tov sirtqi tomondan ham arqon bilan yerga mahkam bog'lab qo'yilgan ekan.

Faqat qandaydir bir o'tkir narsa tonib, eshik arqonlarini kesishdan boshqa ilojim qolmadi. Qorong'ida, naridan-beri, atrofni titkilay boshladim, qo'limga yog'och qoziqdan boshqa hech nima ilinmadi. Noiloj, shu qoziq bilan o'tov ostini kovlay boshladim. Bu urinishlarim ham, albatta, behuda ketishiga ko'zim yetib turgan bo'lsa-da, noumid shayton deganlaridek, umidsizlikka tushmadim. Miyamda faqat birgina fikr charx urardi – yo o'lish, yo qolish – bu zulmat qafasidan qochib qutulsam-u, ana u to'ng'izning pishillashi-yu xurillashini eshitmasam, erk uchun taslim bo'lishdan ko'ra kurashib o'lmoq afzal! – degan tushuncha butun vujudimni qamrab olgan edi.

To'qol – ikkinchi xotin! Eh, oting o'chgur bu so'zni jinimdan battar yomon ko'raman! Uni kim, qaysi zamonda o'ylab topgan ekan-a?! Ham jismi, ham qalbi menchalik qullikka giriftor etilgan odam zoti bormikin bu olamda? Tur, g'aflatdan, baxti qaro g'ofil bandalar, insoniy haq-huquqlardan mahrum etilgan jafokash ayollar. Zulmat dunyosini larzaga keltir! Buni men, orangizdan ushbu taqdirni so'nggi bor hatlab o'tayotgan ayol aytyapti!

Bu so'zlarni o'sha mash'um tunda nima uchun aytganimni o'zim ham bilmayman. Ortiq darajada asabiylashib ketganimdan jon-jahdim bilan o'tov ostini tirnab qaziyverdim. Biroq toshloq yer ekan, qollarim shilinib, barmoqlarim qonab ketdi. Endigi-

na qo'l sig'adigan teshik ochganimda tong otib, ovul uyg'onganday itlarning vovillashi-yu odamlarning gangir-gungur ovozlari eshitila boshladi. Shu asioda dupurlashib, yilqi uyurlari-yu qo'y suruvlari g'izil-lagancha suvlik sari o'tib ketishdi.

Shundan so'ng kimdir – birov o'tovga yaqinlashib, uning sirtdan chandib bog'langan arqonlarni yechib, kigizlarni tushira boshladi. Bu o'sha indamas qora xotin edi. Demak, ovul ko'chishga hozirlilik ko'rmoqda. Darvoqe, kecha kechqurun dovon oshib yangi manzilga ko'chib ketib, yoz bo'yi o'sha yerda qo'nim topish haqida gaplashayotganlari qulog'imga chalangan edi. Qochib qutulishim o'n chandon mushkulashar ekan-da, degan o'y-xayol yana ko'nglimni behuzur qildi. O'tov ostini kovlagan yerimda jilmay o'tiraverdim. Nima ham qila olardim? Baribir, o'tovning tagi kovlanganini qora xotin ko'rgan bo'lsa ham, hech nima demasdan o'z yumushini davom ettiraverdi. U o'zini dunyo ishlaridan mutlaqo xoli, olamni suv bossa to'pig'idan kelmaydigan hissiz bir kimsadek tutardi. U hatto po'stini bilan boshini ko'rpaga burkab ayiq singari xurrak otib yotgan erini, hoy, tursangiz-chi, yo'lga otlanyapmiz, yordam bering, deb uyg'otishga ham jur'at etmadi.

Hamma kigizlar yig'ishtirib olinib, o'tov yap-yalang'och bo'lib qolgan edi, men bo'ssam, hamon qafasdag'i qushdek, qimirlamay g'ujanak bo'lib o'tirardim. Soyning narigi tomonidan odamlar ho'kizlar-u otlarga ko'ch-ko'ronlarni ortmoqda. Shu mahal allaqayoqdan uch otliq paydo bo'ldi-da, haligi odamlardan nimanidir surishtirgach, biz tomon kela boshladi. Dastlab bular ko'chirishga kelishgan bo'lsa kerak, deb o'yladim, keyin razm solib qaradim-u sarosimaga tushib qoldim. Ularning biri Duyshen, qolgan ikkitasi – qizil yoqali militsionerlar edi.

O'ligimni ham, tirigimni ham bilmay majolsiz o'tiraveribman. Hatto baqiray desam, ovozim chiqmaydi. Nogahon muallimimizning tirik ekanligini ko'rib, quvonchim ichimga sig'may ketdi! Biroq ayni damda tahqirlanib, badnom etilganimni eslaganimda qalbim ozurda bo'lib faryod chekardi...

Duyshenning boshi bint bilan tang'ib bog'langan bo'lib, shikastlangan qo'li bo'yniga osib qo'yilgandi. U otdan sakrab tushib, eshikni zarb bilan tepdi-da, o'tovga yugurib kirib, qizil yuzli kishining ustidagi ko'rpasini itqitib tashladi.

– Tur, o'rningdan! – dedi u g'azabnok ovozda.

U kutilmaganda boshini ko'tarib, ko'zini ishqalagancha Duyshenga tashlanmoqchi bo'lgan edi, to'pponcha o'qtalib kelayotgan militsionerlarni ko'rib, turgan joyida serrayib qoldi. Duyshen uni yoqasidan ushlab, o'ziga siltab tortdi.

– Yaramas! – dedi u qoni qochgan lablari bilan pichirlab. – Endi boradigan yeringga borasan!

U itoatkorona nari surildi. Biroq Duyshen uni yana yelkasidan ushlab shartta o'ziga siltab tortdi-da, titroq ovozda yuziga tik boqib:

– Sen uni hali o'n gulidan bir guli ochilmasdanoq payhon etdim, deb o'ylayapsanmi? Bilib qo'y, endi sening ham kuning bitdi hisob! – dedi.

Qizil yuzli kishini etigini kiygizib, ikki qo'lini orqasiga bog'lab, otga o'ngargancha militsionerlarning biri tizgindan ushlab yetaklab, ikkinchisi uning ortidan haydar olib ketishdi. Men Duyshenning otida, u esa yonimda piyoda borar edik.

Endi yo'lga chiqqanimizda, ortimizdan allaqanday faryodli chinqiriq ovozi eshitildi. Mundoq qarasam, ortimizdan o'sha qora xotin yugurib kelayapti. U xuddi aqldan ozgan kishidek eri tomon yulqinib chiqdi-da, uning tulki telpagiga tosh bilan tushira boshladi.

– Qonimni zulukdek so'rib, umrimni xazon qilding, odamxo'r! Sen qo'limdan tiriklayin qutula olmaysan! – deya zor qaqshab baqirardi u. Qirq yildan buyon qalbida yig'ilib qolgan sabr-bardosh-u dard-alamlar endi tug'yon ura boshlagandi. Uning qulog-ni qomatga keltiruvchi chinqiriq ovozi dara qoyalari-ga urilib, aks sado berardi. U goh u tomon, goh bu tomon yelib-yugurar, qo'rquvdan hadiksirab buk-chayib qolgan erining ustiga go'ng, tuproq sochib, tosh, kesak, xullas, qo'liga ilingan narsani uloqtirib, dod-faryod ko'targancha la'natlardi.

– Bosgan yeringda o'tlar unmasin! Ilohim, suyak-laring dala-dashtlarda chirib, ko'zlarining qar-g'a-quzg'unlar cho'qisin, boshimga ne kunlar sol-mading, Xudo ursin seni, yo'qol ko'zimdan, yo'qol, odam qiyofasidagi maxluq, turq-atvoringni boshqa ko'rmayin, yo'qol! – deya qiyqirdi-yu birdan jimb qoldi, so'ng u yana shamolda to'zib ketgan sochlari-dan cho'chiganday qichqirgancha narigi tomonga yugurib ketdi.

Shu voqeа ustidan chiqib qolgan qo'ni-qo'shnilar unga yetib olmoq uchun ot choptirib quvlab ketishdi.

Yomon tush ko'rib bosinqiraganday boshim guvul-lardi. Ruhan ezilib adoyi tamom bo'lgan men bechora otda, jilovni tutgan Duyshen sal oldinda borardik. U bint bilan o'rab bog'lagan boshini quyi solgancha su-kut saqlardi. Oradan ancha vaqt o'tib mash'um dara ortda qolib ketdi. Militsionerlar ham ilgarilab ketgan edi. Duyshen otni to'xtatdi-da, horg'in ko'zlari bilan birinchi bor menga nazar tashladi.

– Oltinoy, meni kechir, seni bu balolardan saqlay olmadim, – dedi u. So'ng qo'limni olib, yuziga bos-di-da: – Sen meni kechirgan taqdirda ham, men o'zimni bir umrga kechira olmagan bo'lardim...

Men uvvos tortib yig'lagancha otning yoliga yopishib oldim. Duyshen bo'lsa, yig'lab ko'nglimni

bo'shatib olguncha, yonimda sochlarimni silab, su-kut saqlab turdi-da:

– Tinchlan, qani ketdik, – dedi u nihoyat. – Gapim-ga qulq sol. Uch kun avval bo'lisda bo'ldim. Seni shaharga yuborib o'qitamiz. Eshityapsanmi?

Quyosh nurida tovlanib sharaqlab oqayotgan zilol suv bo'yiga yetib kelganimizda:

– Qani, endi otdan tush, Oltinoy, – dedi Duyshen. Keyin kissasidan bir bo'laksovun olib uzatar ekan: – Istanasang, men u yoqqa borib otni o'tlatib turay, sen esa bo'lib o'tgan voqealarning hammasini xayoling-dan chiqar! Ol, Oltinoy, yengil tortasan. Ma'qulmi?

Men xo'p, deganday bosh irg'adim va Duyshen nari ketgandan so'ng yechinib, asta-sekin suvgaga tushdim. Sharqirab oqayotgan suv ostidagi oq, ko'k, yashil, qizg'ish rangdagi toshchalar kamalak yanglig' jilvalanib menga boqishardi. Shitob bilan oqayotgan moviy suv oqimi to'pig'imga kelib urilib, nimalarnidir bijirlardi. Men undan hovuchlab olib ko'kragimga sepdim. Muzdek suv tanimga yugurib, huzur baxsh etdi. Men shu kunlarda birinchi bor quvonganidandan beixtiyor kulib yubordim. Kulishga nima yetsin! Yana, yana ustimga suv sepdim-da, keyin o'zimni oqimning chuqur joyiga otdim. Shiddatli oqim meni yana sayozlikka chiqarib qo'yar, men esa o'rnimdan turib, yana o'zimni sharillagancha ko'piklanib oqayotgan oqimga otardim.

– Eh, hayotbaxsh suv, senga ming qatla shukurlar bo'lsin, bu qaro kunlarning barcha najaslari-yu razolatlarini oqizib ket! Meni ham o'zing kabi toza, musaffo et! – deya pichirlab kulardim va nima uchun kulayotganimni o'zim ham bilmasdim...

Qani endi odamlarning bosgan izlari esdalik bel-gisi sifatida o'chmasdan umrbod saqlanib qolsa! Agar men hozir Duyshen bilan tog'dan tushib ke-

layotgan o'sha yolg'izoyoq yo'lni topolsam, yerga tiz cho'kib, muallim bosgan izlarni o'pgan bo'lardim. Bu so'qmoq men uchun hamma yo'llardan ham ardoqlidir. Xudoning marhamati bilan meni yangi hayotga, yangi ishonch, yangi orzu-niyatlarga chorlagan o'sha kun, o'sha so'qmoq yo'l xayrli va nurafshon bo'lsin... O'sha kungi porlagan quyoshga, saxovatli yeri zaminga tasanno!..

\* \* \*

Ikki kundan keyin Duyshen meni kichik temir yo'l stansiyasiga olib bordi. Bo'lib o'tgan ko'ngilsiz voqealardan so'ng ovulda qolishni o'zimga ep ko'rmasdim. Yangi hayotni yangi manzilda boshlamoq zarur edi. Ovuldoshlar ham mening qarorimni ma'qullashdi. Sayqal buvi bilan Qartanboy ota bezovta bo'lishib, yosh bolalardek yig'lab-siqtagancha menga atalgan xalta-yu tugunchalarni ko'tarisib yo'lga kuzatib qo'yishdi. Men bilan xayrlashgani boshqa qo'ni-qo'shnilar, hatto janjalkash Sotimqul ham paydo bo'lgan edi.

– Xudoyim o'z panohida saqlasin seni, – dedi u, – Duyshenning pand-nasihatlaridan chiqma, shunda hayotda qoqilmaysan. Bizlar ham ancha-muncha narsalarni tushunadigan bo'lib qoldik. Jur'atli, jasoratli bo'l. Yo'ling charog'on bo'lsin, bolam!

Maktabimiz o'quvchilari anchagacha qo'llarini silkitib, arava orqasidan yugurib borishdi. Meni Toshkentga, yetim bolalar uyiga borayotgan bir nechta bolalarga qo'shib kuzatishdi. Stansiyada bizni charm kurtkali bir rus ayoli kutayotgan edi.

Keyinchalik men tog' daralari orasida, teraklar bilan qoplangan ushbu kichik temir yo'l stansiyamiz oldidan necha bor to'xtamay o'tib ketdim. Go'yo

yuragimning yarmini abadiy o'sha yerda qoldirib ketganday bo'ldim.

Och binafsha rangdagi bahor oqshomi xayrlasha-yotganimni xuddi sezib turganday xomush tortib, allaqanday yurakni zirqiratardi. Duyshen ozor che-kib, dili vayron etilganini pinhon tutishga qanchalik harakat qilmasin – uni yashira olmadi. Muallimning yurak dardini ich-ichimdan sezib turardim; bunday og'riq mening ham tomog'imga tiqilganday edi. Duyshen menga razm solib, mehribonlarcha yuzko'zlarimni, sochlarimu hatto ko'ylagim tugmachalarini silab o'tirardi.

– Oltinoy, menga qolsa, seni, bir zumga bolsa-da, o'z bag'rimdan chiqarmagan bo'lardim, – dedi u. – Le-kin o'qishingga xalal berishga haqim yo'q. Axir, o'zim ham unchalik savodli emasman-ku... Sen o'qish-ga borsang, albatta yaxshi bo'ladi. Ehtimol, haqiqiy o'qituvchi bo'lib, bolalarga saboq berarsan, o'shanda qadrdon maktabimizni eslab rosa kularsan ham... Aytilgan orzu-niyatlarim ilohim ro'yobga chiqsin...

Bu orada olisdan darani yangratib kelayotgan parovoz ko'rinish, odamlar yuklarini ko'targancha g'imirlashib qolishdi.

– Mana, hozir jo'nab ketasan, – dedi Duyshen tit-roq ovozda, qo'limni siqib. – Baxtli bo'l, Oltinoy. Eng muhimi – o'qish va yana o'qish, buni unutma...

Men bo'ssam, biron nima deyishga majolim kel-may, lol bo'lib qolgan edim. Duyshen:

– Yig'lama, Oltinoy, – deya ko'z yoshlарimni ar-tayotib, ittifoqo, allanarsa esiga tushib qoldi: – Ana u sen bilan birga ekkan terakchalarни o'zim parvarish qilaman. Sen komil inson bo'lib qaytib kelganingda ular ham bo'y cho'zib, qanchalik chiroy ochganini ko'rib, quvonchga to'lasan hali.

Shu mahal poyezd kelib, vagonlar sharaq-shuruq etib to'xtadi.

– Qani, endi xayr-xo'shlashamiz! – Duyshen meni qattiq quchib olgancha peshanamdan o'pa boshladi. Sog'-salomat bo'l, safaring bexatar bo'lsin, xayr, oq yo'l senga... Cho'chima, jigarim, hamisha jur'atli, jasoratlari bo'l!

Men vagon zinapoyasiga sakrab chiqdim-da, orqamga o'girilib qaradim. Duyshenning singan qo'lini bo'yniga osib, xiralashib qolgan ko'zlarini uzmay men tomon talpinayotgani sira-sira ko'z o'ngimdan ketmaydi. Shu mahal poyezd o'rnidan qo'zg'ala boshladi.

- Xayr, Oltinoy! Xayr, qarog'im! – qichqirdi u.
- Xayr, qadrdon ustoz! Xayr, mehri daryo muallim!

Duyshen vagon bilan yonma-yon yugurib bora-verdi, keyin ortda qolib ketdi. So'ng yana olg'a tashlandi-da:

- Oltin-oy! – deb o'kirib yubordi.

Menga u xuddi esiga tushib qolgan allaqanday muhim bir gapni, garchi kech bo'lsa-da, ayta olmaganidan o'kinib baqirgandek tuyuldi.

Poyezd tunneldan o'tib, to'g'ri yo'lga chiqib olgandan so'ng, tezlikni oshira borib, meni qozoq dashtlari orqali yangi hayot sari eltardi...

Xayr, muallim, xayr, mening birinchi maktabim, xayr, bolalik chog'larim, xayr, mening hech kimga izhor etmagan birinchi muhabbatim...

Ha, men Duyshen orzu qilgan katta shaharda, derazalari katta-katta, charog'on maktablarda o'qidim. So'ng rabfakni tugatgach, meni Moskvaga institutga yuborishdi.

Uzoq yillik o'qish davomida ilm-fan sir-asrorlari ni egallahda qanchadan-qancha qiyinchilig-u sinovlarni boshimdan kechirib, necha bor tushkunlikka tushgan eng og 'ir damlarda, har gal, xayolan birinchi muallimimga murojaat etardim, u esa meni

hamisha chekinmaslikka, olg'a intilishga da'vat qilardi. Odamlar bir o'qishdayoq o'zlashtiradigan narsalarini men katta mashaqqatlar evaziga o'qib o'zlashtirdim. Chunki o'tilgan darslarning barchasini ibtidosidan boshlashga to'g'ri kelgan edi.

\* \* \*

Rabfakda o'qib yurgan kezlarimda muallimga sevishimni oshkora izhor etib, maktub yo'lladim, biroq, afsuski, u xatimga javob qaytarmadi. Shu bilan o'zaro yozishmalarimiz to'xtab qoldi. Chamamda, muallimim o'qishimga xalal bergisi kelmadi va buni o'ziga ham xush ko'rmadi. Balki, u to'g'ri qilgandir... Ehtimol, qandaydir yana boshqa sababi bordir? O'shanda men turli o'y-xayollarga borib, ozmuncha azob-uqubatlar chekmadimmi...

Birinchi dissertatsiyamni Moskvada yoqladim. Men uchun bu katta va jiddiy g'alaba edi, albatta.

Shu yillar mobaynida o'qish bilan band bo'lib, ovulimizga borishga imkon topolmadim. Bu orada urush boshlanib qoldi. Kech kuz payti, Moskvadan Frunzega evakuatsiya qilinar ekanman, muallim kuzatib qo'ygan o'sha stansiyada tushib qoldim. Omadim kelib, nogahon, ovulimiz orqali sovxoza ketayotgan brichka-arava yo'liqdi.

Oh, jonajon vatanim, biz uchun og'ir urush yillarida, seni yo'qlamoq nasib etdi menga. Yangidan-yangi ovullar paydo bo'lib, yangidan-yangi yo'llar-u ko'priklar bunyod etilib, butun atrof yangi qiyofaga kirganini ko'rib qanchalik ko'zim quvonmasin, lekin, baribir, urushni o'ylab, dilimga qil sig'masdi.

Ovulga yaqinlashganimiz sari, meni hayajon bosardi. Uzoqdan yangi, notanish ko'chalarga, yangi uy va bog'-rog'larga yo'l-yo'lakay nazar tashlab ke-

lardim. So'ng o'sha tepalikda turgan matabimizni ko'rishim bilan nafasim ichimga tushib ketdi – tepalikda ikki ulkan terak shamolda salobatli tebranib turardi. Shu mahal butun umrim bo'yи «muallim» deb atab kelgan kishimni, oddiygina, o'z ismi bilan:

– Duyshen! – deb pichirlab aytdim. – Menga qilgan barcha yaxshiliklaring uchun rahmat! Demak, yodingda ekanman, esdan chiqarmabsan... tasanno. Bu naqadar senga xos xislat-fazilat!

Ko'z yoshlarimni ko'rgan aravakash yigitcha bezovtalanib:

- Nima bo'ldi sizga? – deb so'radi.
- O'zim, shunchaki. Bu ovulda biron kishini taniysizmi?
- Albatta. Bu yerdagilarning hammasi o'zimizning odamlar.

– A, Duyshen degani-chi, muallim bo'lar edi-ku?  
– Duyshennimi? U, axir, urushga ketgan-ku. Uni o'zim mana shu aravada voyenkomatga olib borib qo'ygan edim.

Ovulga kirishda men yigitchadan to'xtashni iltimos qildim va aravadan tushib, nima qilishimni bilmay, o'ylanib qoldim. Shu tashvishli kunlarda uyma-uy yurib, tanish-bilishlarimni izlab, meni taniyapsizlarmi, men sizlarning hamqishloqlaringizman, deb aytishga yuragim betlamadi. Duyshen bo'lsa, allaqachon urushga jo'nab ketgan ekan. Qolaversa, yangam bilan amakim yashaydigan manzilga hech qachon qadam bosmaslikka ont ichgandim. Odamlarning ko'p gunohlarini kechirish mumkin, biroq bunday yovuzlikni, o'ylashimcha, hech kim, hech qachon kechirmaydi. Hatto yangam bilan amakimning ovulga kelishimdan xabar topishini ham zinhor istamasdim. Yo'ldan burilganimcha tepalikka – qo'sh teraklar tomon odimlab ketdim.

- Eh, teraklar, qadrdon teraklar! Hali sizlarni yosh navnihol ekanlaringizda ekib, voyaga yetkazgan odamning aytganlari-yu qilgan barcha orzu-niyatlari erta bir kun ro'yobga chiqdi! Sizlar esa nega xomush ko'rinib, mungli shovullaysiz! Yoki qish yaqinlashib, shamol yaproqlarimizni uzib tashlaydi, deb noliyapsizlarmi? Yoki xalq dard-alamlari tanimizni zirqiratayapti, deb qayg'urayapsizlarmi?

Ha, hali qish keladi, qahraton sovuqlar-u qor bo'ronlari bo'ladi, lekin bahor ham keladi....

Kuzgi yaproqlarning guvullashiga uzoq muddat qulq solib turdim, ular o'z tilida roz aytishib shuvullashardi. Teraklar yonidan o'tgan ariq-atroflarini kimdir yaqindagina sarishta qilib qo'yibdi: hatto hali ketmon izlari ham ketgani yo'q. Ariq to'la to'lqin urib oqayotgan zilol suv teraklarning sarg'imtir yaproqlarini qalqitib borardi.

Tepalikdan menga yangi maktabning bo'yalgan tunuka tomi ko'rinib turardi. Eski maktabimizdan esa asar ham qolmabdi.

Keyin tepalikdan tushib, yo'limiz bir bo'lgan ham-roh bilan brichka-aravada stansiya sari ketdim.

\* \* \*

Urush tugab, g'alaba kunlariga ham yetib keldik. Xalq bu orada qanchadan-qancha mudhish kunlarni boshidan kechirmadi, deysiz: bolakaylor otalarning sumkalarini ko'tarishib, maktabga yugurishar, xizmatdan qaytib kelgan erkaklar yana mehnat bilan mashg'ul bo'lar, beva qolgan ayollar taqdirga tanberib, sukut saqlagancha ko'z yoshi to'kishardi. Axir, xizmatga ketganlarning hammasi ham hali qaytma-gan edi-da. Men ham shular qatori, Duyshenning holine kechganini bilmasdim. Shaharga kelgan hamqish-

loqlarimning aytishicha, u bedarak yo'qolgan emish, qishloq kengashiga shunday qog'oz kelgan emish.

– Kim bilsin, balki halok bo'lgandir, – deb taxmin ham qilishdi ular. Vaqt o'tib borayapti, undan esa hamon darak yo'q.

«Demak, muallimim qaytib kelmas ekan-da, – deb o'ylardim o'zimcha dam-badam. – Stansiyada xayrlashgan o'sha unutilmas kundan boshlab boshqa uchrashish nasib qilmadi bizga...»

Gohida o'tmishni eslar ekanman, qalbimda qanchadan-qancha dard-u alamlar to'planib qolganligini xayolimga keltirmabman.

Qirq oltinchi yilning kech kuz payti, Tomsk universitetiga ilmiy komandirovkaga bordim. Sibir yerlari bo'ylab birinchi yurishim edi. Sibir o'sha qish oldi kezlarida qandaydir mungli va qahrli ko'rinar-di. Deraza ortidan asriy o'rmonlar qorong'i devor yanglig' o'tib borar, o'rmonga tutashgan qishloqchallargi qora tomli uylarning mo'rilaridan buruqsab chiqqan oq tutun miltillab ko'zga tashlanib turardi. Ayozli dalalarga birinchi qor tushgandi. Tepada esa hurpaygan qarg'alar uchib yurardi. Osmo-nning avzoyi buzuq edi.

Ammo poyezdda vaqtim chog', emin-erkin boradim. Kupedagi qo'shnilarimizdan biri – sobiq jangchi, qo'lтиqtayoqli nogiron qiziqchi yigit harbiy hayotga doir voqeа-hodisalar-u latifalar aytib, bizlarni kuldirgani kuldirgan edi. Men uning o'ylab topgan bitmas-tuganmas uydirmalarining, bir qarashda, oddiyligi va beg'arazligi ostida chin haqiqat yotganligini his etib, hayratlanardim. Vagondagilarning barchasi uni juda yoqtirib qolishgandi Poyezd o'rnidan qo'zg'alib, yurishini tezlashtirdi-da, stansiya bekatiga qarashli yolg'iz uy derazasi oldidan suzib o'tdi, strelkaga yetganda ortimga tisarilib derazaga

qaradim va yana oynaga yopishib oldim. U yerda Duyshen turganini ko'rib qoldim! U budka yonida qo'lida yo'l bayroqchasini ushlab turardi. Shunda nima bo'lganini ham bilmay gangib qoldim.

– To'xtanglar! – dedim butun vagonni boshimga ko'targancha, nima qilishimni bilmay, vagon eshi-gi tomon yugurib ketdim. Shu lahzada ko'zim stop kraniga tushib qoldi-da, uning plombasini kuch bilan shartta uzib oldim.

Vagonlar bir-biriga urilib, zarb bilan to'xtadi va yana xuddi shunday keskin orqaga tisarilib to'xtadi. Polkalardagi yuklar ag'anab, idish-tovoqlar sharaqlab yumalab ketdi, bolalar-u xotin-qizlarning qiy-chuvi, kimningdir:

– Poyezd odamni bosib ketibdi! – deya hayqirgan bo'g'iq ovozi eshitildi.

Men esa vagon zinapoyasiga kelib, jahannamga jashlanganday, o'zimni yerga otdim, hech nimani ko'rmasdan, payqamasdan es-hushimni yo'qotib, garangsiganday strelkachi budkasi tomen, Duyshen sari yugurib borardim. Ortidan konduktoring hushtagi yangradi. Yo'lovchi-qatnovchilar ham vagonlardan sakrab tushib, ular ham orqamdan yugurishar edi. Poyezd bilan yonma-yon chonib, bir zumda uning narigi boshiga yetib bordim. Duyshen ham peshvoz yugurib kelardi.

– Duyshen, mehribonim, muallimim, – deya qich-qirardim, o'zimni uning quchog'iga otgancha.

Strelkachi hayron bo'lib to'xtab qoldi-da, menga yuzlandi. Bu o'sha, yuz-ko'zları quyib qo'yganday Duyshenning o'zginasi, lekin ilgarilari mo'ylab qo'yib yurmasdi, ancha-muncha keksayib ham qolibdi.

– Sizga nima bo'ldi, singlim, tinchlikmi? – dedi u hamdardlik bilan, qozoq tilida. – Siz meni birovga o'xshatdingiz, hoynahoy, men yo'l strelkachisi Jong'azin bo'laman, ismim Beynev.

- Beynev misiz?

Qayg'u-alamdan, or-nomusdan ovozim boricha dod-voy solib yubormaslik uchun qanday qilib jimiq qolganimga o'zim ham hayronman. Nima ish qilib qo'ydim? Qo'llarim bilan yuzimni berkitib, boshimni quyi soldim. Qaniydi, yer yorilsa-yu, yerga kirmsam. Strelkachidan uzr so'rab, xaloyiqdan kechirim so'rashim kerak edi, men bo'ssam, damimni ichimga yutib, tosh qotib turardim. Yugurib kelgan yo'lovchilar ham, negadir, churq etishmasdi. O'zim esa ular hozir-oq baqirishib, so'kishib, rosa ta'zirimni berishsa kerak, deb kutib turardim. Mana 'shu mudhish sukunatda allaqanday bir ayol xo'rsinib yig'lagancha:

- Boyoqish, eriga yoki akasiga o'xshatgan bo'lsa kerak, bechora, yanglishibdi, - deyishi bilan odamlar harakatga kela boshladi.

- Shunaqasi ham bo'lar ekan-da, - deya luqma tashladi kimdir.

- Urushda nimalar bo'lmaydi, deysiz, - javob qaytardi bir ayol, gapni shartta bo'lib. Strelkachi qo'llarimni yuzimdan olib, dedi:

- Yuring, sovuqda turmang, sizni vagonga kuza-tib qo'yaman.

U meni qo'ltig'imdan ushlab oldi, ikkinchi qo'lim-dan qandaydir ofitser tutgan edi.

- Yuravering, grajdanka, hammasini tushuna-miz, - dedi u.

Odamlar yo'l berishdi. Go'yo meni dafn marosimiga kuzatishayotgandek edi. Biz oldinda sekin odimlab borardik, boshqalar ham xuddi shu zaylda borishardi. Biz tomon kelayotgan yo'lovchilar ham churq etmasdan to'daga qo'shilishardi. Kimdir tivit ro'molini yelkamga tashladi. Kupedagi qo'ltiq tayoqli hamrohim yonimizda edi. U oqsoqlagancha ilgari o'tib oldi-da, birdan yuzimga qaradi. Xushchaqchaq, hazilkash,

mehribon va dovyurak bu yigit negadir yig'layotgan-dek ko'rindi. Uni ko'rib men ham yig'ladim. Vagonlar bo'y lab saf tortgancha borar ekanmiz, teepamizda telegraf simlarining shamoldan hushtak chalib guvulashi menga motam marshidek eshitildi. «Yo'q, men uni endi hech qachon ko'rmas ekanman.

Vagonimiz yonida bizni poyezd boshlig'i to'xtatdi. U menga barmog'ini bigiz qilib baqirardi. Sud javob-garligi-yu jarima haqida nimalarnidir aytib po'pisa qilardi. Biroq men lom-mim demasdan turaverdim. Endi menga baribir edi. U menga qog'oz uzatib, imzo qo'yishimni so'radi, mening esa qo'limga qalam olishga majolim yo'q edi.

Shu payt haligi men bilan kupeda kelayotgan qo'shnim qo'lтиqtayog'i bilan unga yaqin borib, qo'li-dan qog'ozni tortib oldi-da:

– Uni tinch qo'y! Men imzo chekaman, stop-kran-ni men uzganman. O'zim javob beraman! – deb qich-qirdi.

Sibir kengliklaridan kechikib kelayotgan poyezd yelib borardi. Qo'shnimning gitarasi esa tun bag'rini tilib, g'amgin sas taratardi. Beva qolgan rus ayol-larining dahshatli urushdan esdalik bo'lib qolgan motamsaro cho'ziq ashula sadolarini o'zim bilan bir-pa olib ketayotganday his etardim.

\* \* \*

Yillar o'tdi. Hammasi ortda qoldi. Turmush yana izga tushib, yangi jo'shqin hayotning katta va kichik tashvishlari abadiy yuz ko'rsatib, hamisha kelajak suri chorlardi. Yoshim ulg'ayib, bir yerga yetganda turmushga chiqdim. Umr yo'ldoshim oqko'ngil inson, bolalarimiz, oilamiz bor, inoq yashayapmiz. Mana, endi falsafa fanlari doktoriman. Tez-tez safarga chi-

qishga to‘g‘ri keladi. Ko‘pgina mamlakatlarda bo‘ldim. Ovulimizga esa boshqa kelolmadim. Buning ko‘pgina sabablari bor, albatta. Biroq bu bilan o‘zimni oqlamoqchi ham emasman. Vatandoshlarimdan uzilib qolishim yaxshi emas – buni kechirib bo‘lmashdi. Na qilay, taqdirimda yozilgani shu bo‘lsa. Men o‘tmishni unutib yuborganim yo‘q, unuta olmasdim ham, faqat undan, qandaydir, uzoqlashgan edim, xolos.

Tog‘larda shunday buloqlar bo‘ladiki, yangi yo‘l tushishi bilan bu chashmalarga eltadigan so‘qmoq yo‘llarni asta-sekin yalpiz yoki maymunjonlar bosib, unutilib ketadi. Shu yo‘sinda yo‘ldan burilib, sarattonning jaziramasida chanqoqni qondirish uchun chashmani eslab borayotgan yo‘lovchilarning safi ham tobora siyraklashib qoladi. Kimdir unutilgan o‘sha joyni izlab tonib, butalar orasidan uni avaylab ochadi-da, taassufdan sekin uh tortib yuboradi: ko‘pdan beri hech kim tomonidan loyqalatilmagan muzdekkina buloq suvining tiniqligi-yu chuqurligini ko‘rib hayratda qoladi. U buloq ko‘zgusida o‘zini ham, quyoshni ham, osmon-u falakni ham ko‘radi... Ko‘radi-yu bunday joylarni bilmaslik gunoh, boshqa oshna-og‘aynilarni ham bundan xabardor qilish kerak, degan fikrga keladi. O‘ylaydi-yu o‘zi ham yana bu tomon yo‘li tushmaguncha uni unutib yuboradi.

Hayotda ham ba‘zan shunday bo‘ladi. Hayot deganlari shu bo‘lsa kerak...

Men yaqinda ovulga borib kelganimdan so‘nggina ko‘zi berkilib borayotgan bunday buloqlar esimga tushib qoldi.

Siz, albatta, o‘shanda mening Gurkurovdan birdan jo‘nab qolganimga taajjublangan bo‘lsangiz kerak.

Men sizga hozirgi gapirib berganlarimni o‘sha paytda, o‘sha yerning o‘zida odamlarga aytta qolsam bo‘lmasmidi? Yo‘q, albatta. O‘shanda ko‘nglimga qil

ham sig'masdi, uyatga qolgan edim, o'zimdan o'zim nomus qillardim, shu bois darhol jo'nab ketishga qaror qilgandim. Duyshen bilan uchrasha olmaganligimni, uning yuziga botinib qaray olmasligimni tushunardim. Shuning uchun ham aytmoqchi bo'lgan barcha fikr-mulohazalarimni bir joyga jamlab, ularni ovuldoshlarimizgagina emas, balki boshqa ko'pchilikka ham yetkazish uchun o'zimni tinchlantirib, xotirjam bo'lib olishim kerak edi.

Qolaversa, o'zimni aybdor sanashimning yana bir sababi shundaki, yangi maktabning ochilish marosimida barcha izzat-ikromlar menga emas, balki boshqa bir tabarruk insonga qaratilishi va faxrli o'ringa meni emas, balki uni o'tkazish kerak edi, deb o'ylayman. Bunga avvalo, ovulimizning birinchi muallimi – qariya Duyshen sazovor edi. Vaholanki, aksincha bo'lib chiqdi. Biz bayram dasturxonni atrofida o'tiribmiz. Bu ajoyib inson esa, maktabni tamomlab ketgan sobiq talabalarning tabrik telegrammalarini tantanali marosimga yetkazishga oshiqardi. Bu birinchi marotaba sodir bo'layotgani yo'q, albatta. Bunday voqealarni necha bor kuzatganman. Shu boisdan ham o'z-o'zimga savol beraman: biz oddiy kishilarni izzat-hurmat qilish odatini qachondan beri unutib qo'yganmiz?..

Yoshlar Duyshenning o'z davrida qanday muallim bo'lganini bilishmaydi. Katta avlod vakillaridan ko'pchiligi esa endi yo'q. Duyshenning shogirdlariidan ko'pchiligi urushda halok bo'lgan, ular chinakam jangchilar bo'lganlar. Muallimimiz to'g'risida yoshlarga so'zlab berishga burchli edim. Mening o'rnimda boshqa odam ham shunday qilgan bo'ldi. Lekin uzoq muddat ovulda bo'lomaganligim va Duyshen haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lomaganligim sababli uning siymosi, vaqt kelib, men uchun

sokin muzeyxonalarda saqlanadigan qimmatbaho yodgorlikday bo'lib qolgan edi.

Men hali muallimim huzuriga borib, hammasiga javob berib, undan kechirim so'rayman.

Moskvadan qaytib kelgach, Gurkurovga borish niyatim bor. Ovuldoshlardan yangi internat-maktabni «Duyshenning maktabi» deb atashlarini so'ramoq-chiman. Ha, xuddi ana shu oddiy xo'jalik a'zosi, hozirgi pochtachining nomiga qo'yishlarini taklif qilmoqchiman. Ishonamanki, taklifimni qo'llab-quvvatlaysizlar. Sizlarga shuni aytmoqchi edim.

Hozir yarim tun, soat ikki.

Mehmonxonaning balkonida turib, azim shaharning charaqlab turgan sonsiz-sanoqsiz chiroqlariga nazar tashlar ekanman, o'zimcha ovulga kelgan zahotiyoy, muallim bilan uchrashib, uning oppoq soqollaridan o'paman, deya xayol surardim...

\* \* \*

Derazani lang ochib qo'yaman, xonaga musaffo havo oqimi yopirilib kiradi. Tong yorishishi bilan boshlab qo'yan suratlarimning xomaki nusxalarini diqqat bilan ko'zdan kechiraman. Men bu suratlarni har safar qayta-qayta ko'rib, necha bor qayta ish-laganman. Biroq hali ular haqida biron fikr aytish erta. Hali bosh g'oyani to'la-to'kis gavdalantira ol-ganimcha yo'q. Subhidam sokinligida u yoqdan bu yoqqa yurib, o'ylaganim o'ylagan, uning intihosiga yetolmasdim va hamisha shu takrorlanardi. Har gal ham chizgan suratim hali tugallanmaganiga va har gal ham u ko'nglimga tugib qo'yan bir niyat ekanligiga o'zimni ishontirmoqchi bo'lardim. Shunday bo'lsa-da, baribir, sizlar bilan maslahatlashib olmoqchiman. Mening bu yumushim ovulimizning

birinchi muallimi Duyshen oqsoqolga bag'ishlani-shini o'zingiz ham payqab turgandirsiz, albatta. Bi-roq men kurashlarga to'la, xilma-xil taqdirlar-u in-soniy ehtiroslarga to'la murakkab hayotni bo'yoqlar vositasida ifoda qila olishimni hamon tasavvur eta olmasdim.

Niyatim – ushbu limmo-lim qadahni chayqatib, to'kib yubormaslik. Boshqacha aytganda, uni na-faqat siz zamondoshlarimizga yetkazish, balki ham-mamizning haqiqiy ijod namunamiz sifatida el-ulus-ga tortiq qilishim uchun nima qilishim kerak, degan savol na turganimda, na o'tirganimda menga halo-vat beradi. Uni chizmaslikka haqim yo'q! Gohida o'zimni bu ishning uddasidan chiqa olmayotganday sezib, qayoqdan ham taqdir qo'limga mo'yqalam tutqazib, bunchalik azob-uqubatlarga qo'ymasa, deb o'yga tolaman. Gohida esa o'zimni tog'ni ursa talqon qila oladigan pahlavonlardek his etaman. Shunday paytlarda ko'rish, o'rganish va sarasini tanlab olish uchun o'yga cho'mardim. Bolalik chog'laringda, garchi ularni esdan chiqargan bo'sang-da, senga olam-olam quvonch bag'ishlagan o'sha Duyshen bi-lan Oltinoy ekkan qo'sh teraklarning suratini chiz. Oftobda qorayib ketgan yalangoyoq bolakaylarning rasmini chiz. Ularning azamat teraklarning shox-lariga chiqib olib, yuksaklikdan bepoyon dalalarga hayratomuz boqishlarini chiz.

Yoki Duyshenning suratini chizib, ostiga «Bi-rinchi muallim» deb yozib qo'y. Unda Duyshenning bolalarni qo'lda ko'tarib, suv kechib, soydan o'tka-zayotgan payti-yu boshlariga qizg'ish tulki telpak kiyib olgan o'sha beshafqat zo'ravonlarning, «bizni ko'rib qo'yinglar», deganday masxara qilib, semiz asov otlarini o'ynoqlatgancha yonimizdan o'tib ketayotganlari aks etsin... Yoki bo'lmasa, muallim-

ning Oltinoyni shaharga kuzatayotgan paytini chiz. Uning g‘am-alam o‘tida yonib, so‘nggi bor qichqir-gani yodingdami? Shunday bir surat chizginki, u xuddi Duyshenning tubsiz nidosi Oltinoy qulog‘i ostida hanuz yangrab turgandek, har bir kishining yuragida aks sado berib tursin.

Men bu gaplarni o‘zimga aytyapman. Allanimalar haqida o‘zimga-o‘zim ko‘p gapiraman-u, hamma vaqt ham ularning uddasidan chiqavermayman. Mana, hozir ham chizgan suratim qanaqa chiqishi menga dargumon. Ammo bir narsaga ishonchim komilki, u ham bolsa – muttasil izlanish...

## **SARVQOMAT DILBARIM**

*Ikki hikoyadan iborat qissa*

### **MUQADDIMA O'RNIDA**

Kasbim jurnalist bo'lganligi sababli Tyan-Shanda tez-tez bo'lib turishga to'g'ri kelardi. Bundan bir yarim yil muqaddam, bahor kunlaridan birida meni shoshilinch suratda tahririyatga chaqirib qolishdi. Bu vaqt men Tyan-Shan oblastining markazi Norinda edim. Avtostansiyaga yetib kelsam, bundan bir necha daqiqa ilgari avtobus jo'nab ketgan ekan. Navbatdagi maschinani yana besh soatlar chamasi kutish kerak edi. Xullas, birorta yo'lovchi mashinada ketishga urinib ko'rishdan boshqa iloj qolmagan edi. Shu maqsadda shahar chekkasidagi tosh yo'lda qarab yugurdim.

Muyilishdagi yoqilg'i shoxobchasi oldida bir yuk mashinasи turardi. Haydovchi mashinaga endigina benzin quyib bo'lgan ekan. Sevinib ketdim. Kabin-a oynasiga xalqaro qatnov belgisi «511», deb yozib qo'yilgan edi. Demak, mashina Xitoydan Ribachedagi chet ellar bilan aloqa qiladigan transport avtobazasiga kelayotgan ekan. U yerdan istagan vaqtda Frunzega ketish mumkin edi.

– Siz hozir jo'naysizmi? Meni ham Ribachegacha olib ketsangiz! – deb iltimos qildim haydovchidan.

U o'girilib, yelkasi osha menga qarab qo'ydi-da, qaddini rostlab, xotirjamgina:

- Yo'q, og'a, ilojim yo'q, – dedi.
- O'tinib so'rayman, meni zarur ish bilan Frunze-ga chaqirtirishibdi.

Haydovchi menga yana xo'mrayib qaradi.

– Tushunyapman, ammo xafa bo'lman, og'a. Hech kimni olmayman.

Men hayron bo'lib qoldim. Kabinasi-ku bo'sh, bir kishini olib ketsa nima qilarkin. Shoshilib turganimni, nafasim bo'g'zimga tiqilib ketayotganini ko'rib turgan bo'lsa.

– Men jurnalistman. Juda shoshilyapman. Istanaganingizcha haqini to'lashim mumkin...

– Gap pulda emas, og'a! – deb so'zimni shartta bo'ldi haydovchi. So'ngra jahl bilan ballonni tenib ko'rди. – Boshqa safar bepul ham olib ketaman. Ammo hozir sira ilojim yo'q. Mendant ranjimang. Hademay boshqa mashinalarimiz ham kelib qoladi, xohlaganingizga tushiб ketishingiz mumkin, lekin men olib keta olmayman...

Yo'lda kabinaga birovni olsa kerak, deb o'yladim va:

– Kuzovda-chi? – deb so'radim.

– Baribir, kechirasiz meni, og'ajon.

Haydovchi soatiga bir qaradi-yu, jo'nashga shoshildi.

Juda boshim qotib, yelkamni qisib qo'ydim-da, boyadan beri budka darchasidan bizni jimgina ku-zatib turgan benzinchchi keksa rus ayoliga hayron bo'lib qaradim. U go'yo: «Tegmang, uni o'z holiga qo'ying», – deyotgandek bosh chayqardi. Qiziq.

Haydovchi kabinaga o'tirdi va og'ziga tutatilmagan papirotni qistirib, motorni yurgizib yubordi.

U hali yosh, o'ttizlar chamasidagi, biroz bukchay-gan, ammo baland bo'yli yigit edi. Uning rul chambaramagini ushlab olgan salmoqdar chayir qo'llari, g'amgin, o'ychan ko'zları va charchab-horiganidan salqib ketgan qovoqlari xotiramda saqlanib qoldi. Yo'lga tushishdan oldin u yuzini kafti bilan siladi va chuqr xo'rsinib qo'ydi, tog' oralab ketadigan yo'lga

tashvishlanib nazar tashladi. Mashina yeldek uchib ketdi.

Tyan-Shan haydovchilari ko'rinishdan badjahl bo'lalar ham, joy bo'lsa yo'lovchilarining iltimosini hech qachon rad etmas edilar. Bu gal esa qandaydir tushunib bo'lmaydigan qaysar bir haydovchiga uchrab qoldim.

Benzinchi ayol budkadan chiqdi. Aftidan, u meni yupatmoqchi bo'ldi shekilli:

- Xafa bo'lmaning, hozir siz ham ketasiz, – dedi.
- Shoshib turmaganimda mayli edi-ya!.. – deb to'ng'illadim alamimga chiday olmay.
- Modomiki shunday ekan...
- Nima edi?
- Yo'q, shunchaki aytdim-da! – deb ayol kimgadir achingandek qo'l siltadi va shlangni kolonka oldiga yig'ishtirib qo'yar ekan, xo'rsinib qo'ydi: – Bu voqeanning tarixi uzoq...

Men jim turardim.

– Yigit bechoraning boshiga tashvish tushgan. Bir vaqtlar u biz bilan shu yerda, dovondagi bazada ishlardi.

Benzinchi ayolning gapini oxirigacha tinglash menga nasib bo'lindi. Yo'lovchi «Pobeda» kelib qoldi, biz yo'nga tushdik.

Yuk mashinasiga hadeganda yetib ololmadik, faqat Do'lan dovoni etaklaridagina yetib oldik. U hatto ko'pni ko'rgan Tyan-Shan haydovchilariga ham ruxsat etilmaydigan g'oyat tezlik bilan uchib borardi. Mashina burilishlarda ham tezligini kamaytirmay, qoyalar ostidan guvillab o'tib borar, shiddat bilan balandliklarga uchib chiqar va birdan xuddi ag'darilib ketgandek pastga tomon sho'ng'ir, yana bir zumda ustiga yopilgan brezentning chekkalari shalop-shaloplاب bortga urilib, hirpiragancha oldinda paydo bo'lar edi.

Baribir «Pobeda» «Pobeda»ligini qildi. Biz yuk mashinasini quvib o'ta boshladik. Men o'girilib qaradim: bu odam muncha umidsizlikka tushgan, qayoqqa bunchalik yelib ketyapti? Shu payt yomg'ir aralash do'l sharros quyib berdi. Bizda, dovonda bunday yog'ingarchilik tez-tez bo'lib turardi. Qiylab, chaparastasiga urayotgan do'l aralash yomg'ir tomchilari orasidan ranglari oppoq oqarib ketgan, papiros tishlab olgan jiddiy tusdagi qiyofa kabina oynasi orqasidan lip etib ko'rinish o'tdi. Uning qollari rul chambaragida tez-tez harakat qilardi. Kabinada ham, kuzovda ham hech kim yo'q edi.

Mana shu tasodifiy uchrashuvdan so'ng oradan ko'p o'tmay meni Qиргизistonning janubiga, O'sh oblastiga xizmat safariga yuborishdi. Odatdagicha biz journalistlarning vaqtimiz hamma vaqt ziq bo'la-di. Oqshom poyezd jo'nashi oldidan vokzalga chopgancha yetib keldim va vagonga sakrab chiqib, o'z kupemga kirdim, hadeganda derazadan tashqariga qarab o'tirgan yo'lovchiga e'tibor ham bermabman. Nazarimda, bu kupega ikkalamizdan boshqa hech kim chiqmaydiganga o'xshardi. Hamrohim menga qayrilib qaramadi ham. U boshini oynaga qadagan-chi yo shunchaki tashqariga tikilib o'tirardi, yoki bo'lmasa allanimalar haqida o'yldardi.

Poyezd tezligini oshira bordi. Radiodan musiqa ovozi yangradi: tanish kuy ijro etilayotgan edi. Bu qиргиз klassik kuyi menga doim g'ira-shira oqshom payti dashtda ketib borayotgan yolg'iz otliqning ashulasini eslatardi. Yo'l uzoq, bepoyon dasht. Egarda o'tirib xayol surib, bironta ashula asta xir-goyi qilinsa ham bo'ladi. Xirgoyi qilganda ham qalbdan chiqarib kuylasang. Axir ot tuyoqlarining tapir-tupur sadolari ostida yolg'iz o'zi xirgoyi qilib borayotgan yo'lovchining qalbida turli xil o'y-xayollar

oz muncha bo'ladi deysizmi?.. Ariqdagi suv mayda yaltiroq toshlar ustidan shildirab oqayotgandek, qo'biz torlaridan orombaxsh mayin kuy asta-sekin taralardi. Qo'biz adirlar orqasiga yonboshlayotgan quyosh haqida, har yoqqa salqinlik taratayotgan mayin shabada haqida, yo'l yoqalab ketgan ko'mko'k yovshan va sap-sariq chalovlarning sekin-sekin tebratib, gul changlarini to'kayotgani haqida kuylardi. Dasht ham chavandozning ashulasini tinglaydi va u bilan birga o'ynab, birga kuylaydi...

Ehtimol, hozir biz poyezdda yelib borayotgan bu yerdan o'sha chavandoz ham qachonlardir yurgaradir... Balki o'shanda, xuddi hozirgidek, dasht ufqi-da shafaq sekin-asta och-sariq tusga kirib, so'na borgan, tog' bag'ridagi qor esa xuddi hozirgidek qu-yoshning so'nggi shu'lalarini emib, pushti rangga kirgan-u yana darhol xiralashib so'nib qolgandir.

Deraza ortidan bog'-rog'lar, tokzorlar, qulf urib yotgan ko'm-ko'k makkajo'xori dalalari o'tib borardi. Yangi o'rilgan barra yo'ng'ichqa ortilgan qo'sh otli arava temir yo'l chorrahasi tomon yo'rtib borardi. U shlagbaum oldida to'xtadi. Quyoshda qoraygan, rangi unniqib ketgan yirtiq mayka kiyib, ishtonini tizzasigacha shimarib olgan aravakash bola o'rnidan turdi-da, poyezd tomon havas bilan boqib, iljay-ganicha kimgadir qo'l siltadi.

Radiordan taralayotgan kuy poyezdning taraqa-turug'iga jo'r bo'lib, kishini hayratga solarli derajada bir-biri bilan uyg'unlashib ketardi. Otning dukur-dukuri relslarning tutashgan joyiga urilayotgan g'ildirak tovushi bilan almashgandek edi. Qo'shnim bo'lsa qo'lini stolchaga tirab, ko'zlarini hamon tashqaridan uzmay o'tirardi. Nazarimda, u ham o'zicha o'sha tanho oqliqning ashulasini unsiz kuylayotgandek edi. U xafami yoki biron narsani

o'layaptimi, harqalay, uning qiyofasidan boshida qandaydir chuqur qayg'u, yuragida o'chmas alam borligi sezilib turardi. U o'zini shu qadar unutgan ediki, kupeda mening o'tirganimni ham payqamasdi. Men uning yuzini ko'rishga intildim. Qayerda uchratgan edim bu odamni? Hatto bug'doyrang qo'llari, uzun va baquvvat barmoqlari ham tanish ko'rinadi.

Nihoyat uni tanidim: bu meni mashinasiga olma-gan o'sha haydovchining xuddi o'zginasi edi. «Biron yoqqa o'z ishi bilan ketayotgan bo'lsa kerak», – deb o'yladim va shu bilan xotirjam bo'ldim. Jomadon-dan kitob oldim. O'zimni unga tanitishimning hojati bormidi? Ehtimol, u allaqachonlar unutib yubor-gandir. Haydovchilarga yo'lda oz muncha yo'lovchi duch keladi deysizmi?

Shunday qilib, biz yana ancha vaqtgacha o'zimiz bilan o'zimiz ovora bo'lib, jim ketdik. Kech kirib, qosh qoraya boshladi. Hamrohim chekmoqchi bo'lib yonidan papiros chiqardi va gugurt chaqish oldidan chuqur xo'rsinib qo'ydi. So'ngra boshini ko'tardi-yu, hayratlanib menga qaradi va shu zahotiyoy qizarib ketdi. Tanidi.

– Salom, og'a! – dedi u aybdor kishidek kulimsi-rab. Men ham unga qo'l cho'zdim.

– Uzoqqa ketyapsizmi? – deb so'radim.

– Ha... Uzoqqa! – dedi u papiros tutunini taratar-kan va birozdan keyin qo'shib qo'ydi: – Pomirga.

– Pomirga! Demak, hamroh bo'lar ekanmiz-da. Men O'shga ketyapman.

– Men ham xuddi o'sha tomonga.

– Juda soz bo'ldi, zerikmas ekanmiz.

– Ehtimol, – deya ishonchsizlik bilan to'ng'illadi u.

– Dam olganimi? Yoki o'sha yoqqa ishga joylash-moqchimisiz?

– Ha, shunga o'xshashroq... Chekasizmi? – deb papiros uzatdi u.

Biz papirosni tutatib, biroz jimb qoldik. Dastlab boshqa hech qanday gapimiz qolmagandek tuyildi. Hamrohim yana xayolga cho'mdi. U boshini quyi solib, poyezd harakatiga mos tebranib borardi. U, nazarimda, birinchi uchrashganimizdagiga qaraganda juda o'zgarib ketgandek ko'rindi. Ancha o'zini oldirib qo'ygan, peshanasidagi uch qator ajin yanda ichkariroq botib kirgan, chimirilgan qoshlari esa yuziga g'amgin soya solib turgandek edi. U to'satdan boshini ko'tardi-da, qiyiq qo'yko'zlarini menga tikib:

– Siz o'shanda mendan qattiq xafa bo'lgandirsiz-a, og'a? – deb so'radi ma'yus jilmayib.

– Qachon? Negadir eslolmayapman, – men uning noqulay ahvolga tushib qolishini istamas edim. Rostini aytganda, o'tgan ish xafa bo'lishga arzimasdi ham. Lekin u menga shunday bir samimiyat bilan tikilib turardiki, mening tezda iqror bo'lishdan boshqa ilojim qolmagan edi. – E, ha... unga ancha bo'ldi-ku... Arzimagan gap edi, esimdan ham chiqib ketipti. Buning nimasi bor ekan. Yo'lda har xil hodisa sodir bo'lishi mumkin. Siz o'sha uchrashganimizni hali eslab yuribsizmi?

– Boshqa vaqtida bo'lganda, ehtimol, unutib yuborgan ham bo'lardim. Lekin o'sha kunni unutolmayman...

– Nima bo'lgan edi? Biror falokat yuz bergenmid? – deb so'ravdim men undan beixtiyor, uning o'sha kungi mashinani qanday boshqarayotganini eslab.

– Yo'q, nima desam bo'larkin? Falokat yuz bermgan edi! – dedi u biroz durustroq so'z tanlab, so'ng kulib yubordi, to'g'rirog'i, o'zini kulishga majbur qildi. – Hozir bo'lsa, istagan tomoningizga mashinada sayr qildirib kelar edim-u, ammo ko'rib turibsiz, o'zim ham yo'lovchiman...

– Hechqisi yo‘q, ot bir bosgan izidan ming marta yuradi, deydilar-ku, ehtimol, vaqt-soati kelib, yana yo‘lda uchrashib qolarmiz...

– Agar nasib qilib uchrashib qolsak, albatta, o‘zim zo‘rlab kabinaga chiqarib olaman, – dedi u boshini silkib.

– Demak, kelishdikmi? – deb hazillashdim men.

– So‘z beraman, og‘a! – dedi u xursand bo‘lib.

– Shunday qilib, nega o‘shanda meni olib ketmagan edingiz?

– Nega deysizmi? – dedi-yu, shu ondayoq ma'yus bo‘lib qoldi.

U tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgandek jim qolib, papiros tutunini jon-jahdi bilan torta boshladi. Men o‘rinsiz savol berganimni payqab qolib, gapni boshqa yoqqa burishga intildim. Biroq vaqt o‘tgandi. U papirosini o‘chirdi-da:

– Ilojim yo‘q edi... O‘g‘limni o‘ynatib olib yurgan edim... – dedi zo‘r-bazo‘r g‘o‘ldirab.

– O‘g‘limni? – Hayron bo‘ldim men. – Kattaginami u?

– Yo‘q! – deya jilmaydi u, endi uning ko‘zlarini men ga tabassum bilan boqardi. – Hali yosh, endi beshga qadam qo‘ydi...

– Nima, u sizni biron joyda kutib turganmidi?

– Ha, dovonda.

– Xo‘sish, keyin nima bo‘ldi? – men hali ham hech narsa tushuna olmayotgan edim. Qiziq, nega o‘g‘li u yerda bo‘ladi, umuman, bolaning bu gapga nima aloqasi bor?

– Bilasizmi... Gap bunday... Sizga qanday tushuntirsam ekan... – deb u peshanasiga sizib chiqayotgan ter qatralarini artdi, hayajonini bosish uchun chekdi, so‘ng menga jiddiy tikildi.

Ana shunday qilib, men haydovchining o‘z taqdiri haqidagi hikoyasini eshitishga muyassar bo‘ldim. Lekin u hech kimga, ayniqsa, menga – jurnalistga o‘z hayoti to‘g‘risida batafsil gapirib bermasligiga qattiq

ishonardim. Keyinroq bilishimcha, bu odam duch kelgan yo'lovchiga yuragidagi sir-asrorini to'kib soladigan odamlardan emas ekan. Ammo haydovchingning boshidan kechirgan sarguzashtlari shunday ediki, uning xohishi-istagidan qat'i nazar, voqeani birma-bir aytib berishga majbur edi. Aks holda men hatto Tyan-Shan yo'lida oramizda bo'lib o'tgan arzimas hodisani ham tushunib yetmagan bo'lardim.

Manzilga yetguncha hali vaqtimiz ko'p edi. Poyezd O'shgacha deyarli ikki kecha-kunduz yuradi. Men uni shoshirmasdim va turli savollar berib gapini ham bo'lavermasdim. Kishi o'z kechirganlarini qayta boshidan kechirayotgandek his etib, goh so'zi og'zida qolib to'xtab, goh o'ylanib, entikib hikoya qilib bersa – juda maroqli bo'ladi. Ammo uni hikoyasiga qo'shilib ketmaslik uchun men o'zimni zo'r-bazo'r tutib turardim. Chunki men kutilmaganda shuni bilib qoldimki, sharoitga ko'rami yoki o'zimning har narsaga aralashib ketaveradigan jurnalistlik kasbimga ko'rami, har holda, shaxsan bu yigit haqida bo'lmasa ham taqdir unga uchratgan, ammo haydovchiga uncha tanish bo'lмаган kishilar to'g'risida uncha-muncha narsa bilardim. Shuning uchun ham men uning hikoyasini davom ettirishim, ba'zi tafsilotlar bilan to'ldirishim, unga noma'lum bo'lgan ko'p narsalarni so'zlab berishim mumkin edi. (Darvoqea, qissaning ikkinchi hikoyasi-da xuddi mana shu tafsilotlar bayon etiladi). Ammo men buni haydovchingning hikoyasini oxirigacha tinglab bo'lganimdan keyin aytib berishga qaror qildim. So'ngra esa u fikrimdan ham qaytib, unga hech narsa gapirmadim. Shunday qilganim yaxshi bo'ldi, deb o'layman. Nega? Chunki bu tafsilotni keyinroq, qissaning eng oxirida so'zlab berishni lozim ko'rdim.

Modomiki assosiy mavzudan chetlashib ketgan ekanman, shunga ko'ra bu o'rinda bir lirk chekinish qila qolay.

Ehtimol, o'quvchilar «Ikki hikoyadan iborat qissa» degan g'alati sarlavhachaga e'tibor qilishgandir. Ha, darvoqe, shunday. Bu shunchaki muallifning xo-hishi bilan bo'lgan narsa emas. Ma'lumki, odatda, agar zarurat tug'ilsa, adabiy asarlar bo'lim, bob va qismlarga ajratiladi. Hikoya esa o'z-o'zidan ma'lumki, alohida mustaqil adabiy asardir. Biroq bu yerda gap forma haqida ketayotgani yo'q.

«Bu voqeaning tarixi uzoq!» – degan edi yoqilgi shoxobchasi dagi ayol. Haqiqatan ham men so'zlab bermoqchi bo'lgan voqea juda uzoq va ehtimol, odat-dagi **hikoyalarga** mutlaqo o'xshamas. Men bu haqda allaqachon muallif tilidan kichkinagina qissa ham yozgandim. Ya'ni, tashqaridan kuzatib turib, voqea-hodisalar va kishilar xarakterlarini chizib ber-gandim. Shunday qilib, tasvirlanayotgan hayot qay-novida muallif sifatida o'zim ham qatnashgandim. Qissani o'qib chiqish uchun o'rtoqlarimga berarkan-man, birdaniga ustimga do'lday ta'na va tanbeh-lar yog'ila boshladi. Aytilgan fikrlar hech bir-biriga to'g'ri kelmasdi: ba'zilar meni haq, muallif o'z qah-ramonlariga nisbatan shunday pozitsiyada bo'lishi kerak, deyishsa, ba'zilar meni ko'yishib, g'azablanib, muallif nohaq, asarni bunday emas, boshqacharoq yozish kerak edi, dedilar. ayniqsa, qissaning xoti-ma qismi ko'pchilikning achchig'ini keltirgandi. Xullas, ular har to'g'rida bahslashishardi. Axloq haqida, qahramonlarning xatti-harakatlari haqida tortishishib, yo ularni qoralashar, yo ma'qullahash-di. Ammo kishilarning hayotga nisbatan bu shax-siy qarashlari bilan bog'liq bo'lgan barcha e'tirozlari menga, muallifga qaratilgan bo'lib, go'yo bularning hammasi mening xohishim bilan ro'y bergandek edi.

O'rtoqlarimdan qaysi birining fikri qanchalik to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini muhokama qilib o'tirishni o'z zimmamga olmayman, tahlil qilish niyatim ham

yo'q. Biroq uzoq fikr yuritishlardan so'ng shunday xulosaga keldim, ya'ni qissani hayotda qay tarzda eshitgan bo'ssam, xuddi shu tarzda yozishim kerak. Men bu qissani ikki kishidan eshitganman, shuning uchun ham qissa ikki hikoyadan tashkil topgan. U ikki kishining boshidan kechirganlaridir. Men nima ni eshitgan bo'ssam, shunigina yozyapman. Yaxshisi, qahramonlarning o'zlarini hikoya qilib bera qolishsin.

## HAYDOVCHI HIKOYASI

...Bularning hammasi hech kutilmaganda yuz berdi. O'sha kezlarda men motorlashtirilgan qismda harbiy xizmatni o'tab bo'lib, armiyadan endigina qaytib kelgan edim. Harbiy xizmatga borgunimcha o'n yillikni tamomlab, haydovchilik qillardim. O'zim bolalar uyida tarbiyalanganman. Do'stim Alibek Jon turin mendan bir yil oldin harbiy xizmatdan bo'shab kelib, Ribachedagi avtobazada ishlayotgan edi. Xizmatni o'tab bo'lgach, men ham to'ppa-to'g'ri o'sha avtobazaga keldim. Biz Alibek ikkimiz Tyan-Shanda yoki Pomirda ishlashni doim orzu qilib yurardik. Avtobazada meni yaxshi kutib olishdi. Yotoqxona ga joylashtirishdi. Hatto biror yeri ham lat yemagan yap-yangi «ZIL» mashinasini berishdi. To'g'risini aytsam, mashinamni odamni sevgandek sevardim. Motori juda kuchli, ajoyib mashina edi. Shunday bo'ssa ham biz unchalik ortiqcha yuk bilan yurmasdik. Tyan-Shan yo'lini o'zingiz yaxshi bilasiz – bu avtotrassa dunyodagi eng baland tog'li yo'llardan biri, qanchadan-qancha daralar, dovonlar bor. Tog'da suv istagancha topiladi, shunga qaramay, hamma vaqt ehtiyyotdan suv olib yurishga to'g'ri kelardi.

Ehtimol, kuzovning oldi burchagidagi ustunchaga osib qo'yilgan suvli kameraga ko'zingiz tushgan bo'ssa kerak. Yuk yoz bo'ssa ham, olis va o'nqir-

cho'nqir yo'llarda motor tez qizib, radiator erib ketishi hech gap emas. Shuning uchun doim suv olib yurish kerak. Dastlab men ham qanday bo'lmasin, mashinaga ko'proq yuk ortish choralarini ko'zlab uzoq vaqt bosh qotirdim. Biroq hech nima chiqmadi. Harqalay, tog' tog'ligini qiladi.

Shunday bo'sa ham o'z ishimdan ko'nglim to'q edi. Bu yerning o'zi ham, tabiat ham menga yoqardi. Avtobazamiz shundaygina Issiqko'lning qirg'og'ida joylashgan edi. Bu yerga chet ellik turistlar ham kelib turishardi. Ular ko'l sohilida sehrlangandek bir necha soatlab tomosha qilib turib qolishardi, ana shunday paytlarda men o'zimcha: «Qarang, Issiqko'liz qanday ajoyib! Bunchalik go'zal, bunchalik ko'rkan manzarani topa olish mumkinmi?...» – deb faxrlanardim.

Dastlabki kunlarda negadir biroz siqilib yurdim. Bahor, ishlar qaynagan payt, sentabr Plenumidan keyin dastlabki kunlardanoq kolxozchilar qurilish ishlarini avj oldirib yuborishgan edi. Ular butun vujudi bilan ishga sho'ng'ib ketishdi-yu, ammo texnika yetishmasdi. Shuning uchun ham avtobazadagi mashinalarning bir qismini kolxozlarga yordamga yuborishardi. Ayniqsa, ishga yangi kirganlarni, shu jumladan, meni ham nuql o'sha yoqqa yuborishardi. Trassaga o'tib, endi yo'nga ko'nikdim deganda, yana u yerdan olib ovullarga haydashardi. Ishning qanchalik muhim va zarur ekanligini tushunardim. Ammo men har holda haydovchiman, mashinaga jonim achirdi-da. Mashina emas, balki men o'zim o'nqir-cho'nqirlardan sakrab otilib, qishloq bo'ylab loy kechib borayotgandek bolardim. Yo'llar shunaqangi rasvoki, bunaqasini hatto tushingizda ham ko'rmagansiz.

Kunlardan birida yangi molxona uchun kolxozga shifer olib borayotgandim. Bu ovul tog' etagida joy-

lashgan bo'lib, unga boradigan yo'l ham xuddi ana shu tog' yon bag'ridagi dasht bo'ylab o'tardi. Mashina bemalol borayotgan edi, yo'l ham selgib qolgan ekan. Biroq ovulga yetay deb qolganimda, mashinam birdan qandaydir ariqqa tiqilib qoldi. Bu yo'l bahordan beri yurilaverib shunchalik ag'dar-to'ntar qilib tashlangan ediki, hatto tuya cho'kib ketsa ham tonib olish qiyin edi. Unday qilib ko'rdim, bunday qilib ko'rdim, mashinani turli tomonga haydab ko'rdim – hech narsa chiqmadi. La'nati loy uni qa'riga shunchalik tortib ketgan ediki, xuddi qisqichda tutib turgandek, hech qayoqqa qo'zg'atmasdi. Buning ustiga rulni jahl bilan qattiq burib yuborgan ekanman, mashinaning qayeridir shilq etib chiqib ketdi. Yana uning ostiga kirishga to'g'ri keldi. Hamma yog'im loyga belanib qora terga tushib, yo'lni og'zimga kelgan so'zlar bilan so'kib yotgan edim, kimningdir shu tomon yurib kelayotgan oyoq sharpasini eshitib qoldim. Yotgan joyimdan menga faqat rezina etikkina ko'rinaridi. Etiklar yaqinlashib kelib, qarshimda qimir etmay turaverdi. Jahlim chiqib ketdi. Nimani tomosha qiladi-ya, sirk bormi bu yerda!..

– Qani, tepamda turma, yo'lingga ravona bo'l! – deb qichqirdim mashina ostidan. Eskirib, go'ng tegib iflos bo'lib ketgan ko'ylak etagiga ko'zim tushib qoldi. Nazarimda, allaqanday kampirga o'xshadi, ovulga olib borib qo'yari, deb kutib turgan bo'lsa kerak.

– Yo'lingdan qolma, kampir! – dedim unga yana.  
– Bu yerda hali ancha vaqt aylanishib qolaman, kutaferib toqating toq bo'ladi...

U bo'lsa:

– Men kampir emasman! – dedi.

U bu so'zlarni qandaydir ishonchsizlik bilan uyalinqirab aytgan edi.

– Kimsan bo'imsa? – dedim achchig'im chiqib.  
– Qiz bolaman.

– Qiz bolaman? – deb etiklariga yana ko'z qirimni tashladim. Jerkib bergenligim uchun xijolat tortib, bu yog'ini hazilga burdim:

– Chiroylimisan? – deb so'radim.

Etiklar ketishga hozirlanib, chetga qarab odimlay boshladi. Shunda men darrov mashina ostidan chiqdim. Qarasam, haqiqatan ham qoshlari jiddiy chimirilgan va kattakon, ko'rinishidan otasiniki bo'lsa kerak, kamzulini yelkasiga tashlab olgan qizil durra-chali nozikkina bir qiz turibdi. U menga jimgina temilib turardi. Men bo'sam yerda o'tirganimni ham, loy va balchiqqa belanganimni ham unutib yuborib:

– Chakki emas! Chiroyli ekansan-ku! – deya uning boshidan oyog'igacha nazar tashlab chiqar ekanman, iljayib qo'ydim. U haqiqatan ham go'zal edi: – Shu oyoqlaringga tufichalar bo'sami! – deb hazillashdim o'rnimdan turarkanman.

Qiz to'satdan shartta burildi-da, orqasiga qayrilib ham qaramay, jadallagancha keta boshladi.

Nima bo'ldi unga? Xafa bo'ldimi? Hazil-mutoyiba qilib o'tirishning vaqtি emas! Es-hushimni yig'ib oldim, ortidan yugurib yetib olmoqchi bo'ldim, keyin yana orqaga qaytib, asboblarni tezda yig'ishtirib oldim-u kabinaga irg'ib chiqdim va mashinani goh oldinga, goh orqaga zarb bilan haydab tebrata boshladim. Faqat birgina narsani – unga yetib olishni o'ylardim, xolos. Motor esa zo'r berib tirillar, mashina silkinar edi. Biroq u joyidan bir qadam ham siljimasdi. Qiz bo'lsa borgan sari uzoqlashib borardi. Men loyga botib, turgan joyida dirillab aylanib yotgan g'ildiraklarning ostiga qarab:

– Qo'yib yubor! Qo'yib yubor deyapman! Eshit-yapsanmi? – deb baqirardim, kimga qichqirayot-ganimni o'zim ham bilmay.

Jonimning boricha akseleratorni siqdim. Mashina o'kirib sekin-asta olg'a siljiy boshladi va qan-

daydir bir mo'jiza bilan botqoqdan otilib chiqdi. O'zimda yo'q quvonib ketdim! Mashinani yo'lga chiqarib, ro'molcha bilan yuzimdag'i loyni artdim va sochlariimni silab tartibga soldim. Qizga yonma-yon kelgach, mashinaga tormoz berdim, bunchalik jur'at qayerdan paydo bo'ldi menda, o'zim ham bilmayman, o'rindiqda o'tirgan yerimda yonboshlagancha abjirlik bilan kabina eshigini shartta ochdim-da:

– Marhamat! – deb ehtirom bilan qo'l uzatdim. Qiz to'xtamadi. «Ana xolos!» – deya boshimni qashiy boshladim. Boyagi jasorat va ehtiromdan asar ham qolmagandi. Men unga yana yetib oldim. Bu gal uzr so'rab, iltimos qila boshladim:

– Xafa bo'l mang. Men, axir, shunchaki... O'tiring. Ammo qiz lom-mim demadi.

Shunda men uni quvib o'tib, mashinamni yo'lga ko'ndalang qilib qo'ydim-da, kabinadan sakrab tushib, o'ng tomonga yugurib o'tdim, eshikni ochib, uni ushlab turaverdim. U, obbo, muncha yopishib oldi bu tentak, degandek hadiksirab menga yaqinlashdi. Men hech narsa demadim, nima ham qila olardim. Bosh egib kutib turaverdim. Menga rahmi keldimi yoki shunchakimi, haytovur, bir bosh chay-qab qo'ydi-da, indamay kabinaga chiqib o'tirdi.

Biz yo'lga tushdik.

Men indamay o'tirardim, qanday gap boshlashni o'ylardim. Qizlar bilan birinchi marta uchrashayotganim yo'q, shunday bo'lsa ham hozir u bilan gaplashishga yuragim dov bermay turardi. Nega shunday-a? Rul chambaragini aylantirar ekanman, unga zimdan qarab qo'yardim.

Qop-qora nozik va mayin sochlari qo'ng'iroq-qo'ng'iroq bo'lib bo'yniga tushib turardi. Kamzuli esa yelkasidan sirg'alib tushib ketdi, uni tirsagi bilan tutib turardi, o'zi bo'lsa menga tegib ketishdan qo'rqib, nariroq surilib o'tirdi. Qarashlari jiddiy

bolsa ham, umuman, qiyofasidan mehribonlik va samimiylit sezilib turardi. Yuzlari oydek, rangi tiniq edi. Peshanasini tirishtirib, chimirilmoxchi bolardi-yu, biroq uddalay olmasdi va yo'l-yo'lakay ehtiyotkorlik bilan menga qarab-qarab qo'yardi. Ko'zimiz ko'zimizga tushib qoldi. U jilmayib qo'ydi. Ana shundan keyin men gap boshlashga qaror qildim.

– Siz u yoqda, mashina oldida nega to'xtagan edingiz? – deb og'zimga kelganini so'rab qo'ya qoldim.

– Sizga yordamlashmoqchi edim.

– Yordamlashmoqchi? – deb kulib yubordim.

– Darhaqiqat, yordamingiz tegdi! Agar siz bo'lmanagingizda, kechgacha o'sha yerda qolib ketgan bo'lardim... Siz doim shu yo'ldan yurasizmi?

– Ha. Fermada ishlayman.

– Juda yaxshi! – deb quvonib ketdim, ammo darrov o'zimni o'nglab olib, so'zimni to'g'rilab qo'ydim.

– Yo'l juda yaxshi!

Xuddi shu payt mashina chuqurlikka tushib qat-tiq silkingan edi, yelkalarimiz bir-biriga tegib ketdi. Men tomoq qirib qo'ydim, ko'zlarimni qayoqqa yashirishni bilmay, qip-qizarib ketdim. U esa kulib yubordi. Shunda men ham o'zimni tutib turolmay, xaxolab kulib yubordim.

– Men bo'sam kolxozga bormayman deb yurib-man-a, – dedim kulgi aralash. – Agar yo'lda sizga o'xshagan yordamchi uchrashini bilganimda edi, dispatcher bilan adi-badi aytishib o'tirmagan bo'lardim... Eh, Ilyos, Ilyos! – deya o'zimni o'zim koyidim. – Bu mening ismim, – deb tushuntirdim so'ng qizga.

– Mening ismim Asal...

Biz ovulga yaqinlasha boshladik. Endi yo'l ancha tekis edi. Men mashinani yana qichabroq haydadim. Shabada kabina derazasiga urilib, Asalning boshida-gi durrachasini yulqilar va sochlarini to'zitar edi. Biz

churq etmasdik. Ikkimiz ham iliq hislar quchog'iga cho'mib borardik. Tirsagi tirsagingga tegay-tegay deb o'tirgan mana shu qiz haqida bundan bir soat ilgari sen hech narsa bilmasding, endi bo'lsa nima uchundir faqat uning to'g'risida o'ylagning keladi. Shunday paytlarda mashinani haydash ham juda oson, juda maroqli bo'lar ekan... Asalning ko'nglida nimalar kechayotganini bilmasdik, ammo uning ko'zlarini tabassum bilan porlardi. Ehtimol, u ham menga o'xshab hech qachon ajralmaslik uchun uzoq va tinimsiz yurishni istayotgandir. Bu mening orzu-xayollarim, albatta. Shu chog' mashina ovul ko'chalaridan o'tib borayotgan edi. Shunda Asal mashinada ketayotgani to'satdan esiga tushib qolgandek:

- To'xtating, tushaman! - dedi cho'chinqirab.  
Men mashinaga tormoz berdim.
- Yetib keldik shekilli? Shu yerda turasizmi?
- Yo'q, - dedi u negadir hayajonlanib, bezovtalanib. - Yaxshisi, shu yerda tushib qo'ya qolay.
- Nega endi? To'ppa-to'g'ri uyingizga olib borib qo'yaman! - deb uning e'tiroz bildirishiga imkon bermay, mashinani yana haydab ketdim.
- Shu yerda tushaman, - dedi Asal nihoyat. - Rahmat!
- Marhamat! - dedim arang, so'ng: - Agar ertaga mashinam yana boyagi yerda tiqilib qolsa, yordam berasizmi? - dedim hazil aralash jiddiylik bilan.

U javob berishga ulgurolmadi. Yaqindagi hovlining ko'cha eshigi ochilib, allanimadan tashvishlangan keksagina ayol yugurib chiqdi.

- Asal! - deb qichqirdi u nimadandir ogohlantirmoqchi bo'lgandek, qo'li bilan og'zini berkitib. - Qayqlarda daydib yuribsan, Xudo ko'tarsin seni! Bor, tezroq kiyimlaringni almashtir, sovchilar kelishdi!

Asal uyalib ketdi. yelkasidan kamzulini ham tushirib yubordi, so'ngra uni yerdan oldi-da, itoat-

korona onasi orqasidan ketdi. U eshik oldiga borganda orqasiga bir qayrilib qaradi, ammo shu zahotiyoq eshik «taq» etib yopildi.

Men ko'chadagi qoziqda bog'log'liq turgan egarlangan va uzoq yo'l yurib terga botib kelgan otlarni endigina payqabman. O'tirgan yerimdan turib, devor osha hovliga qaray boshladim. O'choqboshida xotin-xalaj uymalashib yurishardi. Katta rux samovardan burqsab tutun chiqib turardi. Ikki kishi ayvonda yangi so'yilgan qo'y terisini shilmoqda. Xuldas, sovchilarni ko'ngildagidek kutib olishayotgan edilar. Mening bu yerda qiladigan ishim qolmagan-di. Borib yuklarni tushirishim kerak edi.

Avtobazaga kech kirganda qaytdim. Mashinani yuvib, garajga kiritib qo'ydim. Bu yerda ancha vaqtgacha o'ralashib yurdim, mashinaning u yoq bu yog'ini ko'zdan kechirib, tuzatgan bo'ldim. Bugungi voqeani ko'nglimga shunchalik yaqin olganimni negadir o'zim ham tushunmasdim. Butun yo'l bo'yi o'zimni o'zim dam koyirdim, dam yupatardim: «Xo'sh, senga nima? Qanaqa ahmoqsan o'zing? Axir u sening kiming bo'ladi o'zi? Qaylig'ing-mi? Yo singlingmi? Tasodifan yo'lda uchrashib qolib, uyiga olib borib qo'yibsan, xo'sh, nima bo'pti? Go'yo ilgaridan bir-birlaringni sevib yurgandek kuyinishingni qara-yu! Ehtimol, u sening haqingda o'ylashni ham istamas. Senga juda ko'zi uchib turgani ham yo'qdir! Axir qizning ayttirib qo'ygan kuyovi bo'lsa, sen uning kimi bo'lasan, hech kimi! Yo'lda uchragan begona haydovchi bo'lsang, senga o'xshagan haydovchilar son-sanoqsiz-ku, axir... Yana birovlarning ishiga aralashishga nima haqing bor: ular quda-anda bo'lishyapti, yaqinda to'y qili-shadi, ularning ishiga tumshug'ingni suqib nima qilasan? Hammasiga tupur. Sening ishing nima? Yaxshisi, rullingni aylantirib yuraver!..»

Ammo butun balo shunda ediki, o'zimni har qancha avrasam ham u qizni yodimdan chiqara olmasdim.

Mashina oldida qiladigan ishim ham qolmadi. Yotoqxonaga borsam bo'lardi. U yerda shovqin-suronli, gavjum joy – qizil burchak ham bor. Mening u yoqqa borgim yo'q. Ko'nglim yolg'iz bo'lishni istardi. Qo'llarimni boshim ostiga qo'yib, mashina qanotiga chalqanchasiga yotdim. Yonginamda, mashina ostida Jontoy degan haydovchi ivirsib yurgan edi. U chuqurdan boshini chiqardi-da:

– Senga nima bo'ldi, chiroyli yigit? Xayol suryapsanmi? – dedi masxaraomuz to'ng'illab.

– Ha, pul haqida! – deb shartta kesdim gapini. Men uni yoqtirmasdim, u uchiga chiqqan xasis, ayyor va hasadgo'y yigit edi. U boshqalarga o'xshab yotoqxonada turmasdi. Allaqanday bir ayolnikida ijaraga turardi. Aytishlaricha, unga uylanishga va'da bergan mish, nima bo'lsa ham uy-joyli bo'lib oladi-da.

Men teskari o'girilib oldim. Hovlida, mashinalar yuviladigan joyda yigitlarimiz qiy-chuv ko'tarib, hazil-huzul qilishyapti. Kimdir kabinaga chiqib olib, navbat kutib turgan haydovchilar to'dasiga qarata brandspoytdan vishillatib suv sepmoqda. Ular butun avtobazani boshlariga ko'tarib qahqahlashardi. Otilib chiqayotgan suv shunchalik kuchli edi-ki, borib urilgan odamini bemalol gandiraklatib yuborardi. Boyagi yigitni kabina ustidan tushirishmoqchi bo'lishar edi-yu, ammo u turgan joyida irg'ishlab, go'yo avtomatdan o'q yog'dirayotgandek, kishilarning orqasiga suv bilan savalab, bosh kiyimlarini uchirib yuborar edi. Birdan otilib chiqayotgan suv osmonga ko'tarildi-yu, quyosh nurlari ostida kamalakka o'xshab egilib tusha boshladi. Qarasam, dispetcherimiz Xadicha turibdi. Suv esa uning ustidan uchib o'tmoqda. Biroq u qimir etmasdi. Xadicha o'z qadr-qimmatini bilardi, hammaning o'zi-

ga suqlanib qarashini ham sezardi. U o'zini qanday tutishni yaxshi bilar, uncha-muncha odamni o'ziga osonlikcha yaqin yo'latmasdi. Hozir ham u ishonch bilan hech narsadan cho'chimay, qani senib ko'rchi, ojizlik qilasan, degandek, parvoysi falak turardi. Etikli oyoqlarini kerib, shpilkalarni og'zida tishlab, kulimsiragancha uni sochlariqa qadardi. Mayda, kumushsimon suv zarrachalari uning boshi uzra tushayotgan edi. Yigitlar qahqahlashib, kabina us-tidagi yigitni gij-gijlashardi.

- Xadichani cho'miltirib qo'y!
- Bir bopla!
- Qo'lidan kelmaydi!
- Qochib qol, Xadicha!

Yigit jur'at eta olmay, otilib chiqayotgan suv oqimini yuqorilatib-pastlatib o'ynardi. Uning ornida men bo'lganimdami, boshidan oyog'igacha suvga cho'miltirardim, shunda ham u menga hech narsa demagan bo'lardi, kulardi-qo'yardi, xolos. Men buni maqtanchoqlik qilib aytayotganim yo'q. Xadichaning boshqalarga qaraganda menga qandaydir boshqacha munosabatda ekanini doim sezib yurardim. U men bilan gaplashganda boshqacharoq: muloyim, sal tantiqroq bo'lib qolardi. Hazillashib tegajaklik qilsam ham, boshini silasam ham unga yoqib ketardi. Uning doim men bilan bahslashib, janjallahib qolib, yana darhol, hatto nohaq bo'lsam-da, taslim bo'lishini yaxshi ko'rardim. Ba'zan uni kinoga olib tushardim, uyi yotoqxona yo'lida bo'lgani uchun ku-zatib ham qo'yardim. Uning oldiga, dispatcher xonasiga to'ppa-to'g'ri kirib boraverardim, boshqalar esa faqat tuynukcha orqali murojaat qilishardi.

Ammo hozir Xadicha ham ko'nglimga sig'masdi. Mayli, u erkaligini qilaversin.

Xadicha so'nggi shpilkasini qadab bo'ldi:

– Bas, yetar endi shuncha o'ynashganing! – dedi u amirona.

– Xo'p bo'ladi, o'rtoq dispatcher! – deb kabina ustidagi yigit qo'lini chakkasiga qo'yib chest berdi-yu, hukmn ni osonlik bilan bajo keltirdi. Atrofdagilar xaxolashganicha yigitni kabina ustidan sudrab tushirdilar.

Xadicha esa biz turgan garajga qarab kelaverdi. U Jontoyning mashinasi yonida to'xtab, kimnidir izlay boshladi. U xiyla paytgacha meni payqamadi. Oramizda garajni xona-xona qilib ajratib turuvchi sim to'rlar bor edi. Jontoy chuqurdan boshini chiqarib:

– Salom, suluv qiz! – deb salomlashdi.

– E, Jontoy...

U ko'zlarini lo'q qilib, Xadichaning oyoqlari-ga tikilib turardi. Xadicha esa ensasi qotgandek yelkasini qimtib qo'ydi-da:

– Xo'sh, namuncha tikilasan? – deb etikchasinining uchi bilan Jontoyning iyagiga sal turtib qo'ydi.

Boshqa odam bo'lganda, ehtimol uni so'kib bergen yoki ranjib qolgan bo'larmidi. Bu bo'lsa go'yo bo'sa olgandek og'zi qulog'iga yetib, chuqurga sho'ng'ib ketdi.

Xadicha to'siqqa yaqinlasharkan, menga ko'zi tushib qolib:

– Dam olyapsanmi, Ilyos? – dedi.

– Ha, par to'shakda yotgandek!

U yuzini sim to'rga qadab, menga tikilib qaradi va sekingga:

– Dispatcherxonaga kir, – dedi.

– Xo'p.

Xadicha ketdi. O'rnimdan turib, ketishga hozirlandim. Jontoy yana boshini chiqardi:

– Yaxshi narsa-ya! – dedi qo'llarini ishqalab, menga ko'z qisib.

– Ammo sening tenging emas! – deb gapning po'skallasini aytdim-qo'ydim.

Men uning jahli chiqar, men bilan urishib ketar, deb o'ylagan edim. Urish-janjal ishqibozlaridan emasman-u, ammo yuragim shu darajada azob chekayotgan ediki, o'zimni qo'yarga joy topa olmay turgan edim. Biroq Jontoy xafa bo'lishni xayoliga ham ketirmadi:

– Hechqisi yo'q! – deb to'ng'illadi u. – Omon bo'lsak, ko'rarmiz...

Dispatcher xonasida hech kim yo'q edi. Nima balo? Qayoqqa yo'q bo'ldi u: ichkari kirishim bilan eshik yopildi. Orqaga o'girildim-u ko'kragim Xadichanинг ko'kragiga qadalib, to'qnashib qoldik. U boshini orqaga tashlab, eshikka suyanib turardi. Ko'zlari kipriklari ostida chaqnardi. Qaynoq nafasi yuzimga urilardi. U mening quchoqlab olishimni, o'pishtimni kutib turgandek edi. O'zimni tuta olmay qoldim. U tomon intildim-u, yana shu zahotiyoq orqaga tislandid. Bu gap qanchalik g'alati tuyilmasin, men o'sha daqiqada o'zimni Asalimga xiyonat qilayotgandek his etdim. Bunday fikrning juda kulgili ekanligi xayolimga ham kelmadı.

– Nega chaqirding? – so'radim norozi ohangda.

Xadicha hamon menga jimgina boqib turardi.

– Gapir, nima? – dedim toqatim toq bo'lib.

– Nahotki nimagaligini bilmasang? – dedi u dili og'rigandek. – Negadir qiyo boqmaydigan bo'lib qolding. Yoki boshqa birontasi topilib qoldimi?

Men dovdirab qoldim. Nega mendan o'pkalayapti? Qayoqdan bila qoldiykin?

Shu paytda tuynukchaning zulfini shiqillab qoldi.

Jontoy boshini tiqib mo'raladi. U qisiq ko'zlarini o'ynatib tirjayib turardi. Poylamoqchi bo'libdi-da! Eh, ko'nglimda nimalar borligini bilganda edi, bunday qilmagan bo'lardil!

– Marhamat, o'rtoq dispatcher! – dedi u ichiqoraliq bilan Xadichaga qandaydir qog'ozni uzatarkan.

Xadicha jahl bilan unga xo'mrayib qaradi-yu, qog'ozni olmadi. Alam bilan yuzimga to'rsillatib gapira ketdi:

– Sen uchun yo'llanmani kim oladi? Alovida taklif qilishlarini kutib yuribsamni?

Xadicha qo'li bilan meni chetlatib, stol tomon tez o'tdi.

– Ma! – deb yo'llanmani uzatdi.

Men uni oldim. Ertalik yo'llanma yana o'sha kolxozga berilgan edi. Yuragim muz bo'lib ketdi: Asalning qay ahvoldaligini ko'ra-bila turib, yana o'sha yoqqa boramanmi... Nega o'zi doim meni kolxozma-kolxoz haydashgani-haydashgan?

G'azabim qaynab, qizishib ketdim.

– Yana kolxozgami? Yana go'ng-u g'isht tashishgami? Bormayman! – deb yo'llanmani stolga uloqtirdim. – Bas, shuncha loy kechganim yetar. Boshqalarni ham yuborishsin!

– Baqirma! Naryading bir haftalik! Lozim bo'lsa tag'in yuborishadi! – dedi Xadicha menga.

Men esa xotirjamlik bilan:

– Bormayman! – dedim qat'iy.

Har galgidek hozir ham Xadicha birdan shashtidan tushib qoldi.

– Xo'p, mayli. Men boshliqlar bilan gaplashib ko'rman, – dedi.

U stoldan yo'llanmani oldi.

«Demak, bormaydigan bo'ldimmi? – deya o'yladim men. – Endi Asalni ham hech qachon ko'rmaymanmi?» Battarroq qiynala boshladim. Negadir tezda o'z hukmimdan qaytdim-da, yana u yoqqa borishga ahd qildim. Agar shunday qilmasam, keyin umr bo'yi afsuslanib yurishim menga ayon bo'ldi. «Mayli, nima bo'lsa bo'lsin, ammo boraman!..»

– Mayli, bu yoqqa ber! – deb yo'llanmani tortib oldim.

Tuynukchadan mo'ralab turgan Jontoy piqillab kulib yubordi-da:

– Ovuldagi buvimga salom aytib qo'y! – dedi. Men hech narsa demadim. Tumshug'iga boplاب tushirsang! Eshikni taraqlatib yopdim-da, yotoqqa ketdim.

Ertasi yo'lda ketayotib chor tarafga nazar tashlab, ko'zlarim to'rt bo'ldi. Qani u? Qani endi, uning sarvinoz qomati ko'rina qolsa. Qizil durrachali sarvqomatim! Ehtimol, rezina etik, otasining kamzulini kiyib olgan dersiz! Bekor gap! Men uning qanaqa ekanligini o'z ko'zim bilan ko'rganman! Uning nimasi meni rom etdi, qalbimni nega bunchalik o'rtayapti?

Tevarak-atrofga nazar tashlab bormoqdaman. Yo'q, hech qayerda ko'rinxmaydi. Bu safar emas, turgan-bitgani azob bo'ldi. Qani u, uni qanday topsam ekan? Ovulga yetdim, so'ngra qishloq ko'chasi bo'ylab haydadam, uning hovlisiga yaqinlasharkanman, mashinani sekinlatib, oxiri to'xtadim. Ehtimol, u uyidadir? Qanday chaqiraman, unga nima deyman? U bilan yana uchrashish menga nasib etmas ekan-da. Yukni olib borib tashlash uchun mashinaga gaz berdim. Yukni tushirishyapti-yu, ko'nglimda hamon umid uchqunlari yonmoqda. Balki qaytishda uchratib qolarman? Biroq qaytishda ham uchratmadim. Shundan keyin mashinani ferma tomon burdim. Ularning ko'hna fermasi anchagina chekkada, ovuldan uzoqda ekan. U yerga yetib kelib, bir qizdan so'radim. U, Asal yo'q, bugun ishga chiqmadi, dedi. «Demak, yo'lda men bilan uchrashmaslik uchun atayin ishga chiqmagan», – deb o'yladim-da, juda xafa bo'lib ketdim. Avtobazaga g'amgin bo'lib qaytdim.

Ikkinci kuni yana yo'nga chiqdim. Ammo endi uni uchratishni xayolimga ham keltirmasdim. Darvoqe, mening unga nima keragim bor? Agar qiz unashtirilgan bolsa, uni bezovta qilishdan nima foya? Ammo negadir bunday bo'lishiga sira ishongim

kelmasdi. Axir ovullarimizda hanuzgacha qiz bilan yigitni bir-biriga ko'rsatmay, orqavarotdan fotiha qilib yuboraveradilar-ku! Bu haqda necha marta gazeta-larda ham o'qidim. Biroq yozgan bilan foydasi qancha? To'ydan keyin nog'ora chalishning foydasi yo'q, fotihani buzib bo'lmaydi. Unashtirilgandan keyin gap tamom. Fotihani buzish – xayrli ish emas, ikki yoshning turmushi buzildi, degan gap... Mana shunday o'y-xayollar miyamda chuvalashib ketgandi...

O'sha kezlar ayni bahor chog'i edi. Tog' etaklarida lolalar tovlanardi. Bolaligimdanoq men bu cho'g'dek qip-qizil gullarni sevardim, yalangoyoq chopqillab yurib quchoq-quchoq lola tersang-u unga keltirib bersang! Ammo qani endi u, tonib ko'r-chi...

Bir mahal, qarasam, Asal. Ko'zlarimga ishongim kelmaydi! O'tgan gal mashinam tiqilib qolgan joyning naq o'zginasida bir chetda, xarsang tosh ustida o'tiribdi. Birovni kutib o'tirganga o'xshaydi. U cho'chib o'rnidan turdi va sarosimaga tushib, boshidan durrasini yulqib oldi-yu, qo'lida g'ijimlay boshladи. Asal bu safar chiroyli ko'ylak va tuflı kiyib olgan edi. Yo'l shunchalik olis bo'lsa ham u poshnali tuflı kiyib olibdi. Mashinani to'xtatishga shoshildim. Yuragim esa takapuka bo'lib o'ynardi.

– Salom, Asal!

– Salom, – dedi u sekingga.

Men kabinaga o'tirishga yordamlashmoqchi bo'ldim, u burilib, yo'l bo'ylab asta yurib ketdi. Demak, kabinaga chiqishni xohlamayapti. Mashining eshigini ochganimcha u bilan yonma-yon sekin haydab ketaverdim. Shu zaylda, u yo'l chekkasida, men esa rulda jimgina borardik. Men nima haqda gapirishni ham bilmasdum, bir payt u:

– Kecha fermaga kelgan sizmidlengiz? – deb so'rab qoldi.

– Ha, nima edi?

- Shunchaki o'zim. U yerga bormang.
- Sizni ko'rmoqchi edim.

U hech narsa demadi.

Miyamdan esa o'sha la'nati unashish sira nari ketmasdi. Nima bo'lganini bilgim kelardi. Ammo so'rashga tilim bormasdi. Yuragim dov bermasdi. Uning nima deb javob berishidan cho'chirdim.

Asal menga qarab qo'ydi.

- O'sha gap rostmi?

U bosh irg'adi. Rul qo'lidan chiqib ketayozdi.

- To'y qachon? – deb so'radim.

– Yaqinda, – dedi u ohista.

Mashinani g'izzlatib, boshim oqqan tomonga ketib qolishimga sal qoldi. Tezlikni oshirish o'rniga aksincha qilib qo'yibman. Motor bekorga gurillab aylanardi. Asal cho'chib o'zini chetga oldi. Men esa hatto undan uzr ham so'ramabman, o'sha mahal uzr so'rash esga kelarmidi.

- Endi boshqa uchrashmas ekanmiz-da? – dedim.
- Bilmadim. Uchrashmaganimiz ma'qulroq.
- Men esa, men baribir... Istanasangiz-istamasangiz doim sizni izlayman!

Biz yana jim qoldik. Ehtimol, ikkimiz ham bir narsa haqida o'ylayotgandirmiz, ammo ikkimiz ikki yo'ldan ketayotgandek, go'yo o'rtamizda mening unga yaqinlashishimga, uning esa mening kabinanga o'tirishiga imkon bermaydigan qandaydir devor turgandek edi.

– Asal! – dedim. – Menden o'zingizni tortmang. Sizga hech ham xalal bermayman. Sizni uzoqdan ko'rib yuraman. Maylimi?

– Bilmadim, balki...

– O'tiring, Asal.

– Yo'q, mayli, ketavering. Ovulga yaqinlashib qoldik.

Shundan keyin ham biz uchrashhib turdik, har safar uchrashganimizza go'yo tasodifan to'qnashib

qolgandek bo'lardik. Yurishimiz ham avvalgidek. U yo'l chetidan, men esa kabinada borardim. Juda alam qilardi, ammo nima qila olardim, birovni zo'r lab kabinaga chiqarib bo'lmaydi-ku, axir.

Kuyov haqida og'iz ochmasdim. Noqulay ahvolda qolishi mumkin, qolaversa, so'rashni ham istamasdim. Ammo so'zlarimdan tushunishimcha, Asal uni yaxshi bilmas ekan. U ona tomondan biroz chatishgan ekan, o'zi esa uzoqda, tog'dagi o'rmon xo'jaligida yasharmish. Bu oilalar qadimdan bir-birlari bilan qiz berishib, qiz olishib, shu bilan avlodma-avlod qarindosh-urug'chilik aloqalarini saqlab kelisharkan. Bizda esa bunday urug'-aymoqchilik juda hurmat qilinadi. Asalning ota-onasi uni begonaga berishni xayollariga ham keltirmasdi. Men haqimda so'z ham bo'lishi mumkin emasdi. Men kim bo'libman? Allaqanday kelgindi, tag-zotining tayini yo'q bir haydovchi-man-da. Ochig'ini aytganda o'zim ham qizdan umidvor bo'lib og'iz ocholmagan bo'lardim.

O'sha kunlari Asal kamgap bo'lib qoldi. G'am-g'us-sa chekib, doim allanimalar haqida o'ylab yurardi. Mening esa butun umid va ishonchlarim sovurilgan edi. Uning taqdiri hal bo'lmoqda, uchrashish ham befoya edi. Biroq biz xuddi yosh bolalardek, gapirishganda bu haqda so'z ochmay, chetlab o'tardik va u bilan shu taxlitda uchrashaverdik, chunki uchrashmasdan turolmas edik. Ikkalamizga ham busiz yashash mumkin emasdek tuyilardi. Ammo bizni oldinda nimalar kutayotganini tasavvur ham qila olmasdik.

Oradan besh kun o'tdi. Shu kuni ertalab avtobazada yo'lga tayyorgarlik ko'rayotgan edim. Bir o'rtog'im kelib, seni dispetcherxonaga chaqirishyapti, dedi. Chonib ketdim.

– Suyunchi ber! – dedi quvonch bilan Xadicha. – Seni Sinszyan yo'liga o'tkazishdi!

Men turgan yerimda qotib qoldim. Sinszyanga meni birinchi marta yuborayotganlari yo'q edi. Shunday bo'lishi turgan gap edi, ammo keyingi kundarda menga umrbod kolxozga qatnashim shartdek bo'lib qolgandi.

Xitoyga qatnash ko'p kunlik yo'l, kim bilsin, Asalni ko'rishga vaqt topa olarmikinman. Uni xabardor qilmasdan to'satdan g'oyib bo'lib ketamanmi?

– Senga ma'qul tushmadi, deyman-a? – dedi Xadicha.

– Kolxoz nima bo'ladi? – dedim hayajonlanib. – U yerdagi ishlar ham tamom bo'lgani yo'q-ku.

Xadicha yelkasini qisib qo'ydi:

– U yoqqa borishni ilgari o'zing istamaganding-ku.

«Obbo, qo'lga tushirdi-yu!» – deb o'yladim men va jahlim chiqib:

– Ilgari istamagan bo'lsam istamagandirman-da!

– dedim.

Stulga o'tirdim, nima qilishimni bilmay qoldim.

Jontoy yugurib kirib keldi. Ma'lum bo'lishicha, mening o'rninga uni kolxozga yuborishayotgan ekan. Men sergaklanib turdim. Jontoy bosh tortsa kerak, chunki qishloqqa qatnaganda norma kamyib ketar edi. Bu esa qo'lga oz pul tegadi degan so'z. Ammo u, bilmadim, nima uchundir, yo'llanmani oldi, yana buning ustiga mamnun bo'lib:

– Xohlagan tomoningga yuboraver, Xadicha, dunyoning narigi chekkasiga bo'lsa ham mayli! Hozir ovulda qo'ylarning ayni qo'zilayotgan payti, senga ham olib kelaymi? – dedi. Keyin bu yodda men o'tirganimni ko'rib: – Kechirasani, xalaqit berdim shekilli, – deb qo'ydi.

– Yo'qol bu yerdan! – deb o'shqirdim boshimni ko'tarmasdan.

– Xo'sh, nega o'tiribsan, Ilyos! – deb yelkamga turtdi Xadicha.

– Kolxozga men borishim kerak, meni yubor, Xadicha! – deb iltimos qildim undan.

– Aqling joyidami o‘zi, ilojim yo‘q, naryad tamom bo‘lgan, – dedi-da, menga tashvishlanib tikildi. – Namuncha kolxozga qatnaging kelib qoldi?

Men hech narsa demay, chiqib ketdim. Garajga keldim. Jontoy meni masxara qilgandek yonimdan mashinasini g‘izillatib o‘tib ketdi, qanoti bilan urib ketishiga sal qoldi.

Mashina yonida allamahalgacha ivirsib yurdim, ammo biron iloj topa olmasdim. Yuk ortiladigan stansiyaga bordim. U yerda bir to‘da haydovchilar navbat kutib turishgan edi.

O‘rtoqlarim papiros chekishamiz, deb chaqirishdi, ammo men kabinadan chiqmay o‘tiraverdim. Ko‘zimni yumdim-u Asalning yo‘lda meni behuda kutib o‘tirganini ko‘z o‘ngimga keltirdim. Bir kun kutar, ikki kun, uch kun... So‘ng mening haqimda nima deb o‘ylashi mumkin? Qo‘rroq, qochib qoldi, deb o‘ylasa-ya!

Mening navbatim esa yaqinlashmoqda edi. Oldim-dagi mashinaga yuk orta boshlashdi. Kran qandaydir katta-katta yashiklarni kuzovga tushirmoqda. Yana birozdan keyin kran ostiga mening mashinam turishi kerak. «Kechir meni, Asal! – deb o‘yladim men. – Kechir, meni, go‘zalim, sarvqomatim! Seni ogohlantirolmadim!» Ammo shu payt to‘satdan miyamga oddiygina bir fikr kelib qoldi: axir men u yoqqa allaqachonoq borib unga aytib qaytishim mumkin edi-ku. Yo‘lga bir necha soat kechikib chiqsam, osmon qulab yerga tushmas?

Avtobaza boshlig‘iga keyinchalik tushuntiraman, balki tushunar, tushunmasa biroz koyir, hayf-san e‘lon qila qolar yoki juda zo‘r kelsa ishini olar. Allaqachon shunday qilishim kerak edi! Ketdim!

Mashinamni orqaga yurgizmoqchi bo'lib, darhol motorni yurgizdim. Ammo ortimda mashinalar tibband edi. Bu orada oldimdag'i yuk ortilgan mashina o'z joyini bo'shatdi. Navbat menga keldi. Men sal hayallab qoldim.

– Mashinangni keltir! Hey, sen! – deb baqirdi kranchi menga qarab.

Yuk olish uchun mashinamni oldinga siljitsdim. Kranning xartumi tepamga yaqinlashib kelmoqda. Bo'ldi, ish tamom! Eksport yuki bilan biron yoqqa jilib ko'r-chi. Nega axir shuni ilgariroq o'ylab ko'r-mabman-a? Safarga jo'natuvchi kishi kelib, hujjalarga belgi qila boshladi. Men kabinaning orqa derazachasiga qaradim. Tepadan kuzovga konteyner tebranib tushmoqda edi. U borgan sari kuzovga yaqinlashib kelaverdi.

Ana shunda men:

– Po'sht! – deb qichqirdim-da, mashinani shiddat bilan konteyner ostidan olib qochdim. Xayriyatki, motor o'chirilmagan edi. Orqadan qichqiriq, hushtak va so'kish ovozlari eshitildi. Biroq men e'tibor bermasdan mashinani omborlar, taxlab qo'yilgan yog'ochlar va ko'mir uyumlari yonidan g'izillatib borardim. Pastqam yo'llar bilan shahardan chiqib oldim va tog' etagiga, kimsasiz yo'lga yetib kelgach, rulga mahkam yopishib oldim. Mashina yelib borardi, «ZIL» goh u tomon, goh bu tomon chayqalib ketardi. Ammo biz bunga ko'nikib qolgan edik.

Ko'p o'tmay Jontoyni quvib yetdim. Oldinga o'tib ketmoqchi bo'lib signal berdim. U kabinadan boshini chiqarib xo'mrayib qaradi. Dovdirab qolib, ko'zları qinidan chiqib ketayozdi: meni tanidi. Ablahni qarang! Birovning shoshilayotganini ko'rib turgandan keyin unga yo'l berish kerak-da. Ammo u-chi, yo'l bergisi kelmaydi, boshimni aylantirmoqchi. Shunda men mashinani chetga burdim-da, uni to'g'ri paykal bilan quvib

boraverdim. Jontoy ham mashinasini qistay boshladi. Endi u yo'lga chiqib olishga imkon bermasdi.

Biladiki, atrofda harakat qoidalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortadigan biron kimsa yo'q. Buning ustiga, hozir uni hech nima qila olmasligimni biladi. Shu zaylda uchib borardik: u yo'lda, men paykal ichi bilan. Ikkalamiz ham rulga yopishib ol-ganmiz, yirtqichlardek bir-birimizga ko'z olaytiramiz, so'kinamiz.

– Sen qayoqqa? Nega? – deb baqirdi u menga. Men unga musht o'qtalib do'q qilardim. Har holda mening mashinam yuksiz edi. Uni quvib o'tdim, orqamga qayrilib qarasam, u endi shoshmay, tinchgina kelardi. Ha, iblis, menga desa battar bo'l.

Asalni hech qayerda uchratolmadim. Ovluga kelib, mashinani ularning hovlisi oldida to'xtatdim. Xuddi piyoda chonib kelgandek nafasim bo'g'zimga tiqila boshladi. Hovlida ham, ko'chada ham hech kim ko'rmasdi. Faqat egarlangan otgina qoziqqa bog'loqlik turardi, xolos. Nima qilsam ekan? Kutishga ahd qildim. Mashinani ko'rib ko'chaga chiqar, deb o'yladim o'zimcha. Go'yo bir narsani tuzatayotgandek motorni ochib, u yoq bu yog'ini qaray boshladim, ammo o'zim eshikdan ko'zimni uzmasdim. Unchalik uzoq kutmadim: eshik ochilib, ichkaridan Asalning onasi va to'ladan kelgan, qora soqolli, ikki qavat to'n kiygan chol chiqdi. Qo'lida ajoyib qamchi. Aftidan, u hozirgina choy ichgan bo'lsa kerak, terlab-pishib, bo'rsib ketgandi. Ular ot bog'langan qoziqqa yaqinlashdilar. Asalning onasi izzat-u ikrom bilan uzangini ushlab turib, cholning egarga chiqib olishiga yordamlashdi. Bilsam u sovchini kuzatayotgan ekan.

– Biz sizdan xursandmiz, quda! – dedi u. – Ammo bizdan ham ko'nglingiz to'q bo'lsin. O'z qizimiz uchun hech narsani ayamaymiz. Xudoga shukr, qo'llimiz quruq emas.

– E-ye, boyvuchcha, xafa bo'lmaymiz, – dedi u egarga tuzukroq o'rnasha turib. – Ollo taolo yoshlarga umr bersin. Yaxshilik qilsak begonaga emas, o'z farzandlarimizga qilamiz. Xudoga shukr, birinchi marta qu-dalashayotganimiz yo'q. Xo'p, omon bo'l, boyvuchcha. Shunday qilib, juma kuniga kelishdik-a!

– Ha, juma kuni kutamiz. Juma – ulug' kun. Oq yo'l sizga. Qudamga salom ayting!

«Nega ular juma kuni haqida gapirib qolishdi?» – deb o'yladim men. «Bugun qanaqa kun? Chorshanba... Nahotki juma kuni olib ketishsa? Eh, qachongacha eski urf-odatlar biz yoshlarning hayotimizni poymol etadi?»

Chol otini tog' tomon yo'rttirib ketdi. Asalning onasi otliq uzoqlashib ketguncha kutib turdi, so'ngra menga tomon o'girilib, xo'mrayib qaradi.

– Nega bu yerda pashshaxo'rda bo'lib qolding, ho takasaltang? – dedi u. – Bu yer senga karvonsaroy emas! Tuyog'ingni shiqillatib qol! Qani jo'na, eshit-yapsanmi? Senga aftyapman.

Demak, allaqachon sezib qolibdi.

– Mashinam buzilib qoldi! – dedim o'jarlik bilan po'ng'illab va belimgacha kapotning ostiga sho'ng'ib ketdim. Yo'q, uni ko'rmagunimcha hech qayoqqa ketmayman, derdim o'zimcha.

Kampir javrab-javrab kirib ketdi.

Men kapotning ostidan chiqdim-da, mashina zinasiga o'tirib olib, cheka boshladim. Qayoqdandir kichkinagina qizcha paydo bo'lib qoldi. U bir oyoqlab hakkalab mashina atrofida gir aylana boshladi. Qizcha sal Asalga o'xshardi. Uning singlisi emasmikin?

– Asal ketib qoldi, – dedi u, o'zi esa hamon sakrab-sakrab o'ynardi.

– Qayoqqa? – deb ushlab oldim uni. – Qayoqqa ketdi?

– Men qayoqdan bilay! Qo'yvor! – deb qo'limdan yulqinib chiqdi-da, qochib ketayotib tilini ko'rsatib qo'ydi.

Kapotni taq etib yonib, rulga o'tirdim. Qayoqqa boray, uni qayerdan izlay? Vaqt o'tib ketyapti, qaytishim kerak. Men orqaga qaytdim, dashtga yetib kelib, ariqdan o'tish joyida mashinani to'xtatdim. Nima qilish kerakligiga sira aqlim yetmasdi. Kabinadan tushdim-da, yerga ag'anab yotdim. Yuragim siqila boshladi. Asalni ham topa olmadim, safarni ham barbod qildim. Orqaga qaytishning foydasi yo'q. Bo'lar ish bo'ldi. Nima bo'lsa bo'lar. O'yga botdim, ko'zimga hech narsa ko'rinsas, qulog'imga hech narsa eshitilmasdi. Shu ko'yda qancha vaqt yotdim, bilmayman. Harqalay, anchagina yotgan bo'lsam kerak. Keyin, nima uchunligini hali ham bilmayman: bir mahal boshimni ko'tardim.

Mashinaning narigi tomonida tuflicha kiygan oyoqlar to'xtadi. O'shal! Darrov tanidim. Shunday quvonib ketdimki, o'rnimdan turolmay, cho'kkalagancha o'tirib qoldim. Bu safar ham biz o'sha joyda – birinchi marta uchrashgan yerda ko'rishdik.

– Yo'lingdan qolma, kampir! – dedim mashina ostidan «tuflichalardan» ko'z uzmay.

– Hech ham kampir emasman-da! – deb hazilga hazil bilan javob qaytardi Asal.

– Kimsan bo'lmasa?

– Qiz bolaman.

– Qiz bolaman? Chiroylimisan?

– Qarab ko'ring-chi!

Ikkalamiz ham baravariga kulib yubordik. Men sakrab turib, unga tomon otildim. U ham menga qarab yugurdi. Yuzma-yuz to'xtadik. Baxtiyor bolalardek quvnab kulardik.

– Go'zallarning go'zali! – dedim men. Qo'ltig'ida ikkita kitob, egnida kalta yengli ko'ylak, yuzlari gul-

gul yonib, shabadada tebranib turgan nozikkina sarv daraxtiga o'xshardi u.

- Mening bu yerdaligimni qayoqdan bilding?
- Kutubxonadan kelayotgan edim, qarasam, yo'lda sizning mashinangizning izlari!

- Rostdanmi?

Men uchun bu «sevaman» so'zidan ham azizroq, qimmatliroq edi. U ham mening haqimda o'ylar ekan, hatto mashinamning izini ham tanirkan, demak, meni sevar ekan-da. Orqadagi chap gildirakning pokrish-kasi ikki xil edi, qiz ana shundan xabardor ekan.

- Men izga ko'zim tushishi bilanoq bu yoqqa yugurdim, ko'nglimda siz xuddi shu yerda kutib turgandek bo'laverdingiz!

Men uning qo'lidan ushladim:

- Bu yoqqa chiq, Asal, biroz aylanamiz.

U jon deb rozi bo'ldi. Endi u ham, men ham go'yo butunlay boshqa odam edik. Barcha tashvish-u g'am-g'uussalar unutilib, ulardan asar ham qolmagan edi. Ko'zimizga samo-yu yer va ikkimizdan boshqa hech narsa ko'rinxasdi, biz baxtiyor edik. Kabina eshigini ochib, uni o'tqazdim, o'zim esa rulni tutdim.

Yo'lga tushdik. Yo'l bo'ylab boraverdik, qayoqqa va nega – o'zimiz ham bilmasdik. Ammo biz uchun buning ahamiyati yo'q edi. Yonma-yon o'tirsak, bir-birimizga kulib qarasak, qo'lga qo'l tegib tursa, buning o'zgacha gashti bor-da. Asal mening soldatcha shapkamni to'g'rilab qo'ydi. Men uni ikki yildan beri kiyib yurgan edim.

- Shunday kiysangiz yarasharkan! – dedi u va erkalanib yelkamga suykala boshladi.

Mashina dashtda qushdek uchib borardi. Butun borliq harakatga kelgandek edi. Tog'lar, daralar, dov-daraxtlar – hamma-hammasi bizni qarshi olishga oshiqardi. Qarshimizdan shamol urilar – biz olg'a qarab yelib borardik, quyosh bizga tabassum bilan

boqardi, chunki biz quvnab-kulib borardik. Havo yovshan va gullolalarning xushbo'y hidini taratardi, chunki biz to'yib-to'yib nafas olayotgan edik.

Yakka-yu yolg'iz qabr ustidagi ko'hna gumbaz xarobalarida o'tirgan cho'l kalxati ko'tarilib, qanotlarini silkib-silkib mashina bilan birga-bir yo'l bo'ylab yer bag'irlab uchib borardi.

Yo'lda ketayotgan ikki chavandoz cho'chib ketib, o'zlarini chetga oldi. Keyin dag'dag'a bilan qiyqirib, orqamizdan ot qo'ydi.

– Hey, to'xta! To'xta, – deb qiyqirib, yer o'nib chonib kelayotgan otlarini qamchilashardi. Ularning kim ekanligini bilmasdim. Balki Asalning ovulidandir. Ammo biz ularni tezda chang-to'zonda qoldirib ketdik.

Oldinda qandaydir arava yo'l chetiga burildi. Aravada o'tirgan yigit bilan qiz o'rinalidan qo'zg'alib cho'kkalashdi-da, qo'llarini bir-birovlarining yelkasi-ga tashlagancha ikkinchi qo'llarini silkib qolishdi.

– Rahmat! – deya kabinadan qichqirdim ular-ga. Dasht tamom bo'lib, katta yo'nga chiqib oldik. G'ildiraklar ostida asfalt guvillay boshladi.

Mashina bizni ko'l tomon eltardi. Men uni shartta yo'ldan chetga burdim-da, to'ppa-to'g'ri qo'riq yerga soldim, o't-o'lanylarni bosib-yanchib qirg'oqqa tomon haydadim. Tepalikda, naq suv tepasida to'xtadik.

U, Issiqko'l, qirg'iz diyorining so'nmas qo'shig'i! Bu dengiz oshiq-ma'shuqlar haqidagi afsona va qo'shiqlar diyori ekanligiga ishonmay bo'ladimi, axir. U shu damda mavjlanib, qatra g'uborsiz, rang-ba-rang tovlanib turardi.

Ko'kimtir to'lqinlar o'rkach-o'rkach bo'lib, go'yo qo'l ushlashib olishgandek, sarg'imtir qirg'oqlar sari yelib-yugurardi. Tog'lar ortida quyosh botmoqda, suvning etaklari ko'zni qamashtirib, pushti rang kasb etgan edi. Uzoqlarda osmon gumbaziga bosh urgan qorli tog'larning och binafsha rang tizmalari

ko'zga chalinadi. Bu tizmalar ustida kul rang bulutlar suzib yurardi.

– Uni qara, Asal! Oqqushlar! – deb qichqirib yubordim men. Oqqushlar Issiqko'lga faqat kuzda uchib kelishib, shu yerda qishlashadi. Bahorda esa bu yerga juda kamdan-kam kelishadi. Odamlarning aytishicha, bular shimolga ko'chib ketayotgan janub oqqushlari emish. Ularning kelishi yaxshilikdan, baxtdan darak berar emish...

Oqqushlar galasi oqshomgi ko'l uzra uchib yuri-shardi. Qushlar goh yuqoriga ko'tarilar, goh qanotlarini yoyib pastga suzishardi. Ular suvga qo'nar, qanotlari bilan shaloplatib urib, ko'pirib turgan suv tomchilarini uzoqlarga sachratardilar-da, yana os-monga ko'tarilardi. So'ngra ular turnaqator tizilib, bir tekisda qanot qoqishib, tunamoq uchun ko'rfazning qumloq sohillari tomon uchib ketishardi.

Biz kabinada o'tirib, ko'lni jimgina tomosha qilar-dik. Go'yo hamma narsani hal qilib qo'ygandek, shunday dedim:

– Hu-uv anavi qirg'oqdagi tunuka tomlarni ko'ryapsanmi, u bizning avtobazamiz bo'ladi. Mana bu bo'lsa, – deb kabinani ko'rsatdim, – bizning uymiz! – dedim-da, birdan kulib yubordim. Uni qayoqqa ham olib borardim.

Asal ko'zlarimga tikilib, o'zini ko'ksimga tashla-di. U mening pinjimga tiqilarkan, ham yig'lar, ham kulardi.

– Jonginam, azizim! Menga hovli-joyning keragi yo'q! Faqat ota-onam, keyinchalik bo'lsa ham qachon bo'imasin, meni tushunib, gunohimni kechirisha bo'lgani. Ular mendan umrbod xafa bo'lishardi, buni yaxshi bilaman... Ammo ayb mendami axir...

Tezda qosh qoraya boshladidi. Ko'kni bulutlar qoplاب oldi, ko'lga sokinlik cho'kib, endi qorayib ko'rinardi. Tog' tizmalariga go'yo elektr payvandchi

o'tirib olgandek, birdan o't chaqnab, ko'zlarni qamashtirar va yana o'char edi. Momaqaldiroq bosib kelayotgan edi. Oqqushlarning yo'llarini o'zgartirganlari ham bejiz emas. Tog'da yog'ingarchilikka duch kelishlarini oldindan sezganlar.

Mana, momaqaldiroq gumburladi. Yomg'ir sharros quya boshladi. Ko'l chayqalib to'lqinlanib qirg'oqlarga urila ketdi. Bu birinchi bahor momaqaldirog'i edi.

Bu – bizning birga o'tkazgan birinchi tunimiz edi. Kabina ustidan, oynalardan yomg'ir paqirlab suv quygandek oqib, sizib tushardi. Olis-olislarga cho'zilgan och yashil yashinlar qop-qora ko'lga suzib tushardi. Biz esa bir-birimizning pinjimizga kirib, shivirlashib gaplashardik. Asalning cho'chiganidanmi yo sovuq qotganidanmi, sal titrayotganini sezib turardim. Uni kamzulim bilan o'rab, qattiqroq quchoqladim. Shunda o'zimga o'zim juda kuchli, ulkan odamdek bo'lib ko'rindim. O'zimda shunchalik mehr va muhabbat borligini hech qachon sezmag'an edim, birovga mehribonlik va g'amxo'rlik qilish shunchalik zavqli ekanini ham bilmasdum. Uning qulog'iga: «Hech kimga, hech qachon seni xafa qildirib qo'ymayman, qizil durrachali sarvqomatim!» – deb pichirladim.

Ana-mana deguncha yomg'ir ham ancha shashtidan tushib qoldi. Ammo chayqalib yotgan ko'l hamon beshik-beshik bo'lib to'lqinlanar, yomg'ir shivalab yog'ardi.

Men kabina tokchasidagi safarda olib yuriladigan radiopriyomnikni oldim. O'sha kezlardagi mening topgan-tutganim shu edi. Musiqa tinglashni juda yaxshi ko'raman, shuning uchun ham priyomnikni doim o'zim bilan birga olib yurardim. Uning u yoq-bu yog'ini sozlab, kerakli to'lqinni tutdim. Hozirgidek esimda: o'sha kecha teatrda «Cho'lpon»

baletini olib eshittirishmoqda edi. Baletda kuylana-yotgan yoqimli va kishini o'ziga tortuvchi qudratli musiqa sadolari xuddi o'sha ashulada kuylangan chin sevgi kabi toshlar osha, cho'qqilar osha kabinaga oqib kelayotgan edi. Butun zal hayajonga kel-gan, gulduros qarsaklar bilan artistlarni olqishlar, tomoshabinlar ularning nomlarini aytib qichqirishar edi, ehtimol, raqqos va raqqosalarning oyoqlari ostiga gullar otishayotgandir. Ammo, menimcha, teatrdagi o'tirganlardan birontasi ham biz kabi – to'lqinlar mavjlanib, shiddat bilan qirg'oqqa urilayotgan ko'l sohilida, sharros yomg'ir östida kabinada o'tirgan oshiq-ma'shuqlar singari zavq-shavqqa to'lib haya-jonlanayotgan bo'lmasa kerak. Bu bizning baletimiz, birinchi kechamizdagi ilk baletimiz edi. O'z baxtini izlab ketgan qiz – Cho'lponning taqdiri bizning qalbi-mizga naqadar yaqin edi. Mening Cho'lponim – tong yulduzim men bilan birga, yonginamda o'tiribdi. Yarim kechaga borib u yelkamga boshini qo'ygancha uxbol qoladi, men esa allamahalgacha o'zimni bosa olmay, shirin xayollar og'ushiga cho'mdim. Uning yuz-ko'zini, betlarini asta-sekin silar, tinib-tinchimas Issiqko'lning qanday to'lg'anayotganini, xo'rsinib chuqur nafas olayotganini tinglar, kuzatar edim.

Ertalab biz avtobazaga yetib keldik. Yaxshigina dakki yedim. Ammo bunday quvonchli voqealarni munosabati bilan kechirdilar. Keyinchalik mening yuk ortuvchi kran ostidan qanday qochib qolganimni eslashib, anchagacha kulib yurdik.

Men safarga – Xitoya jo'nashim kerak edi. Asalni ham o'zim bilan birga olvoldim. Uni yo'lda do'stim Alibek Jonturinning uyida qoldirmoqchi bo'ldim. U oilasi bilan birga dovondagi bazada, Norinzing shunday yonginasida yashardi. Bu joy chegaradan uncha uzoq emas edi. Bu yo'ldan yurganda doim

unikiga tushib o'tardim. Alibekning xotini yaxshi ayol edi, uni juda hurmat qilardim.

Biz yo'lga chiqdik. Birinchi navbatda yo'l yoqasidagi magazindan Asalga uncha-muncha kiyim-kechak oldik. Uning egnida birgina ko'y lagi-yu, qo'lida kutubxonadan olgan ikki dona kitobidan bo'lak hech narsasi yo'q edi. Bulardan tashqari, kattakon, guldor sholro'mol ham sotib oldik. Bu ishimiz juda yaxshi bo'lgan ekan. Yo'lda birinchi uchragan kishimiz keksa haydovchi, oqsoqolimiz O'rmat aka bo'ldi. U olisdanoq menga to'xtatdim. Kabinadan tushib salomlashdik:

- Assalomu alaykum, O'rmat aka!
- Vaalaykum assalom, Ilyos! Ilyos! Qo'lingga baxt qushi qo'nibdi, Xudoyim baxt bersin, uvali-juvali bo'linglar! – deb fotiha bergen bo'ldi menga.
- Rahmat! Qayoqdan bila qoldingiz, O'rmat aka?
- deb taajjublandim men.
- E, o'g'lim, xushxabarning sadag'asi ketay. Butun trassa bo'ylab og'izma-og'iz ko'chib yuribdi.
- Yo'g'-e! – deb battarроq taajjublandim.

Yo'l ustida turib gaplashardik, O'rmat aka hatto mashinaga yaqin ham kelmadi. Asalga ko'z qirini ham tashlamadi. Yaxshiyamki, buni Asalning o'zi fahmlab qolib, boshiga ro'molini tashlab, yuzini berkitdi. Shunda O'rmat aka mamnunlik bilan jilmaydi-da:

– Mana bu ishing joyida! – dedi u va kabinaga yaqinlashib kelib, Asalga boqdi. – Rahmat, qizim, hurmat qilganing uchun rahmat. Bundan buyon sen bizning kelinimizsan, avtobazadagi hamma oqsoqollar kelinisan, qizim. Hali ular yo'lda uchrab qolishadi. Mana, Ilyos, ko'rмана. Kelinni quruqdan quruqqa ko'rsatmaydilar, – deb u pul uzatdi. Men qo'lini qaytara olmadim, yo'qsa, xafa qilib qo'yardim.

Biz xayrslashdik. Asal hamon boshidan ro'molini olmasdi. Odatdagicha tagli-taxtli qirg'iz oilasiga tushgan

kelindek, u odamlar bilan uchrashganda uyatchanlik bilan yuzini berkitardi. O'zimiz yolg'iz qolganimizda esa o'zaro kulishardik, boshiga ro'mol tashlab olgan Asal menga yanada go'zalroq bo'lib ko'rinaridi.

— Jonginam, qani, boshingni ko'tar, meni bir o'nib qo'y-chi, — dedim unga.

— Mumkin emas, oqsoqollar ko'rib qolishadi, — dedi-yu, shu zahotiyoy qulgi aralash, go'yo birov ko'rib qolmasin deyotgandek, ehtiyotlik bilan chakkam-dan o'nib oldi.

Yo'lda borarkanmiz, yana ham qiziqroq hodisalarga duch keldik. Avtobazanining trassadagi hamma haydovchilari uchrashganda bizni qayta-qayta to'xtatishib tabriklashardi, baxt-saodat tilashardi. Ularning ko'pchiligi yo'l-yo'lakay gul terib, guldasta yasabgina qolmay, hatto sovg'alar tayyorlab qo'yishga ham ulgurishibdi. Bilmadim, kimning aqliga keldi ekan bu. Bu fikrni hoynahoy rus yigitlarimiz o'ylab topishgan bo'lsa kerak. Ular qishloqda to'y bo'lib qolsa, mashinani boplab bezatadilar. Hozir ham ular mashinamizga qizil, ko'k, yashil bog'ichlar taqib, shoyi durralar, guldastalar ila boshladilar. Mashinamiz turli-tuman ranglarga g'arq bo'lib, cho'g'dek tovlanardiki, ehtimol u o'nlab kilometr naridan ko'zga tashlanib turgan bo'lsa kerak.

Asal ikkimiz g'oyatda baxtiyor edik, men do'stlarimning bu iltifotidan qalbdan faxrlanardim. Do'st kulfatda sinaladi, deydilar. Menimcha, ular baxtli damlarda ham sinaladilar.

Yo'lda eng yaqin do'stim Alibek Jonturin ham uchradi. U mendan ikki yosh katta. U — kallasi katta, norg'ul yigit edi, o'zi ancha yosh bo'lsa ham sermulohaza, og'ir, vazmin yigit bo'lib, ajoyib haydovchi edi. Bazada uni juda hurmat qilishardi. Alibekni profkom qilib ham saylashgandi. Qani, u nima derkin, deb o'ylab turibman.

Alibek mashinamizga jimgina qaradi-da, bosh tebratib qo'ydi, so'ngra Asalga yaqin kelib, qo'l berib salomlashdi va uni tabrikldi.

– Qani, yo'llanmangni bu yoqqa ber-chi! – dedi u. Men bunday kutib olar deb o'ylamagan edim. Hech narsaga tushunmay, qog'ozni jimgina uzatdim. U ruchkasini oldi-da, yo'llanmaga ko'ndalan-giga to'ldirib, burchakma-burchak qilib yirik harflar bilan yoza boshladi: «To'y safari, № 167!»

– Nima qilyapsan? – deb dovdirab qoldim. – Axir bu hujjat-ku!

– Tarixiy bo'lib saqlanib qoladi! – deb kulimsiradi u. – Nima, buxgalteriyada o'tirganlarni odam emas deb o'layapsanmi? Endi qo'lingni ber! – deb meni mahkam quchoqlab o'pdi. Biz xaxolab kulib yubordik. Keyin mashinalarimizga qarab yura boshladik, ammo Alibek meni to'xtatib:

– Qayerda turadigan bo'ldinglar? – deb so'rab qoldi. Men yelkamni qisib qo'ydim.

– Mana bizning uyimiz! – deb mashinani ko'rsatdim.

– Kabinadami? Ehtimol, bolalarингизни ham o'sha yerda boqarsizlar?.. Menga qara, dovondagi uyimizga joylashaveringlar, baza boshliqlari bilan o'zim gaplashaman. Biz o'z uyimizga ko'chib o'tarmiz.

– Uying hali bitmagan-ku!

Alibek Ribacheda, avtobaza yaqinida uy qurmoqda edi. Bo'sh vaqtlarimda men ham unga yordamlashib turardim.

– Hechqisi yo'q! Ozgina ishi qolgan, ammo undan ortiqrog'ini umid qilmay qo'ya qol, o'zing bilasan, uy-joy masalasi ancha chatoq.

– Xo'p, rahmat! Bizga shuning o'zi ham kifoya.

– Xullas, biznikiga tushinglar, qaytishda esa meni kutib tura tur. Men yetib kelaman, keyin xotinlarimiz bilan hamma narsani hal etib olamiz! – deb Asal tomonga qarab ko'z qisib qo'ydi.

- Ha, endi tuzliq to'rva bo'yinga ilindi.
- To'y safaringiz xayrli bo'lsin! – deb qichqirib qoldi Alibek orqamizdan. Obbo xumpar-ye! Safarimiz to'y sayohati ekaniga o'zimizning ham fahmimiz yetmabdi-ya.

Hamma ishimiz o'ngidan kelayotganiga biz xursand edik. Faqt bir uchrashuvgina kayfiyatimni biroz buzzdi.

Yo'lda, muyilishlardan birida to'satdan oldimizda Jontoyning mashinasi chiqib qoldi. U qayoqdandir kelayotgan edi. U yolg'iz emas edi. Kabinada Xadicha o'tirardi. U menga qo'l silkib qo'ydi. Men mashinaga shartta tormoz berdim. Mashinalar borti bortiga ya-qinlab to'xtadi. Jontoy derazadan kallasini chiqarib:

- Namuncha yasan-tusan qilib olibsan, to'ymi deyman? – dedi.

- To'y bo'lganda qandoql! – dedim men.

- Yo'g'-e? – deb ishonqiramay so'radi u cho'zib va Xadichaga qarab qo'ydi. – Biz bo'lsak seni izlab yuribmiz! – degan so'z og'zidan chiqib ketdi uning.

Xadicha qanday o'tirgan bo'lsa, shundayicha hang-u mang bo'lib, rangi o'chib, qotib qolgandi.

- Salom, Xadicha! – dedim unga xushmuomalalik bilan. U jimgina bosh irg'ab qo'ydi.

- Hali yonimdag'i qaylig'im degin? – nima gapligini endigina anglagan edi Jontoy.

- Yo'q, xotnim, – deb e'tiroz bildirdim-da, Asalning yelkalaridan quchoqladim.

- E, hali shunaqa de? – deb Jontoy ko'zlarini battarroq olaytirdi. U xursand bo'lishini ham, xafa bo'lishini ham bilmasdi. – E-ye, tabriklayman, chin qalbimdan tabriklayman...

- Rahmat!

Jontoy razilona tirjayib:

- Juda uchar ekansan! Qalinsiz qo'nga tushirgandirsan-a? – dedi.

- Ahmoq! - deb so'kdim uni mashinani haydayotib. Ablahni qarang-a! Shunaqa odamlar ham bo'ladi-da dunyoda. Yana ham boplab so'kmoqchi bo'ldim. Kabinadan bosh chiqarib qaradim: oldinda yo'l so'l tomonga keskin buriladi-da, tepalikka ko'tariladi. Shunday qarasam, Jontoy mashina yonida turib, chakkasini qashlab, Xadichaga allanimalar deb qichqirib, musht o'qtalib do'q urardi. Xadicha bo'lsa yo'ldan chetga, dala tomonga yugurrib ketyapti. Chonib-chonib borib, gup etib yiqildi-da, boshini qo'llari bilan bekitdi. Oralarida nima gap bo'lganini bilmasam ham ko'nglim g'ash bo'ldi, go'yo bunga men ham aybdordek, unga rahmim kel-di, ichim achidi. Asalga hech narsa demadim. Uning kayfiyatini buzgim kelmadi.

Bir haftadan keyin Alibek xotini bilan yashagan dovondagi uyga joylashib oldik.

Uychamiz uncha katta emas edi: ikki xona va bir dahliz. Bunday uylardan u yerda bir nechta edi. Ularda haydovchilar oilalari bilan hamda yonilg'i punktining ishchilari yashardi. Uyimiz tor bo'lishiga qaramay, yaxshi joy edi, yo'lning shunday yoqasida, Norin daryosi ham juda yaqin edi. Harqalay, markazda. Kinoga, magazinga borib kelish juda o'ng'ay, kasalxona ham bor... Yana shu jihatdan ham qulay ediki, dovondagi bu baza yo'lning qoq o'rtasida edi. Biz asosan Ribache bilan Sinszyan o'rtasida qatnardik. U tomonga o'tganda ham, bu tomonga o'tganda ham yo'l-yo'lakay uyga tushib dam olish, hatto tunab qolish ham mumkin edi. Men deyarli har kuni uyga kirib o'tardim. Mabodo yo'lda tutilib qolsam-da, baribir yarim tunda bo'lsa ham uyga yetib kelardim. Asal doim meni kutib o'tirardi, xavotirlanardi, to kelgunimcha mijja qoqmasdi.

Biz endi uy-ro'zg'or uchun zarur uncha-muncha buyumlarni sotib ola boshladik. Xullas, turmushimiz

asta-sekin yaxshilanib bormoqda edi. Asal ham ish-lashi kerak, degan qarorga keldik. Uning o'zi qattiq turib oldi: ovulda tug'ilib-o'sgan emasmi, ish jon-dili edi. Ammo kutilmaganda yangi baxtga erishdik: Asalning ona bo'l shiga oz qolgan edi. Negadir, biz buni hade-ganda payqamabmiz. Asalning ko'zi yorigan kuni men Xitoydan qaytib kelayotgan edim. Juda shoshilib, hayajonlanib ketyapman. Asal Norindagi tug'ruqxonada yotgan edi. Kelsam, o'g'il tug'ibdi.

Uning oldiga kirmoqchi bo'ldim, biroq har qancha tushuntirsam ham qo'yishmadi. Lekin baribir xur-sand edim. Mashinaga o'tirdim-da, tog'ma-tog' g'izil-latib haydab ketdim. O'zimni tuta olmay, mashinani tobora qattiqroq quvardim. Bu qishda bo'lgan edi. Tevarak-atrofda faqat qorli qoyalar. Atrofimdan oq, qora rang g'irillab o'taverganidan ko'zlarim jimirlashib ketardi. Do'lan dovonining tepasiga yeldek uchib chiqdim. Osmono'par ulkan balandlik, bulutlar yer bag'irlab suzib yurgandek edi, pastdag'i azamat tog'lar ham uning qarshisida pak-pakana bo'lib ko'rinaridi. Men kabinadan sakrab tushib, dara yoqasiga chonib bordim va sof havodan o'pkamni to'ldirib nafas oldimda, butun olam eshitgudek qilib qichqirdim:

— E-y, tog'lar! Men o'g'il ko'rdim!

Nazarimda, tog'lar ham larzaga kelgandek bo'ldi. Ular mening so'zlarimni takrorladi va daradan-daraga taralib, uzoq vaqtgacha aks sado berib yangrab turdi.

O'g'ilchamizni Samad deb atadik. Unga men shunday deb nom qo'ydim. Samad bizning erma-gimiz bo'lib qoldi: Samad, bizning Samad jilmaydi, uning tishchalari chiqib qoldi. Xullas, hamma yosh ota-onalardek biz ham uni sevib ardoqlar edik. Biz bir-birimizni sevardik, ahil va inoq yashardik, so'ngra esa... So'ngra baxtsizlik yuz berdi...

Bu baxtsizlikka qanday yo'liqib qolganimni hozir qaytadan bayon etish ancha mushkul. Hammasi aralash-quralash bo'lib, chigallashib ketdi... O'zim-ku, bilaman-a, ammo bundan nima foyda...

Bu odam bilan hech qachon uchrashmagan edik. Uning bu ishlarga hech qanday aloqasi ham yo'q edi. Men buni shuning uchun gapiryapman-ki, haqiqatan ham na u, na men bir-birimizning bu yorug' dunyoda shunday yashayotganimizni bilmas edik. Bir kuni yo'lda tasodifan uchrashhib qoldik va bu bizning so'nggi uchrashuvimiz emasligiga o'zimiz ham shubha qilmay ajralishgan edik. Bor gap shu...

Kech kuzda safarga ketmoqda edim. Havo kishini zeriktiradigan tund edi. Osmondan qormi, yomg'irmi, qandaydir mayda zarrachalar yog'ardi. Tuman xuddi sumalak singari tog' yon bag'irlari bo'ylab cho'zilib ketgan edi. Butun yo'l bo'yi kabina oynasini artib turadigan cho'tkani muttasil ishlatib qo'yishga to'g'ri kel-di. Men tog' oralab xiyla ichkariga kirib borib, Do'lan dovoniga yaqinlashib qolgan edim.

Eh, Do'lan, Do'lan, Tyan-Shanning bahaybat beli! Umrimning qanchadan-qancha sahifalari u bilan bog'liq! Qatnov yo'limizning eng og'ir, eng xavfli qismi ham shu yer edi. Yo'l ilonizi bo'lib, goh u yoqqa buriladi, goh bu yoqqa. Charxpalakda uchgandek tobora qiyalab yuqoriga ko'tarilib, bulutlar ni g'ildirak bilan yanchib o'tayotgandek bo'lasan. Goh seni o'tirgichga siqib, orqaga jipslab qo'yadi, goh rulga yopishganingcha mashina seni pastga olib qochadi. Buning ustiga quturgan tuyadek havosini aytmaysanmi. Yozmi-qishmi, Do'landa, bari-bir. Bir zumda do'lmi, yomg'irmi savalab ketadi yoki bo'lmasa, shunaqayam qor bo'roni turib beradiki, bir qadam naridagi narsani ham ko'ra olmaysan.

Mana shunday bizning oq sochli Do'lan!.. Ammo biz tyan-shanliklar unga ko'nikib qolganmiz, ko'pincha, tunda qatnardik... Men bularni hozir hikoya qilib beryapman, u yerdan qatnab yurgan paytlarda esa bu haqda o'ylashga ham vaqting bo'lmazı.

Do'lan yaqinidagi daralardan birida yuk mashinasiga quvib yetib oldim. Bu «GAZ-51» mashinasi ekanligi aniq yodimda. To'g'rirog'i, quvib yetganim yo'q, uning o'zi to'xtab turgan ekan. Ikki kishi motorni tekshirish bilan ovora edi. Ulardan biri yo'l o'rtasiga bamaylixotir chiqdi-da, qo'lini ko'tardi. Yo'lni to'sib qo'ymaslik uchun ulardan o'tibroq to'xtadim. Oldimga jiqqa ho'l brezent plash kiygan, boshiga kapyushon yopingan kishi keldi. Yoshi qirqlarga borib qolgan, qo'ng'ir mo'ylovi soldatchasi-ga cho'tkasimon qilib qirqilgan, qovog'i soliqroq, ko'zлari esa muloyim tikilardi.

- Yo'l uchastkasiga eltib qo'y, yigit, - dedi u men-ga. - Motor ishlamay qoldi, traktor keltiramiz.
- Qaysi uchastkaga? - deb so'radim. Chunki yo'l tuzatish uchastkalari ko'p edi, bunday uchastkalar deyarli har o'n besh-yigirma kilometrda bo'lardi.
- Do'landagi meteostansiyaga yetmasdan biroz beriroqdagisiga.

Meteostansiya dovonning eng baland yerida, yo'l tuzatish uchastkasi esa yetti kilometrlar chamasi pastda, yo'ldan sal chetroqda, burilishda joylashgan edi.

- O'tiring, - dedim, - olib borib qo'yaman. Bal-ki o'zimiz biror ilojini toparmiz? - deb kabinadan chiqdim. Ular traktor deb to kech kirduncha sarson bo'lmasin uchun bir amallab yordam bergim kel-di. Yo'l tuzatuvchilarga azbaroyi hurmatim tufayli shunday qilgim kelardi, axir ular, albatta, biz uchun zahmat chekyaptilar-da.

- Nima ham qila olarding, o't olmayotibdi, - dedi haydovchi ochiq turgan kapotni bekitarkan, ma'yus-

lik bilan. Bechora sovuq yeb, junjikib, ko'karib ketibdi. Bu yerlik haydovchilardan emasligi ko'riniib turibdi, poytaxtdan kelayotgan bo'lsa kerak. U dovdirab atrofga alanglardi. Ular uchastkaga Frunzedan nimadir olib kelishayotgan edi. Nima qilish kerak? Miyamga bir qiziq fikr kelib qoldi. Avval dovonga bir qarab qo'ydim. U yoqda havoning avzoyi buzuq, bulutlar pastlab suzardi. Nihoyat, bir qarorga keldim. O'ylagan fikrim juda zo'r bo'lmasa ham men uchun o'sha paytda g'oyat katta voqeа bo'lib ko'ringan edi.

– Tormozing joyidami? – deb so'radim haydovchidan.

– Ana xolos... Tormozsiz yurib bo'ladimi! Motor ishlamayapti, deyapmiz-ku senga!..

– Trossing bormi?

– Xo'sh, bo'lsa-chi!

– Bu yoqqa keltir, mashinamga ula.

Ikkalasi ham joylaridan jilmay, ishonqiramagan-dek menga tikilib turishardi.

– Nima balo, aqlingdan ozdingmi? – dedi haydovchi sekkingina.

Xarakterim shunaqa, bilmadim, bu yaxshimi, yomonmi. Biroq bundan qat'i nazar, miyamga bir fikr keldimi, bo'ldi, kuyib-yonib ketsam ham baribir uni amalga oshirmaguncha qo'ymayman.

Men haydovchiga yalinib-yolvora boshladim.

– Jon do'stim, kel, ulay qolaylik? Xudo ursin, yetkazib qo'yaman.

– Qo'ysang-chi! – deb qo'l siltadi u. – Nima, bu yerda shatakka olish mumkin emasligini bilmaysanmi. Buni o'ylamay qo'ya qol. Bor, yo'qol, yo'lingdan qolma!..

U go'yo eng muhim va eng katta iltimosimni rad qilgandek, shunaqayam alam qildiki menga.

– Eh, eshak, qo'rqoq! – deb mashinamga qarab yurdim. – Qani, yuring, ketdik! – deb chaqirdim

mo'ylovli kishini. Keyinroq bilsam, u yo'l tuzatadi-gan ustalardan ekan.

— Tura tur! — deb to'xtatdi meni yo'l tuzatuvchi va yuzimga bir tikildi-da, haydovchiga qarab:

— Troseni keltir, — dedi. U kalovlab qolib:

— O'zingiz javob berasiz, — dedi yo'l tuzatuvchiga. — Mashina sizning ixtiyorningizda, Boytemir aka.

— Hammamiz javobgarmiz! — dedi u qisqa qilib.

Menga bu gap yoqib qoldi. Bunday kishilarga tez-da hurmating ortadi.

Biz haligi mashinani shatakka olib yo'lga tush-dik. Dastlab durustgina yurib boraverdik. So'ng'ra Do'langa yaqinlashaverGANIMIZ sari yo'l ham tobora yuqoriga — tog'ga tomon ko'tarilib, goh yon bag'irlar bo'ylab, goh tik qiyalik bo'ylab pastlab borardi. Yu-rish qiyinlashdi. Motor ingrab, qulq ostida faqat gu-villagan ovozgina eshitilardi. Yo'q, qanchalik nolish qilib ingrama, baribir bor quvvatingni ishga sola-man. Do'landa yurish qanchalik mushkul bo'lmasin, baribir mashinalarda ozmi-ko'pmi ortiqcha quvvat saqlanib qolishini ilgaridan payqab yurardim. Yo'l-ning yomonligini nazarga olib, hamma vaqt norma-dagi yukning yetmish foizini yuklashar edi. Ko'rsat-ma shunday edi. Lekin o'sha payt men bu haqda o'ylamagandim, albatta. O'ylab o'tirishning vaqtি ham emasdi-da. Kurash oldidan sportchilarda g'ala-baga zo'r ishonch kuchi paydo bo'lganidek, menda ham hozir xuddi shuningdek mo'jizakor kuch jo'sh urardi. O'ylagan fikrimni sinab ko'rish, maqsadga erishish, mashinani manzilga yetkazishda ularga yordamlashishdan bo'lak maqsadni ko'zlamasdim. Ammo buni amalga oshirish oson ish emas ekan.

Ostimdagи mashina qalt-qalt titrab, zo'riqib, so'nggi kuchlarini sarflamoqda edi. Nam havo kabina oynala-riга urilib, uni xiralashtirar, tozalov cho'tkasi zo'rg'a artib ulgurardi. Qayoqdandir bulutlar yopirilib ke-

lib, naq gildiraklar ostida o'rmalashib, yo'l uzra suza boshladi. Yo'l ham muyilishlarda tikka ko'tarilib keskin burilib ketardi. Qayoqdagi ishni boshlab qo'yganim uchun o'zimni o'zim koyiy boshladim: odamlarga shikast yetkazib qo'ymasam edi. Mashinadan ko'ra o'zim ko'proq qiynalib ketdim. Ust-boshimni: shapka, fufayka, kamzul, to'r ko'ylagimni – hammasini yechib tashladim. Birgina ko'ylakda o'tiribman-u hamma yog'imdan xuddi hammomda o'tirgandek bug' ko'tarilardi. Hazil ishmi: shatakdagi mashinaning o'zi qancha-yu, ustiga-ustak yana oz muncha yuki bormi, yaxshiyamki, Boytemir zinada turgandi. Menga ovoz bilan orqadagiga imo-ishora qilib, harakatni boshqarib borardi. Qing'ir-qiyishiq, past-baland yo'llar bo'ylab tirmashib, o'rmalab borarkanmiz, hoynahoy falokatdan o'zini saqlab qolish uchun sabr-toqati chidamay, oxiri sakrab tushib qolsa kerak, deb o'ylagan edim. Aksincha, u qimir ham etmadi. Tog' tepasiga qo'ngan burgutdek mahkam o'rnashib olib, kabinaga yopishib turardi. Unga qaradim: yuzlari go'yo toshdan yo'nilgandek osoyishta, suv tomchilari betlaridan, mo'ylovidan sirqib tushib, ko'ngli yengil tortayotgandek edi.

Biz yana bir katta qiyalikdan oshsak, marraga yetardik. Shu payt Boytemir derazaga engashib:

– Ehtiyyot bo'l, oldinda mashina kelyapti! O'ngroqqa ol, – dedi.

Men mashinani o'ngroqqa oldim. Tog' tepasidan yuk mashinasini tushib kelayotgan edi. Jontoyniki! Endi tamom, xavfsizlik injeneri rosa boplaydigan boldi: Jontoy chaqib beradi. U borgan sari yaqinlashib kelmoqda edi. Rulga yopishib olgan, xo'mraygancha pastga tomon tushib kelardi.

Biz yonma-yon kelib qoldik. Kabina derazalari ro'baro' kelganda Jontoy o'zini orqaga oldi va mal-larang tulki tumoqli boshini ta'naomuz tebratib

qo'ydi. «He, iblis! Tiling qichigan bo'lsa, og'zingga siqquncha gapi raver!» – deb o'yladim ichimda.

Tepalikka ham chiqib oldik, yo'l pastga tomon juda qiyalab ketardi, dovondagi ana shu so'nggi marrani ham qo'lga kirtsak, yo'l tuzatish uchastka hovlisiga burilamiz. Mashinani o'sha tomonga burdim. Har holda sudrab olib keldim-ku! Motorni o'chirdim, qulog'imga hech narsa kirmasdi. Qulog'im bitib qolibdi. Nazarimda, men emas, balki butun borliq chuqur uyquga cho'mgandek bo'ldi. Churq etgan ovoz yo'q, Boytemir yerga sakrab tushgandagina qulog'im eshita boshladi. Kabinadan arang sudralib chiqdim va shu zahotiyoy zinaga o'tirib qoldim. Nafasim qisilardi, madordan ketgan edim, buning ustiga dovonning havosi siyrak edi. Boytemir yugurib keldi-da, yelkamga fufaykani tashlab, boshimga shapkani bostirib kiygizdi. Narigi mashinadan rangi oqarib, dami ichiga tushib ketgan haligi haydovchi ham sekingina oqsoqlanib kelaverdi. U oldimda cho'qqayib o'tirdi-da, sigareta uzatdi. Qo'llarim qaltirab, sigaretani oldim. Hammamiz chekib olganimizdan so'ng o'zimizga keldik. Menda yana o'sha la'nati yovvoyi kuch jo'sh urib ketdi.

– Hey, qalay! – dedim men. – Ko'rdingmi! – Haydovchining yelkasiga bir tushirgandim, u o'tirib qoldi. So'ng uchovimiz ham o'rnimizdan sakrab turdik-da, bir-birimizning orqamizga, yelkamizga tushira ketdik. O'zimiz esa qahqahlab kulib, allanimalar deb quvonch bilan qichqirib, baqirishib to'polon ko'tardik... Nihoyat tinchlanib, yana cheka boshladik. Men kiyimlarimni kiyib, soatimga qaradim-u ketishim kerakligi «lop» etib esimga tushib qoldi.

– Xo'p, men borayin! – dedim.

Boytemirning qovog'i osildi:

– Yo'q, uyga kiramiz, mehmonimiz bo'lasan! – dedi.

Mening esa biron daqiqa ham vaqtim yo'q edi.

– Rahmat! – deb minnatdorchilik bildirdim. – Illo-jim yo‘q. Uyimga kirib o‘tmochiman, xotinim kutib o‘tirgandir.

– Qola qolsang nima bo‘lardi? Bir shishani qoqib tashlardik, – dedi ko‘ndirmoqchi bo‘lib yangi do‘stim haydovchi yigit.

– Qo‘y, zo‘rlama! – deb uning so‘zini bo‘ldi Boytemir.

– Xotini kutayotgan ekan. Isming nima seni?

– Ilyos.

– Mayli, boraver, Ilyos. Rahmat senga, bizni qutqarganining uchun.

Boytemir mashina zinasida turib meni to yo‘lga-cha kuzatib qo‘ydi. U indamay qo‘lini qisdi-da, mashinadan sakrab tushib qoldi.

Tog‘ tepasiga ko‘tarilayotib, kabinadan boshimni chiqarib qaradim. Boytemir hamon yo‘lda turardi. Qo‘lida shapkasini g‘ijimlab, kallasini quyi solgani-cha allanimalar haqida o‘ylardi.

Bor gap shu, ana shunday qilib biz ajrashdik.

Ammo o‘sha kecha tuni bilan qiynalib chiqdim. Shamollab qolgan ekanman. Uyga kelganimda hech narsani sezmagan edim. Tezda ovqatlanib oldim. Asalga voqeani batafsil gapirib o‘tirmadim. Lekin yo‘lda odamlarga yordamlashganim uchun kechikib qolganimni aytdim, xolos. Men o‘z hayotimni qaylig‘imdan yashirmsadim. Ammo, menimcha, bunday narsalarning hammasini aytaverish ham kerak emas edi. U busiz ham mendan doim xavotir olib o‘tirardi. Bundan tashqari, men bunday no-jo‘ya ishlarni takrorlash niyatida ham emas edim. Hayotimda bunday voqeа bir bo‘ldi, dovon bilan kuch sinashib ko‘rdim, bas. Ehtimol, yo‘ldan og‘rib qaytmaganimda, buni ertasigayoq unutgan bo‘lar edim. Uyga bir amallab yetib keldim-u holdan to-yib yiqildim. Nima bo‘ldi, qanday bo‘ldi, bilmayman. Hadeb alahlardim, go‘yo mashinani shatakka olib,

Do'landa kelayotgandek bo'laverdim. Kuchli qor bo'roni yuzimga urilar, nafas ololmay qiyinalardim, baranka xuddi paxtadan yasangandek, aylantirsam qo'llarimga yopishib qolardi. Oldinda esa cheki chegarasi yo'q dovon. Mashina radiatori tinmay guvillab ko'kka qarab tirmashib borar va yana balandlikdan pastga tomon shuvillab tushib ketar edi... Aftidan, bu kasallik dovoni bo'lsa kerak. Uni men uchinchi kuni yengib, yengil torta boshladim. Yana ikki kun yotdim. O'zimni yaxshi his etardim, o'rnimdan turmoqchi ham bo'ldim, ammo Asal hech ko'nma-di. To'shakda yana ikki kun yotishga majbur qildi. Unga qararkanman, hayratda qoldim. Men kasal bo'ldimmi yoki umi? Shunchalik qiynalib tashvish tortibdiki, kishi tanib bo'lmaydi, ko'zlarining osti ko'kimtir halqa-halqa bo'lib, ozib ketibdi, qattiqroq puflasang yiqilib ketayotgandek, uning ustiga, qo'li-da bolasi. Yo'q, bunaqasi ketmaydi, degan qarorga keldim. Taltayib yotishga haqim yo'q. U dam olishi kerak. O'rnimdan turib, kiyina boshladim.

– Asal! – deb chaqirdim sekin. O'g'ilcham uxbab yotardi. – Qo'shnilar bilan gaplashib ko'r, ko'nishsa Samadni qoldirib, kinoga borib kelamiz!

U karavot yoniga chonib keldi-da, meni yana yotqizib qo'ydi. Xuddi birinchi marta ko'rayotgandek mendan ko'zini uzmasdi. Ko'z yoshlarini tutishga urinardi-yu, ammo ular kipriklari ostida yiltirab, lablari titrardi. Asal ko'ksimga yuzini qo'yib, yig'lab yubordi.

– Senga nima bo'ldi, Asal? Nima bo'ldi? – deb dovdirab qoldim men.

– Sizning sog'ayib ketganingizdan o'zimda yo'q xursandman.

– O'zim ham xursandman, ammo yig'lashning nima keragi bor. Sal mazam qochsa qochibdi-da. Qaytaga uyda sen bilan bir necha kun birga bo'ldim, Samad bilan ham o'ynab xumordan chiqdik, –

o'g'limning allaqachon emaklay boshlagan, endi esa yurishga shaylanayotgan eng yaxshi, eng shirin chog'lari edi. – Rostini aytsam, yana bir shunday kasal bo'lsam qaniydi! – dedim hazillashib.

– Qo'ysangizchi shunaqa gapni, keragi yo'q! – deb jerkib berdi Asal.

Shu payt karavotchada uxbay yotgan o'g'ilcham uyg'onib qoldi. Asal uni iliqqinaligicha ko'tarib keldi. Uchovimiz karavotga ag'anab, to'polon qilib hazillashardik, Samad esa ayiqchadek u yoqdan bu yoqqa o'rmalab, bizni tepkilar edi.

– Mana ko'ryapsanmi, qanday yaxshi! – dedim unga. – Sen bo'lsang... Tura tur hali, yaqinda ota-onangning oldiga – ovulga boramiz. Qani gunohimizni kechirmay ko'rishsin-chi. Samadni ko'riboq zavqlanib ketib, hammasini unutib yuborishadi...

Ha, ovulga kechirim so'rab borish niyatida edik. Ammo avvalo ta'til olish, so'ngra Asalning ota-onasidan tortib barcha qarindosh-urug'lariga-cha sovg'a-salomlar tayyorlash lozim edi. U yoqqa quruqdan-quruq borishni istamas edim.

Bu orada qish ham kirib qoldi. Tyan-Shanning qishi qattiq bo'ladi. Kuchli dovul, qor bo'ronlari va tog'dan qor ko'chish hodisalari tez-tez bo'lib turardi. Bunday paytlarda haydovchilarga tashvish yana ortardi, yo'l tuzatuvchilarga esa yana ham qiyinroq bo'lardi. Ular tog'lardan ko'chib turadigan qor uyumlariga qarshi kurash olib borar va qor o'pirilib tushishi mumkin bo'lgan xavfli yerkarni oldindanoq portlatishib, darhol yo'lni tozalab qo'yishar edi. To'g'ri, o'sha yilgi qish biroz tinchroq o'tgan edi. Yoki menga shunday ko'ringandir, chunki ish shunchalik ko'p ediki, uncha-muncha narsalarga e'tibor bermasdik. O'sha yili bizning avtobazaga kutilmaganda katta qo'shimcha topshiriq berishdi. Aniqrog'i, bunday katta topshiriqni olishga biz haydovchilar o'zimiz

sababchi bo'lgan edik, shaxsan men uning tashabbuskori edim. Men bunga hozir ham afsuslanmayman va ma'qul ish qilganman, deb hisoblayman. Ammo, nazarimda, mening barcha musibatlarim xuddi shundan boshlangandek tuyiladi. Voqeа bunday bo'lgan edi.

Bir kuni kechqurun avtobazaga qaytib kelayotgan edim. Asal mendan Alibek Jonturinning xotiniga kichik bir tuguncha berib yubordi. Men mashinani ularning uyi tomon burib, signal berdim. Alibekning xotini chiqdi. Unga haligi tugunchani berayotib:

- Alibek uydami? – deb so'radim.
- Yo'q, hali kelganicha yo'q.
- Qayoqda u, yo'ldami?
- Yo'g'-a, bugun yo'lga chiqqani yo'q, keyinroq borarmish. Nimagadir u yoqdan-bu yoqqa zir yugurib yuribdi. Aytishicha, xitoylik ishchilar avtobazaga telegramma yuborishgan emish.
- U yoqda nima gap bo'libdi?
- Zavod uchun asbob-uskunalarni tezroq yetka-zib berishni iltimos qilishibdi.
- Qanaqa asbob-uskuna? Sinszyanda qurilayotgan qishloq xo'jalik mashinalari zavodi uchunmi?
- Bilmadim, Ilyos. O'zing eshitib qolarsan.
- Hozir Alibek qayerdaykin?
- Qayerda bo'lardi. Yuk tushirish stansiyasi-da-da, hamma o'sha yerda. Eshelonlar kelgannish.

Men ham mashinani o'sha yoqqa tomon haydadam. Nima gap o'zi, aniqlab olay dedim-da. Mana, yetib ham keldim. Bizning yuk tushirish stansiyamiz darada, ko'ldan sal berida joylashgan bo'lib, temir yo'lning so'nggi stansiyasi edi. U yerda g'ala-g'ovur, g'ira-shira qorong'i, hech narsani payqab bo'lmasdi. Dara tomondan esayotgan kuchli shamlol simyog'ochlardagi chiroqlarni tebratar, shuvillab shpallarni yalab o'tardi. Vagonlarni bir-biriga tirkab

yurgan parovozlar u yoqdan bu yoqqa qatnab turardi. Eng chekkadagi yolda turgan kran ilgaklari ni ko'tarib, tebranganicha, vagonlardagi sim va tunuka tasmachalar bilan tang'ib, mixlab tashlangan yashiklarni tushirayotgan edi. Yanglishmabman. Bu Sinszyandagi mashinasozlik zavodiga yuboriladigan tranzit yuklar edi. U yerda yirik inshoot qurilayotgandi. Avvallari ham biz u yoqqa ba'zi asbob-uskunalarini olib borgan edik.

Avtobazamiz mashinalaridan talayginasi shu yerda ekan. Biroq hali ularning birontasi ham yuk ortmay turardi. Hamma haydovchilar nimanidir kutishayotgandek edi. Ular kabinetlarda, mashina zinalarida o'tirishardi. Ba'zilar shamoldan panalanib, yashiklarga suyanib olishgandi. Men ular bilan salomlashdim. Biror kimsa menga e'tibor ham bermadi. Papiroslarini tutatishib, sukut saqlab turishardi. Chetroqda o'tirgan Alibekni ko'rib qoldim. Uning oldiga bordim.

- Salom, Alibek!
- Salom!
- Nima qilyapsizlar? Telegramma olibsizlarmi?
- Ha. Zavodni muddatidan ilgari ishga tushirishmoqchi.
- Xo'sh, nima bo'pti?
- Endi gap bizda qoldi.
- Rostdanmi?
- Ko'ryapsanmi, butun yo'l yoqalari yukka to'lib ketibdi. Hali yana keladi. Bularni qachon tashib ulguramiz? Bu haqda o'layapsanmi? Odamlar bizga ishonib, u yoqda kutishmoqda!.. Ularga har bir kung'animat.
- Sen bularni nega menga gapiryapsan? Mening bu ishlarga nima daxlim bor?
- Nima daxlim bor?! Bu nima deganing, yo boshqa mamlakatdan kelganmisan? Yoki bizga naqadar muhim ish topshirilganini tushunmaysanmi?

– Azbaroyi Xudo, aqldan ozibsan! – deb ajablanib, o'zimni chetga oldim.

Shu payt yashiklar orqasidan ovozlar eshitilib qoldi. Avtobazamiz boshlig'i Omonjo'lov ko'rindi. U kamzulining etagi bilan shamolni to'sib, pana qilib papiros tutatdi-da, so'ngra indamay hammamizga bir-bir nazar tashlab chiqdi.

– Gap mana bunday, o'rtoqlar, – dedi u, – ministrlikka telefon qilib ko'raman, balki yordam berishar. Ammo bunga orqa qilish kerak emas. Nima qilish kerakligini hozircha o'zim ham bilmay turibman.

– Buni uddalash qiyin, o'rtoq Omonjo'lov! – dedi kimdir. – Yuklar juda og'ir, qo'pol, ortishga ham, joylash-tirishga ham noqulay. Kuzovga ikki-uchtadan ortigi sig'maydi. Mabodo kecha-yu kunduz ishlaganimizda ham, Xudoga shukr, ko'klamgacha yetadigan ish bor.

– Hamma gap shunda-da, – dedi Omonjo'lov. – Ammo ilojini topishimiz kerak. Xo'p, hozircha uyuyimizga tarqalaylik. Sizlar ham o'zlaringizcha o'ylab ko'ring!

U gazikka o'tirib jo'nab ketdi. Haydovchilardan birontasi ham joyidan qo'zg'almadidi. Ular negadir shoshilmasdilar. Qorong'i burchakda o'tirgan allaqanday kishi, hech kimga murojaat qilmay, o'zicha do'rillab gapirdi:

– Bo'lmag'ur ish! Ikki oyoqni bir etikka tiqib bo'lmaydi! Bu haqda ilgariroq o'ylash kerak edi! – deb o'rnidan turib, papiros qoldig'ini o'chirdi-da, mashinasi tomon ketdi.

Uni boshqa haydovchi quvvatladi:

– Bizda doim shu ahvol, ish qistalang keldimi, bo'ldi, qutqaringlar, jon og'aynilar, deb darhol haydovchilarga osilishgani osilishgan.

Odamlar unga o'shqirib berishdi:

– Bu xalqaro ish-ku, Ismoil, sen bo'lsang bozorchi shallaqi xotinlarga o'xshab vaysayapsan-a!

Men munozara-tortishuvlarga qo'shilmay turardim. Ammo birdan miyamga bir fikr kelib qoldi: dovonda mashinani qanday shatakkal olganim yodimga tushdi. Chidab tura olmadim-da, har vaqt-dagidek qizishib ketib:

– O'ylab o'tirishning nima keragi bor! – deb o'rtaga otilib chiqdim. – Mashinalarga pritsep ulash kerak!

Hech kim qimir etmasdi. Ba'zilar hatto menga qayrilib qaramadi ham. Bunday fikrni faqat telbalar-gina aytishi mumkin edi.

Jontoy sekingina hushtak chalib qo'ydi:

– Ko'rdinglarmi!

Men uni ovozidan tanidim. Turgan yerimda har to-monga alanglayman, bo'lgan ishni birma-bir so'zlab bergim kelyapti. Ammo qandaydir so'loqmonday yigit yashik ustidan tushib, qo'lqopini yonidagi sheri-giga berdi-da, oldimga yaqin kelib, yoqamdan ush-lab, o'zi tomon tortib:

– Qani, «uff» de-chi! – dedi.

– Uff! – deb pufladim men.

– Kayfi yo'q! – dedi u yoqamni bo'shatarkan, hayron bo'lib.

– Bo'lmasa, jinni-minni bo'lgandir-da, – dedi haligi yigitning sheri-gi uni quvvatlagandek va ikkalasi ham mashinalariga o'tirishib, jo'nab ketishdi. Boshqalar ham ketishga hozirlanib, o'rinalidan jimgina qo'zg'alishdi. Hech qachon bunchalik kulgi, bunchalik mulzam bo'lmagan edim! Yer yorilma-di-yu, yerga kirmadim.

– To'xtanglar! Qayoqqa ketyapsizlar! – deb haydovchilar orasida alanglab, u yoqdan bu yoqqa Yugura boshladim. – Men hazil qilayotganim yo'q, haqiqatan ham pritseplar ulash mumkin...

Keksa, oqsoqol haydovchilardan biri jahli chiqib, oldimga keldi-da:

– Men bu yerda haydovchilik qila boshlagan payt-larimda sen hali ishtonchan yurgan go'dak eding.

Tyan-Shan raqs maydoni emas, senga juda rahmim kelyapti, xalq o'rtasida masxarabozlik qilma! – dedi.

Odamlar meni masxara qilishib, mashinalariga tarqala boshladilar. Shunda men butun stansiyani boshimga ko'tarib baqirdim:

– Sizlar haydovchi emas, xotinchalishlarsiz!

Buni bekor qilgan ekanman, boshimga balo orttirib oldim.

Hamma to'xtab, baravariga menga qarab yopirilib kela boshladi:

– Nima deding, ablah! Ko'pchilikning hayoti bilan o'ynashmoqchimisan?

– Novator! Mukofot olmoqchi! – deb shovqin soldi Jontoy.

G'ala-g'ovur zo'rayib ketdi, odamlar meni iskanjaga olib, yashiklarga qisib qo'yishdi.

– Masxara qilyapsanmi hali!

– Sol tumshug'iga!

– Mishig'ingni artib olsang-chi!

Do'pposlab, dabdala qilib tashlashsa kerak, deb o'ylab, yerdagi yotgan taxtani qo'limga oldim.

– Qani, chetroq tur, yo'l ber! – deb hushtak chalib, kimdir hammani itarib-surib kela boshladi.

Bu Alibek edi.

– Jim! – deb baqirdi u. – Sen, Ilyos, tushuntirib gapir! Tezroq so'zlay qol!

– E, nimani gapiraman! – dedim men nafasim bo'g'zimga tiqilib. Chunki hali og'iz ochishga ulgurmasdanoq yulib-tortqilashib, tugmamdan birontasini ham qoldirishmay uzib yuborishgandi. – Men dovonda bir mashinani yuki bilan shatakka olib, yo'l tuzatuvchilar uchastkasigacha oborib qo'yganman. Bor gap shu.

Yigitlar ishonmagandek jim bo'llib qolishdi.

– Xo'sh, torta oldingmi? – deb so'radi kimdir shubhalanib.

- Ha, butun Do'landan to uchastka hovlisigacha tortib bordim.
  - Ho, juda zo'r-u! - dedi kimdir ajablanib.
  - O'zicha valdirayapti-da! - deb e'tiroz bildirdi ik-kinchi biri.
- Faqat muttahamlargina valdiraydi. Buni Jontoy ham ko'rgan. Hoy, Jontoy, qayoqdasan? Ayt! Qanday uchrashganimiz esingdami?..

Ammo Jontoyning ovozi chiqmasdi. U yer yorilib, yerga kirib ketgandek, g'oyib bo'ldi-qo'ydi. U ablahdan nafratlanib yurganim bejiz emas edi. Hozir buni o'ylab turadigan vaqt emasdi. Odamlar bahslashib ketdi. Meni quvvatlagan odamlar ham bo'lishdi. Birroq qandaydir bir shakkok chiqib, birdaniga ularni fikrlaridan qaytardi-qo'ydi:

- Bekorchi gap sotishning nima keragi bor! - deya to'ng'illay boshladi u. - Birov bir ishni bir marta qilsa qilibdi-da! Bunday hodisalar ozmi? Biz yosh bola emasmiz. Trassamizda pritseplar ulab yurish man etilgan. Bunga hech kim ruxsat ham bermaydi. Mehnat xavfsizligi injenerlariga shunday deb ko'rchi, nima derkin: shunaqayam boplasinki, dodingni Xudoga aytgin. Sizlarni deb javobgarlikka tortilishni xohlamasa kerak... Gapning o'g'il bolasi shu.

- E, qo'ysang-chi! - deb gapga aralashdi boshqa birov. - Ruxsat bermaydi deganing nimasi! Mana, Ivan Stepanovich o'ttizinchi yillarda polutorka mashinada dovonni birinchi bo'lib ochgan. Unga ham hech kim ruxsat bermagan edi. U o'z bilgicha qilgandi bu ishni. Mana o'zi, hali o'lganicha yo'q...

- Ha, darvoqe, shunday bo'lgan edi, - deb tasdiqladi Ivan Stepanovich. - Ammo hozir shubhulanib turibman: axir bu yerdan hatto yozda ham hech kim pritsep bilan o'tgan emas, hozir esa qish...

Shu paytgacha indamay o'tirgan Alibek gapga aralashdi:

– Yetar shuncha tortishganimiz. Ilyosning taklifi hali sinab ko'rilmagan narsa bo'lsa ham o'ylab ko'rish kerak. Lekin sen aytgancha emas, Ilyos, pritsepni ulaymiz-u ketavermaymiz. Bunday qilish yaramaydi, oldin bunga hozirlik ko'rish, hammasini jiddiy o'ylab chiqish, maslahatlashish va sinab ko'rish kerak. Quruq so'z bilan hech narsani isbotlay olmaysan...

– Isbotlayman! – dedim men unga. – Sizlar o'ylab, fol ochib bo'lgunlaringizcha, men isbotlab beraman! Ana o'shanda ishonch hosil qilasizlar! – deb burilib mashina tomon yurdim va avtobazaga jo'nab ketdim.

Har kimning o'z xulqi, fe'l-atvori bor. Ularni boshqarib turish kerak, albatta, biroq bunga hamma vaqt ham muyassar bo'lavermaydi kishi. Rul boshqarib borayotgan bo'ssam ham na ostimdag'i mashinani, na yo'lni his etardim. Dard-alam, xafagarchilik va asabiylik butun vujudimni egallab olgandi. Boyagi so'zlar borgan sari izzat-nafsimga qattiq tegib, yurakni o'rtab tutaqtilayotgan edi. Yo'q, men sizlarga isbotlab berganim bo'ssin! Odamning so'ziga ishonish kerakligini isbotlab bera man, uning ustidan kulish qandayligini ko'rsatib qo'yay, ehtiyyotkorlik bilan orqa-oldingga qarab ish ko'rish qana qa bo'lishini bir isbotlab beray! Alibekka ham qoyilman: o'ynab ko'rish, tayyorlanish, sinab ko'rish kerakmish! U hamisha shunaqa aqli, ehtiyyotkor! Ammo men uchun bular bir pul! Men bu ishni xamirdan qil sug'urgandek bajarib, kimligimni ko'rsatib qo'yaman!

Mashinani garajga qo'yganidandan keyin ham uning atrofida ancha vaqtgacha o'ralashib yurdim. Sirt dan qaraganda tinchlanib qolganga o'xshasam ham ko'nglim bezovta edi. Men faqat bir narsa haqida – o'zimning haq ekanligimni qanday qilib ertagayoq isbotlasam ekan, deb o'ylardim. Fikrimni isbotlash, so'zlab berish uchun boshliqlar oldiga borishni, ularning e'tirozlarini tinglashni endi xohlamas edim. Yo'l bitta: pritsep bilan dovonga qarab jo'nash. Men buni

qanday bo'lmasin, bajarishim kerak edi. Ammo prit-sejni menga kim berardi, uni avtobazadan Tyan-Shan yo'liga olib chiqishga kim ruxsat etardi?

Shunday o'y-xayollar bilan garajdan chiqib, hovli bo'y lab sekin yura boshladim. Kech kirib qolgan edi. Faqat dispatcherxonada chiroq yonib turardi. Men to'xtab qoldim: e, dispatcher-chi. Dispatcher hammasini to'g'rilab berishi mumkin-ku! Hamma ish uning qo'lida. Men dispatcherxona tomon shoshildim. Chamamda, bugun Xadicha navbatchilik qilayotgan bo'lsa kerak. Shunday bo'lsa yana ham yaxshi. U mening iltimosimni rad etmaydi. Rad etishi ham mumkin emas. Rad etgan taqdirda ham axir men jinoyat qilmoqchi emasman-ku. Aksincha, u hamma uchun foydali, hamma uchun muhim bo'lgan ishni amalga oshirishda menga yordam beradi, xolos.

Dispatcherxonaga yaqinlashar ekanman, anchan dan beri ilgarilardagidek eshikdan to'g'ri kirib boravermayotganligim va tuynukcha orqali murojaat qilayotganligim esimga tushib, ikkilanib qoldim. Shu payt eshik ochildi. Ostonada Xadicha turardi.

– Sening oldingga kelayotgan edim, Xadicha. Yaxshiyamki, shu yerda ekansan!

– Men ketyapman.

– Xo'p, yur, uyinggacha kuzatib qo'yaman.

Xadicha taajjublanib, menga shubhalanib qaradi-da, jilmayib:

– Ketdik, – dedi.

Biz tashqariga chiqib, ko'cha bo'y lab keta boshladik. Ko'cha zimziyo qorong'i edi. Ko'l tomondan to'lqinlarning shovillagani eshitilib turar, izg'irin shamol esardi. Xadicha bilagimdan ushlab, sovuq shabadadan panalab pinjimga tiqila boshladidi.

– Sovqotyapsanmi? – deb so'radi.

– Sen bilan birga bo'ssamsovqotmayman! – dedi u. Xadicha yana bir nima demoqchi bo'lib og'iz juftla-

di-yu, biroq jim qolib, yana kifimga ishqalana boshladi. Bunga qadar hayajonlanib turgan edim, endi bo'lsa negadir tinchlanib, o'zimni erkin sezsa boshladim.

- Ertaga qay mahal navbatchilik qilasan, Xadicha?
- Ikkinchi smenada.
- Senda bir ishim bor. Juda muhim. Bari senga bog'liq...

Yo'lda unga hammasini aytib berdim. Avvaliga gapimga qulq solgisi ham kelmadi, biroq men uni hamon ishontirishga intilardim. chiroq ostida, muyilishda to'xtadik. Xadicha bir qarorga kelolmay turardi.

- Eh, Ilyos! - dedi u tashvish bilan ko'zimga boqib. - Bekor shunday qilyapsan!

Ammo men nima desam ham uning bajarishini tushunib turardim. Uni o'zimga qaratib:

- Bekorga emas. Menga ishonaver! Hammasi joyida bo'ladi. Xo'sh, kelishdikmi? - dedim.

U xo'rsinib qo'ydi.

- Sen aytganidan keyin, nima ham qila olardim!
- dedi-da, xo'p degandek bosh qimirlatdi.

Men beixtiyor uning yelkasidan quchoqlab oldim.

- Asli yigit bo'lib tug'ilishing kerak ekan-da, Xadicha! Xo'p, ertagacha xayr! - deb qo'lini qattiq qisdim. - Kechgacha hamma qog'ozlarni to'g'rilib qo'y, xo'pmi?

- Namuncha shoshilmasang! - dedi u qo'limni bo'shatmay turib. So'ngra birdan o'zgarib qoldi. - Mayli, boraver... Yotoqxonagami?

- Ha, Xadicha.

- Xayrli tun, - dedi u.

Ertasiga bizda texnika ko'rige bo'ldi. Avtobazada-gi odamlar diqqinafa bo'la boshladi: inspektorlar doim bemavrid tiqilinch qilishadi-da, nuqul biron narsadan ayb tonib, akt tuzishgani-tuzishgan. Qanchalik dahmaza, qanchalik tashvish. Ammo ularning o'zlari esa juda og'ir, sovuqqon odamlar. Rejaga muvofiq avtobazani texnika ko'riganidan o'tkazishlari

kerak edi, shunga ko'ra ular bamaylixotir o'z ishlari-ni bajarayotgan edilar.

O'z mashinamdan ko'nglim to'q edi, ammo ta'mir-  
layotgan kishidek o'zimni chetga tortib turaverdim.

Xadicha navbatchilikka o'tguncha vaqt ni cho'zib  
turish kerak edi. Hech kim men bilan gaplashmas,  
hech kim kechagi hodisani eslatmas edi. Odamlar  
buni xayoliga ham keltirmasdi: hamma texnik  
ko'rikdan tezroq o'tib, yo'lga tushishga va bekor ket-  
gan vaqtning hissasini chiqarishga oshiqardi. Ammo  
baribir ko'nglimdagi dog' yoddan ko'tarilmasdi.

Texnika ko'rigidan tushdan keyin o'tdim. Ins-  
pektorlar ham ketishdi. Hamma yoq bo'shab, hu-  
villab qolgan edi. Hovlining ichkarisida ochiq havoda  
pritseplar turardi. Ulardan ba'zan tekis yo'llarda, ichki  
qatnovda foydalanilar edi. Men pritseplarga qanday  
borish qulayroq ekanini ko'zdan kechirib, ulardan  
birini – eng chetkisini mo'ljallab qo'ydim. U oddiygi-  
na to'rt gildirakli aravaga o'xshardi. Uning hamma  
hikmati mana shu. Ammo shuni deb qanchalik haya-  
jonga tushdim... O'sha payt meni nima kutayotganini  
bilmas edim. Shuning uchun ham yaxshigina ovqat-  
lanib, biror soat bo'lsa ham mizg'ib olish maqsadida  
xotirjamgina yotoqxonaga ketdim. Yo'l juda xavfli edi.  
Baribir u xlabel olmadim. Vaqt ni ilondek to'lg'anib o'tkaz-  
dim. Qosh qoraya boshlagach, avtobazaga bordim.

Xadicha bo'lsa allaqachon kelib turgan ekan. Ham-  
ma narsa taxt edi. Men uni behuda tashvishlan-  
tirmaslik uchun ortiqcha takalluf qilib o'tirmasdan  
yo'llanmani oldim-da, garajga shoshildim. Yugurib  
ketyapman-u xayolimdan: «Tamom! Endi bu yog'ni  
bir ko'rsatib qo'yay sizlarga!» – degan fikrni o'tkazdim.  
Mashinani burdim va tislab borib pritsepga to'g'rila-  
dim, so'ngra motorni sekin yurgizib qo'ydim-da, te-  
varak-atrofni ko'zdan kechirish uchun kabinadan  
chiqdim. Biron kimsa ko'rinxaydi. Faqat ustaxonada-

gi dastgohlarning taqir-tuquri-yu, ko'l to'lqinlarining qirg'oqqa urilishidan ko'tarilgan shalop-shulup ovoz-lari eshitilib turardi. Osmon sukunat ichida turgan-dek tutolsa ham biron ta yulduz ko'rinsasdi. Yonimda motor sekin tirillab turardi, mening yuragim ham gup-gup urardi. Chekmoqchi bo'ldim-u, lekin papiroсли shu zahotiyoy chetga otib tashladim, keyin...

Darvoza oldida meni qorovul to'xtatdi:

- To'xta, qayoqqa! – dedi u.
- Yuk ortishga, oqsoqol, – dedim men o'zimni bepar-vo ko'rsatishga urinib. – Mana, chiqishga ruxsatnomasi.

Chol qog'ozga sinchiklab tikildi-yu, ammo fonus yorug'uda hech narsa o'qiyolmadi.

– Vaqtimni olma, oqsoqol! – dedim sabrim chidamay. – Ish qolib ketyapti!

Yuk ortish tinchgina o'tdi. Yaxshigina yuk ham olindi: kuzovga ham ikki, pritsepgaga ham ikki bo'lak yuk olib yo'lga chiqdim va faqat shundan keyingina ko'nglim joyiga tushib, cheka boshladim. So'ngra mashinaga qulayroq o'tirib oldim-da, chiroqni yo-qib, to'la gaz berdim. Mashina chirog'idan taralayotgan yog'du atrofni qoplاب olgan qorong'ilik chokini so'kib borardi. Yo'l bo'm-bo'sh edi. Mashinani eng yuqori tezlikka qo'yib haydashim mumkin edi. Orqada sharaqlab kelayotgan pritsep yengilgina va bir tekisda yelib borayotgan mashinaga deyarli xalal bermasdi. To'g'ri, burilishlarga kelganda mashina yo'l chekkasiga surilib ketardi va rulni boshqarish ham ancha qiyinlashar edi. Ammo bunga odatlannaganlikdan, keyinchalik ko'nikib ketarman, deb o'ylardim. «Do'lanni zabit etaman, Sinszyanga ham boraman!» – deb qichqirdim o'zimga-o'zim va ot ustida enkayib chonib borayotgandek rul chambaragiga yopishib oldim. Yo'l ravon kelgan yerlardan iloji boricha tezroq haydab o'tish va tun yarmida Do'langa hujum boshlash niyatida edim.

Ba'zi vaqtarda tezlikni mo'ljalimdagidan ham oshirib haydardim. Ammo tog' boshlangandan keyin sekinroq va ehtiyyotkorlik bilan yurishga to'g'ri keldi. Bu motorning quvvati yetmasligidan emas, albatga. Tepalikka chiqishga qaraganda, pastlikka tushish ancha qiyin edi. Pritsep nishablikdan o'qday g'izillab kelib, mashinaga zarb bilan urilar va uning tinchgina tushishiga xalaqit berar edi. Har qadamda tormoz berib, tezlikni kamaytirish va rulni ziyraklik bilan boshqarib turishga to'g'ri kelardi. Boshda o'zimni dadil tutdim, uncha-muncha narsaga e'tibor bermaslikka harakat qildim, lekin borgan sari xavotirlanib, asablarim buzila boshladi. Hali yo'lda yana qanchadan-qancha tepalik va nishabliklar uchraydi. Bularni sanab chiqish hech kimning xayoliga kelganmikin! Shunday bo'lsa-da, ruhimni tushirmadim. Bu yerda holdan toyishdan boshqa hech narsa ko'nglimga tahdid solmasdi.

«Hechqisi yo'q, – deb ovutardim o'zimni o'zim. – Dovonga chiqish oldidan nafasimni rostlab olaman. Dovondan, albatta, oshib o'taman!» Biroq men nega o'sha kuzda mashinani shatakkka olganimdagiga qaraganda hozir ko'proq qiyalyapman, deb o'ylab o'tirmadim.

Do'lan tobora yaqinlashib kelmoqda. Chiroq nurlari qop-qora tun qo'yniga cho'kkан ulkan daraning qoyalarini siypalab o'ta boshladi. Qorli qalpoqlarini bostirib kiyib olgan bu qoyalar yo'l ustida osilib turardi. Chiroq nurlarida pag'a-pag'a qor parchalari yaltirab ko'rina boshladi. «Yuqoridan shamol uchirib tushayotgan bo'lsa kerak», dedim o'zimcha. Ammo qor parchalari kabina derazalariga yopishib, erib, pastga sirqib tushardi. Demak, qor yog'yapti. U siy-rak yog'ayotgan bo'lsa ham nam qor edi. «Bunisiga balo bormidi!..» – dedim g'ijinib. Oyna tozalaydigan cho'tkalarni ishga soldim.

Dovonning dastlabki balandliklari boshlandi. Motor odatdagidek o'zining mungli qo'shilgini kuylay boshladi. Uning zo'riqib bir ohangda guvillashi qorong'ida o'rmalab borayotgan qo'ng'iz bolasini eslatardi. Nihoyat, marraga yetib keldim. Endi oldinda pastga qarab qiyalab ketgan olis yo'l. Motor ovozi pasayib, mashina quyiga qarab tusha boshladi. Mana endi u yon bu yonga qarab tebranib bormoqda. Men pritsepning orqada lapanglab, yo'l-yo'lakay mashinaga sharaqlab kelib urilayotganini sezib, halqalarning tutashgan yeridan g'ijirlab chiqayotgan metall ovozlarini eshitib turardim. Bu g'ijirlash ovozi g'ashimni keltirib, belimni, bilaklarimi sirqiratib og'ritayotgandek bo'lardi. G'ildiraklar tormozga itoat qilmay, nam qor to'shamida sirg'a-lib boradi, mashina sirg'alib bir silkinib ketgan edi, ruli qo'limdan chiqib ketdi-da, shaqir-shuqur qilib, yo'l bo'ylab, qiyalab pastga tomon g'izillagancha tushib keta boshladi. Shunda men darhol rulni burib, mashinani to'xtatdim. Bu yog'iga yurish amri mahol edi, oyoq-qo'limda jon qolmagandi. Mashina chirog'ini ham, motorini ham o'chirdim. Tayoqdek qotib qolgan qo'llarim xuddi yasama qo'ldek pastga shalop etib tushdi. Men o'rindiq suyanchig'iga o'zimni tashlab, toshday qotib o'tirar va xirillab nafas olayotganimni o'zim ham eshitib turardim. Shu taxlitda bir necha daqiqa o'tirib, nafasimni rostlab oldim-da, papirof cheka boshladim. Chor atrofim qop-qorong'i zimiston, dahshatli sukunat faqat kabina teshikchalaridan shamol guvillab kirib turardi. Oldinda nimalar kutayotganini tasavvur qilishdan yuragim vahimaga tushardi. Bu yerdan yuqoriga qarab qiyalik bo'ylab baland-past, qing'ir-qiyshiq yo'llar davom etardi. Bu – motor va qo'llarning azobi. Bu tog' yon bag'irlari bo'ylab ilonizi yo'llar bilan yuqoriga tinimsiz o'rmalab chiqish demakdir. Oldinga

- yuqoriga – orqaga, yana ilgariga – oldinga – orqaga, yana va yana... Ammo o'ylab o'tirishga vaqt yo'q, qor gupillab urib turibdi.

Motorni yurgizdim. Mashina qattiq o'kirib, balandlik sari qo'zg'aldi. Tishimni tishimga qo'yib, tinimsiz ravishda ilonizi yo'llarni asta-sekin bosib o'taverdim. Nihoyat, tepalikka ham chiqib oldim. Endi tik qiyamalik, yo'l tuzatuvchilar uchastkasiga burilib ketadigan muyilishga qadar bir tekis nishablik, undan keyin esa dovonga so'nggi hujum boshlandi. Bir amallab pastga tushib oldim va to'rt kilometrcha cho'zilib yotgan to'g'ri yo'dan mashinani yeldek uchirib borib, yuqoriga ko'tarila boshladim. Mana, u olga intilib tobora yuqorilashib bormoqda... Ammo boyagi tezlab kelayotgani ko'pga bormadi, tezlik borgan sari pasaya bорди. Motorni ikkinchi, so'ngra birinchi tezlikka qo'yib haydadim. Rulni mahkam ushlagancha, o'zimni orqaga tashladim. Bulut parchalari orasidan yulduzlar mo'ralashib qarashardi. Mashina joyidan qimir etmas va u yog'iga tortolmasdi. G'ildiraklar bir yerda girillab aylanib, chetga surilardi, men akseleratorni jon-jahdim bilan bosdim.

– Qani, yana! Yana ozgina! Qimtib yubor! – deb qichqirib yubordim.

Cho'zib-cho'zib ingrayotgan motor titrab-qaltirab dirillay boshladi-da, birdaniga o'chdi-qoldi. Mashina sekingina orqaga keta boshladi. Jon holatda tormoz berdim, to'xtamadi. Pritsepning og'irligi bilan borgan sari tezroq sirg'alib, pastga tomon g'ildirab tushaverdi, nihoyat, mashina qoyaga urilib, taqqa to'xtadi. Hamma yoq jimjit bo'lib qoldi. Kabina eshigini ochib, tash-qariga qaradim. Xuddi o'ylaganimdek! Padariga la'nat! Pritsep yo'l yoqasidagi ariqqa tushib ketgan edi. Endi uni hech qanday kuch bilan chiqarib bo'lmasdi. O'zimni yo'qotib, dovdiraganimcha, yana motorni yurgizdim, zo'r berib mashinani oldinga qarab hayday boshladim.

G'ildiraklar o'z o'rnidan qo'zg'almay girillab aylanardi. Mashina bor kuchi bilan ilgariga qarab intildi, butun tanasi dirillab ketdi-yu, ammo joyidan siljimadi. Men mashinadan sakrab tushdim-da, pritsepga tomon chonib bordim. Uning g'ildiraklari ariqqa chuqur botib ketgan edi. Nima qilish kerak? Boshim qotib qolgan edi, g'azab bilan pritsepga otildim, uning g'ildiragi-ni qo'llarim va butun gavdam bilan itara boshladim. So'ngra kuzovning ostiga kirib boshim sirqirab og'rib ketgunicha yirtqich hayvon singari bo'kirib, pritsepni yelkam bilan yo'lga surib chiqarishga urinib ko'rdim, ammo qayoqda deysiz! Holdan toyib, yo'lga yuztuban yiqildim va qor aralash loyni quchoqlab alamimdan yig'lab yubordim. Keyin o'rnimdan turdim-da, gandiraklaganimcha mashina zinasiga kelib o'tirdim.

Yiroqdan motorning guvillagan ovozi eshitildi. Ikki chiroqcha balandlikdan pastdagi tekis yo'lga yog'du sochib tushayotgan edi. Bu haydovchining kimligini va yarim tunda taqdir uni qayoqqa va nima uchun haydayotganini bilmasdim, ammo bu chiroqlar go'yo meni quvlab yetib, ushlab oladigandek seskanib ketdim. Qaroqchi singari pritsep ilgagiga qarab yugurdim, uni mashina bilan ulab turgan metall o'jni sug'urib olib, chetga uloqtirdim va kabinaga irg'ib chiqib, pritsepni ariqda qoldirganimcha, mashinani yuqoriga qarab yeldek uchirib ketdim.

Qandaydir tushunib bo'lmaydigan dahshatli qo'rquv ta'qib etardi meni. Orqamdan kelayotgan mashina nazarimda xuddi izma-iz quvib yetib kelayotgandek tuyilardi. Mashinani shunchalik tez haydardimki, azbaroyi yo'lni yod bilganimdan biron yerga urib ham olmadim. Agar ko'zlarimni bog'lab qo'yganlarida ham xuddi shunday qilgan bolardim.

Tongotarda dovondagi bazaga yetib keldim. Nima qilayotganimni o'zim ham anglamay, aqldan ozgan kishidek, eshikni musht bilan qoqa boshladim.

Eshik lang ochildi. Asalga qaramay, boshdan-oyoq loyga belanganimcha uyga kirdim. Entikkanimcha allaqanday bir nam narsaning ustiga o'tirdim. Bu kursi ustiga uyib qo'yilgan kir uyumi ekan. Papiroslish uchun qo'limni cho'ntagimga tiqqan edim, qo'limga mashina kalitlari ilindi. Men uni jahl ustida kuchim boricha chetga uloqtirdim va boshim «shilq» etib tushdi, urib po'lal qilib tashlangandek, tinka-madorim qurib, shalpayganimcha o'tirardim. Ko'zlarim polda. Stol yonida Asal o'z og'irligini yalang oyoqlarining dam unisiga, dam bunisiga solib turardi. Unga nima ham deya olardim? Asal polda yotgan kalitlarni olib, stol ustiga qo'ydi.

– Yuvinib olasizmi? Kechqurun suv isitib qo'yganman, – dedi u sekkingina.

Men boshimni sekin ko'tardim. Sovqotgan Asal nozikkina qo'llarini ko'ksiga qo'yib, tungi ko'ylakda qarshimda turar edi. Uning qo'rquv bosgan ko'zlar tashvish va achinish bilan menga boqardi.

– Dovonda pritsepni ag'darib yubordim, – dedim begona tovush bilan.

– Qanaqa pritsep? – deb so'radi u tushunmasdan.

– Temirdan yasalgan, yashil rangli, «02 – 38» raqamli! Qanaqa bo'lsa ham baribir emasmi! – deb qichqirdim jahl bilan. – O'g'irlab olgandim uni, tushunasanmi? O'g'irlab olgandim.

Asal sekkingina «Voy!» deb yubordi-da, karavotga o'tirib qoldi.

– Nega?

– Nega bo'lardi? – uning hadeganda gapga tushunavermagani mening jig'imga tegardi. – Dovondan pritsep bilan o'tmoqchi edim! Tushundingmi? O'z fikrimni amalda isbotlamoqchi edim... Mana endi uyim kuydi!

Men yuzimni kaftlarim orasiga olgancha o'tirardim. Ikkalamizdan ham bir muncha vaqt sado chiqmadi. Asal shartta irg'ib turdi-da, kiyina boshladı.

– Nega o‘tiribsiz endi? – dedi u jiddiy qiyofada.  
– Nima qilishim kerak? – deb g‘o‘ldiradim men.  
– Avtobazaga qaytib boring!  
– Qanday boraman! Pritsepsiz-a?  
– U yerda hammasini tushuntirib berasiz!  
– Esingni yedingmi! – Tars yorilib ketishimga sal qoldi. Xona bo‘ylab u yoqdan bu yoqqa tez-tez yura boshladim. – Qaysi yuz bilan pritsepni u yerga sudrab boraman? Kechirasizlar meni, xato qilib qo‘ydim, deymanmi?! Oyoqlariga bosh urib yalinib-yolvorgani boramanmi? Yo‘q, bormayman! Bilganlarini qilishsin! Hammasiga tupurdim!

Mening baqiriq-chaqirig‘imdan karavotda yotgan o‘g‘ilcham uyg‘onib ketib, yig‘lab yubordi. Asal uni qo‘liga olgan edi, bola battarroq qichqira boshladi.

– Qo‘rqoqsiz, – dedi Asal sekingina, lekin qat’iy qilib.  
– Nima-a! – deya g‘azabdan o‘zimni tutolmay musht o‘qtalgancha unga tashlandim, qo‘l ko‘tarishga ko‘tardim-u, ammo urishga jur‘at etolmadim. Uning hayratlanib boqib turgan shahlo ko‘zlari meni tang qoldirdi. Men uning chaqnab turgan ko‘z qorachiqlarida o‘zimning dahshatli va burishib-tirishib ketgan turqimni ko‘rib turardim.

Uni qo‘pollik bilan bir chetga siltab yuborib, eshik tomon shiddat bilan borib, uni taraqlatib yopganimcha tashqariga chiqib ketdim.

Tashqari allaqachon yorishib qolgan edi. Kunning yorishib ketgani menga qattiq ta’sir qildi; kecha bo‘lib o‘tgan hamma qilmish-qidirmishlarim menga yanada mudhish, yanada xunuk bo‘lib ko‘rinar, o‘zimni bir umr tuzatib bo‘lmaydigan xato qilib qo‘ygandek his qillardim. Hozircha birgina najot yo‘li bor bo‘lib, bu ham bo‘lsa loaqla mashinadagi yukni joyiga eltib qo‘ymoq zarur edi. U yog‘iga nima qilishni bilmayman...

Orqaga qaytishda uyga kirib o‘tmadim. Asal bilan janjallashib qolganimdan emas. Usiz ham mul-

zam edim. Hech kimga ko'rinmaslikka va hech kimni ko'rmaslikka urinardim. Boshqalarni bilmayman-u, bunday hollarda yolg'iz bo'lishni va boshimga tushgan tashvishni boshqalarga sezdirmaslikni istardim. Kimga keragi bor buning? Agar qo'lingdan kelsa, hamma kulfatlaring ado bo'lguncha sabr-toqat qil, chida...

Kechasi yo'lovchilar tunaydigan uyda tunab qoldim. Tuni bilan uxlayolmay alahsirab chiqdim. Tushimda dovonda pritsepni qidirib yurgan emishman. Uning izlari bormish-u o'zi yo'q emish. Har tomonga zir yugurib, pritsep qayoqqa g'oyib bo'ldi, kim olib ketdi, deb so'rab-surishtirib yurganmishman. Men qaytayotganimda u haqiqatan ham o'sha bexosiyat yerda – turgan joyida yo'q edi. Faqat izlari bor edi, xolos. Qaytarib olib ketishibdi. Keyin bilsam, pritsepni avtobazaga Alibek sudrab kelgan ekan.

Pritsep orqasidan o'zim ham ertalab avtobazaga yetib keldim. Shu kunlar ichida qorayib ketibman, kabina yoniga qadab qo'yilgan kuzatuv oynachasiga qarab o'zimni o'zim tanimay qoldim.

Avtobazada hayot odatdagicha edi. Faqat mengina, go'yo begona kishilardek, mashinani darvoza tomon iymanibgina haydar kelib, sekingina hovliga kirib bordim va mashinani garajdan nariroqda, bir chekkada to'xtatdim-da, kabinadan chiqmay o'tiraverdim. Atrofga ko'z yogurtirib chiqdim. Odamlar ishlari ni yig'ishtirib qo'yishib, har tomondan menga qarab tikilib turishardi. Eh, qani endi lip etib qayrilsang-u boshing oqqan tomonga qochib qolsang. Biroq hech yoqqa qochishning iloji yo'q edi. Kabinadan chiqishga to'g'ri keldi. Bor jasoratimni to'plab, hovlidan yurib, dispatcherxona tomon yo'l oldim. O'zimni xotirjam tutishga, shaxdam qadam tashlashga urinardim, ammo aslida esa saf tortib turgan kishilar oldidan o'tayotgan gunohkor soldatdek yurib borardim. Hammaning meni xo'mrayib kuzatib turganini sezib tu-

rardim. Hech kim meni chaqirmadi ham, men bilan salomlashmadi ham. Ularning o'rnida bo'lganimda, ehtimol, men ham shunday qilgan bolardim.

Ostonaga qoqilib ketdim. Go'yo yuragim ham qoqilib ketgandek bo'ldi: eh, Xadicha haqida o'ylamabman, uni sharmanda qildim! Endi nima deyman unga?

Dahlizda nafasimni rostlab, peshanamdag'i terni artdim. Boshimni ko'tarib, u yoq bu yoqqa qarasam, ro'paramda devoriy gazetamiz «Chaqmoq» sahifasi-dagi plakat menga tikilib turardi. «Uyat senga!» deb yirik harflar bilan yozib qo'yilgan so'zlar ostida tog' orasida qoldirib ketilgan pritsep tasvirlangan edi...

Men teskari o'girildim. Yuzlarim shapaloq yegan-dek lovillab yonardi. Dispatcherxonaga kirdim. Xadicha telefonda nimanidir gaplashayotgan edi. Meni ko'rib gapidan to'xtab, trubkani joyiga osib qo'ydi.

– Ma! – deb badbaxt yo'llanmani stolga otdim. Xadicha achingan qiyofada menga qaradi. Faqat shallaqilik qilib yig'lab yubormasa bo'lgani, deb o'yladim.

«Hozir emas, keyin, bo'lak biror yerda!» – deb yolvordim ichimda. U ham meni tushundi, hech narsa demadi.

– Shovqin ko'tarishdimi? – deb so'radim sekin. Xadicha bosh irg'ib qo'ydi.

– Hechqisi yo'q! – dedim g'ijinib, uning ruhini ko'tarish uchun.

– Seni katta yo'ldan olishdi, – dedi u.

– Olishdi? Butunlaymi? – dedim kulimsiragan bo'lib.

– Butunlay olishmoqchi edilar – ta'mirlashga... Ammo yigitlarimiz sening yoningni olishdi. Hozircha ichki reyslarga o'tkazishdi. Boshliqqa uchra, seni chaqirtirishgan edi.

– Bormayman! Mensiz o'zlari hal qilishaversin. Pushaymon qilmayman...

Men xonadan chiqdim. Boshimni quyi solganim-chi, dahlizdan arang chiqib ketdim. Kimir menga

peshvoz kelardi. Men unga yo'l berib, o'zimni chetga oldim. Bu Alibek edi. U moyga belangan qo'llarini ham artmay garajdan kelayotgan ekan. Men uning yonboshidan o'tib ketmoqchi edim, ammo Alibek yo'limni to'sdi.

– Yo'q, shoshma! – deb meni burchakka qisdi. Ko'zlarimga tikilib, g'azab bilan shivirladi: – Xo'sh, ishlar qalay, azamat? Isbotladingmi? Itfe'llilingni ko'rsatding!

– Ishimiz jo'nashib ketsin devdim-da, – deb po'ng'illadim men.

– Yolg'on!

– Nima yolg'on?

– Yolg'iz o'zing shuhrat qozonmoqchi bo'lding! O'zing uchun tirishding! Biroq muhim ishni barbod qilding. Mana endi, shulardan keyin ham pritsep bilan yurish mumkinligini isbotlab ko'r-chi! Ahmoq! Shuhratparast!

Ehtimol, bu so'zlar mening o'rnimda boshqa odam bo'lganida aqlini yig'ib olishga majbur etarmidi, ammo menga endi baribir edi: o'z fikrimni hali ham isbotlab, maqsadga erishishim mumkinmi, yo'qmi, bunga besfarq qarardim. Agar men shu paytgacha o'zimcha ich-etimni yeb yurgan bo'ssam, endi shu daqiqadan boshlab kishilarning achchiq tazyiqlarini va menga nafrat bilan qarashlarini butun vujudim bilan his qila boshladim. Men go'yo ularning ko'ziga o'zimning shon-shuhratimni orttirishga urinuvchi shuhratparast bir kimsa bo'lib ko'rinyayotgan edim. Haqiqatda esa bu mutlaqo shunday emasdi. Ammo fakt faktligicha qoladi.

– Chetroq tur! – deb nariga itardim Alibekni. – Sensiz ham yuragim siqilib turibdi!

Eshikka chiqdim. Sovuq, izg'irin shamol hovli sahnidagi qorni uchirib o'ynardi. Odamlar men tomonga ko'z qirini tashlashib, yonimdan jimgina

o'tib ketishardi. Nima qilish kerak? Mahkam tugilgan mushtlarimni cho'ntagimga tiqib, darvoza tomon yurdim. Muzlab qolgan ko'lmakchalar oyoq ostida oyna singari chirsillab sinardi. Oyog'imga tavot moyidan bo'shagan bankacha to'g'ri kelib qoldi. Jonim boricha uni darvozadan ko'cha tomon tenib yubordim-da, o'zim ham ortidan boraverdim.

Kun bo'yи shaharcha ko'chalari bo'ylab daydib yurdim, kimsasiz huvillab yotgan pristanda tentiradim. Issiqko'lda po'rtana quturib, qirg'oqqa bog'lab qo'yilgan barjalar suv betida chayqalib-qalqib yotardi.

Bir mahal qarasam, suv transporti boshqarmasi ning choyxonasiiga kelib qolibman. Yolg'iz o'zim deraza yoniga borib o'tirdim. Oldimda – stol ustida og'zi ochilgan bir shisha araq bilan likopchada qandaydir gazak turardi. Birinchi stakanni ichishim bilanoq kayfim taraq bo'lib, oyog'im ostiga anqov kishilardek temilib o'tirardim. Mening ko'nglim ham zangori tutunga cho'mib, mast-alastlarning pala-partish gaplariga to'lgan shu choyxona singari xira va g'ash edi.

– Nega g'amgin ko'rinasan, yigit? – bexosdan boshim uzra kimningdir yoqimli va xiyol istehzoli ovozi eshitildi.

Boshimni arang ko'tardim. Yonimda Xadicha turardi.

– Ha, bir o'zing icha olmayapsanmi? – deb iljayib yonimga o'tirdi u. – Qani, birga ichaylik bo'lmasa!

Xadicha stakanlarga araq quyib, bittasini menga surib qo'ydi.

– Ol! – dedi u, go'yo biz bu yerga anchayin o'tirish va ichish uchun kelgandek, g'urur bilan hayosizlarcha ko'z qisib.

– Sen nimaga suyunyapsan o'zi? – deb so'radim norozi ohangda.

– Nima, yig'laymi bo'lmasa? Sen turganda menga boshqa narsaning keragi yo'q, Ilyos! Men seni sabrli,

chidamli deb o'ylagan edim. Kel, nima bo'lsa bo'lar! – deb sekingina kulib qo'ydi u va yonimga yaqinroq surildi, qop-qora nozli ko'zlarini suzib, qo'lidagi stakanni cho'qishtirdi.

Biz ichdik. Men papirosh tutatdim. Ko'nglim biroz yorishgandek bo'ldi: kuni bo'yi birinchi marta jilmayishim edi.

– Qoyilman senga, Xadicha! – dedim va uning qo'lini qisdim.

Darvoqe, Xadicha o'sha kecha juda ochilib ketgan edi.

Keyin ko'chaga chiqdik. Qosh qorayib qolgan edi. Ko'l tarafdan esayotgan sho'x shamol daraxtlarni va chiroqlarni tebratib o'ynardi. Oyoq ostimizdag'i yer ham unga taassuf qilgandek chayqalardi. Xadicha qo'llig'imdan tutib, meni yetaklab borardi, u mehribonlik bilan yoqamni ko'tarib qo'ydi.

– Men sening oldingda aybliman, Xadicha! – dedim o'z gunohim va minnatdorchiligidagi yashira olmay. – Ammo shuni bilib qo'y, men seni hech kimga xafa qildirib qo'ymayman... Hammasiga o'zim javob beraman...

– Bularni unutib yuborasan, jonginam! – dedi u. – O'zing ham tinib-tinchimagansan-da... Doim qayoqqadir yelib yugurganing-yugurgan. Men bo'lsam senga achinaman. O'zim ham ilgari shunaqa edim. Hayotdan ilgarilab keta olmaysan, undan nasib qilganini ol... Taqdir bilan o'ynashib nima qilasan...

– Bu har kimning tushunchasiga bog'liq! – deya e'tiroz bildirdim, so'ngra o'ylab ko'rib: – Ehtimol, sen haqdirsan... – deb qo'ydim.

Biz Xadicha yashaydigan uyning shamolga teskari tomonida to'xtadik.

– Mana, uyga ham yetib keldim! – dedi u.

Men ketmoqchi bolardim-u, biroq u yerdan sira jilolmasdim. Endi ikkimiz o'ttamizda bir-birimizni bog'lab turuvchi qandaydir bir narsa bor edi. Xa-

dichaning samimiyligi, menga nisbatan hamdardligi va uning oldida o'zimni qarzdor kishidek sezayotganligim darhol ketishimga yo'l bermayotgan edi. Buning ustiga, hozir yolg'iz qolib, yotoqxonaga borishdan ham cho'chiyatgan edim. Haqiqatan u hozir juda ochilib ketgan bo'lsa ham ba'zida shunday zahar bo'lib qoladiki, undan o'zingni beixtiyor chetga tortishga harakat qilasan.

– Nega o'yланib qolding, jonginam? – deb so'radi Xadicha. – Charchadingmi, yo'ling olislik qilyaptimi?

– Hechqisi yo'q, bir amallab yetib olaman. Xayr. U qo'limni ushlab ko'rib: –

– Vuy-y, muzlab qolibsan-u! To'xta, isitib qo'yay!

– dedi-da, qo'limni paltosi ostiga yashirib, ko'ksiga qattiq bosdi. Men qo'limni tortib olishga, qizning bu qaynoq mehr-muhabbatiga qarshilik ko'rsatishga jur'at eta olmadim. Qo'lim ostida uning yuragi go'yo ko'pdan orziqib kutib yurgan o'z ulushini tablab qilayotgandek dukillab urardi. Ha, darvoqe, men mast edim, ammo hech narsani tushunmaydigan, sezmaydigan darajada o'chib qolgan emasdim, al-batta. Men sekingina qo'limni tortib oldim.

– Ketdingmi? – deb so'radi Xadicha.

– Ha.

– Xo'p, xayr! – deb Xadicha xo'rsindi-da, qayrilib, eshik tomon tez yurib ketdi. Qorong'ida eshikning «taq» etib yopilgani eshitildi. Men ham yo'nga tushdim-u, biroq bir necha qadam yurganimdan so'ng to'xtadim. Bir mahal qarasam, yana o'sha eshikchaning oldiga kelib qolibman, buning qanday bo'lganini o'zim ham bilmayman. Eshikni itardim. Xadicha meni shu yerda kutib turgan ekan. U bo'yningha tashlandi, lablarimdan o'nib, mahkam quchoqlab oldi.

– Oxiri qaytding-a! – deb pichirladi u, so'ngra qo'limdan ushlab, uyiga yetakladi.

Yarim tunda uyg'ondim, ancha vaqtgacha qayerda ekanligimni bilolmay yotdim. Boshim qat-tiq og'rirdi. Biz bir karavotda yonma-yon yotardik. Badani iliqqina, yarim yalang'och Xadicha pinjimga kirib olgandi. U yelkam uzra bir maromda tinchgina nafas olardi. Men o'rnimdan turib, darhol bu yerdan ketmoqchi bo'ldim. Sal qimirlab qo'ydim. Xadicha ko'zlar yumuqligicha meni quchoqlab oldi. U silliq, yum-yumaloq tizzasini kaftimga qo'ydi.

— Ketma! — deb shivirladi qulog'imga. So'ngra boshini ko'tarib, qorong'ida ko'zlarimga tikildi-da, entikib-entikib pichirlay boshladi: — Endi sensiz yashay olmayman! Sen menikisan! Har vaqt ham meniki eding! Boshqa hech narsani bilmayman, bilishni ham istamayman! Meni sevsang bo'lgani, Ilyos! Sendan boshqa narsa talab qilmayman... Ammo sendan voz kecha olmayman, tushunyapsanmi, o'z orzularimdan voz kecha olmayman! — deb yig'lab yubordi. Uning ko'z yoshlari yuzimga yumalab tusha boshladi.

Men qoldim. Tongga yaqin uyquga ketdik. Qarasak rosa uxlabmiz. Tashqarida kun yorishib ketgan edi. Tez kiyindim, yoqimsiz, tashvishli bir his yuragimni siqib noxush qilardi. Yo'l-yo'lakay kalta po'stinimni kiyib, shoshilib hovliga chiqdim, po'stinimning tugmalarini qadarkanman, o'zimni «lip» etib ko'cha eshikka urdim. Tevarak-atrofga nazar tashladim, devorning muylishidan mallarang tulki tumoq kiygan odam to'ppa-to'g'ri men tomon-ga kelaverdi. Eh, uni ko'rgani ko'zim, otgani o'qim yo'q-da! Jontoy ishga ketayotgan edi, u bu yerga ya-qin joyda yashardi. Ikkovimiz ham bir lahma serrayib qoldik. Men o'zimni ko'rмаганликка soldim. Shartta burildim-da, avtobazaga qarab ketaverdim. Jontoy orqamdan ma'nodor yo'talib qo'ydi. U orqamdan qorni g'arch-g'urch bosib kelmoqda edi. Uning bu shiddatli g'arch-g'urch odimlashida qanchalik za-

harxandalik, birovning baxtsizligidan sevinish borligi ravshan anglashilib turardi. Biz to avtobazaga qadar shu taxlitda oldinma-keyin yurib keldik.

Men avtobazaga kiraverishdagi yo'lakka kelganda qadamimni tezlashtirdim va garajga burilmay, to'g'ri idoraga qarab ketdim. Dahlizning biror yerida to'xtab, sal nafasimni rostlab olishim kerak edi.

Bosh injenerning kabinetidan odamlarning gangu-gungur ovozlari xiyol eshitilib turardi. Bu yerda odatdagidek ertalabki qisqa yig'in o'tmoqda edi. Agar pritsep voqeasi odamlar xayolidan ko'tarilib ketgan bo'lsa edi, hozir bu yerga jo'n deb kirgan bo'lardim. Qani endi men ham kirib deraza tokchasigami, boshqa yergami chiqib olib, oyoqlarimni chalishtirgancha papirosimni chekib, huzur qilib o'tirsam, yonimda o'tirgan hamkasblarim bilan u yoq bu yoqdan gaplashsam, ertalabki naryadni eshitsam, haydovchilarning ish sohasidagi biror arzimagan narsa yuzasidan beg'araz so'kishlarini va tortishuvlarini tinglab o'tirsam... Shu paytgacha bular inson uchun shunchalik zarur, shunchalik aziz ekanini hech tasavvur qilmagan ekanman. Garchi shunday bo'lsa-da, haydovchilarning ko'zlariga ko'rinishga jur'at eta olmasdim. Qo'rqqanimdan emas, yo'q, qo'rkoqlik qilganim yo'q. Meni ko'proq o'sha muvaffaqiyatsizlikdan g'azablanish, umidsizlikka tushish va ular oldida behayolarcha ko'rsatgan botirligim, ojiz qaysarligim tashvishlantirayotgan, yana bularning ustiga-ustak, Xadicha bilan tasodifan tunab qolganim meni iztirobga solayotgan edi. Odamlar ham mening qilmishimni hali beri unutmaydigan ga o'xshaydi. Ichkarida xuddi mening haqimda so'z borardi. Avval ichkaridan eshitilib turgan gaplarga e'tibor bermadim. Ammo birdan kimningdir g'azab bilan baqirib gapirayotgan tovushi eshitila boshladи:

- Bu qanday bemazagarchilik! Uni sudga berish kerak, sizlar bo'lsangiz uni xaspo'shlab o'tiribsizlar!

Tag'in ba'zilar uyalmay-netmay, to'g'ri o'yabdi, deb uni himoya qilishyapti! Axir pritsepni dovonga tashlab kelibdi-ku!..

Uni boshqa ovoz bo'ldi:

– To'g'ri! Bunaqalarning ko'pini ko'rganmiz. Aql o'rgatishga juda usta. Shuhrat orttirmoqchi bo'libdi, ko'ngli mukofot istab qolibdi. Qarang, avtobazaga yaxshilik qilmoqchi emish! Biroq hammasi chappasidan ketdi!

Odamlar tortisha boshladi. G'ovur-g'uvur zo'ra-yib, hech narsani anglab bo'lmay qoldi. Men nari ketdim, tirqishdan gap poylashni o'zimga ep ko'rma-dim. Yo'llanma olish uchun dispatcherxonaga qarab yo'naldim.

– Men qayoqqa boraman? – deb so'radim o'sha kuni navbatchilik qilayotgan qizdan.

Hozircha meni avvalgi joyimda qoldirishibdi. Af-tidan, hali mening masalam uzil-kesil hal etilmagan ko'rinadi.

Dahliz bo'ylab orqaga qaytdim. Haydovchilar-ning xonadan gur etib tashqariga chiqayotganlarini eshitib, qadamimni tezlatdim. Ular hamon vag'ir-vug'ur gaplashishardi. Alibek yo'l-yo'lakay kimgadir qizishib uqtirardi.

– Pritsepga tormozlarni o'zimizda o'rnatamiz. Kompressorda shlangni sug'urib tashlab, o'rniga kolodkani joylashtirish uncha qiyin ish emas-ku! Anavi Ilyosmi? Ilyos, to'xta! – deb chaqirdi u meni.

Men to'xtamay, garajga qarab ketaverdim. Alibek menga yetib oldi-da, yelkamdan ushlab tortdi.

– Uh, seni qara-ya! Tushunyapsanmi, axir ishon-tirdim-da! Tayyorgarlik qilaver, Ilyos! Sherik bo'lib borasanmi? Sinab ko'ramiz! Pritsep bilan!

Mening dilim ranjidi: meni yomonotliqdan qutqar-moqchi bo'libdi, omadsiz o'rtog'ini shatakka olar emish! Sherik emish! Men uning qo'lini yelkamdan siltab tashladim:

– Pritsepingdan o'rgildim!  
– Namuncha zarda qilasan. O'zingdan ko'r! Men senga shunchaki gapiroq ganim yo'q – biz uncha-muncha narsalarni o'ylab qo'ydiq, odamlar bilganlarini aytishdi, qolaversa, dovonda tashlab kelgan pritsepingni o'zim tortib kelganman... Biron ish chiqib qolsa kerak...

– Qilsang, o'zing qilaver, meni o'z holimga qo'y.  
– Qo'ysang-chi, shuncha jinnilik qilganing yetar. Ishni yarim yo'lda tashlab ketish yaxshi emas! Ha, rostdanam, unutayozibman. Volodka Shiryaev senga hech narsa demadimi?

– Yo'q, uni ko'rganim yo'q. Nima edi?  
– Iya, bu qanaqasi bo'ldi! Qayoqlarda yuribsan o'zing? Asal yo'nga chiqib, kim ko'ringandan seni so'raydi, xavotir olib o'tiribdi! Sen bo'lsang!..

Turgan yerimda oyoqlarim chalishib ketdi, yurak urishim xuddi to'xtab qolayozgandek o'zimni shu qadar og'ir sezdimki, hatto o'limimga ham ming marta rozi bo'ldim. Alibek bo'isa yengimdan tortib, hamon pritseplar uchun yasaladigan qandaydir moslamalar va yana allanimalar haqida tushuntirardi. Jontoy bir chekkada quloq solib turardi.

– O'z holimga qo'ysang-chi! – deb qo'limni tortib oldim. – Menden nima kerak senlarga? Sudga bo'lsa sudga beringlar! Shu yog'i ham yetar! Hech qanday pritsepning keragi yo'q menga! Hech kimga sherik ham bo'lmayman! Tushundingmi?

Alibekning qovog'i osildi, peshanasi tirishdi:  
– O'zing boshlab, o'zing o't qalab, endi birinchi bo'lib dumingni xoda qilib qochmoqchimisan? Shunaqami?  
– Qanday tushunsang, shunday tushunaver! – dedim-da, shartta burilib, garaj tomon ketdim.

Mashina oldiga keldim, qo'llarim qaltirardi, nima qilishni bilmasdim. Nima uchundir mashina ostidagi chuqurga sakrab tushdim-da, sal o'zimni bosib olish uchun terib qo'yilgan g'ishtlarga yonboshladim.

– Menga qara, Ilyos! – tepamdan shivirlagan ovoz eshitildi.

Boshimni ko'tarib qaradim: bunisi yana kim bo'ldi! Tumoq kiyib olgan Jontoy menga ayyorona tikilgancha chuqur tepasida xuddi qo'ziqorindek cho'nqayib o'tirardi.

– Uni juda boplading-da, Ilyos! – dedi u.

– Kimni?

– Alibekni-da! Naq nishonga urding! Darrov nafasi o'chdi-qoldi, bo'lmasa bu novator qulinqi batanga keltirardi.

– Xo'sh, sening qanchalik ishing bor?

– Nima ishim borligini o'zing ham tushunib turgan bo'lsang kerak. Biz haydovchilarga pritsepning keragi yo'q. Uning oqibati qanday bo'lishini bilamiz: birortasi ishlab chiqarish normasini oshiradi, yo'lni qisqartadi, keyin hammalarin o'sha ilg'or daramasiga ko'tarilinglar, deyiladi-yu, biroq yuk tashish uchun toqlanadigan haqni kesib qoladilar. Xo'sh, kim o'z cho'ntagiga zarar keltirishni istaydi? Bir kunlik shuhrat, obro' kimga kerak? Biz sendan xafa bo'layotganimiz yo'q. Ha, ko'ngling to'q bo'lsin...

– Biz deganing kimlar? – deb so'radim undan bama ylixotir bo'lishga intilib. Ammo birdan bosib kelgan g'azabdan yuragim siqilib ketdi: – Mashinani shatakka olib ketayotganimda nega nafasingni chiqarmay o'tib ketganiningni endi angladim! Olisni ko'zlabsan-u, ammo tumshug'ing ostidan narini ko'rolmabsan, seningcha, boshqalar hech narsani tushunmaydi. O'zingcha meni ahmoq deb o'layapsan, shekilli! Biz deganing senmi? – deb so'radim yana.

– Faqat mengina emas, – dedi Jontoy ko'zlarini pirpiratib.

– Yolg'on, mag'zay, bit! Seni deb qasddan pritsep bilan yurganim bo'lsin! Tanimda jonim bor ekan, aytganimni qilaman. Sen bilan ana o'shanda gaplashaman. Qani, tuyog'ingni shiqillatib qol-chi!

– Hay-hay, haddingdan oshma! – deb o'dag'ayla-di Jontoy. – Sening ham qanaqaligingni yaxshi bila-miz... Biroq o'ylab ko'r... Anaviga kelsak, davring kelganda yurib qol...

– He seni!.. – deb jahl ustida qichqirib yubor-dim-da, joni qahrim bilan jag'iga tushirdim.

U xandaq chekkasiga qanday o'tirgan bo'lsa, shundayicha orqasiga ag'anab tushdi. Tumog'i ham uchib ketdi. Men xandaqdan mushukdek sakrab chiqdim-u unga tashlandim. Ammo Jontoy o'rnidan turib olgandi, u o'zini chekkaga olib qochib, butun hovlini boshiga ko'tarib dodlay boshladи:

– Bezori! Kazzob! Musht bilan qo'rqita olmaysan meni! Sening ham adabingni berib qo'yadigan kuch topilar! Haddingdan oshma, zararkunanda!..

Har tomondan odamlar yugurib kela boshladilar. Alibek ham chonib keldi.

– Nima gap? Nega urding uni?

– Haqiqat uchun! – deya battarroq baqira boshladи Jontoy. – Haq gapni yuziga aytganim uchun! Pritsepni o'g'irlagan ham o'zi, dovonda ag'darib tashlab ketib, ishni barbod qilgan ham o'zi, yana boshqalar vijdonan uning xatosini tuzatmoqchi bo'lishsa, u tumshuqqa soladi! Endi bu ishdan manfaatdor emas, chunki obro' va shon-shuhratni qo'ldan boy berib qo'ydi!..

Alibek men tomon yurdi. Rangida qoni yo'q, oppoq oqarib ketgan, g'azabdan tutilib-tutilib gapirardi.

– Ablah! – deb ko'kragimdan itarib yubordi u. – Alam qilganidan dovon uchun qasd olyapsanmi? O'y-lama, sensiz, qahramonlarsiz ham ishlay olamiz!..

Men indamay turaverdim. Biron narsani tushun-tirib beradigan holim yo'q edi hozir. Jontoyning haddan tashqari surbetlarcha aytgan yolg'on-yashiq so'zlaridan shunchalik iztirobga tushgan edimki, hatto biron og'iz so'z aytolmay qoldim. O'rtoqlarim menga o'qrayib turishardi. Jontoy bo'lsa labidagi qonni tumog'l bilan artib, hamon o'kirardi.

Men mashinaga sakrab chiqdim-da, avtobazadan tashqariga haydar ketdim.

Yo'lda ichib oldim. Ta'bim juda xira edi. O'zim-ga nisbatan bo'lgan qahr-u g'azabni bartaraf eta olmas va so'nggi kunlarda bo'lib o'tgan hamma qilmishlarimni unuta olmas edim. Asalni eslasam, vijdon azobida yana qiyinalardim.

Dastlabki yo'l bo'yidagi magazinchalardan biriga kirib chiqdim, foydasi bo'lmadi, so'ngra yo'l-yo'lakay yana bir to'xtab, to'la stakanni paqqos urdim. Shundan keyingina sal yengillashdim. Ko'priklar, yo'l bo'yidagi belgilar va qarshidan ke-layotgan mashinalarga ko'z o'ngimdan lip-lip o'tib borardi. Ko'nglim ancha yorishgandek bo'ldi. «Eh! – deya o'ylardim o'zimcha. – Bo'lganicha bo'lar. Senga nima yetishmaydi, mashinangni haydar yuribsan, bo'ldi-da, Xadichaning bu ishlarga nima daxli bor, u senga nima yomonlik qildi, boshqalardan uning qayeri kam? Yoshgina, chiroyli, dilbar ayol bo'lsa. Seni jon-dilidan yaxshi ko'radi. Sen uchun har narsaga tayyor, sen bo'lsang, u haqida bo'lmag'ur turli xayol-larga borib yuribsan. Axir u bilan o'tkazgan tuning yomon bo'ldimi? Yaxshilikni bilmagan ahmoq!»

Kechqurun uyga qaytib keldim. Kalta po'stinimni bir kiftimga kiyib olganimcha, eshik oldida gandiraklab turibman: men ba'zan rulni boshqarish oson bo'lsin uchun o'ng yengimni yechib olardim. Bu bolaligimdan odat bo'lib qolgan, bolalar bilan tosh otib, kimo'zar o'ynaganimizda ham shunday qilardim...

Asal ko'zi tushishi bilan menga otildi. Ammo qay ahvoldaligimni ko'rib qo'rqb, hayron bo'lib turib qoldi.

– Sizga nima bo'ldi, Ilyos? – So'ngra gap nima-da ekanligini angladi shekilli: – Voy, nega turibsiz? Charchadingizmi,sovqotdingizmi? Qani, yechining! – dedi.

Asal yordamlashmoqchi bo'lib qo'lini cho'zdi, bi-roq churq etmasdan uning qo'lini o'zimdan nariga

surib qo'ydim. Nomus qilayotganimni qo'pollik bilan bekitishga to'g'ri keldi. Qoqinib-surilib borarkanman, nimanidir taraqlatib tenib yubordim-da, o'zimni gurs etib stulga tashladim.

– Biror narsa bo'ldimi, Ilyos? – dedi Asal menga yaqinlashib kelarkan, mast-alast ko'zlarimga tashvish bilan tikilib.

– Nima, sen hali bilmaysanmi? – deb boshimni quyi soldim; yaxshisi, uning yuziga qaramayin. Men, Asal hozir o'pkalab, taqdirdan noliy boshlaydi, deb kutib turardim. O'zimni oqlamay, har qancha koyisa ham tinglashga tayyor edim. Ammo u go'yo uyda yo'qdek churq etmasdi. Men sekkingina ko'z qirimni tashladim. Asal orqasini o'girgancha deraza yonida turardi. Garchand uning yuzini ko'rmayotgan bo'lsam ham iztirob chekayotganini va ko'zlarida yosh miltillab turganini sezdim. Unga juda rahmim kelib ketdi, yuragim ezila boshladi.

– Bilasanmi, Asal, men senga bir narsani aytmoqchi edim, – deb gap boshladim jur'atsizlik bilan. – Shuni aytmoqchimanki! – nafasim bo'g'zimga tiqilib ortiq so'zlay olmadim. Qilgan gunohimga iqror bo'lishga yuragim dov bermadi. Yo'q, u mendan buni hech qachon kutmagan, aytta olmayman. Unga rahmim kelgandi, ammo bekor qilgan ekanman. O'sha daqiqada o'zimni-o'zim yenga olmadim. – Biz, ehtimol, bu yaqin-orada sizlarnikiga, ovulga bora olmasak kerak, – deb gapni boshqa yoqqa burdim. – Keyinchalik vaqt-soati bilan borarmiz... Hozir bundan ko'ra zarurroq ishlar bor...

– Xo'p, mayli! Keyinroq borarmiz, shoshadigan joyi yo'q! – dedi Asal va ko'z yoshlarini artib oldimga keldi. – Hozir bu haqda o'ylamay qo'ya qoling, Ilyos. Hammasi yaxshi bo'lib ketadi. Yaxshisi, o'zingizni o'ylang. Juda o'zgarib qoldingiz. Sizni hech tushuna olmay qoldim, Ilyos.

– Xo‘p, bo‘pti! – deb uning gapini bo‘ldim, yuraksizlik qilib qo‘yganimdan jahlim chiqib. – Charchaganman, uyqum kelyapti.

Men yolg‘on-yashiq so‘zlarni yanada ko‘proq gapirib qo‘ymaslik, oradagi sof sevgi ko‘zgusiga dog‘ tushirib qo‘ymaslik uchun tezroq yotib uxlashim kerak edi. Asal ham uni-buni so‘rab boshimni qotirib o‘tirmasdi. Men voqeani bir boshdan oqizmay-tomizmay aytib bermoqchi bo‘lib, bir necha bor hozirlandim-u, biroq oradan vaqt o‘tgan sari iqror bo‘lishdan uzoqlasha bordim. Bilsam, hammasining o‘z mavridi – vaqt-soati bor ekan. Kayfim tarqalgach, bo‘lib o‘tgan voqealarni unga endi hech qachon ochiqchasiga gapirib bera olmasligimni tushundim. Nega bundayligini o‘zim ham bilmasdum.

Oradan bir kun o‘tgach, qaytishda dovonning nariji tomonida Alibekni uchratib qoldim. U pritsep bilan kelayotgan ekan. Do‘lan ishg‘ol etilgan edi.

Alibek meni ko‘ra solib, yurib kelayotgan yerida kabinaning o‘ng eshididan sakrab tushdi-da, qo‘l silkiy boshladи. Men tezlikni kamaytirdim. U yo‘lda behad xursand va g‘olibona turardi.

– Salom, Ilyos! Bu yoqqa chiq, chekishamiz! – deb qichqirdi u.

Men unga yaqinlashib tormoz berdim. Alibekning kabinasida yoshgina yigitcha – ikkinchi haydovchi o‘tirardi. Mashinaning g‘ildiraklariga zanjirlar o‘rab bog‘langan. Priseplarda pnevmatik tormoz. Buni men darhol payqagan edim. Biroq to‘xtamadim. Menga juda alam qilgan edi.

– Uddasidan chiqibsan – qoyil! Lekin meni tinch qo‘y.

– To‘xta, to‘xta! – deb Alibek orqamdan yugura boshladи. – Ishim bor, to‘xta, Ilyos! Eh, shayton, senga nima bo‘ldi?.. Xo‘p, mayli! O‘zing bilasan...

Men mashinani tezlatdim. Qichqirma. Bizning bir-birimizda hech qanday ishimiz yo‘q. Mening

ishim allaqachon rasvo bo'lgan. Yaxshi qilmadim, eng yaqin do'stim Alibekdan ajraldim. Axir u haq edi, hamma narsada haq edi, buni endi tushunib yetdim. Ammo o'sha paytda mening qanchalik asablarimni buzgan, qanchalik umrimni sarflagan narsaga u alam qilarli darajada juda tez va juda oddiy yo'l bilan erishganligini kechira olmasdim.

Alibek chuqur mulohazali va jiddiy yigit edi. U hech qachon dovonga menga o'xshab partizanlik qilib bormasdi ham. Bunaqangi harakatlar uning tabiatiga yot edi. Uning kuch-quvvati, e'tibori ham xuddi mana shunda edi. U mashinani sherik bilan birga haydab to'g'ri qildi. Ular mashinani yo'lda navbatma-navbat haydashlari, dovonni yangi kuchlar bilan qo'lg'a kiritishlari mumkin edi. Dovonda hal etuvchi narsa – motor, iroda va inson qollari. Buning ustiga, Alibek bilan sheringining manzilga borib kelishda bekor ketadigan vaqtı deyarli ikki marta qisqarar edi. Bularning hammasini u hisobga oldi, mashina kompressoridan pritsepgä bir vaqtda harakat qila oladigan tormoz o'rnatdi. U eng oddiy narsani – zanjirlarni ham unutmadi, ular bilan oldingi g'ildiraklarni tang'ib qo'ydi. Xullas, u faqat «ura» qichqirigi bilan emas, balki shay bo'lib, to'la qurollangan holda dovonga hujum qildi. Ana shu yo'sinda Do'landan mashinalar pritseplar bilan o'tadi-gan bo'lib qoldi.

Alibekdan keyin dovondan boshqalar ham pritseplar bilan yurishga kirisha boshlashdi. Hammasi emas, albatta, ammo odatdagidek har bir ishda ham asosiy narsa uning boshlanishida-da, axir. Bu orada mashinalarning soni ham ortib qolgandi, qo'shni avtobaza-dan yordam yuborishgandi. Bir yarim hafta davomida kecha-yu kunduz Tyan-Shan traktida mashinalar-ning guvillashi tinmadi. Xullas, qanchalik og'ir, qanchalik mashaqqatli bo'lmasin, biznikilar xitoylik ish-chilarning iltimosini belgilangan muddatda ado etish-

di, ularni uyaltirib qo'yishmadi. Men ham ko'pchilik qatori ishladim. Bularni, endi hamma ishlar iziga tushib, oradan shuncha yillar o'tib ketgandan keyingina aytyapman. O'sha qizg'In kunlarda esa men egarda hali mustahkam o'tira olmas va hayot otini ham unchalik boshqara olmasdim...

Dovon ortida Alibek bilan uchrashganimizdan so'ng avtobazaga kelganimda, kech kirib qolgan edi. Yotoqxonaga qarab yo'l oldim, ammo yo'l-yo'lakay markaziy ko'cha tomon burildim. Yana choyxona-ga. O'sha kunlarda mening hushdan ketguncha ichib, o'lgudek mast bo'lgim, loaqlal bir lahma bo'lsa ham hamma-hammasini unutib, toshdek qotib ux-lagim kelardi. Men o'zimni zo'r lab bo'lsa ham juda ko'p ichdim, ammo araq menga deyarli ta'sir etmadidi. Men choyxonadan battar xafa bo'lib, g'azabim qaynab chiqdim. Tun yarmida shaharchada daydib yurdim va nima qilayotganimni o'ylab o'tirmasdan Beregovaya ko'chasiga, Xadichanining uyiga qarab qayrildim. U ham meni kutib o'tirgan ekan.

Keyin ham ahvol ana shunday davom etaverdi. Men ikki olov o'rtasida qolgandim. Kunduzlari ishda, avtobazada qolgan kechalarim esa darrov Xadichanikiga yugurib qolardim. Oyog'im unikiga tortib turardi, u bilan o'zimni xotirjam va erkinroq his qilardim. U yerda go'yo o'zimdan, odamlardan va haqiqatdan yashiringandek bo'lardim. Nazarimda yolg'iz Xadichagina meni tushunadigandek va sevadigandek tuyilar-di. Uyimga kelganimda esa iloji boricha tezroq jo'nab qolishga harakat qilardim. Asal, aziz Asalginam! Agar u o'zining oq ko'ngilliliqi va sofdilligi bilan meni uydan tobora uzoqlashtirayotganini bilsa edi. U shu fazilatlari bilan meni tezroq ketish uchun bahona topishga majbur qilardi, chunki unga munosib emasligimni, men uchun u qilgan barcha narsalarga o'zimning sazovor emasligimni ko'ra-bila turib bu yerda ortiq

tura olmasdim. Men uyg'a bir necha bor mast bo'lib keldim. Ammo u biror marta ham ta'na qilmasdi. Ha-li-haligacha uning menga nisbatan shunday munosabatda bo'lganini tushuna olmayman: bo'shligi, irodasizligidanmi yoki aksincha, o'ta bardoshliliqi va insonga nisbatan ishonchi tufaylimi? Ha, u, albatta mening o'zimni qo'lga olishimni, muvaffaqiyatsizliklar ustidan g'olib kelishimni va yana avvalgi holimga qaytishimni kutar, bunga ishonar edi. Ammo undan ko'ra meni koyigani, bor haqiqatni vijdonan aytib berishga majbur etgani yaxshiroq edi. Ehtimol, Asal mening yuragimni o'rtab tirnayotgan narsalar faqat ishdagi ko'ngilsizliklarga emasligini bilganida, mendan javob talab qilgan bo'larmidi?.. U shu kecha-kunduzda mening hayotimda nimalar sodir bo'layotganini tasavvur eta olmasdi. Men esa unga juda achinardim, yurak sirlarimni ochishni doim galga solardim. Natijada, shu taxlitda ish ko'rib, uning oldida, muhabbatimiz oldida, oilamiz oldida bajarishim lozim bo'lgan burchimni ado etishga ulgura olmay qoldim.

So'nggi marta uchrashuvimizda Asal meni quvonch bilan, shavq-zavq bilan kutib oldi. Yuzlari gulgun ochilib, ko'zları tabassumdan porlar edi. U kalta po'stinim va etigimni yechirmsadanoq to'g'ri ichkariga sudradi.

- Buni qarang, Ilyos! Samad endi tippa-tik tur-yapti!
- Rostdanmi? Qani u?
- Huv ana – stol tagida!
- Polda emaklab yuribdi-ku!
- Mana hozir ko'rasisiz! Qani, o'g'lim, qanday turi-shingni dadangga bir ko'rsatib qo'y! Qani tur, tura qol, Samad!

Samad undan nima istayotganliklarini tushungandek bo'ldi. U stol ostidan quvonib emaklab chiqdi-da, karavot yonida to'xtadi, uni ushlab, zo'rg'a

tikka turdi. U jilmayib, nozik oyoqlarida biroz kakovlanib turdi-da, keyin o'shanday jilmayganicha «gup» etib polga o'tirib qoldi. Chonib borib, uni quchoqlab oldim-da, badanidan yoqimli sut hidi anqib turgan go'dakni bag'rimga bosdim. Xuddi Asal kabi naqadar qadrdon va aziz edi bu hid.

– Sekinroq, Ilyos, nafasi qaytib ketadi! – deb Asal quchog'imdan Samadni tortib oldi. – Xo'sh, endi nima deysiz? Qani, endi yechining. U tez kunda kattakon bo'lib qoladi, shunda oyisi ham ishga boradi. Hammasi o'rniga tushadi, hammasi yaxshi bo'lib ketadi, shundaymasmi, o'g'ilcham? Siz-chi, – deb Asal kulimsirab, ma'yus ko'zlari bilan menga boqdi. Men stulga o'tirdim. U o'zining mana shu bir og'iz so'zi bilan so'ngi kunlar ichi aytmoqchi bo'lib yurgan, lekin aytolmay yuragida saqlab kelayotgan barcha gaplarini bayon etganini payqadim. Bu so'zlarda iltijo ham, ta'na ham, umid ham mujassamlashgan edi. Men o'sha ondayoq unga bor gapni so'zlab berishim yoki tezroq bu yerdan chiqib ketishim zarur edi. Yaxshisi, keta qolay. U behad baxtiyor edi va hech narsadan shubhalanmasdi. Men o'rnimdan turdim.

– Men ketdim, – dedim.  
– Qayoqqa? – deya seskanib ketdi Asal. – Bugun ham qolmaysizmi? Loaqal choy ichib olsangiz-chi.  
– Ilojim yo'q. Ketishim kerak, – deb to'ng'illadim men. – O'zing bilasan, hozir ish juda qistov...

Yo'q, meni uydan haydayotgan narsa aslo ish emas edi. Vaholanki, yo'lga ertalab chiqishim kerak edi.

Qorong'ida mashina yoniga kelib, kabina o'rindig'iga o'zimni gurs etib tashladim va alamimdan ingrab yubordim, motorni yurgizish uchun kalitni o'z o'rniga tushira olmay, ancha vaqtgacha timirs-kilab o'tirdim. So'ngra yo'lga chiqdim, derazalarda miltillab turgan chiroqlar orqada qolib, to ko'zdan g'oyib bo'lguncha haydab bordim. Darada, ko'pri-

dan o'tishim bilanoq mashinani yo'ldan chetga burib, butazorda to'xtatib, chiroqlarini o'chirdim. Shu yerda tunashga ahd qildim. Chontagimdan papiros oldim. Gugurt qutisida bittagina gugurt cho'pi qolgan ekan. U lov etib yondi-yu, o'chib qoldi. Papirosni ham qutichaga qo'shib kabina oynasidan uloqtirib yubordim, boshimga kalta po'stinni tortib, oyoqlarimni yig'ishtir-ganimcha o'rindiqda bukchayib yotib qoldim.

Qop-qorong'i va bahaybat tog'lar ustida oy xiragna nur sochib turardi. Darada shamol hazin guvililar, ochilib turgan kabina eshigini u yoqdan bu yoqqa tebratar edi. U shamolda ohistagina g'ijirlardi. Kabinada yotar ekanman, o'zimning butunlay yakkayu yolg'izligimni, odamlardan, oilamdan va avtobazadagi o'rtoqlarimdan ajralib qolganligimni hali hech qachon hozirgidek chuqurroq sezmagan edim. Bundan buyon bu taxlitda hayot kechirish mumkin emas edi. O'zimga-o'zim so'z berdim: safardan avtobazaga qaytib kelishim bilanoq, Xadicha bilan gaplashaman, undan meni kechirishini, ikkovimiz o'rtamizda bo'lib o'tgan hamma narsalarni unutishini iltimos qilaman. Shunday qilsam, vijdonan haqqoniy va to'g'ri ish tutgan bo'laman.

Biroq hayot bu fikrimni boshqachasiga hal etdi. Men shunday bo'lishini hech qachon o'ylamagan va kutmagan edim. Oradan bir kun o'tgach, ertalab dovondagi bazaga yetib kelganimda, uyda hech kim yo'q edi. Eshik langillab ochilib yotardi. Dastlab Asal biron yoqqa: suvgami, o'tingami chiqqan bo'lsa kerak, deb o'yladim. U yoq bu yoqqa qaradim. Xonda hamma narsa ivirsib yotardi. Olov yoqilmagan, qora pechkadan qandaydir yoqimsiz sovuq urib turar, uy huvillab yotardi. Samadning karavoti yoniga bordim – bo'm-bo'sh.

– Asal! – deb shivirladim dahshat aralash.

«Asal!» – deb shivirlab aks sado berdi devorlar. Men eshikka o'qdek otolib chiqdim.

– Asal! – deb qichqirdim hovlida turib. Hech kim javob qilmadi. Qo‘ni-qo‘snilarimiznikiga yugurdim, yoqilg‘i shoxobchasiga chonib bordim, hech kimdan aniqroq javob ololmadim. Odamlarning aytishi-chi, kecha bolasini tanishlarinikida qoldirib, o‘zi kun bo‘yi qayoqqadir ketibdi va tunda qaytib kelib-di. «U voqeadan xabar tonib ketib qolgan!» – degan dahshatli xayoldan cho‘chib ketdim.

Umrimda hali hech qachon Tyan-Shan tog‘lari dan mashinani o‘sha, men uchun baxtsiz bo‘lgan kundagidek tez haydamagan bo‘lsam kerak. Men nuqlu qayerdadir anavi muyilishdan keyin yoki anavi darada, yoki yana qayerdadir yo‘lda unga yetib oladigandek bo‘laverdim. Go‘yo burgutdek parvoz qilib, ketib borayotgan mashinalarni quvib yetardim va ularga yonma-yon kelib mashinaga tormoz berardim-da, kabina va kuzovlarga ko‘z yogurtirib chiqib, haydovchilarning so‘kish-koyishlari ostida mashinani yana ilgarilab yeldirib borardim. Men shu vaziyatda radiatordagi suv qaynab ketmaguncha uch soatlar chamasi mashinani beto‘xtov yeldek uchirib haydadim. Kabinadan sakrab tushdim-da, radiator ustiga qor socha boshladim, so‘ngra yo‘l yoqasidagi pastlikdan suv olib chiqqani yugurdim. Suvni darghol quydim. Radiatordan bug‘ ko‘tarilar, mashina esa poygadan chiqqan otdek ufurardi. Rulga endi o‘tirmoqchi ham edimki, Alibekning qarshidan keelayotgan avtopritsepiga ko‘zim tushib qoldi. Quvonib ketdim. Garchand biz gaplashmay, salomlashmay yurgan bo‘sak ham mabodo Asal ularnikida bo‘lsa, baribir u buni menga aytishi kerak-ku. Men yo‘lga yugurib chiqib, qo‘limni ko‘tardim-da:

– To‘xta, to‘xta, Alibek! To‘xta! – deb qichqirdim.

Rulni boshqarib borayotgan navbatchi yigit Alibekka savol nazari bilan qaradi. Alibek esa xo‘mray-ganicha teskari burilib oldi. Mashina to‘xtamasdan

o'tib ketdi. Mashina g'ildiraklaridan ko'tarilgan qor to'zoni orasida qolib, ancha vaqtgacha qo'limni ko'targancha turib qoldim. So'ngra yuzimni artdim. Mayli, olmoqning bermog'i bor-ku, axir! Biroq hozir undan xafa bo'ladigan darajada emas edim. Demak, Asal ularnikiga bormapti. Bu ko'nglimni battarroq g'ash qila boshladi. U o'z ovuliga ketgan bo'lsa kerak, boshqa boradigan joyi yo'q. U ota-onasi oldiga qaysi yuz bilan bordiykin va nima dedi ekan ularga?

Tezda ovulga jo'nashim kerak.

Yukni tushirgach, avtobaza hovlisiga kirib o'tirmadim. Mashinani ko'chada qoldirib, hujjatlarni topshirish uchun dispatcherxonaga yugurib ketdim. Borayotib yo'lakda Jontoy bilan to'qnashib qoldim. Uning yonidan o'tib ketdim, u bo'lsa ortimdan jirkanch va hayosizlarcha tirjayib qoldi.

Halloslab dispatcherxonanining tuynukchasiga boshimni suqdim-da, Xadichanining oldiga yo'llanmani tashladim. U menga g'alati qilib bir qarab qo'ydi. Uning ko'zlaridan qandaydir bezovtalik va o'zini gunohkordek his qilayotganligi nogoh sezilib ketdi.

– Tezroq olsang-chi! – dedim men.

– Biron nima bo'ldimi?

– Asal... uyda yo'q, ketib qolibdi!

– Rostdanmi? – dedi ranglari oppoq oqarib ketgan Xadicha va o'rnidan turdi-da, lablarini tishlab: – Kechir, kechir meni, Ilyos! Hammasiga men, men... – deya boshladi.

– Nimaga men-menlab qolding! Tushuntiribroq gapirsang-chi, qani, ayt barini! – deb dispatcherxonanining eshigiga qarab otildim.

– Bularning hammasi qanday bo'lganini o'zim ham bilmay qoldim, gaplarim rost, Ilyos. Kecha yo'lakda turuvchi qorovul tuynuk eshikchasiini taqillatib, bir qiz kelib, seni so'rayapti, dedi. Qorovul uni bu yerga chaqirdi-da, o'zi chiqib ketdi. Men uni darhol tani-

dim. U jimgina menga tikilib qaradi: «Shular hammasi rostmi?» – deb so'radi. Men, men esa dovdirab qolib, qo'qqisdan: «Ha, rost. Hammasi rost. U men bilan birga!» – deb yuboribman. U cho'chib ketib, tuyrukchadan boshini shartta tortib oldi. Men esa boshimni stolga shilq etib tashlaganimcha, jinnilariga o'xshab: «Meniki u! Meniki!» – deb ho'ngrab yig'lab yubordim. U dahlizdan yugurib chiqib ketdi, keyin uni ko'rmadim... Kechir meni...

- Shoshma-shoshma. U qayoqdan bildiykin?
- Jontoy aytgan. O'sha, u menga ham do'q qilib yurardi. Uning ablahligini bilmaysanmi axir!
- Bilaman. Biroq u bu gal haqiqatni aytibdi.
- Sen, Ilyos, bor, uni qidirib top. Men endi sizlarga xalaqit bermayman. Biron yoqqa bosh olib ketaman.

Mashina meni qishki cho'l bag'ridan olib borardi. Yo'lni qalin, ko'kimir muz qoplab yotardi. Shamol qor uyumlarining yo'llarini tarab, ariq bo'yalaridagi qorlarni quyun qilib uchirib, o'zi bilan olis-olislarga olib ketardi. Uzoqdagi tog' etaklarida shamolda nuragan devorlar va yaproqlari to'kilib ship-shiydam bo'lib qolgan ovul bog'lari elas-elas qorayib turardi.

Kolxzogda kechqurun yetib keldim. Mashinani menga tanish bo'lgan xonodon oldiga kelib to'xtatdim, nafasimni rostlab olish uchun papiro tutatdim, so'ng uning qoldig'ini o'chirib tashladim-da, signal bera boshladim. Ammo Asal o'mniga yelkasiga po'stin tashlab olgan onasi chiqdi. Men kabina eshigini ochib, zinaga tushdim va sekingina:

- Salom, opa! – dedim.
- Ha-a, senmiding! – deb g'azab bilan javob qildi u.
- Qilar ishni qilib qo'yib, tag'in meni opa deyishga qanday tiling bordi? Yo'qol bu yerdan, basharang qursin. Sayoq, muttaham, lo'li! Bolamning bosh-ko'zini aylantirib olib qochibdi-da, yana uyalmay-netmay burnini tortib kelganini qara-ya! Benomus! El-yurt oldida sharmandayi sharmisor qilding...

Ayol og'iz ochirgani qo'ymasdi. U meni og'ziga kelgan achchiq so'zlar bilan tinmay qarg'ar edi. Uning baqiriq-chaqirig'ini eshitib, qo'shni hovlilardan erkak-ayollar va bolalar to'plana boshladilar.

– Xaloyiqni chaqirmasimdan, bu yerdan tuyog'ingni shiqillatib qol! Basharang qursin, turqingni sira ko'rmayin! – g'azabga to'lgan ona po'stinini yerga uloqtirib tashladi-da, menga tomon xezlab kela boshladi.

– Hoy, yaxshilikcha jo'nab qol bu yerdan! – dedi allaqanday bir kishi yo'lga tomon qo'lini ishora qilib dag'dag'a bilan.

Yo'lga tushishdan boshqa iloj qolmagan edi. Axir meni Asal hatto ko'rishni ham istamagandan keyin ketish kerak edi-da. Mashinamga tosh va tayoqlar otila boshladi. Bolalar meni ovuldan ana shunday haydab qolishdi. Nega shunday qilishdi ekan? Eh-timol, ular meni bu ayolni haqorat qilib, xafa qilgan deb o'ylashdimikin? Yoki biron kallakesar deb o'ylashgan bo'lsa kerak...

O'sha tuni ko'l bo'yida uzoq daydib yurdim. Oy nurida jilolanayotgan ko'l to'lqin urib, o'zini qo'yishga joy topa olmasdi. O', Issiqko'l, mangu qaynoq ko'l! O'sha tun muzdek sovuq eding, iltifotsizlik bilan qarshi olgan eding. Men to'ntarilib yotgan qayiq ustida o'tirardim. Qirg'oqdagi sayozliklar sari o'rkach-o'rkach bo'lib yopirilib kelayotgan to'lqinlar zarb bilan etiklarimning qo'njiga urilar va pishqirib yana orqaga qaytar edilar.

So'ng allakim menga yaqinlashib keldi-da, yelkamga sekingina qo'lini qo'ydi. Bu Xadicha edi.

\* \* \*

Bir necha kundan keyin biz birga Frunze shahriga jo'nab ketdik. Anorxoy dashti yaylovlarini o'zlashtirish bo'yicha qidiruv ishlari olib borayot-

gan ekspeditsiyaga men haydovchi, Xadicha ishchi bo'lib joylashdik. Mana shunday qilib yangi hayot boshlandi.

Ekspeditsiya bilan birgalikda Anorxoy cho'lining ichkarisiga, naq Baxash bo'ylarigacha yetib bordik. Agarda undan ham olislarga borib qolganimizda ham baribir, orqaga qaytmagan bo'lardim. O'tmish bilan aloqani uzadigan bo'lgandan keyin bir umrga uzmoq kerak.

Dastlabki paytlarda dard-alamimni ish bilan yengdim. Ish esa istagancha topilardi. Uch yildan ortiqroq vaqt ichida butun Anorxoy dashtini kezib chiqdik, quduqlar qazidik, yo'llar o'tkazdik, yo'l ustida bazalar qurdik. Xullas, hozirgi Anorxoy baland-past adirlardan iborat bo'lib, yovshan bilan qoplanib yotgan va hatto kishi kuppa-kunduzi adashib, boshi va oyog'i qayoqda ekanligini topa olmay haftalab, oylab tentirab yuradigan ilgarigi yovvoyi dasht emas. Hozir u yerlar madaniy dam olish joylari, uylar va qo'sharlari bo'lgan chorvadorlar o'lkasiga aylangan. Don ekishadi, hatto chorva uchun pichan tayyorlashadi. To'g'ri, hali Anorxoya qo'l urilmagan ishlar ko'p, biz haydovchilarni bo'lsa qo'yavering, ularning ishi hamma vaqt boshidan ortib yotadi. Biroq men u yerdan qaytib keldim. Hali ko'p yerlari noobod, odamlar kam yashaydigan dashtda yashash og'irligidan yoki bo'ronli qishda, yo'siz cho'lda tentirab yurish qiyin bo'lganligi uchun emas. Bu qiyinchiliklarning bari vaqtinchalik narsa, albatta. Agar inson mustahkam ornashib olsa, cho'lni o'ziga bo'ysundira oladi, u yerga o'zi ham ko'nikib qoladi, cho'lni ham o'ziga moslashtira oladi. Xadicha ikkimiz qiyinchiliklardan qo'rmasdik, turmushimiz ham yomon emas edi, bir-birimizni hurmat qilardik. Ammo hurmat boshqa-yu, muhabbat boshqa. Agar biri sevib, ikkinchisi sevmasa, unda bu ham, menimcha, ko'ngildagidek haqiqiy turmush bo'lolmaydi. Yo

inson o'zi shunday tuzilganmi, yo faqat men tabiatan shunaqamanmi, bilolmadim, harqalay, menga doimo bir narsa yetishmasdi, uning o'rnini ish bilan ham, do'stlik bilan ham, seni sevguvchi ayolga nisbatan e'tibor va g'amxo'rлиging bilan ham almashtirib yoki o'rnini to'ldirib bo'lmasdi. Men Asalning oldiga borishga yana bir bor urinib ko'rmay, shoshma-shosharlik qilib ketib qolganim uchun ko'pdan beri ich-ichimdan o'kinib yurardim. Anorxoyda o'tkazgan keyingi yarim yil mobaynida bo'lsa Asal va o'g'ilchamni sog'inib yurakbag'rim ezilib ketdi. Tunlari uxmlay olmay chiqardim. Samadning kulib, nozik oyoqchalarida zo'rg'a tik turgani ko'zimga ko'rinaraverardi. Uning iliq tafti va go'dak-larga xos mayin hidini go'yo butun umrga singdirib olgandayman. Qadrdon Tyan-Shan tog'lari, mavjlanib yotgan moviy Issiqko'l, ilk va so'nggi muhabbatimni topgan tog' etaklaridagi jonajon dashtlar meni o'ziga tortardi. Xadicha bularning hammasini bilardi, biroq men uni hech narsada ayblamaganimdek, u ham meni biron narsada ayblamas edi. Nega ham ayblardik? Biz birga yashay olmasligimizni nihoyat tushungan edik.

O'sha yili Anorxoya bahor erta keldi. Adirlarni qoplab yotgan qorlar tezda erib, kunlar isib, o't-o'lanlar ko'kara boshladi. Dashtga jon kira bordi, u isiqlik va namlikni emib bug'lanib yotardi. Tunlari havo shishadek musaffo bo'lar, osmonda yulduzlar charaqlardi.

Biz parmalash minorasi yonidagi chodirda yotgan edik. Har vaqtdagidek uyqu kelmasdi. Kutilmagan-da allaqayoqlardan parovozning qichqirgan ovozi zo'r-bazo'r eshitilib, cho'l sukunatini buzdi. Uning bu tomonlarga qay tarzda yetib kelganini aytish qiyin. Qozoq temir yo'li bizdan dasht bo'ylab yarim kunlik yo'l narida. Yoki menga bu tovush shunchaki eshitilgandek bo'ldimi, bilolmayman. Biroq yuragim «jiz» etib ketdi. U meni yo'lga chorlardi. Shunda men:

- Bu yerdan ketaman, Xadicha, – dedim.
- To'g'ri, Ilyos. Ajralishimiz kerak, – dedi u.

Biz ajralishdik. Xadicha Shimoliy Qozog'istonga, qo'riq yerkarga jo'nab ketdi. Eh, Xudo, uning baxtiyor bo'lishini chin yurakdan istardim. Men Xadichaning ko'nglidagi odamini topishiga, balki o'zi ham sezmay-bilmay turib uni izlab yurgan yigit bilan uchrashishiga ishongim kelardi. U birinchi eridan yollchimadi. Unga ko'ngilsiz bo'lib, ajralishib ketdi. Shuningdek, men bilan ham o'z baxtini topolmadi. Agar men haqiqiy, chinakam sevgi nima ekanligini, sevish va sevilishning ma'nosini to'la anglab yetmaganimda, ehtimol, u bilan turmush qurib ketgan bo'lar edimmi?.. Darvoqe bu shunaqangi narsaki, uning nega bunday bo'lishi kerag-u, unga o'zgacha bo'lishi mumkin emasligini izohlashga ojizlik qilib qolasan kishi.

Xadichani stansiyagacha olib borib, poyezdga o'tqazib yubordim va to orqada qolib ketmagunimcha vagon bilan yonma-yon chonib boraverdim. «Safaring xayrli bo'ssin. Xadicha, oramizda o'tgan yaxshi-yomonni unut!» – deb shivirlab qoldim so'nggi marta.

Turnalar Anorxoy osmonidan janubga tomon uchib borardi, men esa shimolga, Tyan-Shan tomon borardim...

\* \* \*

Manzilga yetib keldim-u hech qayerda to'xtamasdan, to'ppa-to'g'ri ovulga jo'nadim. Jomadonimni rayon mehmonxonasida qoldirdim. Yo'lovchi mashina ham juda qulay kelib qoldi: u tog'ga, geolog-razvedkachilar huzuriga ketayotgan ekan. Men kuzovda borar ekanman, hech narsa haqida o'yamaslikka urindim, butun vujudimni bir vaqtida ham qo'rqinch, ham quvonch chulg'ab olgan edi. Biz tog' etagidagi dasht yo'lidan, Asal bilan uchrashgan o'sha qadrdon yo'lidan ketayotgan edik. Ammo u endi

ilgarigi torgina qishloq yo'li emas, balki shag'al yotqizilgan, beton ko'priklari va yo'l belgilariga ega bo'lgan keng va tep-tekis ko'cha bo'lib ketibdi. Men hatto avvalgi od-diy yo'ldan asar qolmaganiga biroz achingandek bo'ldim. Mashinam tiqilib qolgan ariqni, Asal o'tirgan o'sha xarsang toshni ham taniyolmay qoldim.

Ovulga yetmasdanoq kabina tepasini qoqa boshladim.

– Nima gap? – deb boshini chiqarib so'radi haydovchi.

– To'xtat, tushaman.

– O'rta yolda-ya? Hozir yetamiz-ku.

– Rahmat! Yaqin qoldi, – deb mashinadan yerga sakrab tushdim. – Bu yog'iga piyoda bora qolarman.

– U mening qayoqqa va nega kelayotganimni qayoqdan bilsin. Pul uzatdim.

– Qo'y! – dedi u. – Haydovchilardan, hamkasblardan olmaymiz.

– Ushla buni, haydovchiligidem peshanamga yozib qo'yilgani yo'q-ku.

– Yurish-turishingdan sezib turibman.

– Xo'p, mayli, ketaver bo'lmasa, salomat bo'l!

Mashina yo'nga tushdi, u hovlilar ortidagi ko'chaga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Men esa es-hushimni yig'ishtirolmay hamon yo'l ustida turardim. Shamolga chap berib sigareta tutatdim. Sigaretani labimga kelтирар еканман, бармоqlарим dir-dir titrardi. Bir necha bor bosib-bosib, ichimga tortdim-da, so'ngra g'ildirak iziga tashlab toptab, yo'nga ravona bo'ldim. «Mana, yetib ham keldim», deb g'oldiradim o'z-o'zimga. Boshqa aytadigan gapim ham yo'q edi. Yuragim fikr-xayollarimni bosib ketmoqchidek gurs-gurs urar, go'yo bir narsani bolg'alayotgandek qulog'im shang'llardi.

Ovul ajabtovur o'zgarib, xiyla kengayib qolibdi, yangidan solingan ko'pgina shifer tomli binolar paydo bo'libdi. Ko'chalarga simyog'ochlar o'rnat-

lib, simlar tortilibdi, kolxoz boshqarmasi binosi oldidagi simyog'ochda radio gapirardi. Bolalar mактабга chopqillab ketishyapti. Ulardan sal kattaroq bolalar esa universitetni bitirgan yosh o'qituvchilari bilan (bu ko'kragidagi znachogidan ko'rнib turardi) bir gala bo'lishib, allanimalar haqida o'zaro gaplashib bori-shardi. Ehtimol, ularning orasida menga tosh va tayoqlar otib qolgan bolalar ham bordir. Mayli, hechqisi yo'q, o'sha kezlarda hali ular yosh bola emasmidi.

Garchand meni bu yerda hech kim tanimasa ham, birov sezib qolmasin deb, ko'chaning bir chekkasidan shoshib borardim.

Mana o'sha sambittolli va paxsa devorli hovli. To'xtab, nafasimni rostladim. Qo'rquv va tashvishdan badanim muzlab, ko'cha eshigi tomon qat'iyatsizlik bilan yurib boraverdim. Taqillatdim. Qo'lida portfel ko'targan qiz chonib chiqdi. Bu – menga tilini ko'rsatib qochgan o'sha qizcha edi. Endi u mактабга boradigan bo'lib qolibdi. Qiz shoshilib turardi. U menga hayron bo'lib qaradi-da:

- Uyimizda hech kim yo'q! – dedi.
- Hech kim yo'q?
- Ha, oyim lesxozga mehmon bo'lib ketdi... Dadam traktorlarga suv tashiyapti.
- Asal-chi, qayerda u? – deb qo'rqa-pisa so'rading-u shu zahotyoq og'zim qaqrab ketayotganini sezdim.
- Asal? – deb ajablandi qiz. – Asal allaqachon ketib qolgan...
- Keyin hech kelmadimi?
- Har yili pochcham bilan birga keladi. Oyim uni juda yaxshi kishi deb maqtaydi.

Qizdan bo'lak hech narsa haqida surishtirib o'tirmadim. U mактабига chonib ketdi, men esa orqaga qaytdim.

Bu yangilik meni shu qadar dovdiratib qo'ydiki, uning kimga va qachon turmushga chiqqani endi

menga baribir edi. Bilib nima ham qildim? Biroq o'tgan yillar orasida nima uchundir Asal boshqa birovga turmushga chiqib ketgandir, degan fikr hech qachon xayolimga ham kelmagan edi. Axir shunday bo'lishi ham mumkin edi-ku. Hech qanday dom-daraksiz bir necha yillar qoramni ko'rsatmay ketganidan keyin, hammani qo'yib meni kutib o'tirarmidi...

Ovuldan chiqiboq, hech qanday mashinani kutib o'tirmasdan, to'g'ri yo'l yoqalab ketaverdim. Agar biror mashina quvib yetganida ham uni to'xtatmas edim. Harqalay, biron yoqqa yurishim kerak edi, qayoqqa bo'lsa ham – dunyoning narigi chekkasiga bo'lsa ham menga baribir edi endi.

Men bir vaqtlar Asalni olib ketgan yo'ldan borardim. Ammo yo'l burungicha emas – yaxshilab shibbalanib, shag'al yotqizilgandi, faqat dashtgina ilgarigicha: atrofda qop-qora shudgor-u o'rib olingandan keyin qolgan sarg'ish poyalar ko'zga tashlanardi. Bepoyon dasht issiqko'lning nurli hoshiyadek ajralib turgan uzoq qirg'oqlarini yorib kirib, tog' yon bag'irlaridan tortib to ufqqa qadar yastanib yotardi. Qorlar erib, yalang'ochlanib qolgan yer namga to'yib ko'pchib yotardi. Allaqayoqlarda traktorlar tarillab, bahorgi shudgorlash boshlab yuborilganidan darak berardi.

Rosa xuftonda rayonga yetib keldim, tunni mehmonxonada bir amallab o'tkazdim-da, ertalab avtobazaga borishga ahd qildim.

Qayoqqadir, o'zga o'lkalarga ketishdan endi foya-da yo'q edi. Hamma orzu-istiklarim barbod bo'lib, hammasidan mahrum bo'lgan edim. Endi shunchaki yashash-u ishlashdan o'zga iloj qolmagan edi – u yog'i nima bo'lishini kim bilsin.

Tyan-Shan traktidan mashinalar odatdagidek turnaqator tizilishib u yoqdan bu yoqqa qatnab turardi, biroq men o'zimizning avtobaza mashinalariдан birontasida ketishni ma'qul ko'rdim. Mana,

tanish mashinalardan biri yaqinlashib kelmoqda. Qo'l ko'tardim.

Kabinada o'tirgan haydovchi hadeganda meni payqamay qoldi. Katta tezlik bilan kelayotgan mashi-na g'izillab o'tib ketdi-yu, biroq shu zahotiyoy taqqa to'xtadi. Men jomadonimni qo'lga oldim. Haydovchi kabinadan chiqdi. Bunday qarasam, polkdoshim Ermak, u amaliyotni armiyada mening qo'limda o'tagan edi. Ermak o'sha kezlarda hali yoshgina yigitcha edi. U menga qarab jimgina jilmayib turardi.

– Tanimayapsanmi?

– Serjant... Ilyos! Ilyos Aliboyev! – Nihoyat esladidi u.

– Xuddi o'zi! – deb iljaydim-u, ammo o'zimga juda alam qilib ketdi, odamlar zo'r-bazo'r tanigandan keyin, juda o'zgarib ketibman-da.

Biz yo'lga tushdik. U yoqdan bu yoqdan gaplashib bordik, armiyada xizmat qilgan yillarimizni esladik. Ishqilib, mening turmushim haqida gap ochib, surishtirib qolmasa bo'lgani, deb cho'chib turardim. Ammo Ermak, aftidan, hech narsadan xabarsizdek ko'rinaridi. Men biroz tinchlandim.

– Uyga qachon qaytding? – deb so'radim men.

– Ishlayotganimga mana ikki yil bo'ldi.

– Alibek Jonturin qayerda?

– Bilmadim. Men kelsam, u ketib qolgan ekan. Aytishlaricha, Pomirning allaqayeridagi avtobazada bosh mexanik bo'lib ishlayotgan emish.

«Qoyilman, Alibek! Qoyilman senga, do'stim! Puxta yigitsan!» – deb undan behad xursand bo'ldim. Demak, oxiri o'z maqsadiga erishibdi-da, u armiyada xizmat qilib yurgan kezlaridayoq avtomobil va yo'llar bilim yurtida sirtdan o'qib yurgan edi. U institutni ham sirtdan tugatishni orzu qilib yurardi.

– Boshliqlaring Omonjo'lovmi?

– Yo'q, yangi odam. Omonjo'lov ministrlilikka ko'tarilib ketdi.

- Seningcha, qalay, meni ishga olisharmikin?
- Nega endi olishmasakan, olishadi, albatta.

Birinchi klass haydovchisan, axir armiyada ham yaxshilar qatorida eding-ku.

- Qachonlardir shunday edim, - deb to'ng'llladim men. - Jontoyni-chi, bilasanmi uni?

- Bizda unaqa odam yo'q. Hech qachon eshitma-ganman ham.

«Ha, avtobazada oz muncha o'zgarishlar bo'lmapti...» - deb xayolimdan o'tkazdim. Keyin so'radim:

- Pritseplar bilan ishlash qalay? Dovondan olib o'tyapsizlarmi?

- Ha, bemalol o'tib yuribmiz, - dedi u e'tiborsizgina. - Yukning qanaqaligiga bog'liq. Zarur bo'lsa tirkab olishadi-yu, ketishaveradi. Hozir mashinalar juda baquvvat emasmi...

Bu pritseplar menga naqadar qimmatga tushganini u bilmasdi. Anorxoy dashtida ishlab yurgan kezlarimda ham bu hodisa haqida ko'p bosh qotirdim. Bu ishda birgina men aybdormanmi yoki yana qandaydir bo'lak sabablar ham bormikin? Agar bunday o'ylab qaralsa, bu juda oddiy, uncha bosh qotirib o'tiradigan ish emas edi. Qanchalik og'ir va qanchalik qiyin bo'lmasin, Do'landan pritsep ulab o'tish mumkin ekanligi oxiri isbotlandi-ku, endilikda, agar zaruriyat tug'ilib qolsa, bemalol olib o'tilyapti-ku. Ammo bari balo shundaki, biror yangilik o'zining ishda qo'llanilishini talab etayotgandek, eshicingni qoqib turgan taqdirda ham o'z vaqtida sezib ololmaymiz. Nega odamlar mening taklifimga shunchalik ishonchsizlik bilan qarashdi? Bu taklifni tog' sharoitida amalga oshirish haqiqatan ham qiyinligidan tashqari, yana bizning trassada mashinalardan foydalanish va yuk tashish qonun-qoidalari instruksiyasi ham bor edi, unda dovondan pritsep ulab o'tish man etilgandi. Xudo biladi, bu instruksiya qachon ishlab chiqilgan ekan.

Ehtimol, urushdan avval polutorkalarga moslab tuzilgandir. Bu bechora polutorka pritsep u yoqda tursin, hatto o'zi tep-tekis yo'ldan arang yurardi. Endilikda hech qanday instruksiyaning hojati yo'q edi. Yangi markali, juda baquvvat zamonaviy yuk mashinalari vujudga keldi-yu, ammo qog'ozdagi narsalar esa to hayotning o'zi o'chirib tashlamaguncha eskiligicha saqlanib kelaverdi. Mayli, bu kichkina va alohida bir masala, deylik, biroq shunga o'xshash narsalar boshqa, yanada muhimroq va yanada kat-taroq ishlarda yuz berib qolishi mumkin-ku, axir. Endi-ku, o'rtoqlarimning yuk ortish stansiyasi-dagi beodobligim uchun salkam do'pposlamoqchi bo'lganlaridan xafa emasman-a. Lekin o'sha vaqtda xuddi ana shu narsa mening jahlim chiqib ketishiga va qiziq ustida hech narsani o'ylab o'tirmay, pritsepni dovonga olib ketishimga sabab bo'lgan edi-da...

Xullas, o'zimning qadrdon avtobazama qaytdim. Birinchi kuni Ermak o'z uyiga taklif qildi. Yaxshigina kutib oldi. Uchrashganligimiz sharafiga biroz ichamiz, dedi. Ammo men ichmadim, ko'pdan beri ichmasdim, ichish niyatim ham yo'q edi.

Avtobazada ham yaxshigina kutib olishdi. Ishga qabul qilishdi, yotoqxonada yashay boshladim. Meni taniydigan oshna-og'aynilarimning jig'imga tegib, uni-buni so'rab-surishtiravermaganlaridan juda xursand bo'ldim. Ko'rib turibdilarki, bir kim-sa qayoqlardadir tentirab yurib, yana o'z o'rtoqlari huzuriga qaytib kelib, vijdonan halol ishlayapti – juda yaxshi. O'tgan ishni qo'zg'ashning nima hojati bor? O'zim ham hammasini unutishga, bir umrga unutishga harakat qilardim. Men bir vaqtlar oilam bilan yashab turgan o'sha dovondagi baza oldidan o'tib borayotib, atrofga nazar tashlamay, hatto yo-qilg'i shoxobchasidan benzin ham olmay, g'izillaganimcha o'tib ketardim. U yerda bir daqiqa bo'lsa

ham ushlanib qolmaslik uchun to'xtamasdan chetlab o'tardim. Ammo baribir meni hech narsa qutqara olmadi, o'zimni o'zim alday olmadim.

Avtobazaga qaytganimga ham ancha vaqt bo'ldi. Trassa meni o'ziga jalg etib oldi, unga yana ko'nikib qoldim. Mashinani har ohangga solib haydardim, motorni barcha tezliklarda va balandliklarga chiqishda sinab ko'rdim. Qisqasi, o'z ishimni bilardim va unga sho'ng'ib ketdim.

O'sha kuni Xitoydan qaytib kelayotgan edim. Bamaylixotir, hech narsani o'ylamay papiros chekib, rul chambaragini aylantirgancha, har tomonga nazar tashlab kelardim. Ayni bahor, tevarak-atrof kishini o'ziga maftun etardi. U yer bu yerga o'tovlar tikilayotgan edi: chorvadorlar bahorgi yaylovlarga chiqishayotgan edilar. O'tovlar uzra ko'tarilgan ko'kish tutunlar ko'kka bo'y cho'zishardi. Shamol bezovtalanib kishnayotgan ot ovozini olib keldi. Qo'y-qo'zilar yo'l yoqasida o'tlab yurishardi. Bolalik chog'larim esimga tushib ketdi, ko'nglim xiyol g'ash tortdi... Ko'lga yaqinlashib qolganimni bilaman, birdan cho'chib, seskanib ketdim: oqqushlar!

Shu bilan hayotimda ikkinchi marta Issiqko'lda bahorgi oqqushlarni ko'rishim edi. Ko'm-ko'k Issiqko'l uzra oppoq qushlar gir aylanishib parvoz qilishardi. To'g'ri borayotib, nimagaligini o'zim ham bilmay, mashinani yo'ldan keskin burdim-da, xuddi o'tgan safargidek, qo'riq yerni kesib, ko'lga tomon hayday boshladim.

O', Issiqko'l, Issiqko'l, qirg'iz diyorining so'nmas qo'shig'i! Nega men yana o'sha kunni, Asal bilan suv bo'yida, tepalikda to'xtagan kunni esladim-a! Ha, hozir ham hammasi avvalgidek: oq-ko'kish to'lqinlar go'yo qo'l ushlashib olganday saf tortishib o'rkarach-o'rkarach bo'lib, sarg'ish qirg'oqlarga mingashar edilar. Yotog'iga yo'l olgan quyosh tog'lar ortiga as-

ta-sekin botib bormoqda, etakdagi suvlar esa qon talashgandek qizg'ish tusda tovlanardi. Oqqushlar tantanavor chag'illashib charx urishardi. Ular bir-dan qanot qoqib yuqoriga parvoz qilardilar-u yana qanotlarini yozib chuvillab pastga suzib tushar, suvga to'sh urib, qat-qat halqachalar hosil qilardilar. Ha, hamma-hammasi ayni o'sha manzaraning o'zi-yu, ammo yonimda Asal yo'q edi, xolos.

Hozir qayerlarda yuribsan, qizil durrachali sarv-qomatim?

Ko'l bo'yida allamahalgacha qolib ketdim. Keyin avtobazaga qaytib keldim, undan chiqib sabr-toqatim tugab, kayfiyatim tag'in buzila boshladi. Yuragimda qo'zg'algan dard-alamlarni bosish uchun yana choyxonaga bordim. Choyxonadan juda kech qaytdim. Atrof qop-qorong'i, osmonni bulut qoplagan edi. Quvurdan otlib chiqayotgandek daradan guvillab esayotgan kuchli shamol quturib daraxtlar qaddini egib-bukar, simyog'ochlardagi simlarga urilib chuvillar va mayda toshlarni kishi yuziga keltirib urar edi. Ko'l esa chayqalib to'lg'anardi. Men yotoqxonaga zo'r-bazo'r yetib oldim-u yechinib o'tirmasdan o'zimni karavotga tashladim.

Ertalab boshimni ko'tara olmasdim, sirqirab og'rirdi. Tashqarida yurakni siquvchi qor aralash yomg'ir shivalab yog'ardi. Ishga borishga hafsalam kelmay, uch soatlar chamasi ag'anab yotdim. Bunday hodisa, ya'ni hattoki, ishning ham ko'nglimga xush kelmayotganligi hayotimda birinchi marta sodir bo'layotgan edi. Ammo keyin o'zimdan o'zim uyalib ketdim-u yo'lga chiqdim.

Mashina majoli qurigandek imillab borardi, to'g'rirog'i, o'zimning kayfiyatim xira edi. Buning ustiga, havo ham aynagan edi. Qarshimdan kabinalari va bortlari qorga botgan mashinalar chiqib turardi. Demak, dovonda qor yog'ayotgan ekan. Mayli, yog'sa yog'av-

sin, menga nima, bo'ron turib bermaydimi, menga baribir, nimadan qo'rqaman, nima bo'lsa bo'lar...

Avzoyim juda buzuq edi. Tepamda turgan ko'zgu-chaga qarab ko'nglim aynab ketdi: soqol-mo'ylovim o'sib ketgan, xuddi kasaldan turgandek yuzlarim so'lg'in, qovog'im shishgan edi. Yo'lda biroz tamadi qilib olsam bo'lardi, ertalabdan beri tuz totganim yo'q, ammo ovqatga ishtaham yo'q bo'lsa ham ichish-dan qochmasdim. O'zingga bir marta erk berding-mi, **bas**, **keyin** to'xtatib olish qiyin. Birinchi stakan-dan so'ng ancha tetiklanib, o'zimga keldim. Mashina ham yengil yurib borayotgandek bo'ldi. Keyin yana yo'lda yugurib kirib yuz gramm ichib chiqdim, keyinroq buning ustiga yana ozroq otib oldim. Yo'l girillab ortda qolib borar, oyna tozalovchi cho'tka-lar u yoqdan bu yoqqa borib kelardi. Mashina bilan jangga kirib borayotgandek egilib olib, og'zim-dagi sigaretani chaynardim. Qarshidan kelib, kabi-na oynalariga ko'lmak suvlarni sachratib, g'izillab o'tib ketayotgan mashinalarnigina ko'rardim, xolos. Men ham tezlikni oshira bordim, kech kirib qolgan, tog'ga kelganimda zimziyo tun edi. Mana shu yerga kelganimda araq o'z kuchini ko'rsata boshladni. Madorim qurib, ko'zim tinib, yo'lni ko'rish tobora qiyin-lasha bordi. Kabina ichida dimiqib ketdim, ko'nglim ayniy boshladni. Hali hech qachon bunchalik mast bo'lмаган edim. Yuzimdan sharros ter quyilardi. O'zimni mashinada emas, go'yo olg'a tomon shid-dat bilan tun bag'rini yorib borayotgan ikkala chiroq nurlari o'tasida o'tirib ketayotgandek his qilardim. Nurlar bilan birga-bir men ham goh yorug'lik tushib turgan chuqurlikka zarb bilan otilib tushar, goh tit-rab-qaltirab qoyalar ustida o'rmalovchi nurlarga tir-mashib yuqoriga ko'tarilar, goh nurlar ketidan quv-lab u yoqdan bu yoqqa yugurayotgandek bo'lardim. Har daqiqa sayin holdan toyib boraverdim. Biroq

har qancha og'ir bo'lsa ham to'xtamasdim, chun-ki ruldan qo'limni uzzimmi, bas, mashinani endi boshqara olmasligimga aqlim yetib turardi. O'sha paytda dovonning qayerida borayotganimni aniq eslayolmayman. Oh, Do'lans, Do'lans, Tyan-Shanning haybatli beli! Senda yurish bunchalar mushkul! Ayniqsa, tunda, yana men singari kayfi oshgan haydovchi uchun!

Mashina allaqanday balandlikka zo'r-bazo'r ko'tarildi-yu, birdaniga pastlikka, tog' etagiga qarab sho'ng'idi. Ko'z o'ngimda tun g'ir-g'ir aylanib, hamma yoq ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Qo'llarim endi menga itoat qilmay qo'ygandi, rul chambaragidan sirg'alib tushar, tezlik richagini tuta olmas edi. Borgan sari mashinaning tezligi oshib, pastga tomon uchib borardi. So'ng allanimaga urildi shekilli, taraqa-turuq, sharaqlagan ovozlar eshitildi. Chiroqlar o'chib, ko'z o'ngimni zimziyo qorong'ilik bosdi. Qalbimning allaqayerida: «Mana, halokatga ham uchrading!» – degan fikr yalt etib ketdi.

Shu ko'yda qancha vaqt yotganligimni bilmayman. Bir payt qulog'imga paxta tiqib qo'yilgandek bir ovoz arang eshitildi. «Qani, yorit-chi!» Kimningdir qo'llari yelkamni, boshimni va ko'kragimni paypaslab ko'rdi. «Tirik, ammo o'lardek mast», – dedi o'sha ovoz. Boshqasi esa: «Yo'lni bo'shatish kerak», – dedi unga.

– Qani, do'stim, sal suril-chi, rulni menga ber, mashinani chetga olaylik! – haligi qo'l yelkamga sekingina turtardi.

Men ingrab, ruldan zo'rg'a boshimni ko'tardim. peshanamdan qon oqardi. Ko'kragim ezilib shikastlangan ekan, qaddimni ko'tarishga yo'l qo'ymasdi. Tepamdag'i kishi gugurt chaqib, yuzimga qaradi. So'ngra yana ikkinchi marta gugurt chaqib, yana tikildi-da, qo'ng'ir mo'ylovleri ostidan hayratlanib jilmaydi.

– Do'stim, senga nima bo'ldi! Bu qanaqasi? – derdi u xafalanib g'amgin ohangda qorong'ilik orasidan.

– Mashina... Qattiq urilibdimi? – dedim xirillab qon aralash tuflab.

– Yo'q, unchalik emas. Faqat borayotib zarb bilan surilib ketgan-u, ko'ndalang bo'lib qolgan, xolos.

– Unday bo'lsa hozir jo'nab ketaman, yo'lda turmayman! – deb o'zimga itoat qilmay qo'ygan qaltiroq qo'llarim bilan motorni yurgizmoqchi bo'lib startyorni bosishga urindim.

– To'xta! – deb u meni mahkam quchoqlab oldi.

– Maynabozchilik yetar. Chiq bu yoqqa. Tong otguncha uxlab ol-chi, ertaga u yog'ini yana ko'rarmiz...

U meni kabinadan tortib chiqardi.

– Kamol, sen yo'l tirband bo'lib qolmasdan mashinani chekkaga chiqarib qo'y, keyin nima bo'lganini aniqlarmiz! – dedi u hamrohiga, o'zi bo'lsa qo'llarimni bo'yniga solib, qorong'ida qayoqqadir yetakladi. Biz uzoq yurdik, u odam meni jimgina yetaklab borardi, men iloji boricha o'zim yurishga harakat qilardim, biroq tezda toliqib qolaverdim, shunda u odam yana qo'ltig'imga kirib yetaklashda davom etardi. Shu yo'sinda biz allaqanday xonadonga yetib keldik. Boyagi kishi qo'ltig'imdan tutib turib, uyga kirishimga yordamlashdi. Kiraverishdagi xonada kerosin chir-oq yonib turardi. U kishi meni taburetkaga o'tqazib, ustimdan kalta po'stinimni yecha boshladi. Shundagina men uning yuziga qaradim. Uni tanidim. Bu yo'l tuzatuvchi usta, dovonda mashinani shatakkka olganimda uchrashgan o'sha Boytemir edi. Men juda uyalib ketdim, lekin shunga qaramay, sevindim ham, endi uzr so'rab, tashakkur izhor etmoqchi bo'lib og'iz juftlagan ham edimki, shu payt polga bir nima taraqlab tushdi. Men qayrilib qaradim va yelkalarimdan ulkan tosh bosib turgandek o'rnimdan xiyol ko'tarildim. Ostonada, sochilib yotgan o'tinlar oldida toshdek serrayib qotib qolgan Asal turardi.

– Bu nimasi? – deb pichirladi u.

«Asal!» – deb qichqirib yuborishimga sal qoldi, ammo uning yaqinlashmay, begona qiyofada tikilib turganidan og‘iz ocholmay qoldim. Uyat va nomusdan o‘t bo‘lib yonib, boshimni quyi soldim. Xonaga bir zum yurakni yorib yuborgudek og‘ir sukunat cho‘kdi. Agar Boytemir bo‘lmaganida, bilmadim, nima bo‘lardi. U hech narsa bo‘lmagandek bamaylixotir meni o‘rnimga o‘tqazdi.

– Hech narsa bo‘lgani yo‘q, Asal, – dedi u xotirjamgina. – Haydovchi birozgina shikastlanibdi, tuzalib ketadi... Sen, yaxshisi, yod bersang bo‘lardi bizga...

– Yod? – endi uning ovozi o‘z holiga qaytgan, mafinlashgan va tashvishli edi. – Yodni qo‘schnilar olib ketishgan edi... Hozir olib chiqaman! – deya Asal es-hushini yig‘ib oldi-da, yugurib tashqariga chiqib ketdi.

Men qimir etmay, lablarimni tishlaganimcha o‘tirardim. Kayfim tarqab, bir zumda hushimga kelib qoldim... Endi chakka tomirlarim lo‘qillab ura boshladni.

– Avval yuvish kerak, – dedi Boytemir peshanam-dagi shilingan joylarni ko‘zdan kechirarkan, keyin chelakni ko‘tarib tashqariga chiqib ketdi. Qo‘snni xonadan ko‘ylakchan, yalangoyoq, besh yoshlari chamasidagi bir bola mo‘ralab qarardi. U yotgan joyidan turib kelgan bo‘lsa kerak, katta-katta sinchkov ko‘zlar bilan menga termilib boqardi. Men uni darhol tanidim. Qanday taniganimni o‘zim ham bilmayman, harqalay, o‘g‘lim ekanini sezdim, qalbim sezdi buni.

– Samad! – deb shivirladim kutilmagan uchrashuvdan ovozim bo‘g‘ilib va unga qarab intildim. Shu payt ostonada Boytemir paydo bo‘ldi, men uni ko‘rib, negadir bir cho‘chib tushdim. Chamasi, o‘g‘limning otini atab chaqirganimni eshitib qolgan bo‘lsa kerak. Xuddi o‘g‘irlilik ustida qo‘lga tushgandek, o‘zimni juda noqulay sezsa boshladim. Xijolat tortayotganim-

ni sezdirmaslikka intilib, peshanamdag'i shilingan yerni qo'lim bilan bekitganimcha:

– Bu sizning o'g'lingizmi? – deb so'radim. Nega shunaqa deb savol berdim-a? Bu xatoyim uchun o'zimni hozirgacha kechira olmayman.

– Mening o'g'lim! – dedi mezbonga xos xushmuomalalik bilan Boytemir. U qo'lidagi chelakni polga qo'ydi-da, Samadni ko'tarib oldi. – Mening o'g'lim, al-batta, o'z o'g'lim, shunday emasmi, Samad! – derdi u o'g'lini o'nib va mo'ylovi bilan uning bo'ynilarini qitqlab erkalab. Boytemirning ovozida va o'zini tutishida soxtalikdan asar ham yo'q edi. Uning barcha xatti-harakatlari shunchalik tabiiy ediki, go'yo mening o'rnimda mening rolimni ado etayotgandek edi. – Ha, toychog'im, nega uxmlamayapsan? Hamma narsadan xabardor bo'sang-a, qani, o'rningga chopqilla-chi!

– Oyim qani? – deb so'radi Samad.

– Hozir keladi. Ana kelyapti. Bor endi, o'g'lim, uxla.

Asal jimgina yugurib kirdi va bizga sergaklik bilan tezgina nazar tashlab chiqdi-da, yodli shishachani Boytemirga berib, o'g'lini olib ketdi.

Boytemir namlangan sochiq bilan yuzimdag'i qonni artdi.

– Birpas chidaysan endi! – deb hazillashdi u shilangan joylarimga yod surarkan va jiddiy suratda: – Bu ishing uchun seni o'tda kuydirsa ham bo'lardi-yu, mayli, endi, mehmonimizsan-da... Mana tamom, qutulding, bitib ketadi. Asal, bizga choy qo'yib yuborsang bo'lardi.

– Hozir! – dedi Asal o'g'lini allalay turib. Boytemir polga yoyilgan kigiz ustiga ikki qavat ko'rpancha solib, yostiq qo'ydi.

– Bu yoqqa o'tib o'tir, – dedi u menga. – Yonboshla, biroz dampingni ol...

– Hechqisi yo'q, rahmat! – deb g'o'ldiradim men.

– O'tir, o'tiraver, o'z uyingdek bemalol o'tiraver! – deb qattiq turib oldi u.

Bularning hammasi go'yo tushimda bo'layotgandek edi. Mana hozir hammasi oshkor bo'ladi, qani endi yer yorilsa-yu, yerga kirib ketsang, degan qo'rquv va tashvishdan yuragim tars yorilib ketayozgandek edi. Chunki men bu yerga naqadar ayanchli ahvolda: mast, iflos va qonga bo'yalgan holda kelganimni payqagan edim. Uf, onam nega tuqqan ekan meni-ya!

Asal bizga qaramaslikka harakat qilib, samovarni oldi-da, tashqariga olib chiqib ketdi.

– Men hozir senga yordamlashib yuboraman, Asal!  
– dedi Boytemir uning orqasidan. U Asalning ketidan endi chiqmoqchi bo'lib turgan edi, Samad yana o'rnidan irg'ib turdi. Uning mutlaqo uxlagisi yo'q edi.

– Senga nima bo'ldi, Samad! – deb mehribonlik bilan bosh chayqadi Boytemir.

– Amaki, siz to'ppa-to'g'ri kinodan chiqdingizmi?  
– deb so'radi o'g'lim jiddiy, oldimga yaqinroq kelib.

Men uning nima haqda gapiroq ganini tushunmadim, Boytemir bo'lsa xaxolab kulib yubordi.

– Voy, tentag-yey, – deb kulardi Boytemir bolaning yoniga cho'kkalab o'tirganicha. – Toza ichaklar ni uzzing-ku. Biz konga kino ko'rgani borib turamiz!  
– dedi u menga murojaat qilib. – U ham biz bilan birga boradi.

– Ha, men kinodan chiqdim! – deb umumiy kulgiga qo'shildim.

Ammo Samad qovog'ini solib oldi-da:

– Yolg'on! – dedi.  
– Nega endi yolg'on bo'larkan?  
– Bo'lmasa, anov urishadigan qilichingiz qani?  
– Uyga tashlab keldim...  
– Menga ko'rsatasizmi, amaki? Ertaga ko'rsatasizmi?  
– Xo'p, xo'p, ko'rsataman. Qani, bu yoqqa kel-chi, sening oting nima, Samad-a, to'g'rimi?

- Samad. Sizning otingiz nima, amaki?
  - Menikimi... – deya nafasim ichimga tushib ketdi. – Mening otim Ilyos amaki, – dedim zo'r-bazo'r.
- Boytemir shoshib qoldi:
- Sizlar bu yerda gaplashib o'tira turinglar, biz hozir choy qaynatib kelamiz. – U ostonada to'xtadi.
  - Sen, Samad, borib yot, kech bo'lib qoldi.
  - Dada, yana ozgina o'tira qolay! – deb yolvordi Samad.

– Ha, mayli! – deb rozi bo'ldi Boytemir. Samad oldimga keldi. Men uning qo'llarini siladim: u menga o'xshardi, juda o'xshardi. Hatto qo'llari ham, kulgisi ham xuddi menikiga o'xshardi.

– Katta bo'lganiningda kim bo'lasan? – deb so'radim men qanday bo'lmasin, o'g'limni gapga solmoq-chi bolib.

- Haydovchi bo'laman.
- Mashinada yurishni yaxshi ko'rasanmi?
- Judayam... Qo'l ko'tarsam, hech kim meni mashinasiga chiqarmaydi...
- Ertaga men seni o'ynatib kelaman. Bo'ptimi?
- Bo'pti. Men sizga o'zimning oshiqlarimni bera-man! – U oshiqlarni olib kelish uchun narigi xonaga chonib kirib ketdi.

Deraza ortida samovar karnayidan o't chiqib turardi. Asal bilan Boytemir allanimalar haqida gaplashishardi. «Samadimizning nima deganini eshitganingdami, ichaging uzilardi», – dedi Boytemir quvonch bilan tarasha yorayotib. Qiziq, Asal ham aytarli biron narsa bo'lmagandek xotirjamgina javob berdi: «Ha! U shunaqa, nimani ko'rsa, shuni gapiraveradi!»

Samad arxar terisidan yasalgan xaltachadagi oshiqlarini pishillab ko'tarib keldi-da, oldimga sochib tashladi:

– Tanlab oling, amaki! – deb u rang-barang bo'yoqlarga bo'yalgan o'z boyligini namoyish qila boshladi.

Men esdalik uchun bittasini olmoqchi bo'ldim-u, ammo jur'at eta olmadim. Eshik ochilib, qaynagan samovarni ko'tarib Boytemir kirdi. Uning ketidan Asal ko'rindi. U choy damlaguncha, Boytemir bizning oldimizga yumaloq xontaxtani keltirib qo'yida, dasturxon yozdi. Biz Samad bilan oshiqlarni yig'ishtirib, ularni yana xaltachaga solib qo'yidik.

– O'z bisotini ko'z-ko'z qilayapti, ah, maqtanchoq! – deb sevib tortqiladi Boytemir Samadning qulog'idan.

Oradan sal o'tmay biz samovar atrofida o'tirib choy icha boshladik. Biz bir-birimizni go'yo hech qachon ko'rmagandek va bilmaydigandek o'tirardik. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'zimizni xotirjam tutishga, kamroq gaplashishga tirishardik. Faqat Samadgina o'zini erkin tutardi. U Boytemirning tizzasiga chiqib olib, pinjiga tiqilganicha boshini saraksarak qilib o'ynardi.

– U-uh, doim mo'ylovingiz odamni qitiqlaydi-ya, dada! – deb tipirchilardi u va o'zi unga yopishib chakkasini mo'ylovgiga tegizar edi.

– Ehtiyyot bo'l, choyga kuyib qolasan! – deb ogohlantirdi Boytemir.

Hali bu go'dak atrofida o'tirgan biz kattalarning har birimiz hozir o'z o'y-xayollarimiz bilan band ekanligimizni fahmlamas edi. Bizning taqdirimiz bugun favqulodda to'qnashib qolishi kimning xayoliga kelibdi, deysiz. Bularning hammasi nima bilan tugallanarkan?..

Boshqa odamni «dada», deb erkalanayotgan o'z o'g'lim bilan yonma-yon o'tirish menga oson deysizmi? Visolida qanchalar azob va iztirob chekkanim Asal, mening aziz Asalim ro'paramda o'tirgan bo'lsayu, ko'zlariga tik qarashga jur'at eta olmasam. Qanday qilib bu yerga kelib qoldiykin u. Sevib qolib turmushga chiqdimikin? Go'yo men unga mutlaqo begona, mutlaqo notanish kishidek, u o'zini tanimas-

likka solayotgan bo'lsa, men buni qayoqdan bilayin axir? Nahotki, u mendan shu qadar nafratlangan bo'lsa? Boytemir-chi? Nahotki, u mening aslida kim ekanligimni payqamayotgan bo'lsa? Samad ikkimiz bir-birimizga o'xshashimizni nahotki sezmayotgan bo'lsa? Nega u dovonda mashinani shatakka olganimizdagi uchrashuvimizni hatto eslamadi ham? Yo unutdimikin?..

Uyquga yotganimizda men o'zimni yanada og'ir-roq sezdim. Menga shu yerning o'ziga, kigiz ustiga o'rın solib berishdi. Men devorga qarab yotardim, chiroq piligi xiyol pasaytirilgan. Asal bo'lsa idish-to-voqlarni yig'ishtirmoqda edi.

– Asal! – deb chaqirdi Boytemir sekingina qo'shni xonaning qiya ochiq turgan eshididan.

Asal uning oldiga bordi.

– Ko'ylagini yuvib qo'ysang bo'lardi, – dedi u. Asal stuldan qonga belangan katak-katak ko'ylagimni olli-da, yuva boshladи. Biroq shu zahotiyоq yuvishdan to'xtadi. Boytemir tomonga o'tgани eshitildi.

– Radiatorning suvini to'kib qo'ydilaringmi? – deb so'radi u shivirlab, – tag'in muzlab qolmasin...

– To'kilgan, Kamol to'kib tashladil! – dedi Boytemir ham shivirlab. – Mashina deyarli lat yemagan... Ertalab yordamlashamiz...

Men esa mashina haqida o'ylamabman ham: na radiator va na motor ko'rinaridi ko'zimga.

Asal ko'ylakni yuvib bo'lib, uni pechka tepasi-ga yoyar ekan, chuqur xo'rsinib qo'ydi va chiroqni o'chirib, chiqib ketdi.

Uyni qorong'ilik qopladi. Hammamizning ham uxlamay yotganimizni sezib yotardim. Har birimiz o'zimizcha yolg'iz o'y-xayollarimiz bilan edik. Boytemir o'g'li bilan bir karavotda yotibdi. U nimalardir deb Samadni erkalar, uyqusida tipirchilab tepkilansa, ko'rpani ustiga tortib yonib qo'yardi; Asal goho-goho og'ir xo'rsinib

qo'yardi. Uning qorong'ida xuddi yomg'irda qolgan toshdek yiltirayotgan ko'zlar menga ko'rini turardi... Ular balki yosh bilan to'ladir. Nima haqda, kim haqida o'ylayotganikin? Endi u bir emas, uch kishi haqida qayg'urishi kerak edi... Ehtimol, u ham xuddi men singari bir-birimizni bog'lab turuvchi o'sha o'tmish kunlarni, lazzatli va iztirobli damlarni xotiridan bir-bir o'tkazayotgandir. Ammo endi uning visoliga yetolmayman, shuningdek, uning o'y-fikrlarini ham bilolmayman. Keyingi yillar ichida Asalning o'zi ham, ko'zlar ham o'zgarib ketgan edi... Endi bu ko'zlar avvalgi, ishonch bilan boqib, mehr, soddadilik bilan porlab turuvchi g'uborsiz ko'zlar emas edi. Ular vazmin va jiddiylashgan edi. Biroq Asal men uchun hamon o'sha dasht quchog'ida yayrab o'sgan sarvqomatligicha qolgan edi. Uning har bir xislat, xususiyat va xatti-harakatlari men uchun tanish va qadrdon edi. Bu esa bir alamimni ikki qilib, qalbimni o'rtab tirdi. Alamidan yostiq burchagini tishlaganimcha g'ing demay yotardim. Tonggacha mijja qoqmadim.

Derazadan ko'kda suzib yurgan oy bulutlar orasidan yog'du sochar, dam-badam o'z jamolini ko'rsatib qo'yardi.

Erta tongda Asal bilan Boytemir xo'jalik ishlari bilan hovliga chiqib ketganlarida men ham o'rniidan turdim. Jo'nash kerak edi. Sekin odimlab borib Samadni o'pdim-da, tezda xonadan chiqib ketdim.

Asal hovlida tosh o'choqqa o'rnatilgan katta qozonda suv isitmoqda edi. Boytemir o'tin yorardi. Biz u bilan birga mashina tomon ketdik. Jimgina papirosh chekishib borardik.

Mashina kechasi yo'l chekkasidagi betonli ustunchalarga urilgan ekan. Ulardan ikkitasi tag-tugi bilan qo'porilib yotardi. Mashinaning chirog'i singan, qanoti va oldingi qismi pachaqlangan, g'ildiragi bir tomonga xiyol qiyshayib ketgandi. Biz bularning

hammasini lom va bolg'a bilan ozmi-ko'pmi tutzatdik. So'ng motorni yurgizolmay uzoq vaqt azob chekdik. Motor dovonda muzlab qolgan edi. Karterni mash'al yoqib qizdirdik, keyin ikki kishilashib ruchkani aylantira boshladik. Yelkalarimiz to'qnashib, kaftimiz ruchka dastasini aylantiraverib qizib ketdi, bir-birimizning yuzimizga iliq nafasimiz urilardi, ikkalamiz ham bir ishni bajarar edik, ehtimol, o'yayollarimiz ham bir yerdan chiqar.

Motorning o't olishi juda qiyin bo'ldi. Ikkalamiz ham hansiray boshladik. Shu orada Asal ikki chelak issiq suv keltirdi va ularni jimgina oldimga qo'ydi-da, o'zini chetga olib turdi. Suvni radiatorga qo'ydim. So'ngra yana Boytemir bilan birgalikda ruchkani bir-ikki aylantirib yuborgan edik, nihoyat motor ishlab ketdi. Men kabinaga o'tirdim. Motor notekis, uzilib-uzilib ishlardi. Svechalarni tekshirish uchun Boytemir kapot ostiga kirdi. Shu chog' paltochasining tugmalari qadalmagan Samad hansiraganicha chopqillab kelib qoldi va mashinaning atrofidan g'izillab chopcha boshladi. Chunki u mashinaga minib sayr qilish ishtiyoqida edi. Asal uni tutib oldi-da, qo'lidan mahkam ushlab olgancha, kabinaning yoniga o'tib turdi. U meniga ta'na qilgandek, shunaqa ham alam va achinish bilan termildiki, o'z gunohimni yuvish va ularni yana o'zimga qaytarish uchun shu damda lozim bo'lsa har narsa qilishga tayyor edim. Men kabinaning ochiq eshididan engashib qaradim:

– Asal! O'g'limizni olib o'tir! O'tgan galgidek mashinaga o'tqazib olib ketaman, bir umrga olib ketaman! O'tir! – deb motor shovqini ostida yolvorardim unga.

Asal hech nima demadi, jiqla yoshga to'lgan ko'zlarini jimgina chetga burib, «yo'q», degandek bosh chayqadi.

– O'tiraylik, oyi! – deya uning qo'lidan tortqiladi Samad. – O'ynab kelamiz!

U o'g'lini siltab tashladi va uni qo'lidan qo'y may nariga yetaklab ketdi. U boshini quyi solgancha atrofga nazar tashlamay borardi. Samad esa orqaga tortqilar, ketgisi kelmasdi.

– Tayyor! – deb qichqirdi Boytemir kapotni yonib, keyin, asbob-uskunalarni menga uzatdi.

Yo'nga tushdim. Yana qo'lim rulda, yana yo'l, tog'toshlar, mashina meni uchirib olib ketmoqda, uning men bilan qanchalik ishi bor...

Asal bilan o'g'limni dovonda ana shu yo'sinda topdim, biz shu xilda uchrashdik va ajrashdik. Chegaraga bora-borguncha va qaytishda butun yo'l bo'y lab o'y lab o'yimga yeta olmadim. Cheki-chegarasi yo'q o'y-xayollardan charchab ketdim... Endi bu yerlardan boshim oqqan tomonga qarab bosh olib ketishim kerak edi, bu yerda qolishim mumkin emas edi.

Bunga men qat'iy qaror qildim, shu xayollar bilan orqaga qaytdim. Dovondan oshib o'tdim va yo'l uchastkasidan o'tib keta turib Samadni ko'rib qoldim. U yo'l yoqasida bir o'g'il bola va o'zidan biroz kattaroq bir qiz bola bilan o'ynab yurgan edi. Ular toshqo'rg'on o'ynashardi, ya'ni toshlardan hovlichalar va mollar uchun qo'ralar qurishmoqda edi. Ehtimol, ilgarilari ham ularni yo'l yoqasida ko'rgandirman-u, ammotaniy olmagandirman. Demak, deyarli har kuni o'g'il-chamning yonginasidan o'tib-qaytib yurganimni o'zim payqamay yurgan ekanman. Mashinani to'xtatdim.

– Samad! – deb chaqirdim men toychog'imni. Ko'rgim kelib ketdi. Bolalar menga qarab chopqillab kelishdi.

– Amaki, bizni mashinada o'ynatgani keldingizmi?  
– deb oldimga chonib keldi Samad.

– Ha, ozgina sayr qildirmoqchiman sizlarni! – dedim men.

Bolalar chuvillashib, hammasi birdaniga kabina-ga chiqishdi.

– Bu bizning tanish amakimiz, – deb maqtanardi Samad o'rtoqlariga.

Men ularni biroz sayr qildirgandek bo'ldim. Ammo shu bilan o'zimni shu qadar quvnoq va shu qadar baxtiyor his qilar edimki, bolalarning o'zları ham bunchalik huzur qilmagan bo'lsalar kerak. So'ngra ularni mashinadan tushirdim.

– Qani endi uylaringga chopinglar!

Bolalar chopqillab ketishdi. Men o'g'limni to'xtatdim:

– Shoshmay tur, Samad, senga ozroq gapim bor!

– deb uni qo'limga olib, boshim uzra yuqoriga ko'tardim, yuziga uzoq tikilib turdim, so'ngra ko'ksimga bosib, o'nib-o'nib oldim-da, pastga tushirdim.

– Qilich qani, olib keldingizmi, amaki? – dedi Samad esiga tushib qolib.

– E, yodimdan ko'tarilib ketibdi-ku, o'g'lim, endi kelasi safar olib kelaman! – deb va'da berdim unga.

– Endi esingizdan chiqarmaysiz-a, amaki? Biz boyagi joyda o'ynab yuramiz.

– Yaxshi, qani endi tezroq chop!

Avtobazada duradgorlik ustaxonasida yog'och-dan uchta o'yinchoq qilich yasab, o'zim bilan birga olib yurdim.

Bolalar haqiqatan ham meni kutib turishgan ekan. Men ularni mashinada yana biroz aylantirdim. O'g'lim va uning o'rtoqlari bilan do'stligimiz ana shunday boshlandi. Ular menga tez ko'nikib qolishdi. Uzoqdan ko'zları tushishi bilanoq bir-biridan o'zishib chonib qolishardi.

– Mashina, mashinamiz kelyapti! – deb qichqiri-shardi.

Menga yana jon kirib, odambashara bo'lib qoldim. Yo'lda ketayotib ruhim tetik, dimog'im chog' ketar va o'zim bilan birga qandaydir noyob his-tuyg'ularni eltid borardim. Yo'l yoqasida meni o'g'lim kutib turganini bilardim. Loaqal bir-ikki daqqa bo'lsa-da, u bilan yon-

ma-yon o'tirish men uchun katta baxt-ku. Endi butun fikr-u xayolim qanday bo'lsa ham o'g'limning oldiga o'z vaqtida yetib borish tashvishi bilan band edi. Men hamma vaqt dovondan kunduzi o'tishni mo'ljallardim.

Iliq bahor kunlari edi, bolalar doim ochiq dalada o'ynab yurishardi. Shuning uchun ham men ularni ko'pincha yo'l yoqasida uchratardim. Azbaroyi shu uchungina yashayotgandek va ishlayotgandek tuyilardi menga: o'zimda yo'q baxtiyor edim... Ammo ba'zan yuragim qo'rquvdan orqasiga tortib ketardi. U yoqda yo'l uchastkasidagilar bolalarni mashinada o'ynatib yurganligimni bilishadimi-yo'qmi, bilmadim-u, ammo o'g'limning men bilan uchrashishini man etishlari, uni yo'l yoqasiga chiqarmay qo'yishlari mumkin edi. Men bundan juda qo'rqardim. Asal bilan Boytemirdan bunday qilmasliklarini, loaqal mana shu oniy uchrashuvlardan meni mahrum etmasliklarini dilimdan yalinib-yolvorib so'rardim. Ammo bir kuni xuddi shunday bo'ldi...

Bahor bayrami yaqinlashib kelmoqda edi, o'g'limga sovg'a qilmoqchi bo'lib, unga o'ziyurar mashina – xuddi menikiga o'xshash yuk mashinachasi sotib oldim. O'sha kuni avtobazada o'ralashib qolib, yo'nga kechroq chiqqanim uchun juda shoshilardim. Ehtimol, shuning uchun hammi, ko'nglim allanarsani oldindan sezayotgandek g'ash tortayotgan edi, bekordan-bekor hayajonlanib, xavotirlanardim. Yo'l uchastkasiga yaqinlashib borar ekanman, Samadning qanchalik xursand bo'lishini ko'z oldimga keltirib, o'rog'lik o'yinchoq mashinani yonimga solib qo'ydim. Garchi uning bundan ko'ra yaxshiroq o'yinchoqlari bo'lsa ham, bu alohida sovg'a – haydovchi bo'lishni orzu qilib yurgan jajjigina bolaga yo'lovchi tanish haydovchingining sovg'asi edi. Ammo bu gal Samadni uchratolmadim. Bolalar usiz chopib kelishdi... Men kabinadan chiqdim:

– Samad qani?

- Uyda, kasal bo'lib qoldi, – dedi bir bola.
- Kasal bo'lib qoldi? Boshi og'riyaptimi yoki boshqa yerimi?
  - Yo'q, u kasal emas! – dedi bilag'onlik bilan qizcha. – Oyisi bu yoqqa yubormayapti!
  - Nega?
  - Bilmayman. Borma, deyapti.

Tarvuzim qo'ltig'imdan tushib, kayfiyatim buzildi.  
Mana shu bilan tamom, vassalom!

- Ma, olib borib ber, – deb o'rog'lik o'yinchoqni haligi bolaga uzatdim, biroq shu zahotiyooq fikrimdan qaytdim. – Yo'q, qo'ya qol, – o'yinchoqni qaytib olib, boshimni quyi solganimcha mashina tomon ketdim.
- Nega amakimiz bizni mashinaga chiqarmadi? – deb so'radi bola opasidan.
- Kasal bo'lib qoldi, – dedi opasi qovog'ini solib.

Ha, qizcha to'g'ri topgandi. Bu xabar men uchun har qanday kasallikdan ham ortiq edi. Butun yo'l davomida o'ylanib bordim... Nahotki, Asal menden shu daraja ko'ngli qolgan bo'lsa, nahotki, u menga nisbatan shu qadar bag'ritoshlik qilsa? Men qanchalik yomon bo'lmay, nahotki uning zarracha ichi achimasa! Yo'q, ishongim kelmasdi... Asalning shu darajaga borishi mumkin emas, bu yerda boshqa bir gap bor... Xo'sh, nima bor? Men qayoqdan bilay... Shu chog', o'rtog'i aytganidek, o'g'limning biroz tobi qochib qolgan bo'lsa kerak, deb o'zimni o'zim ishontirishga urindim. Nega unga ishonmasligim kerak ekan? Axir haqiqatan ham shunday bo'lishi mumkin-ku. Men bunga o'zimni shu darajada ishontirib qo'yan edimki, keyin bu fikrimdan o'zim ham cho'chib ketdim. O'g'limning isitmalab va alah-sirab, ilondek to'lg'anib yotgani bir-bir ko'z oldimdan o'taverdi... Balki biron yordam zarur bo'lib qolar, dori-darmon keltirish yoki kasalxonaga olib borish kerak bo'lib qolar. Axir ular shaharda emas,

dovonda yashashadi! Juda qiynalib ketdim. Orqaga qaytishga shoshildim, qanday tadbir-chora qo'llash mumkin ekanligini tasavvur eta olmasdim-u, biroq xayolimdan birgina narsa o'tardi: tezroq yetib borish-u, agar, o'g'lim sog'-salomat bo'lsa, ko'rib ko'ngilni joyiga tushirish. Men uni uchratishimga ishonardim, buni qalbim aytib turgan edi. Xuddi qasddan qilgandek, bakda yonilg'i tamom bo'lib qoldi, mashinani dovondagi yonilg'i quyish shoxobcha-si oldida to'xtatishga to'g'ri keldi.

\* \* \*

Hikoyasining shu yeriga kelganda hamrohim Il-yos jimib qoldi. Qizib ketgan yuzlarini kafti bilan ishqalab, chuqur xo'rsinib qo'ydi-da, qiya ochilib turgan vagon derazasini oxirigacha surib, bilmadim, nechanchi marta ekan, yana cheka boshladi.

Vaqt yarim kechadan oshgan edi. Bizdan boshqa yo'lovchilarning hammasi uqlab qolishgan bo'lsa kerak. G'ildiraklar reoslarga «taq-taq» urilib, o'zlarining tiganmas qo'shig'ni kuylab borardi. Derazalar ortidan yozgi tun pardasi g'izillab o'tib turar, stansiyalarning yer bag'irlab yonib turgan chiroqlari milt-milt etib o'tardi. Parovoz yelib borayotib qattiq chinqirdi.

– Xuddi mana shu paytda siz menga uchragan edingiz, og'a, men esa sizning iltimosingizni bajo keltirolmagan edim. Endi sizga hammasi ayon bo'lgan bo'lsa kerak, – deb hikoyasini davom etti-rarkan, xomushgina jilmayib qo'ydi qo'shnim. – Siz shoxobcha oldida qolgan edingiz, so'ng «Pobeda»da mendan o'zib ketdinglar. Buni ko'rigan edim. Ayni, shu payt dovon etagiga yomg'ir yog'ib o'tgandi...

Ha, mashinani qattiq hayajon ichida haydab bordim. Nihoyat, qalb sezgilarim meni aldamagan edi. Samad yo'l yoqasida kutib turardi. U mashinani ko'rishi bilanoq yo'lni kesib chopqillab qoldi:

– Amaki! Haydovchi amaki!..

Demak, o'g'ilcham sog'-salomat! Eh, o'zimda yo'q suyunib ketdim, quvonchim ichimga sig'masdi!

Men mashinani shartta to'xtatib, kabinadan sakrab tushib, o'g'limga peshvoz yugurdim.

– Nima bo'ldi, og'ayni, kasal bo'lib qoldingmi?

– Yo'q, oyim yubormadi. Uning mashinasiga chiqmagin, deydi. Men yig'ladim, – deb arz qilardi Samad.

– Xo'sh, hozir qanday qilib kelding?

– Dadam, agar birov bolalarni mashinada o'ynata-man desa, qo'yaver, o'ynataversin, dedi.

– Rostdanmi?

– Men haydovchi bo'laman, dedim...

– Albatta haydovchi bo'lasan, bo'lganda ham qanday de! Bilasanmi, men senga nima olib keldim? – Men o'yinchoq mashinani oldim. Bunga qara, o'zi-yurar «ZIL»cha, kichkintoy haydovchilarga juda bop mashinada bu!

Bola og'zi qulog'iga yetib jilmaydi.

– Men doim, har doim siz bilan birga mashinada yuraman-a, amaki? – deb yolvoruvchi ko'zlari bilan termildi menga. Ko'nglim buzilib ketdi.

– Albatta, har doim! – deb ishontirdim uni. – Istatang, bayramda shaharga birga boramiz, mashinani bayroqchalar bilan yasatamiz, keyin seni yana olib kelib qo'yaman. – Nega men unga bu so'zlarni aytganligimni, bunga qanchalik haqim borligini va ayniqsa, o'z so'zlarimga nega birdan o'zim ham ishonib qolganligimni hozir tushuntirish qiyin edi. Bu ham yetmagan-dek, yana so'zlarimga erk berib gapiroverdim. – Agar yoqsa butunlay menikida qolasan! – dedim o'g'limga juda jiddiy suratda. – Biz kabinada yashaymiz, men seni doim o'zim bilan birga olib yuraman. Bo'ptimi?

– Bo'pti! – jon-jon deb rozi bo'ldi Samad. – Mashinada yashaymiz! Ketdik, amaki, hozir ketamiz!..

Ba'zan kattalar ham bolalik qilib qo'yadi. Biz kabinaga o'tirdik. Men ishonqiramay motorni yurgizdim, startyorni bosdim. Samad juda xursand edi: meni tortqilar, erkalanar, o'rindiqda irg'ishlardi. Mashina qo'zg'aldi. Samadning quvonchi ichiga sig'masdi, tinxmay kulardi, rulni, qarshisidagi knopkalarni ko'rsatib allanimalar deb bijirlab gapirardi. Unga qo'shilib men ham xursand bo'lib ketdim. Ammo birdan es-hushimni yig'ib oldim. Butun vujudimni issiq alanga qoplاب oldi; nima qilyapman o'zi?! Mashinaga tormoz berdim. Ammo Samad to'xtatishga ko'nmadı:

– Tezroq, amaki, tezroq haydang! – derdi u.

Bolaning iltijo bilan baxtiyor boqishlarini qanday qilib rad eta olardim. Tezlikni yanada oshirdim. Endigina g'izillab uchib borayotgan edikki, yo'lga gudron yotqizib yurgan greyder ko'rinish qoldi. Greyder burildi-da, smolali suyuqlikni yo'lga yotqizganicha bizga tomon kelaverdi, uning ketidan esa suyuqliklar solingan ulkan qozonlar orqasida Boytemir turgan ekan. U grabarka bilan yo'lga yotqizilgan gudronni tekislamoqda edi. Men dovdirab qoldim. Mashinani to'xtatmoqchi bo'ldim-u, ammo kechikkan edim: Samad bilan allaqancha yerga kelib qolgan edik. Men boshimni pastroq egdim-da, jon-jahdim bilan gazni bosdim. Boytemir hech narsani sezmay qoldi. U boshini ko'tarmay ishlab yotgan edi: bu yerdan o'tib turgan mashinalar kam deysizmi? Qaysi biriga ham qarardi! Biroq Samad uni ko'rib qoldi:

– Ana dadam! Amaki, keling, dadamni ham chiqarib olamiz, maylimi? To'xtating, dadamni chaqiraman!

Men indamasdim. Endi to'xtatishning iloji yo'q edi, unga nima deyman axir? Samad birdan orqasi ga qayrilib qaradi, qo'rqib ketdi-da, qichqirib yig'lab yubordi:

– Dadamga boraman! To'xtat, dadamga boraman! To'xtat, tushaman! O-o-yi-i!..

Muyilishdagi qoya orqasiga o'tib mashinani to'xtatdim. O'g'limni ovutishga urina boshladim:

– Yig'lama, Samad, yig'lama, qo'y! Hozir olib borib qo'yaman. Lekin yig'lama!

Ammo qo'rqib ketgan bola hech narsaga qulq solmasdi.

– Yo'q, tushaman! Dadamga boraman! Och! – deb kabina eshigiga yopishib taqillata boshladi. – Och, dadamga boraman hozir! Och!

Ana xolos, juda g'alati ish bo'ldi-ku.

– Yig'lamagin-da, axir! – deb yalinib-yolvorib, uni ko'ndirishga urinardim. – Hozir ochaman, yig'lamasang bo'lgani! Dadangning oldiga o'zim olib borib qo'yaman! Qani, tush-chi, ketdik!

Samad yerga sakrab tushdi-da, yig'lagancha orqaga chonib ketdi. Men uni ushlab qoldim:

– Shoshma! Ko'zingni art. Yig'lama. Jon o'g'lim, yig'lamagin! Mashinang qoldi-ku, olmaysanmi? Mana qara! – Men shoshib o'yinchoqni oldim-da, qal-tiroq qo'llarim bilan murvatini buradim. – Qara, sen-ga qarab chonib ketyapti, qani tutib ol-chi! – Mashinacha yo'lda g'izillab yurib ketdi va toshga urildi-da, yo'l yoqasidagi ariqqa chirpirak bo'lib uchib tushdi.

– Kerak emas! – dedi u va yana battarroq yig'lab, orqasiga qaramay qochib ketdi.

Men bo'sam dong qotib qoldim. Tomog'imga qay-noq dumaloq bir narsa qadalgandek bo'ldi. Men o'g'limga yetib olish uchun yana orqasidan chopdim:

– To'xtab tur, yig'lama, Samad! To'xta, men se ning... men, men sening, o'zing bilasan-ku! – Biroq davomini aytishga tilim kelmasdi...

Samad orqasiga qayrilib qaramay chonib borardi, u muyilishdan o'tib ko'zdan yo'qoldi. Men qoyagacha chonib borib, qochib ketayotgan o'g'limning orqasidan qarab qoldim.

Uning yo'lda ishlayotgan Boytemir oldiga yugurib borib, unga o'zini tashlaganini kuzatib turdim.

Boytemir Samadning oldida cho'qqayib o'tirdi-da, uni quchoqlab bag'riga bosdi. Bola ham men to-monga qo'rqib, xavfsirab qarab, uning bo'ynidan quchoqlab oldi.

Boytemir grabarkasini yelkasiga tashlab, Samadning qo'lidan ushladi. Ular yo'l bo'ylab uzun-qisqa yetaklashib ketishardi.

Men qoyaga suyanganimcha uzoq turdim, so'ngra orqaga qaytdim. O'yinchoq mashinacha oldida to'xtadim. U ariqda to'ntarilib yotardi. Ko'z yoshlarim yuzimdan oqib tusha boshladi. «Mana, ishning pachavasi chiqdi!» – dedim mashinamga, uning kapotini siypalab. Motorning issiq tafti yuzimga gup etib urildi... Endi o'g'lim bilan so'nggi uchrashuvimizning shohidi bo'lgan mashinamga nisbatan ham qandaydir mehr-muhabbatim oshib ketgan edi...

\* \* \*

Ilyos o'rnidan turib, eshikka tomon yurdi.

– Biroz sof havodan nafas olay, – dedi u.

Men kupeda qoldim. Yorishib kelayotgan sahar osmonining bir parchasi deraza ortidan oqarib, tebranib o'tib borardi. G'ira-shirada simyog'ochlar lip-lip o'tib turardi. Chiroqni o'chirsa ham bo'lardi.

Men Ilyos bilmagan, ammo menga ayon bo'lgan narsalarni unga aytib bersammikin, yo'qmikin, deb chalqancha o'ylab yotardim. Ammo u hadeganda kupega qaytib kelavermadni. «Mayli, dam olvolsin, ertaga aytarman», degan qarorga keldim. Aytmay yaxshi qilgan ekanman, chunki ertasiga yana o'ylab ko'rib, bu fikrimdan qaytdim.

Men yo'l masteri Boytemir bilan deyarli o'sha kezlarda – Ilyos Asal bilan o'g'lining dovonda yashayotganligidan xabar topgan chog'larda tanishgan edim. Pomirda Qирғизистон yo'l ishchilarining o'zaro tek-

shirish va tajriba almashish bo'yicha delegatsiyasini kutishayotgan edi. Shu munosabat bilan Tojikiston respublika gazetasi qirg'izistonlik tog' yo'li ishchilar haqida ocherk yozib berishimizni iltimos qilgan edi.

Delegatsiya orasida eng yaxshi yo'l masterlaridan biri Boytemir Qulov ham bor edi.

Men Boytemir bilan tanishish maqsadida Do'langa keldim. Biz u bilan to'satdan uchrashib qoldik va bu uchrashuv men uchun juda muvaffaqiyatli bo'ldi. Dovonga yetay-yetay deb qolganimizda avtobusimizni qo'lida qizil bayroqcha tutgan ishchi to'xtatdi. Bilsak, yo'lda hozirgina tog' o'pirilishi yuz berib, yo'l tuzatuvchilar uni tozalayotgan ekan. Men avtobusdan chiqib, o'pirilish yuz bergan joyga qarab ketdim. Tog' tepasida pastga qarab tosh aralash yer ko'chib, yo'nga qulab tushibdi-da, o'zi bilan birga yo'lning bir chekkasini to'sib qo'yilgan beton ustunchalarni ham qo'shib tik qiyalik bo'ylab jarlikka qarab o'pirib ketibdi. Yo'lning bu qismi taxta qoliqlar yordamida qaytadan tiklanayotgan edi. Buldozer uyilib qolgan tuproqni pastlikka surib tushirardi. Buldozer yurolmaydigan joylarni esa ishchilar belkuraklar bilan tozalab, shibalashardi. Brezent plash va kirza etik kiyib olgan kishi buldozer bilan yonma-yon yurib, traktorchiga yo'l-yo'riq ko'rsatmoqchi edi:

– Xiyol chaproqqa bur! Yana biroz ichkariga! Taxta qoliqlar ustidan hayda! Ha, shunday! To'xta! Orqaga!

Yo'l deyarli tozalab bo'lingan edi. Haydovchilar ikkala tomondan tinmay signal berishib, soqchi ishchilarни so'kib, yo'lni ochishni talab qilishardi, ammo plashli kishi bularga parvo qilmasdi. U buldozerni mo'ljallangan yerdan yurishga va qoliqlar ichidagi tuproqni yaxshilab shibalashga qayta-qayta majbur etardi. «Boytemir deganlari shu bo'lsa kerak. U

o‘z ishining ko‘zini bilarkan!» – degan qarorga keldim men. Ha, yanglishmabman, bu ayni shu kishining o‘zi ekan. Nihoyat, yo‘l ochilib, mashinalar harakatga tushib qolishdi.

– Siz nima qilib turibsiz, avtobusingiz ketib qoldi-ku? – dedi menga Boytemir.

– Men siz bilan uchrashgani keldim.

Boytemir taajjublanmadı ham. Men bilan oddiygina qo‘limni mahkam qisib ko‘rishdi.

– Mehmondan qochmaymiz, xursand bo‘lamiz.

– Sizda ishim bor edi, bake, – dedim uni hurmatlab.

O‘zimni ham tanitdim. – Yo‘l tuzatuvchilarimizning Tojikistonga borishidan sizning xabaringiz bormi?

– Ha, eshituvdim.

– Gap bunday. Pomirga ketishingiz oldidan siz bilan gaplashib olmoqchi edim.

Men kelishdan maqsadimni asta-sekin tushuntirar ekanman, borgan sayin Boytemirning qovog‘i osilib, dag‘al va qo‘ng‘ir mo‘ylovini o‘ychan silay boshladi.

– Kelganingiz-ku juda yaxshi bo‘libdi, – dedi u menga, – lekin Pomirga men bormayman, mening xususimda yozib o‘tirishingizning hojati ham yo‘q.

– Sababini bilsak bo‘ladimi? Ishlar ko‘pmi? Yoki uyda biron kor-hol bo‘ldimi?

– Ish ham yetarli, harqalay yo‘l-da, o‘zingiz ko‘rib turibsiz. Uyda deysizmi? – u papiroslar turib biroz jimb qoldi. – Uyda ham... albatta, hamma oilalar-da bo‘ladiganidek ozmi-ko‘pmi ishlar bor... Ammo Pomirga bormayman.

Men unga o‘xshagan yo‘l tuzatuvchilarning delegatsiya tarkibida borishining qanchalik muhim ekanligini tushuntirishga va ko‘ndirishga kirishdim. Ammo Boytemir ko‘proq hurmat yuzasidangina menga qulqolar edi, men uni har qancha tashviqot qilsam ham baribir ko‘ndira olmadim.

Men juda xafa bo‘ldim va birinchi galda o‘zimdan o‘pkaladim. Jurnalistlik sezgirligim bu safar ish ber-

madi, chunki men unga to‘g‘ri yondasholmagandim. Men dovondan tahririyatning topshirig‘ini ham, qo‘sni respublika gazetasining iltimosini ham bajar olmay quppa-quruq ketadiganga o‘xshab qoldim.

– Xo‘p, mayli, bake, kechirasiz, endi men ketay. Hozir biror yo‘lovchi mashina kelib qolar.

Boytemir menga osoyishta va sergak ko‘zlarini qadab, diqqat bilan tikildi-da, miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Shaharlik qirg‘izlar urf-odatlarimizni unutib qo‘yyaptilar-da. Mening uyim, oilam, dasturxonim va tunaydigan joyim bor. Meni deb kelgan ekansiz, yo‘ldan qaytmasdan, bugun uyimga tushib, ertaga ketarsiz. Yuring, men sizni xotinim va o‘g‘limning oldiga qoldirib qaytay: ko‘nglingizga olmaysiz, albat-ta. Qorong‘i tushmasdan yo‘lni bir aylanib chiqishim kerak. Tezda qaytaman. Ishimiz shunaqa...

– Bake! – deb to‘xtatdim uni. – Men siz bilan birga yo‘lni aylanib chiqqa qolay.

Boytemir mening shaharlik qiyofamga bir nazar tashlab oldi-da, ayyorona ko‘z qisib qo‘ydi:

– Qalay bo‘larkan, men bilan birga kezib yuri-shingiz sizga noqulay bo‘lmasmikin? Masofa uzoq, buning ustiga yo‘l ham yaxshi emas.

– Mayli, hechqisi yo‘q, – deb qat’iy turib oldim.

Shunday qilib, biz yo‘lga tushdik, har bir ko‘priq va muyilish oldida, o‘pirilgan joylar va osilib tur-gan qoyalar qarshisida yo‘l-yo‘lakay to‘xtab, ularni ko‘zdan kechirib borardik. Bularning hammasi yo‘l masterining ziyrak va o‘tkir nazaridan o‘tardi. Biz o‘z-o‘zidan gapga kirishib ketdik, albatta. Ha-li-haligacha nima uchun, qaysi so‘zim bilan, nimam bilan va qay yo‘sinda Boytemirning ishonchini qo-zonganligimni o‘zim ham bilolmayman. Azbaroyi shu ishonchi tufayli u menga o‘z taqdiri haqida va oilasining taqdiri haqidagi qissani so‘zlab berdi.

Faqat endigina, Ilyosning hikoyasini oxiriga qadar tinglab bo‘lgach, jurnalist sifatida omadim juda

o'ngidan kelganini tushundim. Zohiran xotirjam va osoyishta ko'ringan Boytemir o'sha kunlari o'zi bilan g'am-g'uissa, tashvish va o'y-xayollarning ulkan yuki-ni ko'tarib yurar edi. Qandaydir, tasodifan, ko'nglini yozish uchundir, Boytemir bir-ikki og'iz aytib yubor-di-yu, keyin gapini to'xtata olmay, qalbidagi dard-hasratlari qo'zg'alib, daryo kabi oshib-toshib ketdi...

## YO'L MASTERINING HIKOYASI

Mana siz, nega Pomirga borgingiz yo'q, deb so'radingiz. O'zim pomirlik qirg'izman. Tug'ilgan elim Pomir bo'lsa ham men bu yoqlarda, Tyan-Shanda yuribman.

Juda yoshlik chog'larimdanoq Pomir yo'l qurilishida ishlay boshladim. U yoqqa yoshlari tashkiloti chaqirig'i bilan borgan edim. Qurilish xalq qurilishi edi, mexanizmlar yetishmasdi, ish qanchalik og'ir bo'lmasin, biz, ayniqsa, yoshlari, ishtiyooq bilan, g'ayrat va shijoat bilan ishlardik. G'ayrat ko'rsatmay bo'larmidi: asrlar bo'yi inson qadami yetmagan Pomirga yo'l solinyapti-ya! Men zarbdorlar qatoriga o'tib oldim, dam-badam mukofot va in'omlar olib turardim. Buni maqtanib emas, shunchaki kezi kelgani uchun aytyapman.

U yerda, qurilishda men bir qizni uchratib, uni jon-dilimdan sevib qoldim. O'zi ham juda chiroyli, aqli qiz bo'lib, qurilishga ovuldan kelgan edi; bu esa o'sha paytlarda oddiy qirg'iz qizi uchun katta qahramonlik edi. U yog'ini surishtirganda, o'zingizdan qolar gap yo'q, hatto hozir ham qizlarning ishlab chiqarishga borib ishlashlari unchalik oson emas – bunga urf-odatlarimiz to'sqinlik qiladi. Gulbara bilan tanishganimizga bir yilcha bo'ldi. Yo'l qurilishi oxirlab qolgan edi. Yo'lni ishga solib yuborish uchun o'z kadrlarimiz bo'lishi zarur edi. Yo'l qurilishi ishning bir tomoni, uni birgalashib, umumiy kuch bilan bajara olish mumkin, shuning bilan birga, unga ko'z-qulqoq bo'lib, nazorat

ham qilib turish kerak-da. Bizda Husayinov degan bir yosh injener bor edi, u hozir ham yo'l sohasida ishlaydi, rahbar bo'lib xizmat qilmoqda. Biz u bilan do'stlashib qoldik. Menga yo'l ishlari kurslariga borib o'qishga maslahat bergen ham shu kishi bo'ldi. Men o'qishni bitirib kelgunimcha Gulbara kutib turolmas, uni ovulga olib ketib qolishar, deb o'ylagan edim, yo'q, u qaytishimni kutdi. Nihoyat, turmush qurib, o'sha yerda, yo'l uchastkasida qolib ishlay boshladik. Biz juda ahil va bir-birimizga mehribon edik... Shuni ham aytish kerakki, ayniqsa, tog' va dovonlarda yashovchi yo'l tuzatuvchilar uchun mustahkam oila – yaxshi xotin osh-nondek zarur. Men buni keyinroq o'z hayotimda sinab ko'rdim. Agar men o'z ishimni bir umrga jon-dilimdan sevib qolgan ekanman, bunda xotinimning xizmati ham oz emas. Biz qiz ko'rdik, keyin ikkinchisi dunyoga keldi, xuddi shu kezlarda to'satdan urush boshlanib qoldi.

Pomir yo'li sharros quyib bergen jaladan keyingi daryo kabi chayqalib, to'lqinlanib ketdi. Butun xalq ana shu daryo singari pastga tomon oqa boshladi – ular armiyaga ketayotgan edi.

Nihoyat, menga ham navbat keldi. Ertalab ham-mamiz boshlashib uydan yo'l yoqasiga chiqdik. Kichkina qizchamni qo'llimda ko'tarib borardim, kattasi esa barimdan ushlab olgancha yonma-yon borardi. Gulbaram, bechora Gulbaram! Uning qo'lida mening safar xaltam, o'zini dadil tutishga va meni ham ovutib, tinchitishga urinardi. Ammo kimsasiz tog'-u toshlardagi yo'l uchastkasida ikki yosh bola-yu, yana xuddi o'ziga o'xshash ikki qo'shni ayol bilan qolish unga naqadar og'ir ekanligini butun qalbimdan sezib turardim. Men ularni ovulga: qarindosh-urug'larim oldiga jo'natmoqchi bo'ldim, ammo Gulbara istamadi. Kunimizni bir amallab o'tkazarmiz, seni kutamiz, yo'lni ham qarovsiz qoldirib

bo'lmaydi-ku, axir, derdi u. Men rafiqam va farzandlarim bilan so'nggi marta yo'l yoqasida turib xayrashdim. Biz Gulbara bilan u vaqtida hali juda yosh, hayotga endigina qadam qo'ygan edik...

Men sapyorlar bataloniga tushdim. Moskva ostonalaridagi ko'pgina tankka qarshi qurilgan to'siqlarga mening ham qo'llim tekkan. Keyin esa Don va Visla daryolarini kechib o'tib, Dunayga qarab ketdik. Urush maydonlarida biz qanchadan-qancha yo'llar, kechuv joylari, ko'priklar barpo etdik. Qilgan ishlarimizni sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi! Ba'zan shunday paytlar ham bo'lardiki, goh muzday suvda titrab-qaltiraysan, goh tutun va olov ichida yonasan, atrofingda snaryadlar betinim portlaydi, kechuv joylarni ostin-ustin qiladi, qanchadan-qancha odamlar qiriladi, tinka-madoring qurib, o'lishingga ham ming marta rozi bo'lasan. Biroq shunday paytlarda tog'-toshlarda yashab, xuddi Xizrni yo'qlagan-dek meni intazorlik bilan kutayotgan bola-chaqamni eslasam va Pomirdek joydan bu yerda, ko'prik os-tida bekordan-bekorga o'lib ketgani kelmaganimni o'ylasam, kuch-qudratim shu qadar ortib ketardiki, bir-biridan ajralib ketayotgan simlarni hatto tishlarim bilan burardim, hayotdan voz kechgim, taslim bo'lgim kelmasdi. Ana shu kuch bilan Berlin ostonaligacha yetib bordim.

Xotnim tez-tez xat yozib turardi, yaxshiyamki, pochta ularning yonginasidagi yo'ldan o'tardi. U hamma narsa haqida, shu jumladan, yo'l haqida ham batafsil yozardi – u mening o'rning mas-ter bo'lib qolgan edi. Unga juda og'ir ekanligini billardim: yo'l ham uncha-muncha yo'llardan emas, Pomirda-ya! Buning ustiga, qo'shnilar ham duch kelgan tomonga qarab ko'chib ketishibdi.

Qirq beshinchchi yilning bahoriga kelib to'satdan xat kelmay qo'ydi. Front pochtasida har xil hodisa-

lar bo'lishi mumkin-ku, deb o'ylab, o'zimni o'zim ovutardim. Kunlardan birida meni polk shtabiga chaqirib qolishdi. «Xo'sh, gap shunaqa, starshina, urushib bo'lding, yaxshi jang qilding, tashakkur va mukofotlar ham olding. Endi uyingga qaytasan, u yerda sen hozir ko'proq keraksan. Ammo birinchi navbatda harbiy komissariatga kir, hujjatlarining topshir, keyin uyingga jo'na...» Men kutilmagan bu xabardan quvonib ketdim, albatta. Hatto uyga telegramma ham yubordim.

Men qadrdon joylarimga yetib keldim. Harbiy komissariatga esa kirib o'tirmadim, ulgurarman hali, qayoqqa qochib ketardim! Uyga! Tezroq uyga yetib boray! Yo'lovchi polutorka mashina uchrab qoldi, men unda Pomir yo'li bo'ylab jo'nab ketdim.

Qani endi qanotim bo'lsa-yu, uchib borsam, frontdagi «Studebekker»larda yurib o'rganib qolibman, kabinaga engashib haydovchiga qichqirardim:

— Tezroq hayda, oshna, shaldiriq aravangni muncha ayamasang! Uyimga ketyapman!

Mana, yaqinlashib ham qoldim. Muyilishdan o'tish bilan mening uchastkam. Sabr-toqatim chidamadi. Mashinaning yurib ketayotganiga qaramay, sakrab tushdim-da, safar xaltamni yelkamga tashlab, yugurib ketdim. Shunday qilsam tezroq yetib boraman, deb o'yladim. Chopyapman, chopyapman, muyilishdan ham o'tdim... O'tdim-u, hech narsani taniyolmadim. Go'yo hamma-hammasi o'z joy-joyida turgandek: tog'lar ham o'z o'rnila, yo'l ham o'sha, ammo na uy-joy, na hovli va na biron tirik jon zoti ko'rinardi. Faqat tosh uyumlarigina qalashib yotardi. Bizning hovlimiz xiyol chetroqda, naq tog'ning tagginasida edi. Tog' etagidagi joylar juda tor edi. Tog'ga ko'zim tushdi-yu, darhol dong qotib angrayib qoldim. Balandlikdan qor qatlari ko'chib, o'zi bilan birga yo'lda uchragan hamma narsani tep-tekis

qilib supurib ketgan, go'yo o'tkir tirnoqli temir pan-jalari bilan tog‘ yon bag‘irlarini qo‘porib, pastlikka ag‘anatib uloqtirgan-u chuqur va ulkan jarlikning sahnini qo‘shto‘ntar qilib tash-lagan edi. Xotinim o‘zining so‘nggi xatida juda qalin qor tushganini, so‘ngra kutilmaganda yomg‘ir yog‘a boshlaganini yozgan edi. Demak, qor uyumini qulamasidan ertaroq portlatib, pastga qulatib yuborish zarur edi, biroq bu ayol kishining qo‘lidan kelarmidi.

Ana shunday qilib, oilam bilan ham uchrashmadim. Ming bor o‘lim bilan yuzma-yuz kelib, tiriklayin do‘zaxga tushib qaytsam-u, bu yerda bola-chaqmdan nom-nishon bo‘lmasa. Tinka-madorim qu-rib, qotib turardim. Tog‘-toshlarni larzaga keltirib hayqirgim, dod degim kelardi-yu, nafasim bo‘g‘zimga tiqilib, ovozim chiqmasdi. Go‘yo butun vujudim toshga aylanib qotib qolgandek edi. Faqat yelkam-dagi safar xaltamning sirg‘alib oyog‘im ostiga tushib borayotganini sezib turardim, xolos. Men uni o‘sha yerga tashlab ketdim, unda qizlarimga, xotinimga sovg‘alar olib kelgan edim, yozda gimnastyorkamni novvotga ayirboshlab oluvdim. Men turgan yerimda go‘yo biror mo‘jizani kutayotgandek uzoq turib qoldim. Keyin orqamga qayrildim-da, yo‘ldan ketaverdim. Bir zum to‘xtab, ortimga qayrilib qaradim, tog‘lar sarak-sarak bo‘lib tebranib, butun og‘irliklari bilan ustimga bostirib kelayotgandek bo‘ldi. Yuragim qinidan chiqayozgandek qichqirib yubordim-da, qocha boshladim. Qoch! Bu la’nati joylardan qoch! Ana shunda dahshatli ovoz bilan ho‘ngrab yig‘lab yuborgan edim.

Qayoqqa va qay tarzda borayotganligimni eslayolmayman, uchinchi kuni stansiyaga kelib qolibman. G‘ala-g‘ovur xalq to‘lqini ichida adashgan kishidek daydib yurardim. Nomimni atab bir ofitser meni chaqirib qoldi. Qarasam – injener Husayinov. Harbiy

xizmatdan bo'shab, uyiga qaytayotgan ekan. Men boshimga tushgan kulfat haqida unga ikki og'izgina so'zlab berdim. Endi qayoqqa bormoqchisan, deb so'radi u. «O'zim ham bilmayman», deb javob berdim. Yo'q, dedi u, bunday qilish yaramaydi, chidash kerak. Bir o'zingning sandiroqlab yurishingga yo'l qo'ymayman. Qani, yur, Tyan-Shanga ketdik, yo'lni qurib tugallash kerak. U yog'ini yana ko'rarmiz.

Men bu yerga ana shunday qilib kelib qolganman. Dastlab yo'lda ko'priklar qurib yurdim. Vaqt o'tib borardi, biror ishning boshini tutish kerak edi. O'sha kezlarda injener Husayinov boshqarmada ishlayotgandi. U mening oldimga tez-tez kelib turar va har kelganida avvalgi ishimga, uchastka yo'l masteri bo'lib o'tishga maslahat berardi. Bunga yuragim dov bermasdi. Eslasam, yuragim orqaga tortib ketardi. Qurilishda yakka o'zim emasman, ko'pchilik bilan ishlash oson bo'ladi. U yoqda-chi, kim biladi, yolg'izlikdan yuragim yorilib ketsa kerak. Oradan necha yillar o'tib ketdi. Biroq men hamon o'zimni o'nglomas, boshimga tushgan tashvishlarni unutolmasdim. Go'yo shu bilan hayotim tamom bo'lgan-u, bundan bu yog'iga hech narsadan umidim yo'qdek edi. Uylanishni xayolimga ham keltirmasdim. Gulbaram va bolalarimni haddan tashqari sevar edim. Hech kim, hech qachon ularning o'rnini bosa olmaydigandek tuyilardi menga. Faqat kun kechirish uchungina va shunchaki uylanish esa – ish emas. Bundan ko'ra so'qqabosh bo'lib yurgan ma'qulroq.

Nihoyat, uchastkaga master bo'lib borishga qaror qildim, ishlab ko'raman, agar yoqmasa, yana biror yoqqa ketaveraman-da, deb o'yladim. Menga bu yerda dovonning naq o'zidagi uchastkani berishdi. Yomon bo'ljadi, asta-sekin kirishib, ko'nikib ketdim. Ehtimol bunga uchastkaning juda sertashvishligi sabab bo'lgandir: dovonda, har qancha desangiz

ham ish topiladi. Ammo bu menga og'irlik qilmadi, aksincha, yaxshi bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan qalbimdag'i dard-alamlar so'na boshladi, ularni asta-sekin unuta bordim. Ba'zi-ba'zida o'sha mudhish kun tushimga kirib chiqardi: o'sha yer yuzidan supurilib ketgan hovli qarshisida toshdek qotib, yelkamdag'i safar xaltamning sirg'alib oyog'im ostiga tushib borayotganini sezib turaman. Keyin qayrilardim-da, orqamga qarab qaytib ketardim. Uyg'onib ketib qarasam, ko'zimda g'ilt-g'ilt yosh bo'ladi. Bunday paytlarda sahardayoq o'rnimdan turib ishga jo'nardim, shu ketganimcha to tunga qadar uya qaytmasdim. Shu tariqa men so'qqabosh bo'lib qolgandim. To'g'ri, ahyon-ahyonda: «Ehtimol, hali yana baxtli kunlarga erisharman», degan hazin o'y xayolimga kelib qolardi.

Nihoyat, juda og'ir, iztirobli va cheksiz mashaqqatli bu baxt men kutmagan bir paytda kelib qoldi.

Bundan to'rt yilcha muqaddam tugab borayotgan qish kunlarining birida qo'shнимning bemor onasini kasalxonasiga olib borgan edim. Qo'shнимning o'zi bo'lsa uydan bo'shab chiqa olmasdi. Bir yoqda ish, oila, bir yoqda bolalari... Kampirning ahvoli esa kun sayin og'irlashib bormoqda edi. Men uni vrachlarga ko'rsatishga ahd qildim. Shu kun uchastkamizga yo'l boshqarmasidan mashina kelib qoldi. Unda nimadir keltirishgan edi. Biz ana o'sha mashinada markazga bordik. Kampirni vrachlarga ko'rsatdim. Vrachlar kampirni kasalxonaga yotqizish kerak, yotqizilmasa bo'lmaydi, deb maslahat berishdi. Kampir kasalxonaga birinchi marta tushganidan, yotmayman, deb qaysarlik qilib turib oldi, o'sam o'lamanki, ammo kasalxonada qolmayman, derdi u. Qaytarib olib ket, bo'lmasa qarg'lshimga qolasan. Shuncha qilsam ham uni ko'ndira olmadim. Yana qaytarib olib ketishga to'g'ri keldi. Turli-tuman dori-darmonlar olib, orqaga qaytdik. Vaqt allamahal bo'lib qolgan edi. Avtobazanining

dovondagi bazasidan o'tib ketdik. Bir payt haydovchi mashinasini shartta to'xtatdi, men uning:

– Qayoqqa borasiz? – deb so'rayotganini eshitdim.

Allanima deb mujmalgina javob qaytargan ayol kishining ovozi qulqoqqa chalindi va uning nari keta-yotgan odim sharpasi eshitildi.

– Chiqa qoling! – dedi haydovchi unga. – Nega unday qilasiz? – deb mashinani unga yaqinroq haydab bordi.

Qo'lida bola, tuguncha ko'tarib olgan yoshgina ayol mashina bortiga yaqinlashdi. Men ayolning ku-zovga chiqib olishiga yordamlashdim, kabina orqasi-dagi shamol tegmaydigan pana joyni unga bo'shatib berib, o'zim burchakka o'mashib oldim.

Biz yo'lga tushdik. Kun sovuq, rutubatli shamol esardi. Bola yig'lay boshladi. Ayol bolani ovutish-ga har qancha urinmasin, u sira tinchlanadiganga o'xshamasdi. Toza chatoq bo'ldi-ku! Kabinaga o'tqa-zay desak, u yerda chalajon kampir o'tirardi. Shun-da men ayolning yelkasidan sekingina turtdim:

– Qani, menga bering-chi, ehtimol, tinchib qolar, o'zingiz sal egilibroq o'tiring, shamol tegmasin.

Men bolani kalta po'stinim bilan o'rab oldim-da, bag'rimga bosdim. U tinchib, pishillab nafas ola bosh-ladi. Juda do'mboq, o'ziyam o'n oylik chamasi jajji-gina bola ekan. Men uni chap bag'rimga olib o'tirardim. Birdan yuragim gupillab, xuddi otib tushirilgan qush kabi tipirchilay boshladi. Nega ekanligini o'zim ham bilmayman. Qalbim ham qayg'u, ham quvonchli tuyg'ularga to'lgan edi. «Eh, nahotki, hech qachon ota lik baxtiga tuyassar bo'lolmasam-a», deb o'ylardim men. Bola esa bag'rimda issiqliqina yotardi. Unga bosh-qasida hech narsaning keragi ham yo'q edi.

– O'g'ilmi? – deb so'radim.

Ayol bosh irg'ab qo'ydi. Ko'rib turibman, bechora sovqotib qolgan, egnida yupqa palto. Men bo'ssam

qishda ham kalta po'stin ustidan plash kiyib yuraman: bizning ish sharoitimidza busiz mumkin emas. Bolani bir qo'linda ushlab turib, unga ikkinchi yengimni cho'zdim.

- Plashimni yeching. Bunaqada shamollab qolasiz.
- Yo'g'-e, qo'ying, ovora bo'lmang, - deb ko'nmadu.
- Torting, tortavering! - deb turib oldim men. -

Yopinib oling.

U plashga o'ralib oldi, shamol kirmasin deb etaklarini oyog'i ostiga qistirib qo'ydim.

- Biroz isidingizmi? - deb so'radim men.
- Ha, isidim.
- Yo'lga namuncha kech chiqdingiz?
- Shunday bo'lib qoldi, - dedi u ohistagina. Shu payt biz daradan ketayotgan edik. Bu yerda konchilar posyolkasi joylashgan edi. Hamma uyquga ketgan, derazalarda bironta chiroq ko'rinsa masdi. Itlar vovillab mashina ketidan chopishardi. Shunda birdan, bu ayol qayoqqa borarkin, degan fikr xayolimga keldi. Men, nima uchundir, u konga kelayotgan bo'lsa kerak, chunki u yoqda boradigan joy yo'q, dovon, undan keyin esa bizning uchastka, deb o'ylardim o'zimcha.

- Siz yetgan bo'lsangiz kerak? - dedim unga va kabinani taqillatdim. - Biz ham yetay deb qoldik, dovonga kelyapmiz. Mashina nariga bormaydi.

- Bu yer qanaqa joy? - deb so'radi u.

- Kon. Siz bu yerga kelayotganingiz yo'qmi?
- Men... men shu yerga kelayotgandim, - dedi u qimtinib. Keyin «dik» etib turdi-da, menga plashni berib, qo'liga bolani oldi. Bola hiqillay boshladi. Men bortga yaqinroq kelib, unga yordamlashish uchun yerga sakramoqchi bo'ldim. Biroq bu bechoraga bir gap bo'lgan, boshiga biron musibat tushgan ko'rindi, deb o'ylab qoldim. Sovuq tunda yolg'iz o'zini tashlab ketsak qanday bo'larkin?

- Sizning boradigan joyingiz yo'q! - dedim men unga ro'yi-rost. - Yomon xayollarga bormang, tag'in.

Bolani bu yoqqa bering! – deb qo'lidan go'dakni shartta oldim. – So'zimni qaytarmang. Tunni biznikiда o'tkazasiz, keyin ixtiyor o'zingizda. Ketdik! – qichqirdim haydovchiga.

Mashina qo'zg'aldi. U boshini quyi solib, jimgina o'tirardi, bilmadim, ehtimol yig'layotgandir.

– Xavotir olmang! – deb tinchlantirdim uni. – Men sizga hech qanaqa yomonlikni ravo ko'rmayman. Men yo'l masteri Boytemir Qulov bo'laman. Menga **bemalol ishonaver**ing.

Ularni o'z xonamga joylashtirdim. O'zim unga taqab qurilgan bo'sh uychamizga kirib, yog'och karavotga yotdim.

Allamahalgacha uxlay olmadim. O'ylar girdobida qoldim. Tinchimni yo'qotdim. So'rab-surishtirib o'tirish juda noqulay edi. O'zim ham buni yoqtirmayman, ammo baribir ayrim narsalarni so'rashga to'g'ri keldi. Ehtimol, u bechoraga mening yordamim kerakdir. U savollarimga istar-istamas qisqa-qisqa javob qaytarardi. Biroq men aytilemay, uning yuragida qolib ketayotgan gaplarni ham anglab turardim. Agar insonning boshiga musibat tushsa, uning har bir so'zining tagida yana aytilemay qolgan o'nlab so'z yotadi. U erini tashlab, uyidan chiqib ketibdi. Takabburroq bo'lsa kerak, azob chekayotgani, kuyunayotgani sezilib turibdi-yu, ammo hech taslim bo'imoqchi emasdi. Nima ham deyish mumkin, har kimning ixtiyori o'zida. Nima qilsa o'zi biladi. Shunday bo'lsa ham bu yoshgina ayolga juda rahmim kelardi. U hali o'n gulidan bir guli ochilmagan qizchaga o'xshardi, qaddi-qomati kelishgan, chehrasidan nur balqib turardi. Odatda u mehribon, shirinso'z edi, ehtimol, samimi ayoldir. Shunday juvonni hamma narsadan mahrum etib, bosh olib ketishga majbur etgan qanaqa inson ekan-a? Bunga sira tushunolmasdim. Keling, menga nima, bu ularning ishi. Ertaga biror mashinaga o'tkazib qo'yaman.

O'sha kuni o'ylayverib charchab ketdim, ko'zim ilinishi bilan o'zimni mashinada ketayotgandek his qildim. Kalta po'stinim ostiga jajji bolani o'rab ol-ganmishman. Go'dakning badaniga issiq yugurib, ko'ksimda maza qilib yotganmish.

Tongotarda o'rnimdan turdim. Yo'llarni ko'zdan kechirib kelgani ketdim, ammo tez orada qaytdim. Mehmonlarim nima qilishayotgan ekan, degan o'y miyamdan ketmasdi. Ularning uyqusini buzmaslik uchun ehtiyyotlik bilan old xonadagi pechkaga o't yo-qib, samovar qo'ydim. Ammo u allaqachon uyg'onib, ketishga hozirlik ko'rayotgan ekan. U menga minnatdorchilik bildirdi. Ularni choy ichirmay jo'nat-madim, biroz kutib o'tirishga majbur qildim. Tungi kichkintoy hamrohim ajoyib bola ekan, odamga sira tortinmay kelaveradi, hech narsa bilan ishi yo'q. U bilan o'ynashib huzur qildim, xumordan chiqdim: u bilan darhol ko'nikishib, apoq-chapoq bo'lib ketdim. Choy ustida ayoldan so'radim:

– Qayoqqa borishingiz kerak? Yo'lovchi mashina to'xtataymi?

U biroz o'ylanib turdi-da:

– Ribacheva, – dedi.

– U yerda qarindoshlaringiz bormi?

– Yo'q. Qarindosh-urug'larim ovulda, To'so'rning narigi yog'ida.

– E-ye, unda siz ana o'sha tomonga boradigan boshqa mashinaga o'tirishingiz kerak. Bo'lmasa qiy-nalib qolasiz.

– Men baribir u yoqqa bormayman. Borishimiz ham mumkin emas, – dedi u o'g'liga o'ychan boqib. – O'zimiz aybdormiz...

Men uni ota-onasining rozilgisiz turmushga chiqqan bolsa kerak, deb o'zimcha taxmin qillardim. Keyin bilsam, haqiqatan ham shunday ekan.

U ketishga tayyorlana boshladi, biroq men uni bolasi bilan shamolda turib qolmasin deb biroz uyga

kirib kutib turishga ko'ndirdim. Mashinani bir o'zim to'xtatsam ham bo'ladi-ku, axir.

Yuragim ezilib, yo'lga chiqdim. Ularning ketishi-ni, o'zimning esa yolg'iz qolishimni o'ylasam negadir yana qayg'um oshib, xayolim parishon bo'lardi.

Avval yo'lovchi mashinalar kelavermadı. Keyinchalik bo'lsa bittasini ko'ra turib atayin o'tkazib yubordim, qo'l ko'tarmadim. Ammo bu qilmishim-dan o'zim cho'chib ketdim. Nega bunday qilyapman? Ana shundan boshlab meni dard-alamlarim iztirobg-a solib qiyinay boshladi. Mashinalar birin-ketin o'tib borardi, men esa ularning birortasini ham to'xtatmay, g'ayriixtiyoriy ravishda vaqtini cho'zardim. Endi kelganini to'xtataman, derdim-u, ammo qo'lim yana ko'tarilmasdi. Uyatdan yuzlarim laxcha cho'g' bo'lib yonib, terlab ketdim. Bu nima qilganim: birovni aldab, yo'lidan qoldiryapman-ku! Qanday haqim bor bunga? Uyda u menga ishonib umid bilan kutib o'tiribdi. Yo'l bo'ylab u yoqdan bu yoqqa yura boshladim. O'zimdan o'zim cho'chirdim. Menga bir balo bo'layotgandek edi. Qandaydir bahona-yu sabablar qidirib topardim. Goh oynasi siniq ekan, kabina sovuq bo'ladi, deyman; goh mashina ko'ngildagidek bo'lmasdi; goh haydovchi yoqmasdi – olatasirchi ko'rinaridi, ehtimol, ichib ham ol-gandir. Kabinasi band mashinalar o'tganda esa xuddi yosh bolalardek quvonib ketardim. Ishqilib, ular hozir ketmasaydi, yana biroz, yana besh-o'n daqiqa uyimda o'tira turishsa yaxshi bo'lardi. «Axir u qayoqqa ham boradi? – deb o'ylardim men. – O'zi aytdi, ovulga borishi mumkin emas. Boshqa joylarda ularning hech kimi yo'q. Ribache yo'l ustidagi serqatnov shaharcha, u yerda har xil odam yashaydi. Bolasi bilan qayerga boradi? Durustroq joy topguncha, qish paytida o'g'li-dan ajralib qoladi! Yaxshisi, shu yerda biroz yashab turishsin, yana u yoq bu yoqni o'ylab ko'rsin, ehtimol, erinikiga qaytib borar. Yo u xotinini izlab kelib qolar...»

E, sho'rpeshona, yaxshisi, tentirab yurmasdan uning o'zini yo'l yoqasiga boshlab kelib, jo'nata qolsam bo'lmasmidi! Uch soatlar chamasi yer depsab vaqt ni bekor o'tkazdim. O'zimdan-o'zim nafratlandim: nega, nima uchun bunday qilyapman-a? Yo'q, hozir uni bu yerga boshlab kelaman-da, o'zining oldida mashina to'xtataman. Bo'lmasa, hech narsa qilolmay turaveraman. Men uyga qaytdim. U endi eshikdan chiqib kelayotgan ekan, kutaverib toqati toq bo'libdi. Men uyalib ketdim, xuddi biror gunoh qilib qo'ygan yosh boladek unga javdirab qaradim.

– Kutib qoldingiz-a? – deb g'o'ldiradim men. – Yo'lovchi mashinalar uchramadi, to'g'rirog'i, uchradi-yu, ammo ko'ngildagidek emas ekan. Kechirasiz, tag'in yomon xayollarga borib yurmang. Xudo haqi, uyga kirib biroz o'tira turing. O'tinib so'rayman!

U taajjublanib, menga ma'yusgina boqdi-da, indamay uyga qaytib kirib:

- Siz menga achinyapsizmi? – dedi.
- Yo'q, uning uchun emas. Bilasizmi... Siz uchun tashvishlanyapman. Qiynalib qolasiz. Qanday qilib kun kechirmoqchisiz?
- Ishlayman. Suyagim mehnatda qotgan.
- Qayerda ishlaysiz?
- Biror yerga joylasharman. Ammo uyga qaytmayman, ovulga ham bormayman. Mehnat qilib kun kechiraman.

Men indamadim. Hammasi tushunarli edi. U hozir hech narsa haqida o'ylamasdi, ko'ziga ham hech narsa ko'rinasdi.

Alam, g'urur uni noma'lum tomonlarga haydamoqda edi. Ammo «mehnat qilib kun kechiraman», deyish aytishgagina oson, axir. Ishlab kun kechirish to'g'ri-ku, lekin hadeguncha unga erisha qolmaysan kishi. Insonni o'z erkiga, xohishiga qo'ymaslik ham yaxshi emas.

Bola menga qarab talpindi. Uni ko'tarib oldim. Uning yuzidan o'parkanman: «Eh, do'mbog'im, sendan ajralishga to'g'ri kelyapti-ku. Qaniydi sen bilan bir umrga ajrashmasak. O'z o'g'limdek qadrdon va aziz bo'lib qolgan eding menga», deb o'tkazdim ko'nglimdan.

– Ha, mayli, yuring, – dedim keyin sekingina.

O'rnimizdan turdik. Men bolani ko'tarib oldim, biroq eshik oldiga borganda to'xtab:

– Ish bo'lsa bizda ham topiladi, – dedim yana unga.

– Shu yerda ishlasangiz ham bo'ladi. Kichikroq xona ham bor. Rost, qola qoling. Shoshilmang. Ketishga har vaqt ulgurasiz. Yana o'ylab ko'ring...

U avval indamay turdi. Ammo men hozircha bu yerda ishlab turishning afzalligini, so'ng nima qilish zarurligini hayot o'zi ko'rsatishini, ketgisi kessa xohlagan vaqtida keta olishi mumkin ekanligini aytib, unda ishonch hosil qildim.

Shunday qilib, Asal va Samad, ularning ismi shunday ekan, bizning yo'l uchastkamizda qolishdi.

Hovlidagi qo'shimcha qurilgan uycha sovuq edi, shuning uchun Asalni o'g'li bilan mening xonamda yashashga ko'ndirdim, o'zim bo'lsam o'sha hujraga ko'chib o'tdim. Menga shu uycha ham yetardi.

Shu paytdan boshlab mening hayotim o'zgarib ketdi. Bir qarashda-ku, hech narsa o'zgarmagan-dek ko'rinardi, hamon avvalgidek so'qqabosh edim, ammo men o'zimni yana inson his qila boshladim, uzoq yillik yolg'izlikda sovigan qalbim tag'in iliy boshladi. Men endi yakka o'zim yashamasdim... Odamlar bilan kishilar orasida yashash, ishlash, do'stlashish, umum ishini ado etish, yordamlashish va yordam olish naqadar yaxshi. Kuning bitib, vaqt-soating yetib o'lganingda ham boshqalardan kam qilib ko'mishmaydi... Ammo shunga qaramay, hayotning bir tomoni borki, uni sevgilingga bo'lgan mehr-mu-

habbatdan bo'lak hech narsa bilan almashtirib, to'ldirib bo'lmaydi... Men kichkintoyga juda o'rganib qoldim. Uchastkaga aylanib chiqqan paytlarda ham uni issiqliqina qilib o'rab olib, o'zim bilan birga ko'tarib yurardim. Xullas, bo'sh vaqtimning hammasini u bilan o'tkazardim. Shu paytgacha qanday qilib yashab kelganimni tasavvur eta olmayman. Qo'shnilarim ham ancha durust kishilar edi. Ular Asalga ham, Samadga ham mehribon edilar. Bolani kim sevmaydi, deysiz. Asalning o'zini olsak dilkash, samimiyl, ochiq ko'ngilli ayol, shuning uchun ham u uchastkadagilar bilan til topishib, aralashib-quralashib ketdi. Mening esa kichkintoyga ham, Asalga ham mehr-u muhabbatim yanada oshib ketdi. Bolaga mehrim onasiga bo'lgan mehr-muhabbat bilan payvasta edi. Rostini aytsam, har qancha urinsam ham his-hayajonlarimni o'zimdan-o'zim yashira olmadim. Asalni sevib qolgan edim. Bir umrga butun qalbim bilan yolg'izlikda o'tkazilgan hijronli yillar, barcha azob-uqubatlarim evaziga uni behad sevib qoldim. Barcha judoliklarim, g'am-hasratlarim bu muhabbatga mujassamlashgan edi. Ammo buni unga oshkor etishga haqim yo'q edi. Asal hamon erini kutardi. Kutishga uzoq kutardi-yu, biroq hech sir boy bermasdi. Biz yo'lda ishlayotgan kezlarda uning har bir yo'lovchi mashinani intizor va umidvor ko'zlari bilan kutib olishi va kuzatib qolishini ko'pincha sezardim. Ba'zan o'g'lini ko'tarib yo'l yoqasiga chiqar va u yerda necha soatlab o'tirar edi. U ko'rina qolmasdi. U kim va qanaqa odam ekanligini bilmayman, buni so'ramasdim ham, Asal ham buni hech kimga so'zlamasdi.

Vaqt o'tib borardi. Samad ham ulg'ayib qoldi. Oh, u juda sho'x, jajji toychoq ediki, bilmayman, birov o'rgatganmi yoki o'rganganmi, har holda u meni dada, deya boshladi. Ko'rdimi, bas: «Dada!» «Dada!» – deb

bo'yninga osiladi. Asal Samadga qarab o'ychan jil-mayib qo'yardi. Men bo'ssam ham quvonardim, ham yuragim o'tanib azob chekardim. Unga ota bo'lishga ming bor rozi edim-u, ammo nima ham qila olardim...

O'sha yili yoz kunlaridan birida biz yo'l tuzatayot-gan edik. Mashinalar bizni chetlab o'tib borardi. Asal qo'qqisdan haydovchilardan biriga qarab qichqirdi:

– Hey, Jontoy, to'xta!

Mashina bizzdan biroz o'tdi-yu, taqqa to'xtadi. Asal haydovchi tomon chonib ketdi. Ularning nima haqda gapirishganlarini bilmadim-u, ammo Asalning to'satdan kabinaga qarab qichqira boshlagani-ni eshitib qoldim:

– Aldayapsan! Yolg'on! Ishonmayman! Yo'qol bu yerdan! Hoziroq yo'qol!

Mashina yo'liga ravona bo'ldi. Asal esa yo'lni kesib o'tib, uyga qarab otildi. Aftidan, u yig'layotgan edi.

Lattadek bo'shashib, qo'llim ishga bormay qoldi. Kim bo'ldi u? Asalga nima dedi? Shunga o'xshagan shubha va taxminlar qamrab oldi meni. Chidab tura olmay, uyga yurdim. Asal o'g'li bilan uyda o'tirar edi. Axiri bo'lmadi, kechqurun uning oldiga kirdim.

– Samad qani? Uni juda sog'inib qoldim! – dedim men.

– Mana, bu yoqda, – dedi Asal ma'yusgina.

– Dada! – deb menga talpindi Samad. Uni qo'llinga ko'tarib, erkalatdim. Onasi esa g'amga botib, in-damay o'tirardi.

– Nima bo'ldi, Asal? – deb so'rading.

Asal chuqur xo'rsinib qo'ydi.

– Men ketaman, bake, – dedi u. – Bu yerda tur-mushim yomon bo'lganidan emas, albatta, sizdan ming marta minnatdorman. Biroq nega, qayoqqa ekanligini o'zim ham bilmayman-u, boshim oqqan tomonga ketaman...

U bu gaplarni shunchaki aytgani yo'q, buni ko'rib turibman, g'am-alam ichida ketib qolishi mumkin. Haqiqatni aytishdan bo'lak ilojim qolmagan edi.

– Nima ham derdim, Asal, seni bu yerda ushlab turishga haqim yo‘q. Ammo sen ketgach, bu yerda yashay olmayman, men ham bosh olib ketishim kerak. Vayron bo‘lgan uy-joyimni bir marta tashlab ketganman. O’shandan buyon biroz ko‘nikib qolgandek bo‘luvdim... Tasodifmi bu yoki taqdirmi, faqat sen va o‘g‘ilchang bilan birga bo‘lib, g‘am-g‘us-salarimni unuta boshlagan edim. Buni gapirib o‘tirishning hojati ham yo‘q, o‘zing bilasan, Asal. Agar sen hozir ketadigan bo‘lsang, bu yer ham Pomirda qolib ketgan uyim kabi men uchun haromga aylanadi. O‘ylab ko‘r, Asal... Mabodo u qaytib kelsa va qalbing unga undaydigan bo‘lsa, sizlarga zarracha xalal bermayman, doim erking o‘zingda, Asal...

Men shu so‘zlarni aytib Samadni ko‘tarib oldim-u, yo‘lga chiqdim. U yerda Samadni anchagacha ko‘tarib yurdim. Bu toychog‘im hech narsani tushunmasdi.

Asal shu ko‘yi vaqtincha yashab qolaverdi. Ammo uning nimalar haqida o‘ylab yurgani, qanday qarorga kelgani menga qorong‘l edi. Bu kunlar ichida men ozib-to‘zib qorayib ketdim.

Bir kuni tush paytida allaqanday ish bilan hovliga kirib qoldim. Qarasam, Samad ajabtovur yurishga intilyapti. Asal uni, tag‘in yiqilib tushib lat yemasin, deb qo‘rqib, sal ushlab turardi. Men to‘xtadim.

– Bake, qara, o‘g‘ling endi yuradigan bo‘lib qoldi!  
– dedi quvonch bilan jilmayib.

Nima dedi u? O‘g‘ling! Men yelkamdagagi belkurakni irg‘itib yubordim-da, cho‘nqayib o‘tirib, toychog‘imni chaqira boshladim:

– Toy-toy-toy, bo‘talog‘im! Qani, menga kel-chi, oyoqlaring bilan yerni tepkilab yur-chi, dadilroq bos!

Samad qulochini yozib yubordi.

– Dada! – deb oyoqchalarini entak-tentak bosib, menga qarab chopdi. Men uni ushlab oldim-da, boshim uzra baland ko‘tarib, bag‘rimga qattiq bosdim.

– Asal! – dedim men unga. – Ertaga bir bolalar bayramini o'tkazaylik-a. Sen oq va qora jundan to'qilgan chilvir tayyorlab qo'y.

– Xo'p, bake! – deb kulib yubordi u.

– Ha, ha, albatta oq va qora jundan to'qilgan bo'lsin.

Men otga mindim-u, chorvador do'stlarim oldiga jo'nadim, u yoqdan qimiz va yangi so'yilgan go'sht olib keldim. Ertasiga esa biz kichkina bayramimiz – «chilvir kesish» bayramiga qo'shnilarimizni taklif etdik.

Men Samadni yerga o'tqazdim-da, oyoqlarini oq-qora chilvir bilan tushovladim, yoniga qaychini keltirib qo'ydim. So'ng hovlining narigi chekkasida turgan bolalarga qarab buyruq berdim:

– Kimki birinchi bo'lib chonib kelib chilvirni kessa, o'shangang birinchi bo'lib mukofot beriladi, qolgan-larga esa navbat bilan ulashiladi. Qani, boshlanglar, bolalar! – deb qo'l siltadim.

Xuddi poygaga qo'yilgan arg'umoqlar singari bolalar bizning «hoy-huv» va shovqin-suronimiz ostida qiyqirishib chopcha ketishdi.

Chilvir kesilib bo'lgandan keyin Samadga qarab:

– Qani, o'g'lim, chopqillayver endi! – dedim. – Uni qo'lidan ushlab olib yuringlar, bolalar!

Ular Samadning qo'lidan tutishdi, u ham bolalar bilan chonib ketdi. Men esa ularning orqasidan, hech kimga murojaat qilmasdan, beixtiyor gapirib yuboribman:

– Odamlar! Mening toychog'im chopqillab yurib ketdi! U tulpordek ildam bo'lsin!

Samad bolalar ketidan chopqillab bora turib, orqaga qayrilib: «Dada!» dedi-da, dumalab tushdi. Biz Asal bilan ikkimiz baravariga unga tomon intildik. Men Samadni yerdan ko'tarib olganimda, Asal birinchi marta menga:

– Jonim! – dedi.

Shu kundan boshlab biz er-xotin bo'lib qovushdik.

Qishda o'g'ilchamizni olib ovulga, chol-kampirlar oldiga borib keldik. Ular bizdan juda xafa edi, biroq keyinchalik kechirishdi, duo qilishib fotiha berishdi.

Kunlar birin-ketin sezilmay o'tib borardi. Samad besh yoshga to'ldi. Biz Asal bilan juda ahil, juda inoq yashardik, faqat birgina narsa haqida og'iz ochmas va eslamas edik. Asal u haqda o'ylarmidi, yolg'iz qolganda uni eslab o'y-xayollarga berilarmidi, buni bilmayman, biroq biz go'yo gap-so'zsiz dilimizda o'zaro shartlashib qo'ygandek edik: biz uni tanimaymiz, biz uchun u odam yo'q va bo'lmaydi ham...

Ammo inson ko'ngli nimalarni istamaydi, deysiz. Buning ustiga yana shunday narsalar ham borki, ulardan qochib qutula olmaysan. U yaqindagina bu yerlarda paydo bo'lib qoldi.

Bir kuni kechasi yo'lda avariya bo'lib qoldi. Yordamchim bilan ikkovimiz nima bo'lganini bilish uchun yugurdik. Ehtimol, biror baxtsizlik yuz ber-gandir. Yetib keldik. Allaqanday yuk mashinasi yo'l chekkasidagi ustunlarga tumshug'i bilan kelib urilibdi. G'irt mast haydovchi hushidan ketib taxtadek qotib yotardi. Men uni tanidim-u, ammo ismini eslayolmadim. U bir kuni bizni falokatdan qutqargan va mashinamizni shatakka olib, dovonga olib chiqib qo'ygan edi. Dolanda esa mashinani shatakka olib yurish hazilakam ish emasdi. Ilgarilari bu yerda bunday ish qilish u yoqda tursin, hatto hech kimning xayoliga ham kelmasdi. Bu haydovchi bo'lsa, tirishqoq, dovyurak yigit ekan, har qancha og'ir bo'lsa ham mashinamizni uchastkagacha sudrab olib keldi. U menga juda yoqib qoldi, ko'nglimdagidek yigit ekan. O'sha voqeadan keyin allakim birinchi bo'lib dovondan pritsep bilan o'tmoqchi bo'libdi, maqsadiga erishishiga oz qolgan ekan-u, ammo uddalay olmabdi. Pritsepni yo'l yoqasidagi ariqqa tushirib

yuboribdi-da, tashlab ketib qolibdi. Men o'shanda o'sha dovyurak yigitning ishi emasmikin, deb xayoldan o'tkazgan edim. Mard kishining o'z maqsadi-ga erisha olmaganiga juda achingan edim. Ammo o'sha voqeadan keyin dovondan pritsep bilan o'tadi-gan bo'lishdi. Yigitlar mashina va pritseplarni sha-roitga moslashtirib juda to'g'ri ish qilgan edilar.

Vijdonan aytsam, bu yigit Asal tashlab ketgan kishi ekanini bilmasdim. Agar bilganimda ham baribir shunday qilgan bolardim. Men uni uyga sudrab olib keldim, shunda hammasi oydinlashdi-qo'ydi. Eshik-dan o'tin ko'tarib kirib kelgan Asalning ko'zi unga tushdi-yu, qo'lidagi o'tinlari polga sochilib ketdi. Ammo go'yo birinchi marta uchrashayotgandek, bi-rortamiz ham sir boy bermadik. Ayniqsa, men o'zimni qo'lga olishim kerak edi, chunki ehtiyyotsizlik qilib biron noo'rin so'z aytib yoki nojo'ya harakatim bilan ularning ko'ngliga tegib ketmaslikka intilardim va ularning bir-birovlarini tushunib olishlariga xalal bermaslik uchun o'zimni tutishga harakat qilardim. Endi men hech narsani hal eta olmasdim. Endi hamma gap ularning o'zlarida qolgandi: ular orasida o'tmish kechmishlari, men bag'rimga bosib va erka-lab karavotda olib yotgan o'g'illari bor edi.

O'sha tuni birortamiz ham mijja qoqmadik, har kim o'z o'ylari bilan band edi. Shu jumladan, men ham.

Asal o'g'li bilan ketib qolishi ham mumkin edi. Bu, albatta, ularning ishi. Mayli, ular yurak amri va aql-idrokleri buyurganini qilishsin. Men, men esa... nima ham derdim, bunga mening nima daxlim bor, masalani hal etish menga bog'liq emas, ularga xalaqit bermasligim kerak...

U hozir ham shu yerda, mana shu yo'ldan qatnay-di. Shuncha yillar davomida qayerlarda bo'lganiy-kin u, nima bilan shug'ullandiyyik? Ammo buning ahamiyati yo'q... Bu ularning ishi...

Biz Boytemir bilan yo'lni aylanib chiqib, orqaga qaytdik. Qosh qorayib qolgan edi. Tyan-Shanning muzli cho'qqilari ustidagi osmon-u falak bahor oqshomining binafsha rang tusiga kirib borayotgandi. Mashinlar yo'ldan ikki tomonga qarab g'iz-g'iz o'tib turardi.

– Mana, hayot qanchalik murakkab, – dedi Boytemir biroz sukutdan so'ng o'ychan. – Men hozir uydan ketishim kerak emas. Mabodo Asal ketish xayolida bo'lsa, mayli. Faqat menga ketayotgani ni bir og'iz aytsa bo'lgani, o'g'li bilan so'nggi bor xayr-xo'shlashib, oq yo'l tilab qolaman. Axir, Samad men uchun o'z o'g'limday bo'lib qolgan-ku. Biroq uni o'z otasidan zo'r lab tortib ololmayman. Shuning uchun men ham hech qayoqqa bormayman. Ayniqsa, Pomirga... Men buni sizga gazeta uchun hikoya qilib berayotganim yo'q, albatta. Shunchaki, inson insonga o'z dardini aytib berayotgandek gapirib beryapman-da...

## XOTIMA O'RNIDA

Biz Ilyos bilan O'shda ajralishdik. U Pomirga jo'nadi, men bo'lsam o'z ishlarim bilan ketdim.

– Borib Alibekni topaman. Yangicha hayot boshlayman! – dedi u yo'l-yo'lakay. – Meni endi tuzalmas, tamom bo'lgan odam deb o'ylamang. Kelajagim, hayotim hali oldinda. Kunlar o'tar, men ham uylanarman, boshqalarga o'xshab bola-chaqali, uy-joyli bo'larman. Ishlayman, do'st, yor-birodarlar orttiranman. Lekin faqat birgina narsa: umrbod, manguga yo'qotgan narsamni qaytara olmasam kerak... O'tgan ishni hech qachon qaytarib bo'lmaydi... Ammo hayotimning so'nggi kunlariga qadar, to so'nggi nafa-simgacha Asalni va oramizda bo'lib o'tgan hamma shirin damlarni saqlab o'taman.

Yo'lga chiqish oldidan ko'lga, o'sha tik tepalikka bordim. U yerda men Tyan-Shan bilan vidolashdim, Issiqko'l bilan xayrlashdim. Xayr, Issiqko'l, tugallanmay qolgan orombaxsh kuylarim! Moviy to'lqinlaring va oltin qirg'oqlaring bilan birga qo'shib seni o'zim bilan birga olib ketardim-u, ammo sevgilimning sevgisini olib keta olmaganimdek, seni ham olib ketish qo'lmdan kelmaydi. Alvido, Asal! Alvido, qizil durrachali sarvqomatim! Alvido, sevgilim! Baxtiyor bo'lgil...

Men Boytemirdan eshitganlarimni Ilyosga so'zlab bermadim. Axir bu odamlarning ko'rkarligi va qadr-qimmati ham ularning bir-biri haqida hech narsa bilmasdan turib, bir-biriga shu qadar oljanoblik qilishida, insoniy munosabatda bo'lishida emasmi! Shunday ekan, bu gaplarni unga so'zlab nima ham qillardim...

1961-yil

## **BO‘TAKO‘Z**

### ***BIRINCHI BOB***

Buloqdan endigina yarim chelak suv olgan ham edimki, dasht bo‘ylab kuchli qiyqiriq yangradi:

— He-ey-ey! Akademik, tumshug‘ingga tushirama-an!

Men qulog‘imni ding qilib, toshday qotib turardim. Aslida ismim Kamol, bu yerda «Akademik» deb laqab qo‘yishgan edi. Ha, o‘ylaganimday bo‘lib chiqdi. Narigi tomondan traktorning «tir-r» etgan ovozi eshitilmasdi. Tumshug‘imga tushirmoqchi bo‘lgan odam o‘scha, Abubakr. U yana dag‘dag‘a solib rosa so‘kadigan bo‘ldi-da, hatto musht ko‘tarishdan ham qaytmaydiganlardan u. Suv yetkazib berishga ulgura olmayapman, traktorlar ikkita, men bo‘lsam yakka o‘zim. Shunga qaramay, manavi yakka ot-aravada ularga suv ham, yonilg‘i ham, moy ham, yana boshqa balo-battarlarni yetkazib berishim kerak. Traktorlar bo‘lsa bu atrofda yakka-yu yagona hisoblangan buloqdan tobora uzoqlashib borardi. Ular yonilg‘i sisternalari saqlanadigan birdan-bir shiyponimizdan borgan sayin olislashib ketmoqda. Shiyponni yaqinroqqa ko‘chirishga urinib ko‘rdik, ammo qayoqda deysiz, u ham suv bilan bog‘liq-da. Abubakrga o‘xshaganlar bo‘lsa buni tushunishni istamaydi: «Tumshug‘ingga solaman! — deb baqirgan-i-baqirgan. — Mening bu yerda og‘zidan so‘lagi oqib yurgan landavur talabani deb bekorga vaqt o‘tkazishga toqatim yo‘q», — deydi.

Men esa u o‘ylagandek talaba ham emasman. Hatto institutga kirishni xayolimga ham keltirmaganman.

Maktabni tugatishim bilanoq shu yerga – Anorxoy dashtiga kelgan edim. Bizni bu tomonga yuborayot-ganlarida majlisda hammamizni, shu jumladan, meni ham: «Qo'riq yerlarni zabit etuvchi dongdorlar, yangi o'lkalarni kashf etuvchi qo'rmas tashabbuskorlar!» deb atashgan edi. Dastlab shunaqa edik, endi-chi?.. Aytishga ham uyalasan kishi: «Akademik». Bu laqabni menga Abubakr qo'ygan. Bunga o'zim aybdor-man. Ko'nglimdagini yashira olmayman, xuddi yosh boladek o'z-o'zimga gapirib, xayollarga berilib keta-man, keyin odamlar mendan kulib yurishadi. Lekin ular buning uchun men emas, mendan ko'proq tarix o'qituvchimiz, o'lakashunos Oldiyorov aybdor ekanini bilsalar edi... Shu o'qituvchimizning gapiga kirib, endi rosa ta'zirimni yeyapman...

Shu asioda, bochkani to'ldirmasdanoq soylik bo'ylab yo'lga tushdim. Aslini aytganda, bu yerlarda sira yo'l bo'lмаган. Bu yolg'izoyoq yo'lни ham arava-da qatnayverib, o'zim ochganman.

Qoramtil, keng dala etagida traktor turibdi. Uning kabinasi ustida Abubakr o'tiribdi. U havoda mushtini o'ynatib, hamon meni so'kar, go'rda olib, go'rga tiqardi.

Men otga qamchi bosdim. Bochkada suv chay-qalib yelkamga sachrar, ammo men buni pisand qilmay, otni battar qamchilar edim. Abubakr hozir ta'zirimni bersa kerak. Bu yerga yuborishlarini o'zim iltimos qilganman. Hech kim meni majbur etgani yo'q. Boshqa yigit-qizlar Qozog'istonga, gazeta-larda yozilayotgan haqiqiy qo'riq yerlarga ketishgan. Men bo'sam bir o'zim Anorxoy dashtiga kelibman. Bu yerda shu yil bahorda birinchi marta ish boshladilar. Shunda ham atigi ikkita traktor bilan ishga kirishildi. O'tgan yili agronom Sorokin – u bu yerda hammamizning boshlig'imiz hisoblanadi – bir yerga bahori arpa ekib, sinab ko'rgan ekan.

Aytishlariga qaraganda, hosil yomon bo'lmasdi. Agar ish shu zaylda davom etsa, ehtimol, Anorxoy

dashtida yem-xashak masalasini hal qilish mumkin bo'lib qolar.

Biroq hozircha ehtiyotkorlik bilan ish ko'rish kerak. Anorxoy saratonda qaqrab ketadi: hatto tikanlar ham turgan joyida qovjirab qoladi. Erta kuzda mollarini shu yerga qishlovgaga haydab kelgan kolxozlar esa hali ekish-tikishni boshlamay, «Qani ko'raylik-chi, boshqalar nima qilarkin», deb kutib turadilar. Buning ustiga, biz bu yerda ozmiz, bor-yo'g'i ikki traktorchi, ikki pritsepchi, oshpaz ayol, suv tashuvchi, ya'ni men va agronom Sorokin. Qo'riq yerlarni zabit etuvchilar armiyasi mana shulardan iborat. Kim bilsin, ehtimol, bizning haqimizda hech narsa bilmas, biz ham olamda nimalar bo'layotganidan bexabarmiz. Goho Sorokingga biror yangilik tonib kelardi. U otda yaqin atrofdagi cho'ponlar huzuriga borib, ratsiya orqali boshqalar bilan janjallahшиб, qilingan ishlardan hisob berar edi.

Gap bunday ekan-u men bo'ssam qo'riq yerlarni, cheksiz dashtlarni ko'raman deb yuribman! Darvoqe, buning hammasiga tarix o'qituvchimiz Oldiyorov sababchi bo'ldi-ya. Shu odam bizga Anorxoy dashtini boplab ta'riflagan edi: «Asrlar bo'yи qo'l urilmay, qo'rday yon bag'irlaridan tortib to Balxashning qamishzorlari-gacha cho'zilib ketgan Anorxoy dashti erman-u shuvoqzorlar bilan bezanib, savlat to'kib yastanib yetibdi. Afsonalarga qaraganda, qadim zamonalarda uyur-uyur yilqilar Anorxoy tepaliklarida adashib, dom-daraksiz yo'qolib ketgan. So'ng yovvoyilashib ketgan otlar to'dalashib uzoq vaqtlar daydib yurishar ekan. Anorxoy - o'tmishning tilsiz guvohi, dahshatli janglar maydoni, ko'chmanchi sahroyi qabilalarning makoni. Bizning zamonalarda esa Anorxoy dashtlari boy va saxiy chorvadorlik o'lkasiga aylantirilishi kerak!..» va hokazo shunga o'xhash so'zlar.

O'sha kezlarda Anorxoyni xaritadan ko'rish qanday zavqli edi: u kaftdaygina joyni egallab yotardi.

Endi-chi? Erta tongdan kechgacha bu la'natni aravani u yoqdan bu yoqqa taraqlatib haydaganim-haydagan. Kechqurun holdan toyib, yuz mashaqqat bilan otni arang aravadan chiqaraman-da, oldiga toytoy qilib bog'lanib, mashinada keltirilgan pichandan tashlab qo'yaman. So'ng oshpazimiz Addey nima bersa ham yeb olaman-da, o'tovga kirib mukka tushganimcha toshday qotib uxlab qolaman.

Darhaqiqat, Anorxoy erman-shuvoqzorlar bilan bezanib, savlat to'kib yotardi. Qani endi, vaqt bo'lsayu, bu cheksiz dashtlarni saatlab kezib, uning go'zalligidan bahramand bo'lsang.

Hammasi ham mayli-yu, ammo bir narsaga hayronman: Abubakrga mening nimam yoqmay qoldi, u meni nega bunchalik yomon ko'radi? Agar bu yerda meni nimalar kutayotganini ilgaridan bilsaydim... Men har qanday tabiiy qiyinchiliklarga chidashga tayyorman. Axir, bu yerga mehmonga kelganim yo'q-ku. Biroq, negadir, birga yashab, birga ishlashimiz lozim bo'lgan odamlar haqida sira o'ylamagan ekanman, hamma yerda ham odam – odam-ku, deganman-da.

Men bu yerga mashinada ikki kunda yetib keldim. Mana bu to'rt g'ildirakli aravani ham men bilan birga olib kelishdi. O'sha paytda uning dastidan shunchalik azob-uqubatda qolishimni xayolimga ham keltirmagan edim.

Axir men bu yerga pritsepchi bo'laman, deb kelgan edim-ku. Bir bahor traktorda ishlab, uni o'rganib olib, traktorchi bo'lib qolaman degan orzuda edim. Rayonda ham menga xuddi shunday deyishgan. Mana shu orzu meni Anorxoya boshlab kelgan. Bu yerga kelib qarasam, pritsepcilar yetarli ekan, meni suv tashishga qo'yishdi. Boshdayoq bu ishni rad etib, uyga qaytib ketishim mumkin edi. Nega desangiz, men hozirgacha aravaning shotisi ni ham, bo'yinturuqni ham ushlab ko'rmagan edim.

Umuman shu kunga qadar hech qayerda ishlaganim ham yo'q edi. Faqat shanbaliklarda qanda zavodida onamga ko'maklashardim. Otam frontda halok bo'lgan ekan. Men uni eslay olmayman. Shuning uchun ham mustaqil hayot boshlashga qaror qilgan edim... Nima bo'sha ham issig'ida qaytib ketishim kerak edi-ya. Lekin uyaldim. Bu yerga kelish oldidan majlisda qancha duv-duv gap bo'ldi, axir. Onam ham rozi bo'la qolmadi; u mening vrach bo'lishimi ni orzu qilardi. Ammo men o'z fikrimda qat'iy turib oldim, sizga yordam beraman, deb ko'ndirdim. Cho'lga borishga qat'iy bel bog'lab, tezroq yo'lga chiqishga oshiqardim. Endi darrov qaytib borsam odamlarning yuziga qanday qarayman? Xullas, aravada suv tashishga to'g'ri keldi. Ammo boshimga tushgan kulfatlarning boisi bu emas.

Bu yoqqa kelayotganimda yo'l-yo'lakay, mashina ustida tik turganimcha chor atrofga suqlanib boqardim, mana, qadimiy afsonaviy Anorxoy dashti! Mashina yassi tepaliklarda, endigina yashil tusga kirib kelayotgan dasht yuzida arang ko'zga chalinib turgan yo'l bo'y lab yeldek uchib borardi. Yerlar qor namidan bug'lanib yotardi. Nam havoda bulturgi tomirlardan endigina nish urib chiqayotgan Anorxoy yovshanlanining achchiq hidi dimoqqa urilib turardi.

Qarshidan esayotgan shamol keng dashtlikdan tabiatning bir olam shovqinini va sof bahor nafasini olib kelardi. Biz ufq sari yelib borardik, u esa olis-olislarda, maysa bilan qoplangan tepaliklar ostida orqasiga tisarilib, Anorxoy dashtining ko'z ilg'amas kengliklari sari imlayotgandek tobora uzoqlashib ketmoqda edi. Shunda men go'yo o'zimni o'tmish zamonlarning sadolarini eshitayotganday sezdim. Yer go'yo ming-ming tuyoqlar ostida larzaga kelib guvillaydi. Sahroyi ko'chmanchilarning son-sanoqsiz otliq askarlari nayza va bayroqlarini

ko'tarib okean to'lqinlari singari dahshatli hayqiriq, g'ala-g'ovur bilan yelib yugurishardi. Ko'z o'ngimda dahshatli jang manzarasi namoyon bo'lardi. Temir jaranglab, odamlar qiy-chuv ko'tarishar, otlar bir-birlarini tishlab, tepishardi. Mening o'zim ham, qayerdadir, mana shu qaynoq jang ichida yurardim go'yo... Ammo jang suronlari tinib, bahor fasli kiri-shi bilan Anorxoy dashtida oq o'tovlar yoyilib ketar, qishloq ustida tezak tutunlari osmonga o'rmalar, chor atrofda qo'ton-qo'ton qo'ylar, yilqi podalari o'tlab yurar, tuya karvonlari qo'ng'iroqlarini jaranglatib qayoqdandir kelib, qayoqqadir yo'l olar edi...

Parovozning uzoq-uzoqlarga taralgan cho'ziq ovozi meni hushimga keltirdi. Yolini hilpiratib, dumini yoyib, yeldek uchib borayotgan poygachi ot kabi vagonlar ustiga tutun buruqsitib parovoz o'tib borardi. U uzoqdan menga xuddi shunday tuyildi. Poyezd borgan sari kichrayib, qora chiziqday bo'lib qoldi va nihoyat ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Biz dashtda joylashgan yakka-yolg'iz razyezd yonidagi temir yo'lini kesib o'tib, yana yo'limizda davom etdik...

\* \* \*

Manzilga yetib kelgan dastlabki kunlarda o'zimni osmondan tushib qolganday his qildim. Yo'lda xayolimni band etgan manzaralar hamon ko'z o'ngimdan ketmasdi. Dala shiyponining yaqinidagi tepalik ustida qadimi yodgorlik – xotin kishining haykali turardi. Kulrang, qo'pol yo'nilgan bu granit parchasi necha asrlar mobaynida yerga chuqur botib, qo'riqchi singari, yiroqlarga boqib turardi. Uning yomg'ir va shamol ta'siridan lat yeb, biroz qiyshaygan o'ng ko'zi, qorachig'i oqib, puchayib qolganday, qovoqlari ostidan xo'mrayib turishi kishini vahimaga solardi.

Men unga uzoq vaqt sinchiklab qarab turdim, so'ng o'tovga kelib, Sorokindan so'radim:

– O'rtoq agronom, sizningcha, bu yerga manavi haykalni o'rnatgan kim?

Sorokin qayoqqadir ketishga otlanayotgan edi.

– Qalmoqlar o'rnatgan bo'lsa kerak, – dedi u otga mina turib va jo'nab ketdi.

Koshki, u vaqtarda meni bunday javoblar qanoatlantira olsa! Hali yaxshi tanishib ulgurmagan bo'sam ham traktorchi va pritsepchilarga murojaat qildim:

– Yo'q, bu to'g'ri emas. Qalmoqlar bu yerga o'n yettinchi asrda kelishgan. Bu qabr ustidagi haykal bo'lsa o'n ikkinchi asrga mansub. Aftidan, bu xotin haykalini mo'g'ullar g'arbgaga qilgan buyuk hujum davrida o'rnatishgan. Biz qirg'izlar ham ular bilan birga Enasoy sohillaridan bu yoqqa – Tyanshan o'lkalariga kelib qolganmiz. Bizgacha bu yerda qipchoq qabilalari, ularga qadar esa malla sochli, tiniq ko'zli odamlar yashagan.

Tarixni yana ham chuqurroq kavlashtirardim-u, ammo traktor yonida turgan kombinezonli yigit so'zimni bo'ldi. Bu Abubakr edi.

– Hoy, tirrancha! – deb qovoq ostidan menga g'a-zabli o'graydi u. – Juda olim ko'rinasan. Qani bu yoqqa kel, o'tovdan shprits bilan tovoqni olib chiq.

Men bo'sam unga shprits bilan solidolni olib kelibman.

– Eh, akademik! – dedi u mensimagan bir ohanga tishini qisib va qizarib ketgan ko'zlari bilan yeb qo'ygudek bo'lib. – Biz savodsizlarga ma'ruza o'qishni bilasan-u, otni tuyadan ajratolmaysan.

Shu-shu «akademik» bo'lib qoldim. Mana men hozir o'z aravam bilan Abubakrga yaqinlashmoqdam, uning jag'i hamon tinmasdi. U shudgor ichidan loyga botib men tomon yugurib kelayotir.

– Buncha toshbaqaga o'xshab sudralmasang! Yana qancha kuttirmoqchisan?! Bo'g'ib tashlayman

sen itvachchani, ona suti og'zidan ketmagan bitta akademik kamaysa kamayibdi-da.

Men traktorga xomushgina yaqinlashdim. O'zimni oqlash uchun nima ham deya olardim? Axir, traktor mening aybim bilan to'xtab qolgan. Xayriyatki, pritsepchi ayol – Qalipa mening yonimni oldi:

– Kel endi, o'zingni bos, Abubakr! Baqirish-chaqirishdan nima foyda? Uni qara, bechoraning rangida rang qolmabdi. Sho'rlik juda qiynalib ketibdi, – dedi-da, qaltirab turgan qo'llarimdan chelakni olib, radiatorga suv quya boshladi. – Busiz ham jonini jabborga berib ishlayapti-ku. Ko'ryapsanmi, qora terga botib ketibdi...

– Menga nima! – jerkib tashladi Abubakr. – Uyida o'tirib kitobini o'qiysin edi!

– Mayli, bas qil endi! – Tinchitishga urinardi Qalipa. – Muncha badjahl bo'lmasang! Yaxshi emas!

– Agar kishi bunaqalarning hammasini kechiraversa o'zini baloga qo'yishi ham hech gap emas. Planning bajarilishini sendan emas, mendan so'raydilar. Bu xumpar olim jonimni halqumimga keltirayotgani bilan kimning ishi bor, axir!

Mening olimligim muncha dastak bo'lib qoldi. Nega ham o'qigan ekanman, qayoqdan ham tarixchi Oldiyorovni eslay qoldim.

Men bu yerdan tezroq qaytib ketishga shoshilardim. Axir sahroning u burchi ham bizga o'xshaganlarga muntazir bo'lib turibdi-ku. U yerda traktorchi Sadabek ishlaydi. U yoshi anchaga borib qolgan, jiddiy kishi, jahli chiqsa ham baqirib-chaqiravermaydi.

Orqamdan traktor motorining ovozi eshitildi. Abubakrning traktoriga jon kirib yurib ketdi. Men sal yengil tortib, namiqqan fufaykada junjikib turardim. Bu Abubakr muncha badjahl, muncha zahar ekan-a? Hali qari ham emas, o'ttizdan sal oshgan.

To'g'ri, yuzi ancha xunuk, yonoq suyaklari bo'rtib chiqqan, qo'llari arslon panjasiday baquvvat, ammo o'zi ancha xushqomat, ko'zları bo'lsa vajohatli, sovuq, sal narsaga qonga to'ladi. Joni bo'g'ziga kela-di. Bunday paytlarda ehtiyot bo'imasang, seni g'ajib tashlaydi.

Yaqinda bir voqeа bo'idi. Oqshomdan yomg'ir boshlanib, tun bo'yи savalab chiqdi. Ivib ketgan kigiz ustidan bir maromda chakillab oqib tushayot-gan tomchilar qandaydir mungli ohangda, kishiga nimanidir shivirlaganday tuyilardi. Yomg'ir erta bilan ham tinmadi. Biz o'tovda o'tiraverib bekorchilik-dan zerikib ketdik. Agronom Sorokin qayergadir ketgan edi – shunday kunda ham uning ishi boshidan oshib-toshib yotadi. Chorvachilik uchun ham javob-gar-da. Shu sababli u biror daqiqa tinim bilmas, erta-yu kech umri egarda o'tardi.

Yomg'ir biroz pasayganda Sadabekning kichik ukasi – pritsepchi Esirkep mening otimga mindi-da, cho'ponlar oldiga jo'nadi. Aldey bilan Qalipa bo'lsa chelaklarni ko'tarib, buloq boshiga suvga ketishdi. O'tovda biz uch kishi – Abubakr, Sadabek va men qoldik.

Ta'bimiz xira, har birimiz o'z ishimiz bilan band edik. Abubakr oyoqlarini uzatib yonboshlaganicha papiros chekardi. Sadabek o'choq oldidagi to'qim ustiga o'tirib, bigiz va mumlangan pishiq ip bilan eski etigini yamardi. Men burchakka tiqilib olib kitob o'qirdim.

O'tovning ichi zax. Ivigan namatdan qo'y hidi ke-lar, tepadan ahyon-ahyonda choy siyoqli suv tom-chilar edi. Tashqarida esa halqob suv yuziga shovillab yomg'ir yog'ardi.

Abubakr zerikib esnadi, qo'llarini qirsillatib kerishdi, u yoq bu yoqqa qaramay, qovog'ini os-gancha qo'iidagi papiros qoldig'ini uloqtirgandi, kigizning bir chekkasiga borib tushdi. Namat

tutab, jizzg'anak hidi chiqa boshladi. Sadabek papiroq qoldig'ini oldi-da, kulga tashladi.

– Ehtiyot bo'lish kerak, – dedi u charm orasi dan tupuklangan mumli ipni o'tkazarkan, – nima, joyingdan qo'zg'alolmaysanmi?

– Ha, nima bo'pti, – deb jahl bilan boshini ko'tardi Abubakr.

– Namat yonib ketay dedi.

– Obbo, matoyingni qara-yu, – mensimay tirjaydi Abubakr. – Ilma-teshik eticingni yamayapsanmi, yamayver, boshqasi bilan ishing bo'lmasin!

– Gap boylikda emas. Bu yerda sen bir o'zingmas, o'z uyingda ham emassan.

– O'z uyimda emasligimni bilaman! Uyimda bo'ssam sen bilan gaplashib ham o'tirmas edim. Tushundingmi, maymun bashara. Xudoning qahriga uchramasam surgun qilinganday, sen-u sening xotiningga o'xhash ahmoqlar yashaydigan Anorxoyga kelib qolarmidim.

Sadabek mumlangan ipni kuch bilan siltab tortdi. Bigiz uning qo'lidan otilib chiqib orqasiga tushdi. U Abubakrga nafrat bilan uzoq tikilib turdi, so'ng bir qo'lida etik, bir qo'lida tarang tortilgan ipni ushlaganicha, g'azab bilan oldinga intildi.

– Mayli, seningcha, men ahmoqman, bu yerga hammamizni boqish uchun men bilan birga kelgan xotinin ham ahmoq bo'lsin! – Og'ir nafas olib gapirardi u. – Boshqa hamma anorxoyliklar ham, seningcha, surgun qilingan kishilarmi? Nima, ularni bu yerga sen haydab kelganmisan? Qani, javob ber, esi past! – deb baqirdi u va o'ng qo'li bilan nag'alli etigining qo'njidan ushlagancha o'rnidan irg'ib turdi.

Abubakr bir chekkada yotgan gayka klyuchiga o'zini otdi, kallasini yelkalari orasiga olib urishga hozirlanib turdi.

Men qo'rqib ketdim. Vaziyat juda qaltis edi. Ular bir-birini o'ldirib qo'yishi ham hech gap emasdi.

– Qo'y, Abubakr! – dedim yugurib borib. – Uni urmal Qo'y, Sadabek, shu bilan tenglashib o'tirma! – deb oyoqlari ostida o'ralashib, sarosimada yalinib-yolvordim.

Sadabek meni bir chekkaga itarib yubordi. Ular jangga hozirlangan arslondek, o'tov ichida gir aylanishardi. Birdan bir-biriga tashlanib qolishdi, Abubakrning qo'lidagi klyuch Sadabekning boshi ustida yaltilladi. Ammo Sadabek shu zahoti chap berib, ikkala qo'li bilan klyuchni ushlab qoldi. Abubakr kuchli edi. U o'z raqibini yerga yiqitib ostiga bosib oldi, ikkalasi xirillashib, so'kishib, yumalashgancha olishib ketishdi. Men yugurib borib Abubakrning qo'lidan chiqib ketgan klyuchga butun gavdam bilan tashlandim, nihoyat, uni olganimcha o'tovdan chiqib qochdim...

– Aldey! Qalipa! – suv olib qaytayotgan ayollarga qarab qichqira boshladim. – Tezroq, tezroq, ular urishishyapti, bir-birini o'ldirib qo'yadi.

Ayollar chelaklarini tashlab, men tomon yugurishdi. Biz o'tovga yetib kelganimizda Sadabek bilan Abubakr hamon yerda ag'anashib yotishardi. Ust-boshlari yirtilgan, yuz-ko'zlari qonga bo'yalgan. Zo'rg'a ajratib qo'ydik. Aldey erini sudrab eshikka olib chiqib ketmoqchi bo'ldi. Lekin Abubakr bir zarb bilan Qalipaning quchog'idan chiqib ketdi.

– Ha, maymoq it, senimi, hali to'xtab tur!.. Sen murdor hali oyog'im ostiga yiqilib tavba qilasan, o'shanda Abubakrning kimligini bilib olasan!

Past bo'yli, qotmadan kelgan Aldey unga yaqin kelib, yuziga tik boqib gapira boshladи.

– Qani, tegib ko'r-chi! Ko'zlarining o'yib olayki, o'zingni o'zing tanimay qolgin!

Sadabek bamaylixotir xotinining qo'lidan ushлади:

– Qo'y, Aldey, sadqayi gap ketsin u...

Men bu orada tashqariga chiqib, to'polonda otib yuborilgan klyuchni qidirib topdim-da, o'tovdan na-

riroq borib, uni tosh haykal yoniga ko'mib qo'ydim. O'zim bo'ssam, o'tirdim-u, birdan yig'lab yubordim. Past, bo'g'iq yig'idan butun vujudimni qalтироq bosgan. Meni hech kim ko'rmas edi, o'zim ham qanday holatga tushib qolganimni bilmas edim. Faqat o'sha tosh haykalgina, go'yo dardimni tinglayotganday, bo'mbo'sh qolgan ko'z chanog'i bilan menga xo'mrayib boqib turardi. Atrofda tuman bilan qoplangan nam, sokin va horg'in cho'l yastanib yotardi. Uning ko'hna va chuqur sukunatini biron sharpa buzmasdi, yolg'iz mengina ko'z yoshlарimni artar, hamon piqillab yig'lab o'tirardim, men bu yerda uzoq, juda uzoq vaqt, to qosh qorayguncha o'tirdim.

Yovshanlar bilan bezangan cho'lda ana shu zaylda yashayman... Kuch-quvvatim boricha mehnat qilaman. Lekin shunga qaramay, hamon ishim o'ngidan kelmaydi. Mana, hozir Abubakrdan yana yaxshigina dakki yedim. Oqibat nima bo'ladi – o'zim ham bilmayman. Ammo umidsizlikka tushish ham yaramaydi. To yiqilguncha o'z o'rningda mahkam turmog'ing kerak.

– Qani, Serko, qimirla! Ildamroq! Ikkimiz ham te-tik bo'laylik, ishdan qolmaylik..

### **IKKINCHI BOB**

Ertasi kuni odatdagidan barvaqtroq, tongotarda turdim. Kecha o'tovda yotib o'zimcha shunday ahd qilgan edim: bor kuchimni ishga solib shunday ishlayinki, biron kishi koyishigina emas, hatto ta'na ham qila olmasin. O'zimning boshqalardan kam emasligimni bir ko'rsatib qo'yay.

Dastavval yonilg'ini keltirib, baklarga o'zim qu'yib chiqdim. So'ogra, ish boshlagunga qadar traktorlarning radiatorlarini suvga to'ldirib qo'yay deb, aravam bilan buloq tomon jo'nadim, undan keyin

nonushta qilib olishga ulgurish va biror daqiqani ham zoye ketkazmay yana suv tashish kerak. Hozircha ish men o'ylagandek borayotgandi.

Bu orada g'ira-shira, oqimtir tuman qoplangan ufq ortidan asta-sekin quyosh bosh ko'tara boshladi. U go'yo cheksiz cho'zilib ketgan Anorxoy dashtlariga nazar tashlashdan cho'chib, ancha vaqtgacha o'rni-dan qo'zg'almay turdi. So'ng yana bir qaraganimda qiyo boqib, jamolini ko'z-ko'z qilayotganday ko'rindi. Quyosh tig' urayotgan paytdagi dasht manzarasidan go'zalroq narsa bo'lmasa kerak! Go'yo ulkan lojuvard dengiz o'z qirg'oqlaridan ko'tarilib chiqqan-u, shu bo'yicha moviy to'lqinlari muzlab qolganday, unda-munda quyqa tortib qolgan qismlar to'q ko'k va sarg'ish tusda jilvalanadi.

O, Anorxoy, o, bepoyon dasht! Nega sukut saqlaysan, nimalar haqida xayol surasan? Asrlar bo'yi nimalarni sir saqlab kelyapsan, kelajakda seni nimalar kutyapti?

Men bor-yo'g'i bir suvchiman, lekin bunga o'ksin-mayman. Hali mana shu yerlarga ham, mashinalarga ham o'zim hukmron bo'laman. Axir ikkita traktorimiz, bu yerda qilinayotgan ishlarning hammasi – ishning boshlanishi, xolos. Men tadqiqotchilarning Anorxoy dashtida katta yer osti daryolari bor, degan fikrini allaqayerda o'qigan edim. Ehtimol, bu hali taxmindir, ammo nima bo'lsa ham, ishonchim komilki, kishilar bu yerlarga suv keltiradilar. Anorxoyda ko'm-ko'k bog'-rog'lar shivirlashib, soya-salqin ariqlardan suvlar sharqirab oqadi, dasht shamoli mayin esib, oltin bug'doyzorlar hosilini ko'z-ko'z qiladi. Bu yerda shahar-u qishloqlar bunyodga keladi. Bizning avlodlari-miz bu cho'lni faxr bilan «Anorxoy bo'stoni», deb ataydilar. Yana bir necha yillardan so'ng bu yerlarga men-ga o'xshash biror o'spirin yigit kelganda, ehtimol, unga suv tashuvchi arava bilan cho'l bo'ylab kun bo'yi san-

qib yurishga va qandaydir bir badfe'l o'zboshimchanning so'kishlarini eshitishga to'g'ri kelmas.

Lekin har holda, men unga hasad qilmayman, chunki men bu yerga birinchi bo'lib kelganlardanman!..

Aravani to'xtatib qo'yib, ertalabki Anorxoy kengliklarini tomosha qildim. Mana shu damda o'zimni yer yuzidagi eng baxtiyor, eng kuchli, hatto eng go'zal odam deb his qilaman. Ha, Anorxoy yerlari sanatoat o'lkasiga aylanadi!..

Nihoyat, ufq ortidan zarrin nurlarini sochib, barkashday quyosh ko'tarildi.

Kunning boshlanishi yomon emas. Motorlar ham ishlab turibdi. Suvni peshma-pesh tashib keltirisha ham ulguryapman. Ammo hali kechga uzoq...

Suvga qatnab yurganimda bir vaqt buloq boshida qo'y-qo'zilarning kichik bir qo'tonini uchratib qoldim. Ularni bu yerga bir qizcha haydab kelgan ekan. U qo'ylarni buloqqa yaqinlashtirmay, ariqchada sug'ormoqda edi. Qayoqdan kelib qoldi u! Ehtimol, bizdan etakroqdagi qo'sh tepalik ortidan, soylik tomonidan kelgandir. Cho'ponlar o'sha yoqda o'rnashgan edi. Qizning chehrasi menga tanishday tuyildi. Men qaysi bir jurnalda xuddi shu qizga o'xshash, kokili peshanasiga tushib turgan yoshgina xitoy qizning suratini ko'rgan edim. Balki shuning uchun men uni qayerdadir uchratganday bo'layotgandirman.

Biz bir-birimizga jimgina qaradik. Mening kutilmaganda bu yerda paydo bo'lib qolganim unga qanchalik g'ayritabiyy tuyilgan bo'lsa, uning bu yerga kelib qolishi ham menga shunday ko'rindi. Biroq hech narsa bolmaganday aravadan sakrab tushdim-da, ishbilarmon kishilarday buloqdan suv olib, bochkani to'ldira boshladim.

Shu mahal qo'ylar ham suv ichib bo'lishdi, qiz ularni bir chekkaga hayday boshladidi. Yonimdan o'tib keta turib:

– Bu buloqning oti nima? – deb so‘radi.

Men hozir suv olganimda loyqalanib qolgan, nursiz jilvalanib turgan buloq ko‘ziga termilganimcha o‘ylanib qoldim. Darvoqe, yakka-yu yagona bulog‘imizning biron nomi bolsa kerak, axir? Men hamon o‘ylanib turarkanman, bu orada suv tinib, yuzi ravshanlanib, tubi quyuq ko‘k tusga kirdi.

– Bo‘tako‘z! – dedim qizga qayrilib.

– Bo‘tako‘z bulog‘i? – peshana sochini bir silkitib tabassum qildi qizcha. – Juda go‘zal ekan oti! U haqiqatan ham bo‘taloqning ko‘ziga o‘xshaydi, o‘ychan ko‘rinadi.

Biz gappa kirishib ketdik. Qiz bizning tomonlardan ekan. U, hatto o‘qituvchim Oldiyorovni ham tanirkan. O, bu kimsasiz cho‘lda notanish qiz og‘zidan sevimli o‘qituvchimning nomini eshitish qanday yaxshi!

Ehtimol, u ham Anorxoyga ana shu muallimning gapi bilan kelgandir. Qiz o‘tgan yili maktabni, biznikini emas, boshqa maktabni tamomlab, hozir saqmonchi – qo‘ylarning qo‘zilash davrida cho‘pon yordamchisi bo‘lib ishlayotgan ekan.

– Qo‘ramizdagi quduqning suvi sho‘r, – dedi. – Men bu yerda buloq borligini eshitgandim. O‘zimning ham oqin suvlarni ko‘rgim kelib ketdi, qo‘zilarm ham zilol suv qanaqa bo‘lishini bilishsin dedim! Qo‘zilarni boqib, katta qilib cho‘ponga topshiraman, keyin universitetga o‘qishga ketaman...

– Vaqt-soati yetsa men ham o‘qimoqchiman, – dedim. – Biroq men mexanizatsiya maktabiga kiramam. Meni aslida bu yerga traktorda ishlash uchun yuborishgan edi, manavi esa, shunchaki, vaqtinchacha... – bochkani ko‘rsatdim unga. – Vaqtinchacha yordamlashyapman... Suv tashigani boshqa birovni yuborishlari kerak.

Men bu gapni chakki aytib qo‘ydim, og‘zimdan chiqib ketganini o‘zim ham sezmay qoldim. Uyal-

ganimdan a'zoyi badanimdan isitma chiqib ketdi, ammo yana shu ondayoq muzlab ketdim – uzoqdan Abubakrning «yoqimli» ovozi eshitildi:

- Hey, akademik, jag'ingga tushiraman!
- Obbo, ko'p gapirib yuboribman-ku!
- Nima bo'ldi? – hayron bo'lib so'radi qizcha.
- Hech nima. Shunday, suvni olib borish kerak,
- dedim qizarib.

Qizcha qo'zilarini kelgan yo'li bilan haydab ketdi. Abubakr shudgorning uzoq chekkasida, traktor kabinasidan turib mushtini havoda silkitganicha, to'mog'ini yirtib baqirardi.

- Ketyapman-ku, axir, ketyapman! Ovozingni o'chirsang-chi! Odam degan begona qiz oldida shunchalik ham baqiradimi? – dedim g'azab bilan va ot ni choptirib ketdim.

Bochkadagi suv shalop-shulup chayqalib, sachrab, boshimdan oyog'imgacha shalabbo qildi. To'kil sa to'kilaversin, menga desa bir tomchisi ham qolmasin! Men bunday xo'rlikka ortiq chidayolmayman!

Abubakr kabinadan sakrab tushdi-da, yana o'tgan safargiday menga tashlandi. Men jilovni tortib, ot ni taqqa to'xtatdim-da:

- Agar sen shunaqa baqiraveradigan bo'lsang, ishni tashlayman-u ketaman, – dedim jahl bilan.

U kutilmaganda bu gapdan dovdirab qoldi, lekin hushtak chalib yubordi-da, yetti pushtim qolmay so'ka boshlad i.

- Sen lapashang akademiksiz ham Anorxoy bor edi, bundan keyin ham o't tushkur bu cho'l qurib ketmaydi! Yo'qol bu yerdan tezroq! Endi sen qolgan eding menga til tegizmagan, ishtonsiz talaba!

Men aravadan sakrab tushib, qamchini traktor orqasiga uloqtirib yubordim-da, odimlab ketdim.

- To'xta, Kamol! Unday qilma! Qayoqqa borasan, to'xta! – deb orqamdan qichqirdi Qalipa.

Bu gap meni battar qizishtirdi, qadamimni yana tezlashtirdim.

– To'xtatma uni, qo'yaver, qurib ketsin! – Abubakrning ovozi eshitildi orqamdan. – Usiz ham evini qilarmiz!

– Sen odam emassan, vahshiy hayvonsan, nima qilib qo'yding! – dashnom berardi unga Qalipa.

Ularning allavaqtgacha janjallashgani qulog'imga chalinib turdi.

Tobora oldinga intilib, qadamimni tezlashtirdim. Qayerga borishim – ahamiyatsiz. Atrofda tirik jon yo'q, to'rt tomonim qup-quruq dala. Buloqni, dala shiyponini orqada qoldirib, tosh haykal turgan tepalikni ham bosib o'tdim. Darg'azab bo'lib tirjayib turgan tosh kampir bo'm-bo'sh qolgan qop-qora va nursiz ko'zlar bilan meni kuzatib, uzoq asrlar davomida yerga qanday botib turgan bo'lsa, hozir ham shu taxlitda baqrayib turardi.

Men hech narsani o'ylamay ketib borardim. Faqat birgina istagim bor edi, u ham bo'lsa – ketish, iloji boricha bu yerdan tezroq ketish. Bu la'nati Anorxoy dashtini yelkamning chuquri ko'rsin.

Ko'z o'ngimda huvillab yotgan quruq cho'l. Barcha past-balandliklar, qir-u soylar, chor atrofdagi hamma narsa bir-biriga o'xshardi. Bu jonsiz, bir-biriga o'xhash manzarani kim yaratdi ekan? Nega tahqirlangan, xo'rangan men bu achchiq shuvoq-zor, sho'r bosib yotgan bepoyon kengliklarni kezib chiqishim kerak ekan? Qayoqqa nazar tashlama – qup-quruq, jonsiz biyobon, yaydoq dala. Bu yerda odamzod uchun nima bor? Uning yashashi uchun boshqa joy quriganmi? Ertalabki o'y-xayollarim endi menga juda kulgili bo'lib tuyildi.

Men o'zimning ojizligimni, boshpanasizligimni va tushkun ahvoldaligimni butun vujudim bilan his etib: «Mana senga yovshanzor go'zal dashtlar-u,

mana senga Anorxoy o'lkasi!» deb o'z-o'zimdan kulardim.

Tepamda osmoni falak, tevarak-atrofim cheksiz dasht, o'zim esa go'yo bu yerga allaqayerdan kelib qolganman-u, egnimdag'i qavilgan fufayka, oyog'imdag'i kirza etik va rangi o'chib ketgan shapkada mushtday odamga o'xshab ko'rillardim.

Shu holatda yo'lsiz ketaverdim. «Biror yerda temir yo'l iziga chiqib qolarman, – deb o'ylardim o'zimcha, – so'ng biron razyezdda yuk vagonlariga osilib olarman. Odamlar oldiga boraman...»

Ortimda tuyoqlarning dukur-dukuri-yu otlarning pishqirig'i eshitilganda ham hatto qayrilib qaramadim. Bu Sorokin. Undan boshqa odam bo'lishi mumkin emas. Hozir hoynahoy koyib beradi, so'ogra yalnadi, mayli, nima bo'lsa bo'lar! Lekin orqamga qaytmayman, qaytishni xayolimga ham keltirmayman.

– To'xta! – xitob qildi past ovoz bilan Sorokin.

Men to'xtadim. Sorokin terga botgan otida menga yaqinlashdi. Malla qoshlari ostidagi ko'm-ko'k, o'tkir ko'zлari bilan menga jimgina tikilib turdi-da, sumkasiga qo'l solib undan bir qizil qog'oz oldi – bu dashtga kelgan kunimoq, zo'r iftixor bilan unga topshirgan yo'llanmam edi.

– Ma, buni qoldirib ketish mumkin emas, – u yo'llanmani xotirjamlik bilan menga uzatdi.

Men uning boqishida na ta'na, na dashnomdan asar ko'rmadim, u meni ayblamasdi ham, achinmasdi ham. Bu qarash – mushkul ishlarni bajarib, har qanday tasodifiy qiyinchiliklarga ko'nib qolgan odamning jiddiy nigohi edi. Sorokin kafti bilan horg'in, soqol bosgan yuzlarini artib olarkan:

– Agar razyezdga bormoqchi bo'lsang, huv anavi soylik tomon o'ngroqqa qarab yur, – deb ko'rsatdi u menga va otini burib, sekingina orqasiga qaytib ketdi.

Men hayron bo'lib, uning orqasidan qarab qoldim. Nima uchun u meni urishmadi, nega bu yerda qolishga undamadi? Nega u boshini quyi solgan, ot ustida bunchalik horg'in o'tiribdi? Oilasi – xotin, bola-chaqalari allaqayoqlarda, uzoqda. O'zi bo'lsa bu yerda yil – o'n ikki oy cho'lni kezib yurgani-yurgan. U qanaqa odam o'zi, bo'm-bo'sh Anorxoyning nimasi qiziqtirarkin uni?

Nima sababdanligini o'zim ham bilmayman-u, biroq uning orqasidan asta-sekin ergashib bora-verdim.

Kechqurun biz hammamiz o'tovda to'planishdik. Hech kim churq etmasdi. O'rtaga sukunat cho'kkani, faqat gulkandagi o'tinlargina chars-chars yonardi. Buning hammasiga aybdor men edim. Hamon hech kim og'iz ochmadi. Lekin Sorokinning xafaqon va jiddiy chehrasida uning nimadir demoqchi ekanligi sezilib turardi.

– Xo'sh, endi nima qilamiz? – dedi Sorokin ni-hoyat hech kimga qaramay.

– Nima bo'pti, Anorxoyni sel bosibdimi? – dedi Abubakr zaharxanda qilib.

Shundan so'ng Sadabek ohista o'rnidan turib, jimgina o'tovdan chiqib ketdi. U Abubakr bilan bo'lgan mushtlashishdan so'ng u bilan gaplashmas, aftidan, hozir ham gapga aralashmoqchi emas edi. Uning uksasi, pritsepchi Esirkep ham o'rnidan turmoqchi bo'ldiyu, ammo fikridan qaytib, yana joyiga o'tirdi.

Abubakr u bilan ham chiqisha olmasdi. Bir kuni iltimosimga ko'ra Esirkep meni Sadabekning traktoriga biriktirilgan plugga o'tqazdi-da, o'zi suv tashiydigan aravaga chiqdi. Biroq u suvni biroz kechiktirib keltirgan ekan, Abubakr unga ham do'q uribdi. Ammo Esirkep o'zini haqoratlashga yo'l qo'y�abdi. U ham bellashadiganlardan. Axir u mendan uch yosh katta.

Abubakrning gapiga hech kim javob bermasdi.

- Bu yerda o'ylab o'tirishning nima hojati bor,
- qo'shimcha qildi u, - ishni kim to'xtatgan bo'lsa, o'sha javob beraversin.

- Gap kim haq-u kim nohaq ekanligida emas! - javob qildi Sorokin unga qaramay. - Bu yerda bir yosh yigitning taqdiri hal bo'lyapti, u endi nima qiliishi kerak?

- Taqdir emish! - g'ijindi Abubakr. - Bunaqa akademiklarning taqdiri allaqachon hal bo'lgan, bular bir pulga qimmat, qo'lidan ish kelmaydi! - mensimay qo'l siltadi u. - Xo'sh, o'zing o'ylab ko'r-chi, Sorokin, bular nimaga yaraydi? Biz o'z kuchimiz bilan g'alla yetishtirganimizda ular o'n yillab o'qib yurishdi. Biz ularni boqdik, kiyintirdik, xo'sh, nima natija chiqdi, mактабда bularga nimani о'rgatishdi? Mashinani bilishmasa, otga bo'yincha solishni eplay olmasa, hatto ayilni ham durustgina tortolmasa... Nega endi men uning uchun ter to'kishim kerak ekan. Uning olimligini boshimga uramanmi, tosh haykallarning sirini bilsa bilibdi-da, nima bo'pti? Qo'lidan biron ish kelmasa. Bas, shunday ekan, o'zgalarni ham ishdan qoldirmay, tuyog'ini shiqillatib jo'nab qolsin! Sen ham, Sorokin, menga yopishaverma, men yolg'iz o'zim smenachisiz ishlayapman, hech kimdan tap tortadigan joyim yo'q! Agar ortiqcha ko'rinyayotgan bo'lsam - ertagayoq bu yerdan ketishim mumkin. Ammo tilimni tiymayman: men bunaqa akademiklarni bir tiyinga olmayman!..

- Bas qil! - dedi Sorokin, hamon Abubakrning yuziga qaramay, uning so'zini cho'rt kesib. - Buni biz sensiz ham bilamiz. Gap bunda emas. Qani ayt-chi, Kamol, o'zing nima demoqchisan?

Men hadeganda javob qaytarolmadim. Abubakrning gaplarini tinglab o'tirib, uning so'zlarida ham jon borligini angladim. Ammo bu so'zlarning ham-

masi g'ayirlik va adovat bilan aytildi. Nega? Axir men qo'siz-oyoqsizmanmi yoki Abubakr qilgan ishni hech qachon qila olmaydigan, o'taketgan landurmanmi? Yoki savodliligim menga xalal beryaptimi? Men buni tushuna olmasdim. Biroq shunday bo'lsa ham, Sorokinning savoliga iloji boricha bamylixotir javob berishga urindim.

– Men bu yerga pritsepchi bo'lib ishlash uchun kelganman. Menga mana shunisi ahamiyatli. Egar-jabduqni bo'lsa uddalay olaman. Buni hamma biladi, hatto Abubakrning o'zi ham biladi. Bundan keyin ham xuddi shunday ishlayverishim mumkin edi. Ammo suv tashishni xohlamayman. Xohlamayman, vassalom!

– Bizda boshqa ish yo'q, – dedi Sorokin.  
– Demak, ketishim kerak ekan-da! – ta'kidladim.  
Qalipa menga qaradi-da, g'amgin xo'rsinib qo'ydi:  
– Kamol, men o'z o'rnimni senga berib, sening aravangda suv tashiyverardim-u, ammo sen bunga ko'nmayсан-da...

Bu kutilmagan gap bo'ldi. Qalipa o'zining rahmdilligidanmi yoki Abubakrning baqirib, so'kingan paytlarida xijolat tortib har vaqt nima bilandir uning qo'polligini yumshatishga va bilintirmaslikka harakat qilganidanmi, haytovur, shu so'zlarni aytishga jur'at etgandi. Men ham o'ylab-netib o'tirmay qiziq ustida:

– Ko'naman! – deb yubordim.  
O'tov suv sepganday jim bo'lib qoldi. Gulxandagi o'tinning chirs-chirs etib yonayotganigina eshitilardi.

Hamma hayron bo'lib menga qaradi. Balki meni, esi hushini yig'ib olib, so'zidan qaytar deb o'ylayotgandirlar? Shunday bo'lib chiqdiki, meni ko'rolmaydigan va menga hech qanday yaxshilikni ravo ko'rmaydigan kishi changaliga o'zimni o'zim tutib berdim. Lekin boshqa hech narsa demadim. Aytildi.

gan so'z – otilgan o'q. Sorokin menga yana bir si-novchan nazar tashladi-da:

– Shu gaping gapmi? – deb so'radi.

– Ha!

– Menga baribir! – dedi Abubakr va gulkanga tupoaldi. – Ammo oldindan aytib qo'yay: sal gap bo'lsa, kallangga tushiraman! – Uning mensimay istehzo va adovat bilan o'graygan ko'zlari qorong'ida sovuq chaqnadi.

– «Sal gap bo'lsa» deganing nimasi? Nega eldan burun do'q qilyapsan? – dedi hozirgacha o'zini tutib o'tirgan Esirkep ortiq chiday olmay. – Eplab ketadi, bu shunchalik mushkul ishmi, donishmandligingni qara-yu! U mening plugimda ishlagan.

– Sendan hech kim so'rayotgani yo'q, birovning ishiga aralashma. Hali ko'ramiz. Traktorga ham, ishga ham men javobgarman...

– Bas qil! – Sorokin yana norozilik ohangida Abu-bakrning so'zini bo'ldi va menga qarab:

– Ertadan ishga tush, – dedi-da, o'midan turib eshik tomon yurdi. – Xayr, endi dam olinglar.

O'sha kecha deyarli uxmlay olmadim. Abubakr bilan ishimiz qanday bo'larkin? Axir hozirgacha u bilan ahyon-ahyondagina uchrashardim, ertadan boshlab esa tun-kun uning ixtiyorida bo'lamani. Garchi pritsepchining vazifasi chidam va sabr-mattonatni talab qilsa ham, meni uncha cho'chitmasdi. Albatta, kerakli joylarda plug tishini ildam va aniq ko'tarib tushirishga ko'nkish kerak, toki, traktoring harakati biror daqiqa ham to'xtab qolmasin. Undan tashqari, men traktorchiga hamma ishda – mashinani yuvib artishda ham, ta'mirlashda ham yordamlashishim kerak. Qani, Abubakr so'ragan klyuchinimi, boltnimi, gaykasinimi yoki yana boshqa zarur narsalarini darhol tonib bermay ko'r-chi...

Keyin bilsam Aldey ham mijja qoqmabdi. U qorong'i kechada yonimga kelib o'tirdi-da, boshimni siladi:

– O'ylab ko'rsang bo'lardi, Kamol, sen u bilan chiqisha olmassan, oq ko'ngil, yuvoshginasan. Uning ko'nglidagini topa olmassan. U seni qiyinab qo'yar.

– Men uning ko'nglini topmoqchi emasman! Qiy-noqlariga bolsa ko'nikib qolganman.

– Mayli, ixtiyor o'zingda, o'zing bilasan, – dedi past tovush bilan va xo'rsinganicha o'z joyiga ketdi.

### **UCHINCHI BOB**

Abubakr bilan birinchi kundanoq to'qnasha boshladik.

– Uyqu elitib pritsep ostida qolsang, men javobgar emasman! – Abubakrning ish oldidan aytgan birdan-bir so'zi shu bo'ldi.

Biroq uplash xayolimga ham kelmasdi. Butun xayolim aniq va benuqson ishlash bilan band. Falokat bosib tishlar ostiga tushib ketish mumkin, de gan xayol bilan doim qiyalgandan ko'ra, yaxshisi, hoziroq bu ishdan bosh tortish ma'qul edi-yu...

Rama ustida ikki yoqqa kerishgan oyoqlarim tagidagi kronshteynlarga po'lat tishlar mahkam biriktirib qo'yilgan edi. Plug tishlari qo'riq yer qatlamlarining bug'lanib yotgan bag'rini birin-ketin tilib, ag'darib, yonma-yon qiyalab borishardi. Traktor yovshanlarni bosib-yanchib, tinimsiz gurillab, gildirak zanjirlarini shaldiratib shaxdam yurib borardi.

Abubakr orqasiga bir marta ham qayrilib qaramasdi, meni bormi-yo'qmi deb ham qiziqmasdi. Men faqat uning yo'g'on bo'ynini ko'rib turardim. Bu bilan go'yo u mening to ishni tashlab ketmagunimcha yoki sabr-toqatimga ishonch hosil qilmaguncha sinamoqchidek edi. Ehtimol, u meni holdan toydirib, bu ishdan voz kechtirish uchun traktorni tinimsiz quvib haydayotgandir. Hech qanaqa amortizatsiya-

si bo'lmagan qattiq temir kursida, chang-to'zon va motordan chiqayotgan gazdan nafasi bo'g'ilib o'tish naqadar maza ekanligini Abubakr yaxshi bila-di. Ammo men taslim bo'lishni o'yamasdim. G'oyat katta kuch bilan ishlayotgan asablar, ko'z-quloqlar va plut shturvalini mahkam ushlab olgan qo'llar – mening turish-turmushim shundan iborat. Ish davomida g'iq etmay o'tirdim, hatto jahl bilan traktorni toshloq yerlarga solib borganida ham, plug dam-badam jo'yaklardan sakrab chiqib ketib, tishlari chaqmoq toshlarga urilib, uchqunlar sachraganida ham, o'rindiq sakrab-sakrab ketganida ham g'ing demadim.

Kechqurun Abubakr traktorni ishdan to'xtatganda shunday charchagan edimki, umrimda bunchalik bo'lgan emasman. Og'iz-burnim, ko'z-quloqlarim – hammasi chang va qum bilan to'lgan edi. Mukka tushib, shu yerdayoq uxlasmag derdim. Lekin qimir etmay Abubakrning buyrug'ini kutib turdim.

– Lemexni ko'tar! – deb qichqirdi u kabinadan boshini chiqarib. O'zi esa traktorni shudgordan chiqardi-da, motorni o'chirib, plug yoniga keldi, egilgancha plug tishlarining damini ko'zdan kechirdi.

– Almashtirish kerak, o'tmaslashib qolibdi. Ertalabgacha tayyor bo'lzin! – dedi.

– Xo'p, – dedim men.

– Zaxira tishlarini qoldirib, plugdan traktorni ajrat.

Men uning talabini bajargach, jimgina shiypon tomon ketdi. Orqasidan qarab qolarkanman, uning xatti-harakatiga faqat achchiqlanibgina qolmay, unga hasad qilayotganimni sezdim. U go'yo sira charchamaganday, bamaylixotir, lapanglab ketib borardi. Mening-ku, albatta, jonimni oldi-ya. Biroq uning o'zi ham tinchimaydi, axir. Ishning ko'zini bilishini qarang-a, ablahnning!

Men bir xo'rsinib qo'ydim-da, o'tin-cho'plarni terib, quchoq-quchoq qilib plug yoniga uya boshladim. Tunda plug tishlarini almashtirish uchun gulxan yoqish kerak edi. Kattagina o'tin g'aramini tayyorlaganimdan keyin kechki ovqatga ketdim.

Naqadar mushfiq va mehribon bu Aldey! Menga olib qo'yan shilpildoqni indamay yer ekanman, uning menga ich-ichidan achinib qarab turganini ko'rsangiz edi. Bahuzur o'tirib ovqatlanishga vaqtim yo'q. Men undan har ehtimolga qarshi saqlab qo'yiladigan fonusni so'radim.

– Bu senga nima uchun kerak? – dedi u fonusni bera turib.

– Kerak, plug tishlarini almashtiraman.

– Axir, shu ham ish bo'ldimi, bu qanday gap! – deya baqirdi u Abubakrga qarab. – Bunga yo'l qo'ymayman! Mushtday bolani tahqirlashga haqing yo'q.

– Menga nima, qo'ymasang qo'yma, – qo'rslik bilan javob qaytardi Abubakr yota turib.

– Aralashma! – jerkib berdi xotinini Sadabek. – Kamolning ham o'ziga yarasha aqli bor.

– Hechqisi yo'q, Kamol, senga o'zimiz yordamlashamiz. Ketdik, Esirkep, – deya men bilan birga ketmoqchi bo'lib o'rnidan turdi Qalipa.

– Kerak emas, tashvishlanmanglar. O'zim uddalayman, – dedim-da, fonusni ko'tarib o'tovdan chiqib ketdim.

Atrofni sukunat, cheksiz zulmat qoplab olgan. Men suv ichib olayin deb buloq tomon qayrildim. U qorong'i, sokin chuqurlik ichida sekin-asta biqirlab qaynar va zulmat og'ushida yilt-yilt tovlanib atrofga salqinlik taratardi. Haqiqatan ham u bo'taloqning ko'zini eslatarkan, qo'qqisdan o'sha saqmonchi qiz esimga tushib qoldi. O'sha kezda uning ismini ham bilib ololmagan ekanman. Qayerda ekan hozir o'sha xushovoz gajakdor qiz?

Plug oldiga yetib kelgach, darhol ishga kirishdim. Tishlarni imkoni boricha yuqoriga ko'tarib, o't yoqa boshladim. Fonusning ham, albatta, foydasi tegdi. Gaykalarni burab bo'shatib oldim-da, yo'qotib qo'ymaslik uchun shapkamga solib qo'ydim. Butun tun bo'yi plug ostida yotib ishладим. Gaykalarni burab chiqarish juda mushkul, o'ng'aysiz edi. Ular qo'l bor-maydigan joylarga o'rnatilgan. Buning ustiga, gulxan ham dam-badam o'chib qolardi. Men plug ostidan o'rmalab chiqib, yotgan joyimda o'tni puflab yondirardim. Qancha vaqt o'tganini bilmayman, ammo hamma tishlarni almashtirib bo'lgunimcha tinmadim. Shundan so'ng ko'z o'ngim qorong'ilashganday bo'ldi, oyoqlarimni arang sudrab traktor oldiga yetib oldim-da, kabinaga kirib yotdim. Shilingan, tilingan, jonsiz qo'llarimdan olov chiqib, zirqirab og'rirdi.

Erta tongda meni Qalipa uyg'otdi. U suv tashuvchi aravada kelgandi.

– Radiatorga suv quyib bo'ldim. Kel yuvin, Kamol, qo'lingga suv quyib yuboraman, – dedi Qalipa.

U mendan hech narsani so'rab-surishtirib o'tirmadi, men ham uning bu ishidan minnatdor bo'ldim. Birovlarning rahmdilligi hamma vaqt ham yoqavermaydi. Yuz-qo'limni yuvib bo'lgach, Qalipa aravadan tugunchada ovqat va bir shisha kvas keltirdi. Qovurilgan dondan tayyorlangan nordon muzdek kvas juda lazzatli bo'lib, hovuringni chiqarib yuborardi. Bu, albatta, Aldeyning g'amxo'rligi edi.

Abubakr ham keldi. U hech narsa degani yo'q. Ishimdan biror nuqson topolmagach, nima ham deya olar edi. Jimgina borib traktorni plug oldiga haydab keldi. Men plugni tirkadim. So'ng yana ishga kirishdik.

Shu kundan boshlab plugni dadil boshqaradigan bo'ldim. O'zimga ishonch hosil qildim. Modomiki, birinchi sinovdan o'tdimmi, endi oxirigacha chidayman!

Qarshimda kabina derazachasidan hamon o'sha yo'g'on, chayir bo'yin ko'rini turardi. Traktor ham bir tekisda, shiddat bilan gurillab, olg'a bosmoqda. Bir maromda, shturvalga mahkam yopishganimcha ketyapman.

Peshinga kelib Abubakr kutilmaganda traktor motorini o'chirdi.

– Tush, tanaffus, – dedi u.

Biz traktor soyasida, yerda jimgina o'tirardik. Abubakr papirosni asabiy tishlab, chaynab chekardi, so'ng kombinezon va ko'ylagini yechdi-da, quyoshda toblanay deb kiyimlari ustiga yotdi. Uning yelkalari keng, muskullari tarang tortib turardi. Mening ham quyoshda toblangim kelib ketdi. Ko'ylagimni yerga yozib, endigina cho'zilmoqchi bo'lgan edim, Abubakr boshini ko'tarib menga xo'mrayib qaradi-da:

– Orqamni qashib qo'y, – deb buyurdi va go'yo men uning buyrug'ini darhol bajarishimni oldindan bilganday, zilday boshini qo'li ustiga qo'yib yotdi.

Men jim turaverdim.

– Eshityapsanmi, yo'qmi? – boshini ko'tarmay g'azab bilan yelkalarini silkitdi.

– Qashlamayman!

– Men aytdimmi, qashlaysan! – U o'rnidan dast turdi-da, qo'llarini beliga tirab oldimga keldi. – Xo'sh? Yana qancha kutishim kerak? – Men biroz orqaga tisarildim.

– Sen doim men ishchiman, men hammani boqa-yotibman, deb ko'kragingga urganing-urgan. Ammo sen faqat ishlayotganliging uchungina ishchisan, chin ko'nglingdan ishchi emassan. Sen aslida boy bo'lising kerak edi!

– Boy ham bo'sam bo'lardim! Lekin sen mening jahlimni chiqaraverma, – dedi-da, to'satdan burnim-ga bir chertdi.

Men sakrab turdim-da, musht ko'tarib unga hamla qildim. Abubakr xuddi shuni kutib turgan

edi. So'nggi kunlarda to'plangan butun nafratini mushtiga jamlab shunaqayam tushirdiki, soqqaday dumalab ketdim. Arang tizzamda turib, beixtiyor g'azab bilan yana Abubakrga tashlandim. Uning har zarbi meni oyoqdan qulatardi.

– Men senga musht qanaqa bo'lshini ko'rsatib qo'yaman! Asabga tegishni ham ko'rsatib qo'yaman! – dedi u cho'yanday mushti bilan ustma-ust tushirarkan.

Ammo men ham o'rnimdan qayta-qayta turib, ovoz chiqarmay jon-jahdim bilan unga yopishardim. Har gal yuzini – vahshiy basharasini mo'ljallab urmoqchi bolardim, lekin u qornimga, biqinimga, ko'kragimga aniq mo'ljal bilan tushirardi.

Men yana o'rnimdan turib, sekin unga yaqinlasha bordim. U qo'lini ko'tardi va xuddi qassoblarday tomoq qirib, qulochkashlab gardanimga yana bir musht tushirdi. Men churq etmay, lablarimni mahkam tishlab, yerda cho'zilib yotardim.

– Yotibsanmi, akademik? Qani, hidlab ko'r-chi, yerdan nimaning isi kelarkin! – dedi u og'ir nafas olib, yorilgan lablaridagi qonni tupurib tashlarkan.

– Bu sening tosh haykallar haqidagi leksiyang emas.

U oyoqlarimiz ostida toptalgan kiyimlari tomon ketdi va go'yo ishni qoyil qilganday, kiyimini qoqib, bamaylixotir kiya boshladi. Mening bu jangda ham g'olib chiqqanligimni sezmas edi. Ha, garchi men yer tishlab yotgan bo'lsam ham yengilmagan edim. Haqiqat uchun kuch, musht ishlatish ham mumkin ekanligiga ishondim. Kimki seni ursa, sen ham uni urishing mumkin va zarur ekan. Bu men uchun g'alaba edi.

Abubakr kombinezonini kiyguncha nafasimni rostlab o'zimga kelib oldim. U motorni yondirishi bilanoq sakrab o'rnimdan turdim-da, tezlik bilan kiyimlarimni kiydim. Plugga chiqib, o'z o'rnimga o'tirib oldim.

Traktor gurillab, shudgor bo'ylab yurib ketdi. O'sha beso'naqay chayir bo'yin kabina derazasidan hamon ko'riniq turar, men ham plug shturvaliga yopishgancha borardim.

### **TO'RTINCHI BOB**

Hayotimizda ba'zi o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Urug'lik tashish uchun bizga qo'sh oti bilan arava berishdi. Yana bir kishi ham keldi. Endi suv tashuvchi uchun ham ancha yengillik tug'ilgan edi. Sadabek bilan Esirkepning traktorlarini ekishga tayinlashdi, biz esa Abubakr bilan yer haydashda edik.

Yana bir juda muhim yangilik bo'ldi.

Bundan bir necha kun avval, tushki ovqatdan keyin aravada dalaga ketayotganimizda, men bu loq bo'yida saqmonchi qizni ko'rib qoldim. Aravadan sakrab tushdim.

Aravakash otlarni to'xtatmoqchi bo'lgandi-yu, lekin Abubakr qo'ymadidi:

– Haydayver, yo'lingdan qolma, – deb buyurdi u norozi ohangda.

Men qiz tomonga yugurdim, qo'ylarini o'z holiga qo'yib u ham menga peshvoz kelaverdi. Men yoniga yetmasdan to'xtadim, chunki ish boshlaguncha o'sha joyda bo'lish uchun aravaga yetib olishim kerak edi.

– Salom! – deb qichqirdim uzoqdan.

– Salom! – deb javob berdi qiz ham. Joyida to'xtab qoldi.

Uni ko'rib juda quvonib ketdim, lekin hadeganda biron gap aytishga jur'at etolmay turdim.

– Aravangiz qani, nega ko'rinxay ketdingiz? Hozir qayerdasiz? – deb so'radi qiz.

– Men hozir traktordaman! – deb qichqirdim g'urur bilan. – Biz hu-uv anavi daladamiz! Kechirasiz, men juda shoshilyapman.

– Choping, choping! – deb qo'lini silkitib qoldi u menga.

Aravaning ketidan Yugura ketdim. Orqamga bir qayrilib qarab qo'ydim. Qiz haligi joyda orqamdan qarab turardi. Arava to'xtamay ketib borardi. Qizning qo'l silkib xayrlashib qolganidan, buning ustiga, baho chog'i keng sahro qo'ynida yelib borayotganimdan o'zimni benihoya baxtiyor his etdim...

Ertasi kuni u biz ishlayotgan yerda paydo bo'lib qoldi. Yaqinginadagi tapaning ustida qo'y-qo'zilar ni boqib yurardi. Loaqlal biror daqiqaga bo'sha ham uning oldiga biram borgim kelardiki, lekin bu Abubakr deganining menga ruxsat berarmidi. Bunaqa ishlar uning qo'lidan kelmaydi. Bu haqda men undan iltimos ham qilmadim.

Kelgusi gal, qiz yana tepalikda paydo bo'lganida Abubakr bilan biz tirillab turgan traktor yonida edik. Abubakr motorning qayerinidir tekshirayotgandi.

– Nega bu qizcha tez-tez keladigan bo'lib qoldi? – deb so'radi u.

– Bilmadim.

– Oti nima uning?

– Bilmayman.

– Eh, akademik, – deb yerga tupurdi u. Keyin qiz tomonga qarab qo'ydi. – O'ziyam ajoyib narsa ko'ri nadi.

Men unga g'azab bilan qaradim.

– Bor, o'rningga o'tir! – deb baqirib berdi u. Biz ishga tushib ketdik.

Bu orada qiz tepalikda o'tlab yurgan qo'y-qo'zilar ni biz ishlayotgan joydan yuz metrcha nariroqdagi ochiq maydonga haydab tushdi. Qani endi uning oldiga chonib borsam-u, suhbatlashib, peshanasiga tushgan jingala sochlariga tikilib birpas o'tirsam...

Traktor to'satdan to'xtab qoldi. Abubakr kabinadan boshini chiqarib:

– Richagni bog'la! Bu yoqqa kel! – deb qichqirdi.

Men plug ustidan tushib, hayron bo'lgan holda uning oldiga keldim. U odatda ish paytida meni kabinaga yaqinlashtirmasdi.

– O'tir, – dedi o'z o'rnnini menga bo'shatib. – Haydashni o'rgan!

Men angrayib qoldim. Buni undan sira kutmagan edim. Abubakrga nima bo'ldi, nahotki, u meni yoqtirib qolgan bo'lsa? Nima bo'lsa ham, o'ylab o'tirmay, buyrug'ni bajarishga shaylandim.

– Pedalni bos. Ulagichni bura, ha, shunday. Endi pedalni sekin bo'shat. Richaglarni mahkam tut.

Traktor gurillab joyidan qo'zg'aldi. So'ngra mol qo'rasи yonboshidagi yerni hayday boshladik. Sevinganimdan terimga sig'may ketdim. Men hozir hech narsani o'yamasdim, olamdagи hamma narsani unutgandim. Xayolimda faqat bir narsa – traktori mahkam tutish, uni boshqarish, mexanizmlarini miridan sirigacha bilib olish orzusi hukmron edi. Men buni qachondan beri havas qilib yuraman, axir. Mana endi qudratli traktor mening qo'llarimga itoat qilib, g'ildiraklarini shaqirlatib, yerni o'pirgancha olg'a yurib bormoqda. Shunda o'zim ham go'yo mexanizmga aylanganman-u, butun diqqat-e'tiborim zarur harakatlarni bajarishga qaratilgan edi.

Mol qo'rasining etagiga yetganda traktorni yaxshigina bura boshladim. To'g'ri, pritsepchi bo'lma ganidan burilishda anchagina yer haydalaniilmay qoldi. Ammo bunga tashvishlanmasa ham bo'ladi: Anorxoyda yer oz munchami!

Shu tarzda dalani bir necha marta aylanib chiqdik. Endi yuragim uncha hovliqmay, o'zimni ancha erkin his qilardim.

– Qo'rqma, akademik! – deb baqirardi qulog'imga Abubakr. – Men birpasga bir yerga borib kelaman. Agar biron narsa bo'lsa motorni o'chir!..

U yurib borayotgan traktordan sakrab tushdi-da, ustidagi changni qoqib, saqmonchi qiz tomon yo'l oldi. Bu mahal qiz ancha yonginamizga kelib qolgan edi. Men shundagina Abubakrning niyatini sezdim. Ma'lum bo'lishicha, u meni kabinaga g'arazgo'ylik bilan o'tqazgan ekan.

Abubakr qizning yonida turib, u bilan bamaylixotir so'zlashardi. Unga nima tashvish... ish bo'lsa bajarilayapti, traktor yonida, biron narsa bo'lsa darhol yugurib kelishi mumkin.

Uning bu xatti-harakati menga yoqmadi. Lekin shunga qaramay, hozir mashinani boshqarayotganligimdan xursand edim. Kabinada turib qizga qo'l siltab, unga biron iliq gap aytishni istardim. Qani endi bu yerda Abubakr bo'lmasa! U qizga nimalar deyayotgan ekan? Qiz unga nimalar deb javob beryaptiykin? Qiz unga ehtiyot bilan muomala qilsa yaxshi bo'lardi.

Bir yarim soatcha, to qiz qo'ylarini haydab ketgunga qadar traktorni haydab turishga to'g'ri keldi. Abubakrning chehrasida uning ishi o'ngidan kelganligini bildiruvchi biron alomat sezmadim. Yo'q, uning basharasidan bema'ni takabburlik, hayvonlikdan boshqa hech narsani uqib bo'lmasdi.

– Joyingga bor, akademik, – deb yelkamga urdi va beso'naqay lablarini burib iljaydi.

Men hech narsa demay traktordan sakrab tushdim.

Bizning qizchamiz ertasi kuni ham keldi. Abubakr yana meni kabinada qoldirdi-da, o'zi o'sha tomonga qarab ketdi. Qiz kelmaganda ham ma'qul bo'lardi. Men traktorni tashlab keta olmayman. Lekin befarq ham qaray olmayman.

«Qanday qilib uni ogohlantirsam ekan? – deb o'ylardim men kabina ichidan ular tomonga tashvish bilan nazar tashlab. – Uning Abubakr bilan

uchrashuvi yaxshi emas. Ammo kishilarning bir-biri bilan so'zlashuvini qanday man etib bo'ladi? Har bir kishi kim bilan muomala qilayotganini o'zi yaxshi bilishi kerak...»

Bu gal qizcha tezda qaytib ketdi, bundan men behad xursand bo'ldim. U qo'y-qo'zilarini tobora tezroq haydab, orqasiga qaramay jadal ketib borardi. Men undan xayolan uzr so'rab, o'z-o'zimga der edim: «Kechir meni, azizim. Tez qaytib ketib yaxshi qilding. Biz yana diydor ko'rishamiz. Ikkinchi marta traktorda qolmayman, oldingga qanot bog'lab uchib boram, hozircha mayli, yo'lingdan qolma, kokilli suluv qiz... Men hatto ismingni ham bilmayman...»

Ammo mening kelgusi uchrashuv haqidagi umidim ro'yobga chiqmadi. Qiz boshqa ko'rinnadi.

Uni ikkimiz ham bir-birimizga bildirmay uch kun kutdik. Abubakr yanada qahrliroq va qo'polroq bo'lib qoldi. Endi menga ro'yi-rost nafrat bilan qaraydigan bo'ldi. Biroq men ham endi unga bo'lgan nafratimi ni yashirmsasdim. Uning o'sha kuni biron qo'pol gap bilan qizning izzat-nafsga tekkani aniq edi. Qizni allaqanday yovuz kuchdan himoya eta olmaganimdan o'zimni aybdor his qilardim. Men shunday qarorga keldim: iloji bo'lsa qizni tonib, u bilan hamma narsani yurakdan samimiy gaplashib olaman.

Ko'nglim ana shu uchrashuvni orziqib kutardi.

Ayni o'sha kunlari dalada yog'ingarchilikda qoldik. Yomg'ir to'satdan boshlanib, shiddat bilan yog'a boshladi.

Bu dashtning do'l aralash kuchli jalasi edi. Havo guldurab, yer yuzi ana-mana deguncha qaynab tur-gan pufakli ko'lmakchalar bilan qoplandi. Ammo Abubakr hamon traktorni to'xtatmas edi. U, aksinchacha, traktorni yana tezroq haydardi, orqasiga qayrilib ham qaramasdi, men bo'ssam do'l aralash jala ostida shumshayib o'tirardim.

Haydalgan yer qatlamlari yomg'irdan ko'pchib, endi avvalgiday plug tishlaridan ko'chib tushmasdi. Loy plugga, ramaning ustki qismlariga, mening oyoqlarimgacha chiqib ketgandi. Traktor g'ildiraklari yopishqoq loy bilan to'lib qolmaganda, Abubakr uni hali-beri to'xtatmasmidi ham.

Nihoyat, u motorni o'chirdi, kabinada yalpayganicha papiros cheka boshladи. Ehtimol, u meni ham kabinaga kiritishni iltimos qilib qolar deb o'ylayotgandir. Ammo menga endi baribir edi. Boshdan-oyoq shalabbo bo'lib iviganman. Plugdan tushmay, yomg'ir ostida kiyimlarimning loyini yuvib o'tiraverdim. Yomg'irdan saqlaydigan birdan-bir narsam – ayrim fikrlar yozilgan, o'qigan kitoblarimdan ba'zi kichik parchalar ko'chirilgan yon daftarcham edi. Men uni qo'njimga tiqib qo'ydim.

Yomg'ir to'xtadi, havo bir zumda charaqlab ochilib ketdi. Osmon saxiy bahor selidan yuvib-taralgan musaffo va go'zal dashtning davomiday tuyilar-di. Cheksiz Anorxoy dashtlari kishi ko'ziga poyonsiz, yanada yashnab ketganday ko'rinaldi. Osmon gumbazi bo'ylab Anorxoy uzra kamalak tortildi. U olamning u chekkasidan bu chekkasiga qadar cho'zilib, dunyodagi jamiki nafis bo'yoqlarni o'zida mujassamlashtirib, osmon-u falakda turar edi. Zavq-shavq bilan chor atrofga boqdim: bepoyon zumrad osmon, tovlanib turgan kamalak, kulrang yovshanzor dashtlik! Yer yuzi tezgina selgib borar, uning tepasida bir burgut ikki qanotini qimir etkizmay baland osmonda gir aylanib uchib borardi. Go'yo uning o'zi va qanotlari emas, balki yerning otash nafasi, uning kuydiruvchi harorati burgutni shu qadar yuksaklikka ko'targanday.

Shunda men o'zimni yana baquvvat his etdim, ruhim yanada tetiklashib, Anorxoy diyori haqida-gi orzu-o'ylarim tag'in jonlanib ketdi. Ha, endi men

shunday mavqeni egallagan edimki, endi hech kim orzularimning ro'yobga chiqishiga to'sqinlik qila olmasdi, Anorxoyning porloq kelajagiga bo'lgan ishonchimni hech kim so'ndira olmasdi. Men shoir emasman, biroq ba'zan shunday vaqtlar ham bo'lardiki, maktab devoriy gazetasida she'rlarim ham chiqib qolardi. Mana hozir ham etigim qo'njidan daftarchamni oldim, xayolimga kelgan laparnamo satrlarni darhol qog'ozga tushira boshladim:

*Qurday tepalari ortida yotar  
Qadam bosilmagan Anorxoy dashti.  
Qishda bo'ronlari dahshatli, xatar,  
Yozi otashnafas, olov taratar,  
Keng dashtli Anorxoy bu o'lka oti.  
Istiqboli porloq, ishongum unga –  
Bu kun uzoq emas, ha, yaqin juda!  
Anorxoy quchog'i to'lajak gulga!  
Yovshandan asar ham qolmaydi bunda.*

Men she'rimning chala, shirasiz chiqqanini o'ylamasdim. Ko'nglimni boshqa narsa xiralashtirayotgan edi: bu misralar qalbimda tug'yon urayotgan his-hayajonlarimning yuzdan birini ham ifodalay olmaydi. Orzu-istagim, quvonchlarimni ifoda eta oladigan noyob so'zlar qidirib boshim qotdi. Ammo shu payt birov qo'llimdan daftarchamni yulqib oldi. Men orqamga o'girilib qaradim.

- Ishqiy nomalar to'qiyapsanmi! – dedi Abubakr o'zini chetga olib, zaharxanda bilan. – Qizchani she'r bilan o'zingga rom qilmoqchimisan?..
- Ber bu yoqqa, birovning xatini o'qish yaxshi emas! – dedim.
- Yaxshimi, yomonmi – sen menga o'rgatma! O'zim bilaman. Yaqinlashma!
- Ha-ha, hali shunaqami! – Traktor yoniga chonib bordim-da, gayka klyuchni qo'llimga oldim.

– Hoy, hoy! – deb do‘q urdi Abubakr. – Ma, ola qol, topgan bisotingni. – U daftarchamni qaytarib berdi, birozdan so‘ng qah-qah urib kulib, butun dashtni boshiga ko‘tardi. – Anorxoy o‘lkasi emish! Ha-ha-ha! Juda ham ahmoqsan-e, akademik! Haqiqatan ham senga o‘xshaganlarni bu yerga haydab kelish kerak, toki, dunyoning past-balandini bilib olinglar!. O‘ylab topganini qara-ya: Anorxoy o‘lkasi emish! Xa-xa-xa! Hali u senga qanaqa o‘lka ekanligini ko‘rsatib qo‘yadi. Bu yerda bir qish ishlab ko‘r, o‘shanda boshqacharoq kuylay boshlaysan...

– Men qolish-qolmasligimni sendan so‘rab o‘tirmayman! Mening g‘amimni yemay qo‘ya qol, o‘zingni o‘yla!

– Nimani o‘ylar ekanman? – jahl aralash iljayib menga yaqinlashdi Abubakr. – Mening o‘z fikrim o‘zim bilan, men qayerda bo‘lsam ham haqimni ajratib ola-man. – U nariroqqa ketmoqchi edi-yu, lekin nimanidir eslab yana to‘xtab qoldi. Menga yuzma-yuz keldi-da, bo‘g‘iq ovoz bilan shunday dedi: – Sen, akademik, haligi qiz haqidagi xom xayollaringni miyangdan chiqar, umidvor bo‘lma... urib mayib qilaman!

– Buni hali o‘ylab ko‘ramiz.

– Yana takror aytyapman, uni xayolingga keltirma!

Qizishib ketgan, boshqalarga nafrat bilan qarashga o‘rganib qolgan, hozir es-hushini yo‘qotib qo‘ygan bu odamning ahvoliga achindim. Unga ohista dedim:

– Sen kap-katta odamsan. Ba’zan tuppa-tuzuk gaplarni aytasan. Ammo bunday gaplarni, af-tidan, tushunmasdan gapirasan, shekilli! Shuni unutmaginki, hech kim birovga o‘ylash, istash, orzu qilishni man eta olmaydi. Insonning hayvondan farqi ham ana shu fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishida.

So‘zlarim unga ta’sir etdimi, har qalay, indamay turdi. Faqat qovog‘ini osgancha traktor oldiga bordi-da, bor kuchi bilan ruchkani aylantirdi, motor darhol gurillab o‘t oldi. Yana ish boshlashimiz lozim edi...

Shu soatdan butun orzularim yana vujudimni chulg'ab oldi. Men ularni kurashda qo'lga kiritgandim, ular yana menga hamroh bo'ldi.

Kechqurun hamma yotishga tayyorgarlik ko'rayotganda men o'tovdan chiqib, buloq tomon yo'l oldim. Negadir o'sha tomon meni o'ziga tortardi, o'sha yerdan tanho bo'lishni istardim.

Osmon gumbazi yulduzlarga torlik qilib, ular ufdan yerga tomon siljiyotganday. Ko'pchiligi bosh ustida guj-guj bo'lib, hozir tubsiz bo'lib ko'rinishgan kulcha shaklidagi hovuzcha sathiga to'planishgan edi. Ular suvda jilvalanib, husni jamollarini ko'z-ko'z qilihardi. Ularni hovuchlab, laxcha cho'g'day qirg'oqqa senib yuborging keladi. Suvning shildirab oqayotgan joyida ular ham suv bilan birga oqib, mayda toshchala larga aralashib, marvarid donalari singari tovlanardi. Suvning sokin, o'ychan oqqan joylarida esa yulduzlar osmondagi kabi porlab turardi. Xayolimdan shunday fikrni o'tkazdim: dashtdag'i chashma ba'zi ko'ngli ochiq va orzu-istaklar bilan to'lib-toshgan, go'yo butun olamni o'zida mujassamlashtirgan insonning ruhiy holatini eslatar ekan.

Men buloq bo'yida o'tirib, tungi sokin dashtni tomosha qildim, uni butun vujudim bilan his etdim, xayolan qayta tasavvur etdim. Bu shirin xayollarimi ni kimga aytay, kimga izhor etay? Izohlashim qiyin-u, ammo sochi peshanasiga tushib turgan, nomi noma'lum qiz menga xuddi ana shu odamday tuyillardi. Faqat o'shagina ko'nglimdagini tushuna olar, faqat o'shagina his-hayajonlarimga sherik bo'la bilardi. Ehtimol, buning siri bizning birinchi marta shu buloq bo'yida uchrashganimizda va unga Bo'tako'z deb nom qo'ygan kezlarimizda paydo bo'lgandir.

Qayerda ekan hozir, mening xayolim u bilan band ekanligini bilarmikin? Yaqinda yerni haydab bo'lamiz, shunda men uni izlab topaman, bu yerga, bu-

loq bo'yiga olib kelib, Anorxoy o'lkasi haqida hikoya qilib beraman. She'r bilan emas, yo'q, masxara qilmas, tag'in. Anorxoy cho'lining kelajagini o'zimcha qanday tasavvur etgan bo'sam, shundayligicha so'zlab beraman.

Bu yerdan ketayotib yana yulduzlar to'la osmonga suqlanib qaradim. Nimayiki ko'rsam, ko'zlarim quvonchga to'lardi. Ammo shu mahal tepalik ustida xotin kishining avvalgidek beo'xshov va nursiz tosh haykali ko'rindi. Nazarimda, u hozir ham atrofdagi hamma narsalardan bexabar, oqib tushgan nursiz ko'zini qisib, olislarga ruhsiz boqib turardi.

Oy ham chiqdi, men haydalgan yerning narigi tomonida sekin jilib kelayotgan ikkita sharpani sezib qoldim. Bu kiyiklar edi. Qayoqqa ketishayotganim? Ehtimol, suv ichgani kelishayotgandir. Kiyiklar haydalgan yerning chekkasiga kelib, neft va temir hidi anqib turgan shudgorga o'tishga jur'at etolmay, taqqa to'xtab qolishdi. Ular kumushrang tovlangan oy nurida shu bo'yicha qimir etmay uzoq turishdi. Shoxlari tarvaqaylab ketgani erkak kiyik, yag'ri ni pastrog'i urg'ochi kiyik, oydinda ikkalasining ham katta-katta ko'zları yaltirab turardi. Yengil boshlarini sergaklik bilan yuqori ko'tarib, bir-birining pinjiga kirib turishardi. Ular shu tarzda uzoq qotib turdlilar. Kiyiklarning bu turishi: dashtlikka nima bo'ldi, eski so'qmoq yo'llar qayoqqa yo'qoldi, qanday kuch bu yerkarni ag'dar-to'ntar qilib tashladiykin, deyotganday edi.

Ular haydalgan yerdan o'tishga jur'at etisholmadi. Orqaga qaytishdi, xipcha bellarida oyning kumush shu'lesi xiyol aks etib turardi.

Ular bemalol uzoqlashsin deb, yana biroz o'tirdim. So'ng o'tovga qaytib kelib, qorong'ida o'z joyimni paypaslab topdim-da, allamahalgacha uxlayolmay cho'zilib yotdim.

Shu payt qulog'imga pichirlagan ovoz eshitilib qoldi. Abubakr bilan Qalipa birga yotishgandi. Ehtimol, ilgarilari ham shunday bo'lgandir, biroq men buni bilmassdim. Qalipa entikib yig'lar, allanarsalarni gapirar edi. Lekin men nimaligini tushuna olmadim.

– Bo'ldi, bas endi, yetar, – dedi Abubakr uyqu aralash, – shaharga borsak, hammasini to'g'rilaymiz. Bir-ikki kun yotasan-u... Bekorga qayg'urishning nima keragi bor.

Qalipa alam bilan javob qaytardi:

– Buning uchun tashvishlanayotganim yo'q. O'zimdan nafratlanaman, nega men senday bir odamni sevib qolgan ekanman. Nimangga uchdim sening, hayronman. Koshki sen odamlarga biror yaxshilik qilgan bo'sang. Nima bo'lib senga bir itday yopishib qolganimni bilmayman.

– Pushaymon qilmaysan, ish tugagach, seni darhol olib ketaman.

– Yo'q, pushaymon qilaman, umr bo'yи pushaymon qilib o'taman. Lekin nima bo'lsa ham ketaman. Yolg'iz qolishni istamayman...

– Sekinroq gapirsang-chi! Yaqinroq yot, ha, allaqachonoq shunday qilishing kerak edi, butun yostiqni ho'l qilib tashlaganingni qara.

Men boshimni burkab oldim. Dilimni siyoh qiluvchi bu gaplarni eshitmaslik uchun tezroq uxlab qol-gim keldi.

## BESHINCHI BOB

Quyosh kun sayin qizdirayotgan edi. Sorokin teztez qatnaydigan bo'lib qoldi. Sur'atni oshirish zarur edi. Vaqt qistalang, tuproq esa tobora qurib boryapti. Biz yana besh kuncha yer haydashimiz kerak. Ekuvchilarning ham shuncha kunlik ishi qolgan.

Sorokinning aytishicha, kuzdan boshlab bu yerlarni shudgor qila boshlaymiz, kelasi yil esa bu

yerga juda ko'p traktorlar keltirilib, maxsus RTS tashkil etiladi. Sorokin hamma ishni reja bilan olib borardi. U har kuni cho'lni, undagi jarlik, soyliklar-u pastqam yerlarni aylanib yurardi. Dashtni shunchaki bilibgina qolmay, uning har bir qarichi-gacha o'rganib olgan, bu yerlarning hammasi uning miyasida o'rashib qolganday edi.

Endi Anorxoyda qish qattiq kelgan paytlarda, ilgarigiday mashina va samolyotlarda yem-xashak tashib yurmaslik kerak. Sorokin buning ham ilojini topadi.

Biz Abubakr bilan yarim kechagacha yer haydaymiz. Dalada tunab, tong otishi bilan yana ishga kirishamiz. Ish shu qadar og'irki, Abubakr menga tegajaklik ham qilmay qo'ydi. Xuddi u meni ko'rmayotganday, e'tibor ham bermasdi. Ammo yashirin adovati xo'mraygan ko'zlaridan sezilib turardi. Bu endi mening uchun xavfli emas. Men o'z ishimni qilib, o'z orzu-umidlarim bilan yashayman. Tepalik ostidagi soylikka, cho'ponlar oldiga boradigan va u yerda jingala sochli qizchani izlab topadigan kunning kelishini orziqib kutardim.

O'sha kunlarda biz yangi bir katta maydonni haydashga kirishgan edik. O'z ishingdan qanoatlangsang, ko'nglingga yoqqan ish bilan band bo'lsang, biror yangilikka qadam qo'yish doim maroqli bo'ladi. Maktabda o'qib yurgan kezlarimda ham daftarning yangi sahifasidan yozishni yaxshi ko'rardim. Ertalab hali hech kim yurmagan qor ustidan chonib yurishni, birinchi bo'lib iz qoldirishni sevardim. Bahorda hali hech kim yurmagan tog' yon bag'irlariga chiqib, ilk bor ochilgan lolalarni terishga oshiqardim. Bunda kishiga huzur bag'ishlaydigan, o'ziga maftun etadigan qandaydir sir bor. Bepoyon Anorxoy dashtida, hozirgacha inson qadami yetmagan yerda yangi iz qoldirish mening uchun dastlabki satrdek, hali iz

tushmagan oppoq qordek, qo‘l urilmagan loladek tuyilardi.

Rama ustida turib olib, plug tishlarining oyog‘im ostidagi birinchi jo‘yaklar hosil qilishini zavqlanib tomosha qilaman. Ko‘zni qamashtiradigan yaltiroq tishlar sira tinim bilmay yer bag‘rini tilib, qatlamlarni sekin-asta ag‘darib boradi.

Chekkadagi plug tishi ostidan go‘yo to‘lqinlar ustida baliq o‘ynoqlayotganday, nimadir to‘satdan yalt etib ketdi. Tishning yaltiroq yuzida o‘t bo‘lib yondi va darhol egat orasida g‘oyib bo‘ldi. Men shu zahoti plugdan sakrab tushdim-da, o‘zimni o‘sha joyga otdim, tuproq ostidan cho‘ziq shakldagi og‘ir metall parchasini oldim. Bu shunchalik go‘zal narsa edi-ki, hayajonlanganimdan qo‘llarimni yozib qichqirib yubordim:

– Oltin!

Ovozimni eshitgan Abubakr menga qayrilib qaradi va traktorni to‘xtata solib yerga sakrab tushdi.

– Nima topding?

– Oltin! Qaragin, Abubakr, oltin!

U men tomon avval sekin-asta, so‘ng birdan shoshib yura boshladi. Men bu oltin rangli chiroyli narsani kaftimda tutib unga uzatdim.

– Qani! Nahotki, oltin bo‘lsa! – deb, men uzatgan narsani qo‘liga oldi va u yoq-bu yog‘ini ko‘rib, yengi bilan artdi. – He, bu yerda oltin nima qilsin, – dedi bo‘g‘iq ovoz bilan. Keyin kutilmaganda rangi o‘chib ketdi, – oltin bo‘lishi mumkin emas, – Abubakr metall parchasidagi loylarni tirnog‘i bilan tushirib, zo‘rma-zo‘raki iljaydi. Ko‘zlarimga boqmay istar-is-tamas metallni menga uzatdi.

– Nega, oltin bo‘lmas ekan! – dedim jahl bilan. – Buning og‘rligini ko‘r, 800 grammcha keladi. XII asrda bu yerlarda mo‘g‘ullar yashagan. Ular bu yerga kelishdan oldin Xitoyni zabit etib, ko‘plab oltin

olib chiqib ketganlar. Ehtimol, bu ham ana shu tarzda bu yerlarga kelib qolgandir. – Men bu gaplarni topgan narsam haqiqatan ham oltin ekanligini tasdiqlash uchun aytdim. Ana shu ishonch bilan mast bo'lib, xom xayolimni davom ettirdim. O'zimni ham, hayratda qolgan Abubakrni ham so'zlarimning to'g'riligiga ishontirmoqchi bo'ldim. – Bilasanmi, bu narsa necha asrlardan beri yer ostida yotibdi? Bo'lak metall bo'lsa allaqachon zanglab ketardi. Bu esa zanglamagan, haqiqiy oltin. Bir vaqtlar bu yerda Anorxoy ko'chmanchi qabilalari o'zaro jang qilganganlar. Bu yerlarda qanaqa janglar bo'lganini bilsang edi! Bu narsa o'sha zamонлардаги xonlar qilichining dastasi bo'lsa ehtimol. Mana, o'zing ham ushlab ko'r, ushslash uchun qanday qulay.

Abubakr parchani olib, qo'lida salmoqlab ko'rdi.

– Oltin bo'lmasa ham, qiziqchilik uchun biladigan kishilarga ko'rsatish kerak, – dedi-da, uni cho'ntagiga solib qo'ydi. – Yana sen buni plugdan tushirib qo'yma, menda tursin.

– Ha, mayli, – rozi bo'ldim men.

Abubakr og'irlashgan cho'ntagini ushlaganicha traktor tomon ketdi.

Biz yana ishni davom ettirdik. Men topgan narsamni qanday qilib o'qituvchim Oldiyorovga esdalik uchun yetkazishni o'ylardim. Unda bunaqangi buyumlar ko'p. Topgan buyumimni ko'rsa u, albatta, biror qiziq narsani hikoya qilib berar edi. Keyinchalik men charchab qolib, oltinimni unutdim. Traktorning bezovta harakati meni juda ezib qo'ydi: hozir Abubakr mashinani juda g'alati haydayotgandi. Goh ikkilanganday sekin yurgizar, goh motorni qattiq gurillatib shiddat bilan haydar edi. Traktorning trubasidan burqsib chiqqan qora tutun haydalgan yerga nim rang bo'lib yoyilar edi.

Biz kechgacha shu holda ishladi. Quyosh botgan bo'lsa-da, dala yorug' edi. Abubakr kabinadan

bir necha bor bosh chiqarib, menga allaqanday sirli qarab qo'ydi. Mana, u traktorni ham to'xtatdi.

– Bu yoqqa kel! – deb qo'l silkidi u.

Men kabinaga chiqdim. Abubakrning rangi-ro'yi o'chib, ko'zlar sarosimalik bilan chor atrofga alang-lardi. U peshanasidagi terlarni artib, motor ovozi aralash shunday dedi:

– Qichqiray desam ovozim yetmasdi, sen bor, ri-chaglarni o'rnatgin-da, keyin traktorni biroz o'zing hayda. Tobim qochib turibdi, negadir mazam yo'q. Sof havoda aylanib kelay-chi, zora tuzalib qolsam...

– Bor, boraver, – dedim men.

Plug oldiga borib qaytib kelgunimcha Abubakr traktordan tushdi. U rangi oqarib, birdaniga o'zgarib ketgan edi. Ikki bukchayganicha asta qadam tashlab, indamay bir chekkaga qarab yo'l oldi.

«Ha, u qattiq kasal bo'lib qolganga o'xshaydi. Ehtimol qorni og'riyotgandir, ana, qornini ushlagancha bukchayib ketyapti», – dedim ko'nglimda va traktorni haydab ketdim.

Traktor bir tekisda jadallab yurib ketdi. U yana mening ixtiyorimda edi. Har galgidek hayajonlanib, mashinani to'g'ri haydashga intilaman. Kartanning u burchiga yetib traktorni burdim-da, orqanga qaytdim. Qosh qorayib, sovuq tusha boshlagan edi. Oldinga diqqat bilan qarab: «Yana ikki marta aylangach, traktorning chiroqlarini yoqaman», deb ko'nglimdan o'tkazdim. Oldimda, tepalikning yon bag'rida kimdir tez-tez qadam tashlab uzoqlashib borardi. Keyin u pastga chonib tushib, ko'zdan g'o-yib bo'ldi. Men uning yelkasininga ko'rib qoldim. Bu Abubakr edi. Unga nima bo'ldi? Qayoqqa yugurib ketdi u? Ehtimol, biror narsa ko'rib qolgandir. Dalaning o'rtasiga borib kabinadan boshimni chiqargan holda bir daqiqa qarab turdim, ammo Abubakr ko'rinnadi. U qayoqqa ketdiykin? Axir, u kasal edi-

ku! Qiziq. Traktorni to'xtatdim-da, motorni sekin yurgizib qo'ydim.

– Abubakr! Hoy, Abubaki-i-ir! – deb qichqirdim.

Undan sado chiqmadi. Shundan keyin ovozim baralla eshitilsin deb motorni butunlay o'chirib qo'ydim.

– Abubaki-ir-ir! Qayerga ketding, javob ber! – deb qichqirdim cho'lga qarab.

Lekin oqshom qo'ynida keng dala sukut saqlardi.

Uning ahvoli og'irlashib qolgan bo'lsa-chi? Xayolimda u g'ujanak bo'lib to'lg'anib, qaddini rostlay olmay, yerda yumalab yotganday edi. Traktordan sakrab tushdim-da, kuchim boricha chonib ketdim. Tepalikdan oshib tushib u yoq bu yoqqa qaradim. Hech kim ko'rinnasdi. Bir baland tepalik ustiga chiqib qarasam tekis dalada ketib borayotgan Abubakr ko'riniqoldi. U ancha uzoqlashib ketgan edi.

– Abubaki-ir-ir! Qayoqqa ketyapsan? – deb qichqirardim.

Biroq u orqasiga qayrilib qaramadi, ko'p o'tmay esa xuddi yer yutganday ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Men yana biroz turdim-da, ma'yusgina orqamga qaytdim. Ufq shu'lasining so'nggi tig'lari ko'kda zaif jilvalanardi. Dasht sahnini qorong'ilik qopladi.

Iztirobga tushib, parishonxotir yurib borardim. Bu sukunat menga birdan g'alati bo'lib tuyildi. Go'yo dasht mening qadam tashlashlarimga, fikr-u o'ylarimga qulq solib turganday edi. Men Abubakrni o'ylardim. Bu o'lkada o'tmishda bo'lgan voqealarni gapirganimda Abubakr meni masxara qilar, gaplarimga ishonmasdi. Endi bo'lsa bu la'nati oltin haqida qayoqdagi gaplarni gapirsam ham hang-u mang bo'lib qoldi... Yo'q, bunday kishilar hushini yo'qotmaydi! Aslida u allaqachonlardan beri bir yomon fikrda yurgan ekan chog'i. Bu haqda ba'zan gapirib, Sorokinni qo'rqiitmoqchi ham bo'lardi. U bu

yerdagilarning hammasini yomon ko'rardi. Hamma bilan bir-bir urishib chiqqan. Xo'sh, Qalipa-chi? Abubakr hammadan ham ko'ra undan tezroq qutulishni o'ylardi. Bu homilador xotinning ishqini Abu-bakr boshiga urarmidi. Maoshini ham kutib yurgan ekan, shekilli. Kechagina maosh oldi, yonida katta pul; u hech qachon pulini o'tovda qoldirmay, doim o'zi bilan birga olib yurardi. Demak, u biroz pul to'plagan, buning ustiga, men topgan narsa oltin bo'lib chiqsami... Xayolimni Qalipaning ovozi bo'ldi:

– Abubaki-i-i-ir! Qayoqdasizlar!

Tunda ishlashimiz uchun u bidonlarda suv keltir-gandi.

– Qayoqqa ketib qoldinglar? – Qalipa meni tashvishlanib qarshi oldi. – Yuragimni vahima bosib ketdi! Senlarni kutyapman-kutyapman, traktor turibdi-yu, daraklaring yo'q!

Men unga nima ham der edim. Gapning rostini aytdim-qo'ydim:

– Abubakr ishni tashlab ketib goldi.

– A... Nega? Nima uchun? – duduqlanib so'radi Qalipa.

– Bilmadim.

Unga oltin haqida og'iz ochmadim. Abubakrning bu ishidan uyalib ketgan edim.

– Demak, ketibdi-da?.. – Qalipa biroz jim turdi-da, so'ng aravadan bidonni shiddat bilan ko'tarib zo'rg'a yerga tushirdi.

– Bu suvni nega olib yuribman-a? – dedi dovdiragancha o'ziga o'zi.

Men bidonni ko'tarib, radiator yoniga olib bordim. Qalipa esa kabinaga yuzini qo'yib achchiq-achchiq yig'ladi.

Ko'nglim buzilib ketdi. Uni qanday qilib yupatishni bilmadim.

– Balki qaytib kelar, – dedim o'z gapimga o'zim ham ishonmay.

– Men uning uchun yig'layotganim yo'q, – dedi u o'pkasi to'lib, ko'z yoshlari bilan yuvilgan yuzini men ga o'girib. – Ishonardim, orzu qilardim! Lekin kimga ishonib yurgan ekanman? Nimani orzu qilib yurgan ekanman? – deya to'satdan fig'on ko'tardi, dardli ovozining aks sadosi butun dashtni qopladi. – Ishchan yigit, deb o'ylovdim, badfe'lligi bora-bora yo'qolib ketar, deb o'ylagandim. Yaxshilik bilan, mehr-muhabbat bilan uning qalbini yumshatmoqchi bo'luvdim. U bo'lsa hech narsani tushunishni istamadi. Qanday kelgan bo'lsa, shundayicha g'oyib bo'ldi. Alam qiladi odamga, bilsang edi, shunday alam qiladiki!

Men ma'yus va garang bo'lgan holda jim turardim. Qalipaning ahvoliga juda achindim. U qanday qilib mana shunday odamni sevib qolganligini tushuna olmasdim... Ammo Abubakr bugun Qalipani tashlab ketib, haqiqiy baxtdan ajralganligini bilsa edi, unda Qalipa emas, balki uning o'zi qish bo'ronida qolgan bo'riday bo'kirib yig'lardi.

Qalipa aravaga o'tirdi-da, xomushgina qaytib ketdi.

Anorxoy dashti jimgina uxbab yotardi. Uzoq-uzoqlardan parovoz gudogi yovshan butalari uzra arang yetib kelardi. Ehtimol, Abubakr yuk poyezdiga osilib ketayotgandir. Ketaver, ablah, sening yo'ling o'sha yoqda! Anorxoy sensiz ham turaveradi, sensiz ham ishimizni bajaraveramiz.

Uni boshqa eslashni istamasdim. Ishga kirishish kerak. Men motorni yondirish uchun ancha urindim. Keyin kabinaga o'tirdim, chiroqlarni yoqib yubordim. Endi hamma ish uchun o'zim javobgarman. Qani endi o'sha dilbar qiz hozir yonimda bo'lsa-yu, bu yovvoyi yovshanzor dasht ajoyib Anorxoy o'lkasi-ga aylanajagini hikoya qilib bersam.

1961-yil

## **MUNDARIJA**

OQ KEMA .....	3
BIRINCHI MUALLIM.....	165
SARVQOMAT DILBARIM .....	235
BO'TAKO'Z.....	385

*Adabiy-badiiy nashr*

CHINGIZ AYTMATOV

OQ KEMA

*Qissalar*

Muharrir

Ma'mura QUTLIYEVA

Badiiy muharrir  
Sunnat MUSAMEDOV

Musahhih

Sadoqat QARSHIBOYEVA

Sahifalovchi

Ozoda BOTIROVA

Texnik muharrir  
Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014 yil 02.10.da berilgan.

Bosishga 2017-yil 13.06.da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tabog'i 13,5. Shartli bosma tabog'i 22,68.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'oz.

Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 117.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlod» NMMda tayyorlandi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

***Murojaat uchun telefonlar:***

Nashr bo'limi – 147-00-14; 129-09-72;

Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87; faks – 273-00-14;

e-mail: yangiasravlod@mail.ru



«KAMOLOT»  
KUTUBXONASI

## Chingiz Aytmatov (1928–2008)

Qirg'iz yozuvchisi, davlat va jamoat arbobi, diplomat. Qirg'iziston xalq yozuvchisi (1968). Qirg'iziston Fanlar Akademiyasi akademigi (1974).

1928-yilda tug'ilgan. Qirg'iziston Qishloq xo'jaligi institutini tamomlagan (1953). Asarlarini qirg'iz va rus tillarida yozgan.

Ilk hikoyalari 1950-yillarda nashr etilgan. «Baydamtol sohilalarida» (1955), «Yuzma-yuz» (1957) asarlari o'tkir syujet, kuchli ichki ruhiy ziddiyatlarga boy. «Jamila» (1958), «Sarvqomat dilbarim» (1961), «Bo'tako'z», «Birinchi muallim» (1962), «Momo yer», «Somon yo'li» (1963), «Alvido, Gulsari» (1966), «Oq kema», «Asrni qaritgan kun» (1980), «Qiyomat» (1986) kabi asarlarida insoniy tuyg'ular tarannumi yuksak mahorat bilan ochib berilgan.

Aytmatovning asarlari jahoning 154 tiliga tarjima qilinib, 20 milliondan ortiq nusxada chop etilgan. «Sarvqomat dilbarim», «Bo'tako'z», «Birinchi muallim», «Jamila», «Alvido, Gulsari» kabi asarlari o'zbek tilida nashr etilgan va o'quvchilari qalbidan chuqur joy olgan.

Chingiz Aytmatov O'zbekiston Respublikasining «Do'stlik» (1995), «Buyuk xizmatlari uchun» (1998) ordenlari bilan mukofotlangan.

Qirg'iziston Respublikasida Xalqaro Chingiz Aytmatov nomidagi «Oltin medal» mukofoti ta'sis etilgan (1999).

Adib 2008-yilda vafot etgan.

ISBN 978-9943-20-239-9



9 789943 202399



YANGI ASR AVLODI